

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

ADABIYOT

(Majmua)

*Akademik litseylarning uchinchi bosqich
o'quvchilari uchun*

Ikkinchi nashri

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2010*

BBK 83.3(5Y)

A 29

*Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi oʻquv metodik
birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
Kengash nashrga tavsiya etgan*

Tuzuvchilar:

Boqijon Toʻxliyev — filologiya fanlari doktori, professor,

Tohir Shermurodov — filologiya fanlari nomzodi,

Shoira Isayeva — filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Abdugʻofur Rasulov — filologiya fanlari doktori, professor,

Eshmuhammad Qodirov — filologiya fanlari nomzodi


Ushbu «Adabiyot» majmuasi akademik litseylarning uchinchi bosqich oʻquvchilari uchun moʻljallangan boʻlib, oʻzbek adabiyotining XX asr boshlaridan hozirgi kunga qadar boʻlgan davri namunalarini oʻz ichiga oladi. Majmuada oʻquv dasturi qamrovidagi ijodkoplarning asarlaridan va muhim badiiy parchalardan tashqari mustaqil oʻqish uchun qator nasriy, sheʼriy namunalar berilgan.

A $\frac{0301080000-66}{360/04/-2010}$ – 2010

ISBN 978-9943-05-095-2

© Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007-y.

© Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-y.



AZIZ O'QUVCHILAR!

O'zbek xalqining naqadar boy adabiy merosga ega ekanligini ko'p bor his etgansiz. Adabiyotni davrlashtirib o'rganishning ham nechog'lik shartli va nisbiy ekanligini, hatto muayyan bir asrda bitilgan eng yaxshi badiiy namunalarni saralab, yagona mukammal kitobga sig'dirib bo'lmasligini ham yaxshi bilasiz.

Sizga havola qilinayotgan majmua XX asr boshlaridan hozirgi istiqloq yillarigacha bo'lgan o'zbek so'z san'atining qator namoyandalari ijodlari namunalaridan tuzilgan. Majmuaning maqsadi yaqin kechmishdagi va bugungi adabiyotimizdagi yutuqlar bilan imkon qadar tanishuvimizga, o'zimizda doimiy, izchil mutolaa ko'nikmasini tarbiyalashga, xalqning ilg'or tafakkur tarzini, tuyg'ularining beg'uborlik, jozibadorlik darajasini idrok-mushohada etmog'imizga qaratilgan.

Ma'naviy yetuklik va dunyoqarash komilligining muhim bir omili, shubhasiz, barkamol, betakror adabiy ijod asarlaridir. Ular yashashning ma'no-mohiyati, ezgulik va adolatning afzalliklari, ilmu ma'rifat, mehr-muhabbatdan ma'rifiy saboqlar beribgina qolmay, ma'lum davrlardagi xalqimiz hayotining o'ziga xos tarixiy manzaralari ifodasi orqali ibratli g'oyalarga ham bizni hamnafas etadi.

Majmua qamrovidagi davrda Behbudiy, Avloniy, Avaz O'tar, So'fizoda, Fitrat, Hamza, Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Shayxzoda, Asqad Muxtor, Zulfiya, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari o'nlab benazir iste'dod egalari ijodlari bor.

Adiblarning har biriga qisqa, umumlashgan ta'riflar berilib, keng kitobxonlar ommasiga manzur asarlaridan namunalar keltirildi.

Tamoyillari, salohiyat ko‘lami yanada rang-barang bo‘lganligi, bizga aynan zamondoshligi tufayli kitobxonlikka muhabbatni uyg‘otguvchi birlamchi vosita sifatida qaralib, hozirgi zamon o‘zbek nasri va she‘riyatining namunalari ham o‘zga adabiyot majmualaridan farqli ravishda, kengroq o‘rin ajratildi.

Majmua dastur asosidagi adabiyot darslari mobaynida adabiy namunalarning bevosita o‘zi bilan, ulardan olingan muhim parchalar bilan tanishuvga ko‘maklashadi, o‘rganilayotgan yoki kuzatilayotgan davrga mansub ijodlarning boshqa asarlarini ham mustaqil topib, to‘liq, chuqur mutolaa qilishga chorlaydi.

Badiiy adabiyotni chinakamiga yaxshi bilish hamisha darslarda o‘rganilgan ijodlar bilan, kuzatilgan davr boshqa adiblarining asarlari bilan qo‘shimcha tanishib borishni, izchil mustaqil mutolaani talab qiladi. Shuni nazarda tutilgan holda obzor saboqlari orqali ma‘lumotlar berilib, o‘quvchilarning bevosita o‘zlari tanishib boruvini talab etuvchi mustaqil mutolaa namunalari sifatida hozirgi o‘zbek nasri va she‘riyatidan imkon qadar namunalar berishga harakat qilindi.

Hurmatli adabiyotsevar o‘quvchilari. Adabiyot majmuasi ma‘lum ma‘noda so‘z san‘ati gulshaniga chorlovchi yo‘riqnomadir. Dastur bo‘yicha jamlangan badiiy adabiyot namunalari va ulardan berilgan parchalardan tashqari avvalgi o‘quv bosqichlarida u yoki bu darajada o‘rganganingiz yana qancha nasriy, she‘riy, dramatik ijodlar ko‘lami mavjudligini, albatta, yaxshi idrok etgansiz.

Shu ma‘noda mustaqillikka tutashgan davr va istiqlol yillari o‘zbek adabiyotining Mirzakalon Ismoiliiy, Mirmuhsin, Hamid G‘ulom, Shukurullo, O‘ktam Usmonov, Maqsud Qoriyev, Jamol Kamol, Barot Boyqobilov, Uchqun Nazarov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Murod Mansur, Mashrab Boboyev, Sharof Boshbekov, Abduqahhor Ibrohimov, Hojiakbar Shayxov, Oydin Hojiyeva, Anvar Obidjon, Asqar Mahkam, Hamza Imomberdiyev, Abbos Said, Asad Dilmurod, Norto‘xta Qilich, Abduvali Qutbiddin, Salim Ashur kabi qator

adiblari ijodlarining eng muvaffaqiyatli asarlari bilan ham mustaqil tanishib borishingiz tavsiya etiladi.

Ishonamizki, Siz — mustaqil vatan yoshlari, axloqiy komillik, yuksak bilimdonlik sari intilar ekansiz, yetuklikka eltuvchi muhim omillardan biri bo'lgan badiiy adabiyotga doimo oshufta bo'lasiz. Jahon adabiyotining eng sara asarlarini, milliy so'z san'atimizning yorqin namunalarini muntazam mutolaa qilib borasiz. Oliy o'quv yurtlariga muvaffaqiyatli kirish xususidagi orzularingiz ham Sizdan ana shunday ko'lamdor, serfoyd mehnatni kutadi. Ba'zi oddiy kitobxonlar singari Siz adabiy asarlarga shunchaki qiziquvchanlik bilan emas, uning nazariy qonun-qoidalarini biluvchi, ijod mahsulini baholay oluvchi, ibratlarini tadbiq etuvchi, izlanuvchanlikda ajralib turuvchi o'quvchilar sifatida murojaat qilasiz.

Adabiyotimizning jahon so'z san'ati olamidagi mavqei va salohiyatini chuqur o'rganish yo'lida shu zayl keng miqyosli faoliyat yuritsangiz, Sizda faxr-iftixor tuyg'usining munosib ulg'ayishiga, dunyoqarashingiz barkamol bo'lishiga, nafis adabiyot qonuniyatlarini teran idroklashingizga shubha qolmaydi. Cho'lpon Sizning yoshingizda bo'lgan vaqtdayoq yozganidek:

«Hech to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa, millat yashar: adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o'ydan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Buni inkor qilib bo'lmas» («Adabiyot nadur?») maqolasidan).

Tuzuvchilar majmuani yanada mukammallashtirib borish, xususan, uni boyitish, davom ettirish, adabiy-ijtimoiy muhitimizda o'ziga xos ahamiyat kasb etayotgan asarlarni saralab to'ldirish yo'lida Sizning fikr-mulohazalaringizga muntazirdirlar.







MAHMUDXO'JA BEHBUDIY
(1875–1919)

XX asr o'zbek adabiyoti, matbuoti, madaniyatining atoqli namoyandasi. Milliy dramaturgiya va sahna san'atining shakllanishi, yangicha ilg'or hamda serko'lam publisistikaning vujudga kelishi uning nomi bilan bog'liq. Behbudiy davrning eng ilg'or harakati-jadidchilikning Turkistondagi asoschisi va rahnamosidir. O'zbek hayoti, milliy tafakkuri tarixida yorqin iz qoldirgan adibning asarlari, eskirmas o'git-g'oyalari doimo qadrlidir.

PADARKUSH YOXUD O'QIMAGAN
BOLANING HOLI

Turkiston maishatidan olingan ibratnamo 3 parda 4 manzara milliy birinchi fojia.

ASHXOS – KERAK ODAMLAR

B o y — 50 yashar.
T o s h m u r o d — boyning o'g'li, o'n besh yo 17 yashar.
D o m l a — yangi fikrlik bir mullo, 30–40 yashar.
Z i y o l i — (Ovrupo libosig'a) o'ruscha o'qugan, millatchi musulmon.
X a y r u l l a — boyning mirzo va mahrami, 18–20 yashar.
T a n g r i q u l — boyning qotili.
D a v l a t — bo'z bola.
N o r — bo'z bola.
L i z a — rus xotuni, qabiha shaklinda.

A r t u n — armani mayxonachi.

Ƣ r i s t u f — ikki politsayskiy, 2 qarovul, 3 nafar erkak, boyning hamsoyasi.

B o y b u c h a — boyning xotuni, 35–40 yashar.

KERAK NIMARSALAR

Bir la'li¹ sharob², non, dasturxon.

Choynak, piyola, chilim.

Mehmonxonaga keraklik gilam, ko'rpa-yostuq.

Boyning yotoq asbobi va karavot.

Bir kaltak, 1 qo'l kishani, 1 qanab, 1 hushtak, 1 shiqishqa.

Bir o'n shisha suv va kvas.

Besh-olti istaqon³.

Bir sanduq.

Bir hamyon, ichig'a pulg'a o'xshash nimarsa.

Bir katta pichoq.

Bir tapponcha.

Sanduqni ochaturgan temir asbob.

Mukammal pristuf libosi, 2 politsayskiy mukammal libosi, 2 qorovul kaltagi.

BIRINCHI PARDA

Boy mehmonxonada o'lturar Xayrulla ila.

D o m l a (kirar). Assalom alaykum.

B o y . Vaalaykum assalom, marhamat qilsunlar. (*Turib muloqot qilib, domlaga joy ko'rsatib, o'lturar.*)

D o m l a . Boy davlatini, Ollo taolo, mundan ham ziyoda qilgin. (*Fotiha qilar.*)

B o y . Nafas muborak, inshoollo duolari qabuldur.

¹ Lahli — idish, bu yerda qadah ma'nosida.

² Sharob — may.

³ Istaqon — stakan.

Domla. Bale¹, juma oqshomi duoni qabul vaqtidir.

Boy. Xush keldilar, taqsir!

Domla. Salomat, salomat. (*Qo'lini ko'ksiga qilib.*)

Boy. Xayrulla! Choy va la'li keltur.

Xayrulla. Xo'p. (*Choy va la'li kelturar. Xayrulla choy suzar, alar tanovul aylar. Toshmurod kirar, salomsiz, beadabona.*)

Toshmurod. Ota! Tomoshaga borarman, pul bering.

Boy. O'g'lum, kim ila borarsan?

Toshmurod. Tursun akam ila.

Boy (*kisasidan pul berib*). — Albatta, vaqtlik kelinglar va yomon joylarga bormanglar!

Toshmurod. Xayr, xayr, xay ko'b gapurarsizda. (*Chiqib ketar. Domla boy va Toshmurodga badbinona boqib, boshini sollar.*)

Boy. So'zlashib o'turung, taqsir!

Domla. Xo'b-xo'b, boybachcha katta bo'lubtur. Xudo umr bersun, usuli jadida maktabig'ami o'quydu yoinki eski maktabg'a?

Boy. Ikkisig'a ham o'qumaydur.

Domla. O'z havlingizda o'qutaturgansiz?

Boy. Yo'q, yo'q. Man o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q.

Domla. Ajoyib, sababi nadurki, o'qutmaysiz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ham ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

Boy. Mani xayolimg'a dunyoni sabab izzati boylik. Oxiratg'a bo'lsa, xudoni qilgan taqdiri bo'lur. Chunonchi, biz ko'rarmizki, odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar. Xususan, mana, banklar ko'paydi, katta boylar chilon² bo'lur, har kim chilonlarni izzat, hatto ishi tushaturlar chilon molini qiymat olur. Azbaski, chilon iltifotg'a olmag'on odamlarg'a banklar pul bermaydurki, so'ngra muomaladorlar sinib, mayda-mayda bo'lur, bildingizmi?

¹ Bale — ha, barakalla singari tasdiq ma'nosini bildiradigan so'z.

² Chilon — ruscha «chlen» so'zining buzilgani, a'zo ma'nosida.

D o m l a . Bu soʻzlaringiz hozirgi zamongʻa maʼqul, lekin chilon va boylarni izzatlari vaqtincha va xalqni koʻzi ochilgunchadur. Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilar. Mullani boʻlsa, barcha xalq izzat qilar, yaʼni mulloni ilmini izzat qilinadur.

B o y . Bizni ham boyligimizni izzat qilinadur. Hatto musulmonlar nari tursun, oʻrus va armanilar-da izzat qilur.

D o m l a . Izzatni nari qoʻyduk. Agarda oʻgʻlingizni oʻqut-sangiz, daftaringizni yozar, namozisini va musulmonchiligini yaxshi bilar va ham sizgʻa savob boʻlur.

B o y . Mirzolik oson, mana Xayrullagʻa oyinda yetti soʻm berarman, kunduzlari mirzolik va oqshomlari mehmonxona ishini qilar va hatto kelguncha xodimi qilar, kitob ham oʻqub berar.

D o m l a . Shariat ilmi va zaruriyot dinni bilmoq uchun boyvachchani oʻqutmak, albatta, sizga lozimdur.

B o y . Shariat ilmini oʻqutmak ne lozim, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.

D o m l a . Zaruriyoti diniyaga na dersiz?

B o y . Man oʻzum besh vaqt namozni keraklik duolari ila bilarman. Oʻzum oʻrgaturman.

D o m l a . Xat va savodgʻa na dersiz? Holbuki, savodi yoʻq odam hech nimaga yaramaydur.

B o y . Bu fikringiz gʻalat¹, chunki mani savodim yoʻq, bovujud² shul shahrimizni katta boylaridandurman va har ishni bilarman.

D o m l a . Siz ilgari zamonda bir navʼi³ ila boy boʻlubsiz, ammo endi boy boʻlmak uchun ilm kerak. Koʻrarmizki, yigirma-oʻttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qoʻligʻa oʻtdi. Muni sababi bizlarni oʻqumogʻonimizdur.

Oʻqumagan boybachchalarni koʻrarmizki, ota molini barbod etar va oxiri xoru zor boʻlur. Binobarin, oʻgʻlungizni oʻqutmakni sizgʻa taklif qilarman.

¹ *Gʻalat* — sahv, xato, yanglish.

² *Bovujud* — shunday qilib, shunday boʻla turib.

³ *Bir navʼi* — bir narsa qilib.

Boy. Hoy, domla! Siz manga tahqiqchimi? O'g'ul maniki, davlat maniki, sizg'a nima! O'quganni biri — siz, yemoqg'a noningiz yo'q. Bu holingiz ila manga nasihat qilarsiz. Xayrulla, mehmonxonani qulfla, uyqum keldi.

(Xayrulla la'li va asboblarni jam'lab, muntazir turar).

Domla *(odamlarga qarab)*. O'qumak va mullo bo'lmak uchun pul kerak. Badavlatlarimizni holi bul. Bas, bu ketish ila, navzambilloh, dunyo va oxiratg'a rasvo bo'lurmiz. O'qumak barcha musulmong'a, erkak va yo xotun bo'lsun, farz endi. U qanda qoldi! Oh, voy bizni holimizg'a. *(Boyga qarab.)* Boy! Man sizg'a amri ma'ruf¹ etdim va manga shariat bo'yuncha lozim bo'lgan ishni bo'ynumdan soqit qildim. Inshoollo, mo'ylab chiqarib, alifni tayoq demayturg'on o'g'lungiz holini ko'ramiz. Va ham o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz. *(Domla nos chekar).*

Boy. Hoy, domla! Manga nasihatchi kerak yo'q. Bezor qildingiz, *(odamlarga qarab)* ishimdan, uyqumdan bu odam meni qolduradir. Xayrulla! Mehmonxonani qulfla! *(Domla arazlab chiqib ketar, boyni dumog'i kuyub o'lturar).* *(Ziyoli musulmon kirar, palto va asosini mixga qo'yar. Boy ola-ola qarar, xohlamas).*

Ziyoli. Assalom alaykum.

Boy *(karaxt ila)*. Vaalaykum assalom, Xayrulla! Kursi keltur. Bu kishi yerg'a o'ltura olmaydur.

(Kelturar. Ziyoli o'lturub papiros chekar).

Ziyoli. Janob boy, sizni kayfsiz ko'rarman. Mumkinmi sababini bilsam?

Boy. Bir mullo mehmon kelib edi, o'g'lungni o'qutmaysan, deb juda jonimni oldi. Quvgandek qilib zo'rg'a qutuldim, faqat mushlashmadug.

Ziyoli. Oh-ho, qiziq va intersniy hodisa emish. *(Odamlarga qarab)*. Bu shaharda boylarg'a amri ma'ruf qilaturgan mullo

¹ *Amri ma'ruf* — yaxshilikka undash.

bor ekan, xudoga shukur. Ul janob haqqoniy domlani topib, ziyorat qilmaq kerak, boy afandi! Sizg'a malol kelmasun, ushbu to'g'rimdan men ham sizg'a qachonlar bir necha so'z aytmoqchi edim. Va ammo soati ushbu daqiqag'a mavquekan, endi sizdan iltimos qilamanki, birinchi daqiqa manga quloq bersangizki, ilm naf'i to'g'risinda so'zlayin.

Boy (*ola-ola qarab*). Endi bildim, siz ham o'g'lungni o'qut, deb mani qisar ekansiz. (*Odamlarga qarab*). Bukun chab qo'lim ila turganman. O'ylamagan ishlar oldimdan chiqar. Mazmuni: qordan qutulub, yog'murga uchraymiz. Xayrulla! Chilim keltur! (*Tarafayn sukut. Chilim kelar. Boy chekar, yo'talar*).

Boy. Xayrulla!

Xayrulla. Labbay, taqsir!

Boy. Joyimni tashla, uyqum keldi. (*Hamyoza¹ tortar.*) Ertag'a ishlar ko'b, vaqtlik yotmaq kerak. (*Yana hamyoza*).

Xayrulla. Xo'sh, taqsir.

Ziyoli (*jiddiyat ila*). Boy afandi! Men sizg'a dedimki, millatg'a keraklik ilmlar to'g'risinda so'zlamochiman, ammo siz mani so'zumni eshitmoqg'a xohlamaydurganga o'xshaysiz! Ikkinchi daf'a aytarmanki, quloq bering va bu so'zlar sizni va millatni naf'idur.

Boy. So'zingizni jabr va zo'r ila eshitturarsizmi? Va yo mani azob bermoqg'ami keldingiz?

Ziyoli. Yo'q, men asli boshqa ish uchun kelib edim va lekin ilm bahsini ustidan chiqib qoldim, ushbu sababli muddaoni tabdil qilib, ilm to'g'risidan sizg'a bayon qilmaqni qasd etdim, shoyadki, jonobingizdek boylar millat bolalarini o'qutmoqiga sa'iy qilsalar.

Boy (*xalqqa qarab*). Koshki domla hikoyatini aytmasa edi. Xo'b, modomiki, qo'ymaysiz, ertaroq so'ylab tamom qiling, uyqim kelgan. (*Hamyoza*). Odamlar bolasini o'qut, deyduro.

Ziyoli. Hozir yangi va boshqa bir zamonadur. Bu zamong'a ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'lidan

¹ *Hamyoza* — xomuza.

ketgandek, axloq va obro'vi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur. Buning uchun biz, musulmonlarni o'qumoqg'a sa'iy qilmoqimiz lozimdur. Vaholonki, dini sharifimiz har nav' naf'lik ilm o'qumoqni beshikdan mozorg'acha bizlarga farz qilgandur. Bu hukm — hukmi shariatdur. Biz, musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdur: biri olimi diniy; digari olimi zamoniy; olimi diniy: imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti bo'lub, xaloyiqni diniy va axloqiy va ruhoniy ishlarini boshqarar, bu sinfg'a kiraturgan talabalar avvalo Turkistonda va Buxoroda ilmi diniy va adabiy va bir oz ruscha o'qub, so'ngra Makka, Madina, Misr yo Istambulda borib, ulumi diniyani xatm qilsalar kerak. Toki komil mulla bo'lsunlar. (*Boy mudraydur*). Ongladingizmi, boy?

Bo y (*boshini ko'tarib*). Ha, ha, ayta bering. Qulog'im sizg'a.

Ziyoli. Olimi zamoniy bo'lmaq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyoti diniyya va o'z millatimiz tilini biladurgandan so'ngra hukumatimizni nizomiy maktablarida bermoq kerakdur: ya'ni gimnaziya va shahar maktablarini o'qub tamom qilganlaridan so'ng Peterburk, Maskav dorilfununlarig'a yuborib, do'qturlik, zakunchilik, injirmerlik, sudyalik, ilmi tijorat, ilmi ziroat, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qutmak lozimdur. Rusiya vatanina va davlatina bilfe'l sherik bo'lmaq kerakdur. Va davlat va mansablarig'a kirmaq lozim. Toki maishat va ehtiyoji zamoniyamiz to'g'risinda vatan va millat islomg'a xizmat qilsin. Va podshohlik mansablarig'a kirib, musulmonlarga naf' yetkurilsa va ham davlati Rusiyag'a sherik bo'linsa, hattoki shul tariqa o'qugan musulmon bolalarini Farangizston, Amrika va Istanbul dorilfununlarig'a tajriba uchun yibormaq kerakdur. Hazrati payg'ambarimiz: ilm Xitoyg'a ham bo'lsa talab qilingiz, demadiblarmu? (*Boy uyquda*). Bul ishlar bo'lmasa, magar pul ila va sizdek katta boylarni himmati ila, chunonchi, Kafkaz, Urunburk¹ va Qozon musulmonlarini boy va

¹ *Kafkaz, Urunburk* — Kavkaz, Orenburg.

ahli xayriyoti ilm yo‘liga ko‘b pullar sarf etarlar va kambag‘al bolalarini o‘qutdurarlar. (*Boyga qarab*). Albatta, so‘zlarimg‘a tushungansiz, janob boy! Boy! Bobo boy!

Bo y (*mudraydur; bosh ko‘tarib, esnab*): — Ha, ha.

Ziyoli. Aloho, biz Turkiston xalqiga bir yamon odat borki, bir kishi ruscha o‘qub, podshohlik ishiga kirib, rasmiy fo‘rma kiysa, oni ayb qiladurlar. Yo bir musulmon bolasi nizomiy maktab fo‘rmasida yursa, masxara qiladurlar. Agar izvoshchik va yo qaro mehnatkash bo‘lub, ovrupoyilarni eski libosini kiysa va yo javonbacha bo‘lub, o‘yunchilar libosini kiysa, hech kim bir nima demaydurki, bul kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdur. Shunday emasmu, amaki boy?!

Bo y (o‘ltirgan yeridan bir tarafga og‘ib yotib): Hur-hur-huro-huro...

Ziyoli. Iloho, xudoyo! Ummati islomiyag‘a, xususan biz, turkistonlilarg‘a rahming kelsun. (*Ro‘ymoli ila ko‘z yoshini artib, chiqib ketar*).

(Parda enar)

IKKINCHI PARDA

Pivaxona manzarasi: boybacha ila uch nafar o‘lturarlar.

Tangriqul. — Bu oqshom bilmayman, nima uchun ichkilik mani tishlamaydur. Namozdigardan beri bir dyujina shishani bo‘shatdim. Da‘yusni pivasi qulog‘imni qizitmadi. To‘ldur, ichayluk!

(*Nor qadahlarni to‘ldurar*).

Hammasi. Toshmurodboybachani salomatligig‘a, ura! Ura! Ura! (*Icharlar*).

Davlat. Jo‘ralar! Mayni ichtim, endi yodimg‘a Lizaxon tushdi. Oh, Lizajon!

Hammasi. Oh, Lizajon, voy, Lizajon, qaydasan!

Nor. Zolim falak firoqig‘a kuydirdi mani. Billoki, kelmasa bo‘miydi.

D a v l a t . Bu dardu bedod ila hech nima bo'lmas. Xo'jayinni chaqirarmiz. Otam o'ldi bazm qilarmiz.

N o r . Qo'lingni ber, ey nomard, tobting (*qo'lini siqar*), bo'ldi.

Davlat. Oy, to'tabrut, Tangriqul! Daming chiqmaydur. Shuncha odam so'zini o'g'urlab o'lturarsan. Erga navbat — sherga navbat. Gab berib o'ltur yo bu odamlarni pisand qilmaysanmi? Bizlarni ham yonimizga besh tangalik aqchamiz bor. Jo'ra! Bu mastlik — rostlikdur. Quvog'ingni ochib o'ltur.

T a n g r i q u l . Jo'ralar! Sizlardan yashiraturgan so'zimiz yo'q. To'g'risini desam, mayni ichtim, qulog'im qizigan; san Liza deding, endi o'zum shunda bo'lsam-da, hushum Lizag'a; to Lizani kelturmasang, mani gapurturolmaysan. Ammo gab kelturganiga. Davlat zo'r!

D a v l a t . G'am yema, muddaong Liza bo'lsa, shul zamon yoniga ko'rarsan, kelmasami? Boshini olarman.

N o r . Boybacha — barishnag'a ta'bingiz bormi?

T o s h m u r o d . Mayli, odam yuboringlar, bazm qizisun.

Tangriqul. Gab, gab ila vaqtni o'tkazarsizlar. Buyuraturgan bo'lsanglar — buyuringlar. Ertaroq kelsun, kayf qilayluk.

(*Davlat qo'ng'iroq chalar. Artun armani mayxonachi kirar*).

A r t u n . Nima deysan?

D a v l a t . Lizaga bironni buyur, kelsun!

A r t u n . Bunda?

D a v l a t . Ha, munda kelturmasdan, mozorg'ami keturarding?

A r t u n . Izvinit qilasan, surushdum-da.

D a v l a t . Bo'l, bo'l. Bironni yubor.

A r t u n . Box, na vor qilarsan! Liza bana demishki, o'n besh manotsiz bana kishi go'ndurma! Ha, o'n besh manat-da va faytun puli-da vergilin, Nikolayi go'ndurayim. Liza o'lmasa, boshqasin go'tursen, kayfingni chek.

Davlat. Avval kelturub, so'ngra pulni olsang, bo'lmasmi?

Artun. Davlat zo‘r! Ban sana demishki, Liza perut oqcha olmayincha kelmas, bana na! San o‘zung bilarsanki, ugovar qizi banimki degil?

(*Mastlar bir-birlarig‘a hayron qararlar, kissalarig‘a qo‘l soladurlar*).

Tangriqul. Ortun! Bir oz to‘xta, pul berarmiz.

Artun. Bosh ustina hoziram. (*Chiqar. Jo‘ralarni kayflari uchub, sukut etarlar*).

Davlat. Suz, ichaylik. (*Nor suzib, quyar*).

Tangriqul. Pulni peshagi talab qilgani ishni belini sindurdi.

Davlat. Ish aksig‘a olsa, shunday bo‘lur. Pullaring bormi? Hammalaring chiqaring. (*Hammasi chiqarar, Davlat sanar. Besh so‘mga yetmas*).

Davlat. Buminan hech nima bo‘lmas, bir ilojini tobmoq kerak.

Nor (*tamasxo‘r ila*). Oy, boybacha! Bizlar-ku kambag‘al, sizg‘a nima! Kisangizdan pul chiqmaydur. Ana, boybachani shakli. (*Qo‘li ila ko‘rsatar*).

Davlat. Parvo qilma, Nor! Man bir nimarsa o‘ylardim. Agar boybacha ko‘nsa.

Tangriqul. Nima ekan? Nima?

Davlat. To‘xta, nima ekanligini bilarsan. Avval boybachani salomatlikiga ichayluk.

(*Tangriqul suzar, icharlar boybachani salomatlikig‘a*). Boybacha! Bu kechadek chahorshanba savri oyda yilda bir bo‘lar yo yo‘q, bir kecha ming kecha bo‘lmas, agar qabul qilsangiz, Tangriqulni sizg‘a qo‘sharman. Birga borib, otangizni sanduqini ko‘rsatarsiz. Boshqa ishni Tangriqul bajaradur.

Toshmurod. Tangriqul aka, borarsizmi?

Tangriqul. Ulfatlar buyursa, u dunyoga borarman. U-ku sizni havlingiz.

Davlat. San nima dersan, Nor?

Nor. Men ham ko‘bni biri, bor desang, borarman.

Davlat. Yo‘q, ikkovi bas, ko‘rganlar badgumon bo‘lmasun. Bukunni ertasi bor.

Nor. Boybacha! Otangiz sanduqining joyini bilarsizmi?

Toshmurod. Otamni yotaturgan uyinda.

Davlat. Yotaturgan uyini necha eshiki bor?

Toshmurod. Uch.

Davlat. Qaysi eshikdan kirarsizlar?

Toshmurod. Eshikni biri onamni uyindan ochilur; man kirib havli tarafdagi eshikni ocharman, so'ngra Tangriqul akam kirar.

Davlat. Borakalla! Ilgari ham o'g'urluq qilg'ang'a o'xshaysiz. Nor, to'ldur, ichayluk. (*Nor to'ldurar, icharlar. Tangriqul va Toshmurodg'a qarab*). Endi boraturgansizlar?

Tangriqul. Albatta, bormay nima bo'lubdur. (*Davlat taponchasini boybachag'a berar. Nor etik soqidan pichoqni olib, Tangriqulg'a berar. Alar ehtiyot qilib turarlar*).

Davlat (*ikkisig'a qarab*): Yo'l bo'lsun, botirlar?

Tangriqul. Olgani.

(*Davlat, Tangriqulni bir chetg'a olib, ishorat va xufiya ma'lumot va amr berar*).

Nor. Omin ollo.

Hammasi. Ollo akbar.

(*Davlat fotiha berar*).

(*Tangriqul va Toshmurod chiqar. Davlat va Nor ichar va o'qur*).

(Parda enar)

UCHINCHI PARDA

Odat bo'yicha Boy yotar karavot ustig'a uyquda; uyni bir tarafig'a sanduq. Toshmurod bir eshikdan ohistalik ila kirar, bu taraf — u tarafg'a qarab, boshqa bir eshikni ochar va bir chetg'a turar.

Tangriqul kirar, qo'lig'a kalid va temur asbob, beliga pichoq; sanduq tarafig'a borib, kalid solar. Sanduq ochilmas, Toshmurodg'a qaraydur. Ishorat ila maslahat so'raydur. Toshmurod sanduqni temur asbob ila sindurmoqg'a amr berar.

Tangriqul temur asbob ila sanduqni sindurar. Sanduqni ovozi ila Boy uyg'onur.

Boy (*cho'p-cho'p turar, kaltakni olib*). — Voy-voy!!! (*Tangriqulga qarab yugurar*).

(*Toshmurod kaltakni kelib ushlar*).

(*Tangriqul pichoq ila boyni qo'ltug'iga urar*).

Boy (*taraqlab yiqilar*): Voy, jonim! (*Jon uzar. Tipirlar, xirillar*).

(*Tangriqul sanduqdan tanga xaltasini ko'tarar. Pichoq va temir asbobni o'ziga berkitar. Tashqaridan bir necha odam tovushi eshitilur*).

O d a m l a r . Nima gab, bиров dod dedi.

(*Bir necha erkak ila boy xotuni kirarlar. Tangriqul ila Toshmurodni ko'rarlar*).

T a n g r i q u l . Toshmurod, ot!

(*Toshmurod havog'a tapponcha otar, qocharlar va hozir kishilarga saloh ko'rsatib*).

B o y b u c h a . Voy, zolim dastidan, bu qanday kun edi, voy, dod-ey! (*Chapak chalar... Boy ustig'a o'zini tashlar, yuzu sochini yular*). Hey, juvonmarg Toshmurod! qon qus, koshki chechakga ketayding. Hay, padarkush Toshmurod. Voy, dod-e-y!

D o m l a (*kirar*). — Onajon! Sizg'a sabrdan boshqa chora yo'q. Bu badbaxtlik va musibatg'a sabab jaholat va nodonlikdur. Beilmlik va tarbiyasizlikdur. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. O'g'lungizni beilmlik Sibirg'a, joningizdan aziz farzandingizni tarbiyasizlik balosi sizdan umriy ajratadur. Bolangizni otasi tarbiya etmadi, o'qutmadi. Oxiri baloga uchradi, yomon rafiqlar yo'ldan chiqardilarki, qurboni jaholat bo'ldingiz.

B o y b u c h a (*to'lg'anib*): — Ey, voy, voy, bolam. Voy, boyim, oh voy-y-y-y.

D o m l a . Boyingiz-da maslahatg'a quloq solmadi. Va oxiri ushbu yamon hodisa paydo bo'ldi. Endi sizg'a achchig' sabrdan boshqa iloj yo'qdur, onajon! Ollo sizga sabr bersun!

Bo y b u c h a (*kamoli betoqatlik ilan oh vovaylo etar*): —
Dod, voy, bolam. Voy, boyim. Ikkisidan ham ayrildim. Erimni
mozorg'a, bolamni Sibirg'a yuboralar. Voy, voy, voy-y-y.

(**Parda enar**)

Behbudiy maqolalaridan

IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur, Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrisarlarni taqriru¹ tarjimalari forschadur. Bu oida, ya'ni dars kitobi — arabiy, muallim — turkiy, taqriru tarjimini forsiyligi xila ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydir. Chunonchi, eski yorlilardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulazou adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Bu oidalar zotan yaxshidur. Ammo bora-bora yoinki kela-kela usuli ta'lim va kitobatg'a ehmo² paydo bo'lub, hozir bir darajag'a kelibdurki, ahli savod yoinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik yo'qdur. Ya'ni, usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda forscha so'ylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydir. Fors shoiru udabosi asarlari qiyo-matg'acha lazzati ketmayturgan xazinai ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar.

¹ *Taqrir* — bayon.

² *Ehmo* — qiyinchilik, mashaqqat.

Bizg‘a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsil siz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsi turkiy bilmog‘i lozimdur.

Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa‘diy, «Masnaviy»¹ dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy², Somiy³, Abdulhaq Homid⁴, Akrambek⁵, Sanoyi⁶, Nobiy⁷, Nojiy⁸ lardan, yana Tolsto‘y, Jul Vern va ulamoi zamoniylar asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo‘lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamoi asarini turkiy g‘a tarjima qilib, ko‘paytirgandurlar, ya‘ni turkiy bilgan kishi zamoni bilur. Turk tilig‘a har bir yangi va naf‘lik kitoblar barcha tilda tarjima bo‘lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto‘y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg‘a lozimki, o‘z naf‘imiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o‘quylik.

Davlat mansablarig‘a kirayluk. Vatanimizg‘a va o‘z dinimizg‘a xidmat etayluk.

Musulmon bo‘lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg‘a xidmat ilmsiz bo‘lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g‘a o‘z din va millatimiz naf‘ig‘a so‘zlamoq bizlar uchun mumkin

¹ «Masnaviy» — Jaloliddin Rumiyning mashhur asari.

² Mahmud Abdul Boqiy (1526—1600) — usmonli shoir, «Sumbul qasidasi» muallifi.

³ Somiy (1850—1904 — «Qomusul a‘lom» asari muallifi.

⁴ Abdulhaq Homid (1852—1937) — mashhur turk shoiri.

⁵ Akrambek — Rijoizoda Akram (1847—1914) — «g‘arbchi» jadidchi shoir.

⁶ Sanoyi (Ibrohim Shinosiy bo‘lsa kerak) (1826—1874) mashhur turk masalnavis shoiri.

⁷ Nobiy (Yusuf Nobiy) (1640—1712) — usmonli shoirlardan.

⁸ Muallim Nojiy (1850— 1893)— «sharqchi» shoir.

bo'lor. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib naf'i bir o'n sana o'qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqdir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur.

Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladurki, janobi payg'ambar o'z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g'a) yahudiy xatini o'qub-organmoqg'a buyurgan ekanlar. Va ul janob Umar hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o'rganib, hazrat payg'ambarg'a yahudiylardan kelaturgon xatlarni o'qub berar ekanlar (Sahihi Buxoriy, juz 4, sahifa 156).

Holbuki, ul zoti bobarokot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Al-on Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.

«Oyna» jurnali, 1913- yil, 1- son, 12–14- betlar.

TEYOTR NADUR?

Teyotr nimadur? Javobig'a teyotr ibratnamodur, teyotr va'z-xonadur, teyotr ta'zir adabidir. Teyotr oyinadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rub, kar-quloqsizlar eshitib, asarlanur. Xulosa: teyotr va'z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilni, qabih va zararini ayonan ko'rsatguvchidir. Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'ylaguvchi va ochiq haqiqatni bildurguvchidir. «Qul-al-haqqa va lav kona (va) maroan» mazharidur. Ayni zamonda yana tamoshogoh va yoinki ko'ngul ochguvchi milliy va adabiy jam'iyatlarni boisidir.

Taraqqiy qilgan millatlar teyotrxonalarni ulug'lar uchun maktabi adab va ibrat ataydurlar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab

va boislaridan biri teyotrlardur deyurlar. Teyotrlarning yaxshi va yamon odatlarni sarrof¹ va munaqqidi derlar.

Umumiy odatlarni naf'i va zararidan paydo bo'laturgon natijalarni teyotrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yamon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda ishlamoqg'a sabab bo'lur. Har zamonni bir usuli ehtisobi² bordur. Bu zamonda teyotrxonalar ham yamon va zararlik odatlarni ehtisob va tanqid qilib yamonligini, qabihini xaloyiqg'a ko'rsatib va'z va nasihat etguvchi bir joydur. Teyotrxona sahnalarinda qo'yulaturgon asarlar fojea, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hango-malik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur. Ul voqeadagi yamonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rub, anglab, ibrat olur va yamonlikdan qochib, yaxshilikg'a harakat qilmoqg'a, teyotrda ko'rsatilgon voqealar sabab bo'lur.

Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarinda ba'zi bir hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo teyotrg'a maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitkandan ziyodadur.

(Shunidan kay bud monandi diydan — eshitmoq qachon ko'rmoq kabidur.) Yana teyotrda savodsiz odam ko'zi ila ko'rub, ko'zsiz odam eshitib, kar mushohada etib, ibrat va lazzat olar. Xulosa: teyotr bir nav' maktab hukmindadur. Taraqqiy qilgan xalqlar o'rtasinda teyotr u qadar taraqqiy etkandurki, har kun bir yangi asar tasnif³ bo'lub, sahnada qo'yulur. Asarni yozgan muharrirg'a ming so'm va o'n ming so'mlab hadya berib, asarini mushaxxis⁴lar sotib olib, sahnada qo'yub foida qiladurlar. Ba'zi bir teyotr asarlari eski bo'lmay va xaloyiqni ko'nglig'a urmay, bir shaharda yigirma, o'ttiz, hatto, yuzinchi daf'a qo'yulganlari bordur. Teatrg'a qo'yulgon asarni ortuqcha va yo oz yerlarini va

¹ *Sarrof* — pul almashtiruvchi.

² *Ehtisob* — hisob-kitob, tahlil.

³ *Tasnif* — bunyodga kelmoq.

⁴ *Mushaxxis* — ijrochi, aktyor.

yetishmaganlarini maishati milliyadan xorij nuqtalarini muharrirlar, jaridalar ila tanqid etadurlar. Xaloyiqg'a ma'qul bo'lub va yo bo'lmag'ani ila teyotr muharririni xursand va yo g'amlik bo'lur. Muharririni asari yaxshi chiqsa, har kim oni tabrik etar va shuhrati ziyoda bo'lur. Va bul boshqa muharrirlarni harakatg'a kelishib, yaxshi asarlar yozmoqlarig'a bois bo'lur. Teyotr uchun muharririni ne qadar chuqur o'ylaguvchi zarif va nazokatligi lozim bo'lsa, mushaxxis (hodisani ko'rsatguchi)larni ham tavono va muqallid va har nimarsani o'zidek qilib ko'rsatguchi, nuktadon bo'lishi lozim bo'lib, bul alohida bir san'atdurki, ovruopolilar munga ham alohida maktab ijod qilgandurlar.

So'zni qisqasi, teyotr xonalari masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur. Va anda mushaxxis bo'laturgonlar «o'yunchi va masxaraboz» bo'lmay, balki mushaxxis va muallimi axloqdurlar. Taraqqiy qilgan xaloyiq orasinda mushaxxislar ham kibor va muhtaram sinflar qatorindadur. Xususan, o'z kissasi naf'ig'a mushaxxislik qilmay, balki maktab va o'z millati naf'ig'a mushaxxislik qilganlarni qadri du bolo¹ ziyodadur.

Bizni Turkiston va Buxoroda milliy teyotrdan asar yo'q edi. Muharriri o'jiz «Padarkush»ni yozdiki, o'tgan fevral oyinda Samarqand, Xo'jand, Buxoro va Toshkand va Kattaqo'rg'on shaharlarinda millat naf'i uchun ko'ngullilar sahnada qo'yub, to'rt-besh ming so'mni to'rt-besh kechada jamlab, maktablar foidasig'a berdilar. Mana endi muhtaram Samarqandiy ko'ngulli mushaxxislar g'ayrat qilib, yana «Padarkush»ni Samarqandda yettinchi moyda sahnag'a qo'yub, hosilini maktablarg'a sarf uchun berdilar.

Muhtaram hamshaharlarimizdan rijo etarmizki, kelib ko'rgonlari gunah bo'lgon joyini ko'rsatsalar. Inchunun, asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar, toki boisi isloh bo'linsa. Ammo bu kung'acha muhtaram ahli qalam «Padarkush»ni buzuq yerini ko'rsatmay, balki «kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih va nofe' asardur» holinda tabrik va taqrizlar ila yozdilarki, biz

¹ *Bolo* — yuqori.

alarg‘a tashakkur aytarmiz. Asarimizni qabihini yozgon kishig‘a ziyodaroq tashakkur etmoqg‘a madyunmiz, chunki bois islohdur. «Mutakallimro toayb nagirand — suxanash isloh napazirad» («So‘z so‘ylaguvchini ayb etmaguncha, so‘zi tuzalmaydur»). Ba‘zi bir ahli vatanning teyotr asari yozmoqg‘a mashg‘ulliklari eshitalurki, asarlarig‘a chahorchashm ila muntazirmiz. Yozilgan asarlarni ko‘ngulli dastalari sotib olib bostursalar, foida ham qiladurlar. Chunki bir kishig‘a ham asar yozib, ham bosturub va hamda sahnada qo‘ydurmoq mushkuldur. Dastalar sotib ola bersalar, asar-da ko‘payur. Turkistonda oyinda bir asar tahrir bo‘linsa-da, ko‘blik qilmaydur.

«Oyna» jurnali, 1914- yil, 29- son, 550–553- betlar.







ABDULLA AVLONIY
(1878–1934)

O‘zbek dramaturgiyasi va teatrining, yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan. «Hijron» taxallusi bilan she’rlar bitgan, bir qator yangicha darsliklar yozgan. Noshir, tarjimon, elchi, muallim. Serqirra ijodining barcha namunalari xalqni yuksak ma’rifat va ezgu amallarga chorlovchi g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan.

«Adabiyot yoxud milliy she’rlar» birinchi juzidan

BIZ, MILLAT

Na xo‘rliq, na qasolat?—Doimo afgor biz, millat,
Hama gul dasta qilsa, ne terarmiz?—Xor, biz, millat.
Jaholat qaziyasi do‘ndurdi istiqboli rif‘atdan,
Ma‘oz-illoki, na iqror, na inkor—biz, millat.
Tutub selobi g‘aflat mavji g‘amg‘a tashladi, hayhot,
Jahon Jayhunlarig‘a to‘mai tayyor—biz, millat.
Tamaddunfeshalikdan o‘zgalar ruhi mujassamdur,
Hayota qobil ermas, surati devor — biz, millat.
Hama ilm-u hunar asbobini olmaqni istarsa,
Chafon, chalma, riyo sotmoqg‘a xo‘b tujjor—biz, millat.
Tafakkur soyasida o‘zgalar shahdu shakar ersa,
Tururmiz baqrayib har go‘shada bekor—biz, millat.
Mayu minosini tark aylasa ag‘yor, bizlar, oh,
Ichib jomi jaholatdan, hamisha zor—biz, millat.
Hama kasbu kamolot etsa hosil ilm-fan birla,
Shifirguchi, yamoqchi, xayrchi—ko‘b xor—biz, millat.

Taqozoyi zamon, har jins kiysa jismig‘a loyiq,
Qilib qof-xaltadan ko‘lmak-chopon—beor—biz, millat.
O‘zi bilmas, sani dushman, sani johil bilur,
Hijron, hayotu ruh kerakmas—jismidan bezor—biz, millat.



MAKTAB HAQINDA

Biling, o‘g‘lonlarim, sizlarni g‘amdan qutqarur maktab,
Siroti mustaqim, rohi adamdan qutqarur maktab,
Maishat bobida ranju alamdan qutqarur maktab,
Hayotu ruha dushman jahli samdan qutqarur maktab,
Qo‘lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab.
Shahodatnomai firdavsi g‘ilmonni berur maktab.

Taraddud birla doim dur oling daryoi maktabdan,
Tereng jon rastasig‘a xo‘b zabarjadhoyi maktabdan,
Topar maqdudini har kim qidirsam loyi maktabdan,
Umidim shul, jo‘juqlar, uzmasanglar poyi maktabdan—
Qo‘lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi g‘ilmonni berur maktab.

Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir,
Hunar bog'ida tubi qad aziz ilm o'lmasa, nedir,
Nasimi mushki totori tamiz ilm o'lmasa, nedir,
Gulob, tarbiyati jahli mariz ilm o'lmasa, nedir.
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi g'ilmonni berur maktab.

Hama xursandlikni ma'danidur ilm, ey o'g'lon,
Hama fazlu karamni manbaidur ilm, ey o'g'lon,
Hama xo'blarni xo'bin maskanidir ilm, ey o'g'lon,
Hama islom elini masnadidur¹ ilm, ey o'g'lon,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi² g'ilmonni berur maktab.

Takabburlar qatorida havog'a bo'lmasang mag'ur,
Dutoru tanburu changu navog'a bo'lmasang mag'ur,
Taraddud vaqtida bazmu kazog'a bo'lmasang mag'ur,
Bo'lib hajrida Hijron mahliqog'a bo'lmasang mag'ur,
Qo'lingga bir kuni muhri Sulaymonni berur maktab,
Shahodatnomai firdavsi g'ilmonni berur maktab.

«Maktab gulistoni» milliy she'rlari beshinchi juzidan

HIJRON SO'ZI

Tug'ub o'sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda!
Tufrog'lari o'sumlikdur,
Manzarasi ko'rumlikdur.
Bir tarafda tog'lari bor,
Mevasi mo'l bog'lari bor.
Tog'laridan konlar chiqar,
Yerlaridan donlar chiqar.

¹ *Masnad* — suyanchiq.

² *Firdavs* — bog', jannat bog'i.

Suvlaridur tamlu-totli,
Mevasi qandu nobotli¹.
Bog'laridur shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.
Daraxtlari o'sar firosch,
Falak uzra ko'tarub bosh.
Havosi o'ta yoqimlik,
Cho'llari bor toshlik, qumlik.
Toshkand emas, toshqand erur,
Kesaklari gulqand erur.
Ishlaganga xazinadir,
Dangasaga harinadur.
Kecha-kunduz faryod etub,
Ishlovchini yotur kutub.
O'tar kunlar, o'tar zamon,
Ey, Vatanim, bo'lma hijron!
Men ketsam-da, sen bo'l omon!
Omon — Vatan, Vatan — omon!

«Birinchii muallim» kitobidan

TO'G'RILIK

Bir kampirning uyinda bir tup balx tuti bor edi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun avqotini tut sotub o'tkarur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi.

Bechora kampir boy xotin bo'lib qoldi. Bir kun tutini ko'rgali bordi. Ko'rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o'rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

¹ *Nobotli* — novvotli.

Ey tutim, to'g'rilig'ing qildi bizi davlatg'a yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor.
To'g'rilar jannatning ayvonindadir,
O'g'rilar ranju alam konindadir.

«Ikkinchi muallim» kitobidan

SHAVKATI INSON ERUR ILMU ADAB, E'TIBOR ETMAS ANGA MOLU NASAB

Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so'ng o'qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she'rlar ila ziynatlanmish o'quv kitobidir.

YALG'ON DO'ST

Bir vaqt iki kishi do'st bo'lub, safarga chiqmishlar edi. Bir tog' ichindan ketub borgonlarinda uzog'dan bir yo'lbarsni ko'rmishlar. Do'stlarning biri darhol yugurub bir daraxt ustiga chiqmish.

Ikkinchisi shoshilub qolub, nima qilishin bilmay, yerga cho'zulub, o'lukg'a o'xshab yotmish. Yo'lbars kelub iskab-iskab o'luk gumon qilub qaytub ketmish. O'rtog'i daraxtdan tushub: «Birodar, yo'lbars qulog'inga nima deb so'zlab ketdi», — deb so'ramish. Yo'ldoshi: «Oh, do'stim! Shodlig'ingda o'rtog' bo'lub, g'am vaqtingda tashlab qochadurg'on nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lma!» — deb so'zlab ketdi, deb javob bermish.

CHIN DO'ST

Ikki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,
Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan ikki jon.
Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,
Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.

Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,
O'lturub bir kemaga ketmog'da erdilar hamon.

Bir zamon to'lgun kelub ul kemani qildi xarob,
Ul iki o'rtog' yiqildilar suv uzra nogahon.

Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,
Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan amon.
Ul iki do'stning birini tutsa, suvchig'a dedi:
Qo'y mani, avval borub, do'stumni qutqar beziyon.

Suvchi borub ushlasa o'rtog'ini,
Ul ham aylar do'st qutulsun deb fig'on.
Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlarim,
Do'stlig'dan bu siza bir doston.

XURUS ILA BO'RI

Bir Bo'ri daraxt ustinda o'lturg'on Xurusni ko'rub, tutub yemak uchun daraxt ostiga keldi. Hiyla birla bechora Xurusni daraxtdan tushurmaqchi bo'lub: «Ey, Xurus o'rtog'! Man sanga bir yaxshi xabar keturdim. Hayvonlar ila qushlar orasinda sulh bo'ldi. Bir-biriga zulm qilmasga, biri ikkinchisin tutub yemasga qaror verildi. Kel, birodar, pastga tush! Bir-birimizga do'st bo'lub, birga o'ynashayluk», — dedi. Xurus Bo'rining so'ziga aldanadurg'on darajada nodon va ahmaq bo'lmadig'indan bo'riga boqub dediki:

— Do'stim, so'zing rostdur, to'g'ridur. Lekin bir oz sabr qil. Sandan boshqa ikki it ham sulh xabarin ketururlar. Alar ham kelsunlar. Hammamiz birga o'ynashurmiz, — dedi. Bo'ri Xurusdan bu so'zni eshitgan zamon dumini orqasig'a qo'yub qocha boshladi.

Xurus: «Ho, birodar, nima uchun qochursan, aroda sulh bor-ku?» — desa. Bo'ri:

— «Oh do'stim! Bu zolim itlar sulhni buzgong'a o'xshaydur», — deb qochub ketdi. Xurus orqasidan «quqq... qurii... quu...» deb qichqirub qoldi.

Aql egasi hiylaga aldanmagay,
Hiylagarning hiylasi boshin yegay.
Do'st ila dushman so'zining farqi bor,
Fahm etar har kimki, o'lsa hushyor.

JANJALCHILIK ZARARI

Bir suv ustiga ko'pruk kabi bir taxta qo'yilmish edi. Bu taxtaning ustidan o'tmak uchun ikki echki ikki tarafdin kelub, bir-biriga yo'l uqti.

Biri dediki: — «Man sandan kattaman, san yoshsan, arqangga qayt, manga yo'l ber», — dedi.

Ikkinchisi:

— San katta bo'lsang, ulug'lig'ing o'zingg'a, man sandan quvvatli. San qayt. Mandan so'ngra o'tarsan, — deb arolarinda zo'r g'avg'o chiqdi.

Ikkisi ham bo'yinlarin egishub, shoxlarin shoxlariga qo'yushib, chunon suzishdilarki, oxirda suvga yumalab tushub, ikkisi ham suvda g'arq bo'ldi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobidan

VATANNI SUYMAK

Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan — uyuridan ayirilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l», — demishlar.

Men ayblik emas, ey vatanim, tog'larim,
Bevaqt tashlab ketdim ayo, bog'larim.
Hijron qilodur meni judolig',
Do'ndi g'ama ro'zu shab chog'larim.

Hammaga ma'lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytib kelurlar. Buning sababi, ya'ni ularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u muhabbatidir. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: «Hubbul-vatani mina l imoni — vatanni suymak iymondandur», — demishlar.

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,
Banga na g'am, qolur avlodima o'yu vatanim.
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujudi zeri vahm,
Charoki, o'z vatanim xokidur go'ru kafanim.
Tug'ub o'san yerim ushbu vatan, vujudim xok,
O'lursa aslina roje' o'lurmi man g'amnok?!

«ADVOKATLIK OSONMI?»

(Bir pardalik kulgi)

Turkiston turmushidan olinub yozilmishdur

O' Y N O V C H I L A R

D a v r o n b e k — musulmon advokat, 24 yoshinda.

X u d o y b e r d i — yer sotg'on chol, qulog'i kar, 55 yoshinda.

X u s h v a q t — ot yo'qotgan tojik, 30 yoshinda.

H a y d a r a l i — mol yo'qotgan dudug', 24 yoshinda.

R a p o i l — nasiyag‘a mol sotg‘on, 60 yoshinda.

E g a m b e r d i — to‘y qilub qarzdor bo‘lg‘on arabakash,
35 yoshinda.

M e h r i n i s o — eri bilan urushub, chiqmoqchi bo‘lg‘on
xotun, 32 yoshinda.

A b d u j a b b o r — xizmatchi, qiziq, 22 yoshinda.

Parda ochilur, mukammal yevropacha bejalg‘on uy. Bir tarafda qozuqlarda osilg‘on kamzul, shim, shlafalar turar. Ustol-ustullar mukammal suratda tuzalg‘on bo‘lur.

D a v r o n b e k . Man bu dunyodan xabarsiz musulmonlarning ahvolig‘a juda hayronman. Man bu yerdan o‘qumoqg‘a ketg‘onimg‘a yetti yil bo‘ldi. Man Ovrupoda o‘qub yurg‘onimda Turkistondan chiqg‘on g‘azitalarni ko‘rub yaxshigina xursand bo‘lur edim. Bizning xalqlarning ham ko‘zlari ochilub, dunyodan xabardor bo‘lg‘onlardur deb o‘ylar edim. Lekin kelub ko‘ramanki, yana eski hammom, eski tos, turgan yeridan zig‘ircha ham qimirlamag‘on, ilgari bosmag‘on, ilm va maorifdan asar yo‘q. El butun toshdek qotg‘on, taraqqiyot, madaniyatdan nishon ham yo‘q. Xalq taassub chuquriga qarab yuz tuban ketg‘on. Oh... Koshki men qaytub kelmog‘on bo‘lsam edi. Bu qayg‘ulik hollarni ko‘rmag‘on bo‘lar edim. (*Eshik taqillar*). Abdujabbor, chiqib qara, kim keldi.

A b d u j a b b o r (*masxara qilib, kulib*). Bir chol kelibdur, kirsunmi?

D a v r o n b e k . Chaqir, kirsun.

*Xudoyberdi eshikdan kirub advokat ila ko‘rishur,
uzundan-uzoq duo qilur*

D a v r o n b e k . Bo‘ldi-bo‘ldi, otajon, ko‘b cho‘zmang. (*Joy ko‘rsatur*). Qani, otajon, nima xizmat?

Xudoyberdi. Ey... Bolam, qo‘y. Mani qilgan ishimni asti so‘rama. (*Cho‘ntagini kovlab, vasiqasin chiqarub, o‘qumoqg‘a*

boshlar). «Zikri hududi yaki qit'az Mir darmurg' dam oriq dumaxona daftarinda 182 raqamda sharqan tamoman payvasta bamulki Dodajonboy 479 gaz arshin va g'arban tamoman payvasta bamulki Abdulkarim oqsoqol 596 gaz arshin, januban tamoman payvasta bamulki varasai Abdumavlonboy 484 gaz arshin, shimolan tamoman payvasta ba haqira hai oima 487 gaz arshin chahor tarafash ma'lum shud».

Davronbek. Juda yaxshi ma'lum shud, otajon. Manga bu vasiqani(ng) nimaga o'qub bervotsiz? Man bu o'qug'onlaringizdan bir narsa ham anglamadim. Maqsadingiz nima? Maqsadg'a keling. Faqat «Ma'lum shud» degan so'zdan boshqasiga tushunganim yo'q.

Xudoyberdi. Shoshma bolam, hamma maqsad shul-da — vasiqaning ichida. Man o'qub tamom qilay, san yaxshilab quloq solub tur. «Chahor tarafash ma'lum shud...»

Davronbek. Otajon! Manga bu vasiqani(ng) o'qub berganingizdan hech bir foyda yo'q. Man bu sizning «ma'lum shud — pa'lum shud»laringizg'a tushunmayman. Maqsadg'a keling! Bu yerg'a kelmog'ingizdan maqsadingiz nima?

Xudoyberdi. Bolam, man sho'ri qaynag'onman. Shul sanga o'qub berg'on vasiqadagi otamdan qolg'on ikki tanob joyimning bir tanobin to'rt yuz so'mg'a bir boyga sotg'on edim. Olti oyda «kupchuk» qilib beraman, deb notarusda «oldim-sotdim» xat qilub, ikki yuz so'm big' puli olub, agarda vaqtida «kupchuk» qilub berolmasam, to'rt yuz so'm qilub qaytaraman, deb o'zim xat bilmaganim uchun notarusni(ng) mirzosiga qo'l qo'ydirub ketgan edim. Ey... bolam, jon... bolam! Man qurg'ur «tana-man», deb beparvolik qilub, olti oy muhlat o'tub ketub, endi boyning oldiga borsam, manga dag'dag'alar qilur. Notarusga kelsam, tezlik ila olg'on ikki yuz so'mni(ng) to'rt yuz so'm qilub olub kelub bermasang, yering xatlanub, so'tda sotiladur, deydur. Yaqinda sudya-pristo'f borub yeringni xatlab keladur, deydur. Jon bolam, oppog' bolam, san shunga bir iloj qilmasang, boshim g'ovlab, juda dovdurab qoldim.

Davronbek. Man musulmonlarni ishiga juda hayronman. Ish bilmaganlikdan, dunyodan xabarsizlikdan ishni pachava qilub qo'yadur-da, eshikma-eshik sudralub yuradur. Xo'sh, endi nima qilmoqchi bo'lasiz? Mani oldimg'a nima uchun keldingiz!

Xudoyberdi. Jon bolam, oppoq bolam, tuprog' olsang, oltun bo'lsun, mendan qaytmasa, bola-chaqalaringdan qaytsun. Shuni bir ilojini qilg'il.

Davronbek. Otajon, buni iloji faqat ikki yuz so'm olg'on oqchangizni¹ to'rt yuz so'm qilub qaytarasiz. Bo'lmasa yeringiz so'tda sotiladur. Mundan boshqa iloji yo'q.

Xudoyberdi. Yo'q, bolam, buni ilojini san qilasan. (*Cho'ntagini kovlar*). Pulim ham uyda qolibdur. Jon bolam, bir so'lkavoy beraman. San manga bir yaxshilab ariza yozub berasan. Shul arizada aytasanki, Xudoyberdi Topildiboy o'g'liga sudyapristo'f yana olti oy suruk bersun. Ana undan keyin man bu olti oy ichinda «kupchuk» kirfichini bitqazub beraman.

Davronbek. Otajon, meni hozir boradurg'on joyim bor. Peshindan keyin soat 3 da keling.

Xudoyberdi. Jon bolam, oppog' bolam, hozir yozib bera qolsang bo'lmasmi? Naki mo'ysafid holimcha ovora qilub yurmasang? Jonim bolam, tuprog' olsang, oltun bo'lsun, hozir yozub bera qol.

Davronbek. Otajon, man sizg'a aytvotman-ku, hozir vaqtim yo'q. Bir joyga boradurg'on zarur ishimi bor. Soat 3 da keling.

Xudoyberdi (*o'rnidan turib, achchig' ila*). Hmmm... bolam! Nimaga muncha zarda qilasan? Man sanga teking'a ariza yozub ber devotmanmi? Yozganda pulg'a yozub berasan. Jahling chiqadurg'on bo'lsa, advokatlik qilma!... Hmmm... bolam, advokatlik osonmi? (*Ketar*).

Abdujabbor (*orqasidan kulub*). — Hmmm... ota! O'risga yer sotub, xat qilub bermoq osonmi? (*Davrong'a qarab*). Qalay, xo'jayin, kar quloq cholni(ng) xo'b, kuzatub yubordimmi? Cho'nchagini kavlavotuvdi, bir narsa berdimi?

¹ *Oqcha* —pul.

Davronbek. Bor ishing'a, ko'p gapurma. (*O'rnidan turib yurub*). Man munda kelub ish boshlag'onimg'a 7—8 oy bo'ldi. Kelgan kishilarning hammasi mana shunga o'xshagan kishilar. Bular bilan so'ylashmoqg'a bir qop jon kerak. Ish bilmag'on va so'zimg'a tushunmag'on odamga jigaringni xun qilub, bir soat-ikki soat vaqtingni bekor o'tkarmoqdan boshqa bularning ahvoliga kuyub, sil bo'lishdan boshqa natija chiqmaydur. Bularning nazarida advokat bir ariza yozuvchi kishi. Har kuni munaqangi odamlardan 20—25 kelub, yo'q yerga miyangni achitub, qoningni buzub, jigaringni ezub, chiqub ketadur. Bul ham kamlik qilub, bir soat umr yoshin fotiha bilan o'tkaradur.

Eshikning qo'ng'irogi jing'irlar

Abdujabbor, chiqub qara, tag'in qaysi bir dardi bedavo keldi.

Abdujabbor (*kelub*). Xo'jayin, bir sallasi katta, juda bir qiziq (*kular*), juda bir g'alati tojik keldi. Valdir-vuldur qiladi. Tiliga tushunmadim, kirsinmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Xushvaqt (*kirar*). Assalomu alaykum, xo'jayin, akunki sanga abdivakat bo'lg'onsan, biz saning oldingg'a kelg'onmuz. Akunki, xo'jayin, maniki ot yo'qotg'on. San bilganki, tavoqdek yag'iri(ng) bor. Yag'iringni ustingga, zang'ar, yog'ingdan surg'onsan. Buku... kun uch kun bo'ldi, qaysi go'rga ketg'oningni bilmaymuz. Qidirasan, qidirasan — topilmaysan. Agar topib berasan, besh tanga suyunchi berasan.

Abdujabbor. Suyunchini kim beradi? San berasanmi, xo'jayin beradimi?

Davronbek (*kulur*). Otni kim yo'qotg'on, kim qidirg'on? Suyunchini kim beradi?

Xushvaqt (*achchig'ila*). Akunki, abdivakat bo'lg'onsan, gapga tushunmaysan. Otingni man yo'qotg'onsan, man qidirg'onsan, san suyunchi berasan.

Abdujabbor (*kulib*). Kim suyunchi beradi? Xo'jayin sanga beradimi, san xo'jayinga berasanmi?

X u s h v a q t (*Jabborning yoqasidan tutub, har ikkisi bo'g'ishur*). Akunki, sanki, abdivakat yo'qsanki, yurmaysan. San bilan ishing yo'qsan, akunki san masxarabozi qilasan, kulasan.

D a v r o n b e k (*o'rnidan turub ikkisin ajratub qo'yar*). Qani, sho pochcha, gapur! Munda nima uchun kelding? O'turub gapur!

X u s h v a q t. Akunki xo'jayin, man kecha folbinga, ayuzoyimkashg'a borg'onsanki, kaftingga bir so'lkavoy qaytarg'onman. Kitobingni varaqlab-varaqlab aytg'onsanki, oting arusni qo'liga balnitsaga tushg'on. San bukun balnitsaga borg'onmuz. San arusni tilingg'a bilmag'onsan. Balnitsaxonada arus ayg'onsanki, arus tilini biladurg'on odam olib gaplasan yoki ariza yozub olub gaplasan, degansan.

A b d u j a b b o r. Hali qarab turing, otni keyindan ikkingiz ham kasalxonaga borasiz.

D a v r o n b e k. Juda yaxshi bo'lubdur, oting balnitsaga tushgan bo'lsa. Borub unda do'xturlikni o'rganivotkandur.

X u s h v a q t. Akunki xo'jayin, oting do'xtar yo'qsan oyg'ur (ayg'ir).

D a v r o n b e k. Yaxshi, do'xturxonadan borub, otingni xabarini oldingmi? Oting bor ekanmi?

X u s h v a q t (*ochchig'lanub*). Do'xturxonaga man borasan, san bormaymuz, kasal bo'lg'oning yo'qsan.

A b d u j a b b o r (*kulub*). Do'xturxonaga ikkalangiz birga borasiz. Ikkovingizni ham boqizmoq kerak.

X u s h v a q t. San haromzodag'a gapurmaymiz. San nimaga bizning so'zingg'a aralash bo'lasan. (*Jabborga qarab yugurar*).

Abdujabbor qochar

D a v r o n b e k (*Xushvaqtni qo'ludan ushlab kelub, o'tqazub*). Qani, sho pochcho, uni qo'yaber, gapurgin-chi, munda nimag'a kelding? Nima qilmoqchisan? Maqsading nima?

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, munda gaplaganga maqsading shul bo'lg'onsan. Man arus tilingni bilmaymuz. Bir so'lkavoy xizmat haqingni beramuz. Mani ila birga balnitsag'a borub otingni arusni qo'lidan gaplashub olib beramuz. Abdujabbor (*kulur*).

Mana endi ikkingiz balnitsaga boradig'on bo'ldingiz. Tezroq-tezroq bormasalaringiz kasalingiz zo'rayub ketadur.

Davronbek. Sho pochcho, biz tilmochlikni tashlab yuborg'onmiz. Tezroq bor. Bir odam topub balnitsaga borgin, otingni tezroq ajratub olg'il.

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, o'zing bormaysan, xizmatkoringni buyurasan, birga borub otingni arusni(ng) qo'lidan olub bermasang bo'lmysan.

Abdujabbor (*kulur*). Sho pochcho, balnitsaga man bormayman, o'zing bora ber, man kasal bo'lganim yo'q.

Davronbek (*achchig'lanub*). Sho pochcho, meni zarur ishim bor. Bir joyga boraman. San ham tezroq borub otingni ajratub ol. Ko'p gapurub munda maynabozlik qilub o'lturma.

Xushvaqt. Akunki xo'jayin, sanki abduvakot bo'lg'onsan, man sani arus tilingni bilmaymuz, bo'lmasa bir yaxshi ariza yozub berasan. Arusingg'a olub borub beramuz. Otingni balnitsaxonadan ajratub olamuz. (*Yonidan belbog'idan hamyonini olub bir so'm chiqorub bermoqchi bo'lar*).

Davronbek. Sho pochcho, puling yoningda tursun. Hozirda meni bir yerda zarur ishim bor. Soat uchda kelg'il, juda yaxshilab ariza yozub beraman. Borub otingni ajratub olasan.

Xushvaqt (*ochchig'lanub*). Gapurasan, gapurasan ish qilmaysan. Juda dangasa bo'lg'onsan. Hozir yozub bermaysan. Odamni ovora qilasan (*o'rnidan turub*). Xmm... Abduvakot bo'lg'oning osonmi? Soat uchda kelamuz, yozub berasan, aldamaysan! (*Chiqub ketar*).

Abdujabbor (*yaqun klub*). Xo'jayin, hamyonini kovlavotgan edi, pul-mul berdimi?

Bizga ikki oydan beri moyana tegmay yotipti. Kecha ukam kelgan edi. Otam tayinlab yuborg'on ekan, uyimizda go'sht, yog', gurich, sovzi, piyoz, o'tun-ko'mur, tuz, chirog' butun odosh¹ bo'lg'on emish. Shunga pul kerak edi, pul. Xo'jayin, bir nimarsa

¹ *Odosh* – tamom.

qilub, bir ilojini qilmasangiz, ulay-bulay qilub, u yog'-bu yog'ingizni kovlab, amal-taqal qilub bir oz oqchani(ng) tadorikini qilub, loaqol ikki oylikni berolmasangiz ham biror oylikni marhamat qilmasangiz, bo'boydan baloga qolamiz.

Da v r o n b e k . Bir oz sabr qil, sanga nima bo'lsa-da, oqcha topub berurman. Shoyad biror-bir durustroq ish kelub qolsa. Juda bo'lmasa ishkof-fishkoflardan birortasini sotub seni haqqingni berurman. Bor, xobar ol, choy tayyor bo'lg'on bo'lsa olib kel. (*Abdujabbor ketar*).

Oh, koshki men advokat bo'lg'uncha do'qturlik ilmin tamom qilub, do'qtur bo'lg'on bo'lsa(m) edim. O'zim uchun ham yaxshi bo'lub, xalq uchun ham foydalik bo'lur edi. Men jigarimni xun qilub o'qub yotg'on vaqtimda ba'zi yor-do'stlarim menga aytgan edilar: «Sen advokatlikdan ko'ra do'qturliqg'a o'qug'il». Man o'ylag'on edim, huquqdan mahrum, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning oz-moz bo'lsa-da, qo'limdan kelg'oncha huquqlarin himoya qilsam. Xalqg'a manfaat yetkursam, degan edim. Meni ul umidlarim bo'shg'a chiqdi. Mana ko'rasiz, xalq mandan, man xalqdan bezor bo'ldim. Endi ochuq manga ma'lum bo'ldiki, umuman xalq orasinda ilm va ma'rifat tomir yoyub, madaniyat taraqqiy qilmag'uncha manga o'xshash bir-ikki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko'zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turub yulduzlarg'a qo'l uzatmoqg'a o'xshash xayoliy bir nimarsa ekanlig'i emdi ochiq va aniq ma'lum bo'ldi. Mana ko'rasiz, yonimg'a kelgon kishilarning hammasi bir-biridan battar sahroyi va baqiroq, quruq fotihadan boshqa bir narsa yo'q. Yetti-sakkiz oy ichinda bor-yo'qni yeb bitirdim, emdi novbat uy asboblarig'a yetdi. Yaxshisi shulki, esing borida etagingni yop degandek, taxta-o'qlog'ini yig'ishtirub biror kanturg'a kirub xizmat qilmasam, bu yo'lda borganda sil bo'lmoqdan boshqa natija chiqmaydurg'ong'a o'xshaydur. (*Abdujabbor choy keltirar*).

A b d u j a b b o r . Xo'jayin, hech kim kelgani yo'qmi?

(*Eshik qo'nrirog'i jing'irlar*)

Davronbek. Jabborqul, chiqub qara, qaysi olihimmat keldiykin?

Abdujabbor (*kirub, zo'r berub kulur*). Olaverasiz, xo'jayin, bir g'archcha yog', bir juda soqoli uzun juhut kelubti, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Rapoil eshikdan kirar. Salom berar. Davronbek alik olar, yer ko'rsatur. O'ltirar. Yonidan vekselsizmi, ustol ustiga qo'yar.

Rapoil. Garamjon, man bir odamg'a bir yil va'dag'a yuz so'mga nasiyaga mol sotib edim. Garamjon akun juda muttaha odam ekan. Hozirda ikki yil yaqin bo'ldiki, mani pulimni bermaydur. Garamjon, veksilim oq veksil edi, notarusg'a borsam ariza bilan qo'shub berg'il deydu. Garamjon, bir so'm pul berayin, yaxshilab bir ariza yozib bersangiz, shu muttaha odamdan pulimni undirub olsam.

Davronbek. Qarzdor odam qarzidan oz-moz to'laganmi yoki butun hammasini talab qiliasizmi?

Rapoil. Garamjon, bir-ikki karra besh-o'n so'mdan bergan. Qirq so'm to'lagan, oltmish so'm qolgan.

Davronbek. Siz bir odamg'a agarda molni nasiyag'a sotadurg'on bo'lsangiz, oltmish so'mlik molni yuz so'mg'a bersangiz yaxshi. Endi nima qilmoqchi bo'lasiz? Shu veksil yuzasidan yuz so'm talab qiliasizmi yoki qolgan oltmish so'mni so'raysizmi?

Rapoil. Garamjon, juda muttaha odam ekan mani ovora qildi. Albatta shu veksildagi yuz so'mni(ng) beraberadur.

Davronbek. Man bunday ishga ariza yozmayman. Siz boshqa bir odamg'a borub yozdiringiz. Olasining oltmish so'm qolg'on bir kambag'al bechorani kuydurub yuz so'm olmoqchi bo'lasizmi?

Rapoil. Garamjon, siz ba'zi boylarning qiladig'on ishidan xabaringiz yo'q ekan. Bir boshputg'a ikki qat hujjat qilub oladurlar. Masalan, bir veksil olub, yana bir tilxat qildirub oladurlar. Agar vaqtida to'lay olmasa ham veksilg'a, ham hujjatg'a oqcha oladurlar.

Bir odam bir yuz so‘m qarzdor bo‘lsa, ikki yuz so‘m to‘laydur. Yana ellik so‘m xarajot to‘lasa, ikki yuz ellik so‘m to‘laydur. Man garamjon, unaqa qilvotg‘onim yo‘q-ku? Nihoyati oltmish so‘mni yuz so‘m qilib olaman. Yozabering, xizmat haqingizni yaxshi beraman, garamjon.

Davronbek. Yo‘q, man munday xiyonat aralashadurg‘on ishlarg‘a ochdan o‘lsam ham aralashmayman. Siz borub bir boshqa odamga yozdiring. Agarda xohlasangiz man faqat oltmish so‘mning o‘zigagina yozaman.

Rapoil. Xayr... xayr... garamjon. Siz xafa bo‘lmang. (*Cho‘ntagini kovlar, pul olib bermoqchi bo‘lur*). Mana, garamjon, yak so‘m. Arizani juda yaxshilab yozingiz.

Davronbek. Hozirda meni zarur yumush bilan boradurg‘on yerim bor, soat to‘rtida keling.

Rapoil. Garamjon, mani ovora qilmang, soat uchda mani ham ishim bor. Do‘konim ochiq qoladi. Hozir yozib berasiz, mo‘ysafid holim bilan mani ovora qilmang.

Davronbek. Aka domullo, so‘z degan bitta bo‘ladi. Hozir mani ariza yozmoqg‘a vaqtim yo‘q, sudg‘a boradurg‘on ishim bor.

Rapoil (*o‘rnidan turub*). Garamjon, xafa bo‘lmang, bo‘lmasa soat uchda kelaman. Tog‘in va‘dangizg‘a xilof qilmang. Albatta soat uchg‘a kelaman. Siz ham borg‘on yeringizdan soat uchdan kech qolmay keling.

Davronbek. So‘zni ko‘p cho‘zmang, gap degan bitta bo‘ladi.

Rapoil. Garamjon, hmm... advokatlik osonmi? Man sizga bekorga ariza yozib bering devotmanmi? (*Chiqib ketar*).

Abdujabbor orqasidan masxara qilib, kulub qolur

Davronbek. Birni ko‘rub fikr qil, birni ko‘rub shukr qil demishlar. To‘g‘ri so‘zdur. Man musulmonlarning hol-ahvollarin ko‘rub xafa bo‘lsam, juhudlarning orasida ham shunaqa ezma kishilar bor ekan. Albatta dunyodan xabarsiz, ilm-u maorifdan

xabarsiz qavmlarning hol-ahvollari shunday bo‘ladur. Faqat bularning ishlari bir-birlarin aldamoq va bir-birlarin tuzoq qo‘yub tutub oshamoqdur. Bularning orasiga ilm va madaniyat nurlari yoyilub, inson qatorig‘a kirmaguncha o‘zlari eshikma-eshik ovora bo‘lganlari bir sari, manga o‘xshag‘on o‘z elimg‘a, xalqimg‘a foyda yetkurarmukinman, degan kishilarning miyasini qoqub qo‘lig‘a berub oz fursatda jinni qilishlari tabiiydur. (*Eshik qo‘ng‘irog‘i jing‘irlar*). Abdujabbor, chiqub qara, tag‘in qanaqa dardisar kelgan ekan.

Abdujabbor (*chiqib kirar, suyungan holda*). Xo‘jayin, damingizni chiqarmang, bir juda yasang‘on xotun, bir juda katta boyni xotunig‘a o‘xshaydi.

Davronbek. Bor, ko‘p sergap bo‘lma, chaqir, kirsun.

Mehriniso (*eshikdan kirar, so‘rashur, Advokat joy ko‘rsatur, o‘ltirar*). Jonginam, opaginang aylansun, sani daragingni eshitub olding‘a keldim. Bizani mahallani yaqinidagi Rustambekni o‘g‘li ekansan. Opaginang aylansun, man boshimdan o‘tgan sarguzashtlarimni sanga birin-birin so‘ylab berayin, san yaxshigina quloq solub, tinglab, xatga yozub turgin. Opaginang aylansun, qo‘lingg‘a qalam-qog‘ozingni ol.

Davronbek. Xolajon, avval gapiradurg‘on gapingizni cho‘zmasdan qisqagina qilub gapirung. Qog‘oz, qalamga navbat keyin keladur.

Mehriniso. Opaginang aylansun, dunyoda mani hasratimga quloq soladurg‘on odam ham bor ekan. Dod-faryodimga yetadurg‘on kishini endi topdim. O‘n besh yildan beri man baxti qaro sho‘rlik¹... degan bir qimorbozni qo‘liga tushub, o‘tga yoqilub, toshg‘a chaqildim. Kuyub-o‘rtanub cho‘b-ustuxon bo‘lub ketdim. Rahmatlik ota-onam bor vaqtida bu yigit o‘lgur erim manga muncha zulm qilolmas edi. Ular o‘l gandan keyin ayniqsa bu sho‘rlik boshim to‘qmoq ostida qoldi. Har kun ichg‘on oshim zahar-zaqqum, ko‘rg‘on kunimni it ham ko‘rmasun. Mani muttaham erim qurgur bir kun qimorg‘a yutqizub kelub, alamini

¹ *Sho‘rlik* – o‘qib bo‘lmadi.

mendan olsa, bir kun mast bo'lub kelub, man sho'rligni boshiga qiyomat kunini soladi. Ichg'on oshim — zahar-zaqqum, ko'rgan kunim — jahannam!

Davronbek. Xolajon, bu yerga kelishdan maqsadingiz nima — shundan gapuring, gapni ko'b cho'zmang.

Mehriniso. Opaginang aylansun, jonginamni choqay. Mani hasratlarim juda ko'p. Bir boshidan sanga tushuntirmasam, maqsadimga yetmayman, alamimdan chiqmayman. «Etni tutog'i bit» — degandek, mani qimorboz okam qo'yarda-qo'ymasdan, ota-onalarim mung'a bermaymiz, desalar ham yolg'on-yashiqlarni gapurub, maqtab, shu zolimni qo'lig'a mani asir qilub qo'ydi. O'n besh yildan beri it azobin tortaman, dard-u hasratlarimni aytayin, desam hech bir jonkuyarim yo'q. Bir necha martaba qozig'a borub arz qilg'on edim, yigitgina o'lgur erim ma'ruzmi, rivoyatmi, allanima balolar qilub, yana uyiga haydab olib keldi. Manga yo'l-yo'ruq ko'rsatadurg'on bir jonkuyar bo'lmadiki, u zolimning qo'lidan man mushtiparni ozod qilsa!

Davronbek. Xolajon, endi nima qilmoqchi bo'lasiz, eringizdan chiqmoqchimisiz?

Mehriniso. Opaginang aylansun, ilojini topsam ul zolimni uyida bir nafas ham turmayman.

Davronbek. Eringizni sizg'a jabr-zulm qilishig'a mahallangizni domla-imom, ellikboshilari sizni(ng) tarafingizdan guvohlik beradilarmi?

Mehriniso. Opaginang aylansun, ijoraxo'r imom ila poraxo'r ellikboshi qachon man mushtiparni tarafi bo'ladi deysan. Qozixonaga borganda hamma-hallalari muttaham erimni tarafi bo'lib ketdilar.

Davronbek. Bo'lmasa, endi eringiz urgan vaqtida qo'ni-qo'shnilaringizdan ikki kishini guvoh qilib manga keling, man ilojini qilaman.

Mehriniso(*boshini ochub, yarasini ko'rsatur*). Opaginang aylansun. Mana o'tgan kuni urgan. Yarasi hali ham tuzalgani yo'q.

Davronbek. Mana, man sizg'a katta ko'chadagi do'xturxonag'a qog'oz yozub beraman. Olib borsangiz, qo'lingizg'a guvohnoma qilub beradur. Soat uchda shu guvohnomani olub keling, man sizg'a tegishlik joyga ariza yozub beraman. Tez fursatda zolim eringizdan qutulursiz.

Mehriniso. Opaginang aylansun (*o'rnidan turub*), advokatlik oson ish emas, manga o'xshag'on g'arib-benavolarni(ng) dodiga etmoq kerak (*chiqib ketar*).

Abdujabbor (*orqasidan*). Qimorboz erga tegub, kaltakini yeb, boshlarni yorub yurmoq ham oson emas.

Davronbek (*o'rnidan turub jiddiyat ila*). Oh, zolim madaniyat, bizim turkistonliklarning orasig'a qachon kelub tomir yoyasan?! Qachon bizim bu jaholat zindonidan xalos qilasan?! Bizda uy tarbiyasi boshlanub, xotun-qizlarimiz ilm-u maorif ila nurlanmag'uncha, bizning oramizda shunday ko'ngilsiz hollar davom etsa kerak. Mana bu xotun bechorani erga berg'on vaqtlarida o'z xohishi bilan, o'zining rizolig'i bilan, o'zi ko'rub xohlag'on eriga bermasdan hayvon kabi kuchlab, qo'lidan tutub, bir zolimning qo'lig'a berganlar. Bu mushtipar ma'sumaning butun umri azob-mehnatda, qayg'u va kulfatda o'tub dunyog'a kelg'oniga-da ming marotabadan pushmon yeb g'am zindonida yashag'on. Mana bizning oramizdan munday ko'ngilsiz hollarni(ng) yo'q qilmoq uchun butun kuch-quvvatimizni(ng) xotun-qizlarimizni(ng) o'qutmoq, maorif va madaniyat ila oshno qilmoq yo'linda sarf qilmog'imiz lozimdur. Shundagina bizlar ham boshqa qavmlar orasinda o'rtoqchasig'a yashamog'imiz mumkindur. (*Eshik qung'irog'i jing'irlar*). Abdujabbor, chiqub qara, yana kim keldi.

Abdujabbor (*zo'r berub kulur*). Xo'jayin, bo'lib qoldingiz, g'archcha moy, beliga qamchin qisturg'on bir aravakash, kirsunmi?

Davronbek. Chaqir, kirsun.

Egamberdi (*kirub, advokat bilan ko'rishub o'ltirur*). Mullo aka, man bechora juda og'ir kung'a qoldim. Barakal-lachilarning so'zig'a kirub, o'z holimg'a qaramasdan katta to'y

qilub, qarzdor bo‘lub, bir parcha hovlim qarzimg‘a xatlanub, yaqinda sotiladurg‘on bo‘lib qoldi. Xotunim to‘rt adad yosh go‘dak bolalarim ila ko‘chada qoladig‘on bo‘ldim.

D a v r o n b e k . «Ena — o‘ltirishingg‘a qarab chena» degandek, kambag‘al odam nima uchun o‘z holingizg‘a qarab to‘y qilmadingiz, nima uchun ko‘rpangizga qarab oyoq uzatmadingiz?»

Egamberdi. Mulla aka, aslo qo‘yaving, «jin charchaganni urar, dev tegirmonchini», — degandek, man sho‘rligni jin urmasa ko‘chadagi «barakallachi»larning so‘zig‘a kirarmidim. To‘y qiladig‘on vaqtimda qarindosh-urug‘im, yor-do‘stim juda ko‘payub ketdi. Har biri manga to‘yni katta qilmoq uchun nasihatlar qila boshladilar. Ularning so‘zlariga uchub, mani qarasangiz hotamtoy bo‘lib ketdim. O‘zimcha bir qozonchada osh qilub kesdirmoqchi edim. Betahorat benamozni bo‘ynig‘a qo‘ygandek, ikki kun osh berishni gardaning‘a qo‘ydilar. Undan qarasangiz, xotun «aka» janjal qilub, bir kun «xotun oshi»ni bo‘ying‘a qo‘ydi. Shunaqangi qilub Aminjon boyni nevaralari uch kun osh berdilar, kafangado bo‘ldilar.

D a v r o n b e k . O‘zingiz tuppa-tuzukkina tushunadirg‘on odam ekansiz, nima qilub ularning so‘ziga aldandingiz? To‘yni o‘z o‘ylaganingizcha qila qolmadingiz?»

E g a m b e r d i . Ey, mulla aka, man-ku man, ularning gapurg‘on gapiga siz bo‘lsangiz ham aldanar edingiz. Qo‘ynimni puch yong‘oqg‘a shunday to‘lg‘azdilarki, bor-yo‘g‘imdan ayrilgandan keyin ko‘zim moshdek ochildi.

D a v r o n b e k . Bobolarimizning «o‘tgan ishga o‘kinma», «keyingi pushmon — joningga dushman» degon hikmatli so‘zlari bor. Endi nima bo‘lsa, bo‘lib o‘tmishdur. Asosiy maqsadg‘a keling. Munda kelmoqdan maqsadingiz nima? Hovlingiz xatlangan ekan, endi nima qilmoqchi bo‘lasiz?»

E g a m b e r d i . Mulla aka, nima qilmoqchi bo‘lar edim. Man bir aravakash odam munaqangi ishlarga aqlim yetadi deysizmi? Miyasini egan ahmoq bo‘lmasam, «barakallachi»larning so‘zig‘a kirub shu holga tusharmidim. Endi bu xususda maslahatni

o'zingiz berasiz. Shul to'y to'g'risida mahallamizdagi Orifjon boydan veksil berib, pul qarz olg'on edim. Vaqtida to'lolmadim. Besh-olti kun bo'ldi, hovlimni, uy asboblarimni, xotunimni mollarigacha sudya-pristo'v olub kelub xatlab ketdi. Sho'rlik boshim, nima qilishimni bilmay sizning qoshingizg'a keldim. Endi sizdan yordam bo'lmasa, mani hech bir jonkuyar, yo'l ko'rsataturg'on kishim yo'q.

Davronbek. Hovlingiz o'zi necha sarjin¹?

Egamberdi. Hovlim qirq sarjincha bor.

Davronbek. Yigirma sarjinni xotuningizni mahri deb ko'rsatmoq mumkin. Onangiz bormi?

Egamberdi. Yetmush yashar bir mushtipar onam ham bor.

Davronbek. Qolgan yigirma sarjinini onangizning mahri deb ko'rsatiladur. Boshqa xatlang'on mollaringizning ham xotuningizning moli deb ko'rsatmoq mumkin. Boy sizdan hech narsa ololmaydur.

Egamberdi. Jon mulla aka, bu ishlarni(ng) nima bo'lsa ham o'zingiz to'g'rilaysiz, munaqa narsalarga mening aqlim yetmaydi.

Davronbek. Siz bo'lmasa soat uchda keling, yaxshilab man sizga ariza yozib beraman. Shul ariza bilan hovlingiz sotilishdan to'xtaladur.

Egamberdi. Xudo xayr bersun, mandan qaytmasa bola-chaqalaringizdan qaytsun. Manga o'xshagan yo'lda qolg'on odamlarga sizdek o'qig'on-bilg'on kishilar dastgirlik qilmasa, kim qiladur. Advokatlikam oson ish emas. Manga o'xshag'on g'arib-benavolarg'a rahnamolik qilmog'ingiz kerak. (*O'rnidan turub*). Bo'lmasa soat uchda kelaymi? (*Keta turub*). Albatta soat uchda kelaman. Jon mulla aka, arizani juda yaxshilab yozib berasiz (*chiqib ketar*).

Davronbek (*Abdujabborni chaqirub*). Bir istakon choy olib kel, choyim ham sovub qoldi.

Abdujabbor (*Istakonda choy olub kelub qo'yar*). Xo'jayin, hech narsa chiqdimi? Bu keladig'on sirrival-

¹ Sarjin — o'lchov birligi.

qayrog‘lardan loaqal bizning moyanag‘a yetadurg‘on pulmul kelsa edi, yaxshi bo‘lar edi.

D a v r o n b e k . Ko‘p sergap bo‘lma, gap degan bitta bo‘ladi. Har narsa qilsam ham, sani bugun bo‘lmasa erta, o‘zimni hindig‘a garov qo‘ysam ham, oqcha topub beraman. Bor, o‘z ishing‘a bor.

Abdujabbor chiqub ketar

Mana ko‘rasanki, bu dunyodan xabarsiz, ilm-u maorifdan mahrum, madaniyatdan uzoq yashagan bizning xalqimiz hali qanday qizg‘onch, qanday qo‘rqinch, qanday tahlikali ekanlig‘i oftobdan ham ravshan ko‘rinub turadur. Bir kambag‘al arobakash nodonliq soyasida bid‘at to‘y uchun butun bor-yo‘g‘idan ayrilub kafangado bo‘lgan. Bir necha yildan beri topgan bolalarin o‘qitmak uchun kerak bo‘ladurg‘on oqchasidan ayrilmoq ila barobar bir parcha hovlisi ila mol va ro‘zg‘oridan ham butun mahrum bo‘lub jaholat va nodonlik yo‘lida butun oilasi ila qurbon bo‘lg‘on. Munday bid‘at va isroflarning yo‘q bo‘lmog‘i xalqimizning maorif va madaniyat ila taraqqiy qilmog‘iga bog‘liqdur. Agarda biz hozirgi ilm va urfon taraqqiy qilub, butun dunyog‘a nur sochib turg‘on bir zamonda eng muhim vaqtlarimizni ana shunday bid‘at, quruq o‘yin-kulgi, tortish va talashlar birla o‘tkarsak, dunyo yuzindan inqiroz olamig‘a qarab ketmog‘imizga shak va shubha yo‘qdur. Munday bid‘at va isroflarni(ng) oromizdan yo‘qotmak uchun yoshlarimiz butun kuch va quvvatlarini(ng) ilm va maorif yo‘liga sarf qilmoq ila barobar tish va tirnoqlari ila butun quvvatlarini(ng) bu bid‘at ishlarini(ng) yo‘q qi(l)moq yo‘lida tirishmoqlari lozimdur. (*Eshik qo‘ng‘irog‘i jing‘irlar*). Abdujabbor, chiqub boq, tag‘in qaysi bir bosh og‘rig‘i keldi.

A b d u j a b b o r (*kelub, zo‘r berub kular*). Xo‘jayin, xo‘jayin, men... juda bir qiziq... juda bir g‘alati... hali kelsa ko‘rarsiz, kula-kula o‘larsiz.

D a v r o n b e k . Ko‘p sergap bo‘lma, bor chaqir, kirsun.

H a y d a r a l i (*kirar*). Aaaassalom alaykum!

Davronbek. Vaalaykum assalom, hush keling, o'tiring. Qani, nima xizmat?

Haydarali. Mmmm...an bbbbukun uuuuuch ikki... un bbb..o'ldi. Uuu...yimdan mol o'g'urlatg'on eee..dym. Bugun daragini ttopdim. Mmmani molimni olgan odam qozog' ekan. Endi yugurib sizning oldingizg'a kkkeldim. Iiiloj qilib shul odamdan mani molimni olub berasiz.

Davronbek. Yaxshi, o'rtoq, ma'lum bo'ldiki, siz mol yo'qotgan ekansiz. Molingizni olgan odam qozog' ekan. Daragini topibsiz. Munda nimaga keldingiz? Endi nima qilmoqchi bo'lasiz?

Haydarali. Nnn...ima qilmoqchi bbb... bo'lardim, shshsh...ul odamdan mmmani mmm...olimni olib berasiz.

Davronbek. Man qozi emasman, yoki bir amaldor emasman. Birovni molini birovga olib bermoqga mani kuchim yetmaydi. Siz molingizni olg'on odamni topsangiz» qoziga chaqirtiring, qozi hukm qilub, molingizni olub beradur.

Haydarali. Mmman ul odamni ttonimayman, llekin bbbir odamdan eeshitdim, dddaragini ttopdim.

Davronbek. Bir odamni(ng) o'g'ri qilmoq uchun birovdan eshitgan gap kifoya qilmaydur. Mol ila ushlamoq kerak yoki ko'rg'on-bilg'on guvoh-isbot kerak bo'ludur. Munaqangi ko'rma-ko'raki bir odamni(ng) o'g'ri qilub bo'lmaydur.

Haydarali. Ggguvohlarim bbbor, bbbo'lmasa siz manga qqqozig'a bir ariza yozub bering.

Davronbek. Guvohlaringizni otini, otasini(ng) otini bilasizmi?

Haydarali. Iyyo'q, bbbilmayman.

Davronbek. Bo'lmasa, borub guvohlaringizni nomlarini, otasini(ng) otini ham turadurg'on joylarini, hamda molingizni olg'on odamning otini va turadurg'on joyini yaxshilab bilub keling.

Haydarali. Mmman xxxat bilmasam, hhhammasini otini esimdan chiqarub qo'yaman. Mmmang'a shshogirdingizni qo'shasiz. Mmman bilan bbborub yozub olub kkkeladur.

Davronbek. Shogirdim sizdan ham battar, xat yozishni bilmaydi.

Haydarali. Bbbo'lmasa o' o'zingiz bbborasiz, bbbiz sari qadam bbbosganingizg'a sizni qqquuruq qo'ymayman.

Abdujabbor. Xo'jayin, bo'b qoldingiz, bora qoling, o'zingiz ham juda zerikib o'turub edingiz, o'ynab kelasiz, ham pul topasiz.

Davronbek. O'rtoq (*kulub*) mani juda ishim ko'b, siz bilan bormoqg'a qo'lim tegmaydur. Ko'b gapni cho'zmang. Borub, guvohlaringizni yaxshilab bilub, soat uchda keling. Man sizga juda yaxshilab ariza yozub beraman, molingiz tezda qo'lingizg'a kiradur... (*jiddiyat ila o'rnidan turub*). Mana ko'rasiz, bizning xalqning holi! Hammasini(ng) yig'ishtirib kelsangiz, bir pichoqg'a sop bo'lmaydur. Bir tarafdand, bularning nodonliklarig'a va ahvoli olamdind xabarsizliklarig'a ich-ichingdand yonsang, ikkinchi tarafdand bularning yana ketayotgan vaqtlaridand ham «...advokatlik osonmi?» deb masxarand qilub ketishlarid jigarimnid boshinid ezadi. Yo'q, hali ham bo'lsa tezda jinni bo'lmasdand ilgari bu taxta-o'qlog'ini yig'ishtirub, birorta kanto'rg'a xizmatg'a kirmasam, yaqin fursatdand bu johil va nodon, o'z haq va huquqinid anglamagan xalqlarigand foydand yetkuraman, deb o'z jonimg'a jabr qilmoq ham durust emas. Shul to'g'ridand bobolarimizning hikmalid so'zlari bor: «Qaromug'¹ donasi bo'lg'unchand, bug'doyning somonid bo'l, yamonning yaxshisid bo'lg'unchand, yaxshining yamonid bo'l». Albatta, bu so'z to'g'ridand so'zdir. (*Oynagand qarab, u yog'-bu yog'ini tuzatub, soatig'a qarab*). Soat bir bo'lub qolubdur. Har nima bo'lsa ham bir daf'id savdo uchund shahardan tashqarid birorta o'rtog'imning bog'igand borub yuragimnid chigilinid yozub kelmasam, sil bo'lishumgand sag'al qolur. (*U yog'-bu yog'ini tuzatub, Abdujabbornid chaqirub*). Abdujabbor, san hech yoqg'a qimillama, boyagid ikkid odam guvohnomand olib kelsa, olib qol, boshqalari kelsa, aytgilki, advokat bugund juda uzoq bir joyg'a

¹ Qaromug' — yovvoiyy o'simlik turlaridand biri.

mehmon bo‘lub ketdi, ertaga keling, deb jo‘natib yubor. Tag‘in eshikda mani poylashub o‘turmasun. Man kechqurun soat beshda kelaman (*chiqub ketar*).

Abdujabbor. Bu bizni advokat xo‘jaynimizni o‘zi ishni ko‘zini yaxshi bilmaydi. Xalqni aldab, pulini olish ilmini o‘rgangan emas. «Lo‘lini eshagini sug‘or, pulini ol», degan eski zamondan qolg‘on gapga ham aqli yetmaydur. Oldiga kelg‘on odamlarning barig‘a unaqa qil, munaqa qilub kel (deb), hammasini oldidan quruq chiqarub yuboradur. Ularg‘a to‘g‘risini gapuraman deb, unaqangi-munaqangi deb ertalabdan-kechgacha boshlarini qotirub o‘tiradur. Bizning odamlarga unaqa-munaqa deb falsafa sotish kerak emas, ish qilmoq kerak, ish ko‘rsatmoq kerak, yo‘l topmoq kerak. Pul, ey qurboning bo‘lay oqchajon, to‘ram, sira pul bechora Abjabbor akang‘a ham yuzingni ko‘rsatasanmi, yo‘qmi?.. Shoshmang, mana, man hozir pul topishni hiylasini topdim. Ko‘rasiz, man advokat bo‘lsam, pulni nishobini qanday o‘zimg‘a og‘dirar edim. Bizning advokat tog‘omiz o‘zi ishning ko‘zini bilmaydur. Mana man hozir advokat bo‘laman, ko‘rasiz; man qanday pul topaman (*yugurib borub osig‘liq turg‘on advokatning eski kiyimlarin kiyub, advokat bo‘lub o‘ltirub, papiros chakur*).

Yuqorida zikr qilinmish kishilar birin-ketin kelub, ariza yozdirurlar. Har birlarining arizalarin juz‘iy chaqiriq qilub, chizub konvertg‘a solub, qo‘llarig‘a berub, jo‘natub, har birlaridan bir-ikki, uch, to‘rt so‘mdan pul olur.

Abdujabbor (*o‘zidan-o‘zi kulub, suyunib*). Mana ko‘rdingizmi, bizning advokat o‘zi ishning ko‘zini bilmaydur. Ul ertalabdan beri jigarini xun qilub, bir tiyin ham topgani yo‘q edi. Man yarim soat ichida yigirma so‘mga yaqin pul topdim. Har narsag‘a ham hunar kerak, hunar!

Shul vaqt eshikdan hamma ariza yozdirg‘onlar kelub, advokatning xizmatchisi ekanini anglab, yaxshilab ururlar.

Parda tushar

1914

Abdulla Avloniy maqolalaridan

KIM NIMANI YAXSHI KO‘RAR?

Ehtimol, bizning xalq ilm-u ma‘rifatni, tarbiya va ta‘limni, hunar va sanoatni yaxshi ko‘rar, deb o‘ylaydurg‘ondursiz? Yo‘q, bu fikringiz yonglish. Eshonlarimiz toat va ibodat, pand-u nasihat, zikr-u tasbeh o‘mig‘a to‘ylarda to‘n kiyub ko‘p oshab, ko‘p uxlashni yaxshi ko‘rurlar. Ulamolarimiz dars-u ta‘lim o‘mig‘a, bir-birlari ila o‘run talashib mukarrir va mudarris bo‘lishni, o‘zlari bo‘lolmay kolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzishni yaxshi ko‘rurlar. Imomlarimiz, xaloyiqg‘a va‘z va nasihat o‘mig‘a, to‘y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko‘rurlar. Boylarimiz orqa-o‘nglarig‘a qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan bir-birlarig‘a raqobat qilaman, deb «bonka» va «kredit»larini ko‘payturub, do‘ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning mollarini bukub-sinishini yaxshi ko‘rurlar. Mo‘ysafidlarimiz namoz va niyoz o‘mig‘a, masjid eshigiga yig‘ilub o‘turub, har kimni g‘iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko‘rurlar. Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg‘onishub, bolalarni arzon o‘qitaman deb, bir o‘zlariga yuz, yuzdan ortuq bola yig‘ub, o‘zlari to‘y va ma‘rakalarda bolalarning umrini bekor o‘tkarishni yaxshi ko‘rarlar. Savdogarlarimiz: «To‘ylikni to‘yi o‘tar, to‘ysizni kuni o‘tar» degan so‘zga amal qilmay, qaysi mahallada to‘y bo‘lsa, dasturxonchilik qilishni yaxshi ko‘rurlar. Muazzinlarimiz azonni yaxshilab adoyi maxraj qilub aytishni o‘rganmay, bir joyda to‘y bo‘lub qolsa, «Falonchinikiga oshga-ho!» deb qiroat ila qichqirishni yaxshi ko‘rurlar. Do‘kondorlarimiz ishlarini tartib-la solmay, zamonag‘a muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg‘on eski do‘kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko‘rurlar. Onalarimiz bilim va tarbiya o‘mig‘a erlari ila urushub-talashub qizlarig‘a mol qilmakni yaxshi ko‘rurlar. Otarimiz bolalarig‘a o‘qutmak va ta‘lim bermak o‘mig‘a: «O‘g‘lum, emdi kattakon yigit bo‘lding, shuncha o‘quganing yetar, pul top!», deb «tashishka» — hammollik qildirishni yaxshi ko‘rurlar. Kosiblarimiz

bir-biridan mollarini arzon sotaman deb tezgina yirtiladurg'on, tikishlar undan urub, mundan chiqq'on, suvni yetti chaqirim yerdan chaqiradurg'on mahsi va etiklar tikub, sotishni yaxshi ko'rular. Zargarlarimiz yigirma tiyinlik kumush, o'n tiyinlik tillo orasig'a mum va saqichlar joylab, ismini qiz hayron, zebigardon qo'yub, besh-o'n so'mga sotishni yaxshi ko'rular. Tabiblarimiz dolchin, zanjabil, hubbul malik, filfil kabi bir necha attorni qutisida yo'q narsalardan murakkab doru va ma'junlar yasab, bechora nodon xalqni pulini olishni yaxshi ko'rular. Mashshoq va hofizlarimiz to'y va bazmlarga bir mardakni(ng) ismini bachcha qo'yub, o'zlari ila barobar olib yurub, «milliy adabiyot» o'rnig'a «Xonim yalola, begim yalola» deb bachchaga tashlayotgan pullarni bo'lub olishni yaxshi ko'rular. Savodxonlarimiz jarida va jurnallar. Tarix va ro'monlar o'rnig'a Daqyonus zamonidan qolg'on, xurofotlar ila to'lg'on «Andog' urdilarki, gard-gard bo'lub ketdi», deb loflar yozilg'on kitoblarni og'izlarini ko'furturub o'qumoqni yaxshi ko'rular. Yigitlarimiz milliy majlis va suhbatlar o'rnig'a to'kma va samavarlarda, rasta va do'konlarda o'lturub, «Falonchining o'g'li xo'b yaxshi bola bo'lubdur, kecha falonchining mehmonxonasig'a qamab, qiyqirtirub bazm qilduk. Emdi fistonchining o'g'lini(ng) ham bir bazm qilsak, dunyodan armonsiz ketar eduk» deb, islomiyatdan uzog' insoniyat nomiga yarashmagan ishlarni qilmoq va so'zlashmoqni yaxshi ko'rular. Yoshlarimiz ilm va ma'rifatli bo'lishni, hunar, san'at o'rganishni o'rnig'a, o'zlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'rular. Ishchilarimiz ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa millatlar ilm-u ma'rifatlari soyasida kuniga 4—5 so'm ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangag'a mardikorlikni, oyig'a o'n besh so'mg'a qorovullikni, yigirma so'mg'a fanar yoqishni, o'n so'mg'a ko'nka yo'lini tozalashni va shularga o'xshash eng past va og'ir xizmatlarni yaxshi ko'rular. Bolalarimiz otalarimizning ilm qadrin bilmagan, ilm uchun pulni ko'zlari qiymaganlik sababli o'qumoq va o'rganmoq o'rniga: «Oh pul, jonim pul», deb «tashishka» — hammolikni yaxshi ko'rular.

Muharrirlarimiz ko‘b-ko‘b oqcha olib, oz-oz yozishni yaxshi ko‘rurlar. Mushtariylarimiz foydali maqolalar o‘rnig‘a xabarlarni yaxshi ko‘rurlar. Dumalarimiz majlisga kelib, ustulga suyolub farog‘at qilib turg‘on vaqtlarida, bir tarafdin qattiqroq tovush chiqsa, cho‘chib uyg‘onishni yaxshi ko‘rurlar. Shoirlarimiz milliy she‘r va adabiyot yozishni o‘rnig‘a muvashshahmi yoki «qoshingdan, ko‘zingdan», deb, javonlarni maqtab fasod axloqg‘a sabab bo‘ladurg‘on she‘rlar yozishni yaxshi ko‘rurlar. Ammo men bo‘lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko‘rurman.

SANOYE NAFISA

Inson bolalari eng eski zamonlarda yirtqich hayvonlardan o‘zlarini saqlamoq uchun tog‘ teshuklarida, g‘or (mog‘ora)larda yashagan vaqtlarida tinch yotmaganlar, jim turmaganlar.

Sekin-sekin tog‘ teshuklaridan boshlarini chiqarib, tabiatning yasagan va o‘sdirgan, vujudga chiqargan jonliq va jonsiz narsalarini sinchiklab tekshirib qaray boshlaganlar. Ko‘ngillariga yoqishgan, ko‘zlariga yaxshi ko‘rungan hayvon va boshqa narsalarning rasm, haykallarini (gavdalarini — A. A.) qanday qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, toshlarga, toshlardan va temirlardan cho‘kichlar yasab, suratlarini, rasmlarini o‘yganlar. Kelgusi uchun yodgor qoldirganlar.

Masalan, ikki kiyik bir-biri bilan suzishib turganligi yoxud bir tog‘ takasining semirub ko‘grab yurganligi yoki bir tog‘ buqasining baqirib, hayqirub, dumini xoda qilub, ozod va sarsin yurganligi yoki yirtqich hayvonlarning boshqa hayvonlarga qilib turgan zo‘rliq va yirtqichliklarini ko‘rganlar-da, mutaassir¹ bo‘lganlar.

Mana bu dillaridagi ta‘sir va hissiyotni to‘xtata olmaganlar va shu hissiyot to‘lqunini o‘zlaridan so‘ng qoladirgan bolalariga anglatmoq niyati bilan ming mashaqqatlar bilan toshlarga o‘yib

¹ *Muaassir* — ta‘sirlangan.

qoldirg'onlar. Mana bu gavda (haykallar — A.A.)lar bizlarga ishlangan (yodgor — A.A.) eskartmalardir.

Bargi daraxton sabz dar nazari hushyor,
Har varaqash tabiati ro'zgor¹ —

Mana bu dunyo yuzida inson bolalarining sanoye nafisaga qo'ygan birinchi odim (qadam — A. A.)lari hisoblanadir.

Olar shuning bilan to'xtab qoldilarmi?
— Yo'q!

Yana shul tekshirish, sinchiklashdirishlarinda davom qildilar. Hayvonlarni tekshiruvdan so'ng qushlarni surishdirishga o'tdilar. Bahor mavsumlarida chechaklarning hajrida mast bo'lib sayragan qushlarning yoqimli tovush (sado — A. A.)lari hushlariga o'tirdida, onlar ham ixtiyorsiz ravishda shu qushlarga tovushlarin o'xshatmoq, go'yo qush kabi sayramoqchi bo'ldilar.

«Sayra bulbul, sayra chinorni shoxi sinsun,
Yor ayrilaman dedi ayrilib ko'ngli tinsun» —

deyub ular ham nag'ma ashula qila boshladilar. Mana bu davrni sanoye nafisaning adabiyot davri deyilur. Lekin avvalgi san'atlariga qaraganda so'nggi san'atlari avvalgidan muhimroq va yaxshiroq bo'lib, mutaassir bo'lmoq har kimga nasib bo'lmas edi.

Uzoq yerlarda yashovchi o'rtoqlari kelub ko'rmoqlari lozim kelardi. Ammo bul ikkinchi ishlab chiqargan san'atlarin shundog' qulayligi bor edikim, tildan-tilga, og'izdan-og'izga, eldan-elga ko'chub yurardi.

Shundog' qilib shodlik kunlarin shodlik qo'shiqlari bilan tasvir qilsalar, g'amlik kunlarin qayg'uliq ashulalari bilan izhor qilardilar:

«Bulbulim uchdi qo'lumdan qayda mehmondir bukun,
Bulbulimni yo'qotib, ko'nglim parishondir bukun».


¹ Ro'zgor — daraxtlarning har bir yashil bargi, shoir nazarida bu turfa olamning varaqlardir.

Go‘zallaridan, mahbubalaridan, borlaridan ajralganliklarin boshqa o‘rtoqlariga ham ma‘lum qilar edilar. Bora-bora shunga ham qanoat qilmadilar.

Daraxtlarning shoxlariga ilinib qolg‘on hayvonlarning ichaklarin havoning ta‘siri bilan qurib, shamolning ta‘siri bilan «ting‘ir-ting‘ir» qilgan tovushi (sadosi — A.A.) ko‘ngullariga o‘turdi, hush keldi.

O‘zlarining ashula va qo‘shiqlariga jo‘r-jo‘ravoz qilmoq uchun hayvon ichaklaridan «tor» yasab, musiqiy asboblarin yuzaga chiqardilar. Bu san‘atlari avvalgilariga qaraganda eng nafis, eng muhim, eng ruhlik bir san‘at bo‘lib chiqdi. Lekin onlar bu san‘atlarni tekshiruv va qayg‘iruv orqasida chiqordilar-da, bizlarga yodgor o‘laroq qoldirib, o‘zlari ko‘zdan nihon o‘ldilar.





AVAZ O'TAR (1884– 1919)

U o'zining xalqchilik, ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan jo'shqin ijodi bilan o'zbek xalqining sevikli shoirlaridan biri darajasiga ko'tarildi. O'zbek mumtoz she'riyati tarixida Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi yetuk zamondoshlari qatoridan o'rin oldi.

G'azallar

Fidoiy xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'eib qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo'liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.

Umidim: yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir she'ri jayonim.

Na yaxshi o'ylakim, ma'qul-u manzur,
Avaz, xalqim uchun to'kulsa qonim.



Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat?
Topib ilm-u hunar birla maorifdan nishon millat?

Vatanparvar fidoyi firqalar to bo'lmayin paydo,
Na mumkin topmog'i o'lgan tanig'a toza jon millat?

Fido millat yo'lig'a mol-u jon etmak kerak, har kim —
Bo'lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat.

Ochib har bir saridan maktabing unvonin aylab cho'x,
Taraqqiy aylamasmi o'qubon behadd-u son millat?

Bu yanglig' olam ahlidin keyin qolmay yurish ayla,
Avaz bo'lg'ay uyonib komkor-u komron millat.



Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O'qusin yoshlarimiz, ko'nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim, bizni g'am qaydidin ozod etgusi maktab.

Ko'ngullarning sururi, dog'i ko'zlar nuridir farzand,
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab.

Ota birla onaga farz o'qitmoq bizni majburiy —
Ki bizni yaxshiliq qilmoqqa mu'tod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz etsa,
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Bu ne navmidlikdur?! Maktab ochsak, oqibat bizni,
Aro'si kom ila maqsudga domod etgusi maktab.

Avaz, himmatni qil oliy ocharg'a emdi maktabkim,
Baloi jahlu nodonlikni barbod etgusi maktab.



Ey ko'ngul, ishq ichra kirding jon kerakmasmu sanga?
Kofiri chashmin ko'rub, imon kerakmasmu sanga?

Yor ruxsorig‘a boqmassan magarkim, zohido,
Oftob ila mahi tobon kerakmasmu sanga?

G‘ayri ko‘yining tamannosi qilursan, ey rafiq,
Eyki ayg‘il, jannati rizvon kerakmasmu sanga?

O‘zga dilbar la‘lini o‘pmakni gar istar esang,
Degil, ey dil, ul labi xandon kerakmasmu sanga?

Ey ko‘z, etgung orzu g‘ayri sumanbar orazin,
Emdi ul oraz mahi raxshon kerakmasmu sanga?

Soqiyo, man xastag‘a may bermayin dog‘ aylading,
Yoki miskini hazin mehmon kerakmasmu sanga?

Ey Avaz, nazm aylading asru sharaf afshon suxan,
Yodgori daftari devon kerakmasmu sanga?



Ko‘nglum agar g‘ayri sori mayl-u taqozo aylasa,
Kuysun g‘am o‘tig‘a, o‘zin g‘ayrig‘a shaydo aylasa.

Lol o‘lsun-o‘q nutqim agar ikki jahon ichra o‘zin,
Ey sho‘x, sandin o‘zganing vasfida go‘yo aylasa.

G‘ayri parivash sorig‘a rag‘bat qilib, ey mahliqo,
Ko‘z xira bo‘lsun gar yuzing ko‘rmay tabarro aylasa.

Bir umr ko‘nglim o‘rtonib, armonda bo‘lsun, ey pari,
Moyil bo‘lib kavnayn aro g‘ayrig‘a parvo aylasa.

Benur o‘lub chiqsun ko‘zum hijroning ichra, ey go‘zal,
Gar o‘zga bir oromijon husnin tamosho aylasa.

Kom-u murodin topmasun ikki jahonda har kishi,
Gar g‘ayrining ishq-i bila o‘zini rasvo aylasa.

Topg'ay edim hazzu farah behadd-u son, man sorig'a —
Ul dilbari barno, Avaz, bir noma insho aylasa.



Joning'a o't tushsun, agar g'ayrig'a parvo aylasa,
Ko'z dog'i chiqsun o'zganing husnin tamosho aylasa.

Ofatni pomoli bo'lub qolsun boshim hajring aro,
Ey dilrabo, tarki g'ami oshubu savdo aylasa.

Dilkim, hamisha hajr aro oshufta bo'lsun, ey pari,
Gar o'zga bir mahvash sori maylu taqozo aylasa.

Ko'nglumga ta'sir etmagay, ahbob xayli, zarraye,
G'ayri paripaykar agar ming ishva barpo aylasa.

Ushshoq xayli borho bo'lsun garonjonu hazin,
Gar o'zni onlar o'zganing ishqida shaydo aylasa.

Ul sho'xvash mahliqo, topg'oy, dedim, umri abad,
Shirin tilini so'rdrub bir bo'sa ato aylasa.

Mahzun Avazkim bordurur ul mohni ishqig'a asir,
Tong yo'qki, ul doim o'zin xalq ichra rasvo aylasa.



Bo'lma, ey kimsa, hamisha bu sifat mag'ruri ganj,
Kim, ne yonglig' ayladi Qorunni kofar zo'ri ganj?!

Qalbi vayronalarni ganji jud ila obod qil,
Lutfi haqdin istasang bo'lg'oy sango ma'muri ganj.

Istagil darvishlardin fayzi ma'ni istasang,
Kim xarobi ko'hnalarda bo'lg'usi mahsuri ganj.

Hirs ila ganj asramoq qilma havas af'i sifat,
Zahr etib komingni, jismingni qilur ranjuri ganj.

Ey, hush ul odamki, bordur jud-u ehson qilg'uchi,
Desa bo'lg'usi oni dorayn aro masruri ganj.

Har kishini qismati bo'lsa qanoat maxzani,
Vah, ne yonglig' bo'lg'usi olam aro manzuri ganj.

Ey Avaz, jam'i zar etmakdin hazar qil, tonglakim —
To sarosar bo'lmasun go'ringda mor-u mo'ri ganj.



Ey do'stlar, dahr ahlig'a hamrohu hamdam bo'lmangiz,
Hamroh-u hamdam demayin, bal oshno ham bo'lmangiz.

Hoshoki, dono ersangiz onlarg'a topib ixtilot,
Bir kun parishon o'lg'osiz, masrur-u xurram bo'lmangiz.

Ahli jahonkim bordurur mehr-u muhabbatdin yiroq,
Onlar firebin yeb yana rasvoi olam bo'lmangiz.

Mehr-u vafu aylab hamul nooshnolar xaylig'a,
Chekmak hamisha qismati olom ila g'am bo'lmangiz.

Yakdillik aylab bu sifat xayli bani odam bila,
Bori baliyatni chekib ham qomati xam bo'lmangiz.

O'zni jahonning dilbaru dildorig'a aylab asir,
Ham rohati kam bo'lmangiz, ham chashmi purnam bo'lmangiz.

Tokim, Avaz, asroringiz g'ayrig'a ifsho bo'lmasun,
Kelsa qo'lingizdin birov rozig'a mahram bo'lmangiz.



Husn ichra ul nigor parilar yagonasi,
Man ishqi ichra bo'lmisham olam fasonasi.

Baytulhazanda bu mani mahzun-u xastani,
Ko'z yoshi birla dard-u g'am — ob-u donasi.

Man ne sifat malul base oshufta bo‘lmayin,
Bo‘lmish gireh-gireh oni zulfini shonasi.

Topgum nechuk murod bila vasl bazmini,
Nav‘i tog‘aful ersa go‘zallar bahonasi.

Fikr aylasam haqiqat aro, ey rafiqlar,
Murg‘i dilimni asru buyuk oshyonasi.

To tushgali ul oyni, mann zor, ko‘yiga,
Har soridin boshing‘a kelur toziyonasi.

Garchi, Avaz, raqib elin obod kulbasi,
Bo‘lmish xarob ishq elini lek xonasi.



Birodarlar, jahonning yo‘q vafosi,
Vafosi demayin, balkim baqosi.

Yeturmas hech kima bu charx rohat,
Fuzun har dam bo‘lub zulm-u jafosi.

Bo‘lur kim kelsa bu yolg‘onchi ichra,
G‘amu dard-u baloning oshnosi.

Chiqar ko‘k sori ofat kasratidin,
Xaloyiqning fig‘on ila navosi.

Duo aylangki, shoyad aylagay rahm,
Bu holig‘a yer-u ko‘kning xudosi.

Har odam bo‘lsa oshiq ojiz aylar,
Raqib ahlini ta‘n ila izosi.

Avaz, ul oyg‘a yetmay o‘lg‘adurman,
Yo‘q ermish ishq dardining davosi.

BO'LUBDUR

Dil ishqinga muhtalo bo'lubdur,
Ham rasmi vafo ongo bo'lubdur,
Oini jafu sango bo'lubdur,
Ko'zing ne bala qaro bo'lubdur,
Kim jong'a qaro bala bo'lubdur.

Kelsa qilay ul sanam liqodin,
Ko'nglin uzub ahli bevafoyin,
Ishqi aro zor-u muhtalodin,
Begona bo'lubdur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'lubdur.

Bo'lsa, ne tong, ahli dahr qurbon,
Kim lab ango misli g'uncha xandon,
Oraz dog'i hamchu mohi tobon,
Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki ongo fido bo'lubdur.

Hijron aro cheksa ko'b jafoni,
Demayki jafu, tuman baloni,
Fosh aylabon oyni vafoni,
Baqo topar ulki bo'ldi foni,
Rahravga fano baqo bo'lubdur.

Dildo'z base rivoyati ishq,
Jonso'z, Avaz, hikoyati ishq,
Bu nav' durur nihoyati ishq,
To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli ango navo bo'lubdur.

MUSAMMAN

Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildur,
Gumonsiz jumlai maqsud birla komi hosildur.
Aning sha'nida go'yo oyati tasdiq nozildur,

Ramuzi ishqkim rohi haqiqat sori shomildur,
Ki ulvi manzilatlar zumrai ushshoqa doxildur,
Bihamdillah, bu sirdin bulxavaslar xayli g'ofildur,
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donovu oqildur.

Ko'rub ag'yoridin ta'nu izo, ey oshiqi sodiq,
Jafoyi yorg'a borsan rizo, ey oshiqi sodiq,
Yo'lida aylabon joning fido, ey oshiqi sodiq,
Qilib yoring'a mehr ila vafo, ey oshiqi sodiq,
Agarchi san chekarsan ming jafo, ey oshiqi sodiq,
Valekin olami tahqiq aro, ey oshiqi sodiq,
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.

Binoyi obro'sig'a dog'i me'mor sidq o'lmish,
Davomat hofizi nomus birla or sidq o'lmish,
Bori ozodalarg'a borho atvor sidq o'lmish,
Hama fe'l ichra nodir, ey naku kirdor, sidq o'lmish,
Bo'lur nokom ul bebokkim inkori sidq o'lmish,
Murod shohidining vaslig'a sidiq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.

Erur bir fe'lkim tasdiq, ani intiboh etgil,
Ani bilmakni jahdin doimo beishtiboh etgil,
Baloyi nogahondur kizbkim andin panoh etgil,
O'lar holatda ham deb rost so'z holing taboh etgil,
Demasmankim debon yolg'onni nomingni siyoh etgil,
Najote har balodin istasang sidqing guvoh etgil,
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.

Qilib nafsingni sarkash ersa rom ohista-ohista,
Musodiq rasmicha ko'rguz qiyom ohista-ohista,

Haqiqat rohida aylab xirom ohista-ohista.
Muroding manzilida qil maqom ohista-ohista.
Topib koming bo'lursan shodkom ohista-ohista,
Avaz, tuz emdikim sidqi nizom ohista-ohista,
Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.







MUHAMMAD SHARIF SO‘FIZODA
(1869 – 1938)

O‘z davrining shijoatkor xalqparvari, ma‘rifatparvari. Ona yurtidan tashqari Arabiston, Hindiston, Turkiya mamlakatlari va Tiflis, Bokuda ilm-u dunyoqarashini dunyoqarashini boyitgan. Istanbul universitetida tahsil olgan. Ma‘lum vaqt Hindistonda o‘qituvchilik qilgan. O‘zbekcha, forscha, ozarcha tillarda ijod etgan.

So‘fizoda she‘riyatidan

O‘QING, ONALAR

Muncha yomon sho‘rladi peshonalar,
Qizlarimiz joriyai xonalar.

Siz edingiz jonlara jononalar,
Qadringizi bilmadi debonalar.

Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

Bir qarangiz, yerda ko‘kargan giyoh,
Sizga qilur har biri etib nigoh.

Lola kulib, tag‘in kular oymu moh,
Umr aziz, joro turib etdi oh.

Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

Millati islomiyaning bonusi,
O‘zbek elining qorako‘z ohusi.

Kar qilur bir kun jahl og‘usi,
Ilm-u amal ushbu kasal dorusi.

Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

Dod o‘shal olami ruhonidan,
Qildi maishat fuqaro qonidan.

Hurmi edi dini aziz jonidan,
Millat uchun kechmadi o‘z qonidan.

Qumri bilan bulbul-u bedonalar,
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar.

GAZETA TO‘G‘RISINDA

Yashnatib dil g‘unchasin, fasli bahor aylar gazet,
Suv berib ko‘ngul bog‘ini, sabzavor aylar gazet.

Sharqdan Mag‘ribgacha bo‘lg‘on havodisni yozib,
Ne go‘zal marg‘ub xabarlar oshkor aylar gazet.

Ko‘b o‘qur bo‘lsang, bo‘lursen el aro chun nuqtadon,
So‘zlaganda so‘zlaringni beg‘ubor aylar gazet.

Gohi-gohi kelmayin qolsa o‘zining do‘stlarin,
Shavqida termultirib ko‘p intizor aylar gazet.

Chiqa bir xursandlik sahifasida darj o‘lub,
Fikri zavq-la qalbni beixtiyor aylar gazet.

E nehushkim, xalqimiz suymakda kun-kundan seni,
Bir vaqt zarlarni boshingdan nisor aylar gazet.

Noumid bo'lma, chiqar bir kun haqiqiy do'stlaring,
Yordam aylab, mushtariyni beshumor aylar gazet.

Yo'qsul el ahvolidan gar sen yozib bersang xabar,
Darj etib bu yo'lga jalbi e'tibor aylar gazet.

Gar qorayg'on dil, to'nuk ruhlarga berdikchi ziyo,
Bo'lgani jon doimo boshqa tumor aylar gazet.

CHUST BOYONLARINING BIR GAPXONADA BIR-BIRLARIGA MAQTANISHGANLARI

Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar, bizlar,
Berib pora, pristavlarni topgan chustilar, bizlar.

Shaharga qo'ymadik poyezdni, kelsun, xalq, kun ko'rsin,
Ajab mo'minsifat, eski musulmon chustilar, bizlar.

Uzun to'n, malla salla, kavsh-maxsilik, ochiq ko'krak,
Muloyim sodavash, ya'ni nomozxon chustilar, bizlar.

Maorif arz qilmang, jumlamiz birdak to'kulchibiz,
Muridu-muxlisu mullau eshon chustilar, bizlar.

Buxoro shahriga eshon yubordik, O'shga bir mirshab,
Hama ishkim kalon-u korchallon chustilar, bizlar.

Xususan maslahatda Hoji Mahmud sog' bo'lsinkim,
U erning soyasida mahv har on chustilar, bizlar.

Sotib hovli, haramni, nechamiz baytul haram ketdik,
Hamisha o'tgan ishlardan pushaymon chustilar, bizlar.

Zakok xechga(?)* yo'q angorimiz vaqtincha qo'rganmiz,
Riyoli ishga rog'ib, kirli vijdon chustilar, bizlar.

O'qub, ilm-u adabni o'rganib avlodimiz netsun,
Falonsiz, ilmsiz, savdoga chaqqon chustilar, bizlar.

Duo qilsin dedik, qizlarni sotdik oqsoqollarga,
Valekin qilg'uchi olamni vayron chustilar, bizlar.

Ko'ring insofni, pulsiz kambag'al, qirq yoshida bo'ydoq,
Dag'i bir chorasiz, har yerda sarson chustilar, bizlar.

Kalova sotsa, teng yarmin olurmiz beva zanolardan,
Xudoni erka abdi, har biri xon chustilar, bizlar.

Qatig' bozoriga dallol tayin ayladi sarkor,
Bu mazmun ilakim ochlarga bojmon chustilar, bizlar.

Qalandarxonamiz bor, takyamiz bor, boshqamiz ham bor,
Faqat olamda bir muhtoji kappon chustilar, bizlar.

Xudoyo shukur, sonsiz mardikor bozorimiz obod,
Chopiq chopmoq, o'roq o'rmoqqa polvon chustilar, bizlar.

Mabodo to'y qilsak, ro'zada iftor qildirsak,
Tamomi sadri majlis boyi nodon chustilar, bizlar.

Yesin to'qlar, eshik oldida tursin telmurib ochlar,
Shu odatni chiqargan xo'p purdon chustilar, bizlar.

So'z ulkim, xalq ellikboshimizdan aql o'rgansin,
Zihi odamshunos-u ibni Luqmon chustilar, bizlar.

Omon bo'lsin vakili shahr bo'lgan deputat boylar,
Alarni saylagan jonliq tegirmon chustilar, bizlar.

Badavlatmiz duoxon va chillayosinchi qoriga,
Qoqimchi ham yo'qimchilarg'a dehqon chustilar, bizlar.

Zakaz qilgan kishi bilsinki So'fizoda adresi,
Oluvchilarga ko'p qilg'uchi ehson chustilar, bizlar.







ABDURAUFI FITRAT
(1886–1938)

Asosiy taxallusi (Fitrat) «tugʻma tabiat», yana bir taxallusi (Mijmar) «xushboʻy oʻt yoqiladigan choʻg»don degan lugʻaviy maʼnolarni anglatadi. Adibning aql-u zakovatini rossiyalik, kavkazlik, turkiyalik va turkistonlik safdoshlari yuksak darajada qadrlashgan.

Adabiy merosi boy va serqirra, janrlari jihatidan ham rang-barang. Vatanni «sajdagohu jonu tan» singari sevib, keng miqyoslarda ilgʻor faoliyat koʻrsatgan. Fitrat — shoir, nosir, dramaturg, tarixchi, olim, muallim... Barcha harakatlari va asarlari bilan davr taraqqiyotida gʻoyat kuchli va samarali ahamiyat kasb etgan.

ABULFAYZXON

(Fojiadan pardalar)

**YOʻQSUL OʻLKASINING TARIXIDAN BESH
PARDALI FOJIA**

K i m s a l a r:

A b u l f a y z x o n — Buxorodagi oʻzbek xonlarining soʻnggisi, 40–50 yoshlarida.

U l f a t — xonning xojaroyi (haram boshligʻi), 40–50 yoshlarida.

D a v l a t — toʻqsabo, xonning yaqin xizmatchilaridan.

Q o z i N i z o m — Buxoroning qozikaloni, 50–60 yoshlarida.

Hakimbiy — xonning inogʻi, soʻngra otaligʻi, 50–60 yoshlarida.

Rahim qurchi — soʻngra toʻqsabo, soʻngra otaliq, Hakimbiyning oʻgʻli, 30–40 yoshlarida.

Mir Vafo — «Tuhfai xoniy» degan Rahimxon tarixini yozgʻon kishi, Hakimbiyning odami, 50–60 yoshlarida.

Doniyolbiy — Hakimbiyning ukasi, 40–50 yoshlarida.

Ibrohim inoq — soʻngra otaliq, 60–70 yoshlarida.

Togʻayqulbek — mangʻit beklaridan.

Xoʻja Kalon — mashhur xoʻjalardan.

Oxun — Buxoroning katta mullasi.

Nodirshoh — mashhur Eron shohi.

Rizoqulixon — Nodirshohning oʻgʻli.

Mirzo Mahdiy — shohning bosh kotibi.

Aliqulixon, Husaynixon, Ahmadxon — Eronning qoʻshun boshliqlari.

Abdumoʻminxon — Abulfayzxonning oʻgʻli, 15 yoshar.

Yoʻldosh, Ergash — qalandar kiyimlik tilchilar, Hakimbiyning odamlari.

Qorovullar, xizmatchilar, jallodlar, cholgʻuvchilar.

E s k a r t m a: Bundagi voqealarda birinchi parda bilan ikkinchi parda orasida yetti yil, ikkinchi, uchinchi pardalar bilan toʻrtinchi, beshinchi pardalar orasida bir yil zamon oʻtgandir. Shuning uchun kimsalarning yoshlarini yozgʻonda, qirq-ellik, oltmish-yetmish deb oʻn yillik ochiqlik qoldirildi.

BIRINCHI PARDA

Kecha. Buxoro arkinda qabul. Abulfayzxonning uyi shohona toʻshalib bezangan. Oʻrtada osilgʻon muhtasham chilchirogʻning butun shamlari yonib turadir. Uyning oʻrtasida, kichkina kursichaning ustindagʻi shamdonchada yonib turgʻon shamning oydinligʻi ostinda Ulfat xojasaroy, Mir Vafo ham Qozi Nizom

taxta (shohmot) o‘ynab turalar. Tashqarida cholinib turg‘on cholg‘ular bir ozdan keyin sekinlashar, so‘ngra bitar.

Q o z i N i z o m . Kisht. (*Bir dona surar*).

M i r V a f o . E... otimiz ketdi-ku!

U l f a t . Podshohi olam eson bo‘lsalar, yana ot topilar.

Q o z i N i z o m . Tangri xoqonimizg‘a esonlik bergay.

U l f a t . O m i n . (*Bir dona surar*).

M i r V a f o . Shu kecha tushimda xoqonimizni ko‘rdim, bo‘z bir otg‘a mingan, qo‘llarinda qilich, yiroqlarg‘a qarab turg‘onlar edi.

Q o z i N i z o m . Mana, emdi ish qiyinlashdi!

Hamma taxtag‘a tikilar, Abulfayzxon ichkari uylaridan juda og‘ir bosib chiqar, o‘tirg‘onlarga qarab yurar, hammalari turub, qo‘l qovushturalar.

A b d u l f a y z x o n . Qani, kim kuchli?!

U l f a t . Xoqonimizning ikkala qullari ham yaxshi o‘ynaylar.

X o n . Sen qaysi tomonda?

U l f a t . Men xoqonimizni alqab¹, tomosha qilib turaman, hech bir yoqqa qo‘shulg‘onim yo‘q.

Xon qaytib, katga chiqar. Yonboshlab, bir qo‘lini boshig‘a tirkab, uzanar, kuchli bir qayg‘u ostinda ezilib turg‘oni ko‘rinadur.

M i r V a f o . Kisht! (*Bir dona surar. O‘yunchilar singirlanib taxtag‘a qaraylar*).

X o n . Kim o‘tdi?

U l f a t . Mir Vafo qulingiz o‘tdilar.

Xon boshini qimirlatur. O‘yunchilar taxta boshindan turib, uning eski yoqasindag‘i ko‘rpachalarga o‘turalar. Xizmatchi kirib, taxtani hamda kursicha bilan shamdonni olib chiqar.

X o n (*Qozi Nizomga*). Farhod otaliqni ko‘rdingizmi?

¹ *Alqab* – maqtab.

Q o z i N i z o m . Hazratimning buyruqlari bilan borib ko'rgan edim.

X o n . Nima qildingiz?

Q o z i N i z o m . Otaliq qulingiz bilan uzun so'ylashdim, hazratim buyursalar, hammasini arz qilayin.

X o n . Aytingiz.

Q o z i N i z o m . Bordim, ko'rushdim, so'yladim: «Siz xoqonimizning eng ishonchli qullari bo'lasiz. Xoqonimizning muborak mijozlariga yoqmayturg'on ishlar qilar ekansiz. Eron qo'shuni Qarshidan qaytg'ondan so'ngra, sizning yurush-turushingiz boshqacha bo'lg'on ekan», dedim.

X o n . «Eron qo'shunini Qarshidan qaytarg'on yolg'uz sen emassan», demadingizmi?!

Q o z i N i z o m . Uni ham aytdim. «Nodirshoh tomonidan yuborilg'on qo'shunning Qarshidan qaytishi uchun sizgina emas, Hakimbiy inoq ham ko'p tirishdilar», dedim.

X o n . Nima dedi?!

Q o z i N i z o m . Otaliq qulingiz bu so'zimga kulubgina qaradilar. Eron qo'shuni ikki-uch bekninggina tirishmog'i bilan yurtimizdan chiqmadi», dedilar.

M i r V a f o . Xoqonimiz juda yaxshi biladilarkim, Nodirshoh qo'shunining tuprog'imizdan chekilishiga Hakimbiy inoq qullari ko'p tirishdilar. Otaliq shuni ko'rmak istamaylar chog'i!

Q o z i N i z o m . Otaliq deylarkim, Eron qo'shunini tuprog'imizdan biz chiqarmadik, o'zi chiqdi.

X o n . Nima?... O'zimi chiqdi?!

Q o z i N i z o m . Otaliq qulingiz shunday deydilar. Eronning, deylar, yangi to'p, multiqlar bilan yaroqlang'on qo'shuni bizning qo'shunimizni buza olg'on bo'lsa ham, o'zbekning boturlig'ini bilg'oni uchun hurkub tura edi. Bizga yordam uchun Xiva qo'shunining ham Buxorog'acha kelganini eshitgach, butun qo'rqdi, ustaliq bilan urushni yutquzdi-da, qaytib ketdi. Bu, ishta, menimda, Hakimbiy inoqning-da ayricha xizmatimiz. Xiva qo'shuni Buxorog'acha kelgancha urushni uzatib turmoq bo'ldi. Men Eron

qo‘shunini qaytardim, deb kattalik qilmog‘onim kabi xonimizdan yoshirung‘ina Nodirshohg‘a elchilar yuborib, xabarlashib-da turmadim.

X o n. Kim Nodirg‘a elchi yuborgan ekan?

Q o z i N i z o m. Otaliq qulingizning so‘zlariga ko‘ra, Hakimbiy inoq shunday qilg‘on bo‘lsalar kerak.

X o n. Ul menga do‘st bo‘lsa, nega bukungacha qizini yubormaydir?

Q o z i N i z o m. Uni ham so‘radim.

X o n. Nima dedingiz?!

Q o z i N i z o m. «Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarida qurbon qilmoq hammamizga lozimdir. Shuni qilmog‘onda, sultonimizning chin qullari bo‘la olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortuq qilmay turasiz», dedim. Otaliq bu so‘zni eshitgach, yomon qizidilar. «Xong‘a yaxshi ko‘runmak uchun qiz qurbon qilg‘uvchilar ko‘p, shunlarning qizlarini oldira beringiz», dedilar.

X o n. O‘zi yubormaydir, yuborg‘anlarga so‘z ham otadir.

U l f a t. Yomonning bir qilig‘i ortuq!

Q o z i N i z o m. «Biz xon hazratlariga o‘zimizni qurbon qildik. Emdi nomusimizni ham istamasunlar», dedilar. Men aytdimki...

X o n (*so‘zini kesib*). Bas... yegan tuzlar ko‘r etsun uni... Kimni tuproqdan ko‘tarib kursiga chiqarsak, tezgina boshimizg‘a chiqmoqchi bo‘ladir.

U l f a t. Xoqoni olam! Unlarni yana tuproqqa qaytarmoq sizning qo‘lingizdadir.

X o n. Yaxshikim, bunlarning o‘limi qo‘limizdadir. Yo‘qsa, oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar!

U l f a t. Xoqonimizg‘a ma‘lumdirkim, podshohliq qon bilan sug‘orilaturg‘on bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘on yerda bu og‘ochning qurub qolishi aniqdir.

X o n. (*Ulfatga*). Tur joyingdan, tez ket. Besh daqiqadan keyin Farhod otaliq boshini kelturasan. Qanday istasang, shunday

ishla! (*Ulfat* «qulluq»lab chiqar). Men tinchg'ina turayin, deb akamni o'ldirdim. Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchlig'imni buzmoq istaylar! Qo'yaman sizni!

Q o z i N i z o m . Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg'oni uchun uni o'ldirmoq nechun bo'lar ekan?

X o n . (*Qozining so'zini eshitmagandek bir oz o'ylag'ondan so'ng*). Farhod otaliqni eski bir qulummi, dedingiz?!

Q o z i N i z o m . Hazratim karomat qildilar.

X o n . Farhod otaliq «xitoy-qipchoq»ning boshlig'idir, bilmaysizmi?!

Q o z i N i z o m . Hazratim yaxshi biladirlar.

X o n . El boshlig'i bo'lg'on beklarim menga qul bo'lmaylar, unlar o'z ellariga tayanib, tutash menga yomonliq qilmoqchi bo'lalar.

Q o z i N i z o m . Tavba qildim!

X o n . Buxoroda el boshliqlari bo'lmag'onda, men tinchg'ina xonliq sura olar edim. Menim butun qayg'ularim shunlardandir. Otam sotib olg'on qullar, mana, Ulfat bilan Davlat, ko'ringizchi, men chizg'on chiziqdan chiqadirlarmi?!

Q o z i N i z o m . Albatta, chiqmaylar.

X o n . Emdi kimni otalik qilishimiz kerak, siz shuni aytingiz, boshqa gaplarni qo'yaberingiz!

Q o z i N i z o m . Tangri xoqonimizg'a esonlik berg'ay, o'zlari yaxshi biladirlar.

M i r V a f o . Hazratim, albatta, yaxshiroq biladirlar. Mang'itlardan Hakimbiy inoq, qalmoqlardan Jiyanqulibiy, kenagaslardan Ibrohimbiy qullari bor.

X o n . Jiyanquli bo'lmaydir. Hakimbiy bilan Ibrohim kenagasdan bittasini qo'yarmiz.

Q o z i N i z o m . To'xta, domullo! Menim yonimda har kun maxtab turg'oning Hakimbiy inoq Nodirshoh bilan nechun xabarlashadir?!

M i r V a f o . Bu so'z to'g'ri bo'lmasa kerak.

X o n . Boya qozining Farhod otaliqdan kelturg'on xabarlarini eshitmadingmi?

M i r V a f o . Farhod boshliq o'zining o'lumini bilg'on bo'lsa kerak. Qutulmoq uchun shunday so'ylagandir.

X o n . Men boshqa joylardan ham eshitdim, to'g'ri so'yla!

M i r V a f o . Hazratim eson bo'lsunlar, inoq qulingiz bunday ishni o'ylamog'on bo'lsalar kerak. Menim hech xabarim yo'q. Shuni juda yaxshi bilamankim, inoq qulingiz xoqonimizning muborak xizmatlarini har narsadan ortuq ko'radirlar.

X o n . (*Tashqarig'a qarab*). To'qsaboni chaqir, kelsun. (*Davlat to'qsabo kelar*). Boz tishda kimlar bor?!

D a v l a t . Ibrohimbiy bilan Rahim qurchi bor. Qilib ber! (*Davlat to'qsabo chiqar*). Mana shul Davlat.

X o n . Ikkavini ham olib kel. So'ngra bizga bazm bilan Ulfat kabi o'nta odamim bo'lsa edi, butun Buxoroni tinchg'ina saqlar edim: ishning yo'llarini bilalar, teran tushunalar. Yomonliq, yog'iliqni esa sira o'ylamaylar.

Q o z i N i z o m . Hazratim marhamat qilsalar, hamma qullari ham shunday ishlaylar (*Davlat to'qsabo chog'ir bilan piyolalarni kimgizadir. Ketindan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naychi, bir dafchi, bir-da o'yunchi qiz kirarlar, hammalari o'turg'och, bazm boshlanadir. Davlat uch piyoladan chog'ir tarqatadir. Bazm bitkach, o'yunchi, chalg'uchilar «qulluq»lab chiqorlar. Ulfat piyolalarni chiqarar*).

X o n . (*Juda teran bir tushunchadan ayilib*), Rahim qurchi, otangiz qalay?

R a h i m q u r c h i . Hazratimni duo qilib turadirlar.

X o n . Yaqinda Erondan sizga qo'noqlar kelganmi?

R a h i m q u r c h i . Hazratim karomat qildilar. (Mir Vafo telbalanadir.)

X o n . Kim ekan unlar?!

R a h i m q u r c h i . Qarshi urushinda Eron qo'shunidan bir-ikki kishi bizning tomong'a tutulg'on edilar. Inoq olam unlarni ozod qilg'on edilar. Shunlar savdo uchun Buxorog'a

kelgan ekanlar. Yaxshiliqni unutmag'onlarini ko'rsatg'ali otamni kelib ko'rdilar.

Xon. Tuzuk... Yaxshiliq, albatta, unutilmaydir. (*Bir oz to'xtab*). Biz Farhod otaliqqa shuncha yaxshiliq qildik, bittasini ham bilmadi. Yana bizga xiyonat qila boshladi. Eng so'ng o'z boshini yeydi. (*Rahim qurchi bilan Ibrohimbiy shoshqin tinglaydilar*). Farhod otaliqni o'rundan tushurdik. O'z jazosini yaqinda ko'rar. Uning o'rninda, Ibrohimbiy, seni otaliq qildi. Rahim qurchi, senga ham to'qsaboliq berdik. Inoq otang ham yaqinda katta mehribonchilik ko'rarlar. (*Ikkalasi turib, qulluq qilarlar*).

Ibrohimbiy. Hazratimga arzim bor.

Xon. Ayt!

Ibrohimbiy. Otaliq o'mi juda katta o'run, men uni bajara olmayman.

Xon. Nega bajara olmaysan, uning nimasi bor?

Ibrohimbiy. Farhod otaliq kabi o'tkur bir odamning bajara olmag'oni bir ishni men qanday bajararman?

Xon. Nimasi bor, nimani bajara olmaysan?



Ibrohimbiy. Xoqonimizni rozi qilmoq juda qiyin bir ish bo'lib qolg'on.

Xon. Nima deganing bu?

Ibrohimbiy. Shu Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoqda mumkin emasdir.

Xon. Devona bo'ldingmi?!

Ibrohimbiy. Devona emas, to'g'riman, to'g'riliqning devonaliqdan yomonroq natijalar berganini bilaman. Yana to'g'riliqdan ayrila olmayman, xoqonim! Shul ikki odam bo'lmag'onda, siz Farhod otaliqni yo'q qilmoq fikriga tushmas edingiz.

Xon (*qizg'in*). So'zni uzatma, qabul et!

Qozi Nizom bilan Rahim qurchi ko'zlari bilan uni qabul etdirarga tirisharlar.

Ibrohimbiy. Buyrug'ingizni qaytarmoq qo'limdan kelmaydir, qabul etaman. Biroq bir kun mening ham o'limimga hukm chiqararsiz, xoqonim!

Xon. Qabul etdingmi?

Ibrohimbiy. Qabul etdim.

Xon. Emdi chiqib, saqlovda yotingiz. Erta bilan yorliqlarin-giz chiqar. (*Ikkalasi ham duo qilib, chiqib ketarlar. Bunlar chiqg'och, Ulfat xojasaroy qizil o'rtuk bilan o'rtulgan bir taboqni ko'tarib kelar, xonning oldig'a qo'yar. O'zi ikki odim keyinga borib, qo'l qovushtirub turar*). Och ustini! (*Ulfat o'rtukni olar, taboqda Farhod otaliqning qong'a bo'yalgan oq soqolli boshi ko'runar*).

Xon. (*Yovvoyi kulush bilan*). Xo... xo... xo... eng so'ng, o'lum... o'lum janjalimizni bitirdi. Butun janjallarni o'lum bitiradir!

Ulfat. Hoqoni olam eson bo'lg'aylar.

Xon. Buni chiqarib, Chil duxtaron qudug'ig'a tashlat. (*Ulfat taboqni olib chiqar*).

Yeganlari tuzni o'ylamag'onlarning jazolari shuldir. (*Qozi Nizom bilan Mir Vafog'a*). Sizga javob emdi.

Q o z i N i z o m . Tangri hazratimga esonlik bergay. (*Ikkovi ham duo qilib, turub ketalar*).

X o n (*yolg'uz*). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni. (*Turub yuradir*). Bir dushmanimning qoni qurumoyin yana bittasi chiqib qoladir. Bu Ibrohim ahmoq ham meni tinch qo'ymayturg'ondek ko'miadir. Qachong'acha o'ldiraman bunlarni! Ortuq hech kimning menga ishonchi qolmadi... Bunlarning o'zi yo'lga kelib, menga dushmanlik qilmoqni tashlasa, nima bo'lur! Yo'q... yo'q! Bunlarning o'zi yo'lg'a kelmaydir. O'lduraman, o'lduraman. Dunyoda bitta dushmanim qolmag'oncha qon to'kaman. Ulfatning so'zi to'g'ri. Podshohlik qon bilan sug'orilaturg'on bir og'ochdir (*Ulfatning kirganini ko'rib, joyig'a o'turar*). Kel, Ulfat, o'tir, qanday qilib o'ldurding?!

U l f a t (*o'turar*). Xoqonimizning ishlari bor, deb kelturdim. Bir uyga kirguzdim, unda yoshrunub turg'on ikki kishi birdan chiqib yopishdilar, bir oz taloshg'ondan so'ng yiqitib, boshini kesdilar.

X o n . Hech kim onglamadimi?

U l f a t . Kimsa onglag'on emas.

X o n . Ibrohim kenagasni otaliq qilmoqchi bo'lib, o'ziga so'yladik. Uning ham tusi boshqacha-ku!

U l f a t . Nima dedi?

X o n . Ko'p ahmoqliklar qildi. Sening uchun ham ma'nosiz so'zlar so'yladi. Hakim inoqning o'zini otaliq qilsak bo'lmaydirmi?

U l f a t . Xoqoni olam! Hakim inoqning Nodirshoh bilan xabarlashib turg'oni aniq. Shu tobda uni ish boshig'a qo'yub bo'lmaydir. Shuning o'zi bo'la bersun, to'g'riliq bilan ishlasa — turadir, yo'qsa — Farhod otaliqning izindan bora qoladir-da!

X o n . Ulfat, men bu ishlardan bezdim. Bu odamlarning bittasi ham menga to'g'ri qaramaydir. Farhod otaliq yomonlik qildi. Hakim inoqning qilg'on ishlarini ko'rub turubsan. Ibrohimni odam deb o'ylasam, bu ham buzuqqa o'xshaydir. Qon to'kmakdan-da bezdim. Akamni o'ldurdim. Ko'p do'stlarimni o'ldurdim. Meni bir ota kabi asrag'on Farhod otaliqni boshini

oyoqlar ostinda ko'rdim (*Ko'zlarini tutub*). Uf... ko'zlarim qong'a to'ldi. Kechalar uxlay olmayman. Ko'zlarimni yung'och, butun o'lganlar, o'ldurganlarim meni aylanturub olalar, siralanib yonimdan o'talar. Meni qo'rqutalar, menga kulalar!...

Ulfat. Xoqonim, bunlarni o'ylamangiz. O'luklarni esingizdan chiqaringiz. Yotoqqa kirgach, qur'ondan bir oyat o'qub yotingiz. Bunlar hammasi o'tkundir. Yaqinda dushmanlaringizni bitirarmiz. Hozir emdi boshqa ishlarimizni ko'raylik.

Xon. Yana nima ish?

Ulfat. Farhod otaliqning qizini kelturaylikmi?

Xon. Erta bilan kishi yuborursan. Men emdi charchadim. Bir oz uxlayin. Sen ham ket, ishlaringni ko'r. Bittasini yubor, choponimni olsun. Tanburchilarg'a ayt, ikki tanburni kamoncha qilib, bir «Husayniy» chalsunlar.

Ulfat. Xo'p bo'lubtur.

Ulfat chiqar. *Xon salla, choponini chiqara boshlar. Xizmatchi kelib, xonning salla, choponini olib, bir chetga qo'yar. Xonning kecha kulohini berib, shamlarni o'churub chiqar. Xon kulohini kiyib, yotoqda uzanib yotar. Tashqarida ikki kamonchining «Husayniy» cholg'oni eshitilar. Cholg'i sekinlab bitganda, xon uxlag'on bo'lur. Bir oz so'ngra xonning o'ldirilgan akasining xayoli qonli kafan bilan ko'rinadir.*

Xon (*Tushinda*). Akam... Nechun keldi?.. (*Bo'g'durulg'oni, arqon bo'ynida taqilg'oni holda chiroylik bir xotunning xayoli kelar*). Yo'qol... ket... (*Xotun xayoli xonni bo'g'ardek, unga qarab yurar. Xon talvasa qilar*). Ket... ket!.. (*Bir yigit xayoli. Farhod otaliqning boshini olib kelar. Xong'a yaqinlashar*). Yo'qol... kelma... (*Xayol chekilar. Undan so'ng uchala xayol birgalashib, xonga hujum qilarlar. Xon kuchli talvasa bilan qichqirar*). Voy... Urma! (*O'z tovushidan uyg'onib, irg'ib turar. Tovushni eshitgan Davlat to'qsabo bir shamdonchani ko'tarib, yugurib kirar*).

Davlat. Hazratim, qo'rqdilarmi?!.

Xon (*Titrab turg'oni holda*). Bir oz qo'rqdim, chog'i! Shamni qo'yub ket. Suv tayyorlat, tahorat qilaman. (*Davlat to'qsabo*

shamni qo'yub ketar. Xon yotoqdan tushub, chophonini kiyar ham so'ylar). Bunlar u dunyoda ham menga qarshi birlashganga o'xshaylar, meni tinch qo'ymaylar, chog'i! (*Shamni olib, boshqa uylarga boraturg'on eshikdan chiqib ketar).*

Parda tushar

BESHINCHI PARDA

Sahnaning to'rinda qorong'u bir zindon. (*Chil duxtaron zindoni*). Ulfat xojasaroy, Davlat to'qsabo bilan yana ikki-uch bekning o'luklari osilg'on, o'tquzub bo'g'durilg'on, qong'a botib yotg'on bir holda turadir. Chetda qoramoy chirog'i tutunlar sochib yonmoqda. Bir ozdan keyin Rahimbiy yolg'uz kelar. Og'ir bir yurush bilan yurub, o'luklarning har bittasiga es qo'yub qarab, zindonni bir aylanib chiqar. Rahimbiy ketgach, manzara o'zgarib, sahnaning beri yoninda Buxoro arkining Salomlik ayvoni ko'rinadir. Ayvon ostindag'i taxtning har tomonida qiymatli qolinlar, ko'rpalar to'shalgan, shamlar, chilchirog'lar yonib turadir. Rahimbiy rasmiy kiyimi bilan kamarlik, qilichlik holda bir tomondan ko'runub, sekinlab, taxtga yaqinlashar. Bir oyog'ini taxtning bosqichig'a qo'yub, tizzasiga tayanib, so'ylar.

R a h i m b i y . Yo'limizning ozi qoldi. Manzilga erisha yozdik. Abulfayzxon ketdi. Uni yo'qlag'onlaringda ruhlariga fotiha o'qub keldim. Emdi kim qoldi? Chumchuq kabi kichkina bir xon! Shunday (*qo'li bilan ko'rsatib*) olasan, kallasini uzib tashlaysan!.. Ruhing shod bo'lg'oy, otam, sen bitirmagan ishni men bitirdim. Yo'q, bunlarning hammasi sen ekan urug'larning mevasidir. Sen menga yo'l ko'rsatmasa eding, sen Nodirshoh bilan do'stlashib, meni unga yubormasa eding, bu ishlar bo'lmas edi. Bo'lg'onda ham, juda qiyinliq bilan bo'lar edi.

M i r V a f o kelar.

M i r V a f o . Yo'ldosh qalandar kelibdir. So'zi bor ekan. Boshqa bir yo'l bilan olib keldim.

R a h i m b i y . Kelturingiz.

Mir Vafo panada turgʻon Yoʻldoshni chaqirar. Yoʻldosh ul burungʻi qalandar afti bilan kelib, duo qilar.

Yoʻldosh. Omin, tezrak bu oyogʻingizni ikkinchi bosqichgʻa qoʻyub taxtgʻa chiqqaysiz. Ollohu akbar.

Rahimbiy (*kulub*). Ha, tentak, nima gap?

Yoʻldosh. Yaxshilik, bek! Sizning xon boʻlishingiz toʻgʻrisinda odamlar bir-birlarigʻa soʻylashib turalar.

Rahimbiy. Nima deylar?

Yoʻldosh. Odamlar rozi, xonliq-otaliq bekning haqqi, deylar. Biroq beklar, el boshliqlari bu ishga koʻnmaylar. Chingiz avlodi boʻlmagʻon kishi xon boʻla olmas, deylar. Mana shu soʻzlar, boshqa odamlarni bir oz tushundiradir. Shunga bir chora qilishingiz kerak.

Rahimbiy. Qanday chora?

Mir Vafo. Buning chorasi qulay, mullolardan bir fatvo olasiz. Shuning bilan bitadir.

Rahimbiy. Uni qilamiz.

Yoʻldosh. Yana bir qiziq gap bor. Erondan kelturgan qoʻnoqlaringiz boshimizgʻa bir balo chiqarmasalar yaxshi edi.

Rahimbiy. Nima qildilar? (*Yurar*).

Yoʻldosh. Buxoroni mangʻitlardan tozalash kerak, deb soʻz torqatar ekanlar. Bir necha beklarimizga kishilar yuborib, «Siz ishga kirishingiz, biz yordam qilamiz», deganlar, Abdumoʻminxonni arkdan qochirib, soʻngra siz bilan urushmoqchi ekanlar, degan xabarlar bor.

Rahimbiy. Ahmoqlar, Buxoroda nima ishlari bor ekan?! Nodirshoh oʻldirilgan, yurtlari buzulib turadir. Borib, oʻz ishlarini tuzatsunlar.

Mir Vafo. Bek, Abdumoʻminxonning ishini bir yoqlik qilmasangiz, yana bir janjal chiqar.

Rahimbiy (*Mir Vafoga*). Siz buni chiqarib yuboring, Oxun bilan Qozi Nizomni menim yonimgʻa chaqiring. Oʻzingiz Eron qoʻshunigʻa borib, sardorlargʻa ayting, oʻzlarini koʻrmak istayman, kelsunlar.

Doniyolbiy kelar, Mir Vafo bilan qalandar unga salom berib chiqarlar.

Doniyolbiy (*Rahimbiyga*). Bu qalandar kim?

Rahimbiy. Tonimaysizmi?

Doniyolbiy. Tonishg'a o'xshaydir.

Rahimbiy. Bir kecha otam bilan o'turg'onimda kelgan edi-ku.

Doniyolbiy. Ha... Bu bor ekan. O... shuning so'zlarini eslaysizmi? Karomati bor ekan. Boya aytasangiz edi, duosini olar edim.

Rahimbiy. Ha, yana kelar.

Doniyolbiy. Ibrohim kenagasni kelturdilar.

Rahimbiy. Qani?

Doniyolbiy. Saqlovda turubdur.

Rahimbiy. O, bola! (*Xizmatchi kelar.*) Saqlogv'a chiqib ayt, Ibrohim otaliqni keltursunlar (*Xizmatchi ketar.*)

Doniyolbiy. Qo'llarini bog'lab kelturganlar, bechora qarib qolg'on.

Rahimbiy. Ko'zi ko'rmaydirmi?

Doniyolbiy. Yo'q, ko'rmaydir, bechoraning duosini olsangiz, yaxshi bo'lur.

Rahimbiy. Albatta, unga hurmat qilamiz. (*Bir kishi Ibrohimbiyini kelturar, qo'llari bog'lang'on, ko'zi ko'rmaydir.*) Otaliqning qo'llarini och! (*Haligi kishi Ibrohimbiyning qo'llarini ochar.*) Otaliq amak, o'turingiz, qalaysiz?

Ibrohimbiy (*o'turar*). Ko'zim ko'rmaydir. Siz kim bo'lasiz?

Rahimbiy. Tonimadingizmi? Men Rahimbiy.

Ibrohimbiy. Ha, tonidim, tonidim. Xudog'a shukur, yaxshiman.

Doniyolbiy. Hali meni ham tonimasangiz-chi, otaliq!

Ibrohimbiy (*bir oz o'ylab*). Siz Doniyolbiy emasmi?

Doniyolbiy. Topdingiz.

Ibrohimbiy. Qalaysiz, uka? Ko'rushaylik-ey... (*Qo'llarini uzatar, ko'rusharlar*). Eskilardan yolg'iz siz qolibsiz. Rahmatlik akalaringiz o'lganlar ekanlar.

Doniyolbiy. Ha, Tangri yorlaqasun, o'ldilar.

Ibrohimbiy. Hay, dunyo shunday ekan, bitta kelib, bitta ketar ekan-da.

Rahimbiy. Otaliq amak, meni qutlamaysizmi?

Ibrohimbiy. Sizni nega qutlay ekanman, jiyanim?

Rahimbiy. Dushmaningizni o'ldurdim. (O'turar).

Ibrohimbiy. Siz o'ldurmaganda, o'zi o'lmasmi edi?

Rahimbiy. Shunday ekan, siz nega unga yozg'irib shuncha urushdingiz?

Ibrohimbiy. U elga yomonlik qildi. Yurtni taladi, hukumat ishlariga qaramadi. Kecha-kunduz chog'ir ichib yotdi. Men uning shul ishlarig'a qarshi bo'lub urushdim.

Rahimbiy. Men nima qildim?!

Ibrohimbiy. Siz bu ishlarni o'zingiz uchun qilasiz-ku, chog'il!

Rahimbiy. Qaydan bildingiz?!

Ibrohimbiy. Rahmatlik otangizning Nodirshoh etagiga yopishqonini bilar edim. Siz ham Nodirshohg'a bordingiz. Uning qo'shunini kelturdingiz. Abulfayzxonni o'ldurgandan so'ngra butun ishni o'z qo'lingizg'a olib turubsiz.

Rahimbiy. Abdumo'min to'rani xon ko'targanimizdan xabaringiz yo'qmi, amak?

Ibrohimbiy. Abdumo'min to'ra o'n besh yashar bir bola. Uni xon ko'tardingiz nima, ko'tarmadingiz nima!

Rahimbiy. Siz bo'lg'onda, nima qilar edingiz?!

Ibrohimbiy. Men bo'lg'onda, Abulfayzxonni tushurgach, qurultoy chaqirar edim. Yangi xon bilan uning otalig'ini el boshliqlarining kengashlari bilan belgilar edim.

Rahimbiy. Mana, el boshliqlaridan bittasi siz. Elingiz kenagas, Buxoroning tubchak, buyuk bir eli. Kelingiz, bunday ma'nosiz so'zlarni qo'yingiz, birgalashib, kengashib ishlaylik. Abdumo'minxonning hukumatini biriktiraylik.

Ibrohimbiy. Men juda yaxshi bilaman, siz shu kun-erta Abdumo'minni ham otasining orqasig'a yuborib, taxtini olarsiz.

Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki ul haqsizliq qilg'on edi. Siz bu kun undan ortuq haqsizliq qila turubsiz. Ko'zim bo'lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko'zim yo'q. Hay, siz-ku Buxoro taxtini olarsiz, Abdumo'minni o'ldurarsiz. Balkim menim ham o'ldurarsiz, biroq shuni bilib qo'yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg'a yuqmag'usidir.

Oxun bilan Qozi Nizom salom berib kelarlar.

Rahimbiy. Marhamat qilsunlar. (*Ibrohimbiyni ko'rsatib*).
Otaliqni tonimadingizmi?

Oxun (*Ibrohimbiyga qarag'andan so'ng*). Kenagas otaligmi?
Ko'rushaylik-ey... (*Ikkalasi borib ko'rushgach, o'turarlar*).

Qozi Nizom (*Ibrohimbiyga*). Otaliq, xudoga shukur qilingiz. Bekning g'ayratlari bilan dushmanlaringiz yo'qoldilar. Emdi qolg'on umringizni shu kishining ko'lagasinda tinchg'ina o'tkararsiz.

Ibrohimbiy javob bermaydir.

Rahimbiy. Bir-ikki shar'iy masala bor. Shuni so'ramoq uchun sizlarni chaqirdim.

Oxun. Marhamat qiling, taqsir!

Rahimbiy. Shul to'rt-besh kunlik janjalimizda Abulfayzxon bilan yana bir necha kishi o'ldilar.

Oxun. Ha, taqsir...

Rahimbiy. Bunlarning o'lumiga men sabab bo'ldim. Shuning shariatda hukmi nima bo'lsa?

Oxun. Taqsir, ha, taqsir, masalan, bolvoi omda o'lganlarning qotili hech kim bo'lmaydir. Ular bolvoi omga sabab bo'ldilar, o'zlari o'ldilar, shariatning hukmi shudir, taqsir.

Qozi Nizom. Abulfayzxon hukumat ishlarini bajara olmadi. Shuning uchun hukumatni boshqa kishiga topshurmog'i kerak bo'ldi. Buni qilmog'och, jazosini ko'rdi.

Rahimbiy. Bizning oramizda bir so'z bor: «Chingizxon avlodidan bo'lmag'on kishi xon bo'la olmaydir» deyilar. Bu to'g'rinda shariatning hukmi nima bo'lsa?

O x u n . Shariatda bunday bir narsa yo‘qdir. Kimning qo‘lidan ish kelsa, shul xon bo‘la beradir.

R a h i m b i y . Shul eski masala to‘g‘risinda rivoyat berasizmi, taqsir?

Q o z i N i z o m . Albatta, beramiz.

R a h i m b i y . Erta shuni yozib kelturingiz!

O x u n . Xo‘b bo‘lubdir.

I b r o h i m b i y . Rahmatlik Rajabxon bilan birlashib, Abulfayzxong‘a qarshi urushg‘onimizda, shunday kengashgan edikkim: Buxorog‘a borib kirsak, butun mullolarni bir madrasaga solib, o‘t qo‘yamiz-da, hammasini yondiramiz. Elimizni buzub, rasvo qilg‘on shunlar. Bunlar dinigingzni tuzatamiz, deb dunyomizni murdor qildilar.

Q o z i N i z o m . Nima qildik biz?!

I b r o h i m b i y . Siz Qozi Nizom emasmi?

Q o z i N i z o m . Ha, men Qozi Nizom.

I b r o h i m b i y . Tuna kun Abulfayzxonni soyai xudo deb oyoqlarini o‘pmag‘on edingizmi? Abulfayzxon xotunlar bilan ichishib yotg‘on bir kechaning ertasinda, uning oldig‘a kelib: «Bu kecha tushimda payg‘ambarni ko‘rdim, sizni so‘rab yubordilar», deb, chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tuna kun sizga chopon bergan soyai xudoning o‘limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyolmaysizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so‘rag‘on payg‘ambar, yana bir yo‘la tushingizga kirib, uni so‘rasalar, nima deysiz? Bunlar oz emish kabi Chingizxonning yasog‘ini ham yo‘q qilmoqchi bo‘lasizmi?

D o n i y o l b i y . Otaliq aka, shariatning hukmi shu ekan-da.

I b r o h i m b i y . Men shariat-mariatni bilmayman. Ishingizni to‘g‘rilamoqchi bo‘lsangiz, qurultoy chaqirasiz. Bunlarning so‘zi yarim chaqag‘a arzimaydir.

M i r V a f o . k e l a r .

M i r V a f o . Eron sardorlari keldilar.

R a h i m b i y (*Doniyolbiyga*). Otaliqni siz qo‘noq qilingiz. Bu kishiga yaxshi qarashib, hurmat ko‘rsatingiz. (*Mir Vafog‘a*). Siz sardorlarni kelturingiz. (*Doniyolbiy, Ibrohimbiy, Mir Vafog‘a*)

chiqarlar. Rahimbiy mullolarg'a so'ylar). Men Eron sardorlarini chaqirdim. Eron qo'shuni Buxoroda qola bersa, yaxshi bo'lmaydir. Buxorodan chiqib ketishlarini taklif qilaman.

O x u n . Ko'p yaxshi qilasiz, bek. Kelgan qo'noqning ketishi yo'qmi? Buxoroda nima ishlari bor?

R a h i m b i y . Bu kecha menim so'zimni tinglamay, yana Buxoroda qolmoqchi bo'lsalar, bu to'g'rida erta sizlar bilan boshqacha kengasharmiz. Albatta, erta shul rivoyatlarni olib kelarsiz.

Oxun, Qozi Nizom. Xo'b bo'lubdir. (*Turarlar*).

R a h i m b i y . Ketasizmi emdi?

O x u n . Ketaylik, bek.

R a h i m b i y . Xo'b.

Oxun bilan Qozi Nizom chiqadi, Mir Vafo bilan Eron sardorlari Husaynxon, Ahmadxon kelarlar. Salomdan so'ng o'turmasdan so'ylasharlar.

H u s a y n x o n . Chaqirg'on ekansiz, keldik, bek!

R a h i m b i y . Hush keldingiz. Sizni chorlatqonimning sababi shul: aziz qo'noqlarimiz bo'lg'on Eron qo'shuni biz uchun ko'p musofirchilik chekdilar. Shukur, mana o'lkamiz tinchlanib qoldi. Eshitishimizga ko'ra, podshohimiz Nodirshoh shahid bo'lg'onlar. Endi bu aziz qo'noqlarg'a xizmatlariga yorasha, jaldular¹ berib, yurtlarig'a qaytorsak, bizdan rozi bo'lurlarmi?

H u s a y n x o n . Bek, qarorimiz boshqacha edi. Bizga Abulfayxonni omon-eson Eronga erishdirmak xizmati topshurulg'on. Siz Abulfayxonni bizga qachon topshursangiz, biz shul daqiqada chiqib keta berarmiz. Xonni topshurmay ekansiz, Eron qo'shuni ham yota beradir.

R a h i m b i y . Nodirshoh o'lmaganda, men Abulfayxonni, albatta, siz bilan yuborar edim. Bu kun Nodirshoh o'lgan. Eronda Abulfayxonning hech kimga kerakligi yo'q. Shuning uchun xonni sizga topshurmoqning ma'nosi qolmag'on.

¹ *Jaldu* – mukofot.

H u s a y n x o n . Nodirshoh o'lgan bo'lsa, Eron tirikdir. Eron podshohi: «Abulfayzxonning jonini qutqaringiz», deb edi o'z qo'shunig'a. Biz uning shul buyrug'ini yeriga kelturarmiz.

R a h i m b i y . Mayli. Bizning xon sizga shuncha lozim ekan, chiqarib berar edim, biroq u kishi shu kun ertalab o'zlarini o'ldurganlar. O'luklarini sizga chiqarib bermak unumsizdir.

H u s a y n x o n . Nima, Abulfayzxon o'ldimi?

R a h i m b i y . Shu kun erta bilan o'zlarini pichoqlab o'ldirdilar. (*Eron sardorlari hayrat bilan bir-birlariga qaraylar. Rahimbiy so'zining ta'sirini ko'rgach, gapura berar*). Aziz qo'noqlarim! Abulfayzxon o'ldi. Sizning bunday yot o'lkada boshsiz, tilaksiz turushingiz foydasiz bir ish. Elimiz Nodirshohning o'lganini eshitsa, sizni tinch qo'ymasa kerak. Xazinadan sizlarga yigirma ming tangadan pul beraylik, qo'shuningizg'a ulashib beringiz-da, yurtigingizg'a qarab keta beringiz.

A h m a d x o n . Bek! Biz bu ishdan bir narsa onglayolmadik. Xonni kim o'ldirgan? O'zimi, dushmanlarimi? Bu ochiq bilinmadi. Biz, qo'shunimizg'a qaytib kengasharmiz. Qanday bir qarorg'a kelsak, sizga bildurarmiz.

R a h i m b i y . Xo'b, qachon bildurarsiz?

A h m a d x o n . Erta bildursak kerak.

R a h i m b i y . Xo'b bo'ladir. Shunday qilingiz.

H u s a y n x o n . Xudo hofiz, bek!

R a h i m b i y . Xudo hofiz.

Eron sardorlari chiqib ketarlar.

R a h i m b i y . Siz O'rdag'a boringiz. Abdumo'minxonni ko'ringiz. Eron sardorlari sizdan fотиha olib, yurtlarig'a qaytar ekanlar, deb bu yoqqa yuboringiz. O'zingiz keta beringiz.

Mir Vafo ketar.

R a h i m b i y (*yolg'uz yurub so'ylar*). Emdi ikkinchi bosqichni bosmoq kerak. Bu qo'g'irchoqni yo'q etmasak, boshimizg'a bir balo chiqg'usidek ko'rinadir. (*Kissasidan bir kichkinagina shishacha*

chiqarib, shunda turgʻon sharbat shishasiga agʻdarar. Yana yura boshlab, birdan kular). Eron sardorlari buning ham oʻlganini eshitalsalar, oʻzlari qochib ketarlar. Biz tutmoqchi boʻlsak ham turmaslar.

Abdumoʻmin kiyinib, toj qoʻygʻoni holda kulub kelar.

Abdumoʻminxon. Bek bobo, meni chaqirdingizmi?

Rahimbiy. Ha, oʻgʻlim, sizni chaqirdim. Eron sardorlari yurtlarigʻa qaytar ekanlar. Sizni koʻrub fotiha olarlar.

Abdumoʻminxon. Qani?

Rahimbiy. Kelarlar. Siz taxtgʻa chiqib oʻturingiz. (*Abdumoʻminxon taxtgʻa chiqib oʻturar*). Eron sardorlari kelganda: «Nechun ketasiz, bizning Buxoroda qolsangiz boʻlmasmi?» deb qarang. Ular: «Yoʻq, ketamiz», deyilar. Soʻngra: «Bunlarga yigirma ming tangadan pul berulsun», deb menga buyuringiz.

Abdumoʻminxon. Xoʻb.

Rahimbiy (*Sharbat shishasiga yondoshiib, shundan bir piyola ichgan boʻlub*). Bay-bay-bay, yaxshi sharbat ekan-da, siz tomoq edingizmi?

Abdumoʻminxon. Ha, edim.

Rahimbiy. Bir piyola ichasizmi?

Abdumoʻminxon. Hay, ichaman. (*Rahimbiy piyolani toʻldurub berar. Abdumoʻminxon birdan ichar*). Bir oz achchigʻmi?

Rahimbiy. Bir oz... (*Piyolani olib joyigʻa qoʻyar*). Albatta, foydali dorular solingʻondur. Erta Qozi Nizomgʻa mirasadlik oʻruni bersangiz boʻlurmi?

Abdumoʻminxon. Boʻlur. (*Yuragini tutub*). Yuragimni yondurub yubordi, bu nima edi?

Rahimbiy. Menga bir narsa boʻlmadi-ku!

Abdumoʻminxon (*ikki qoʻli bilan koʻkragini tutub buruladir*). Voy, yondim. (*Yalinar*). Bek bobojon, bu nima edi? Yondim!

Rahimbiy. Jim turingiz, hech narsa qilmaydir.

Abdumoʻminxon (*chiday olmay*). Voy, yondim... bir oz suv beringiz! (*Abdumoʻminxonning koʻzlari olayib, yuzi buzila*

boshlar). Yondim, bir oz suv beringiz! (*Qusmoq istaganda, taxtdan yumalab, tubanga tushar. Rahimbiyning singirlari buzular, kuchli bir vijdon azobiga uchragan kabi devorg'a tayanib, ko'zlarini Abdumo'minga tikib qotib qolar. Qusib, tolpinib, qiyalib yotg'on Abdumo'minxon birdan boshini ko'tarar*). Jallod! (*Rahimbiy seskanar*). Meni ham o'ldurdingmi?! (*Yana yiqilib, tolпина-tolпина jon berar*).

Ko'k gumburlar, qattiq bir yel esib, shamlarni o'churar. Shu tobda taxtning bir chetidan, yigirma yashar eronli bir aft-bir xayol chiqar. Sochi orqag'a qaytarilib, bo'yni to'g'risindan kesilgan, boshi yalang, egnida kafan, og'ir yurub Rahimbiyning qarshisig'a borib turar. Rahimbiy juda qo'rqub, qattiq titrar.

R a h i m b i y (*bo'g'uq*). Bu kim?.. Kim bu?..

Xayol qo'li bilan imlagach, parda ochilib,
o'luklar turg'on boyagi zindon ko'rinur.

X a y o l (*og'ir tovush bilan shul forsha nazmni o'qur*).

Surati adli xisravon in ast
(*Zindonni ko'rsatur*),
Zulm dar olami g'araz din ast.
Ojizonro dihand g'utta ba xun
(*O'luklarni ko'rsatur*),
To shavad xilvati havas gulgun.
Adl in rang tuxmi ra'fat kosht,
V-ey agar zulm teg' mebar dosht.¹

R a h i m b i y . Bu kim?..

Xayol (*taxtga qarab*). Ey qora kuch, ey qurub ketgur taxt! Hech gunohi bo'lmag'on bolalardan, tog' kabi yigitlardan millionchalari sen uchun qurbon bo'lub ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilg'on minglarcha tangrining eng buzuqboshi, eng shumil! Ey, qop-qora saodat, sensan?! Oustingda qolg'onlarni ezguchi

¹ *Dosht* – bu tizim Bedildandir.

bir falokat yuki bo'lg'oning kabi, ustingga chiqqonlarning borliqlarini yondirg'uvchi bir olov tepasidirsan!

Rahimbiy. Kim bu?! (*Qo'rqa-qo'rqa ikki odim ilgari bosib, bir narsa so'ramoqchi bo'lar. Xayol so'ylagach, yana qo'rqub, keyinga qaytar*).

Xayol. Sen fazilatlik bilimlarning qo'l, qanotlarini uzub tashlading. Inju tizguvchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgusiga aylanturding. Ota pichog'i bilan bolalarini bo'g'izlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding. Do'stlarni bo'g'ushturding, o'rtoqlarni urushturding, dalaning erkini, shaharning tinchini, erlarning g'ayratini, xotunlarning ismatini talatding. Otamdan qochib, o'ziga sig'ing'onim holda uyolmayin boshimni kesdirgan Afrosiyobingdan mana shu kimsasiz bolani og'ulab, yiqitqon Rahimxoningg'acha minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding', sen yashatding. Ey, insonning dushman tangrisi, qachong'acha bu ongsizlar to'dasini o'zingga ham topindirub, ham qurbon qilarsan?! Ey, boyqushlar qafasi, bunday dev ishtiholik hayvonlarning qo'li bilan qachong'acha dunyolarni bir-biriga urub turasan?! Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko'masini chuqurdan-chuqurg'a yumalattmog'ingning zamoni hanuzgacha bitmadimi?!

Rahimbiy (*o'ylar*). Afrosiyob, deydir. Otamdan qochdim, deydir. (*Bir-ikki odim ilgari bosib, qo'rqa-qo'rqa*). Sen kimsan?!

Xayol. Men... sening kabi bir zolim qo'linda mana shuning kabi (*Abdumo'minning o'lugini ko'rsatur*) hech bir narsani bilmayin, onglamayin bo'g'izlang'on bir mazlum — Siyovush!.. Ey, qora yurakli boyqush, bundan senga qolg'on vayronani qutlamoq uchun keldim. Insonliq dunyosi — esini bir joyg'a to'plab, o'z ishiga o'zi ega bo'lg'oncha, sen ham, sening kabilarning ham ixtiyoringizdadir. Istaganingizcha hukm sura olarsiz.

Sekin-sekin uzoqlanib yo'qolar.

Rahimbiy. Siyovush... Siyovush. (*Xayol tomonidan tortilg'on kabi uning ketidan yurub sahnadan chiqar*).

Parda tushar

Fitrat she'riyatidan

BIR OZ KUL!

Ko'z yoshlarim bukun tag'in oqarmi,
Qizil gulim boshqalarga kular-da?

Qizil gulim, borlig'imning sultoni,
Jonim sening xayolingdan kuchaydi.
Yuragimning eng qimmatli armoni,
Nechun menga marhamating ozaydi?
Ikki ko'zim, malak yuzim, sevdigim,
Jonlar sening yuzginangdan aylansun.
Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim,
Dunyo sening boqishingdan o'rgulsin.

Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,
Ko'ngil dardin oyog'ingga to'kolmam,
Tuproq kabi yiqilmisham yo'lingda, deya olmam;
Istar esang menga kelib gapirma,
yonimda hech o'tirma:
Yolg'uz yig'lab turganimni uzoqdan
Ko'rganingda marhamat et, bir oz kull!

MIRRIX YULDUZIGA

Go'zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuqq'oni,
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarga tushibsan?
Tuvg'oningga nechun sira gapurmasdan turibsan,
So'yla, yulduz, holing nadir, nechuk topding dunyoni?
Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar,
So'yla, yulduz, sening dag'i quchog'ingda bo'lurmi?
Bormi senda bizim kabi insonlar,
Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar,
O'rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar,

Qardosh etin qo‘ymay yegan qoplonlar?
Bormi senda o‘ksuz yo‘qsulning qonin
Gurunglashib, chog‘ir kabi ichkanlar?

Bormi senda butun dunyo tuzugin
O‘z qopchig‘in to‘ldirgani buzganlar?
Bormi senda bir o‘lkani yondirib,
O‘z qozonin qaynatg‘uvchi xoqonlar?
Bormi senda qorin, qursoq yo‘lida
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar?

O‘QITG‘UVCHILAR YURTIGA

Orqadoshlar, to‘planaylik jahlning uyin yiqqali,
El ko‘zin olgan qorong‘u pardalarni yirtqali.
Biz erurmiz ma‘rifat arslonlari, ilm erlari,
To‘planaylik turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali...

Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur.

Biz erurmiz elning insonlik qonin qaynatg‘uchi,
Turk arslonlarin o‘runsiz uyqudan uyg‘otg‘uchi.
Ma‘rifat bayrog‘i ostida yig‘ildik barchamiz —
Kim, bizi otganlarga haq yo‘llarni ko‘rsatkuchi...

Ellari mahvdan qutqaran ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur.

Haydang, o‘rtoq, qutqorayliq jahldan quvronlari
Yoritaylik ma‘rifat nuri-la Turkistonlari.
Ilm o‘chog‘ida etishgan er yigitlar, to‘planing,
Qochdiraylik jahl o‘rdusin, ochaylik onglari!..







HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY
(1889–1929)

O'tgan asr boshida o'z she'riyati, dramatik va nasriy asarlari bilan o'zbek so'z san'atining yangicha taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Hamza ayni choqda o'zbek maorifi hamda teatr madaniyati tarixining ham yorqin siymosidir. Nihoniy taxallusida bitgan devoni, «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi» to'plamlari, darsliklari, sahna asarlari va faoliyatiga xos barcha samaralar yuksak g'oyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega.

ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ
QURBONLARI

(Fojiadan pardalar)

Turkistonning o'z maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi

Mirzo Hamdamboy — o'rta bo'ylik, mosh-gurunch soqol, qizil yuzli, o'rtacha kiyingan, 55 yoshda, o'zi davlatlik bo'lsa ham, ilm-ma'rifatdan yiroq kishi.

Abdiqodirboy — Mirzo Hamdamboyning oshnosi. Mahmudxonga muhabbatlik, bir ozgina zamondan xabardor kishi. Uzun bo'ylik, qora soqol, rasmiy kiyingan.

Mahmudxon — xipcha bo'ylik, xushmo'ylab, soqolsiz, sochlik, ko'zida oynak bor, butun ovrupocha kiyingan, demak, eng yuqori darajada ochiq fikrli, xususiy muallim olub o'qimish, tarbiya ko'rmish, Mirzo Hamdamboyning yolg'uz o'g'li, 18 yoshdadur.

Maryamxonim — eski maktablarda o‘qimish esa ham, Mahmudxonga muhabbat qo‘ymoq munosabati ila ro‘mon, gazeta, jurnol kabi maorif ta‘sirotindin qalbi uyg‘onmish. Mahmudxonning haqiqiy oshiqidir. O‘zi husnli, 17 yoshda bo‘lub, bir faqirgina kosibning qizi.

Eshon — uzun to‘n va katta sallali.

Sora — Maryamxonning onasi, 35 yoshlarda.

Zaynab — Maryamxonim bilan Mahmudxon orasinda xat yurituvchi kampir, 60 yoshda.

Mavsuum — Mahmudxonning xizmatchisi.

BIRINCHI PARDA

Mahmudxon hujrasi ovrupocha ziynatlangan bir hujra bo‘lub, bir tarafda ishkof, ichida kitoblar, xaritalar, ramkada kartinalar. Bir tarafda temir karavot, bir tarafda bir dona stol, uch-to‘rt dona taburetka, bir devoriy soat.

Mahmudxon (*yolg‘iz kirub sallasini olub qo‘yub, to‘nini yechub, cho‘ntagidan bir maktubni olub, to‘nini qoziqqa ilub, kursiga o‘tirub, xatni o‘pub ochub*). Bugun nima xabar? Nima so‘zlar yozilub maktub kelgan ekan.

Endi o‘qub turgan holda eshikdan Abdiqodirboy kirub kelur

Abdiqodirboy. Assalomu alaykum!

Mahmudxon (*xatni qo‘yniga solub, yugurub turub*). Assalom alaykum, boy pochcha, kelsunlar, qani marhamat (*joy ko‘rsatub*), qani o‘tursunlar, manam hozir janobingizni kutub turuvdim (*boy kursiga o‘tirur, fotiha o‘qur*).

Abdiqodirboy. Xayr, ziyoda davlat, ollohu akbar.

Mahmudxon (*turub*). Xush ko‘rduk.

Abdiqodirboy. Xush, salomat. Yangi xabarlar yo‘qmi, afandim?

Mahmudxon. Xushxabarlar mana endi janobingizdan bo‘ladi-da, boy pochcha.

Abdiqodirboy. Endi biz kelturgan xabar, u qadar xush bo'lmasa hamki, amonat bir javob-da, har nima bo'lganda ham, bizdan bir aytub o'tmoq-da! Ayb qilmaysiz.

Mahmudxon. Yo'q, taqsir, nimaga ayb qilar edim. Qani eshitaylik.

Abdiqodirboy. Endi, kecha men bu yerdan chiqub, to'g'ri kontor¹ga boruvdim, boy afandi o'zlari yolg'uz ekonlar, o'lturuvdim, choy buyurdilar, ag'dan-bag'dan so'zlashub, gapdi muddaoga olub keldim-da, qo'limdan kelgan qadar so'zlarni aytub, agar bu ishlar vuqu'ga kelmasa, Mahmudxon achchiq ustida biror taraflarga ketub qolish ehtimoli ham bor. Endi birtagina farzandingizi xursand qilaman desangiz o'sha Maryamxonni olub berasiz-da, xotirjam qilasiz, bo'lmasa, oxirida biror dilsiyohlik bo'ladurgan darajalarg'a ham ehtimoli bor deb, xulosa, nima bilan targ'ib bo'lsa qilub o'tdim. Ammo boy afandi, o'zingiz fe'llarini bilasiz, hech bir xohish qilmadilar.

Mahmudxon (*bir oz o'zgaribroq*). Axiyri nima dedilar?

Abdiqodirboy. Endi boy afandini gaplari shuki, men el-xalq ichida xo'b yaxshi obro', shuhrat topgon kishi, bir Ho'qandgagina emas, mana Buxoro, Samarqand, bir tarafi Qashqar degandek, hamma joyga ovozamiz ketgan. Endi birtagina o'g'il bo'lsa, mana o'zini to'y qilganimga o'n-o'n besh yil bo'lub qoldi. Mana bu ikkinchi to'yi, axir, bir durustroq, o'zimizdan yuqori bo'lmasa hamki, barobarroq joydan uylantiraylikki, ham orzumiz ushalsun, ham atrofdan kelgan yor-do'stlarga ma'qul bo'lsin-da. Endi man shunday obro' bilan borub bir bechora kosibdi qizini olub beraman! Xalq mani nima deydi. Axir uning katakdek ko'hna hovlisi bor, to'y qayerda bo'ladi? Xo'sh, kelgan yor-do'stlar borub qayerda o'ltiradi? Sharmanda bo'lamiz-ku! Endi o'g'limizni xursand qilaylik xolos deb shuncha mardumdan ta'naga qolub, xayfsan eshitub o'tirsak tuzukmi? Mana axir o'qiyman dedi, xabaringiz bor, olti yildan baqqa qancha pullar

¹ Kontor — idora.

sarf qildum, endi mulla bo‘lub, qilub bergan foydasimi bu? (*Qo‘li bilan ishora qilub*). Aslo, aslo bu so‘zni ikkinchi ayt mang, man sizdan xafa bo‘laman. Mana, sizdek yaxshi do‘stlarimdan chiqqan so‘z shumini? Ayb gap, dedilar.

Mahmudxon. Axir o‘z-o‘zini bir baloga giriftor qiladi, demadingizmi?

Abdiqodirboy. Ayt dim, hech gap qolmay hammasini ayt dim. Onasi ham unamaydi, qarindosh-urug‘lari ham unamaydi. Bu bir xom xayol gap, har kimga maqbul bo‘lmaydigan gap. U o‘zi shundoqadur-ov. Men undan yuz barobar ortuq qiz topub beraman, dedilar. Hokazo, ikki soat so‘zlashub, endi bir oz muloyim qilgan vaqtda hazrati eshonni Qosimjon degan xalfalari kelub qoldi. Xayr, u ham zorainki manga qo‘shilsa, deb tag‘in o‘ltiruvdim, xalifani o‘zi ham so‘rab qoldi, boy afandi o‘zlari gapirub qoldilar. Xalfa gap tamom bo‘lgandan keyin: «Endi, boy afandi, janobingizdiki ma‘qul, sizga hech munosibmas va ham bunisi borki, u qiz hazrati eshonga nazr bo‘lgan, endi hazrati eshon murid ovidan qaytsalar, ehtimol, shu oy ichida to‘y ham bo‘lsa», deb yubordi. Boy afandi: «Mana xolos, agar man sizni so‘zingizga kirsam, toza sharmanda bo‘lur ekanmiz», deb ba‘zi gaplardi gapirub, meni xijolat qildilar. Endi o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q, hazrati eshonga bo‘lgandan keyin gap tamom.

Mahmudxon (*hayron bo‘lub*). Hazrati eshonning xotunlari bor edi-ku?!

Abdiqodirboy. Bor, birta emas, oltita, hozir oltiariqlik oyim o‘ldilar, beshta bor.

Mahmudxon. Oltita ekan, muni nima qiladilar, endi?

Abdiqodirboy. Ey boybachchaxon, siz yosh-da hali, tekin nazr bo‘lgandan keyin, kim olmaydi deysiz! Avval shunday hazrati eshonlardan ish ketgan-da! Bo‘lmasa, bir oyoqlari go‘r og‘ziga borub qolgan bu kishiga kim qo‘ydi yana muncha yosh xotundi! Zamona sob bo‘lgan-da!

Mahmudxon o‘rnidan turar.

Abdiqodirboy. Qayoqqa borasiz?

Mahmudxon. Gap bila bo‘lub qoldik, choy qo‘yay.

Abdiqodirboy. Yo‘q, afandim, choyga fursatim yo‘q. Boshqa yana kelarman (*turar*).

Mahmudxon (*nochorroq*). Axir, choy ichub borar edingiz-da!

(*Uzatur*).

Abdiqodirboy. Axir, choy ichmagan joyimizmi, xayr (*chiqar*).

Mahmudxon (*uzatub*). Xayr bo‘lmasa (*ketar*).

O‘rtada bir oz o‘ylanub qolur-da, kursini stol yoniga olub, sahnaga qaratub qo‘yub o‘tirar. Oh urub, yana turub yurub, kelub o‘tirar.

Mahmudxon (*qo‘lin tizzasiga urub*). Oh, jaholat! Maorifsiz davlat! (*Xatni olub, ochub qarab turub borub, zvonok berub, yana kelub o‘tirur. Eshikdan mulozim kelur, Mahmudxon anga qarab*). Birorta erkak odam kelsa, meni yo‘q degin (*xo‘b, deb ketar. Mahmudxon hamon tizzasiga urub*). Ey, johil otalar, johila onalar, man orzu-havasni nima qilay? Orzu-havas o‘zinning istaganimdan boshqa nimarsa emas.

Bir oz sukut qilub turar. Bu orada Maryamxonim kelub, eshikni qiya qilib qarab turar. Mahmudxon xabarsiz.

Man orzu-havasni nima qilay, suyganim bo‘lmagandan keyin manga ming orzu — bir qora chaqa, balki manga zahar, o‘lim, aza (*birozgina to‘xtab*). Man boy qizini nima qilay. Ho, o‘zimni endigina jaholatdan qutqazgan vaqtda yana bir johilaga, ro‘dapoga umrdosh bo‘lamanmi? Manga hayot kerak, hayot uchun eng ko‘nglim istamish maqsad kerak, u maqsad esa (*bosh qimirlatub*) Maryamxonimdan boshqa emas, boshqa emas. Maslakda, fikrda, ilmda eng birinchi hayotdosh bo‘lub turgan Maryamxonimdek haqiqiy bir ko‘nglum jononasi turganda, manga dunyoning har bir orzusini, har biri pari kabi boylar qizini havas qilmoq harom,

harom. Oh, oning manga shirin-shirin yozmish maktublari (*yugurub turub stol g'aladonidan bir dona maktubni kelturub ochub*). Manamana buni yozmish maktublariga qara, birinchisi bu (*birinchi maktubni o'qir*):

«Ardoqli millatim, g'unchai muhabbatim, suyuqli afandim Mahmudxon! Ban sizga naqadar muhabbatni da'vosindan yozmaga uzun, haddin fuzun so'zlarim bo'lsa ham, vaqtingiz musoida o'lmasin uchun so'zni qisqortub maqsadgagina qalam yurutdim.

Afandim, durust, man faqira eski maktabdagina tahsil etdim, lekin har bir millat va insoniyat, hayot masalalarin borin sizning marhamatingiz va ma'naviy bir yordamingizgina orqali tonidim... Gazeta kabi hayoti milliya ochqichlarida sizning harakatingiz orqali banim qo'lima tushdi. Demak, bu endigi maktubim avvalgi maktublardan emas, balki chin ko'nglum, sof qalbim sahifasi deb bilursiz, vassalom. Ikkinchi muddao, afandim, emdi tezdin ijtiho etingizki, ikkovimiz elimizni, zulmatda qolmish bu millatni, siz quyoshi bo'lganda, man mohtobi bo'lub, qorong'u vatanni yorutaylik. Sizda, erlarimizning holindan, ban mazluma oilalarimizning holindan gazetalarga yozushub, bir-birlarimizi ogohlanturaylik.

Garchi siz tijoratda bo'lsangiz-da, chin maqsudingiz bo'lgan qizlar maktabi ochaylik, ban ma'naviy, siz moddiy xizmatda bo'ling, qadrsiz hamshiralimizning kasod o'lmish bozorlarini ilm nuqudi bila ko'tarishaylik, chin yashaylik, kelajakdagi avlodlarimizni mozorimizga borub, erlari sizga, qizlari bizni qabrimiz uzasina oq, qizil gullar sochub, qur'on o'qub, ruhlarimiz olqishlarlik darajada bir xizmatlarni maydonga qo'yaylik. Afandim, man garchi zohirda bir kosib qizi, ammo sizing yordamingiz bila millat qizi o'lub ma'nun ma'rifat va milliy xizmat bilag'inaman.

Zohiri faqirlik iltifotiga olunmakinda islomiyat, insoniyat, milliyat uzasindan harakatda o'lmog'ingiz burchdur. Yo'q esa qiyomatgacha qabringiz millat va kelajakdagi millat avlodi tarafindan muhaqqar, qiyomat kuni esa janobi haq va rasul afandimiz qoshinda uyotli va sarnigun o'lmog'ingizni xotiringizga yodgor qoldiradi. Demak, orzu-havas o'lsa-o'lsun, milliyat, insoniyat o'lmasin. Xayr, xayrixohi milliy

g'amdoshingiz Maryamxon zikriya». (*Mahmudxon tizzasiga qo'lin urub*). Oh, mana, mana bu maktub qanday laziz hayot beradi. Man qaysi vijdonim bila mundin yuzimni o'girayin, moshallo. Bu maktubni har biri manga ming boy qizidan suyuqlumasmi?..

Turkistonda asrlardan beri endigina yetishgon millat joriyasi qanday ruhlar bermoqda! Oh, man bu mal'un foni davlatga mag'rur bo'lub ma'naviy davlatdan nechuk qolay? (*Mahmudxon birinchi maktubni qo'yniga solub, ikkinchi maktubni ochub ko'rub, cho'chub turub*). Oh, man ta'xir qilubman-ku. Maryamxonim kutmoqchi ekan, man to'xtab qolubman-ku (*xatlarni qo'yniga oshig'ub solub, orqasiga qaramoq barobar, Maryamxonim eshikni ochub, boqub turar. Mahmudxon yugurub borub salom ila qo'lin o'pub*). Buyuring, xonim afandim (*olub kelub, kursiga o'tqazurda, o'zi*). Xonim, man chiqub, eshikni kishi qo'yub poylatub kelay.

M a r y a m x o n i m (*Mahmudxon qo'lindan ushlab o'pub*). Afandim, man kelganimga uzoq vaqt bo'ldi, tez qaytaman.

Mahmudxon. Xo'b jonim, mabodo bir kishi xabarsiz kelmasun (*chiqub ketar*).

M a r y a m x o n i m (*yolg'uz, kitoblarni va boshqa joylarni ko'rsatub*). Oh, shirin hayot, chin yo'ldosh bunday har bir jihatdan komil, fozil inson bo'lsa. Afsus faqira, bechoraman (*yurub turar*).

Mahmudxon kelur.

M a h m u d x o n (*kursiga taklif qilub*). Nechuk, xonim afandi, taklifsizgina tashrif etdingiz?

M a r y a m x o n i m (*o'tirub*). Hech taklifga ehtiyojsiz! Muhabbatmi, boshqami, yaqinlardan beri qo'rqinchli bir tush ko'raman. Xavflanub bir fursat qildimda, ko'rgum keldi. Aziyat ko'rmasangiz, hech gap yo'q.

M a h m u d x o n (*turub*). Bosh ustina, xonim afandi. Na aziyat, marhamat emasmi?! Tushni, baningcha, e'tibori yo'q, lekin... (*Sukut*).

Maryamxonim (*qo'rqubroq*). Afandim, sukut etdingiz?!

Mahmudxon (*ro‘molchasin olub, ko‘zyoshin ortub*).
Xonim afandi, oh, ikkimizga bir uqubat borga-da o‘xshaydi.

Maryamxonim (*cho‘chib, Mahmudxon qo‘lini tutub, oshiqub*). Nima, nima? Uqubat?!

Mahmudxon (*qo‘lini tutub*). Qani til, oni sizga aytmakka, jonim!

Maryamxonim (*hamon yolinub*). Men eshitub turgan so‘zlarimdangina emas, dedim-ku, ko‘rgan tushlarimdan-da xavflangan edim. Ayting, nima xabar ekan. Nima so‘z?

Mahmudxon. Endi o‘zim ham aytmocqa majburman, lekin ko‘nglim bo‘lmaydi.

Maryamxonim (*yig‘lamsirab*). Yo‘q, ayting?

Mahmudxon. Man kecha bir kishini otamga yuborgan edim. Ul kishi so‘zicha, otam qabul qilmagan emish. Mayli endi ul qabul qilmasa, qiyinlik bir tarafda ekan, iloji oson edi. Endi sizning tarafda bir mushkul borki, har bir narsadan u masala og‘ir.

Maryamxonim. Xayr, afandim, nima ekan?

Mahmudxon. Sizni ota-onangiz hazrati eshonga nazr qilmish ekanlar (*Maryam cho‘chur*). Ehtimol shu oylar orasinda to‘y o‘lur emish (*Maryam yana cho‘chub tushar, manglayin tutar*). Endi man esa, bu to‘g‘rida ko‘p og‘ir o‘yga qoldim (*to‘xtar, har ikkilari yig‘lab to‘xtar*).

Maryamxonim (*bir ozdan keyin*). Afandim, siz-siz dunyoda bir kun turmog‘imdan manga o‘lim yaxshimasmi? Man (*yig‘lab*) hech bir vaqt qabul qilmasman! Qo‘limdan kelgan qadar o‘zimni ul zolim qo‘lidan qutqaza olurman. Jonim, gap sizda. Siz-da o‘z va‘dangizda qaror etsangiz, albatta, man jon boricha harakatda bo‘lurman (*yig‘lar*).

Mahmudxon. Jonim, man sizdan-da, ortiq darajada, dunyoda sizensiz tura olmam. Bugun sizdan ajralmoq ma‘lum bo‘lur ekan, bu kunning o‘zidagina o‘z-o‘zimi halok etarman. Jonim, menga sizensiz hayot — zahar. Mandan amin bo‘lingizki, bugundan boshlab man harakatda bo‘lurman. Siz-da, albatta, u tarafdan mone bo‘lub tursangiz kifoya.

Maryamxonim (*Mahmudxon qo'lindan tutub, yaqinroq kelub*). Juda o'lmas esa, bir boshqa mamlakatga qochmoq mumkin emasmi?

Mahmudxon. Albatta mumkin, jonim, ish bo'lmagach noiloj qilamiz. (*Bu orada Mavsum ovoz berub «Xo'jayin keldilar», deb qo'yar*).

Mahmudxon (*sachrab turub*). Endi (*Maryam turar*) aybga buyurmaysiz, xabarsiz kelganingiz vaqtsiz bo'ldi.

Maryamxonim (*Mahmudxon qo'lin tutub, ko'ksina qo'yub*). Yana mani faqir deb tashlamangiz, jonim. Man o'zimcha faqir bo'lmadim.

Mahmudxon. Oh, jonim! Manga o't yoqmangiz. Man u vijdotsizdan emas (*qo'lin olub o'par*).

Maryamxonim (*paranjisini yopinub*). Mani unutmang! Afandim, manga uvol qilmang (*mo'yablalarin silab yig'lab*).

Mahmudxon. Jonim, hech unutmasman! Siz xotirjam... (*peshanasin silar*).

Maryamxonim (*eshik ostina borub*). Jonim, man har doim umidda turaman (*kamzul oldidan tutub*). Afandim, avvalgi marhamat, va'dadagina bo'ling, dunyoga aldanmang...

Mahmudxon (*qo'lini o'pub*). Jonim, siz unutsangiz ham, bilohki, man hargiz unutmasman. Oh, jonim.

Birgalashub chiqar

Parda tushar

TO'RTINCHI PARDA

Qabristonning bir burchi bo'lub, yolg'uz Maryamxonning qabridangina iboratdir¹.

¹ qabridangina iboratdir — parda (qabriston manzarasi)da mumkin o'lursa sahna (o'ynaladigan joy) qobog'indagi elektr (chirog')lar ham o'chirilub, bori sahnaning ikki yoki bir yonidan oddiy chirog'ni yashirin tutub turmoqlari o'tinilur. Demak, sahna naqadar qorong'iroq bo'lub tursa, u qadar bir his berajakki, ehtiromlilik artistlarimiz nazdida ochiq bir so'z bo'lsa kerak! — H.H.

Parda ochilur, bir tarafdin Mahmudxon kirar, boshida ko'k salla, qo'lida palto, bir qo'lida gulu rayhonlar, telbaroq bir holda.

M a h m u d x o n (*lahadga qarab, ta'zim qilub*). Assalomu alaykum, yo ruhi Maryam. (*Gullarni ko'rsatub*). Mana, bu siz mozoringiz tuhfasini uchun, jonim! (*To'nni bir tarafga qo'yub, gulni bog'larin eshub*). Mozoringizga sochmoq uchun keltirdim-a, jonim Maryamxon. (*Qabri ustina sochub*). He, hoy, suyuqli Maryam! (*Bir oz to'xtab, kulub yuborub*). Qanday yarashdi, jonim Maryam. (*Orqaroq qo'l qovushtirub turub, yana oldinroq kelub, yig'lamsirab*). Jonim Maryam, zoliming keldi. Shirin dunyodan yosh o'lmog'ingga eng birinchi sababchi vafosizing keldi. Ko'rgali chiqmaysanmi? Man sog'indim, san sog'inmadingmi? (*Bir oz turub, yana kulub tizzasiga urub*). Chiqmadi-ya! Chiqmaydi, araz. (*Cho'chub qochub*). Yo olloh, yo rabbiy. (*Bir dam to'xtab, xayollanub, yana o'zin tuzatub, lahad yaqiniga borub*). Maryamxon, boshingiz qaysi tarafdin? (*Har tarafga qarab*). Man bir oz quchog'imga olay, juda sog'indim, toqatim yo'q bo'ldi, chiq endi, arazlama! Xafa qilma, jonim. (*Cho'chub, osmonga qarab, hansirab, tomoqlarin ushlab*). Yo Olloh! Yo rab... (*Yuzini silab, qo'llarina qarab, bir dam turub, ohista lahadga qarab*). Maryamxon, muhabbatdoshim Maryam! (*Borub yig'lab qabridan aylanub*). Jonim Maryam, man keldim, man (*o'zini ko'rsatub*), man suyuqlimasmidim, jonim! Nima bo'ldi? Maryamxon, sanga arzim bor-a! (*Tuproqdan olub ko'zina surtub, iskab, osmonga qarab*). Oh, suyuqli Maryam, sanigina bo'ying keladi-ya!

Oh, bay, bay-ey! Mana (*yana iskab*) endi shahodat isini keldi! Shahodat! (*Osmonga qarab qah-qaha urub kulub*). Shahodat isini (*to'xtab turub yana tuproqni tashlab bir tarafga qochub, cho'chub yaqosidan ushlab lahadga qarab, obdirab*). Hoy, hoy, hoy, bay, bay, bay! Man zorlab, man adabsiz axloqsizman, vijdotsiz, insofsiz, hurmat qilmay, muqaddas tuproqlaringni bosdim-a. (*Qo'lin ko'ksina qo'yub*). Tavba qildim, xato qildim, ayb qilma, man gustohingga, jonim. (*To'xtab turub, cho'chub,*

tomoq tugmalarini tortqulab oshig'ub, osmonga tomon). Yo Olloh! Yo rabbiy! Manga nima bo'ldi? (*Yonlarig'a qarab, o'zin tuzotub*). Majnun bo'ldimmi? Yo rab? (*Yana to'xtab qolub, bir ozdan so'ng bir tarafga qarab bir tikilub turub, qo'lin uzotub yugurub*). Ha, Maryamxon, mana man, to'xta, ozgina arzim bor, manga qara! (*To'xtab qolur, bir ozdan so'ng cho'chub, o'ziga yopishub*) Lohavla valoquvvato, moshallo (*Yuzin silab*). Manga nima bo'ldi? (*Yoniga qarab qo'yub*). O'zim uydan bemahal chiqdim, kechasi keldim-da! (*To'xtab turub*). Hushimni joyiga olub kelay. (*U taraf, bu tarafini tuzatub*). Man uyqusiradim, jonim, man tush ko'rub, turub cho'chub turdim-da yugurdim. (*Lahadga yaqinroq kelub o'tirub*). Man endi bir oz qur'on o'qiyin, jonim Maryamxon, senga qur'on o'qiyin. (*Bir oz labini qimirlatub, fotiha qilur holda bir dona kapalak qo'li uzasidan uchar, ko'tarilur. Mahmudxon shoshilub ushlamoqqa harakat qilub, ul taraf, bul tarafga qarar, ul yuqori uchub ketar, qarab qolur. Bir ozdan so'ng cho'chub, o'taroq kelub, qo'lin silkub, jahl bila*). Nimaga, nima uchun to'xtamadi?

(*O'zin ko'rsatub*). Man zolim uchun. Maryamni ruhi-da u. Man xiyonat qildim, o'shal uchun ruhi iltifot qilmadi. Olloh! (*Maryam qabrini qarab, yig'lab yolborub*) Jonim Maryam, suyukli Maryam! Sanga zulm qiluvchi bir manmi? (*Qo'lin sanab*). Yo'q, mani johil otam, sani johil ota-onang, maning johila onam. Sabab bo'lgan to'rt kishi-ya! Man har narsa deding, qabul qildim. O'zingni ota-onalaring sabab bo'ldi-ku! Manda u qadar ko'p gunoh yo'q-ku! (*Yana sachrab to'xtab*). Mandangina san, san xafa bo'lma! Johil otalar (*qichqurub*), johillar! (*Yana cho'chub, qochub, o'zini tuzatub turub bir ozdan so'ng, kulumsirabroq lahadga qarab boshin, qo'lin qimirlatub*). Yo'q, yo'q, jonim, afv qil, afv qil, haqiqatda bu ishlar jaholatdan, jaholatdan, g'aflatdan, ilmsizlikdan. (*Cho'chub yana sarosima bo'lub, to'xtab turub, lahadga qarab*). Jonim Maryam, mandanmi xafalanur ruhing! Yo'q, ota-onalardanmu? Yo'q! (*Qichqirub*). Jaholat bu! Jaholat! O'zing fikrli eding, o'zing olima eding, zamon holindan, xalqning

ma'rifatsiz, ilmsizligidan o'zing yaxshi xabardor eding-ku! Jonim Maryam, endi kimdan zorlanmoq lozim? Hech kimdan! (*Boz qichqirub*). Hamma kasofat, vahshat kasofati, vahshat, jaholat. (*Yana sarosimalanur, bir oz to'xtab turub, o'z-o'zicha ro'baroga qarab jahl ila qo'l siltub*). Bu qanday jaholat zamon, qanday vahshat zamon! Insoniyatni, vijdonni, adolatni, mehr-shafqatni (*yana qichqirub*), jondan ortuq farzandni aqchaga sotadurgan zamon, sotadurgan!

Maryam, Maryamxonim! Man dunyoda yashamam, yashamam! (*Yig'lab boshini qabrni ustina qo'yar*). Maryam man sani yoningda yotaman, tiriklik manga harom. (*Boshidan sallasi tushar, turar, sochlari yozilub yuzin chulg'ar, sallaga qarab*). Oh-o, Oho-o (*olub*) man muni kiyub yuraman? Yo'q! (*To'n ustiga tashlab, yana lahadga qarab*). Maryam, man yashamam, sansiz dunyoda bir kun turmam degan edim. Man inson, va'daga vafo qilaman. (*Yana cho'chub sarosimalanub, cho'ntagidan to'pponchani olub, o'rtaga kelub, ro'baroga qarab to'pponchani ko'rsatub*). Kecha oqshom Maryamxon muhabbat qurboni edi, biz bugun insoniyat, millat qurboni! (*Boshin qimirlatub*). Bay-bay, qanday lazzatli o'lim bu!

Rohat, rohat! (*Achchig'lanub*). Mundog' jaholat, mundog' ilmsizlik, vahshatlik (*ko'krak tugmalarin ochub yuborub*) orasida yashamoqdan o'lim lazzat, lazzat! (*Lahadga qarab, yalinub yig'lab*). Maryamxonim, Maryamxonim, mana man hozir yoningga kiraman, amin bo'l, qiyomat kun ikkimiz qo'l tutushub, janobi haq va rasul qoshinda bu shariat xoinlariga barobar da'vo qilishamiz. Jonim Maryam! (*To'pponchani o'qlab, shoshilub, ko'kragiga tirab*). Man sansiz yashamam, o'z suyukligim bo'lmagach, dunyo harom! Maryam! Mana, hozir!

(*Qichqirub*). Oh jaholat! Dod g'aflat! Faryod, zaharli hayot!

Otar, yiqilur. Bir tarafdin fonus ila Mahmudxon onasi, Mavsum kelub, dod deb o'zini tashlar.

Parda tushar

Hamza she'riyatidan

O'QUV

Ko'zimizga ko'runub turgan hamma asboblar,
Hech biri bo'lmas edi gar bo'lmasa zinhor o'quv,

Yer ichida ko'mulub yotgan hama oltun-kumush,
Yuzaga chiqdi bori bois anga axbor o'quv.

Aql-u fikr-u husn-u idrok-u tamizin pok etub,
Jinni, devona, garangni ayladi hushyor o'quv.

Kambag'al bechoralarga kasb-u san'at o'rgatub,
Qutqazub faqr-u asoratdin edar zardor o'quv.

Dunyoda izzatli aylab, obro'sin ortdurub,
Oxiratda ham sharofat birla aylar yor o'quv.

Sabzayi donish bahorin shubhasiz naysonidur,
Bag'ritoslarni yoqib bir kun qilur gulzor o'quv.

Bir uzun g'aflat yuqudin sanga yo'qdur foyda,
Nifsi shablardin o'zingni aylabon bezor, o'qi!

Gar dilingda o'ylagan orzuga yetmoq istasang,
Naqdi umring qilmag'il behudaga bekor, o'qi!

Qo'y o'yin, sayr-u tamoshoni, g'animat yoshliging,
Shum fe'llardin o'zingni aylagil bezor, o'qi!

Ey o'g'il, dunyoda bo'lmoq istasang olijanob,
O'qig'il maktab kelub, zinhor o'qi, ming bor o'qi!

1914

QALAM

Qoradur garchi izi, nuri haqqiqatdir o'zi,
Chunki bosgan yerda zulmatni ziyo qildi qalam.

Ya'ni, maydona har ish keldi, qalam xosiyati,
Hosili har maqsad-u har muddao qildi qalam,

Tog'-u tosh, sahrov-u cho'llarni guliston aylabon,
Shahrlar, obodliqlar, xushhavo qildi qalam.

Har oq'irlar yengil o'ldi, har qiyin oson o'lub,
Har mashaqqatga o'zin mushkulkusho qildi qalam.

Har adabsiza adab, fikr ila donish o'rgatub,
El ichida obro'sin xo'b raso qildi qalam.

Ba'zini olim qilub, ba'zini qildi yaxshi boy,
Ba'zini shoir qilub, ba'zini shoh qildi qalam,

Sharm-u iffat, or-u nomus, sabr-u imon o'rgatub,
Aylab inson vahshilarni porso qildi qalam.

Dunyoda bo'lgan hama asrori qildi oshkor,
Har o'luk tanlarga go'yo jon ato qildi qalam.

Sidqi dil birla qo'liga kim ani tutsa agar,
Maqsadiga yetkuzub ko'nglin rizo qildi qalam.

Kimki bir matlab bila tutsa ani beshubha ul
Istamish har orzuga oshno qildi qalam.

Hech kishini mehnatini zarra zoye qo'ymadi,
Harna va'da qildi, ahdiga vafo qildi qalam.

Hissa: o'g'lon, maqsading ne bo'lsa tutgaysan qalam,
Chunki jumla hojatin bori ravo qildi qalam.

1914

ILM ISTA

Kim bilurdi odam-u olam nadur, hayvon nechuk,
Bo'lmasa erdi agar insonda bu osor ilm.

Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqa kayfiyatin,
Lozim o'lgay topmoqa avval o'qib axbor ilm.

Gar maishatdan so'rarsan, ibrat ol darrandadin —
Bir-biriga to'ma o'ldi, boisi ag'yor ilm.

Olaming xurshidi kundur, odaming xurshidi ilm,
Olaming zulmoti tundur, odaming nodori ilm.

Har murod-u, maqsadingga yetmoq istarsan, murod,
Ko'z ochub bedor bo'l, darkor ilm, darkor ilm.

Har taraqqiy aylagan millat eliga sol quloq,
Kecha-kunduz so'zlari afkor ilm, afkor ilm.

Ul haqiqat oyinig'a sayqal istarsan Nihon,
Ilm ista, ilm ista, istagil zinhor ilm.

1914

MAKTAB

Erur ilm-u adab, fazl-u hunar osor maktabdin,
Yetar har rutbai oliy esa takror maktabdin.

Hama gulshan uza yomg'ur yog'ub chun sabzavor etsa,
Taraqqiy gulshani obod o'lur anhor maktabdin.

Hama izzu, sharofat ham saodat konidur maktab,
Yetar ikki jahonda matlabing zinhor maktabdin.

Qayu millatda maktab o'lmasa beshak xarob o'lg'ay,
Hama millatda shulchun guftugo' bisyor maktabdin.

Hama ilm-u maorif ganjini devoridur maktab,
Hama hikmat chiqar bu mahzani asror maktabdin.

Chiqub turmakda har kun yuz tuman asbob-ashyolar,
Tamoman, asli beshak, mevai ashjor maktabdin.

Qo'shar inson qatoriga qilub insonlari inson,
O'qub ilm-u adab bo'lgay kerak hushyor maktabdin.

Kimi maktabda bo'lsa o'rganur axloq o'lub komil,
Hayo, imon-u aql-u sharm-u nomus, or maktabdin.

Kimi istar esa yaxshi hayotu shonu shavkatni,
Kelub ilm o'qisin, hosil o'lur ming bor maktabdin.

Hama millat eli ham biz kabi chin uxlamish erdi,
Vale bo'ldi alar bizdin sabab bedor maktabdin.

Bizi ham orzumiz bo'lsa uyg'onmoq bu g'aflatdin
Tun-u kun bizga ham so'z so'zlamog' darkor maktabdin.

Taraqqiyga yetarmiz bizlaram begona millatdek,
Ikki-yu uch majolis o'lsa gar afkor maktabdin.

Nihon yig'lab siza yoborg'usi, o'g'lonlarim, zinhor,
Uzing har orzu gulg'unchasin zinhor maktabdin.

1914

DARDIGA DARMON ISTAMAS

(Milliy she'r)

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ko'nglidur oshuftan lahvu tarab, nafsu havo,
Tilsa zillat xanjari bag'rini Luqmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Qo'lidatur domi tama', ko'zdadur kayf-u xumor,
Soch oqorub, qaddi ham bo'lsa pushaymon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

«Jamshid»u «Zarqum», «Bayoz» ahli salohin ilgida
Yo aqoid, yo hadis, tasviri Qur'on istamas.
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Ilmsizlikdan hama kelgon baloni anglayur,
Ittifoqu g'ayrat aylab, lek irfon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Keldi davri, dushdi osmondan Masihoyi ilm,
Bu nechuk badmurdalik, jismga bir jon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

O'zga millat uchsalar, hikmat topub so'yi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

O'zgalar etmakda har kun bing sanoyi ixtiro,
Biz aholi topmoqa beranj bir non istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.

Bu na vahshat, na jaholat, er qizu piru javon,
Domi g'aflatdin xalos o'lmoqqa imkon istamas.
Ey Nihon, bing hayf, ey insoniyat, islomiyat

Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.







ABDULLA QODIRIY
(1894–1938)

O‘zbek romanchiligining dastlabki eng barkamol namunalari uning qalamiga mansub. «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlarini mutolaa qilmagan, ularga oshufta bo‘lmagan biror o‘zbek avlodini, oilasini topish qiyin. Abdulla Qodiriy salohiyatining naqadar yuksak ekanligini bugungi kunda dunyo kitobxonlari e‘tirof etmoqda.

«MEHROBDAN CHAYON»
ROMANIDAN
CHIN O‘RTOQ

Anvar yoshligida bo‘shanggina bir bola edi. O‘zi tengi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o‘ynab-kulmas, hamisha uning ko‘zida bir mung yotar edi. Bu holat balki oila baxtsizligidan, ota-ona bag‘rida yayramaganlikdan tug‘ilgandir, desak, uning ikki og‘asi bunday emas edilar. Bir onadan alvon xil bola tug‘iladi, deganlariday, Anvarning yaratilishi og‘alariga nisbatan boshqacha edi. Maxdumning uyida tura boshlagach, Anvarda bir oz o‘zgarish ko‘rildi. Shunda ham bolalar bilan aloqasini eskicha yuritib, faqat Ra‘no yonidagina o‘yinkulgi bolasiga alishinar, Ra‘noni yetaklab bog‘chaga, ko‘chadagi katta suv bo‘ylariga chiqib, hamrohini bog‘chadagi gullarning ismi, uchib yurgan qushlarning nav‘i, katta oqar suvlar va ayniqsa, Ra‘no kabi yosh qizchalar uchun bu suvlarga yiqilish xavfi va shuningdek, boshqa masalalar bilan uni tanishtirar, ko‘chada o‘lik

ko'targanlarni ko'rsa, birorta bolaning otasi yoki onasi o'lganligini so'zlab, buning orqasidan: «Mening ham onam o'lganda, o'shanday qilib ko'targan edilar... Men ham shu boladek mozorga yig'lab borgan edim», deb qo'yar edi. Ra'no ham Anvarning so'ziga diqqat bilan quloq solar va ko'pincha hisobsiz savollar bilan uni ko'mib tashlar, lekin Anvar zerikmas, har bir so'roqqa javob berib, Ra'noni qanoatlantirishga tirishar edi.

Anvar yosh bo'lsa ham jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushgan baxtsizlikdan ham mutaassir¹ bo'luvchi edi.

Bola chog'idanoq eng yaxshi ko'rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi. Maxdumning oilasiga kelib tura boshlagandan so'ng, bog'channing gulzor qismini o'z idorasi ostiga oldi. Gullarni sug'orish, o'tlarni yulib, tozalash vazifalarini o'zi bajardi. Gullardan hech kimga uzdirmas, bir bolaning uzib olganini ko'rsa, o'zi xafa bo'lganidek, bolani ham xafa qilardi. Bolalarning daragi bilan har kimning uyida bo'lgan yangi gullardan ko'chat va urug' olib, yildan-yilga gulzorni boyitdi. Yoz kunlari kelsa, bolalarni kapalak va oltincho'ng'iz tutib kelishga buyurar; qiynamay, ozor bermay zahasiz kapalak tutib kelganlarga sabog'ini o'qitib qo'yish bilan mukofot berar, kapalak va oltincho'ng'izlarni gulzorda uchirib yuborar, agar ular gullarga qo'nib qolsalar, o'zida yo'q sevinar edi. Shuning uchun aksar yoz kunlari maxdumning bog'chasi oq, nimrang, olazangor, malla-lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko'rinishga kirar, Anvarning o'qishdan bo'shagan kezlari gullar ichida va shu kapalaklar orasida kechar edi.

Anvar har kim uchun sevimli va xushmuomalasi barchaga baravar edi. Ammo, ayniqsa xush ko'rgan kishilaridan birinchisi Ra'no va ikkinchisi maktabdagi shogirdlardan saboqdosh sherigi Nasim ismli bola edi. Nasim bilan Anvar juda yaqin do'st, bir-birini anglovchi sirdosh o'rtoq edilar. Garchi Nasimning otasi Qo'qonninggina emas, butun xonlikning tanilgan kishilaridan va

¹ *Mutaassir* — ta'sirlanmoq, ko'ngliga oluvchan.

ikki bolaning sinfiy ayrimliklari yer bilan ko'kcha bo'lsa-da, lekin yosh do'stlar buning farqiga yetmaslar, Nasim «xonning mirzoboshisining o'g'liman», deb havolanmaganidek, Anvar ham «Salim bo'yoqchining yetimi, Solih maxdumning asrandisiman», deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatga kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarning yirtiq bo'z kiyimlar ichida va Nasimni shohi-adraslar bilan g'arq holda ko'rib, albatta: «bu gadoyvachcha bilan bekvachchanning o'zaro nima munosabatlari bor?» deb taajjublanar, lekin do'stlar hali buning ayirmasini idrok qilmaslar edi.

Aksar jum'a kunlari maxdumdan izn olib, Anvar shu o'rtog'ining uyiga borar, kechgacha Nasim bilan «suhbatlashib» qaytib kelar edi. Anvar shu munosabat bilan Nasimning otasi Muhammad Rajab poygachining iltifotiga noil ham bo'ldi. Nasim o'rtog'i Anvarning yetimligini otasiga bildirib, majbur qilgan bo'lsa kerak, bir necha hayit mavsumlarida Muhammad Rajabbek Anvarga kiyimlar ham berdi. Bu iltifot ikki do'stning aloqalarini bir-biriga yana qattiqroq bog'ladi, ayniqsa, maxdumning dimog'ini chog' qildi. Zero, Anvarning Muhammad Rajab kabi bir kishining o'g'li bilan do'stlashishi bir kamolot bo'lganidek, do'stlikning hatto sarpolar kiyishgacha borib yetishi maxdumning nazarida yana ayni fazilat edi... Shu sarpo kiyish voqeasidan so'ng maxdum Anvarga boshqacha qarab qoldi va ichidan «odam bo'laturgan ko'rinasan», deb qo'ydi.

Baxtga qarshi, bu do'stlik aloqasi uzoq davom etolmadi. Bir kun oradagi do'stlik ipini o'lim yag'mogari¹ kelib uzdi. Nasim o'n besh yoshlar chamasida chechak kasali bilan og'ridi va zamonasidagi chechakdan emlash ahamiyatiga tushunmaganlik, ya'ni xonlik jaholatiga fojiali qurbon bo'ldi. Muhammad Rajabbek va oilasi uchun bu musibat, albatta, og'ir edi. Biroq ulardan ham Anvar uchun og'ir bir hasrat bo'ldi.

Hatto ko'z yoshini marhumning ota-onasidan ham ko'proq Anvar to'kdi desak, mubolag'a qilmagan bo'larmiz. Uch kun

¹ *Yag'mogar* — yalmog'iz.

maktab va maxdumni unutib, Muhammad Rajabbek hovlisida turib qoldi. Har oqshom Nasimning qabri ustida bir necha soatlab yig'lab o'tirdi. Bu yoshning samimiy chin do'stligi va o'rtog'iga sadoqati har kimni taajjubga qo'ydi.

Anvarning birinchi martaba marhum do'stiga atab yozgan marsiyasi motamlilik ota-onani yana bo'zlatgan ediki, biz marsiyadan bir necha misrani quyida keltiramiz:

*Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi piru javon yig'lar,
Emas piru javon, balki hamma ahli jahon yig'lar.*

*Ajal yag'mogari bog'i zako ichra uzib zanjir
Rahmsiz ezsa ma'sum lolalarni, chun xazon yig'lar.*

*Nasimim ketdi olamdin meni qayg'u aro tashlab,
Ko'zimdin oqsa xun hech bir ajab yo'q, chunki qon yig'lar.*

*Jahonda erdi tanho men yetimga hamnishin, dildor,
G'ariblikning diyorida adashgan notavon yig'lar...*

Mulla Muhammad Rajab poygachi o'g'lining sodiq do'stiga shu kundan e'tiboran boshqacha qarab qoldi. Bir jihatdan, ma'sumiyat, ikkinchidan, ko'rinib turgan iste'dod Muhammad Rajabbekni Anvarga iltifot etishga majbur qildi. Garchi, Anvarning yuqoridagi marsiyasi bolalik xarxashasidan iborat esa-da, yana uning istiqbolidan xabar olish uchun yaxshi mezonlik vazifasini ham o'tar edi.

Mulla Muhammad Rajabbek avvalo o'z iltifotini Anvarning marsiyasidan bir baytni Nasimning qabr toshiga olish bilan boshladi. So'ngra Anvarning: «Dunyoda men yetim o'rtog'ingga tanho sirdan va dildan (ko'ngil ko'taruvchi) eding. Bu kun men sendek do'stdan ayrilib, yana g'urbat diyorida notavon yig'layman!» deb afsus va nadomat qilishiga qarshi, ya'ni Anvarning yetimlik va g'aribligiga yo'l qoldirmaslik uchun, mulla Muhammad Rajabbek o'g'lining sodiq do'stiga o'z otaligini ko'rsatmakchi bo'ldi.

Anvar uch haftagacha xatmi qur'on kechalari Muhammad Rajabbek uyiga kelib turar edi. Oxirgi xatmi qur'on kechasi Muhammad Rajabbek Anvardan ahvol so'radi:

- Domlangiz salomatmi?
- Shukur.
- O'qishingiz yaxshimi?
- Birmuncha.
- Domlaning uyida turasiz?
- Taqsir.
- Siqilmaysizmi?
- Yo'q.
- Ilmi hisob o'qiganingiz bormi?
- Yo'q, taqsir.
- Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?
- Bilmaslar deb o'ylayman.
- Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o'qiysizmi?
- Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o'qiyman.
- Xo'p... bo'lmasa erta kechga domlangiz shu yerga kelib, menga uchrashsin!
- Xo'p, taqsir.

Ertasi kun maxdum keldi, Muhammad Rajabbek maxdum bilan so'zlashib, Anvarni o'rda xizmatiga olish fikrida bo'lganligini, buning uchun arabcha, forschadan yana ham chuqurroq ma'lumot olishi lozimligini va hisob o'rganishi kerakligini aytdi. Maxdum Muhammad Rajabbekning Anvarga bunchalik marhamati uchun bir oz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchilik sababiga yaxshi tushunganligi jihatidan avvalo bekning yetimparvarligini, so'ngra Anvarning zako va iste'dodini maqtadi. Anvarni odam qilish yo'lida chekkan o'z mashaqqatlarini ham shikoyat yo'sinida so'zlab chiqqach, bu kunlarda ehtimomi tom bilan Anvarga fors va arabiydan dars berib turganini va alhol ham Anvar forscha tazkira va tahrirlar yoza olishini bayon qilib, necha xil uzrlar ichida o'zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya'ni Anvarning ilmi hisob

o'rganishi uchun boshqa muallim kerak bo'lur, dedi. Muhammad Rajabbek bu to'g'rida o'zi domla topmoqchi bo'lib maxdumga ruxsat berdi.

MAXDUMNING BAXTI

Shu kundan boshlab Anvarning hayotida yangi sahifa ochiladi. Ya'ni, maxdum Anvarga ilgari gicha — istiqboli qorong'u bir yetim, deb qaramay, balki Anvar kabi o'z o'g'li bo'lmaganiga o'kina boshlaydi. Darhaqiqat, uning o'kinishiga arziydigan chigil masalalar ham tug'iladir, masalan: Anvar o'rda xizmatiga kirib qolsa, oyiga besh tillo, o'n tillo naqdina daromad qilib tursa, bu mablag'lar...

Shunday istiqboldagi bu «mablag'lar» masalasi maxdumning ichini ari bo'lib talaydi. «O'n yoshidan beri o'qitib, yedirib, kiydirib kelaman; albatta, daromad mening haqqim bo'lur», deb o'ylasa ham, bu hukmidan o'zi uchun rozi bo'linqiramaydi. Har holda masala chigil edi.

Mohlar oyimning Ra'noni Anvarga berish to'g'risidagi «bema'ni, ahamiyatsiz» so'zlari o'sha vaqtlarda maxdumning ensasini qotirgan bo'lsa, hozir shu haqda chinlab o'yladigina emas, balki: «Haligidek Anvarning baxti ochilib ketsa, nima malomati bor. Yetimlik ayb emas, inson uchun fazlu kamol lozim, kulib turgan baxt hojat, naslu nasabning hech ahamiyati yo'q. Ra'noning husniga har kim ham tahsin qilur; Anvar, albatta, yo'q demas... Bu borada mol va jonni bir qilishdan boshqa maslahat yo'q!» degan qarorga daf'atan kelib qoldi. Bundan biror oylar ilgari Nigor oyimga: «Anvar balog'atga yetayozdi. Sen bilan Ra'noga shar'an nomahram, undan qochishlaring lozim!» degan bo'lsa ham, bu buyruq hozirgacha amalga oshmagan edi va bundan keyin ham amalga oshmaydirgan bo'ldi. Zero, maxdumning fikricha, Anvarga og'ir tuyulishi ehtimoli bor edi...

Anvar Muhammad Rajab poygachi tarafidan belgilangan bir muftida hisob, insho (tahrir) qoidalarini o'rgana boshladi.

Maxdum ham jon otib arab va forsiydan ta'limni kuchaytirdi. Anvar bir yil ichida hisob va insho qoidalarini o'rgandi va boshqa darslarida ham yaxshi muvaffaqiyat qozondi, ham shu ko'klamdan e'tiboran har kun o'rdaga borib, Muhammad Rajab munshiy qo'l ostida mirzolar yonida daftardorlik, nomanavislik usullarini tajriba qila boshladi. Bir yil chamasi maoshsiz tajriba ko'rdi. Shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o'z kissasidan uch-to'rt tanga choy puli berib turar edi. Anvar shu arzimagan uch-to'rt tangani ham maxdumning qo'lga keltirib berar va hafta sayin o'ziga ustozining umidini kattaroq bog'latib borar edi.

Anvar bir «yillik tajribada o'rdadagi daftardorlik, forscha va turkcha nomanavislik¹ hunarlarini tamoman deyarli o'rganib tajribalik mirzolar qatoriga kirdi. Sarmunshiyning og'zidan chiqqan ma'noni tartibga solib noma, yorliq yoki boshqa bir tazkirani tahrir qila olar, mirzolar jumlani g'alat ifoda qilib, sarmunshiydan aksar tanbeh eshitganlarida, Anvar bunday tanbehga juda siyrak uchrar edi.

Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo mohona bilan maoshlik mirzolar qatoriga o'tdi. Mohonadan tashqari soliqlardan ham darxonlik qog'ozi oldi. Soliqlardan darxonlik maxdumning ro'zg'origa katta yengillik edi. Chunki so'nggi yillarda xonlik tomonidan xalq ustiga tushgan va tushib turgan soliqlar behad va to'lab bo'lmaslik ediki, bu haqda kelasi boblarimizda so'z bo'lar. Shu xursandlik barobarida birinchi oyning yetti tillosi yaxlit holda maxdumning qo'lga tegishi go'yo to'y ustiga to'y edi. Domlaning yetti tilloni olgandagi holini tasvir qilish, albatta, qiyindir; ko'zlari g'ilaylashgan, aftida qiziq o'zgarish ko'rib, og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilgan: «habba, hosiling durust, Anvar bolam, lekin pulga ehtiyot bo'l, bo'tam!» degan edi. Yetti tilloning qo'ldan chiqish xabari Nigor oyimning qulog'iga yetishgach, Anvardan ranjidi: «Hamma pulingni domlangga chakki

¹ *Nomanavislik* – daftar va nomalar har ikki tilda yuritilar edi. (Muallif).

beribsan, Anvar; ust-boshingni, ko'rpa-yostig'ingni, ortib qolsa Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tuflab tugishdan boshqani koshki bilsa!»— dedi.

Maxdum yetti tillo «naqdina»ni olib qancha shodlangan bo'lsa, o'shanchalik tashvishga ham tushdi. Uning fikricha, zamona yomon, buzuqlar benihoyat; mumkinki, Anvarni o'zidan aynitib, og'zi oshga yetganda, boshini toshga tegdirlasalar... Ra'noni Anvarga nikohlab, boshini bog'lab qo'yaymi, deb o'yladi. Biroq Ra'no hali o'n bir yoshda edi. Ikkinchi kun Anvar ishdan qaytib kelgach, maxdum uni bog'chaga olib kirdi. Bog'chadan kungay hay ko'krak bir o'rinni ko'rsatdi:

— Ana shu yerga senga atab bir uy, bir ayvon, oshxona va axtaxonasi bilan imorat solsam deyman... Habba, Anvar?— deb so'radi. Anvar kuldi.

— Imoratga ellik tillodan kam pul yetmaydi. Menim bo'lsa bir pulim yo'q. Bo'laturgani ham fотиha berguningizcha, albatta, sizniki va oyimlarniki!—dedi.

— Habba... himmatingga!—deb yubordi maxdum,— albatta-ku, shunday, va lekin o'sha niyatlaringdan keyin boyagidek alohida pul yig'sang deyman-da... Albatta, bu gap uch-to'rt yilsiz emas-da!

Shu vaqt Ra'no narida bola ko'tarib turar edi. Maxdum Ra'noni o'z yoniga chaqirib, unga ham haligi o'rinni ko'rsatdi:

— Habba... mana shu yerga Anvar akangga uy solib beramiz, Ra'no. Bu senga qalay o'xshaydi, qizim?

Ra'no otasining so'ziga tushunmadi:

— Anvar akamning yotaturgan mehmonxonasi bor-ku!— dedi.

— Xe-xe-xe, bolasan, qizim, bolasan!— deb kuldi maxdum,— Anvar akang tokay mehmonxonada yotadi deysan. Axir bir kun uylanadi, bamisoli sen bo'lsang erga tegasan... Axir uy kerak-da, qizim!

Bu so'zdan Anvar qizarib ketdi. Ra'no Anvarga qarab oldi va dadasiga achchiq qilgan kabi burilib ichkariga jo'nadi.

Maxdum Anvarga ustalik bilan bir ma'noni anglatib, ta'minot berganidek, buzuqlarning vasvasasiga qarshi dam ham solgan edi... Bu dam solish Anvarga ham ta'sirsiz qolmadi. Shu kungacha Ra'noning yosh, ma'sum husniga umidsiz qarayturgan bo'lsa, bundan keyin unga umid va istiqbolning shirin xayollari bilan termulaturgan bo'ldi.

Maxdum o'zining chekkan tashvishidan haqli bo'lib chiqdi. Anvarning tevaragida «xolis» maslahatgo'ylar ham ko'rinishib qoldilar. Ayniqsa bu «xolis»lardan biri pochchasi edi. Pochchasi yetti tillo daragini eshitib entikdi. Erining tazyiqi ostida Nodira ham kengashga turdi.

— Pochchang, bizning hovliga kelib tursin, o'zim uylantirib qo'yaman, deydi.

Anvar boshqalarning kengashiga quloq solmaganidek, opasining so'ziga ham iltifot qilmadi. Maxdum javob bermaguncha bu uydan ketmasligini bildirib, faqat pochchasiga yordam berib turish va'dasi bilan opasini tinchitdi.

Anvar ikkinchi oy maoshidan uch tilloni o'zida qoldirib, uyga kiyim-kechak olish uchun izn so'ragan edi, maxdum: «Shu ish chakki-da, bolam. Xayr, bundan so'ng shu no-ma'qulchilik bo'lmasin!» deb arang ko'ndi. Nigor oyim esa Ra'no va o'ziga kiyimlik sotib oldi. Nigor oyim sholpar, Ra'no atlas kiydilar.

Nigor oyim Anvarning pinjiga kirib olib, o'z yo'liga sola boshladi. Maoshning hammasini maxdumga bermaslikka, shunga o'xshash kamu ko'stlarga ham yaratib turishga undar edi. Anvarning andishasini rad qilib: «Har qancha bersang ham dadasi ola beradi. Lekin berganingni sen bilan bizga misi ham yuqmas. Shunday bo'lgandan keyin, ishni o'ylab qilish kerak!» der edi. Chunki Nigor oyim erining Anvarga qattiq botina olmasligini sezar edi. Shunday bo'lsa ham Anvar yetti-sakkiz oygacha topganini maxdumga berib, duosini olib turdi. Lekin maxdum shunchalik daromad bilan ham eski tabiatini bir zarra o'zgartmas, hamon eski tos, eski hammom: har kun suyuq osh, xudo yorlaqagan

kun ozodlikning palovi, shunda ham Anvar kech kelib sovigan oshni yer, uyda issiq non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilgan non suvi qochib, taraqlab kelasi panjshanbagacha kafolatni o'z ustiga olar edi. Bora-bora Anvar ham bu holdan siqilib, Nigor oyimning kengashicha ish qilmoqqa majbur bo'ldi. Oltin berib quruq duo va minnatdorchilik olishdan, duosiz yeb-ichishni a'lo ko'rdi. Uyga go'sht va boshqa masalliq olib berib, xohlagan taomini buyurib turdi; o'zi yaxshi kiyinganidek, Nigor oyim Ra'nolarni ham yaxshi kiyintirdi. Nodira opasiga, jiyanlariga kiyimlar olib berdi; ikki tilloni Marg'ilonda og'rib yotgan Mohlar oyimga sovg'a-salom qilib yubordi.

Bu o'zgarish maxdumni dovdiratib qo'ydi va qo'rqa-pisa: «Bu oy xarojatlabsizmi, bolam?» deb so'ragan edi, Anvar: «Kam-ko'stlarni tuzatib oldik» degan javobni berdi. Ikkinchi oyda, ko'rpa-yostiqlarni tuzatib, maxdumning ko'zi to'rt bo'la bergach, ikki tillolik «xolis» duo ham olib qo'ydi. Lekin maxdum bu holdan ancha shoshgan edi. Biroq shayton yo'ldan ozdirdimi, deb astag'firullo o'qir edi. Anvarning eskicha ochiq yuz bilan muomala qilib faqat «naqdina» vajhidangina dam bo'lib qolishi, topganini «bemaza» ovqatlarga, kiyim-kechak va boshqa «behuda moloya'ni»larga sarf qilishi maxdumni ko'p tanglikka solgan edi.

— Bo'tam Anvar, — dedi bir kun maxdum, — dunyo degan ko'p noyob narsa; kishining bir kuni bo'lsa yig'lab-sixtab o'tib keta beradi, illo, zar qadriga yetish kerak... menda bo'lsa o'zingda turgandek gap, bolam!

Bunday «muassir» nasihatlar ham Anvarga kor qilmadi. Chunki u, Nigor oyim va Ra'nolar bilan bu to'g'rida qat'iy bitishib qo'ygan edi. Shu bilan birga maxdumning oylik vazifasini ikki tillodan ham kamaytirmadi. Inson har narsaga qobil... bora-bora maxdum shunga ham qanoat qiladigan bo'lib, hisob-kitobni esidan chiqardi. Biroq oy sayin ikki tilloni olganda «qolgani» to'g'risida bir oz yuragi achishib qo'yar edi...

JINLAR BAZMI

Mavhum hikoya

Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qoʻrquv oʻrab olar edi-da, ichimdan: «Meni ham shunday jinlarga yoʻliqtirma» deb tangriga yolborib qoʻyar edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon boʻlib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib oʻltirar va oʻtgan-ketgandan soʻzlashar edilar. Soʻz aylanib kelib yana oʻsha jinlar, parilar, devlar toʻgʻrisida toʻxtadi. Otam boʻlsa, oʻzi koʻrgan «jinlar bazmi»ni soʻzlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida soʻzlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimalik boʻlganidan, darrov oʻrnimga kirib, koʻrpamga burkanib yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, «jinlar bazmi»dan soʻz ochdi:



— Yangi uylangan vaqtlarim edi. Tirikchilik bilan ovora bo‘lib, bog‘ning poyasiga o‘z vaqtida qarolmadim. Bir kun payt topib bog‘ga bordim, tok juda ham o‘sib ketgan, bardidan hatto ikki qarichgacha o‘sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkoblarni shita broq tikkaytirishga to‘g‘ri kelar edi. Bog‘ga bora boshlaganimning to‘rtinchi kuni kechasi bir oz yomg‘ir yog‘ib chiqdi. Go‘yo yomg‘irni kutib turgan toklar yana ham o‘sib ketdilar, sho‘ralar bardi ustiga engashib, ishkom ustiga olmaganim uchun go‘yo mendan arazlagandek ko‘rinar edilar. Men nima bo‘lsa ham poya ishini bukun bitirmoqchi bo‘ldim. Ertaga tokni ochmasam, ham o‘zim uchun, ham tok uchun jabr qilgan bo‘larman, deb o‘yladim.

Istakni¹ ozroq olgan ekanman. Oxir peshin vaqtida istak tamom bo‘lib qoldi. Istak uchun bozorga boray desam, bir ishkomgina yamoq qoldi, undan keyin bozordan qaytib chiqquncha kech ham bo‘ladi. Nima qilish kerak? Uzoq o‘ylab turmay, tut, qayragoch va tol kabi daraxtlardan istak chalpidim. Chalpigan istaklarni yig‘ishtirguncha ham bir choy qaynar vaqt o‘tdi. Istaklarni belbog‘imga qistirib, ishkomga kirdim.

Qosh qorayib, qorong‘i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-qo‘llarimni yuvib, salla-choponimni kiyganimda obdon qorong‘i bosgan edi. Bog‘ ishlagali kelgan qo‘shnilardan hech birisi qolmagan, hamma shaharga jo‘nab ketgan, ko‘chada chigirtkalarining chirillashi, qurbaqalarning qurillashidan boshqa tovush yo‘q edi.

Men bog‘dan chiqqanda xufton bo‘lmasa ham, shunga yaqinlashib qolgan edi. Qorong‘ida turtinib-surtinib yo‘lga tushdim. Otam xolamga xitoban dedi:

— Siz bilasiz, bizning bog‘ning tevaragi quyuq daraxtlik maydonlar bilan o‘ralgan. Katta ko‘chaga tezroq chiqib olish uchun men shu maydonlardan yurdim. Maydon nihoyatda qorong‘i

¹ *Istak* — uzum (tok) navdalarini biror manba (yog‘och, temir...)ga bog‘lash uchun ishlatiladigan (ip, ho‘l ko‘g‘a, mato va boshqalar)dagi iborat bog‘lash vositasi qovg‘a.

va vahimali edi. Lekin men qorong'ida beparvo borar edim, yolg'iz qorong'ida turtinib qiynalar edim. Katta ko'chaga chiqib olmog'im uchun orada bittagina Hamdam xumdonchining chakalagi qoldi.

Otam hikoyasini shu yerga keltirib taqagach, men ko'rpamga yaxshiroq burkanib oldim. Otam so'zida davom etdi:

— Bir-ikki qadam Hamdam xumdonchining maydoniga tomon yurdim... Yiroqdan kelgan yorug'likni sezib, tevaragimga qaradim-da, hayron bo'lib qoldim... Qarshimdagi maydondan o'tkir nur sharpasi tushar edi. Bugina emas, kishilarning chag'ir-chug'ur so'zlashib, kulishlari, gij dang-gij dang bilan childirma, ora-chora dutor, tanbur, g'ijjak kabi sozlarning zaif, ammo yurakni qitiqlaydigan tovushlari eshitilar edi.

Men tang qotib, bir necha vaqt turib qoldim. Darhaqiqat, boyqushlar uyasi bo'lgan bir vayronada bunday voqeaning yuz berishi kishini, albatta, hayron qilar edi. Holbuki, men ertalab ham bu maydondan o'tgan edim. Bu yerda biror ziyofat bo'ladigan bo'lsa, erta bilan uning bir asari ko'rilar edi. Yosh-yalanglar kunduz kuni harakat qilganlar-da, deb fikrimdan o'tkazdim.

Men bazm bo'layotgan maydon orqali o'tmoqchi bo'lib, devor raxnasidan oshib tushdim... O'h-ho'-o'-o', maydon ichi ko'nduzgidek yorug', daraxt shoxlariga chirog'lar osilgan, yerlarga ipak gilamlar yozilgan. Bir chekkaga katta oq samovarlar qo'yilgan, bir tarafda katta qozonlar qurilgan, jaz-biz davom etar edi. Maydonning o'rta yerida yuz chog'li yosh-qari kishilar qurshalib o'tirib, dutor, tanbur, childirma, nog'oralar chalib bazm qilar edilar.

Shu choqda bir kishi oldimga yugurdi va bazmdagilarga qichqirib:

— Mana, O'sar akam ham keldi! — dedi. Bazmdagilarning hammalari ham menga qaradilar.— Keling, keling, O'sar aka, poyadan qutuldingiz-mi? —deyishdilar.

O'sha onda ularga nima deb javob berganimni hozir eslayolmayman, chunki juda ham garangsigan edim.

Ular meni o‘z ixtiyoriga qo‘ymay, sudrab, tortib to‘rga chiqardilar. Odatda majlisga kirib o‘ltirgandan keyin fотиha o‘qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora bo‘lib, fотиha o‘qish ham yodimdan chiqqan... Bir oz esimni yig‘ib olgandan keyin majlisdagilarni ko‘zdan kechirib chiqdim. Ko‘plarini qaysi joydadir ko‘rgandek bo‘laman... Aniqlab qaragam, umrimda ko‘rmagan-tanishmagan yot kishilarga o‘xshaydilar. Faqat ularning men bilan xuddi tanishlarcha muomala qilishlari, otimni atab chaqirishlari, qilgan ishlarimni so‘rab, hatto boyagi istak chalpiб yurganimni bilishlari, meni juda ham ajabga qoldirgan edi.

Oradan kimdir, bilmadim, g‘olib majlisning boshlig‘i bo‘lsa kerak:

— O‘sar akamga dasturxon yozilsin! — dedi.

To‘rda o‘tirganlardan yana birisi unga qarshi chiqdi:

— Ilgari biz bazm qilib olaylik, so‘ngra dasturxonga hammamiz baravar qaraymiz! — dedi va menga yuzini o‘girib: — Siz ham bazmni sog‘inib qolgandirsiz. Ilgari bazm qilaylik, a? — deb so‘radi.

Mening qornim och bo‘lsa ham, mehmonligim vajhidan uning fikriga qo‘shilishdan boshqa choram yo‘q edi.

Sozandalar sozlarni to‘g‘rilay boshladilar. Sozlardan tanbur, dutor, g‘ijjak, rubob, chang, nay va daf kabilar menga tanish bo‘lsalar ham, yana men ko‘rmagan va bilmagan bir qancha sozlar ham bor edi. Sozlar sozlandilar, bir xil bosiq, og‘ir mashq chalina boshladi.

Mashq sehrli edi... Men yerga singib ketarli darajada ezilmoqqa, asirlanmoqqa ichimdan bir to‘lqin kelib, o‘zimni qayerga urarimni bilmay entika boshladim. Sozandalar hamon haligi bosiq mashqni sekin-sekin avjga chiqarib bordilar... Axir chidab turolmadim, shilq-shilq yig‘lay boshladim. Nega va nima uchun yig‘lar edim, buni o‘zim ham bilmayman. Uzoq yigladim. Nihoyat mashq bitdi. Bitdi, lekin meni ham o‘zi bilan birga bitirdi. Ikki tegirmon toshi orasida yanchilgan kishidek majruh edim. Qimir etgali majolim yo‘q edi. Ko‘zimni ochdim. Majlisdagilarning

barchasi ham go‘yo bir ko‘zdan mening holimga kulib qarab turar edilar. Men o‘z holimdan uyalib yerga boqdim.

Sozandalar yana ikkinchi mashqni chalish uchun tayyorlanar edilar. Lekin men haligidek mashqni eshitishdan bezor bo‘lgan edim. Yuragim gup-gup urib qoldi. Boyagidek mashqdan yana birini tinglasam, ehtimol ajalimdan burun o‘lar, yer bilan yakson bo‘lar edim. Ikkinchi mashq boshlandi... Mashq boshlanishi bilan butun vujudimga hayot suvi yugurdi.

O‘zimda allaqanday bir lazzat his qildim. Mashq g‘oyatda zavqli edi. Bu mashqqa ne deb ism berishni bilmayman.

Shu vaqt o‘rtaga o‘n besh-o‘n olti yoshlik yosh bir qiz kelib kirdi. Uning sochlari jingala, yuz va ko‘zlari do‘ndiq, ustida yashil baxmaldan burma qilib tikilgan chiroyli delvagay¹ kiyimi bor edi. Bir necha qadam chalishib o‘rtada yurgan edi, oyog‘idagi qo‘ng‘iroqlari jing‘irlab ketdi. Qiz mashq bilan baravar o‘ynay boshladi.

Mashq davom etar, go‘yo nafis soz tovushining yo‘li o‘yinchi qizni g‘ayri ixtiyoriy bir harakatga keltirardi. Dunyoga bir shodlik, bir ruh yog‘adi, go‘yoki o‘liklar tirilarlar, yerlar silkinarlar, tog‘- toshlar qularlar, yulduzlar ucharlar, daraxt shoxlari titragandek bo‘larlar.

Axir shodliklarim yuragimga sig‘madi. O‘z erkim bilan emas, allaqanday bir kuch o‘ltirgan joyimdan meni turg‘izib yubordi. Qizning yoniga kirib men ham o‘ynab ketdim.

Oyim bilan xolam o‘zlarini tutolmay kulib yubordilar. Mening bo‘lsa, ko‘z o‘ngimga dadamning o‘ynagandagi ahvoli kelib to‘xtagandek bo‘ldi.

Dadam davom etdi:

— Shunday, men o‘ynay boshladim. Nima bo‘lsa ham, qiz bilan birdek o‘ynamoqqa tirishaman. Qiz men bilan bir oz o‘ynab turgandan keyin o‘rtadan chiqib bir chetga ketdi. Lekin men o‘yinni to‘xtatmadim, to‘xtatish xotirimga ham kelmagan edi.

¹ *Delvagay* — elvagay, yengil.

Kishilar qars urib turadilar va meni masxaralagandek qiyqirib, ogiz-burunlarini qiyshaytiradilar, lekin men ularga parvo qilmay o'yinni davom ettiraman...

Bir vaqt allanarsaga turtinib yerga yiqildim. O'zimni o'nglab olib yana o'yinga harakat qilgan edim, tag'in mukkalab yiqildim.

Bir qancha vaqtdan so'ng o'nglanib o'rnimdan turdim va ko'zimni ochib tevaragimga qaradim... Orada na kishilar, na sozlar va na boshqalar — hech kim, hech gap yo'q!.. Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...

Men otamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldi:

— Vahima, xayolot! — dedi.

— Chindan ham vahimmi, vahim bo'lsa kishidan qanday voqe bo'ladi? — deb so'ragan edim, afandim:

— Kelasi juma bolalar o'rtasida bu to'g'rida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisda hozir bo'lsang vahimning qanday voqe bo'lishini bilib olasan! — dedi.

Men albatta juma kun maktabga borib, afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa, juma kuni siz ham boringiz.







CHO‘LPON
(1897 – 1937)

XX asr tongining porloq yulduzi — Cho‘lpon she‘riyat, nasr, dramaturgiya, tarjimachilik va maqolanavislikda samarali ijod etdi. Vatan ozodligi va millat mavqeini yuksaltirish g‘oyalarini mardona, jasorat bilan tarannum etuvchi ijodi istiqloq davri hayotimizning manfaatlariga xizmat qilmoqda.

«KECHA VA KUNDUZ»
ROMANIDAN

III

Enaxon yo‘qsul¹ bir oilaning qizi edi. Otasi muning yoshligida o‘lib ketgan, onasi ikkovi birgina akaning boqimiga qarab qolgan edilar. Akasi Xolmat esini tanigandan beri mehnat peshida chopadi. Hali eng o‘yinqaroq bola vaqtlarida ham butun qishloqning podasini boqib, oilaning ehtiyojlariga biror narsa qo‘shib turardi. Uning podachi bo‘lgan vaqtlarini hali ham qishloq odamlari havas bilan eslashadi. Ko‘cha-ko‘yda unga yo‘liqqanlar:

— Podamizni yetim qilib qo‘yding-da! — deb boshlarini afsus bilan chayqab o‘tishadi. Tez-tez bo‘lib turadigan bu xil gaplar uning yuzini kuldirib, ko‘nglini ko‘taradi, tinmasdan ishlash uchun bilagiga darmon va quvvat beradi. Uning o‘z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan, bor kuchini shunga sarf qiladi; hammadan burun ish boshlab,

¹ Yo‘qsul — kambag‘al.

hammadan kech tugatadi va hammadan ko‘p urinadi. Shu bilangina olti jondan birikkan katta bir oilani naridan-beri tebratib keladi. Onasi qarib, mukchayib qolgan, bir qizi bilan bir o‘g‘li hali yosh go‘dak, ro‘zg‘orning butun ishi xotini bilan singlisining bo‘ynida. U ikkovi dala ishlarida unga yordam berishdan ham bosh tortmaydilar, ularning dalada ham foydalari ko‘p tegadi. Xolmat o‘zi shuncha tirishib ishlab, katta ro‘zg‘orni yolg‘iz boshi-la tebratgani uchun xotini ham, singlisi ham uni boshlariga ko‘taradilar. Har to‘g‘rida uning talablariga xursandlik bilan ko‘nib, hech bir ishda ko‘nglini qoldirmaslikka tirishadilar. Mehnatdan boshqa hech narsani bilmagan bu yo‘qsil yigitning qanday zo‘r talablari bo‘lar edi deysiz? Butun havaslar, talablar va o‘ylar — har nechuk bo‘lsa ham shu oilani tebratib o‘tish tegrasida aylanadi... Albatta, kelin ham, qiz ham — yosh narsalar; yoshlarning nozlari, injiqliklari bo‘lmaydi emas... Ularning injiqliklarini butunlay haqsiz deyish to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Chunki ular ham yoshlar, boshqa o‘z tenglari kabi, ularning ham orzu-havaslari bor, ko‘ngillari ko‘p narsani tusaydi... Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo‘lmoq istasa, yomonmi? Ba‘zan shu xil kuchli talablar yo kelinda, yo qizda ko‘rib salgina yuzaga chiqa boshlasa, ko‘pni ko‘rgan ziyrak kampir darrov payqaydi va oldini oladi. Xolmatga sal oshr keladigan bir ish bo‘lsa, unga yetkizmasdan, o‘zi bir ish qilib bitiradi; joyi kelganda, muloyim gapirib, joyi kelganda, po‘pisa qilib, qizi yoki kelinining ko‘nglida ko‘tarilgan havas olovlariga suv sepadi, u olovlarni avj olmasdan turib so‘ndiradi. Ularning talablari juda o‘rinli bo‘lsa, o‘zi ilojini qilib qondiradi. Ularning ko‘nglini oladi, Xolmatni ortiqcha tashvishlardan qutqazadi.

Shahardan Saltilarning bir arava bo‘lib kelishlari ham Enaxonning shu xil havaslaridan biri edi. Saltanatlar oilasi bilan Enaxonlar oilasi orasida ota-bobodan qolib kelgan bir do‘stlik, qadrdonlik hukm surardi. Bu ikki oila kishilari yilda bir-ikki marta bir-birlari bilan ko‘rishib turardilar. O‘tgan kuz, xirmonlar olingandan keyin, Enaxon bilan kelin Saltanatlarnikida bir haftacha

turib kelgan edilar. Shunda Enaxon o‘z o‘rtogini bir-ikkita tengdoshlari bilan birga bahorda qishloqqa chaqirib ketgan, bahor kelib tabiat jonlangach, shaharga tushgan bir odamdan yana aytirib yuborgan edi. Kampir qizining bu talabini, albatta, o‘rinli topardi. Enaxonning yonida bola-chaqasi bilan birga bir necha kun yayrab kelgan kelin ham qizning fikriga jon-u dilidan qo‘shilgach, kampirga hech bir gap qaytarish o‘rni qolmagan edi.

— Gaplaring juda ma‘qul! — dedi u shu to‘g‘rida maslahat boshlanganda. — Buning ilojini o‘zimiz qilishimiz kerak. Xolmat bechoraga hech bir oshri tushmasin. Iloji bo‘lsa, unga bildirmaylik. Mehmonlar kelganda bilar.

Enaxon kelinga qaradi. Kelin Enaxonning bu qarashidan: «Qani, gapiring, nima deysiz?» deganini anglagan bo‘lsa-da, qaynana oldida birinchi bo‘lib gap ochishni ep ko‘rmasdan, jim qoldi. Shundan keyin Enaxon bir narsa demakka majbur edi.

— Mayli, siz o‘zingiz bilasiz, oyi. Chaqirish kerakligiga «yo‘q» demadingiz. Mehmon deganni non qoqiga chaqirib bo‘lmaydi. Muni o‘zingiz bilasiz.

Kelin shu yerga kelganda, bir og‘izgina so‘z bilan aralashib qo‘ydi:

— Albatta, ayniqsa, shuncha joydan keladigan mehmonni.

— Xo‘p, yaxshi bilaman! — dedi kampir. U kelinining og‘zidan gapini uzib olganday tez gapirardi. — Kuzda ikkalang borib bir hafta turib kelding. Bechorahol bo‘lsalar ham senlarni xo‘p xursand qilib jo‘natishdi. Ikkalang ham anchagacha gapirib yurding...

— Rost-da! — dedi Enaxon. — Uning otasi ham, nihoyati bir ayron-chi, yer-suvi yo‘q, dastgohi yo‘q. Ro‘zg‘or katta... Shunday bo‘lsa ham bizga deb nimalarni qilishmadi-a?

So‘nggi savolni kelinbibisiga bergan edi. U ham:

— Ha, nimasini aytasiz, — deb darhol tasdiq qildi.

Shu bilan hammalari jim bo‘ldilar. Kampir iloj axtarib, o‘yga botgan edi. U sekin-sekin og‘il tomiga yotqizilgan shotining ikkinchi pog‘onasiga o‘tirdi. Qiz bilan kelin yerga cho‘nqaydilar.

Kampir shotining¹ yon yog‘ochini silab o‘ynar, Enaxon og‘zidan olgan saqichni qo‘lida ezib, «soqqa» yasar, kelinchak bo‘lsa, bir cho‘p bilan yerni chizg‘alar, uchalasi ham shu ravishcha o‘yga botgan edilar. Kampirning butun xayoli haligi to‘g‘rida bo‘lsa ham, ikki ko‘zi bularda; bular esa dam bir-birlariga, dam kampirga qarar, dam yerga tikildilar. Sukutni kampir buzdi:

— Kambag‘allik o‘lsin, kambag‘allik! — dedi u va chuqur bir «uh» tortdi. — Hech bir ilojini topib bo‘lmaydi...

Bir oz jim qolgach, birdaniga ovozini ko‘tarib:

— Shuncha yerdan bizning so‘k oshimizni ichgali kelisharmidi? Uch-to‘rt kun turishadi. Durustroq bir narsa qilib qo‘ymasak bo‘ladimi? — dedi.

Ular ikkovi ham uyg‘onganday bo‘ldilar:

— Albatta, albatta! — deyishdi ikkalasi.

Xuddi shu vaqtda somonxonaning yonida Xolmat ko‘rindi. Bular unga qayrilib qaragali ulgurmasdan, uning:

— Oyi, bormisiz? — degan ovozi eshitildi. Kampir suhbatni bo‘lib, o‘rnidan turarkan:

— Shoshmanglar, bir oz o‘ylaylik, ertagacha biror iloji topilib qolar, — dedi va yugurib Xolmatning yoniga ketdi.

Kechqurun yotar paytda kampir ikkovini yoniga chaqirib, o‘z fikrini aytdi:

— O‘ylab-o‘ylab qo‘limdan kelgani shu bo‘ldiki, o‘limligimga atalgan narsalardan bir ozroq ajratdim. Endi, Ena, sen ham bisotingda boridan bir-ikki narsa ajrat, kelin, siz ham bir narsa qo‘shing, ertalab bitta-yarimtani bozorga tushiraylik, shularni sotib, ul-bul olib chiqsin.

Kampir o‘limligiga atalgan narsalardan ajratgandan keyin gap tamom edi.

— Bo‘libdi, oyi! — dedi Enaxon. — Mening bor-yo‘g‘im o‘z qo‘lingizda, o‘zingiz ajratib olarsiz. Xayr, mayli, o‘zim ham bir o‘ylab ko‘ray...

¹ *Shoti* — narvon.

— Men erta bilan sizga topshiraman, — dedi kelin.

Kampir turib, yotog‘iga ketdi, ikki yosh o‘sha joyda o‘tirib qolib, nima ajratish va nima berish to‘g‘risida maslahatlashdilar. Bisotdagining mazasi bo‘lmaganligidan bu maslahat ancha uzoq cho‘zildi.

Har qalay, erta bilan kampirning qo‘lida mo‘jazgina bir tuguncha bor edi. Tugunchani xurjunning bir ko‘ziga solgan bola yag‘ir otni yo‘rtidirib shaharga tomon yo‘l soldi. O‘sha kun Saltanatlariga ikkinchi chaqiriq yetkizilgan va katta xurjunning ikki ko‘zi to‘lib qaytgan edi.



Mehmonlarga qo‘lidan kelgancha yaxshi dasturxon solib, qo‘ni-qo‘shni qizlar va kelinchaklarni chaqirtirib, allaqaylardan tori uzilgan dutorlarni topdirib kelgan va ularni xursand qilmoq uchun tirishib-tirmashgan Enaxon o‘z ko‘nglida yana xijolat tortishdan qutulmadi. Qadrli mehmonlarini yana allaqanday ziyofatlar, mehmongarchiliklar, takalluflarga ko‘mib tashlamoqchi bo‘lardi. Uncha narsa bo‘lmaganda ham, odamlar singari tuzukroq bir siylab yuborishni, albatta, lozim deb o‘ylardi. O‘z qo‘lida bunday qudrat yo‘qligini o‘ylab, noumidlikka tushar, bo‘g‘ilardi... Yuragi yomon g‘ash bo‘lib ketganidan keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko‘rdi:

— O‘lganim yaxshi mening! — dedi u. — Ko‘ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!

Odatda yumshoq gapiradigan kampir bu gapga achchig‘landi...

— Bo‘lmasa, o‘zingni bozorga olib chiqib sot! Ko‘ngildagidek mehmon qila olasan... — dedi.

— Sizga odam ko‘ngildagi hasratini ham ayta olmas ekan-da, — dedi Enaxon; ko‘zlariga yosh olib, onasidan uzoqlashdi.

Xuddi shu hasratini tomorqa-hovlichadagi ariq bo‘yida o‘tirib, kelinbibisiga aytganida, u darrov buning fikriga qo‘shildi:

— Shunday yaxshi narsalarki! Bularga qancha qilsangiz oz! Zebixonni qarang, Zebixonni! Kuzda biz borganimizda ko‘rmagan edik-a?

— Otasi o'lgur, sovuq so'fi, javob bermagan ekan...

— Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!... Ashula aytsa, qulog'ing mast bo'lib, o'ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazalik! Muncha ta'sirlik!

— Shuni aytaman-da. Suyuq osh qildik, oshqovoq somsa qildik, palov qildik... bo'ldi!

Bundan ortig'iga mana shu kambag'allik o'lgur yo'l qo'ymaydi...

Shu yerda chuqur bir «uh» tortdi Enaxon. So'ngra yana so'zida davom etdi:

— Varaqi somsalar qilsak, oq unlardan g'alati mantilar, chuchvaralar qilsak, boylarnikida bo'ladigan dimlama qo'g'urmalar qilsak...

Birdan tajanglanib, o'rnidan turdi:

— «Oshqovoq somsa!» «Oshqovoq somsa!» Kambag'allik qursin, ilohim! «Kambag'al — xudoyimning suygan bandasi», deyдилar, shumi suygan bandaning holi?!

Boyadan beri shu to'g'rida o'ylanib, oqqan suvga xashak tashlab o'tirgan kelinning yuzlarida xuddi shu paytda bir yoqimli kulimsirash paydo bo'lgan edi. O'rnidan turib, haligi shirin kulimsirashi borgan sari ochilgani va yoyilgani holda Enaxonga yaqin bordi:

— Xafa bo'lmang, aylanay! — dedi. — Men ilojini topdim. Boylarnikiga o'xshagan g'alati ziyofat qilib jo'natamiz mehmonlarimizni!

Enaxon bu ilojning nimaligini angalayolmaganidan hayron bo'lib kelinbibisiga qarar, hali yuzi kulmas edi.

— Nechuk? — dedi u va kelinbibisining ko'zlariga baqrayib tikilgani holda uning ikkala qo'lini qo'llari orasiga oldi.

— O'zimizning kuchimiz yetmasa, teng-to'shlarimiz, o'rtoqlarimiz bor. Ularga aytib chaqirtiramiz...

Enaxonning yuzi birdaniga ochildi. Lablariga keng bir tabassum yoyildi. U kelinbibisi topgan ilojni anglagan edi:

— Mingboshining qiziga aytmoqchimisiz? O'sha chaqirsin, deysizmi?

— Yo u, yo bo'lmasa kichik xotini Sul-tonxon-chi?

— Bo'larmikin?

Shu yergacha ular ikkovi bir joyda to'xtashib so'zlashmoqda edilar. Keyin:

— Bo'ldirishni menga qo'yib bering. Ishingiz bo'lmasin. Ishqilib mehmonlarni xursand qilsam, bo'ldimi? — dedi.

Shundan so'ng ikkalasi bel ushlab, uyga tomon yura boshladilar.

— Yaxshi maslahat! Jon kelinbibi, bir ish qiling! — dedi Enajon kelinbibisini mahkamroq quchoqlab.

Kelin birdaniga to'xtab:

— Ularnikidan hech kimni chaqirtirdikmi? — deb so'radi.

Enaxon ham yetgan joyidan to'xtab:

— Yo'q! — deya javob berdi. — Kim biladi deysiz, muni? «Mingboshining falon-falonlari bizni ko'ziga iladimi?» deb xabar ham qilmabmiz. Endi qanday bo'lar ekan?

— Biz shu kechaga mingboshi tog'aning qizi bilan kichik xotinini chaqirtiraylik. Kecha chaqirtirganimizda kelmasalar, bugun chaqirtirsak, albatta, kelishadi. Siz nima deb o'tiribsiz! Zebixonning ovozi, ashulalari undan kattaroqlarni ham sudrab keltiradi. Siz xotirjam bo'ling. Men o'zim g'izillab chiqib kelaman. Bu kecha bitta-yarimta ashula eshitib, suhbatni ko'rishsa, ertaga, albatta, chaqirtirishadi.

Ikkalasi, yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi...

V

Akbarali mingboshining belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof cho-poni bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Oddiy kiyimda ko'rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo'ychi, yo bo'lmasa, yaylov tomon bilan ish ko'radigan tuyachi deb o'ylaydilar. Chakka suyaklari turtib chiqqan, peshana — bo'yiga tor, eniga keng va uzun-

uzun uch chuqur ajinga ega.. Burun o'rtacha, lekin qanshari past... Ko'z qisiroq kelgan, parda tomirlaridan ikki-uchtasi va ham ikkala ko'zining bir yonida jindak joyi hamma vaqt qizil, bir ko'zida picha shapag'liq asari ham bor... Iyak — keng, jag' — sergo'sht. Juda siyrak bo'lgan soqol iyakning o'rtasigagina to'planib, echkiniki singari pastga tomon sangillab tushgan. O'zi qoraroq xotin uchrab, bir chang solsa, hech narsa qolmaydi! Mo'ylov ham soqol singari siyrak. Usta To'xtashning «asrdiy» do'kati ikki kunda bir qirib turganligidan lab ustidan kalta va tekis bo'lsa ham, umuman o'zi, yarmidan ko'pi yiqitilgan daraxtzor singari xunuk ko'rinadi, ikki uchida oltitadan o'n ikkita uzun qil, sichqonning dumiday ingichka bo'lib pastga cho'zilgan... Do'kat bilan ikkala tomonga ikki marta qo'l tegizilsa, u sichqon dumlaridan asar qolmaydi, shu bilan mo'ylov masxaraboz kepatasidan chiqib, odam nusxasiga kiradi. San'atiga berilgan usta To'xtash taassuf berilgan narsani yig'ishtirib qo'yib, «san'at—san'at uchun» degan nazardan qarab... Akbarali mingboshiga mo'ylov to'g'risida haligi taklifni qilgan bo'lsa-da, shunday katta bir amaldor ham xalqning ta'nasidan qo'rqib, usta To'xtashning taklifini rad qildi. Shu bilan u masxara mo'ylovlar ayanch bir kepatada sangillagancha qolib ketdilar... Mingboshini bu baland darajalarga ko'tarib, uning vositasi bilan o'z dimog'larini ham chog' qilib turadigan shahardagi to'ralar, uning ikki chakkasida sangillab turgan u ingichka «ko-kil»larni «ikki osilganlar» deb piching qilardilar... Bu soddadil «sart» amaldori muningdek pichinglarga tushunmasa ham, piching qiluvchi to'ralarning o'zlari mashhur rus adibining¹ «Yetti osilganlari»dan ham so'zda, ham ishda juda yaxshi xabardor edilar...Akbarali mingboshi o'zi yolg'iz qolib «vijdoni» bilan qarshima-qarshi kelgan vaqtlarida, Miryoqubning ulug' xizmatlarini insof bilan esga olar, unga har to'g'rida minnatdor bo'lganini o'z «vijdoni» oldida iqror qilardi. Chinakam, burungi mingboshiga yaxshi bir uloqchi otni bekorga olib bergani uchun ellikboshilikka

¹ Leonid Andreyevning «Yetti osilganlar qissasi» nazarda tutilyapti.

istihqoq¹ qozonganidan keyin, rosa olti yillik umri o'z qishlog'i bilan mingboshining mahkamasi o'rtasida daftar ko'tarib, ot chopish, qishloqdan odam haydab chiqib, katta yo'lga suv septirish bilan o'tdi. Bu olti yilning mobaynida bir uloqchi otning emas, necha uloqchi otlarning hissasi chiqarilgan, burungi besh-to'rt tanob yerga yana bir necha besh-to'rt tanob yer qo'shilgan bo'lsa-da, ellikboshilik, har qalay, mehnat, urinish va yugurib-yo'rtishni talab qiladigan amallardan edi... Shu chun mingboshi bir yil kuz faslida Ostanaql boyning katta bir qovun sayil qildirganini sira esidan chiqarolmaydi, Miryoqub bilan o'sha sayilda uchrashib tanishgani uchun sayilni esdan chiqarishga «vijdoni» yo'l qo'ymaydi...

Bu orada ko'p narsalar mingboshining xotiridan faromush bo'lganlar... U, faqat, qovun sayildan ikki kun keyin Miryoqubning uyiga ikki arava qovun-tarvuz bilan ikki zambar uzum, ikki chorakkina qayroqi bug'doy yuborganini eslaydi. Agar xotirasi yanglishtirmasa, shundan keyin biror oy o'tar-o'tmas, bir kun erta bilan kumush kamar bog'lab uydin chiqqanini, undan bir kun burun, kechasi darvozasi oldida shon-shalopli bir mirshabning poyloqchi bo'lib chiqqanini biladi. Mingboshi bo'lganidan keyin oz fursatda Miryoqub turgan qishloqdan hozirgi hovlini sotib olib, u yerga ko'chib bordi. Boshqa gaplar allaqachon esidan chiqib ketgan...

Yurtning keksa odamlari o'zaro so'zlasharkan, bu mamlakatda hech bir xon va xonvachchaning muncha uzoq yurt so'ramaganini so'zlaydilar. Mallaxonlar, Xudoyorlar, Nasriddinbeklar yurt ustidan bahor bulutlari kabi kelib ketgan edilar. Akbarali mingboshi, mana, o'n uch yildan beri shu masnadida o'tiradi, davlati, obro'si, nufuzi tobora oshsa oshadiki, kamimaydi.

— Xudo bergan-da, xudo! — deyishadi keksalar. — Xudoyo «ol, qulim», desa, hech gap emas.

Shundayda ba'zi bir yosh-yalanglar:

— Xudo hadeb shunaqa insofsizlarga berar ekan-da! Biz, bechoralarga ham bir narsa uzatsinchi! — deb qolishadi.

¹ *Istihqoq* — biror narsaga haqli bo'lish; loyqlik.

Buni eshitgan keksalar tayoq ko'tarib, yosh-yalang ustiga yugurishadi, bechora yoshlar tayoqdan o'zlarini olib qocharkan, bir-birlariga qarab piching otishadi:

— Nimaga qochasan? Xudo senga ham berayotir, ol-maysanmi?..

Yurtning keksalari butun bu davlat, hukumat va ulug'likning — bir og'iz gapini silliq va yoqimli qilib gapirolmaydigan sodda va to'ng odamga birdaniga «nasib va ro'zi» bo'lib qolishida Miryoqub akaning katta hunari bor ekanini yaxshi bilishadi. Shu uchun Miryoqub aka ko'cha-ko'yda ko'ringanda, unga beriladigan salom va qilinadigan ta'zimlar-mingboshinikidan kam bo'lmaydi. Faqat shu qadarisi borki, mingboshi u yoq-bu yoqqa juda kam yuradi, yursa ham mirshablarini orqasiga ergashtirib, kechasi yuradi; kunduzlari bo'lsa, faqat shahardagi ulug'vor chaqirtirganda, zarbof choponlarini kiyib va tatti samanni yo'rg'alatib o'tadi. Unga salom berish va ta'zim qilishdan bellarga og'irlik kelmaydi: chunki oyda bir, o'n kunda bir egilib qo'yish hech gap emas. Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p! U, aksari, piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. «Assalomu alaykum!», deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo'lsa kerak, «vass...», debgina qo'yadi. Shu bilan birga, siz tomonga bo'ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko'zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo'rg'alaganicha ketadi... Jinqarchaday hammavaqt va har qayda ko'rinib qoladigan bu «asl mingboshi»ga salom bermoqdan bellaringiz toladi...

Do'konidan har narsa topiladigan bir baqqolga «farang baqqol» deb nom qo'ygan keksalar har ishda qo'li bo'lgan bu odamga «Miryoqub epaq» laqabini berib, xato qilmaganlar. O'zlari ham bu laqabning to'g'riligini osongina isbot qiladilar:

— U aralashmagan ish epaqaga kelmaydi... Mingboshining yer-suvi shu qadar ko'pki, hisobini o'zi ham bilmaydi. Lekin xudo bu sevgili quliga davlatni ikki qo'llab uzatsa-da, farzand to'g'risida bir oz o'ksitib qo'ygan. Darhaqiqat, katta xotinidan bo'lgan qizi Fazilatdan boshqa uning farzandi yo'q. Muncha

katta davlat kimga qoladi? Yetti yot begonalarga, zurriyoti yo‘q ayollargami?.. Mingboshi, mana shu amalga iloj axtarib bo‘lsa kerak, bir-ikki yil ichida yosh xotin oldi. Boladan darak yo‘q... Shu chun, ba’zida, o‘zi yolg‘iz qolib, mehmonxonaga berkinganida va hatto o‘z soyasining ham eshitmoq ehtimoli qolmaganda:

— «Bu qiz o‘lgur ham boshqadan bo‘lmasin...», deb qo‘yadi...

Miryoqub uning yoshi anchaga borib qolganda, bunday xotinparast bo‘lib ketishiga shu farzand xususidagi noumidlik sabab bo‘lmadimikan? — deb ba’zi-ba’zida o‘ylab qo‘yadi. Bir kun noyib to‘ranikida (uyezd hokimining o‘rinbosarinikida) ichkilik qilib o‘tirishgan edilar, ichkilik quyilmasdan oldinroq noyibning onasi o‘z nevarasini olib kirib qoldi. U — tilla sochli, tarvuzday dumaloq, o‘zi lo‘ppigina va oppoq momiqday bir bola edi. Mingboshi bolani darhol qo‘liga oldi va o‘z aqidasiicha, «kofir»ning va «o‘rus»ning bolasi ekaniga qaramay, mahkam bag‘riga bosib o‘pdi... Bola mingboshining basharasidan qo‘rqqan bo‘lsa kerak, jon achchig‘ida yig‘lay boshlagan edi... Bolani olib chiqib ketdilar. Shundan so‘ng mingboshi bir-bir ustun quyib icha berdi, icha berdi... Miryoqubning imolari, ishoratlari, uy egalariga eshittirmay qilgan tanbahlari, hatto do‘qlari... Hech bir ta’sir qilmadi. Mingboshi tamom mast bo‘lgach, «Bolani olib kelinglar», deb so‘radi. Bolaning onasi bu badmast odamga o‘z to‘qlisini bermoq istamas edi. Nihoyat, mingboshi yalinib-yolvorib so‘ramoqqa majbur bo‘ldi. Hatto ko‘zlariga yosh oldi... So‘ngra noyibning amri bilan bolani uyg‘otib keltirdilar. Faqat bu vaqtda mingboshi o‘zidan ketib, divanga ag‘anagan edi...

Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko‘milgan bu odamning butun borlig‘i Miryoqubning qo‘lida edi. Yerdan chiqqan hosilning qanchasi o‘z qo‘liga kirib, qanchasi Miryoqub omboriga to‘kilganini mingboshi o‘zi hech qachon bilgan emas. Kerak bo‘lganda, mingboshi Miryoqubdan pul so‘rab olar, un, gurunch, go‘sht, yog‘ va ro‘zg‘orning boshqa keraklarini bo‘lsa, ichkarining talabiga qarab yana Miryoqub tayyorlab berar, shu uchun jonning rohatidan boshqani bilmagan

mingboshi undan narisini surishtirmas edi. Miryoqubning topishi yolg'iz shu mingboshi orqali bo'lsa, unga «epaqa» nomini qo'yish to'g'ri bo'larmidi? Miryoqubning qilmagan ishi yo'qligidan shu nomni bergan edilar. Qishloqda ikkita baqqollik, bitta qassoblik do'koni, guzarda ikkita samovar bor. Bilgan odamlar bu besh muassasadan to'rti Miryoqubning kuchi bilan aylanganini so'zlaydilar. Shaharda katta yo'lning bo'yiga — qo'rg'on tashqarisiga bir yangi paxta zavodi tushdi, zavodning kattakon bir paxta saroyi ham borki, paxta terim vaqtida uch tarozi bilan paxta oladi. Ana o'sha zavodga ham Miryoqubni sherik, deydilar. Voqean, uning ikki g'ildirakli sariq faytonchasi va sariq yo'rg'asi aksar zavod oldida bog'langan bo'ladi. Shahardagi katta bankalardan birida «uchyot qo'mitasi»ning a'zosi haftada bir majlis o'tkazadi... Shu bilan birga, uning biror joyga chaqa soliq to'laganini, biror kasbga biror marta «qizil qog'oz» (patent) olganini hech kim bilmaydi.

Mingboshining boshiga ne qora kunlar kelmadi! Yaxshi advokatlar tomonidan bitilgan g'alati arizalar qanday tergovchilarni keltirmadi! Qanday zo'r to'ralar chaqirib so'ramadilar! Hokim necha martalar g'azab bilan chaqirtirmadi! Unday vaqtlarda mingboshi Miryoqubning ta'limi bilan hamma savollarga «bilmayman», deb javob berar yoki biror ayb-isnod qilinsa, tonib tura berardi. Rasmiy so'roqlar bu xilda borganda, orqadan Miryoqub g'ayrirasmiy yo'llar bilan so'roq berar, bir-ikkita kun shaharda qolib, qishloqqa qaytganida, mingboshining ustidan har qanday og'ir tog' ham ag'anagan bo'lardi. Mingboshi qaysi bir to'ranikiga borsa, Miryoqub, albatta, birgalashib boradi; «bu nimaga kerak?» deb so'ragan odam yo'q. Axir Miryoqub amaldor bo'lmasa, loaqal mingboshiga mirza yo' tilmoch bo'lmasa, o'zi o'rus tilini tuzuk-quruq bilmasa... nega munaqa mingboshining ketidan elchib yurardi? Nega? Miryoqubning ko'p umri mingboshinikida o'tadi, o'zining hovlisi ham shu qishloqning o'zida-ku, lekin chekkaroq joyda. Kechalari uning hovlisida bir-ikkita mirshabning poyloqchilik qilib chiqqanini gapiradilar, faqat muni

o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan kishi yo‘q, bo‘lsa ham ochib gapirmaydi, yo... gapirolmaydi!



Bir kun Miryoqub noyib to‘raning uyida edi. Bu safar olib borgan hadyasi to‘raga nihoyat darajada yoqib ketgan bo‘lsa kerak, to‘ra uni uzoq olib o‘tirib, ko‘p narsalarni gapirib berdi. To‘raning tili charchab, Miryoqubning og‘zida birinchi esnash asarlari ko‘ringan ediki, tashqaridan bir odam kirib keldi. Ikki tomon yoqasiga tilladan bolg‘a surati o‘rnatilgan, novcha bo‘yli, mosh-birinchi soqolli, xushmo‘ylov va bir ko‘zi jindak g‘ilaydan kelgan bu kular yuzli odam ma‘ruf injenerlardan edi. Noyib to‘ra bilan betakalluf ko‘rishdi, Miryoqub bilan ko‘rishib o‘tirmasdan, to‘ppa-to‘g‘ri stolning to‘g‘risiga o‘tirdi va yumshoq kursini bir qo‘li bilan qattiqqina qimirlatib ko‘rgandan keyin avval bilagidagi tilla soatga qaradi, so‘ngra «da-a» deb cho‘zib qo‘yib, kursiga o‘zini tashladi.

Shundan keyin noyib to‘ra Miryoqub tomonga ishorat qilib va yangi mehmonga tomon burilib:

— Bizning Miryoqub bilan tanishmisiz, azizim? Noyob odamlardan! — degach, u odam o‘tirgan o‘rnida sekingina bosh silkib qo‘ydi. Miryoqub g‘ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no‘qtalab oldi. Muni noyib to‘ra yaxshi payqadi shekilli, Miryoqubga xuddi mehribon otaning sevimli bolasiga qaraydigan qarashi bilan iliq va muloyim kulib qaradi. Miryoqub ham erka o‘g‘ildek muqobala¹ qildi. Shu bilan bu suhbatning Miryoqub aralashgan ko‘rinishlariga parda tortildi-da, ikkala bilimdon so‘zga tushdi. Injener bulbul singari sayray ketdi, sayray ketdi!

Miryoqub advokat xalqining mahmadonaligini bilardi, bu odamning advokat emas, injener bo‘lganini ham ajrata olardi. Shu uchun boshda ularning tobora qizishayotgan suhbatlariga u

¹ *Muqobala* — qarshi kelish.

ham qiziqib qaradi. Keyincha to‘ra ham, — mehmondan yuqdimi nima, — tillarini burro qilib so‘zlashga, mehmonning ko‘p da‘volarini aksi da‘volar bilan sindirmoqqa tushib ketgach, bizning Miryoqub sekingina qo‘l uzatib, stolning bir chetida turgan katta bir kitobni oldi. Kitob surat bilan liq to‘la edi, hech sharpa qilmasdan, uni bitta-bitta varaqlay boshladi.

To‘ra Miryoqubni unutdi, go‘yo u bu yerda yo‘q kabi... Injenerning og‘zidan ba‘zi-ba‘zida sartlarga og‘ir keladigan so‘zlar chiqib ketganidagina, to‘ra boyagi qarash bilan Miryoqubga qarab qo‘yar, lekin unday fursatlarda uning ikki ko‘zi kitobda bo‘lsa ham ikki qulog‘i, avrashga tushgan ilonday, dikkayganini to‘ra bilmas edi.

Uzoq cho‘zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog‘i bir marta juda g‘alati dikkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko‘zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. Uning boshi ham kitobdan ko‘tarilib, yuzlaridan yengil bir qizillik yoyilib o‘tdi. O‘sha joyda sartlarni kamsitadigan gap o‘tmaganligidan bo‘lsa kerak, to‘ra ham uzr so‘ragan qarash bilan Miryoqubga qaramadi. Ikkala suhbatdosh o‘sha joyda Miryoqubning quloqlarini dikkaytirgan so‘zlarni unga va u mansub bo‘lgan xalqqa aloqasiz bir narsa deb qaradilar shekilli, xuddi Miryoqub shu yerda bo‘lmaganday, o‘z oralaridagina o‘tkazib yubordilar...

Injener turib chiqib ketgandan keyin Miryoqub o‘rnidan turdi va ketishga ijizat so‘radi. To‘ra u bilan xayrlasharkan, injenerning boyagi kamsitishlari uchun yana tag‘in uzr so‘ragan bo‘ldi. Miryoqub faqat kulibgina qo‘ydi, boshqa hech narsa demadi. To‘ra bu kulishni Miryoqubning xursand va rozi ekaniga yo‘ydi va ko‘ngli o‘rniga tushdi.

Faqat Miryoqubning ko‘ngli bir necha kungacha o‘rniga tushgani yo‘q. Bir injenerning (u, axir, noyib to‘ra singari katta amaldor emas!), nihoyati bir injenerning bir-ikki marta sartlarni kamsitishi Miryoqubni shuncha bezovta qildimi? Yo‘q, unaqa kamsitishlar har qadamda bor! Hammasiga bezovta bo‘la bersa, Miryoqub bechora to‘rt kunda sil bo‘lib qolmaydimi? Yo‘q, yo‘q! Kamsitishlar

o'sha onning o'zidayoq unutilgan, o'tgan yilgi qordek erib yo'q bo'lgan, bahordagi yomg'ir kabi asari ham qolmagan...

Injener o'sha suhbatda yangi — hali sir bo'lgan bir xabarni aytib edi: shu shahardan boshlab falon-falon joylarga poyezd yo'li tushar ekan. Bir shirkat planlarini Peterburgdagi katta mahkamalarga topshirgan, ular tasdiq qilishga va'da berganlar. Allaqaysi bir bankka pul bermoqchi bo'lgan, tekshirish uchun yaqin orada injenerlar chiqar ekan. Imorat — bino ishlariga o'sha injenerni chaqirganlar.

Miryoqub poyezdning qayerlardan o'tishini bilib olgan edi. O'sha suhbatda uning qulog'i bir dikkaydi, juda ajoyib dikkaydi, lekin! Ana o'shanda poyezdning o'tish joylarini miyasiga joylashtirgan edi.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, bezovtalik harakatga va ishga aylandi. Bir oyga yetar-yetmas o'sha kelajak poyezd yo'li bo'ylaridan Miryoqub juda ko'p — bir necha yuz desatin yer sotib oldi. Yerlarning hammasi deyarlik suvsiz, noobod, tashlandiq yerlar edi. Shuncha ko'p yerga qancha oz pul ketdi. Ko'plar bu shoshilish savdoni bilmadilar; bilganlar Miryoqubni «jinni bo'libdi», dedilar.

Shirkat poyezd yo'li solishga ijozat olib, tayyorgarliklarga kirishgandan keyingina, Miryoqub qilgan ishini noyib to'raga aytdi.

— Sen xuddi bir amerikalikka o'xshaysan, Miryoqub! — dedi to'ra. — Lekin ko'nglingga og'ir olma, chakki shu sartiya ichida tug'ilib qolgansan!

Miryoqub ko'ngliga og'ir olish tugul, bu gapga sevindi balki, yuzlariga yana o'sha yengil qizillik yugurdi.

Yangi yo'lning allaqaysi bir joyida ko'z ilg'amas bir cho'l bor edi. Cho'l, qup-quruq cho'l... Suv — pastda, chuqurda. Atrofdagi dehqonlardan ba'zilar u yerni ekin yeriga aylantirish uchun turli davrlarda yakka-yakka urinib ko'rgan, lekin hamma qilgan mehnatlari bekor ketib, u yerdan xafsalalari pir bo'lgandi. Hali ham u cho'lda unumsiz qolgan odam mehnatining asarlari, to'g'risi,

xarobalar ko‘rinadi: ariqlar, ekin, pollari, marzalar, bir necha tup qurigan tut daraxtchalari...

Miryoqub oz pul, ko‘p ustalik sarf qilib o‘sha cho‘lni o‘z nomiga o‘tkazdi. Faqat bu vaqtlarda poyezd yo‘lining rejalari tortila boshlaganligidan, odamlar Miryoqubni «jinni» demadilar, balki: «Bu — bir narsani bilib qiladi», dedilar.

Poyezd yo‘li solinib bitmasdan turib, u cho‘lga necha tegirmonlik katta suv chiqdi. Avvalo o‘z cho‘ntagining, qolaversa, otaxon mingboshining yordami bilan cho‘lning o‘rtasidan katta bir ariqni o‘tkazib qo‘ydi. Shundan keyin yersiz dehqonlarga chek bo‘lib bera boshladi. Ko‘p o‘tmay, u yerda bir qishloq paydo bo‘ldi va suv chiqargan odamning shahardagi otaxoni nomiga atalib «Parpi cheki» bo‘ldi (noyib to‘raning nomi Fyodor, sartlar «Parpi to‘ra» deydilar). Keyincha cho‘lning bir chetiga poyezd stansiyasi tushdi, yoni-beriga choyxonalar, do‘konlar, saroylar solina boshladi. Poyezd yo‘li ochilgandan keyin o‘sha joydan paxta zavodi uchun yer tanladilar. Bolgariyalardan iborat uch kishilik bir shirkat yana o‘sha joydan ancha yer sotib olib, kattakon bir mevalik bog‘ va zo‘r bir sabzavot polizi vujudga keltirdilar.

Har qalay, poyezd o‘tgandan keyin, bir necha yil orasida Miryoqubning qo‘lida juda oz yer qoldi, hammasi har kimga o‘tib ketdi. Miryoqub yerni uncha sevmaydi, yer qo‘ldan chiqsa, xafa bo‘lmaydi. Shuncha yer qo‘ldan chiqqan bo‘lsa, uning baravariga qancha davlat qo‘lga kirgandir, muni xudo biladi-yu, xudoning sevimli bandasi qorako‘z Miryoqub biladi!..



Mingboshi o‘zining rus mirzasi Sokolov, inoq mirshabi Mirzabobolar bilan birga saman yo‘rg‘a ustida o‘z darvozasiga kelib to‘xtaganda, qorong‘i tushgan, ko‘chada o‘ynovchi bolalarning onalari eshik tagiga chiqib: «Bemahalda bas endi», deya tergay boshlagan edilar. Mingboshining oti to‘xtar-to‘xtamas, tashqaridagi mirshablar yugurishib borib, darvozani ochdilar, katta darvozaning bir qanotidan chiqqan ingichka qiytillash ovozi muazzinlarning

xunuk va qo‘pol tovushlariga qorishdi... Bu ovozlarda orasida bolalariga qovushgan sigirlarning og‘ir mo‘rashlari bilan onalarini sog‘ingan buzoqlarning erka ma‘rashlari mungli va yoqimli eshitilardi. Mingboshi, otdan tushar-tushmas, so‘radi:

— Miryoqub keldimi?

Mingboshining musulmon mirzasi Hakimjon qo‘l qovushtirib turib, javob berdi:

— Ha, shu yerda. Mehmonxonada uxlab yotibdi. Mingboshi o‘zidan xursand, kuldi:

— Noinsofning kech kirganda uxlashini qarang! Bor, uyg‘otib chiq!

Ikki mirshab mingboshini yechintirmoqqa boshladi. Mingboshi hali ham boyagi kulishida davom etardi:

— Obbo betavfiq-ey. Namozshomda uxlaganini! Mehmonxonadan ko‘zlarini uqalay-uqalay Miryoqub chiqib keldi. U, hali ayvondan tushmay turib:

— Hormang, xo‘jayin! — deb qichqirdi. Mingboshi yana o‘sha kulish bilan o‘tirgan joyida unga tomon evrildi:

— Ha, xudo bexabar! Nima bu bemahal uyqu? Namozshom paytida-ya!

— Ha, xo‘jayin, shunaqa... Sizni kutib o‘tirib, uxlab qolibman.

— Qachon kelib eding?

— Kech peshinda. Shundan beri yo‘lingizga ko‘z tutib o‘tiribman.

— Qani o‘tirganing? Uyquni uribsan-ku! Qani, nima gaplar bor? Yangi gaplardan gapir.

— Yangi gapni sizdan eshitamiz. Shaharda edingiz. Kimlarni ko‘rdingiz?

— Kimni ko‘rardim? Noyib to‘rani ko‘rdim.

— Nima gap ekan?

— Nima gap bo‘lardi. Beriroq kel!

Mingboshining bu amri bilan unga tomon borayotgan Miryoqub mirshablarga ishorat qildi, ular uzoqlashdilar. Shundan so‘ng mingboshi ovozini pasaytiribroq so‘zlay boshladi:

— Qumariqning paynovidagi dehqonlar mening ustimdan ariza berganga o'xshaydi. Aftidan: «Hamma suvni mingboshining yerlari ichadi-yu bizga tegmay qoladi. Shunaqa qilib, necha yildan beri ekinlarimiz qurib ketayotibdi», deb arz qilishganga o'xshaydi. Noyib to'raning so'zidan shu ma'lum bo'ladi...

Shu yerga kelganda, mingboshining qovog'i solina boshlagan edi, qisiq ko'zlarining tez-tez yumilib parpirayotganday bo'lganini Miryoqub ham payqadi.

— Xo'jayin, — dedi u, — xotirjam bo'lib, bitta-bitta gapirib bering! Hech bokisi yo'q.

Mingboshi uning bu so'zlariga qunt qilmasdan, zabtlik bir ovoz bilan so'radi:

— Kimning ishi bu? Qani, ayt-chi!

Miryoqub mingboshining hech bir so'zini birdaniga qaytargan odam emasdi. Shuning uchun bu safar ham, eski odaticha, aylanma yo'l bilan javob berishga boshladi:

— Kimning ishi bo'lsa ham bilmay qo'ymaymiz. Ilgari noyib to'raning muomalasini, sizga nimalar deganini gapirib bering.

— Qaysi xotin taloqining ishi dedim men senga! Mingboshi ovozini bir oz ko'tara tushgan edi.

— Noyib to'raning gapidan bilinadi o'zi, — dedi Miryoqub. — Siz bo'lgan gaplarni aytib bering!

Mingboshi yana hovuridan tushmagan edi. Shunday bo'lsa ham o'sha johil ovozi bilan Miryoqubning savollariga javob berdi:

— Noyib to'ra aytadi: men seni yaxshi bilaman, deydi. Sen fuqaroni yaxshi ko'radigan odamsan, deydi. Basharti, arizada bitilgan gaplar rost bo'lganda ham seni ayblashga ko'nglim bormaydi, deydi... yerlaringga qaraydigan mutasaddilar shunday qilsa qilishgandir. O'shalarni chaqirib, tayinlab qo'y, sening yeringga ikki-uch marta suv berganda, bir-ikki marta ularnikiga ham berib qo'ysin. Odamlarning ekinini quritib yuborish yaxshi emas, deydi. Bidingmi endi ariza berganning kimligini? Qani, ayt-chi?

— Bu gaplardan hali bilib bo'lmaydi. Boshqa gaplarini ayting!

— Boshqa gapi yo‘q. Bo‘lsa ham esimda turadi, deysanmi?

— O‘ylang. Men uning hamma gapini bilishim kerak...

— Bilsang bilaqol: o‘sha taraflarda Yodgorxo‘ja, Umaraliboy degan obro‘yli odamlar bor, deydi; ularning ham ko‘pgina yersuvlari bor, yaxshi emas, deydi. Qora fuqaro bo‘lsa — ish boshqaydi, deydi, fuqaroning gapiga quloq solmayman... Ammo-lekin yurtning esli, obro‘yli odamlarini xafa qilmanglar, deydi...

— Ana, xolos, ko‘rinib turibdi: ariza berganlarning boshida Yodgor echki bilan Umarali puchuq turar ekan! Noyib to‘ra opochiq aytib beribdi.

Mingboshi kuldi:

— Esingga qoyilman, betavfiq! Shuncha esing bor-u namoz o‘qimaysan!

— Sizga ergashib, shunday bo‘ldim-da!

Mingboshi endi juda yoyilib kuldi:

— Obbo, benamoz-ey! Gapdan toza bergan senga xudo! Shaylaysan, shaylaysan!

Yana ovozini pasaytira tushdi:

— Yodgor echki bilan Umarali puchuqning bir odobini bermasam, ko‘nglim tinchimaydi. Bir ilojini qil! Senga aytaman!

— Xo‘p, xo‘jayin! Shoshmang, men yana bir surishtiray.

— Surishtirishning nima keragi bor? O‘shalardan boshqa kim qiladi?

— Ehtiyot shart, xo‘jayin! Odob berish qochmaydi... Masalaning tagiga yetaylik, balki boshqa gaplar ham chiqib qolar...

Mingboshi bu so‘zdan shubhaga tushdi:

— Nima deding?! Boshqa gap ham chiqib qoladi, dedingmi? Bu nima deganing?

— Ehtiyot shart, deyman men! Ehtiyot! Yaxshiroq surishtirsak, yaxshiroq bilamiz-da, axir! Sizning ishingiz bo‘lmasin, men o‘zim ikki kunda tagiga yetib, sizga arz qilaman.

— Ha, mayli, surishtir! Sudrama lekin! Ha!.. Mingboshi shu joyda o‘zining Miryoqubga e‘timodini ko‘rsatmoq uchun uning yelkasiga urib-urib qo‘ydi.

— Bo‘ldi xo‘jayin, xotirjam! — dedi Miryoqub. Ikkalasi ham jim bo‘ldilar. Bir ozdan so‘ng mingboshi mirshablarga qarab baqirdi:

— Kim bor, hoy!

Hakimjon yugurib keldi:

— Bor, ovqatdan xabar ol! Qorin ochdi! Hakimjon yugurib ichkari tomonga ketgach, mingboshi Miryoqubga yuzlandi:

— Qani, gapir endi, sen nima xabar topib qo‘yding?

Miryoqub darhol javob berdi:

— To‘y.

Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so‘zga bir oz hayron bo‘ldi.

— To‘y?

— Ha, to‘y!

— Nima to‘y? Kim to‘y qilibdi?

— Men to‘y qilmoqchiman...

— Sen? Kimga?

— Sizga!

— A, benamoz-ey! Menga?

— Ha, sizga.

Mingboshi birdan gapning sur‘atini tortdi:

— Qo‘y endi, bitta-bitta gapirib ber: nima gap o‘zi?

Miryoqub yaqin o‘tirib, so‘zlay boshladi:

— Shaharda bir xudo bandasining ikkala dunyoga arziydigan bir qizi bor ekan!

Mingboshi erkin-erkin kuldi:

— Tavba de, betavfiq! Astag‘furullo, de!

Miryoqub «astag‘furullo» o‘rniga uyat bir so‘z aytdi. Mingboshi besh battar yoyilib kuldi.

— A, battol-ey! O, battol-ey! Xudo urdi seni! Xudo urdi endi!.. — dedi u.

Miryoqub asta-asta davom etdi:

— O‘zi o‘n besh-o‘n oltida ekan... Juda yetilgan vaqti...

— Unaqa yetilganlar qishloqda ham ko‘p.

— Uning boshqa bir xosiyati bor ekan...

— Xo‘sh?

— Juda yaxshi, bulbul singari ashula qilar ekan. Ovozi Dovud payg‘ambarniki singari, deydilar...

Mingboshi yana kuldi.

— «Sallala», de, betavfiq! «Sallala», de!

— Qazosini aytaman bir yo‘la! — dedi Miryoqub, so‘ngra davom etdi:

— Shuni sizga olib beray deyman.

— Odamlar ayta beradi. O‘zing eshitdingmi ovozini?

— Yo‘q! Mening xotinim, qizim eshitib, har kun maqtashadi.

Hammaning og‘zida shu...

— Odamlarga ishonma, dedim-ku. Bu odamlar tegirmonchi Shamsiddinni ham yaxshi qo‘shiqchi, deb yer — ko‘kka sig‘dirmay maqtaydilar. Ovozini eshitgandirsan? Eshak hangrasa, undan a‘lo...

— Xo‘jayin! O‘zingiz bir eshitsangiz edi...

— Bo‘lmaydigan gapni gapirma!

— Nimaga bo‘lmasin? Qiz o‘zi hozir shu yerda, qishlog‘imizda. Katta xotiningizga ayting, mehmon qilib chaqirsin. Eshitasiz...

— Qishloqda? Kimnikida?

— Xolmatnikida.

— Shu Xolmatnikida? Shu o‘zimizning Xolmatnikida-ya? U bechora ochidan o‘lolmay yuribdi, mehmon chaqirib nima qilar ekan? Bitini berib boqadimi!

— Shuning uchun siz chaqirtirsangiz, Xolmat ham xursand bo‘ladi, mehmonlari ham.

— Unday bo‘lsa, men katta xotininga aytayin, chaqirtirsin. Eshitaylik...

Miryoqubning qulog‘ig‘a egildi:

— Kattaning rashki kelmas-a? — dedi.

— Eng kichigidan boshqa hech qaysisining rashki kelmaydi.

Har qalay, katta xotiningiz esliroq.

— Yo‘g‘asa, — dedi mingboshi o‘midan turib: — men bir ichkariga kirib chiqay.

Ovqatdan shu choqqacha darak bo‘lmadi. Sen o‘tiratur, ketib qolma!

Ichkariga tomon asta bosib yura boshladi. Hali ham, boyagi odaticha, xursand bo‘lib kular va birushta:

— Obbo, betavfiq-ey!.. — deb so‘zlanardi.

Mingboshi ichkariga kirib, katta xotinini chaqirganda, mehmonlar Poshshaxonning uyida sertakalluf bir dasturxon ustida edilar. Dasturxon solib xizmat qilishmoq uchun chiqqan Umrinisabibini bir narsadan gumonlanib Poshshaxon quvib chiqargan: u Zebining boshiga kelajak falokatni unga yoki uning yaqin o‘rtoqlariga qanday qilib aytishini bilmasdan, o‘z uyida parvona singari aylanardi. Poshshaxon bilan Xadichaxonning boshlari osmonda.

Sultonxonning katta, daranglagan uylari bo‘m-bo‘sh, o‘zi bu hangomalardan xabarsiz, dutorchi qizlar halitdan dasturxon yig‘ilmay turib, dutor sozlamoqda edilar...

Mingboshining chaqirig‘iga birdan ikkala xotin: «labbay!» deb yugurdi. Faqat mingboshi katta xotiniga imo qilib:

— Bittang kel! — dedi.

Poshshaxon orqaga qaytdi, lekin bu suhbatdan ko‘ngil uzolmasdan, yaqin bir joyga berkinib turdi...

Mingboshi odatda xotinlarga kalta gapirar, ular bilan ezilib o‘tirishni o‘z erkaklik sha‘niga sig‘dirolmas edi...

— Xolmatnikiga kelgan shaharlik mehmonlarni chaqirtirib, yaxshi bir ziyofat qilinglar, — dedi u. — Shahardan kelib, Xolmatning quruq nonini yeb ketsa, yaxshi emas!

So‘ngra Xadichaxonning javob berishini kutib o‘tirmasdanoq:

— Ovqating nima bo‘ldi? — deb so‘radi. — Jadallat! Qorin och!

Xadichaxon muloyim kulimsiradi:

— Mehmonlar biznikida, shu uchun ovqatimiz bugun kechroq bo‘ladi. Men sizlarga non-choy chiqaraman.

Mingboshi mehmonlarning o‘z uyida ekanini eshitib, hayron bo‘ldi:

— Mehmonlar shu yerda? Qachon kelishdi?

— Namozshomga yaqin.

— Yaxshi, yaxshi.

Bir ozdan so‘ng yana takror qildi:

— Yaxshi. Yaxshi...

So‘ngra birdan:

— Ashulachisi bormi, yo‘qmi? — deb so‘radi.

— Bor, — dedi Xadichaxon.

— Ashula qilganda, meni chaqirtir! Durustmi? — shu so‘zni aytgach, xotining javob berishini kutmasdanoq, burilib, tashqariga tomon yurdi.

Butun umrlarida deyarlik bunday sertakalluf ziyofatni ko‘rmagan yosh qizlar takallufga yarasha betakalluflik bilan, o‘lgudek quturib, o‘yin-kulgi qildilar.

Horib-charchab, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a oyoq tashlab qo‘shxonalariga qaytgan vaqtlarida, yarim kechadan ancha o‘tib qolgan edi. Uyda qolgan ikki kampirga sahar turib, aravani qo‘shirishga buyurdilar-da, o‘zlari ko‘zlarini yumar-yummas, og‘ir uyquga ketdilar. Bular yoshlikning beparvo quchog‘ida, ma‘sum go‘daklarday, har narsadan xabarsiz, to‘lib-toshib uxlarkan, so‘ri tomon ikki kampirning tashvishli bir un bilan, allanega besaranjom bo‘lib pichirlashgani eshitalardi.

Ularning biri o‘zimiz bilgan Umrinisabibi bo‘lib, sevimli Zebining yosh umriga qasdlangan yomonlar to‘g‘risida gapirardi...

Tong yorishmasdan yo‘lga tushib, qishloqdan chiqar-chiqmas ashulani baland qo‘ygan Zebi necha yillik g‘am-tashvishlardan to‘rt-besh kun ichida ortig‘i bilan yozilib kelarkan, o‘z orqasida o‘ynayotgan o‘yinlardan xabarsiz edi. Kechasi Umrinisabibidan Zebi to‘g‘risidagi tashvishli xabarni eshitganidan keyin Enaxonning onasi mehmonlar javdushgan vaqtda Saltanatni bir chekkaga chaqirib, haligi xususda ogohlantirgan bo‘lsa-da, Saltanat bu qadar yoyilib va quvnab borayotgan o‘rtog‘ini xafa qilmaslik

uchun unga hech narsa demaslikni ep ko'rdi. Saltanat u to'g'rida bu yosh qizga gap ochib, uning yorug' ta'bini xira qilmasdan, o'z onasi orqali Zebining onasiga eshitdirib qo'ymoqchi bo'lardi. Mingboshinikida juda sertakalluf ziyofat yegan bu yosh qiz ziyofat bergan juvonlardan juda minnatdor bo'lmoq bilan birga, shunday qari va nihoyat darajada xunuk odamga, yana kundosh ustiga tushib qolganlari uchun ularga chin ko'ngildan achinardi. Saltanat bilan birga Zebining o'zi va boshqa hamma qizlar mingboshining davlati va obro'si to'g'risida qancha maqtov eshitgan bo'lsalar, uning badbasharalikda ham tengsiz bo'lgani to'g'risida o'shancha vahimali so'zlarni tinglagan edilar.

Qizlardan hech biri mingboshi xotinlarining davlatiga qiziqmagan, ularning tolelariga ko'z olaytirmagan, u davlatlar to'g'risida o'zaro gap ochilganda, ochiq jirkanish bilan: «Davlati boshidan qolsin!» deya qichqirgan edi. Saltanat qizlarning ashulalariga qo'shilmasdan, o'z oldiga og'ir-og'ir o'ylab borarkan, o'zini xayolida — bir nafas uchun mingboshi xotinlaridan birining o'rniga qo'yib qaradi... Ustida go'yo xonatlas ko'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho shohi ro'mol, amirkon kavish-mahsi... Keng hovlida, daranglagan ayvonlar va so'lum uylarda, odamni chiroyli qilib ko'rsatadigan qalin toshoynaklarning qarshisida...

Tilla bilakuzuklar, yoqut ko'zli uzuklar, xina bilan cho'g'day lovullab turgan barmoqlar, surmali ko'zlar... Xontaxta ustida anvoyi noz-ne'mat, turli-tuman meva-cheva... Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtda og'izga solsa eriydigan noklar... Quvaning yirik donali va nordon anorlari... Haligi nokning eng to'lganini olish uchun dasturxoniga qo'l uzatar ekan, qo'lini boshqa bir qo'l kelib ushlaydi... Uning ham qizlik havaslari uyg'onadi, yuraklari muloyim va yoqimli bir talvasa bilan duk-duk ura boshlaydi: ikki yuzi dasturxon ustidagi anor singari qip-qizil bo'ladi... Endi u o'zining «mingboshi xotini» bo'lganini unutmagan, yoshlikka xos keng xayol quchog'ida boshqa olamlarga o'tgan edi. Uning qarshisida o'tkir va serhavas ko'zlarini o'ynatib, yosh bir yigit turgan kabi

bo'lardi... Bu qo'l, albatta, o'sha yigitning och va qaynoq qo'llaridan o'zga emasdi... nihoyat, yosh qiz yosh yigitga tomon astagina qayriladi va qayrilgan hamon o'zidan ketib qichqiradi:

— Mingboshi!!!

Muning holidan bexabar ashula qilishib borayotgan qizlar bu qichqiriqni eshitgach, cho'chib tushdilar.

— Voy, nima bo'ldi sizga, Saltanatxon? — dedi Zebi.

Qizlar Saltanatni o'rtaga oldilar. U esa ikki qo'li ko'ksida, rangi o'chgan, o'zini Zebining quchog'iga tashladi. So'ngra asta-sekin ko'zini ochgach, hammaga bir-bir qarab oldi; uning bu qarashlarida og'ir bir horg'inlik bor edi... Keyin ko'zlari Zebiga tikildi, endi u ko'zlarda aybini yashirgan bir gunohkorning qarashlari termulardi.

— Nima bo'ldi sizga, Saltanatxon? — dedi yana Zebi.

Saltanatxon javob o'rniga qo'llarini keng ochib, Zebiga tashlandi va: — Zebixon! Jonim Zebixon!! — deya uni mahkam quchog'iga oldi...

Qizlar hayron, hammasining ko'zi ularda.

Saltanatning «mingboshi...» deya qichqirishi bilan barobar aravani to'xtatgan O'lmasjon ot ustida orqasiga qayrilib, qanday hodisa bo'lganini angalayolmasdan, tangriqosh nazarlari bilan qizlarga tikilgan edi. Ikki qizning bir-biri bilan quchoqlashib, «aylanay, o'rgilay» qilishlari hali-beri tugalmaydigan bo'lgandan keyin yelkasini qoqib, yana oldinga o'girildi va astagina «cho'x» deb otini qamchiladi. So'ngra u kichkina bir anhorning kechigidan kecharkan, otini sug'orishga to'xtagan vaqtida Zebi bilan birga Saltanat ham sharaq-sharaq gapga tushgan edi.

Shaharga kirgandan keyin qizlar o'z uylariga yaqin joylarda bitta-bitta tusha boshladilar, shu bilan safar oxirida O'lmasjonning Zebidan boshqa yo'lchisi qolmadi. Ko'ngillaridagi ajib hislarni bir-biriga bildirmoq uchun hali fursat topolmasdan entikkan bu ikki yosh endi o'n-o'n besh minut xoli fursat topganlarida, ortiqcha talvasaga tushgan yuraklari dastidan nima deyishlarini bilolmay entikardilar... Unisi ham, bunisi ham bir og'iz gap aytolmadi.

Ikki yosh ko'ngilning shu tobda kichkinagina bir tilagi bo'lsa ham — bir-ikki mahalla o'tgach, yetiladigan hovlining yana bir necha mahalla nariga cho'zilishi, yo bo'lmasa, keksalar aytgandek: «yer tanobi»ning pichagina cho'zilmay turishi edi. Holbuki, shaharga, o'ziga oshna joylarga, o'z otxonasi bor yerlarga kelganini payqagan va qorni ochqay tushgan ot, oshiq-ma'shuqning ko'ngil tilaklaridan bexabar, qadamini ildamlatar, «yerning tanobi» o'zidan-o'zi tortilib borardi...

Arava Zebilar masjidi oldiga yetganda, Razzoq so'fi bir necha kishi bilan birga boshqa bir aravada qarshi tomonga o'tib ketdi.

— Otam biror joyga ketayotganga o'xshaydi, — dedi Zebi quvonganini yashirolmay.

— Yiroqroq safarga o'xshaydi. Oq yo'l bersin! — dedi O'lmasjon va yumshoqqina kuldi.

Shu chog'da Zebining ko'nglidan og'ir bir tog' ko'chgan edi.

VII

Ikkala yosh ko'ngil qorong'i muhitning og'ir kishanlariga bog'langan holda noumid muhabbat bilan bir-birlarining hasratida entikar ekan...

Akbarali mingboshi, kuchli panjalari orasiga olib, yangi bir gazetni g'ijimlamoqda va qimorbozlarga xos og'zi maymoqlik ila gazet yozganlarni so'kmoqda edi.

Jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo'rg'a chiqariladigan bir gazetada mana shu besh-olti og'iz so'z boridi:

«...bo'lusining hokimi mutloqi o'lan Akbarali mingboshi butun-bo'lusning yagona usuli jadida maktabini bog'latib, muallimini haq bermasdan haydatdirdi... Uch oygina davom eta olmish bu maktab millat bolalarina oz-da bo'lsa oq-qorani tanitdirmoqqa muvaffaq bo'lmish edi. Mingboshining o'zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo'shalmaydur... Uch xotini ustiga yana to'rtinchisini, hatto besh-olti-yettinchisini... ham oluvga qarshi emas. Muallim M. M.»

Qarshisida choy quyib o'tirgan Hakimjon shu gazetni topib ko'rsatganiga allaqachon dunyo-dunyo pushaymon bo'lgan edi. U bir necha yil shu odamga mirzolik qilib, uning jahli kelgan va tutoqqan vaqtlarini ko'p ko'rgan bo'lsa-da, bugun shu kichkina maktubchani bu daraja yomon ta'sir qilganiga hayron bo'lardi. Mingboshi mirzaning qo'lidan dastlabki bir piyola choyni olib, hatto bir ho'plamasdan yoniga qo'ydi va shu bo'yicha uni tamom esidan chiqarib yubordi. Hakimjon sovuq choyni uning oldidan olmoqqa botinolmas edi... Choynakdagi choy ham allaqachonlar sovub bo'ldi. Hakimjonning ikki ko'zi mingboshida, uning qizarib-bo'zargan yuzlarida, jahl bilan, tajanglik bilan qisilgan panjalarida: g'ijimlanib bir musht holiga kelgan gazetda... Xo'jayinning mudhish ovozi ko'rib, sal narida daraxtga suyanib turgan Mirzabobo ham hayron. Darvozonlik qiluvchi mirshabga: «Arzga kelganlarning hech birini qo'ymaysan. Xo'jayinning fe'li aynib turibdi...», deb Mirzabobo tomonidan ta'limot berilgan, endi darvoza orqali Miryoqubdan boshqa hech kimning oyoq bosib o'ta olishi mumkin emas. Haykalday qotib tura berishdan Mirzaboboning, doim bir vaziyatda qimirlamay o'tira berishdan Hakimjonning bellari qayishib ketdi... Mingboshi dam gazetni ochib, u yoq-bu yog'ini aylantirib qarar, dam bo'lsa, panjalari orasiga olib, uni g'ijimlar, tez-tez darvoza tomonga qarab:

— Miryoqubdan darak yo'qmi? — deya so'rab qo'yardi.

Mingboshi bu savolni qaytargan hamon Mirzabobo yugurib ko'chaga chiqar, bir ozdan so'ng qaytib kirgach, «yo'q», degali botinolmasdan, mo'layib jim qolardi.

Nihoyat, mingboshi qo'lidagi gazetni bir tomonga irg'itib, o'rnidan turdi.

— Miryoqub qani deyman senga, Miryoqub?! — deya baqirdi.

Bu yovvoyi darrandaning bo'kirishi edi! Mirzabobodan odam tutila-tutila:

— Darrov... otni egarlab... uyiga borib kelaymi? Yo... shaharga chopaymi? — dedi.

— Endi esingga keldimi, itvachcha!.. — deb baqirdi mingboshi. Soʻngra asabiy odimlar bilan ichkariga tomon yurdi.

Ichkaridan ham uning baqirgan ovozi eshitilardi. Faqat uchala xotin uning nima uchun kayfi ketganidan bexabar edilar. Oʻzaro bir-birlariga nazar tashlashgach, koʻz ishorati ila katta xotinga vakolat berdilar. Xadichaxon bir-ikki qadam oldinga bosib kelib:

— Nima boʻldi sizga? — deya soʻradi. Shu topda oʻzi yengilgina qaltiramoqda edi.

Mingboshi nihoyat darajada odobsiz bir soʻz bilan baqirib javob qildi. Ikkala yosh xotin sekin-sekin orqalariga tisarilib, oʻz uylariga kirib ketdilar. Xadichaxon turgan joyida qotib qoldi...

— Yelkamda oʻn putdan oʻttiz put yukim bor... — dedi mingboshi.

Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi.

Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. Xadichaxonning fikricha, mingboshiga «irim» qilgan edilar. Endi uni «qaytartirmoq»dan oʻzga iloj yoʻq edi. Bu fikr boshqa kundoshlarning miyalaridan ham oʻtmadi emas... Faqat Xadichaxonning bu fikri qatʼiy boʻlsa kerakkim, yashirishga lozim koʻrmasdi:

— Gʻanimlar qasd qilganga oʻxshaydi. Qaytarma qildirib bersammi? — dedi.

— Ayollarning bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... Qovogʻi uchsa ham azayimxonga chopadi... — dedi mingboshi. Va shu soʻzlarni aytarkan, uning bulutli yuzlarida jindakkina ochilish alomatlari koʻrindi. Shu ochilishdan dadillanib boʻlsa kerak, Xadichaxon yana eʼtiroz qildi:

— Oʻzingiz, oʻz ogʻizingiz bilan «yuk bosdi», demadingizmi? Mingboshi kulib yubordi:

— «Yuk bosdi», degan boʻlsam «qanday yuk?» deb soʻraginda, bachchagʻar! — dedi u.

Bu vaqtda uydagilar ham asta-sekin tashqariga chiqib, yaqin oʻrtaga kelgan edilar. Mingboshi davom qildi:

— Uchalang kam yukmisan menga?

— Nima og‘irimiz tushdi sizga? — dedi Xadichaxon.

— Gazetni o‘qi, bilasan... Senlarning tufaylingdan yomon nomim yetti iqlimga ketdi... Hammang bir qora mo‘yimga arzirmiding, qalay?.. Agar olmoqchi bo‘lsa, hammangni ikki qo‘llab tutardim o‘sha gazetchi dayusga!.. Menga bitta xotin bas edi... zurriyotlik bo‘lsa... Shuncha davlatni kimga ishonib qoldiraman? Uchta bezurriyotgami?..

— Nimaga hammani barobar ayblaysiz? Fazilatni og‘izga olmaysizmi?

— Fazilating menga asqotarmidi? Bir-ikki yildan keyin birovlarining qo‘liga suv quyadigan bo‘ladi. Qiz farzand bo‘larmidi? Qaysi biring ota-onangga asqotding!..

Bu ma‘qul gaplarga e‘tiroz qiladigan joyi bo‘lmasa ham, Xadichaxon yana bir nima demoqchi edi, tashqaridan darvozaning xarxasha bilan ochilgani eshilib, so‘ngra «ha» deguncha ichkari eshik ketidan Mirzaboboning yo‘g‘on ovozi chiqib qoldi:

— Xo‘jayin, Miryoqub akam keldilar!

Mingboshi darvoza ochilgan hamon tashqariga yugurgan edi.

U chiqib ketgach, uchala kundosh bir yerga to‘planib, kuyovlarining avzoyini muhokama qildilar. Ancha nari-beri gaplardan keyin ertaga erta bilan Xadichaxonni cho‘loq azayimxonnikiga yuborishga qaror berildi...

Mingboshini tashqarida Miryoqub ham o‘sha sovuq xabar bilan qarshi oldi:

— Xo‘jayin, sizni gazetta uribdilar! Mana, ko‘ring!

«Salom» yo‘q, «alik» yo‘q, ikki g‘ildirakli aravasidan tushar-tushmas, qo‘lidagi gazetni mingboshiga uzatib, kular yuz bilan shu so‘zlarni aytgan Miryoqub mingboshining ko‘ziga shu topda itdan ham xunuk ko‘rinib ketgan edi.

— Tur-e, afting qursin sening!.. Gazeting boshingni yesin!..

Gazetni olib, uning yuziga irg‘itdi.

Miryoqub esa «qah-qah» solib kuldi, yerga tushgan gazetni engashib yerdan oldi-da, qoqib, ko‘ziga surtgach, to‘rt buklab

choʻntagiga soldi, soʻngra tezgina mingboshining qoʻltigʻiga kirib, apil-tapil uni soʻrichaga keltirib oʻtqazdi.

— Oʻtiring, xoʻjayin! — dedi oʻzi ham qarshisiga oʻtirarkan.

— Nima bu tajanglik? Nima boʻlibdi? Dunyo buzilibdimi?

Oʻzi uchun Miryoqubdan boshqa chin koʻngildan kuyadigan odam yoʻqligini mingboshi yaxshi bilardi. Shu uchun uning bu kungi harakatini sira anglayolmay qoldi. Aravasidan tushmay turib: «Xoʻjayin, sizni gazetta uribdilar!» dedi, soʻngra oʻsha gazetni (oʻsha gazetning oʻzini) uzatdi... Bu nima gap? Tushimi, oʻngimi? Yo ishongan togʻi ham agʻdarilmoqchimi? Yo Miryoqub ham boshqa yoqadan bosh koʻtarmoqchimi? Miryoqubsiz uning kuni kun boʻladimi? Bu davlatlar, obroʻlar, amallar, kattaliklar... Hammasi qamishning toʻzgʻogʻiday bir nafasda toʻzib ketadimi? Miryoqub burungi Miryoqub boʻlsa, to mingboshi oʻzi gap ochmaguncha, bu qora xabar toʻgʻrisida gap ochishga ham botinolmasligi lozim kelardi... Albatta, koʻngillarida hech gapni saqlamaydirgan ogʻzi boʻsh odamlar boʻladi. Lekin unaqa odamlarning nomlari «Miryoqub», ayniqsa, «Miryoqub epaqa» boʻlmaydi. Miryoqubning tishlari, har holda, lablaridan kuchliroq-ku! Lablarini tishlari orasiga olsa, tili oʻlgur, bir oz koʻmilib turardi-ku... Faqat Miryoqub hech bir ishni bilmasdan qilmaydi!

Haligidek bemaʼni vahimalardan soʻng, nihoyat, mana shu keyingi natijaga kelganidan keyingina, mingboshi esini boshiga toʻpladi va Miryoqubning yuziga gazetni irgʻitgani uchun oʻz-oʻzidan koyidi. Uning tirriq taʼbi ham tezgina oʻrniga tushdi, yuzi kuldi...

— Hazilingni qoʻy endi, — dedi u oddiy va hatto bir daraja muloyim ovoz bilan. — Menga bir maslahat top. Yetti iqlimga yomon nomim ketdi...

Miryoqub juda tinchlik bilan, kulib turib, bemalol gapirardi:

— Ha, balli, mana bunday deng! Jahl bilan, gʻazab bilan, tutoqish bilan bu toʻgʻrida hech narsa qilib boʻlmaydi. Bu mahkamangizdagi qora fuqaro bilan boʻladigan ish emaski, chaqirtirib kelib, Mirzaboboga buyursangizu, yertoʻlaga olib tushib,

qichigan yerini qashlasa! Yozgan odam o'sha berkitilgan maktabning domlasi... jaded! U allaqachonlar o'z yurtiga yetib oldi, gazet bo'lsa, gazetchisi bilan birga Toshkentda... Siz-bizning emas, bizdan kattaroqlarning ham bo'yi yetmaydi. Gazet yozadiganlar, odatda, zakonchi bo'ladi... Ular bilan yarim poshshoga o'xshagan ulug' odamlar olishmasa, uncha-muncha odamlar bekor kelmaydi. Jadidlar hammasi mahmadona keladi...

— Jadiding nimasi? Nima degan gap o'zi?

— Maktabini yoptirgan vaqtingizda aytib bergan edim-ku.

— Esda qolgan deysanmi?

— Jadid degani «yangi» degani bo'lsa kerak. Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... Yangi o'qish, yangi maktab, yangi urf-odat, yangi kiyim, har narsa yangi...

— Eskicha bo'lsa, kimga zarari tegar ekan?

— Unisini bilmadim... Ishqilib, jadedlarning qasdi shu emish...

— Yangi mingboshi, yangi qozi ham, desang-chi!

— Albatta, o'ziga mos keladigan mingboshi bo'lsin, deydi jadid...

— Darvoqe, Shamsiddin mingboshi bilan To'raqul bo'lus to'g'risida hech narsa yozishmaydi-ku jadedlaring... Nimaga mening to'g'rimda yozishadi?

— Abdusamat mingboshini osmonga ko'tarib yozganlaridan xabaringiz yo'qmidi?

— Ha, aytganicha, bulturmidi?

— Ha, bulturidi. Qanday maqtab yozishdi.

— Jadidlaringga tushunolmay qoldim-ku! Men butun umrimda to'rtta xotin olibman. Uning ham bittasi o'z ajali bilan o'lgandan keyin... Abdusamat bir o'ntacha xotin oldi... Hali ham to'rttasi qo'lida — naqd... Nega uni yozmadi jadeding?

— Mening jadidim emas, xo'jayin! Shunday bo'lsa ham, mening bilishimcha, jadedlar yangilikni mayl qiladigan odamni yaxshi ko'radilar.

— Ha, aytganicha, Abdusamat o'z qishlog'iga yangi tartib maktab ochgan emasmi? Durust...

— Abdusamat mingboshi hovlisida muallim saqlab, o'g'illarini o'qitadi. Jadid maktabiga pul bilan qarashadi. Odamlarning bolalarini yubortiradi. O'zi jadid gazetini o'qiydi...

— Shuning uchun jadiclarning ko'zi uning o'nta xotinini ham ko'rmaydi, degin.

— Shunday, jadiclar yangi maktabga qarashmagan boylarni: «nodon, johil, u-bu» deb so'kishadi. Ularning maktabiga ozgina yordam qilgan boyni «hamiyatlik boylarimizdan falon, falon...», deb osmonlarga ko'tarib yozishadi... Siz ham jadid maktabini yoptirmasdan, og'iz uchida, «ha-pa» deb qo'ysangiz, sizni ham maqtab yozishardi.

Mingboshi shu yerda Miryoqubga tomon egildi va pastroq ovoz bilan dedi:

— Noyib to'ra qo'ymadi-da, qandoq qilay.

— Noyib to'ra ham ayyor odam. O'zi buyruq berib yoptirsa bo'lardi, unday qilmadi. O'zi bir chekkada turib, siz orqali qildirdi... Tayoq endi kelib, sizning boshingizda sindi!

— Yo'q, shoshma, men noyib to'raning yonlariga boraman, «Ilojini qiling, o'zingiz aytgansiz», deyman. Qani, yo'q desin-chi!

— Yo'q deyishdan qo'rqarmidi? Yo'q deydi, tonib tura beradi...

— Nega, axir? Nega?

— Bugun tonadigan bo'lmasa, o'sha vaqtda o'zi o'z buyrug'i bilan yoptirmasmidi?

— Tonganiga qo'yamanmi?

— Nima qilardingiz? Urarmidingiz?

— Urub bo'ladimi?

— Nima qilardingiz?

Mingboshi jim bo'ldi. Bir qo'lini chakkasiga olib borib, boshini qashladi...

Ikkalasi ham bir oz jim qolgach, yana mingboshi gap boshladi:

— Bir maslahatini topmasak bo'lmaydi. Men bu ishni shunday qoldirib ketolmayman... Shamsiddin, To'raqul, Abdusamatlar qo'sh karnay bilan jar solishadi... Bilasanmi?

— Bu gapingiz rost, xo‘jayin. Ularnikida kechadan beri to‘y!

— O‘sha maktabdor domlani toptirib kelib, Mirzaboboga topshirsamu, yerto‘lada bir burov solsa, deb edim. Shunda, ehtimol, ko‘nglim bir oz o‘rniga tusharmidi...

— Boya aytdim-ku, endi uning arvohini ham topolmaysiz.

— Nima qilamiz bo‘lmasa?

Miryoqub javob bermadi. U aytmoqchi bo‘lgan so‘zini fikr tarozisiga solib o‘lchamoqda edi. Nihoyat, mingboshi tomonidan haligi savol yana qaytarilgandan keyin:

— Nima qilardingiz, tishni-tishga qo‘yasiz, xo‘jayin! — dedi.

Mingboshi irg‘ib o‘rnidan turdi.

— Tishimni-tishimga qo‘yadigan hezlardan bo‘lsam, ma, ol, bu shop-shaloplarni! — dedi u baland ovoz bilan. — Menga pasport olib ber, Makkatulloga jo‘nayin!

— O‘tiring, xo‘jayin! — dedi Miryoqub, uning ovozi ham bir oz ko‘tarila tushgan edi. — O‘shqirish bilan, zarda bilan bitadigan ish emas bu. O‘ylaylik, bir chora topaylik!

So‘ngra o‘rnidan turib, ayvonga bordi; u yerda choynak bilan piyola turgan edi, sovuq choyni piyolaga to‘ldirib quygach, bir shimirishda tamom qildi. So‘ngra orqasiga qaytarkan, odatdagidan qattiqroq va tezroq so‘zlandi:

— Gazetni shaharda ko‘rdim. Shundan beri tadbir axtaraman. Hech bir tadbir topolmaganim uchun nochor-noiloj kulgiga zo‘r bergan edim. Katta ariqdan xatlayolmagan vaqtingizda kulgingiz keladi... Bilasizmi?

— Bilaman.

— Yiqilgan polvon ham achchig‘ini kulib yengadi, — dedi yana Miryoqub.

Mingboshi bir oz jim qolgach:

— Ishqilib, bir chora topmasang bo‘lmaydi, — dedi. Faqat bu keyingi jumla quturgan darrandaning emas, suvga pishilgan mushukning og‘zidan chiqmoqda edi...

O‘yga botgan Miryoqub boshini ko‘tardi:

— O‘zimizning gazetga kelishtirib bitta javob yozamiz. Jadid gazetda sizni so‘kkan bo‘lsalar, o‘z gazetamizda biz maqtaymiz, muallimni yomonlaymiz. Shu bilan tarozining biz tomon pallasi bosib tushadi. Abdusamatlarning karnayi bolalar chaladigan qamish nayga aylanib qoladi. Shu bas!

— Ha, mayli!

— Durustmi? — deb yana qaytarib so‘radi Miryoqub.

— Durust! — dedi mingboshi. — O‘zing yozasanmi?

— Bilib gapirasizmi, xo‘jayin? Men gazetning o‘zini tuzuk-quruq o‘qiyolmayman-ku, unga xat yozish qayoqda! Muni o‘z ahli, o‘z ustasi yozadi. Shaharga tushganimda, to‘g‘rilab chiqaman.

— Bo‘pti, — dedi mingboshi. — Ishqilib, o‘zing epla.

So‘ngra o‘rnidan turib, Miryoqubga yaqin keldi va uning qulog‘iga egilib:

— Pul kerak bo‘lsa, ayama lekin! — dedi. — Pul degan narsa topilib ketadi, obro‘ topilmaydi, obro‘!



Oradan ikki hafta o‘tgandan keyin Miryoqub sart tilida chiqadigan hukumat gazetasining bir nusxasini keltirib, indamasdan mingboshining quchog‘iga tashladi. U nusxada quyidagi maktub bosilib chiqqan edi:

«Hurmatli gazet muallifi to‘raga salomdan so‘ng andog‘ arz qilinurkim, jadid nom toifaning shaharlarda chiqarilaturg‘on gazetida Akbarali mingboshi xususida noloyiq iboratlar bilan ta‘rif qilingan bir noma chop qilindi. Shu xususda haqiqat yuzasidan izoh qilib ayturmizkim, Akbarali mingboshi qariyb o‘n to‘rt yildan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo‘lmadilar. Shahar va uyezd hokimi to‘ralar va fuqaro va boyonlar va ahli ilm toliblar va hokazo hech kimsa mazkur mingboshidan jiddiy norozi bo‘lganlari yo‘qdur. Va balki hamisha uning haqida xayri duodadirlar. Ul beodob maktabdor bo‘lsa, hamma fuqaroning nazarida past va haqir ko‘rilgan edi. O‘zi

namoz o‘qimasdan va maktabda go‘dak bolalarga er mudavvardur, ya‘ni misli tarvuz yumaloqdur, deb shariatga xilof ilmlarni ta‘lim bergani vajxidan fuqaro bezovta bo‘lib, har xil qiliqlar paydo bo‘lib, yurtning osoyishiga xalal kelganidan mazkur maktabdorning maktabini janobi Akbarali mingboshi berkitib erdilar. Bu vajhidan tamom fuqaro va alalxusus boyonlar, tolibi ilm mullabachchalar, mudarrislar, imomlar, shayxlar va zokirlar, so‘filar bag‘oyat mamnun bo‘lib, ul shahanshohi jahon oq podshohimizning va ham ul ulug‘ martabalik yarim podshoh janoblarining haqlariga duo aylab, shunday odil va insoflik fuqaroparvar amaldorlarni qo‘yganlari uchun ularga minnatdorlik izhor qiladurlar, vallohi a‘lami bissavob.

Tammat-tammat tomon yozguvchi kamina xolis fuqarodin mulla Rivojiddin a‘lami Mulkobodiy».

Buni o‘qitdirib eshitgandan keyin mingboshi juda xursand bo‘ldi. Endi to‘y bu tomonda boshlandi. Endi buning karnayi dunyoni buzajak, narigilarniki bo‘g‘ulajak edi. Endi yetti kishvar, yetti iqlimda Akbarali mingboshining qanday yaxshi amaldor bo‘lganini bilajaklardi. Oq podshoh bo‘lsinu, yetmish ikki toifaning tilini biladigan tilmochlari bo‘lmasin! U tilmochlar tomonidan tarjima qilinib berilgandan keyin, bu maktubni oq podshoh, albatta, o‘qitib eshitajak... balki o‘zi o‘qiyajak... balki o‘zi gazetning tiliga tushunsa... Qo‘l ostida shuncha toifa yashaydigan bir podshoh o‘z fuqarolarining tilini bilsa ajabmi? Mulla Rivojiddin o‘zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko‘ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi! Oq podshoh nega anglamasin? Shundan keyin Peterburgdan Toshkentga — yarim podshohga telegramma kelsa: «Mening shunday yaxshi amaldorim bor ekan, qadriga yetib, hol-ahvolidan xabardor bo‘lib turibsanmi?» Ana, shundan keyin, Toshkentdan chopib keladigan katta to‘ralarni ayting! U vaqtda shahardagi hokim va pristup to‘ralar Akbarali mingboshiga «chas» («chest») beradigan bo‘ladi! Unda narigilar mingboshi emas, kech kuzdagi chivindan ham battar bo‘lib qolishadi!..

Bu safar gazetni bag‘riga bosib, shu xil shirin xayollarga botgan mingboshi irg‘ib turib, qarshisida o‘tirgan Miryoqubni

quchoqlash va butun davlatini unga tutib yuborishdan o'zini zo'rg'a to'xtatib qoldi. Bunday odamga qancha qilsa va qancha bersa oz.

Shunday bir xursandlik ichida suzgan mingboshiga Miryoqubning yana boshqa arzlari bor edikim, ular ham ahamiyat jihatidan gazetdagi maktubdan sira qolishmasdi.

— Xo'jayin, ko'nglingiz o'rniga tushdi, shekilli? — dedi u bir turli g'urur bilan, lekin bu so'zlar ortiqcha «moylanish» va xushomaddan yiroq edi.

Mingboshi boyagi kayfni to'la aks ettirib, javob qildi:

— Nimasini aytasan!

— Bo'lmasa, naryog'ini eshiting.

— Naryog'ini?

Mingboshining ko'ngliga darhol iztirob tushib ulgurgan edi. Shunday yaxshi bir xabardan keyinga qoldirilgan arz, albatta, xayriyatdan gapirmaydi. Agar yaxshi gap bo'lsa, Miryoqub uni gazetdagi maktubdan burun aytmasmidi? «Xo'jayinning besaranjom ko'nglini tinchitay, undan keyin yotig'i bilan bu xabarni eshitdiray», degan bo'lsa-chi?! Yo'q, amali ham qursin, obro'si ham! Mingboshilikning shop-shalopi og'ir bo'lmasa ham, o'ziga yarasha og'ir tashvishlari bor... Katta odam bo'lish ham qiyin!..

Mingboshining haligi so'ng savolida butun shu iztiroblarning mazmuni bor edi. «Epaqa» laqabini tashiydigan tulki u savolning ostida yotgan behuda tashvishlarni darhol payqadi. Shu uchun darrov:

— Bugun sizning to'yingiz! — deb qo'ydi. Va so'zida davom etdi.

Masala qumariq paynovidan suv ichadiganlarning hokimga bergan arizalari xususida edi. Ariza berganlarning boshida kimlar turganini o'tgan safar noyibning mingboshiga aytgan so'zlaridan anglab olgan Miryoqub Qumariqning etaklarigacha borib kelib, hamma gapni bilganini va tegishli tadbirlarni o'tkazib kelganini gapirdi. Ariza egalarining adabini berish vazifasi uning o'z bo'yniga yuklatilganligidan, haligi «o'tkazilgan tadbirlar» bilan u o'sha vazifasini ham bajarib kelgan edi.

— Yaxshi. Ariza berganlar Yodgor echki bilan Umarali puchuq ekan. Aniq bilibsan. Xo‘sh, endi, qani gapir-chi, ular xususiga nima tadbir qilding?

Miryoqub kuldi:

— Nima tadbir qilding, deysizmi?

— Ha, nima tadbir qilding, deyman.

Mingboshi butun diqqatini shu nuqtaga to‘plab, Miryoqubga tomon bir oz egila tushgan edi. Miryoqub kulishida davom etib:

— Bolalarga tayinlab keldim: pastdagi yerlarga ham unchamuncha suv berib turinglar, dedim.

Mingboshi yana ovozini ko‘tara tushdi:

— Shu adab berganing bo‘ldimi?

— Adab berganim bo‘lmasa, shunday qilarmidim, qalay?
— deb Miryoqub yana kuldi.

— Nechuk ya‘ni? — Insof ham kerak axir, xo‘jayin! Sizning yerlaringizni sug‘orib bo‘lgandan keyin suvni yana Qumariqqa ochib qo‘ysa bo‘ladi. Ancha suv ortadi. Hech kim dod demaydi. Ayb chorakor bolalarda. Sizning obro‘yingizga tayanib, beparvolik qilganlar.

— Nimaga?

— Nimaga bo‘lardi. Ular yerlarni sug‘orib bo‘lgandan keyin Qumariqqa yana qaytib suv ochmas ekanlar. Shuncha suv yondagi eski ariqlarga, pastliklarga tushib, ekinsiz yerlarni ko‘llatib yotar ekan. Pastdagilar o‘zlaricha kelib, suvni ochgani qo‘rqishar ekan. Mirob bo‘lsa, og‘iz ocholmaydi.

— Ortiqcha suv bo‘lsa, mayli, bersin, — dedi mingboshi.
— Hech narsa demayman. Lekin haligi ikkovining adabini berish kerak edi. Nimaga mening ustimdan ariza tashlaydi?

— Adabini berish kerak bo‘lsa, tutib olib uramizmi? Yo ko‘pchilik oldida xo‘rlab so‘kamizmi? Yo bo‘lmasa...

Mingboshi Miryoqubning og‘zidan so‘zini uzib oldi:

— Har nima qilamiz! — deb baqirdi. So‘ngra ovozini pasaytira tushib ilova qildi: — Men ikkalasini chaqirtirib olib, Mirzaboboga berishdan ham toymayman!

— Bir marta hokimga ariza bergan odamlarni urib bo‘lmaydi. Keyin ular hokimga yana qayta arz qilsalar, yo bo‘lmasa, hokimning ustidan arz qilsalar, yomon bo‘ladi. Advokatlarning arizasini bilasiz-ku!

Mingboshi indayolmay qoldi. Nafasi ichida edi. Faqat o‘z fuqarolaridan ikkita boyga kuchi yetmaganiga hech chidayolmasdi. Yo‘g‘on oyoqlaridagi zo‘r-zo‘r kavishlari bilan bezovta bo‘lib yer depsinardi.

Miryoqub bu holni ko‘rganidan keyin uni tinchitmoqchi bo‘ldi, mingboshiga juda tanish bo‘lgan kulimsirash bilan uning yoniga o‘tdi va dushman eshitsu ishonadigan bir ovoz bilan:

— Ularning adabini dehqonlarning o‘zlari berishadi! — dedi. So‘ngra mingboshining hayron bo‘lib o‘ziga tikilganini ko‘rgach, Qumariqda ko‘rib kelgan dasisalarni so‘zlab berdi.

Uning so‘zidan anglashilardikim, Qumariqqa borgan vaqtida u yerga suv yetmay alamzada bo‘lib yurgan oz yerli kambag‘allardan bilagi yo‘g‘on uch yigitni chaqirib, ularning yerlariga suv tegmasliqda mingboshining hech bir aybi yo‘qligini, hamma ayb Yodgor echki bilan Umarali puchuqda ekanini so‘zlagan. Yigitlar buning sababini so‘ragan vaqtida Miryoqub ularni Sadaqayrag‘och degan joyga olib borib, ekinlarni ko‘rsatgan. Chinakam o‘sha joyda mingboshining bir shapaloqqina yeri bo‘lib, soya joyda qolib ketganligidan, g‘o‘zalari uncha o‘smagan, ko‘p chigitlari chiqmay qolgan ekan. U yerning yon-veridagi ko‘p yerlar Umaraliboy bilan Yodgorxo‘jaga qarar ekan. Ularning yerlari mingboshining paynovidan suvni juda bermalol ichganlari uchun ekinning ko‘rinishi nisbatan yaxshi bo‘lgan. Ana o‘sha ekinlarni yigitlarga ko‘rsatib turib: «Mana, ko‘ring endi, kimning yeri ko‘p ichar ekan suvni!» degan. Shundayoq yigitlar mushtlarini tugimlab, boylarning yerlari tomonga o‘qtalغانlar «Hap siznimi!..» deganlar. Shundan keyin Miryoqub yigitlarni o‘tirishga da‘vat qilib, ularga bir yashirin gap aytmoqchi bo‘lganini so‘zlagan. Ular yuraklariga talvasa tushib va lablari qaltirab, uning og‘ziga tikilgach, sirni hech kimga aytmaliklari to‘g‘risida ulardan qattiq

va'da olgan; undan keyin Umaraliboy bilan Yodgorxo'ja tomonidan hokimga berilgan arizadan gap ochgan. Miryoqubning gapidan yigitlar anglaganlarkim, Umaraliboy bilan Yodgorxo'ja yaqinda hokim to'raga ariza berganlar va u arizada o'z yerlarini necha yildan beri suvsiz qolayotganini, Qumariqdagi suvning faqat mingboshiga qarashli yerlar bilan boshqa ba'zi birovlarning yerlarini sug'organini, bularning yerlariga hech bir suv oshmaganini yozganlar... Shu gapni eshitgandan so'ng yigitlarning biri irg'ib o'rnidan turgan va mushtini tugimlagani holda: «O'zim tutib olib uraman, zang'arlarni!»... deya o'shqirgan... So'ngra Miryoqub turib, bunday degan: «Mingboshi dodho bo'shagan suvning siz tomonga oqishiga qarshi emas. Lekin o'sha ikkoviga o'chakishib, pastga suv bergisi kelmaydi: «O'shalarning yeri ichadigan bo'lsa, hammaniki qurib ketgani yaxshi», deydi. Baribir, pastga suv berganimiz bilan sizga suv tegmaydi, hamma suvni ular ikkisi to'sib oladi!» Bu so'z yigitlarning yaralariga tuz-qalampir bo'lib tushgan; ular uchalasi bir og'izdan: «Mingboshi dodho suvni pastga o'tkaza bersin, ular bilan o'zimiz gaplashamiz!» deganlar. Miryoqub ularning o'z oldilarida mingboshining chorikorlarini chaqirib, bo'shalgan suvni pastga o'tkazmoqqa buyruq bergan.

Mingboshi Miryoqubning bu arzini ertak tinglagan yosh boladay, buyuk bir zavq va nash'a bilan tinglamoqda va erta-indin ikkala boyning boshiga tushadigan hangomalarni ko'z oldiga keltirmoqda edi. Uning fikricha, o'sgan bolaga eski kiyimi tor kelganday, Miryoqubga ham endi «epaqa» laqabi kamlik qilardi. Unga boshqa bir munosib laqab topish lozim kelardikim, unday laqabni endi bu qishloq odamlari topolmasdilar, buning uchun Amir Navoiy yoki Mavlono Jomiy, yo bo'lmasa, Shohmashrabning tirilib kelishi darkor edi.

Mingboshi qumariqda chovrilgan u g'alati nayranglar va u nayranglarning ustasi to'g'risida shunday shirin o'ylarga ketgan, Miryoqub esa mingboshining xursandlik va kayf bilan mast bo'lgan yuzlariga tikilgan bir paytda ichkaridan bir tovoq to'la manti chiqib, dasturxonning o'rtasidan joy oldi. Miryoqub bu dargohda

tez-tez ko‘rinib turadigan bu serqatiq, semiz va yog‘liq mantilarga qadrdon do‘stini ko‘rganday shirin bir kayf bilan tikildi, so‘ngra ko‘zlarini tovoqdan ko‘tarib, mingboshining yuzlariga qaragach, shu topda tovoqdagi manti bilan tovoqqa tomon egilgan yuz o‘rtasida hech qanday farq ko‘rmadi: ikkalasi ham shu qadar yog‘liq edi!

Mingboshi qo‘l yuvishni unutib, «oling-oling»ga qaramasdan, besh panjasini barobar botirib, tovoqqa hujum boshlaganini ko‘rganidan keyin, Miryoqub irg‘ib o‘rnidan turdi-da, qo‘l chayqamoq uchun ariq tomonga yugurdi. Lekin mingboshi dodhoning ajdar kepatali ishtahasini bir oz to‘xtatmoq lozim edi; shuning uchun Miryoqub uning aqlini o‘g‘irlamoq maqsadida qichiq masaladan gap ochdi:

— To‘yni nima qildik, xo‘jayin? — dedi u qo‘lini chayqab turib.

Mingboshi boshini tovoqdan ko‘tarmay, og‘zida bir manti, qo‘lida ikkinchi manti bilan shoshilib javob qildi:

— O‘zing bilasan! Men qaydan bilay!

Miryoqub mingboshining bu javobidan shu topda uning mantidan boshqa hech bir masala bilan mashg‘ul bo‘lolmasligini angladi. Chinakam, u qo‘lini chayqab dasturxon boshiga kelganida, tovoq yarimlay degan edi. Shu uchun ular ikkalasi ham bir ozgina jim qolishni ep ko‘rdilar. Ayniqsa, mingboshi og‘ziga paxta tiqqan kabi, jiddiy sukutga tolmishdi...

Tovoqning u yer-bu yerida uch-to‘rtta qatiqsiz manti qolgach, mingboshi dodho tovoqdan boshini ko‘tardi. Faqat ikki ko‘zi va qo‘lining mo‘ljali tovoqda edi.

— Ha, xo‘jayin, — dedi Miryoqub, — bo‘ldingizmi?

— Bo‘ldim hisob! Qani ol sen ham! — dedi mingboshi va o‘z oldidagi yolg‘iz mantiga qo‘l uzatdi... Ungacha Miryoqub ham o‘z tomonidagi mantilarni bir joyga to‘plab olgan edi!

Tovoq bo‘shalib, o‘rtadan ko‘tarildi, uning o‘rniga katta choynakda choy keldi. Shundan keyingina mingboshining gap-so‘zga ko‘chmak istagani ma’lum bo‘ldi.

— Qani, qizdan gapir endi, betavfiq! — dedi u. — Otasi nima deпти?

— Siz ilgari qizning o'zidan gapirib bering. Qalay, ovozi ma'qul bo'ldimi?

— So'rab nima qilasan? Senga butun avliyo-anbiyolarni shafe keltirib aytamanki, o'sha qiz menga nasib bo'lsa, undan keyin xotin olishni bas qilaman!

— Hech kimni shafe keltirmay tura turing hali. Keyingi ikkitasini olgan vaqtingizda ham, har safar: «Bas endi! Shu — oxirgisi!» derdingiz. Bo'lmaydigan va'dalarni til uchiga keltirmang, ichkarida tura tursin... Vaqti kelganda, va'da bermasdan ham bittaga tayanib qolsangiz bo'laveradi...

— Ishonmaganingni qara, benamoz! Men astoydil gapirayotirman. Xudo bitta, so'z bitta!

— Ho'h-ho'!. Hali shu darajaga borib qoldingizmi? Bo'lgan ekan!

— Nimasini aytasan. U kelsa, uchovidan ham kechmoqchiman. Uchoviga qayrilib qaramay, deyman... bor-yo'g'imni o'shanga beray, deyman...

— Sizga nima bo'ldi, xo'jayin? Aqlingiz joyida-mi? Yo yo'qmi?

Mingboshi ko'zlarida allaqanday bir iztirob bor edi. Uning og'zidan chiqqan so'zlar, tildagina aytiladigan so'zlarga o'xshamasdi. Miryoqub butun umrida ko'rilmagan bu hol qarshisida shoshib qoldi. Yana bir necha marta boshini egib, «ho'h-ho'-ho'h-ho'» deya takror qildi.

Oraga jimlik cho'kdi. Faqat Miryoqubning chuqur o'yiga ketib, torta-torta choy ichgani eshitilardi. Mingboshi qo'lidagi choyni hech bir luzumsiz aylantirib, sovitmoq bilan ovora edi.

— Ho'h-ho'! — dedi yana Miryoqub. — Otasi qurg'ur yaqin kelmaydi-ku.

— A? — dedi mingboshi. Choyni yerga qo'yib, butun vujudi bilan Miryoqubga tikildi.

— So'fisi qurg'ur yomon taqvodor ekan, xo'jayin.

— Nima deпти?
— Ayta beraymi?
Mingboshi qichqirdi:
— Aytmay nima qilasan! Yashirarmiding?
— Umrida peshanasi sajda ko‘rmagan odamga qiz beramanmi?
deпти...

Mingboshi negadir «qah-qah» solib kuldi:
— Toza avliyo ekan-ku, — dedi. — Benamozga qiz bermas ekanmi? A, avliyosi tushkur-ey!
— Undan keyin, betavfiq, buzuq yuradigan, deпти...

Mingboshi yana «qah-qah» soldi:
— Sen bilan yurib, shunday bo‘ldim, betavfiq! Epla endi o‘zing. Men bir ish qilib olaman qizni! Menga bermay kimga beradi?

Shu choqqacha zo‘r berib allanarsalarni o‘ylamoqda bo‘lgan Miryoqub yana cho‘ntagidan soatini olib qaradi:

— Ho‘h-ho‘, — dedi, — o‘n ikkiga yaqinlashib qolibdi. Men ketdim, xo‘jayin.

O‘rnidan turdi.

— Shoshma, — dedi mingboshi, u ham o‘rnidan turgan edi.
— Maslahat nima bo‘ldi? Otasi bermaydi, deb keta beramanmi?

Miryoqub kavishini kiyib, sallasini boshiga qo‘ndirgach, mingboshiga yaqinlashdi.

— Xotirjam bo‘ling, xo‘jayin! — dedi. Ovozida jiddiylilik, keskinlik va o‘ziga ishonch to‘lib yotardi. — Otasini unatamiz, qiz sizniki bo‘ladi. Men o‘zim bajaraman bu ishni.

Mingboshi uning orqasiga bir-ikki marta urib qo‘yib:

— Senga ishonaman, senga, yo‘lvarsim, yo‘lvarsim! — dedi.

Mingboshi, kechaning chuqur jimligida kattakon kavishini taqillatib, esnay-esnay, ichkariga kirib borarkan, Miryoqub Mirzaboboni yoniga olib, darvoza darchasidan ko‘chaga chiqqan va qishloq itlarining to‘polon «vov»lari o‘rtasida keta turib, johil so‘fining qaysarligini sindirish uchun turli-tuman tadbirlar axtarardi...

CHO'LPON SHE'RIYATIDAN

MEN SHOIRMI?

«Tarjimayi holim»ga
Xayolim bir uchib ketib qoladir,
Men ham tizginini qo'yib beraman.
Zotan, qandoq qilib tutib turaman?
Eng nozik qilimga tegib qoladir.

Uchadir... uchadir... ming qabat ko'kni
Bir boshdan siypalab o'ta beradir.
Zerikmay, erinmay keta beradir,
Ba'zan hovliqtirib jinni yurakni...

Ko'lanka kabidir, o'tgan yeridan
So'ngra qarasangiz, bir nishon qolmas.
Yurgan yerlaridan oziq ham olmas,
Shunda zerikaman uning sayridan...

Bir zamon bir shirin joyga yetganda,
Nariga o'tmasdan to'xtab qoladir,
Oshiqdek yastanib, yotib oladir...
Shu choqda qiynalish boshlanar menda.

Chunki xayolimning ko'zlari bilan
Bir go'zal holatni ko'rib turaman,
Lazzatga g'arq bolib, o'lib turaman.
U holni borliqning so'zlari bilan.

Anglatish qo'limdan kelmay qoladir,
Shu choqda tillarim qaldirab ketib,
Borlig'im — yo'qlikka g'ildirab ketib
Demakki: «Boshqalar bilmay qoladir —

Shunday go'zallikni! Attang agar men,
Rassom bo'lsam edi, chizib berardim.

O'xshash nusxa bilan yozib berardim.
Shu o'jiz holimda shoirmanmi men?..»

Shoirlik menda bir soyami, deyman,
Har bir tushunchamni yoza olmagach,
Rassomdek xayolga chiza olmagach,
Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman...

Xayolim yuksakdan tushib ketadir,
Shoirlik chang bo'lib uchib ketadir...



YONG'IN

Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q,
Go'daklar nayza boshida...

(Xabar)

Nega mening qulog'imda tun va kun,
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?
Nega mening borlig'imga har o'yun
Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?

Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar,
Boyqushlarga buzuq ko'ksin ochganmi?
Ota-ona, tanish-bilish, o'rtoqlar
Yurtni tashlab, tog' va toshga qochganmi?

Shunday katta bir o'lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?

Podalarning yaylovida bo'rilar
Qonga to'ygach, uvlaylarmi ko'plashib,
Yiqiqlardan o'lkalarni to'plashib,
O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?

Tabiatning butun yomon tomoni,
Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?
Mo'minlarning oq vijdoni, imoni,
Sham so'nganday tinsizgina so'ndimi?

Qilichlarning tillarida qizil qon,
Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?
Yalang bola, yalang go'dak—ma'sum jon
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?

Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi?
«Madaniyat» istagiga qondimi?



VIJDON ERKI

Ay, tutqinlar, ay ezilgan,
Ay, qiynalgan, yo'qsil ellar,
Ay, umidsiz, ay chizilgan
Dor oldiga... Oppoq dillar!

Ay, bevalar, bechoralar,
Ay, bog'langan kishanlarga,
Ay, erk uchun ovoralar,
Ko'p yalinmang siz ularga!

Bo'rilardan omon kutmak —
Tentaklarning ishidir ul.
Har moneni hatlab o'tmak —
Turmushda eng to'g'ri bir yo'l!

Zulm oldida har bir narsa,
Ehtimolki bo'yin egar.
Agar zulm avjga kelsa,
Ko'k boshida yerga tegar.

Hayvonlarga, insonlarga
Zolim ega bo'lmay qolmas.
Faqat erkin vijdonlarga
Ega bo'lmoq — mumkin emas!



QO'ZG'ALISH

Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!
Ey! Ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan,
Ey! Bo'ynimga kishan solib, halokatga sudragan,
Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmagil, bas endi!

Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur,
Tomirimda qo'zg'alistning vahshiy qoni gupurdi.
Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi.
Yo bitarmi yoki sening saltanating buzilur!

Ey! Sen meni qul o'rnida ishlatguvchi afandi,
Titra, qo'rqkim, bog'liq quling bosh ko'targan kuch endi!



SOMON PARCHA

(«Kundalik daftarim»dan)

Topshirdim o'zimni muhit erkiga,
Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho'pidek oqib boraman.
Har amal, har ishni «haq» deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuk qilcha.

Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.
Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi,
Oqishning yo'liga soldim kuyimni.

Na isyon, na to‘lqin, na to‘fon, na o‘t!
Ko‘zimda og‘ir bir tilsim nuri bor.
Ay, o‘tli kechmishim, yuzingni berkit,
Senda shaytonlarning haqsiz zo‘ri bor.

Men endi xuddi bir somon parchasi,
Lekin zo‘r dengizning cheksiz qo‘ynida, —
Jimgina boradir kirsiz qo‘ynimda
Erkin ko‘priklarning allaqanchasi!

Kirmayman ko‘chaning boshi berkiga,
Chunki taslim bo‘ldim muhit erkiga...



XAZON

Kuz chog‘i... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog‘i tuproqlar.
So‘ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so‘ng damda yaproqlar.

Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur?
Yong‘oqqa yopishib, bir changal soldilar,
Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg‘onlar,
U qo‘pol tushingiz qorlarda yo‘q bo‘lsin!
Ey, menim bog‘imdan mevamni terg‘onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko‘mulsin!

Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur,
So‘ng damda yaproqlar qizorib yondilar?
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur,
Kuz chog‘i... tuproqlar gezarib qoldilar?



Bir tutam sochlaring mening qo'limda,
G'ijimlab o'paymi, yo tarab-yechay,
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,
Sir deb saqlayinmi yo yelga sochay.

Sochilgan sochingday sochilsa siring,
Anor yuzlaringni kimga tutasan?
O'zing-ku «ularida vafo yo'q!» deding,
Nimaga ularni tag'in kutasan?

Ochilgan qo'ynimda to'lg'angan taning
Ko'ngildan qilcha ham hid yetkazmasa,
Menga yaqinlashma, ay, tirik bo'sa!
«Sevdim» deganlaring yolg'ondir sening!..



BAHORNI SOG'INDIM...

Bahorni sog'indim, bahorni...
Ko'rganda yerlar, olamlar to'la qorni.
Qor... qor —
Zaharli ninalar kabi
Ko'zlarga qarab oqar...
Qaydasiz, qaydasiz
Latif siynalar kabi
Dalalarga singgan bahor?
Tala-tuz,
Ekin-tikin...
G'amgin-g'amgin
So'la boshladi.
Sarg'aygan yaproq,
Bo'yanib tuproq
O'laboshladi, o'la boshladi...


Yo‘q... o‘lim yo‘qdir!
Yolg‘iz bir o‘chib, bir so‘nish bordir.
Bir o‘chib, so‘nib... yana yonish bor.
Yana bahorlar,
Yana lolalar,
Yana siz, ey... erkin tilaklar!..



KUZ YOMG‘IRI

To‘kildi tomchilar...
Yaproqning yuzlari
Tomchiga o‘ptirib ho‘llandi,
Chuqurcha qo‘llandi...
Tomchini ko‘pdirib,
Betida o‘ynatdi.
Chuqurcha,
U — jindek ko‘lcha,
Tomchilar —
Ko‘klarning so‘zlari
Yerlarni qamchilar...





G'AFUR G'ULOM (1903 – 1966)

Falsafiy obrazlilik, umumbashariy ezguliklarning donishona va san'atkorona tarannumi shoir ijodining eng muhim fazilatlaridan sanaladi. Sharq va G'arb ilg'or madaniyatining chuqur bilimdoni bo'lgan G'afur G'ulom nasriy, publitsistik, tarjima asarlari bilan ham o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos ibratli iz qoldirdi.

G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDAN

VAQT

*(Menga soat taqdim etgan jiyanim mayor
Hamidulla Husan o'g'liga bagishlangan)*

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni
Kapalak umriga qiyos etgulik,
Ba'zida bir nafas olgulik muddat —
Ming yulduz so'nishi uchun etgulik.

Yashash soatining oltin kapkiri
Har borib kelishi — bir olam zamon.
Koinot shu damda o'z qo'rasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam — qimmat,
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'Ichamoq uchun
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.
Nurlar qadami-la chopgan sekundning
Barini tutolmas ayuhannos ovoz.

Yigit termuladi qizning ko'ziga,
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.

Yashash darbozasi ostonasidan,
Zarhal kitob kabi ochilur olam.
Tiriklik ko'rkidir mehnat, muhabbat,
Fursatdir qilguvchi aziz, mukarram.

Qatradan osmon aks etganidek,
Jahonday ma'nodor qorachig'imiz.
G'olib asrimizga quyoshdan mash'al,
Zamon qo'rasining so'nmas cho'g'imiz.

G'alaba amri-la mag'lub nemisning
Generali qo'l qo'ydi. Uch sekund faqat...
Shu mal'un imzoda odamlar o'qur
Million yil fashistning umriga la'nat.

Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.
Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek,
Diana ma'badin yoqmoq shart emas,
Ko'plarning baxtiga o'zlikni jamlab,
Shu ulug' binoga bir g'isht qo'ysak bas.

Har lahza zamonlar umridek uzun,
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.
Umrдан o'tajak har lahza uchun,
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.
Quyoshki falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

ALISHER

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning,
Na'rasiga tengdir aksi sadosi.
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda,
Buyuk Alisherning asriy nidosi.

Ona sutidan ham aziz narsa yo'q,
Bag'ir: forsiy — siyna, arabchada — adr.
Ko'krak suti bilan boqqan o'g'lini
Ona yurt xalqlari qilmoqdadir qadr.

Birinchi tamshangan sutning hurmatin
Butun hayot bo'yi oqlay olgan,
Tevarak olamga ko'rkini ko'rsatib,
Vatan va xalqini yo'qlay olgan.

Tirik odamlarga nasiba bo'lgan
Hayotiy farog'at, jahoniy alam;
Birisi ozgina erkalab o'tib,
Birisi bir umr ta'qib qilsa ham.

To'fon, quyunlarda yakka-yu yolg'iz,
Monolit, granit haykalday mag'rur,

Temurbek davlatin so‘nggi chog‘ida
Sarkash-u barhayot, bo‘ysunmas shuur —

Daraxshon yulduzlar sari o‘kirgan,
Bo‘ynida zanjiru, qalbi ozod sher,
Insoniy muhabbat mehri-la vafo,
Erk-u baxt timsoli ulug‘ Alisher.

Hirot tongotarin tasavvur qilib,
Yigitlik umringning kamolin ko‘rdim.
Qarigan chog‘laring qaro shomida
Xuroson o‘lkasin zavolin ko‘rdim.

Zavolni bilmagan porloq ijoding
Ma‘rifat mulkida bitmas xazina!
Insoniy kamolot katta yo‘lida
Bir poya yuksakroq oltindan zina.

O‘tmishdan besh yuz yil tarixchi uchun
Sinchiklab qarasa — kuni kechadek.
Yashovchan kishiga endigi ming yil
Erta qo‘liga kirgan o‘ljadek.

Besh yuz yil hurmatin saqlagan o‘zbek
Kecha tug‘ilding, deb qiladi faraz.
Yetuk kishilarni yana ming yillar
Xalq farzand ataydi, jondan, beg‘araz.

O‘zbek deb atalgan ozod ulusning
Otaxon shoiri, qadrli ustod.
Oshiqlar g‘azaling kuyga solganda,
Ma‘shuqlar dilining xonasi obod.

Biror shohbaytingni yoddosh tutmagan
Kattadir, kichikdir, bizda kishi yo‘q,

Oltin baldoqdagi nifrit ko‘z kabi
Asaring biz uchun bo‘ldi qorachug‘.

Ulug‘vor xalqimiz tarixda mashhur,
Guvohlik berolur bunga Gerodot.
O‘zbekni, tojikni qabila atab,
Biror lord qilolmas o‘tmishni unut.

Sharqimiz chumoli uya emasdir,
Birin-birovidan tanib bo‘lmasa,
Sho‘rlilik boybachchalar, tolingiz sho‘r,
Afsuski, tarixdan tonib bo‘lmasa!..

Ne-ne tarixlarni boshdan o‘tkazib,
Talay jafolarni tortgan eski Sharq —
Ne-ne daholarni tarbiyat qilib,
Oftobday jahonni nurga qildi g‘arq.

Alisher Mushtariy yulduzi kabi
O‘zbek osmonida bolqigan chog‘i
Yana bir muhtaram o‘g‘il ko‘rganday,
Kattaroq ochildi olam quchog‘i.

Elektr barchaning uyin yoritur
Va tuz totimida milliy farq yo‘q.
Ma‘rifat insonning sherik xislati,
Vatani fazodir bo‘shalarkan o‘q.

Tirik Farhodlarni tanimak bo‘lib,
Oliy yurtimizga qilsangiz safar,
Bu yerda har bitta taroshlangan tosh
Yuksak umidlardan beradi xabar.

Mehnatda qahramon, janglarda botir,
Sevmakda vafoli, do‘stlikda mahkam —

Alisher orzusi bo'lgan avlodmiz,
Asrimiz — ko'rkimiz, asrimiz ko'rkam.

Yuksak tog' oralab o'kirgan sherning
Na'rasiga tengdir aksi sadosi,
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda
Ulug' Alisherning asriy nidosi.

SEN YETIM EMASSAN

*(Ikkinchi jahon urushining ota-onasiz
qolgan go'daklariga)*

Sen yetim emassan,
Tinchlan, jigarim,
Quyoshday mehribon
Vataning — onang,
Zaminday vazmin-u
Mehnatkash, mushfiq,
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor — otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasi,
Bu yerda
 na g'urbat,
 na ofat,
 na g'am.

Bunda bor:
 harorat,
 muhabbat,
 shafqat
Va mehnat nonini ko'ramiz baham.

Sen etim emassan,
Uxla, jigarim.

Bu yerda muzlagan
Ajdar halqumli,
Vahshat to‘plarining
Qahqahasi yo‘q.
Bu yerda —
odamzod shaklida yurgan
la’nati devlarning
Manfur, yuqumli,
Maraz namoyishi
Topolmas huquq.
Ulug‘ jang kunidir,
Jangki, beomon.
Lashkar degan axir
Bexatar bo‘lmas.
Otang o‘lgan bo‘lsa
Qayg‘urma, qo‘zim,
Ko‘zim usti
Minnating boshimga durra,
Shu sog‘lom havoda
Salomat-omon,
Xo‘rsinmay, erkinlab
Ola ber nafas.
Ey ulug‘ naslimning
Yuragi, joni,
Kiprigingga ilinmas
Yig‘idan zarra.

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Yetimlik nimadir —
Bizlardan so‘ra.
O‘ninchi yillarning
Sargardonligi;
Isitma aralash

Qo‘rqinch tush kabi,
Xayol ko‘zgusidan
O‘chmaydi sira.
Men yetim o‘tganman,
Oh, u yetimlik...
Voy bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga
Bir mehribon qo‘l,
Bir og‘iz shirin so‘z
Nondek arzanda.
Men odam edim-ku...
Inson farzandi...

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Ko‘zimga uyquning
Mudroq ovchisi
To‘rin solmasdan,
(Birinchi gudokka
Ikki soat bor).
Otalik hissining
Bebaho, laziz
To‘lqinlari ichra
G‘arq bo‘lib ketib,
Aziz boshing ustida
Telmurmakdaman.

Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.

Nega cho‘chib tushding?
Murg‘ak tasavvur,
Go‘dak xayolingga
Nimalar keldi?

Balki Odess dahshati,
Kerch fojiasi,
Yovvoyi mahluqlar,
Qonxo‘r vahshiylar...
Mammasi kesilgan
Sho‘rlik onangning,
Pajmurda gavdasi
Ko‘zing o‘ngida,
Butun dahshati-la
Aks etar endi?
Onang xo‘rlandimi,
Otang o‘ldimi,
Sen yetim qoldingmi,
Qayg‘irma, qo‘zim,
Ko‘zim usti,
Minnating boshimga durra.
Ota-onasining
Tayini ham yo‘q,
Sut ko‘r qilgur, haromi
Gitler oqpadar —
Farzandning qadrini
Qayerdan bilsin?
Bir qo‘ng‘iz mo‘ylovli,
Baroq soch mal‘un,
Jigarrang bir mundir
Istagi uchun
Nahotki yerimiz
Chappa aylanib,
Nahotki daryolar
Oqar teskari.
Nahotki odamlar
Kezar darbadar?..
Axir, juda yaqin

Qonli intiqom,
Alhazar,
Alhazar,
Ko'pirar
Tomirlarda qon
Va portlar hademay
Bu o'tli vulqon.
Sen yetim emassan,
Uxla, jigarim.
Sen kulayotibsan,
Balki bu kulgi,
So'nggi oylar ichra
Birinchi chechak.
La'li labingdagi
G'uncha tabassum,
Albat toleingga
Muhr bo'ladi,
Va bunda aks etar
Porloq kelajak.
Tong yaqin,
tong yaqin,
oppoq tong yaqin.
Bir nafas orom ol,
Uxla, jigarim.
Oq oydin
tong oldi,
Uxlamoqdasen.
Lablaring shivirlar,
Izlamoqdalar...
Balki bir erkalash,
Bir ona bo'sa.
Ulug' oilaning
go'dak farzandi,
bilib qo'y endi:

Sen tezda ulg'ayib,
Olam kezasan,
Manglayda porlagan
Toleing — quyosh,
Butun yer yuzini
Qilur munavvar.
Haqorat yemrilur,
Zulm yanchilur,
Jahonda bo'lurmiz
Ozod, muzaffar.
Sen yetim emassan,
Mening jigarim!

SOG'INISH

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh,

Uzilgan bir kiprik abad yo'qolmas,
Shunchalar mustahkam xonai xurshid.
Bugun sabza bo'ldi qishdagi nafas,
Hozir qonda kezar ertagi umid.

Xoki anjir tugab, qovun g'arq pishgan,
Baxtli tong otar chog' uni kuzatdim.
Bir mal'un gulshanga qadam qo'ymishkan,
Joni bir jondoshlar qolarmidi jim.

Unda yetuk edi meros mard g'urur,
Ostonani o'pib, qasamyod qildi.
Ukalarin erkalab o'zimday mag'zur,
Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi.

Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush
Albatta yetadi o'zin boshiga.
O'g'lim omon keladi, g'olib, muzaffar,
Gard ham qo'ndirmasdan qora qoshiga.

Ne qilsa otamen, meros hissiyot...
Jondan sog'inishga uning haqqi bor.
Kutaman, uzoqdan ko'rinsa bir ot,
Kelayapti, deyman ko'rinsa g'ubor.

Bahor novdasida bo'rtgan har kurtak
Sog'ingan ko'ngilga berar tasalli.
Ko'chatlar qomati eslatganidak,
Nafasin ufurar tong otar yeli.

Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni — allakimimni.
Doimo umidim bardam bo'lsa ham,
Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

Balki bir g'alat o'q, yo xavf-u xatar
Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...
Yo'q, u o'lmas, qadami olam yaratar,
Hayotiy bu olam siz-u bizga xos.

Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chiqdi oftob.
Loyqa xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.

O'rog'-u gulqaychi, istak ko'tarib,
Hovrimni bosishga boqqa jo'nadim.
Hasharchi qo'shni qiz — uning sevgani,
Ma'yus bosar edi orqamdan odim.

Bog'da sarvinozim yo'q edi garchand,
Ko'makchim arg'uvon yoring Nafisa.
Seni sog'inganda qildim gul payvand,
Bu bahordan hayot olardi bo'sa.

Dur bo'lib taqilur yorning bo'yniga,
Sadafday ko'zimda behuda bu yosh.
Ikkoving ikki yosh, labing labiga
Qo'yar. Vasvasamdan kuladi quyosh.

Sizlarni, keldi, deb eshitgan kuni
O'zing to'qib ketgan katta savatda,
To'latib shaftoli uzib chiqaman,
G'alaba kunlari yaqin albatta.


Yayov, ko'ksim ochiq, boshda shaftolu,
Xuddi mo'ylabingdek mayin tuki bor.
Har bitta shaftolu misoli kulgu,
Shafaqday nimpushti, sarin, beg'ubor.

Suyganing labida reza ter kabi
Unda titrab turar sabuhiy¹ shabnam.
Munchalik mazani topa olmaydi
Uyquda tamshangan chaqaloqlar ham.

E o'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang danagin saqla.
Shu meros bog'ingni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosiy haq-la.

Bog'da tovus kabi xiromon bo'lib,
Umid danagini birga ekingiz.
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz.

¹ Sabuhiy – ertalabki, tonggi, sahardagi.



OYBEK
(1905–1968)

Hassos shoir, mohir romannavis, yetuk olim, dunyo soʻz sanʼati durdonalarining ilk tarjimonlaridan. Lirik sheʼrlarida inson va hayot mohiyati, tabiat va elu-yurtga muhabbat, tarix voqealari va uning idroki juda teran, jozibador tarannum etilgan. Bir qator dostonlarning, «Qutlugʻ qon», «Navoiy», «Ulugʻ yoʻl», «Bolalik», «Nur qidirib» singari epik asarlarning muallifi. Oybek — «prozada shoir-u poeziyada prozaik» (Hamid Olimjon). Lirikadagi izhor — ifodalarining yirik nasriy asarlari uchun turtki — asos boʻlganligiga koʻra oʻzbek adabiyoti tarixida asarlari oʻziga xos adabiy merosdir.

«NAVOIY»
ROMANIDAN

IKKINCHI BOBDAN

... Alisher yashagan uyda tantanali ruh hukm surardi. Mulozimlar hurmatli mudarris bilan tanilmagan shogirdni toʻrdagi katta uyga taklif etdilar. Qip-qizil gilamlar yongan, devorlari, shipi naqshdor, tokchalari ganchdan ajoyib gullar blan ishlangan katta uyda bir talay odam oʻtirgan edi. Mavlono Fasihiddinni toʻrga oʻtqazdilar.

Sultonmurod eshik tagiga tiz choʻkdi. Bu yerdagi odamlarning aksari Sultonmurodga tanish boʻlgan va turli ilmlarda nom chiqargan olimlar, ham Hirotning oldingi shoirlari edi. Bulardan tashqari bir necha yuqori mansabdorlar qiymatbaho toʻnlarga belanib, ulugʻvorlik blan oʻtirishar, darveshnamo, tashqi takalluf-

larga begona ba'zi shoirlarning qiliqlariga, atvorlariga g'ijinganday ko'rindilar. Sul-tonmurod majlisdagilarning gapidan Alisherning hali saroyda ekanini fahmladi.

Gangur-gungur suhbatga quloq solib o'tirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, kimdir shoirning kelganidan xabar berdi. Sul-tonmurod darhol o'zini ayvonga oldi. Shu vaqtda uydagilarning aksari, shu jumladan, mavlono Fasihiddin ham chiqdi. Hammaning ko'zi unda-munda daraxtlar o'sgan katta hovlida edi. Zaryoqa to'n kiygan, mag'rur bir necha saroy odamlari orasida Sul-tonmurod shoirni xuddi ilgari ko'rgandek darrov tanib oldi, ko'zlari cheksiz quvonch bilan yonib ketdi. Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga¹ silliq o'ralgan, ko'rkamgina salla.

Egnida — ichidan odmi shohi to'n, ustidan yalang qo'ng'ir movut chakman... O'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, Navoiy yoshi ulug'roqdek ko'rindi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xush-bichim miyiq-lari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi.

Navoiy lablarining uchidagi, ko'zlaridagi jiddiy tabassum bilan birin-ketin ko'risha boshladi. Mavlono Fasihiddin shoir bilan ko'rishib, hayajon bilan samimiy tabriklagandan so'ng, barmog'i bilan Sul-tonmurodga ishora qildi. Sul-tonmurodning hayajondan rangi bir oz oqardi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib shoirga yaqin keldi. Bir oz enkayib, uning qo'lini siqdi-da, bir qadam orqaga tashlandi. — Kaminaning shogirdlaridan, — dedi iftixor bilan Fasihiddin, — nodir iste'dod. Zamonamizning Abu Ali Sinosi bo'lishiga kaminada aslo shubha yo'q.

— Hurmatli ustodim kamina shogirdlari haqida g'oyat mubolig'a etdilar. — Qo'llarini qovushtirgan holda kulgansimon

¹ *Taqya* — do'ppi, bosh kiyimi.

dedi Sultonmurod. Navoiy do‘stona tabassum va iliqlik bilan Sultonmurodga murojaat etib, uning qayerlik ekani, qanday ilmlarni o‘tgani va hokazo haqida surishtirdi. Sultonmurod haqiqatni yashirmadi. O‘zi chuqur egallagan ilmlarni bir qadar kamtarinlik bilan aytib berdi. Bu vaqtda atrofga to‘plangan va Sultonmurodni taniydigan ba‘zi mudarrislar ham uning to‘g‘risida biron nima deyishdi.

— Himmat va g‘ayratni aslo qo‘ldan bermang,— dedi Navoiy suyunib.— El, ulus sizdek zotlarga g‘oyat muhtojdir. Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog‘iga chuqur tomir yoydirmog‘imiz va undan mo‘l hosil olmog‘imiz kerak. Mana endi oshino bo‘ldik. Umid qilamenki, bizni hamisha yo‘qlab turursiz.

— Iltifotingiz uchun qalbidan tashakkur etamen,— dedi Sultonmurod titroq ovoz bilan,— sizning ma‘rifat dar‘yongizdan bahrmand bo‘lmoq qadar ulug‘ saodatni tasavvur etmoq imkon-sizdir.

Navoiy Sultonmurodni birga olib uyga kirdi, yuqoriroqqa o‘tirishga taklif etsa ham, Sultonmurod uzr tilab, pastroqqa o‘tirdi. Navoiyning qalbini tushunmagan ba‘zi odamlarda hayrat sezilar edi. Ular, bu olacha to‘nli, faqir yosh mullabachchaga bu qadar diqqat va iltifotning nima keragi bor ekan, deb o‘ylar edilar shekilli. Sultonmurod ba‘zi ko‘zlarda shu ma‘noni ochiq sezarkan, uning tasavvurida Navoiyning siymosi benihoyat yuksaldi, unga bo‘lgan muhabbat uchun hech chegara yo‘q edi.

Muhrdor shoir uy sohibi bo‘lganlikdanmi yoki kamtarlikdan, hammadan pastda o‘tirdi. U dastlab Hirotdagi turli madrasalarning ahvoli, talabalar va mudarrislarining tirikchiliklari, vaqf¹ ishlari haqida gap ochdi. U kishilarning so‘zlariga diqqat bilan quloq soldi. Keyin so‘nggi yillarda Xurosonda vujudga kelgan katta, kichik ilmiy asarlar, devonlar to‘g‘risida mufassal ma‘lumot olishga tirishdi. Qandaydir nomsiz bir shoir tarafidan aytilgan bir ruboiy,

¹ *Vaqf* — masjid, madrasa va shu kabilar ta‘minoti uchun belgilab qo‘yilgan daromadli do‘kon, Saroy, tegirmon va h.k.

bir bayt, yoki bir muammo ustida soʻz ketgan taqdirda ham, Navoiy jiddiy surishtirdi. Hammaning qulfi dili ochilgandek, majlis qizib ketdi.

Sultonmurod, goʻyo Navoiyni ikkinchi qayta koʻrish unga nasib boʻlmasligiga ishonganday, undan koʻzini uzmas edi. U Navoiyning siyosida kamtarlik bilan baravar, kibrdan, manmanlikdan xoli boʻlgan chin, ulugʻvor bir gʻurur, qoʻllarining harakatida, soʻzlarkan lablarining qimirlashida, tabassumida, ovozida qandaydir mayinlik, noziklik, ingichka ohang sezar edi.

Mulozimlar dasturxon yozdilar. Mehmonlarga har navʼ shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar juda moʻl-koʻl tortildi. Keyin chiroyli chinni kosalarda shoʻrva, laganlarda et va yumshoq nonlar keltirildi.

Ziyofatdan keyin majlisning keksasi fотиha oʻqib, uy sohibini duo qildi, majlis muhrdor bilan xoʻshlashdi.

II

Tokchada yongan shamning nuri va qiya ochiq darichadan tushgan oydinlik gilamlarning gullari ustida jivillab, xayoliy, mayin manzaralar, oʻyinlar yasar, oʻqtin-oʻqtin esgan shamol sham yolqinini lipillatar, pastgina kursi ustida ochiq turgan qalin, katta kitobning varaqlarini shildiratar va tanburda shoir chalayotgan kuyning sehriga berilganday jimgina tinglar edi... musiqini sherʼdan ayirmagan Navoiy goʻzal sadolar ilmini chuqur bilar va chuqur sevar edi. Koʻzlari yarim yumuq holda shoir zavq bilan chertar, qoʻllar hayotning, koʻngilning pinhon ohangini sadolarning fusunkor tili bilan sayratar edi...

Shoir yengil bir soʻlish olib, tanburni tokchaga tirab qoʻydi. Barmogʻidan «noxan»ni chiqardi. Daricha yoniga oʻtirdi. Hovlida shamol bilan oʻynashgan daraxtlarning yengil kuyidan boshqa sado yoʻq. Shoir oʻyga toldi. Mana, u yana Hirotda, oʻz uyida. Balki endi butun umr bu suyuqli shaharda muqim boʻlib qolar... Kim biladi, taqdirning xohishi, jilvasi yana qanday kutilmagan oʻyinlar koʻrsatar ekan!

Bu yerda endi har bir narsa unga yaqin, tanish, mehribondek ko‘rinadi. Ilgari bunday tuyilmas edi. Balki marhum ota va onaning ruhi, mehri bu narsalarda aksini qoldirgandir. Bir vaqt G‘iyosiddin Kichkina¹ xuddi shu yerda, shu daricha ostida o‘tirib, uni erkalat-masmidi? To‘rt yashar vaqtida, shoir g‘ira-shira bazo‘r xotirlaydi. Mirzo Qosim Anvariyni² baytlarini biyron tili bilan o‘qib berarkan, ota qanday quvonardi! Yaxshi odam edi u. Sodda, to‘g‘riso‘z, insofli, rahmdil odam... Marhuma onachi! U o‘z o‘rtoqlarining onalarini mehr va shafqatda hech vaqt o‘z onasi bilan tenglashtirmas edi. Sodda, bolalari uchun kuyunchak, qo‘ni-qo‘shnilar, aqrabolar bilan hamisha xushmuomila ayol. Besh-olti yoshda maktabidan ozod bo‘lib yugurib kelarkan, darrov bag‘riga bosar, sut, patirnon va shirinliklar berardi. Maktabda muhtaram qari domla o‘rgatgan saboqlarni yoddan o‘qib berarkan, suyunar, o‘g‘lining kattakon mullo bo‘lishini orzu qilardi.

Shohruh Mirzo vafotidan keyin, Xurosonda ro‘y bergan siyosiy tartibsizliklar zamonida, bir ko‘p oilalar bilan birga jonlarini hovuchlab Iroqqa qochishlari, yo‘ldagi mashaqqatlar, tomoshalar, xursandchiliklar, Sharafiddin Ali Yazdiy³ bilan uchrashuv, ayniqsa, safardan qaytishda kechasi otda mudroq bosib, yerga yiqilib tushishi, ertalab uyg‘onib qarasa, bepoyon, kimsasiz taqir sahroda yolg‘iz yotganligi, atrofda qang‘ib, o‘t chimtib yurgan yuvosh otni tutib bazo‘r minib olish, yo‘l topolmaslik, qizg‘in cho‘lda tashnalik, nihoyat, karvon qo‘ngan yerga yetib kelganda, g‘amdan o‘layozgan ota-onaning xursandchiligi va hokazo xotiralar bir-biriga ulanib ko‘z oldidan o‘taberdi... Husayn Boyqaro bilan birga maktabda o‘qirkan, sakkiz-to‘qqiz yoshida Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr»ini mutolaa qilar, uning sirli, otashin fikrlariga berilib ketib, nihoyat, bora-bora o‘yin-kulgini, uyquni,

¹ G‘iyosiddin Kichkina — Navoiyning otasi.

² Mirzo Qosim Anvari — u zamonning katta shoirlaridan.

³ Sharafiddin Ali Yazdiy — mashhur tarixchi. Navoiy olti yoshida bu kishi bilan uchrashgan.

⁴ «Mantiq ut-tayr» — «qushlar tili».

taomni ham unutgani, bechora ota-ona bu ahvoldan qo‘rqib, noiloj, shu kitobni man’ etib, qo‘lidan tortib olib yashirganlari, kitobni boshdan-oyoq yod olgani uchun baribir takrorlay bergani — shuning singari ajoyib, shirin, achchig‘ xotiralarni eslarkan, ko‘ksini qandaydir hislar to‘lqinidan bo‘shatmoq uchun xo‘rsinib qo‘ydi. Keyin ilk she‘r mashqlari, ilk ijodning azobi va shirin hayajonlarini qaytadan yashatganday bo‘ldi. Ilm, san’atni sevgan otaning shoir o‘g‘il bilan quvonishi, yirik shoirlar bir og‘izdan maqtab, tashviq etishlari, o‘ylab-o‘ylab, «Navoiy» va «Foniy» taxalluslarini topishi, keksa mavlono Lutfiy bilan uchrashuv va uning kutilmagan darajada baho berishi — bularni unutmoq mumkinmi?! Ishq bilan, hayajon bilan yurakka, miyaga naqshlangan voqealar, onlar...

G‘ariblik, musofirlik yillari... Mashhaddagi yetti-sakkiz yillik hayot — xarob baq‘alar¹, sovuq, tor madrasa hujralarida kunduzlari quyoshga chiqib havo olmay, tunlari mijja qoqmay muttasil kitob ko‘rish... Kitoblar orqali asrlar bilan, ming yillar bilan, qadim faylasuflari, olimlari, shoirlari bilan suhbatlashish. Ustodlari, sheriklari, uchrashdigi ulug‘ odamlar suhbatlaridan bahramand bo‘lgani yuzlarcha donishmandlar — to so‘nggi ustodi samarqandli Xo‘ja Fazlillo Abullaysga qadar hammasini esladi. Barchasidan mamnun edi. Fikran yana ular bilan gaplashmoqqa boshladi.

Tashqarida oyoq tovushi eshitildi. Shoir boshini birdan ko‘tardi. Eshik «g‘irch» etib ochildi-da, ruxsat so‘rab ukasi Darveshali kirdi. Bu o‘qimishli, tavozi‘li odam bo‘lsa ham, bir ko‘p jihatlardan akasiga o‘xshamasdi. Havoiy hayotga berilgan, beparvo, uquvsizroq edi. Navoiy uning nimmast suzilgan ko‘zlariga qaradi, kinoya bilan jilmaydi.

— So‘zlang, inim, yurtda qanday xabarlar bor?

— Shu kunlarda shinniy va sunniy² g‘ovg‘asidan o‘zga muhim hodisani bilmaymen,— javob berdi Darveshali asta o‘tirib,— har yerda sunniylar norozilik bildirmoqdalar:

¹ *Baq‘alar* — kambag‘al talabalar, musofirlar yashaydigan hujralar.

² *Shinniy va sunniy* — Islom dinidagi ikki oqim.

«Podsho shi'iy, masjidlarda imomlar shi'iy... Bunga bardosh etib bo'ladimi!» deydilar.

— Taassufki,— dedi Navoiy g'ijinib, boshini tebratib,— bu ma'nosiz g'ovg'a podshoning farmoni bilan ro'y berdi. Xalq orasiga tafriqa¹ solmoqdan o'zga ish yo'qmi, ajabo? Davlatning moliyasi ne holda, qo'shin ne ahvolda, madrasalarda tolibi ilmlar, olim va fozillarning tirikchiliklari qanday, har nav' amaldorlar poytaxtda, tumanlarda, viloyatlarda xalqqa ne turda muomila qilurlar; dehqonning ro'zg'ori nechik, kosibning kori nechik — mana bu vazifalarni aql va idrok ko'zi bilan ko'rib, tadbir va salohiyat bilan hal qilmoq kerak edi. Inim, har qanday mazhab janjallaridan yuqori turmoq lozim. Yagona husn mutloq mavjuddir. Quyoshning nurida, dengizlarning jo'shqinida, tog'larning muazzam jussasida va yaproqlarning titrashida uning jamoli jilvasini ko'ramiz. Ko'ngilni uning ishq, yodi bilan to'ldirmoq kerak.

Darveshali shoir fikrining ildizlariga yetmoqqa tirishib, quyi solgan boshini asta chayqagan holda sukut etdi. O'z og'asiga va uning fikrlariga chuqur ehtirom bilan qarar edi u.

— Bu diniy nizolar ulg'ayib ketmasa edi...— dedi nihoyat Darveshali.

— Xayr, biz bu dag'dag'alarni o'rtadan ko'tarishga harakat qilurmiz, — dedi Navoiy qat'iy ohang bilan. — Garchi bu mazhablarning birini o'zgasidan afzal ko'rmasak ham, ulusning birligini e'tiborga olurmiz. Inim, dun'yoda kitob o'qimoqdan, tafakkurdan, she'r aytmoqdan o'zga zavq baxsh mashg'ulot yo'qdir. Tabiatim ko'proq bu tomonga moyil edi. Sokin bir maskanda yashab, bu zavq dar'yosida suzmoqchi edim. Lekin, menga, ma'lumingiz, davlatda vazifa berdilar... Yolg'iz el va ulus manfaatini nazarga olib, mansabni qabul etdim. Bu muborak yurtda qilinadigan ishlar benihoyat ko'pdir. Bu ishlarning har biriga elimiz asrlardan beri tashnadir. Masalan, bir kutubxona yaratmoq

¹ *Tafriqa* — ayirish, bo'lish.

xayolim bor... Siz endi «*drug'ay kutubxonaiy humoyun*»dirsiz¹, sizga taalluqli bo'lganidan, aytib o'tmoq istaymen.

— Har bir niyatingiz uchun qul kabi xizmat qilurmen,— qo'lini ko'ksiga qo'yib dedi Darveshali.

— Biz shunday kutubxona bino qilaylikki, — shavq bilan davom etdi Navoiy, — butun el qoshida manzur va mu'tabar bo'lsin. Jamiki ulum va funundaki, azmanaiy qadimdan² to shu damgacha odamzodning fikr gavhariy ijod etmishdir va kitob suratiga chekilmishdir, barchasi bizning kutubxona xazinasini ziynatlasin. Faqirning xolis niyati shulki, bu yerda Xurosonning va o'zga mamlakati islomning barcha ulamo, fuzalo, shuarosi kitoblardan istifoda qilg'ay. Bu yerda falsafaning Suqrot, Aflotun va Arastulari, hikmat va riyoziyotning Fipog'urslari³, ilm hay'atning⁴ Ulug'beklari, she'ring Firdavsiy va Nizomiy Ganjaviylari har qaysilari o'z sohalarida osoyishta mashg'ulotda bo'lg'aylar. Ilmning ravnaqiga⁵ harakat qilg'ay, fikrning yangi-yangi xazinalarini ixtiro' etkaylar. Ular kashf etgan haqiqat quyoshlari yurtimiz samosini nurga to'ldirsa, maqsadimizga yetgan bo'lurmiz. Darveshali, ko'nglingiz har chog' el muhabbati bilan labolab to'lsin, har ishga bel bog'lar ekansiz, elning manfaat va zaruriyatini o'zingiz uchun bir mezon, deb biling...

— Albatta shunday bo'lmoq kerak,— dedi Darveshali, siyrakroq soqolini qashib qo'yib, — elga xizmat qilgan kishining e'tibori, qadri-qiymati oshar...

Navoiy ukasiga ma'nodor tikildi.

— Yaxshilik bilan nom qoldirmoqning o'zi ulug' mukofotdir,— dedi u keskin ravishda. — Himmatingiz samosini hargiz bulut qoplamasin, inim.

¹ «*Drug'ay kutubxonaiy humoyun*» — podsho kutubxonasining boshlig'i.

² *Azmanaiy qadimdan* — eski zamonlardan.

³ *Fipog'urslari* — qadim yunon olimlari.

⁴ Ilm hay'at — astronomiya.

⁵ *Ravnaq* — o'sish, rivojlanish.

Darveshali uyalganday ko‘zlarini yashirishga tirishdi. Keyin gapni kutubxonaga burdi. Birinchi galda bir imorat oliy qurmoq kerakligi haqida so‘zladi. Navoiy tokchadagi shamga qaradi, o‘rnidan qo‘zg‘olarkan, Darveshali: «Men... Men...» deb dik etib turdi-da, shamdonni olib o‘rtaga qo‘ydi va qaychi bilan sham uchini avaylab kesdi.

Shoir bir taxta shaldirama qog‘oz olib, ochiq, qalin kitob ustiga qo‘ydi. Qalamni chiroyli mu‘jaz mis siyohdonga botirdi-da qog‘oz ustida juda ehtiyot bilan, asta yurita boshladi. Bir ozdan keyin Darveshali oldinga surildi, ko‘zlarini katta ochib, qog‘ozga, akasining dam to‘xtab, dam yengil harakat qilgan nozik qo‘llariga qarab turdi. Qog‘oz g‘alati chiziqlar bilan to‘la boshladi. Nihoyat, Navoiy qalamni qo‘ydi, qaddini rostladi, ukasiga tabassum bilan boqdi.



— Mana bu ashkolga¹ diqqat eting,—dedi u qog‘ozni (Darveshali tomon surib, — biz me‘mori san‘atda²) sohib vuquf³ emasmiz. Bu sohaning ustod komili⁴, albatta, o‘z so‘zini aytar, lekin biz o‘ylagan imorat, taxminan, shu shaklda bo‘lishi kerak.

Qog‘ozdagi shakl binoning tarxi⁵ edi. Darveshali qiziqib tamosha qilarkan, bu muazzam bino butun tafsiloti bilan

¹ Ashkol — shakllar.

² Me‘mori san‘at — go‘zal binolar qurish san‘ati.

³ Vuquf — ma‘lumot, bilim sohibi.

⁴ Komili — mukammal biluvchi ustod.

⁵ Binoning tarxi — bino proyeksi, plani.

shoirning ko‘z oldida gavdalangandek, Navoiy uning ichki tuzilishi, tashqi ko‘rinishi, naqshlari, bo‘yoqlariga qadar tushuntirdi. Darveshalining har bir savoliga, go‘yo shu qabildagi binoni biron joyda ko‘rib, maqbul topgan kabi, to‘la javob berar edi. Keyin Darveshali bilan kitoblar yig‘ish to‘g‘risida so‘zlashdi. Qiymatli kitoblarning nusxalarini ko‘paytirmoq uchun Hirotidagi eng yaxshi kotiblar va muqova ustalari haqida surishtirdi.

Hirot xo‘rozlari kechaning sukutini ikkinchi topqir buzganda, Darveshali ko‘zlarini uqalab, o‘z xonasiga chiqdi. Shoir o‘zini hali tetik va yengil sezar edi. Kechaning mayin sukunatiga sho‘ng‘ib bir nafas xayol surdi, bir parcha toza qog‘ozni olib, qalamni ushlagan holda o‘yladi. So‘zlar fikrning oltin ipiga terilib, qofiyalar bir-birini imlab, inoq qo‘l berisha boshladilar. Qalam qog‘ozning silliq betida yurib ketdi:

*Yillar tutubon shayx moqomotiga go‘sh,
Ne ko‘ngluma zavq yetti, ne jonima hush.
Jonimg‘a navo yetti-yu, ko‘nglumg‘a xurush,
Bir jur‘a bila mug‘bachaiy bodafurush.*

«Ruboiy»ni ichida o‘qidi, yuzini tabassum qopladi. Siyoh qurigandan keyin qog‘ozni usti o‘yma gulli charm juzdonga¹ tiqib, arabcha qalin kitobni varaqlashga boshladi.

Ertasi quyosh yoyilganda eshikka chiqish bilan, jussasi kichikroq bo‘lsa ham, semiz, yuvosh, yo‘rg‘a jiyron otni xizmatkor tutdi. Shoir uzangiga oyoq qo‘yib, o‘zini egarga olishga ulgurmasdanoq ot asta yurib ketdi.

Bozor kuni bo‘lganidan ko‘chalarda qatnov zo‘r edi. Ot, eshak mingan dehqonlar, qo‘ng‘iroqlarini jaranglatib solmoqlangan qator tuyalar, kalava to‘la savatlarini boshlariga qo‘ygan kampirlar, matolarini qo‘ltiqlagan to‘quvchilar va hokazo qurama olomon bozor tomonga oqardi.

¹ Juzdon — papka.

Shoir «Xiyobon» ko‘chasini o‘tib, «Bog‘ zog‘on»ning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar muhurdorga salom berib, darrov otning jilovidan ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da «Bog‘ zog‘on»ga kirdi. Bu — turli qasrlar, ko‘shklar va boshqa go‘zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g‘oyat katta bog‘ edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan olachalpoq yo‘ldan borib, bir necha tanob joyni ishg‘ol etgan katta gulzorga chiqdi. Bu yerga go‘yo butun dunyoning gullari to‘plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko‘zlarni qamashtirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek to‘xtab, zavq bilan tamosho qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga — devorlari, ustunlari, eshiklari naqqoshlar qo‘li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan binoga tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o‘ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham bir xonaga kirdi. Bu yerda uni do‘sti Xo‘ja Afzal qarshi oldi. Bu — past bo‘yli, tiyrak ko‘zli, xush muomila, qariyb o‘zi bilan tengdosh kishi edi. Xo‘ja Afzal daftardorlik, hisob-kitob ishlariga juda mohir bo‘lish bilan baravar, davlat ishlarida tadbirli, vijdonli bir mansabdor edi.

— Ko‘zim sizda edi, marhamat qiling, o‘rnidan turib joy ko‘rsatdi Xo‘ja Afzal. — Hali devonda hech kim yo‘q. G‘olibo, Xoqon hazratlari hanuz haram doirasidan chiqmagan bo‘lsalar kerak.

Navoiy o‘tirib, do‘stining shaxsiy ishlari haqida so‘ragandan keyin, avvalgi suhbatlarda bo‘lganidek, gap yana davlatga, xalqqa doir umumiy masalalar sohasiga ko‘chdi. Navoiy adolatli davlatning asosiy sifatlari nimalardan iborat bo‘lishi kerakligi, podshoning xalqqa va xalqning podshoga munosabati, vazirlardan va beklardan tortib, to eng kichik amaldorgacha har bir ish uchun qonun oldida mas‘ul bo‘lishi, xalqning tirikchiligini yaxshilamoq uchun lozim bo‘lgan choralar va hokazo to‘g‘risida gapirdi. Butun bu masalalar ustida Xo‘ja Afzal shoirning fikrini quvvatladi, ham bu yaxshi niyatlarni hayotda ko‘rmoqni orzu qildi.

— Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, — dedi Navoiy shavqlanib, — oʻzga xalqlar ibrat ola bilsinlar... Tokaygacha insonlar vahshat sahrosida qolurlar! Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharafli, sof, goʻzal yashamogʻi kerak. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin.

— Gʻoyat goʻzal fikr, gʻoyat goʻzal niyat.— Taʼkidladi Xoʻja Afzal. — Lekin bu mamlakatda mansabdorlar toifasining xalqqa jabr-zulm qilmogʻi bir odat va anʼana holiga kirib qolgan... Mana bu zoʻr balo!

— Har yerda jabrning tigʻini sindirmoq zarur.— Qatʼiyat bilan dedi Navoiy.— Zolimlar bilan murosqa qilmoq jinoyatdir. Mabodo oʻzimiz sindira olmasak, podshoga arz etmogʻimiz, uni aqlga, insofqa daʼvat qilmogʻimiz kerak.

Mulozim kirib Navoiyga podsho uni yoʻqlayotganini bildirdi. Shoir tashqari chiqib, oʻng yoqdagi qirq marmar ustunli qasrga tomon yurdi. Yeriga guldor chinnilar qoplangan dahlizda kafshini qoldirib, zarhal eshikni ochib ichkari kirdi. Toʻrda, taxtda oʻtirgan Husayn Boyqaroga uch marta bukilib, rasmiy taʼzimni bajo qilgach, ijizat soʻrab oʻtirdi. Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib borgan, qaboriq koʻkrakli, keng yagʻrinli, miqti gavdali edi. Yirik, qiyiq, oʻtkir qarovchi koʻzlari iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va shoʻx tabiatni ham ifodalar edi; boshida yirik gavharlar qadalgan qorakoʻl qalpoq; egnida yoqasi oltin gullar, qiymatbaho toshlar rang-barang porlagan qizil abrishim toʻn. Enlik kamarida oltin qubbachalar, yirik gavharlar, Badaxshonning asl laʼli-yoqutlari olovlanar edi. Darichalari goʻzal boqqa ochilgan katta, yorugʻ uyning devorlari, shipiri porlagan oltin, kumush bilan, sanʼatning moʻjizasi boʻlgan naqshlarning jonli gullari, yorqin va ohangdor boʻyoqlari bilan koʻzlarni beixtiyor ham uzoq vaqt oʻziga qadab qoʻyardi. Yerda chamanday gullagan ipak gilamlar, baland shiplardan osilgan oltin qandillar, tokchalardagi asl ajoyib xitoy idishlar, ziynat aqlni shoshirar edi.

Navoiy o'zini har vaqt uchrashgandagidek, sarbastlik bilan tutib, podshoning kayfini so'radi. Husayn Boyqaro ham shoir bilan uchrashganda o'zini qadimgi do'stdek tutishga tirishar edi. U ba'zi viloyatlarga, tumanlarga hokim tayin etish, Abusaid Mirzoning o'g'li Sul-tonmahmud bilan qanday munosabatda bo'lish va hokazo masalalar haqida shoir bilan fikr olishdi. Navoiy hokimlardan boshlab to mahalla qorovuliga qadar yolg'iz davlat manfaatini o'ylaydigan, xalq bilan yaxshi chiqishadigan insofli odamlardan tayin etishni hamisha bir qoida qilib olmoq zarurligini uqtirdi. Sul-tonmahmud bilan do'stona munosabat bog'lamoq kerakligini, agar u Movarounnahr bilan qanoatlanmay, Xurosonni bosib olish uchun fitna qo'zg'ab, tig' ko'tarsa, omon bermaslik kerakligini bayon qildi. Husayn Boyqaro bu fikrlarga sira e'tiroz qilmadi, bir nafas sukut qilib:

— Majididdin Muhammadni tanurmusiz?— deya birdan so'radi podsho.

— Taniymen. — Javob berdi Navoiy. — Ammo, fe'l-atvorini bilmaymen.

— Bag'oyat bo'lumli inson,— dedi Husayn Boyqaro boshini tebratib.— Mirzoiy Kichikka ixlos bilan xizmat qilmoqda. Bizga sadoqati, himmati baland, havasim keldi. Men uni parvonachi¹ qilib olsam, degan mulohazaga keldim.

— Agar sadoqati samimiy bo'lsa,— dedi Navoiy ikkilanib,— xoqon hazratlari sinagan bo'lsalar, u taqdirda kamina uchun e'tirozga o'rin qolmaydi...

Husayn Boyqaro bu xususda qayta so'zlamadi. Kimxob to'shakning ostiga qo'lini tiqib, buklangan qog'ozni oldi-da, kulib shoirga uzatdi, Navoiy ipakday mayin qiymatbaho qog'ozni ochib, tabassum bilan podshoga bir qarab qo'ydi. Bu — Husayn Boyqaro yozgan g'azal edi.

¹ Xonlik zamonida yirik mansablardan. Parvonachi ko'pincha podsho qoshida bo'lib, farmonlarni yozib turar, ishlar haqida podshoga hisob berar edi.

Husayn Boyqaroning yoshlikdan she'rga havasi kuchli edi. Bolalikda Navoiy bilan birga o'qirkan, forsiy, turkiy shoirlarni birga mutolaa qilishar, she'r haqida suhbatlashar, butun-butun qasidalarni, g'azallarni yodlashar edilar. Lekin yoshlikda ham fikri, xayoli ko'p vaqt toj va saltanat orzu-armonlari bilan band bo'lgani uchun bo'lsa kerak, shoirlikka oz qunt qilar, goho-goho bironta g'azal yozib qo'yar edi.

Navoiy g'azalni dastlab ichida o'qidi. Keyin tovush chiqarib, chiroyli o'qidi. Husayn Boyqaroning boshqa g'azallari kabi, bu ham ravon, musiqiyli oshiqona g'azal edi.

Navoiy shu misra'larni maqtadi:

*O'tka yoqqil sarvni ul qaddi ra'no bo'lmasa,
Yelga bergil gulni ul ruxsori zebo bo'lmasa,
Sarv birla gul tamoshosiga maylim yo'q turur,
Bog' aro ul sarvi gulruhdin tamosho bo'lmasa!*

Bu misra'larni tahlil etib, ularda shoirning o'ziga xos ma'no, xayol, rang borligini ko'rsatdi va birov bilan munozara qilayotgandek, qizg'inlik bilan gapirdi: «O'z tilimiz neqadar toza rangli va salohiyatli. Bu so'z bilan har nechuk ruhni, ma'noni ifoda etmoq mumkin. Men aminmenki, bizning lisonimiz¹ fikr gavharlarini nazm² ipiga terishda fors lisonidan ko'ra ko'proq imkoniyatlarga molikdir. Bu g'azallarni o'qib, fors fusaxolari³ va o'zimizning forsiparastlarimiz ne deb og'iz ochishga jasorat qila olurlar!»

— Bu tilni she'rning sheri mudofaa qilar ekan, yana qaysi mard aksini isbot qilur?—dedi kulib Husayn Boyqaro,— janoblari o'z nodir asarlari bilan tilimizning husnini, quvvatini donishmand xalq qoshida namoyon etdilar... Xotiringizdami, go'daklik mavsumingizda tilimizni qanday muhabbat bilan tashviq etardingiz? U chog'larda o'z so'zimizga muhabbatni menga siz talqin etgan edingiz, Bu muhabbat alhol dilimdadir.

¹ *Lison* — til.

² *Nazm* — tizma. Vazn ham qofiyali so'z.

³ *Fusaxolar* — so'zga chechan odamlar. Go'zal so'zlovchilar.

Navoiy o‘zi haqida aytilgan bu haqqoniy so‘zlarni kamtarinlik bilan, boshini quyi solib tingladi. Husayn Boyqaro o‘z g‘azalini jamiki shoirlarga tatabbu uchun berib, ulardan bunga javob yozishlarini so‘ramoqchi ekanligini so‘zladi.

— Faraz qilaylik,—dedi Navoiy kulib,— g‘azalni yuz shoir tatabbu etib, qalam sursalar, yuz g‘azal vujudga keladi. Bir tup gul yuz g‘uncha ochadi!

Eshik Og‘g‘a¹ kirib, arkoni davlatning hozir bo‘lganini bildirgach, Husayn Boyqaro kirishga ijozat berdi. Beklar, vazirlar, ulug‘ mansabdorlar va podshoning har vaqtgi hamsuhbatlari muqarriblar kimxoblarga, xitoy shohilarga belanib kirishdi. Har kim o‘z darajasiga ko‘ra har vaqt o‘tiradigan o‘rnida qaror topdi. Beklar beki Muzaffar barlos podshoga yaqin, eng yuqori o‘rinni ishg‘ol etdi. Husayn Boyqaro toj-taxt g‘avg‘osida tog‘, cho‘l oshib, o‘z raqiblari bilan kurashib yurgan pallalarda unga ko‘rsatgan xizmatlari uchun bu bekning g‘ururiga chek yo‘q edi. O‘zini go‘yo podshohga sherik kabi tutardi. Umuman davlatning ustuni hisoblangan bu odamlarning aksari, qanday bo‘lmasin, biron qiziq sifati, fe‘li-huyi, yo ishi bilan dong chiqargan edi. Muhammad burunduq barlos — qadim beklar naslidan. G‘oyat bilimli, sardor, ulug‘vor odam. Lekin ovga, qushga shuncha o‘ch ediki, mabodo qushlaridan biri o‘lib qolsa, raso motam tutar, bu o‘lgandan ko‘ra, falon o‘g‘lim o‘lsa bo‘lmasmidi, derdi. Zulnun Arg‘un telbaroq, lekin ajoyib qilichboz, bahodir, yovqur bek edi. Har vaqt ikki qo‘l bilan shatranj o‘ynardi. Islim barlos — sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri. O‘zining maxsus yoyini kuch bilan otib, o‘qni taxtadan o‘tkazar edi. Ana shunday bahodirona ishlarni ko‘p bilardi. Mo‘g‘ulbek — hamisha qimor! Badriddin — shunday chaqqon edikim, yetti otning ustidan qatorasi sakragan, Saydbadriddin— butun harakati nozik, nafis edi, ajoyib raqs etardi.

¹ *Eshik Og‘g‘a* — saroy mansabdori.

O‘zi ixtiro etgan raqslari bor edi. Xo‘ja Abdulla Marvoriy — har ilmdan bilardi. Ajoyib qonun¹ chalardi, she‘r aytardi. Xatni chiroyli bitardi. She‘rni favqulodda zavq va ingichkalik bilan tanlardi. Lekin ashaddiy fisq va fujurchi edi.

Tantana, hashamatni sevgan Husayn Boyqaro uyni to‘ldirgan va ulug‘vor ta‘zim vajahat bilan o‘tirgan rang-barang olomonga faxrlanib qaradi... Keyin beklar bilan qo‘shin to‘g‘risida bir oz suhbatlashdi. Viloyatlardan kelgan ba‘zi xabarlar haqida vazirlardan ma‘lumot oldi. Nima uchundir Shayxulislomdan² shariatga doir bir masalani so‘radi. U qirot bilan va g‘oyat solmoqlanib so‘zlar ekan, zohiran diqqat qilayotganday ko‘rinsa ham, sabrsizlangani bilinib turardi. Keyin ov va qushchilik to‘g‘risida so‘z ochdi. Islim barlos birdan jonlanib ketdi. Azamat gavdasini podsho tomonga sal egib, qudratli qo‘llari bilan dag‘al siyrak mo‘ylabini bir silab qo‘yib, qushlarning «ravish-raftori» haqida qiziq ma‘lumotlar bermoqqa boshladi. Muhammad burunduq barlos ham gapga aralashdi. Ov to‘g‘risida ertakka o‘xshash qiziq gaplar asta-asta hammaning diqqatini tortdi. Podsho dam kulib, dam jiddiy o‘y bilan quloq soldi. Nihoyat, Husayn Boyqaro katta va davomli ovga tayyorgarlik ko‘rishni va umuman ovga doir jamiki ishlarni Islim barlosga topshirdi-da, qo‘l ishorasi bilan o‘ltirishni yopdi. Butun majlisni o‘zining shohona ziyofatiga taklif etdi. Hamma o‘rindan qo‘zg‘olib, ta‘zim bajo keltirib turarkan, Husayn Boyqaro asta, mag‘rur yurib boshqa xonaga o‘tib ketdi...

O‘NINCHI BOBDAN

...Navoiy ertalabki namozdan keyin ba‘zi yaqinlari bilan birga nonushta qildi.

Uning turli yumushlarini, topshiriqlarini bajaruchi mulozimlarni qabul etib, ularga kengash berdi-da, «Bog‘ zog‘on»ga jo‘nadi.

¹ *Qonun* — maxsus musiqiy asbob.

² *Shayxulislom* — diniy ishlarni boshqaruchi yuqori mansabdor; ruhoniylar boshlig‘i.

Qishki «Bog‘ zog‘on» bulutlar orasidan mo‘ralagan quyoshning sovuq nurlarida chamanzorlarining, xiyobonlarining so‘nik xazin husni va katta hovuzlarining yuqqa ko‘kimtir muz oynasi bilan ko‘zlarni beixtiyor tortar edi. Navoiy «chil stunli» qishonaga kelib, zarbof to‘nli, mag‘rur «eshik og‘o»ga podsho huzuriga kirmoq istaganini bildirdi, «Eshik og‘o» bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, ancha kutdirib chiqdi-da, katta to‘garak dahlizga qaragan zarhal eshiklardan biriga ishorat qildi. Bu — devorlari guldor to‘q qizil shohi bilan qoplangan kichikroq, chorburchak xona edi. Navoiy qat-qat zarrin to‘shaklar ustida susor po‘stin kiyib o‘tirgan Husayn Boyqaroga rasmiy ta‘zim qilib o‘tirdi. Bir necha kundan buyon uchrashmagani uchun bu vaqt orasida qilingan muhim mamlakat ishlari haqida batafsil ma‘lumot berdi. Husayn Boyqaro Iroqdagi siyosiy ahvollar haqida gapirdi. Bu o‘lkaga hushyor odamlardan yuborib, ular orqali butun vaziyatdan ogoh bo‘lib turish mumkinligini bayon qildi. Bu taklif Husayn Boyqaroga ma‘qul tushdi. Keyin u yaqinda vafot etgan Hirot qozisining o‘miga kishi tayinlash to‘g‘risida kengashdi. Navoiy bu mansabning xalq ishida muhim ahamiyatini bilardi. Shuning uchun u shariatni chuqur bilgan ham xalq orasida yaxshilik bilan nom chiqargan bir necha olimlarning ismlarini o‘rtaga soldi.

— Bu mansab sohibi,— dedi Navoiy kulib,— oqni qora demasin, poraxo‘r bo‘lmasin, hatto o‘z o‘g‘lidan gunoh sodir bo‘lsa uni qonun, qoidaga tamom muvofiq jazolaguchi bo‘lsin!

Husayn Boyqaro bu tavsiya etilgan kishilardan birini ham surishtirmadi-da, «yana o‘ylab ko‘urmiz» dedi.

Navoiy vazirlar to‘g‘risida so‘z ochdi. Kirishdan maqsadi ham zotan shu edi. Davlat ishlarini tartibga solmoq uchun ishbilarmand vazirlarga ehtiyoj bor edi. Mavjud ikki vazir — Xo‘ja Ato ham Abduxoliq — devondagi ishlarni boshqarib ulgurmas edilar.

Navoiy Xo‘ja Afzalni bu mansabga loyiq bilar, ko‘pdan buyon podshoga uni tavsiya qilar edi. Bu gal Xo‘ja Afzal masalasini qat‘iy bir yog‘liq qilmoqchi bo‘ldi.

— Nizomulmulk Havofiy bu oliy mansabga bag‘oyat muvofiq emasmi?² — sinovchi ko‘zlari bilan Navoiyga tikildi Husayn Boyqaro.

— Bu mansabga hech kim Xo‘ja Afzal qadar munosib tushmas!

— U taqdirda har ikkisini ham vazirlik unvoni bilan sarafroz qilurmiz, — qat‘iy qilib dedi podsho. — Nizomulmulkning ulug‘ fazilatlarini menga yaxshi ayondir.

Navoiy uchun e‘tirozga yo‘l qolmagan edi. Shu vaqtda parvonachi Majdiddin qog‘oz, qalam, dovot ko‘targan uch-to‘rt munshilar¹ bilan kirdi. Bular Boyqaroning turli ishlari haqida buyruqlarini yoki maktublarini yozib olishlari kerak edi. Navoiy ruxsat so‘rab tashqari chiqdi.

Majdiddin o‘z munshilari bilan ikki soat qadar podsho huzurida ishladi. Yorliqlar, maktublar qalamga olingandan keyin munshilarga ijizat berildi. Majdiddin vafodor it ko‘zlari bilan qarab podshoga murojaat etdi:

— Oftobi olam, shahar qozisi mansabi uchun muborak ko‘zingiz qaysi baxtiyorga tushdi?

— Hanuz hech kishiga.

— Bu faqir qulingiz xoqon hazratlarining behisht oso² poytaxtlarining sharafiga munosib bir donishmandni taklif etmoq istaydi.

— Kim ekan?³— qiziqib so‘radi Husayn Boyqaro.

— Xuroson olimlarining saromadi³ mavlono Shahobiddin, — javob berdi parvonachi.

Husayn Boyqaro taajjublanib, qoshlarini ma‘nodor chimirdi.

— Xurosonning ulug‘ olimlarini yaxshi bilurmen, ammo Shahobiddin degan zot xotirimda yo‘q.

— Balki xotir shariflaridan chiqqandir, — dedi Majdiddin, — so‘ngra mavlono Shahobiddin g‘oyat kamtarin va xokisordir.

¹ *Munshilar* — kotiblar.

² *Behisht oso* — jannatga o‘xshash.

³ *Saromadi* — oldingisi.

Husayn Boyqaro orqasidagi darichadan boqqa bir qarab, ko‘zlarini yumib sukut qildi.

Majdiddin o‘z do‘stini maqtab ketdi. Olimlar orasida johilligi bilan tanilgan mavlono Shahobiddinni «zamonaning Aflotuni» deb ta’rifladi. Bir vaqtlar Abu Said Mirzo davrida o‘n ming dinorlik vaqf mulkini yeb qo‘yib sharmanda bo‘lgan eski qallobni «insof, adolat, vijdonning timsoli mujassami» deb ko‘rsatdi. Agar podsho, uning so‘zlaridan zarra qadar gumonsirasa, bu odam to‘g‘risida Amir Mo‘g‘ulning va Muzaffar barlos Muhammad Burunduq barloslarning ra’yini bilish mumkinligini alohida ta’kidladi. Husayn Boyqaro ko‘zlarini ochdi. Mavlono Shahobiddinning nasabi haqida so‘radi. Uning bobolari o‘rtasida dongdor a‘yonlar ko‘p o‘tganidan Majdiddin bu to‘g‘rida lof urishni zarur bilmadi. Husayn Boyqaro juda qiziqdi. Agar barloslar ham muvofiq topsalar, uni qozi tayin etmoqni va‘da berdi-da, parvonachini birga olib, hamsuhbatlari bilan bo‘ladigan har kungi chog‘ir bazmiga oshiqdi.

Alisher Navoiy devonxonaga keldi. Bir-biriga yopishgan qator keng xonalarda devonboshilar va turli darajadagi amaldorlar o‘zaro gap sotib vazifalarini xush‘yoqmaslik bilan bajarardilar. Har xonada beshlab, o‘nlab munshilar, navisandalar sovuqdan qo‘llarini puflab-puflab, engashib, yozuv yozardilar. Har biri ma’lum vazifani olib boruchi devonbeklarining ko‘pining o‘rni bo‘sh turardi. Navoiy qovog‘ini soldi: «Albatta sharobxo‘rlik bilan mashg‘ullar, betovfiqlar!» — qarq‘adi ichida. U har bir arkoni davlat¹ har kun devonda² hozir bo‘lib, fuqaro ishi bilan shug‘ullanishi va bukun bitadigan ishni ertaga qoldirmasligini podshoga qancha daf‘a tushuntirdi! «Taftish yo‘q, tergov yo‘q, shuning uchun mas‘uliyat ham yo‘q!» — dedi ichida.

Dastlab tuman va kentlarga doir ishlarni ko‘zdan kechirdi. Ariza va shikoyatlarni tegishli mahkamalar va ularning boshliqlariga

¹ *Arkoni davlat* — davlat arboblari.

² *Devon* — bosh idora, hukumat majlisi.

topshirib, ildam hal etishni talab qildi. Oddiy xalqdan va har nav' yumish ham talab bilan kelgan amaldorlardan ko'p kishini qabul etdi. Keyin sadrlardan¹ bir nechasini yig'ib, vaqf ishlarning ahvoli haqida ma'lumot oldi, ham vaqf mulklarini tamir etish² va ortiqcha mablag'larni yangi inshootlar uchun sarf etish to'g'risida uzoq suhbatlashdi. Peshindan keyin uyga qaytish oldida Sultonmurodni esladi. Shayxul islomga xat yozib, yosh olimni «Shohruh madrasasiga mudarris tayinlamoqni, agar maosh masalasi hal qilishda mushkilot chekilsa, maoshni o'z mablag'idan to'lashga rozi ekanini» bildirdi-da, mulozimdan berib yubordi.

Uyga qaytganda ham bir muddat tinim olishga imkon topmadi. Turli tabaqaga mansub o'nlab kishi unga murojaat etdi. Har qaysisining o'ziga yarasha shikoyati, talabi, o'tinchi bor.

Oqshom yemog'idan so'ng sham oldida o'tirdi, qog'oz, qalam olib ilhomiga berildi. Bir g'azal, bir «tuyuq» yozdi, «tuyuq»dan xursand bo'ldi. Bunda ona tili boyligining va imkoniyatining bir jilvasini ko'rdi. Vaqt butunlay sezilmasdan o'tdi, qo'rada xizmatkorlarning yurishlari, tovushlari tindi. Daricha orqali Hirotda xo'rozlarining ikkinchi qatla qichqirgan sadolari uning quloqlariga quyuldi. Yechindi, shamni pufladi, xizmatkor to'shab qo'ygan o'ringa kirdi.

Ertalab Mirak Naqqosh keldi. Navoiy «Binafsha bog'»dagi yozgi ko'shka naqsh ishlatish to'g'risida gaplashmoq uchun uni chaqirtirgan edi. Mirak Naqqosh Hirotdagi yuzlarcha naqqoshlar orasida eng oldingilaridan edi. Hirotda ba'zi imoratlarning g'oyat nafis naqshlari uning ijodi edi. Unda qidiruchi fikr bor edi. U boshqa sohalarda ham g'alati narsalar ixtiro etishga urinardi.

Mirak Naqqosh gap orasida o'zining favqulodda iste'dodga ega bo'lgan bir shogirdini eslatib o'tdi, uning naqqoshlikdan ko'ra rasmga ko'ngli moyilligi ham ajoyib rasmlar ishlay boshlaganini ustodning samimiy g'ururi bilan aytgach, Navoiy juda qiziqdi.

Boshqa gaplarni yig'ishtirib, uni surishtira boshladi.

¹ *Sadr* — vaqf va diniy ishlarni boshqaruchi ma'mur.

² *Tamir etish* — remont qilmoq, tuzatmoq.

— Bizning Kamoliddin Behzod hirotli yetim bola edi, — dedi Mirak Naqqosh,— rahmim keldi. Mening san’atimdan o’zga shogirdlarim qatorida bahramand bo’lsa, yetim bola uchun tirikchilik yo’li ochilur, degan andisha bilan uni shogirdlikka oldim. Zehni behad baland, qo’li oltin ekan. San’atda juda tez ilgarilab ketdi.

— Yuring, mahdum, bizni olib boring, — o’rmidan qo’zg’oldi Navoiy,— shogirdingiz bilan bizni tanishtiring. Tasvir san’atining haqiqiy ustodlari bizda yo’q demoq mumkin!

Mirak Naqqosh Navoiyning san’at ahliga bo’lgan chuqur muhabbatini, g’amxo’rligini bilsa-da, hayron bo’lib, o’jarlik ham san’atkorlarga xos g’ururni ifodalagach, ko’zlarini katta ochib shoirga qaradi. Navoiy norozilanib so’radi:

— Deganlaringiz chin so’zmi?

— Janoblari kaminani yolg’onchi deb eshitkanmidilar?

— Unday bo’lsa, ne uchun taraddudlanursiz?

Mirak Naqqosh uchi uzun taqyasini yuqori surib, boshini qashidi.

— Xo‘b, tanishtirmoqqa tayyormen,— dedi u kulib,— lekin janoblarini ovora qilmoqqa hojat yo’q. Kamoliddin Behzodni men o‘zim keltirurmen. Sizni ziyorat qilmoq uning uchun ulug‘ baxtdir.

Navoiy bukun kechga yaqin olib kelishni iltimos qildi. Keyin «Binafsha bog‘» ko‘shkining naqshi haqida so‘zlashdi.

Navoiy devonga borib har kungi vazifasini bajardi. Xo‘ja Afzalni oliy farmon bilan tabrikladi, lekin undan mavlono Shahobiddinning shahar qozisi qilib tayinlanganini eshitdi. Kutilmagan xabar uni qattiq g‘azablantirdi. Bu voqianing tagini surishtirishga ham toqati qolmadi. Devondan chiqdi. Otga minib Husayn Boyqaro qurdirayotgan «Bog‘ jahon oro»dagi saroylar, ko‘shklarning ichki bezaklarini tamosho qildi. Namozasrga yaqin uyga qaytganda, Mirak Naqqosh o‘z shogirdi bilan kutib o‘tirardi. Navoiy Kamoliddin Behzod bilan ulug‘ og‘odek samimiy mehribonlik bilan ko‘rishdi. Yosh rassom uzun bo‘yli,

ingichka gavdasida noziklik bilan pishiqlik go‘zal birikkan o‘n besh-o‘n olti yashar o‘spirincha edi. Uning fikr, ilhom balqib turgan qora ko‘zlarida uyatchanlik va toza, ulug‘ ruhga xos qandaydir ma‘sumlik jilvalanardi. Naqqoshning olacha to‘nli shogirdi dongdor shoir ham davlatning ulug‘ odami qarshisida qizardi.

Navoiy ularni o‘z xonasiga olib kirdi. Mirak Naqqosh eskigina juzdonini ochib, shogirdning ayrim, maxsus qog‘ozlarga solingan rasmlarini shoirga bir-bir taqdim eta boshladi. Navoiy birinchi varaqni qo‘liga olib, bir lahza diqqat bilan tikildi-da, Mirak Naqqoshga ma‘nodor qarab qo‘ydi. Ko‘zlarini suzib yana tikildi. Ko‘zlarini uzoq vaqt uzmadi. Mirak Naqqoshning ta‘rificha, qo‘li oltin bolaning chizgan jivir-jivir gullar, barglar, chiziqlar nozikligi, jonliligi, bemisl she‘riyati bilan go‘yo uning ko‘zlarini, ruhini sihrlagan edi. Bo‘yoqlarning nafis ohangi tong chog‘i toza zangori ufqlarga taram-taram yugurgan nurlar kabi benihoyat nozik tovlanar edi! Navoiy orom va hayajon bilan chuqur nafas oldi. Ikkinchi rasmni ko‘rdi. Ayni ruh, lekin yana boyroq... yana nafisroq... Mana ov tasviri. Ohular go‘yo qog‘ozdan sachrab o‘ynoqlab ketayotganday tuyuladi. Bunda har bir nuqta ko‘z kabi jonli, Navoiy o‘nga yaqin rasmni benihoyat to‘la zavq bilan tamosho qildi.

Kamoliddin Behzod ichki bir hayajon bilan boshini quyi solib o‘tirar, ba‘zan bir zumgina Navoiyga ko‘z qirini tashlab qo‘yardi, Mirak Naqqosh aksari uning o‘z ko‘zi oldida yaratilgan bu rasmlarni go‘yo ilk daf‘a ko‘rgandek, zavqlanib tamosho qilar, Navoiy bilan fikr olishuvga tirishar edi. Nihoyat, shoir ko‘zlarida yongan quvonch bilan yosh rassomni tabrikladi:

— Bu ko‘hna jahon, — dedi u shavq bilan, — sizningdek san‘atkorni hanuz ko‘rmagan edi. Qalamingizning husni har qanday ta‘rifdan benihoya balanddir. Bu kamolotni yana oliylashtirmoq yo‘lida samimiy harakat qilingiz.

Kamoliddin Behzodning yuzi allaqanday yorug‘lanib ketdi, titroq lablari bilan dedi:

— Ulug‘ iltifotingiz uchun ne til bilan tashakkur etmoqni bilmaymen, bu tasvirlar shogirdbachchangizning mashqlaridir, qalamim ustodlarning ta’limiga g‘oyat muhtojdir.

— Ta’lim olmoqdan hech vaqt yuz o‘girmangiz! — dedi Navoiy jiddiy. Shoir namozshomdan keyin Mirak Naqqoshni va uning ajoyib shogirdini ziyofat qildi.

Ovqat ustida Hirotdagi o‘zga rassomlar haqida so‘zlashdilar. Dasturxon yig‘ishtirilgandan so‘ng, Navoiy yana Behzod rasmlarini sham nurida qaray boshladi. Har bir chizig‘iga bo‘yoqlarning eng ingichka tovlanishlariga qadar qattiq diqqat qildi. Rasm san‘atini chuqur tushungan va chuqur zavq sohibi odamlar ko‘ra oladigan ba‘zi nuqsonlarni Behzodga ko‘rsatdi. Uning qalamining qudrati va shu davrgacha hech ko‘rilmagan nafosati nimada ekanini izoh qilishga tirishdi. Behzod Navoiyni yolg‘iz shoir deb bilardi. Rasm haqidagi fikrlarining to‘g‘riligi uni juda taajjublantirdi. Shoirning har bir so‘zini tag-tugi bilan o‘qib olishga intildi.

Vaqt alla-palla bo‘lganda naqqosh bilan yosh rassom jo‘narkan, Navoiy Behzodga qalin oshna bo‘lganini bildirdi va har vaqt kelib uni quvontirishini iltimos qildi. Keyin hovlidan Mirak Naqqoshni bir nafasga chaqirib, dahlizda shivirladi:

— Ertaga, albatta, mening qoshimga keling!

— Xo‘sh! — tikildi naqqosh.

— Bu favqulodda iste’dod nimaga muhtoj, uni tarbiyalamoq uchun nimalar qilmoqligimiz kerak, — bularni batafsil muhokama qilurmiz, — dedi Navoiy.

— G‘oyat ma‘qul fikr, kechga, albatta, kelurmen. — Quvonch bilan hovliga otildi Mirak Naqqosh...

O‘TTIZ OLTINCHI BOBDAN

... Ota-bola orasidagi bema‘ni urush, adovat kun sari Navoiyning yuragini chuqurroq ezardi. Har ikki tomon qat‘iy, uzil-kesil janglarga botinmasdi. Goh-goh. shiddatli to‘qinishlar ro‘y berar, lekin ular urush taqdirini hal qilishdan ojiz edi. Urush

uzoq davom etib inson hayotini oz-oz qamrab, oxirda «tomato- toma ko'l bo'lar» deganday, ko'p qonlar behuda to'kilishi mumkin edi. Yoki Badiuzzamon mamlakatning bir burchiga chekilib, urush- janjal qidirib yurganlar orasida yangi kuchlar to'plab, yana harakat boshlab, dahshatli falokatlar keltirishi mumkin edi. Bu andisha Navoiyni qattiq tashvishga soldi, nihoyat, baloning oldini olishga qaror berdi.

Husayn Boyqaro qoshiga kirib, vaziyatni tushuntirdi. Is'yonchi valiahdi bilan mustahkam sulh barpo etish kerakligini talab qildi. O'g'illarning yuragida muhabbat va sadoqat, insof va nomusdan biron uchqun qolmaganiga qattiq ishongan podsho dastlab bu taklifga e'tibor bermagandek qaradi. Oylarcha davom etgan qonli janglardan keyin, shikast yeb, sulh taklif etgan, hatto tiz cho'kib o'z gunohining kechirilishini tilagan o'g'illar, sal o'tmay, uning orqasidan yangi is'yon ko'tarar, u poytaxtga yetib bir kun orom olmasdan qo'shinni orqaga surar edi. Qari, kasal Husayn Boyqaro bir o'g'lini bo'ysundirib, yengil so'lish olguncha, ikkinchisining ustiga yurish qilishga majbur bo'lardi. Lekin muttasil safarlar bezdirgan, charchatgan edi. Bundan tashqari, Astroboddami, Balxdami, Marvdami, Mashhaddami biron joyda is'yonkor o'g'illarning yoki hali xanjarini yeng uchida yashirib turgan boshqa bir o'g'ilning is'yonini kutar edi. Navoiy sulh shartlarini ham so'zlab, o'z talabida qat'iy turgach, podsho ko'nishga majbur bo'ldi.

Qari, bedarmon shoirni qo'ltiqlab otga mindirdilar. Quvonchli, minnatdor ko'zlar bu sulh elchisini, go'yo yangi oyning oltin o'rog'ini ilk ko'rib baxt va salomatlik orzu qilganlar kabi, uzoq vaqt kuzatib qoldilar. Navoiy haftalarcha jang maydoni bo'lgan dalada ketardi. Onda-sonda o'qlar, uzuq-yuluq ot asboblari yotardi. O'tlarning ustida nohaq to'kilgan qonlar qurigan lola bargiday ko'zga tashlanardi.

Shoir qoshlarini chimirdi, peshonadagi chiziqlar yana quyushdi: «Dushman ikki shohdan bir-biriga yaqin va do'st ikki darvesh yaxshi» deb bir vaqtlar aytgan misralari yodiga

tushdi. Ot taqir tepalarga chiqishi bilan, pastda — Badiuzzamonning qarorgohi — chodirlar, g'ivirlagan odamlar, chopishgan otlar ko'zga chalindi. Asta chayqalib, yo'rg'aning boshini tortibroq yura berdi. Qarorgohga yaqinlasharkan, tanishlar yugurishdi. Badiuzzamonning ulug'lari ham kelishdi. Shahzodaning hamsuhbatlaridan shoir mavlono Zamoniyy ham qulluq qildi:

— Mirzoning qoshiga eltinglar meni,— dedi otdan tushib, nafasini rostlab Navoiy.

Odamlar: «Marhamat, marhamat» deb ehtirom bilan yo'l boshladilar. Mana, Badiuzzamon qari, sodda, so'zi va harakati telbaroq bahodir Zulnun Arg'unbek ham boshqa yaqinlari bilan chodiridan chiqib, shoirni qarshi oldi. U hamma vaqtdagidek, zavq va noziklik bilan kiyingan, avvalgidek chiroyli, xushmuomila edi. Hurmat bilan elchini o'zining juda serhasham xos chodiriga taklif qildi. Navoiy shahzodaning iltimosi bilan hammadan yuqori o'tirdi. Zulnun Arg'unbek va boshqa yuqori mansabdorlar har qaysilari o'z mavqi'lariga yarasha joy oldilar. Yaqindagi boshqa bir chodirdan yoqimli musiqa va ayollarning go'zal qo'shiqlari eshitilardi. Navoiy sehrli sadolarga beixtiyor berildi. Lekin ko'p o'tmasdan, sadolar birdan kesildi.

— Shahzoda, men sulh barpo etmoq kayfiyatida keldim,— Badiuzzamonga murojaat etdi Navoiy:

— Bu kalima hammamiz uchun bebaho edi,— dedi Badiuzzamon jiddiy va sokin,— ammo zoti oliylariga ma'lum bo'lgan ba'zi hodisalar bu kalimani batamom ma'nosiz etib qo'ydi...

— Xato qilasiz, shahzoda,— ishonch bilan dedi Navoiy, — mamlakat, davlat, el-ulus sulh va osoyishtalikka nihoyat tashna ekan, hayot va salomatlik yolg'iz shu kalimaga bog'liq ekan, siz qaysi mantiq bilan aksini isbot qila olursiz?

— Aqli salim sohibi uchun bu imkonsizdir. Men aminmenki, siz jaholat tig'ini sindirmasangiz, birodarlaringiz nomussizlik botqog'iga kun sayin chuqurroq botabersalar, bu muborak yurtda hayot o'chog'i sovrilur. Maqsadlaringiz nima? Biz sizlardan nima kutgan edik? Alhol nimalar ko'rmoqdamiz? Xatolarni tuzatmas

ekansiz, yurt aslo kechirmas! Inilaringiz sizdan namuna olmoqdalar. Siz falokat boshchisi bo'lib qoldingiz!

Badiuzzamonning yuzi oqarib ketdi. Xush mo'ylabi titradi, labini tishlab yerga qaradi. Qari jangovar Zulnun Arg'unbek og'ir so'lish oldi.

— O'g'limning motami dilimga chuqur jo bo'lgan...— dedi qayg'ulanib Badiuzzamon.

— Qo'llarini go'dak qoni bilan bo'yaganlarni, kimlar bo'lmasin, hech vaqt oqlamaymen, kechirmaymen. Har vaqt ularga la'nat o'qiymen! — dedi Navoiy hayajonlanib, — Ammo xalq va davlat aybdor emas. Buni yaxshi fahmlamoq kerak, axir...

Badiuzzamon yana otadan ko'rgan haqsizliklar to'g'risida shikoyat qildi. Navoiy yurt, xalq oldida, tarix oldida shaxsiy ginalarning hech qiymati yo'qligini isbot etmoqqa tirishdi. Haqiqiy insonning fazilati haqida gapirib, dedi:

— Inson uchun toj kiymoq shart emas, balki nomus ham vijdon sohibi bo'lmoq, jamiyat oldida o'z mas'uliyatini sezmoq shart!

Badiuzzamon sukut qildi. Lekin ko'zlari bilan Zulnun Arg'unga nimadir ishorat etdi.

— Mir janoblarining so'zlari ma'qul...— dedi majlisga qarab qari jangovar, sodda, dag'al tovush bilan.— Ammo ne asosda sulh¹ yasalmog'i kerak — bu jihatni bilsak yaxshi bo'lur edi.

— Shartlarni ham keltirganmen,— majlisni ko'zlari bilan sinab dedi Navoiy,— bu shartlar asosida aslo buzilmas, hamisha barqaror bir sulh tuzmog'imiz kerak.

— Bilsak mumkinmi?— so'radi Badiuzzamon.

Navoiy, Balx viloyati ham Amudar'yodan to Murg'abgacha bo'lgan yerlarni idora etmoq huquqi shahzodaga berilishi mumkinligini so'zladi.

Badiuzzamon maslahatlashmoq uchun Zulnun Arg'un ham bir necha yaqinlarini olib, tashqari chiqib ketdi. Navoiy shahzo-

¹ *Sulh* — kelishuv.

daning shoiri bo'lgan mavlono Zamoniylar bilan suhbatlashib o'tirdi. Mavlono Zamoniylar so'z orasida sobiq qozi Shahobiddin haqida gapirdi. O'zini Badiuzzamon tarafdori ko'rsatib, bu yerga qochib ketgan va shahzoda tomonidan katta iltifot ko'rgan qozi aslida Muzaffar Mirzoning josusi ekani, ham kuni kecha yashirin hujjatlar bilan qo'lga tushgani, bukun erta bilan dorga osilgani haqida gapirdi. Navoiylar jinoyatkorlarning taqdiri hamisha razil, sharmanda, mash'um bir ravishda bitajagini katta ishonch bilan bayon qildi.

Badiuzzamon kirib sulh shartlarini qabul etganini bildirdi. Bukundan boshlab har qanday dushmanlik harakatlaridan voz kechishini shoirlar qat'iy va'da etdi. Ziyofatdan keyin shartnoma tuzilib, imzo chekildi.

Ikkinchi kun erta bilan Badiuzzamon o'z lashkarini ko'chirishga boshlarkan, Navoiylar Husayn Boyqaro qarorgohiga sulh olib keldi. Sulh xabari bu yerda hammaning yuragini favqulodda quvonch bilan to'ldirdi.

Kechga yaqin shoir Hirotda kirdi. Yo'l-yo'lakay butun xalq uni tabriklab, o'z muhabbati va minnatdorligini namoyish etdi.

Mana «Unsiya». She'r va fikr o'chog'i. Olimlar, shoirlar, rassomlar, naqqoshlar, cholg'uchilarning ilhom bulog'i... Hirotda, butun Xurosonning, Movarounnahrning ko'rki, iftixori, qalbi va vijdoni. Yana do'stlar — yaqinlar kelishib, shoirning muhabbati bilan ruhlarini gullatib ketdilar.

Osmonning tiniq zangorisida to'lin oy nur o'tovini tikkan. Sanoqsiz yulduzlarning muazzam, ulug'vor ohangida kecha jimgina pinakka ketgan. Yupqa oy nuriga o'ralgan bog'chalar kuzning salqin nafasidan yengil titraydi. Xonalarda chiroqlar yoqig'liq. Mulozimlar, xizmatkor ahli, harvaqt bo'lib turadigan mehmonlar, yaqinlar biron narsa bilan mashg'ullar. Sohob Doroda qalamni siyohdonga botirib, ko'zlarini yumib qofiya qidiradi. Xizmati va sadoqati bilan bu dargohda soqolini oqartirgan Shayx Bahlul o'z xo'jasining devonini o'qiydi. Bir xonada shatranj havaskorlari

qizg'in o'yin bilan band. Bir xonada hisob-kitobga epchil mulozimlar shoirning kundalik xayri-ehsonlari uchun sarf bo'lgan mablag'larini daftarga yozib, hisoblaydilar. Hovlida otboqar sodda xalq qo'shig'ini kuylab, asta kezinadi...

Shoir o'z xonasida tanho o'tiradi. Nechundir umr quyoshining shomga kirayotganini u keyingi vaqtlarda, yolg'iz qolarkan, ko'proq o'ylay boshladi. O'lim do'stlarni bir-bir chaqirmoqda. Hasan Ardasher qani? Pir Muammoiy, jonajon Muhammad Sayid pahlavon qani? Jomiy qani? Bularni o'ylarkan qalbida dard mavjlanadi. Bu — o'limdan qo'rqqanidan emas, balki hali qilmoqchi bo'lgan ishlarning, yozilmagan mavzularning ko'pligidan... So'nggi yillarning tashvishlari, iztiroblari, mehnat oltmishdan oshgan shoirni oyoqdan chalayozgan edi. U taqdirning rang-barang jilvalarini ko'rdi. Nash'asini ham, qayg'usini ham ayni donishmandona tur va qarash bilan kechirdi:

*Gahi topdim falakdin notavonlig',
Gahi ko'rdim zamondin komronlig'.
Basi issig', sovuq ko'rdim zamonda.
Basi achchig', chuchuk totdim jahonda.*

Shoir o'z hayotida yaratgan ilmiy, madaniy muassasalarning yashashini, xayri-ehsonlarning o'zidan keyin ham kattaroq miqyosda davom etishini orzu qildi. Hozir uni «Vaqfnoma» yozish fikri egallab oldi. Madrasalarning «Shifoiya»ning, xonaqohning ta'minoti, talabalarning nafaqasi, mudarrislarning maoshi uchun lozim mablag'lar, muhtojlarga beriladigan kiyim-kechak, bayramlarda xalqqa tortiladigan taomlar, yetim-yesir, kambag'allarga kundalik xayr qozonlari va boshqa in'omlar, ehsonlar uchun qancha qo'y, qancha ho'kiz berish, halimga qancha bug'doy solish, qancha botmon undan non yopish, qancha pud halvo, qand-nabot va hokazo kerakligini batafsil ko'rsatgan bir kitobcha — «Vaqfnoma» yozmoqqa qaror qildi.

Lekin oldin «Muhokamatul lug'atayn»ni bitirish kerak. Ona tilida «Xamsa» yaratdi, «Chor devon» yaratdi. Ulug' forsi shoirlari

kabi, she'ning hamma shakllarida qalamni jasur surdi. She'ning, «turkiy soz»ning sadolari bilan o'z tilining qudratini, husnini, boyligini isbot qildi. Endi buni mantiq bilan, ilmiy usulda isbot etish kerak. Butun Sharqqa dong chiqargan fors tili bilan xo'rlangan ona tilini kurash maydoniga olib kirish kerak. Qani qaysi pahlavon to'la qonliroq ekan!

Shoir daricha yonida, shamga yaqin o'tirib, qalamni qog'ozlar betida qitirlatdi. Ikki til — o'zbek va forsi tillari — ikki pahlavon. Ular goh mantiqning gurzisini ko'taradilar, goh husn va salobatlarini namoyish qiladilar. Goh qo'yinlaridan dur va gavharlarni hovuchlab-hovuchlab sochadilar, goh xushsadolikni ishga soladilar.

Bu ajoyib, bemisl kurashni tamosho qilg'ali Firdavsiydan boshlab mavlono Jomiyga qadar hamma ulug' fors shoirlari kelgan edilar. Har qaysilari o'z obro'larining yuksak poyasida yarqirab o'tirardilar. Lekin ular tillarning kurashidan noxushlana boshladilar: fors pahlavoni qay boyligi bilan chiranmasin, o'zbek botiri uni qizartirib qo'yadi!

Navoiyning qalam tutgan qo'li toldi. U pahlavonlarning kurashiga qiziqsinib, uzoq o'tirib qolganini sezmedi. Keyin kurashning davomini ertaga qoldirib, o'rnidan turdi. O'z pahlavonining qudratiga ishongan, uni qat'iy g'alaba bilan olqishlab, kurash maydonidan qo'llarida ko'tarib, ardoqlagali kelgan ulug' azamat fors shoirlari ranglari o'chgan, allanechuk bo'shashgan bir holda ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Ularning orasida faqat marhum mavlono Jomiy o'zbek pahlavoniga ofarin o'qib, uning yelkasini qoqdi.

Navoiy o'rnidan turdi. Yuragida shodlik dengizi chayqalardi:— ona tilining g'alabasi uning g'alabasi, uning suygan xalqining, tarixining g'alabasi edi. Shoir shamni o'chirdi. Hassani qo'lga olib, yotoq uyga kirmoq uchun, uyushgan oyoqlari bilan asta-asta yurib, tashqari chiqdi. Salqin toza havo yuzlariga yoqimli urdi. Cheksizlikda muazzam ohang bilan oqqan yulduzlarning nafasi, bog'chadagi daraxtlarning shitirlashi, yarim kechada ip

igirgan jafokash kampir charxining «g'uv-g'uvi», uzoqda karvon tevalari qo'ng'irog'ining vazmin ohangi — barchasi shoirning ko'nliga bir xilda yaqin, tanish, ma'nodor tuyular, barchasini u chuqur sevar edi...

OYBEK SHE'RIYATIDAN

NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak,
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida,
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa — chun,
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...
Nafis chayqaladi bir tup na'matak.
Shamol injularni separ chashmadak
Boshida bir savat oq yulduz — chechak,
Nozik salomlari naqadar ma'sum!

Tog'lar havosining firuzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

1936

MASHRAB

(Parcha)

Sochlari potila, koʻzlari maxmur,
Koʻzlarda sachraydi qora kuchli nur.
Saraton quyoshi, qish izgʻirini
Ishlamish yuzlarning maʼno, sirini...
Davlati — qalb sheʼri va eski tanbur.

Kulohdan toshardi jingalak sochi,
Magʻrur va koʻrkamdir har qachon boshi.
Tashir ham qish, ham yoz bir qoʻsqi poʻstin
(Unda qolmagandir yamoqsiz oʻrin),
Belida kattakon bir nos qovogʻi...

Sahrolarni oshar bir shamol kabi,
Kecha ham kunduzday tutmas pardani.
Oyoqlari uchun tikanlar maysa,
Qumlar ogʻirligi unga bir paysa...
Ilhomi va sozi — yolgʻiz hamdami.

Bir hovuch suv yutib toza chashmadan,
Yaslanar toshlarga, yozilar badan.
Osmonni bir tomchi moviy yosh kabi
Eritar koʻzlarning jonli otashi...
Taqir toshlarda u koʻrardi chaman.

Oyogʻi bosmasdan shahar qopqasin,
Xabari toʻlqindek tarqardi, lokin
Mahalla, choyxona, takya va guzar.
Minutni soat deb yoʻlga koʻz tutar...
Koʻrmagan chizardi shoir siymosin.

Ana, shoir kelar... Bir toʻda bola —
Uning orqasidan ajralmas soya.

Ko‘zlar aks etadi muhabbat, maroq,
Uni bilish qiyin: go‘yo jufti, toq,
Asrlar ko‘rmagan ajib devona.

Oltin tanga tutar qandaydir bir zot,
Piching ila kulib, otar shoir bot.
Tanga alla qayda jaranglar toshda,
Bunday shiralarga qo‘nadi pashsha!...
Usiz sehlidir, rangindir hayot...







ABDULLA QAHHOR
(1907–1968)

Nasrning hikoya, qissa, roman, dramaturgiyaning drama, komediya janrlaridagi, adabiyotshunoslikning adabiy tanqid yoʻnalishidagi asarlari va jahon adabiyotidan qilgan muvaffaqiyatli tarjimalari Abdulla Qahhor adabiy merosining asosini tashkil etadi. U — badiiy soʻzning chechan, tejamkor sanʼatkori. Moʻjaz ifodalar, iboralar, detallar orqali ham ishonarli ruhiy holat yoxud purmaʼno xulosalar idrokini yuzaga chiqarishga mohir adib.

SAROB

(Romandan boblar)

X

Yozgi taʼtilda Munisxon akasi bilan Qrimga ketib, Saidiy shaharda yolgʻiz qoldi. Uning boradigan yeri, soʻzlashadigan kishisi yoʻq; kuni boʻyi hujrasida oʻtirib turli yozuvchilarning maqtalgan asarlarini oʻqish va hikoya yozish bilan vaqtini oʻtkazar edi. Yana birmuncha sheʼr va hikoyalarni oʻsha jurnalga yubordi.

Bu jurnal yozuvchilarni uch turga boʻlib, asarlarini taqdim qilardi: talantli shoirlar, tarbiya va kengashga munosib yosh qalamlar va havaskor yozuvchilar. Saidiy esa soʻnggisiga ham kirmas, uning ismi mudom oxirgi sahifada «bosilmaydi» soʻzi bilan zikr qilinardi. Saidiy umidsizlanmadi, chunki oʻzi yolgʻiz emas, «bosilmaydi» degan soʻz boshqa yana yigirmalab ismlarga ulanar edi.

U oʻzini tarbiya va kengashga munosib darajaga koʻtarish uchun juda koʻp kitoblar oʻqidi, bir necha oy ichida ikki yuzdan

ortiq badiiy asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonaga ega bo'ldi; bulardan ko'pini o'qigan, qolganlarini ham o'qish uchun har bir bo'sh minutdan foydalanar edi. Ammo Saidiy hafta sayin jurnalning oxirgi sahifasida o'z ismini «bosilmaydi» bezagi bilan ko'ravergandan so'ng, yozuvchi bo'lish uchun o'zining tutgan yo'li to'g'ri ekaniga shubhalana boshladi. Bur kuni u «balki asarim bosilishga muvofiq bo'lsa ham, qalam haqi to'lashga arzimas, shuning uchun boshqarma qaytarar» degan o'ylarga borib, so'nggi yuborgan asarlarining ustiga «gonorarsiz» deb yoza boshladi. Bundan ham natija chiqmadi — hamon o'sha, sira o'zgarmaydigan quyma javob chiqishda davom etdi.

U tarbiya va kengash berishga arziydiganlar qatoriga kiraman, deb o'zini qiynab qo'ydi, yoz bo'yi hech qayerda ishlamadi, bisotidagi puli tugashdan tashqari, ba'zi kiyimlaridan tortib Ehsondan qolgan parqu yostiqqacha bozorga chiqdi. Universitetda uning uch oylik stipendiyasi bor, ammo borib olgani komsomol yacheykasidan¹ qo'rqadi, chunki shaharda turib sira majlisga bormadi, yacheykaga qorasini ko'rsatmadi; yaqinda keldim, deyolmaydi, chunki u vaqtda yacheyka qayerda, qanday ishlagani haqida hujjat so'raydi. Bunday hujjatni esa Munisxondan bo'lak kishi topib berolmas edi. Shu kunlarda uning qora nondan boshqa narsaga kuchi yetmay qoldi, juda ozib ketdi, uch-to'rt soatdan ortiq ishlashga madori qolmadi, o'shanda ham kechasi ishlashga to'g'ri kelsa, kechasi bilan yomon tushlar ko'rib chiqardi.

Bir kuni Munisxondan xat keldi. U uzoqda turib xati bilan ham Saidiyning entiktirar edi: «...Sen, badiiy asarni yaxshi ko'rgan kishining bilan birga o'qisang yaxshiroq lazzat topasan, degan eding. Qrim manzaralarini ko'rib esimga shu so'zing tushdi...»

Bu xat Saidiyning yozishga bo'lgan ishtiyoqini yangiladi, yangi ishtiyoqning birinchi, dardli minutlarini Munisxonga javob yozishga sarf qildi: Xatni yuborgani pochtaga chiqqanida pochtaxonada Ulfat duch keldi.

¹ Sobiq sho'ro davridagi yoshlar uyushmasi.

— E... mirzo yigit... Opoq yigit, omonmi? — dedi Ulfat xuddi o'zidan yigirma yosh kichik bola bilan so'rashganday.

Saidiy xatni topshirguncha Ulfat qarab, orqada gapirib turdi. So'ngra, ikkovi pochtdan chiqib eshik oldida uzoq turishdi. Ulfat o'zining qanday ishlayotgani, qanday shoirlar bilan qayerga borgani, ularni nima deb so'kishga haddi siqqani, oqibat, qanday asarlar yozmoqchi ekani to'g'risida so'zladi. Saidiyning oyoqlari toldi, beliga og'riq kirdi; qarasa, gapi tugamaydigan, hujrasiga taklif qila qoldi. U ham taklifni kutib turgan ekan shekilli, darrov ko'ndi.

Saidiyni g'am bosdi: buni nima bilan mehmon qiladi? Hujrada qora nondan bo'lak narsa yo'q. Pul esa hisobli. Ulfatning savlati, og'zidan chiqqan gaplaridan, Saidiy bor bisotini sotib turli ovqatlarga sarf qilganida ham manzur qilolmasdi. Ammo hujraga kirgandan keyin Ulfat choy ham qo'ydirmadi, Saidiyning kitoblarini ko'rdi. Bularning nomini ham to'g'ri o'qiy olmagan Saidiyni hayron qoldirdi.

— Bu kitoblardan... o'qigandirsiz? — dedi Saidiy tutilib.

— Vaqt qayoqda deysiz. Kitob emas gazet, gazeta emas, hatto bosilib chiqqan o'z asarimni ham ko'rib chiqolmayman...

Saidiy «bo'lmasa qanday qilib shoir bo'lding, qanday qilib she'r yozasan?» deb so'ragani uyaldi.

— Hujrangiz ko'p dilkash ekanu, bitta etajerka bilan bitta yaxshi stol yetishmaydi. Shular bo'lsa xo'p ishlashlik hujra bo'ladi. Etajerka menda bor. Bersam bo'ladi.

«Ovqatdan gapirsang-chi, betamiz!» dedi Saidiy ichida va kulib qo'ydi.

— Davlat nashriyotida ikki yuz yetmish bir so'm pulim bor, — dedi Ulfat, — sira yubormaydi. Va'dasi bo'yicha chorshanba kuni qo'limga tegishi kerak. Ertaga chorshanba-mi? Albatta yuboradi-ku! Ammo shallaqi bir kampirning uyida turaman shu ko'p bemaza qilayotir-da. O'ttiz so'm qarzim bor. Hozircha o'n to'qqiz so'mini ol, chorshanba kuni qolganini beraman, desam unamaydi-da!.. O'zingda yo'q — olamda yo'q. Muharrirdan

so‘ragan edim, unda ham yo‘q ekan, bechora xijolat bo‘ldi. Har kimdan so‘rayvergani kishining yuzi chidamaydi. Uyga borishga yurak yo‘q, kampirga ro‘para bo‘lgani toqatim qolmabdi.

— Menda ozroq bor... — dedi Saidiy yonini kovlab.

— Io‘... yo‘q..

— Io‘q, bemalol. Menda o‘n uch so‘m bor. Ikki so‘mi menga yetib turadi. Mayli...

Ulfat chorshanba kuni soat birga yetkazib berishni va‘da qilib, Saidiyning so‘nggi pulidan o‘n bir so‘mini oldi va yarim chaqasi bo‘lmagan bo‘sh cho‘ntagiga solib o‘rnidan turdi.

Qolgan ikki so‘mni Saidiy besh kunga yetkizdi, oltinchi kuni esa och qolib, kechqurungacha yotib uxladi. Shu kungacha ham serpul, sersavlat shoir — Ulfatning chorshanbasi kelmadi. Saidiy yettinchi kuni ertalab uning oldiga borishga bel bog‘ladi-yu, o‘zi uchun ko‘p, ammo Ulfatning savlat va obro‘si oldida arzimagan o‘n bir so‘mni qistab borgani sira yuzi chidamadi: qiyomgacha karavotda cho‘zilib yotib, boshqa joydan pul topish fikrini qildi, hech bir qarorga kelolmadi.

Nihoyat, Saidiy Ulfatning oldiga borishga qasd qilib otlandi, u ishlaydigan idoraning eshigi oldiga borguncha ham, yerdan pul topib olib, o‘shaning oldiga kirishdagi xijolatlikdan qutulish xayolini surdi. Ulfat Saidiyni ko‘rishi bilan sayrab ketdi:

— Hey attang... hey attang... Bu, albatta, kechirilmaydigan gunoh. Sizni ovora qildim. Uyalib qoldim. Ammo bunga minglarcha sabab bor. Hozir aytaman. Kecha boraman, deb bel bog‘laganimda badbaxt Ilhom meni zarur bir ishga ro‘para qilib qo‘ydi. Shu... hey attang... etajerkani bo‘shattirib qo‘yganman... Obbo... sizga yolg‘onchi bo‘ldim-da! Yana sizga ozroq kutishg‘a to‘g‘ri kelganini aytmaysizmi...

Ulfat Saidiyni boshlab o‘zi ishlaydigan xonaga olib kirdi. Saidiy uning har bir so‘ziga «mayli, ataylab pul uchun kelganim yo‘q», deb javob berardi.

— Badbaxt Ilhomni bir joyga pulga yuborgan edim, daragi yo‘q, — dedi Ulfat o‘z o‘rniga o‘tirib, — bachchag‘ar ichib, bir

joyda uchib qoldimi?.. Unga ishonib yonimda bor pulimni ham birov so'raganda berib qo'yibman... Hali ovqat qilganim yo'q. U kelmasa ham bari bir, topamiz. Kutib qolasiz-da. Attang... Kelmasa juda chatoq bo'ladi-da. Kechqurun birovga va'da bergan edim. Yangi tanishgan qiz, o'n uch yo o'n to'rt yoshda. Men shu kunda go'dagini xohlab qolibman. O'psangiz ham yig'lasa! Siz-chi?.. Daf'atan va'daga vafo qilinmasa yaxshi bo'lmas... Vaqtingiz bo'lsa kechqurun istirohat bog'iga chiqaylik. Juda o'tkir qiz-da.

Ulfat stolning tortmasidan allanarsa izlab topolmadi-da, go'yo boshqa, yangi, har tomondan muvofiq bir fikrga kelganday qo'llarini ko'tardi:

— Bundoq qilsak: men kechqurun sizning oldingizga borsam; keyin, ikkovimiz ovqat qilsak-da, qiz va'da bergan joyga borsak. Albatta uning o'zi yolg'iz bo'lmay-di. Sizga ham bo'ladi... Nima dedingiz? Unang, xo'p deng! Munisxonni tanir ekansiz?..

Saidiy xayrlashib chiqdi. U yo'lda shahar kutubxonasi eshigi oldida turgan Shafrinni uzoqdan ko'rib qoldi. Shafrin bilan ko'rishishni istamas edi, ko'chaning narigi yuziga o'tdi. Shafrin uni ko'rib qoldi, chaqirdi va orqasidan yugurib bordi. Saidiy uning ko'ziga kasal ko'rindi, hujraga kelgandan keyin ziyraklik qilib u «kasal»likni fahmladi shekilli, ko'chaga chiqib xarid qilib keldi.

— Turing, Rahimjon! — dedi u choy damlab. — Bir-ikki piyola choy iching, non yeng, bo'lmasa holdan toyasiz!

Saidiy chindan ham lohas, hozir yolg'iz choy ichgisi kelar edi, xolos.

Shafrin kechqurungacha o'tirib, Saidiyning universitetda to'rt oylik puli bor ekanini bildi; kechqurun qorong'i tushgandan so'ng hujrani yig'ishtirib, chiroqni yoqdi-da, xayrlashdi. Saidiy qorni to'yib, og'irlashdi.

U bosh tomonida, deraza tokchasida turgan kitobni oldi va chalqancha yotib o'qimoqchi bo'ldi, kitobni ochishi bilan ko'kragiga uch so'm pul tushdi. «Tavba, — dedi u, — qachon qo'yan

ekanman?!» kitobning ikkinchi varag‘idan yana uch so‘m tushdi. Saidiy irg‘ib o‘rnidan turdi. «Shafrin!» dedi qichqirib va o‘zidan o‘zi xijolat bo‘ldi, qizardi; shu kungacha o‘zining Shafringa qilgan muomalalarini eslab, ikkala qo‘li bilan yuzini g‘ijimladi.

U sersavlat, serpul shoir kechqurun ham kelmadi. Oradan to‘rt kun o‘tgandan keyin Shafrin yana keldi. Bu to‘rt kun ichida Saidiy xiyla jonlanib qolgan edi. U Shafrinning yuziga qaray olmas va har bir harakati bilan go‘yo afv so‘rar edi. Shafrin o‘zini go‘llikka soldi, uzoq o‘tirmay, Saidiyning oldiga bir yuz yigirma so‘mni sanab qo‘yib, o‘rnidan turdi.

— Stipendiyangiz, kecha fakultetingizga borgan edim...

Yer yorilmadiki, Saidiy kirib ketsa. Shafrin ketdi.

Oradan uch hafta o‘tgandan keyin navbatdagi son jurnalda Ulfatning yana bir she‘ri bosilib chiqdi. Ulfat buni Yaltada yozgan edi. Saidiy o‘n bir so‘midan umidini uzdi.

Shunday qilib, Saidiy yoz bo‘yi urinib ham tarbiya va kengash doirasiga kirolmadi. Bu doirani Ulfat, Abbosxon, Ilhom singari adabiyot maydonining «bahodirlari» o‘rab olgan. Bular bir-biriga kirishgan temir halqalar bo‘lib, bu doiraga kirish uchun shu halqalardan birini yo sindirish, yo eritish kerak edi. Sindirish Saidiyning qo‘lidan kelmas, maxsus yo‘l bilan bulardan birontasini eritib, qo‘ltig‘i ostida o‘tib ketish mumkin edi.

XI

Kalamush bilan ko‘mir konida bo‘ladigan halokat, mushuk bilan beda, Britaniyaning mustamlaka siyosati bilan Hindistonning oq sigiri, yer magniti bilan shimoldagi «kamalak», hatto tish og‘rig‘i bilan ko‘z og‘rig‘i orasida ham bir munosabat — bog‘lanish bor ekaniga Salimxon ishonadi, ammo olijanob singlisi Munixon bilan jo‘n bir student Saidiy orasida qanday munosabat bo‘luvi mumkin ekanligi boshini qotirar edi.

Salimxon singlisi bilan notanish bir student orasidagi aloqa muhabbatdan, o‘z tili bilan aytganda, «axloqsizlikdan» xoli ekaniga ishonsa ham, har holda, bularning o‘zaro muomalalarini o‘z ko‘zi

bilan bir ko‘rishga jazm qildi, ammo o‘zining shubhasini Munisxonga sira bildirmas, gapidan, harakatidan «Rahimjon yosh boladir, uning kelishi hech bir diqqatni jalb qilari hodisa emas» degan ma‘noni anglatar edi. Bir kuni u ataylab bevaqt keldi. Munis bilan Saidiy dars tayyorlab o‘tirishar edi. Salimxon oyoq uchida yurib deraza yoniga bordi-da, undan o‘n qadamlar naridagi yozgi supaga chiqdi. Derazadan tushgan shu‘la supaga tushmas, shuning uchun u xotirjam bo‘lib, ikkovining harakatini uzoq kuzatdi. Munisxon qarshida, Saidiy esa devor tomonda bo‘lib, faqat boshi bilan ko‘kragigina ko‘rinar edi. Ikkovi nima to‘g‘ridadir so‘zlashadi. Munisxon tez-tez kuladi. Saidiy yozishdan to‘xtab, kitobni qo‘liga olgan edi, Munis tortib olib chetga qo‘ydi va kuldi. Salimxon oyog‘ining uchida yurib borib bir necha minutni tashqi eshikni g‘ijirlatmasdan ochishga sarf qildi, yo‘lakda uzoq turdi. Ikkovi masala talashayotgan ekan. Poylaganiga yarasha ma‘noli bir gap chiqmagandan keyin, Salimxon yana o‘shanday ehtiyot bilan qaytib chiqdi, yana poyladi; shunda ham bir yangilik ko‘rmaganidan so‘ng, eshikni oshkora, odatdagicha ochib yo‘lakka kirdi va o‘rta eshikni taqillatib, kirishga ruxsat so‘radi. Ichkaridan Munisxon javob qildi. Salimxon kirdi. Saidiy eshikka orqasini berib o‘tirar edi, Munisxon o‘midan turishi bilan u ham turmoqchi bo‘ldi. Ammo Salimxon yetib kelib qo‘li bilan «qo‘zg‘olmang» deb ishora qildi va qo‘l berib samimiy ko‘rishdi.

— Obbo Rahimjon-ey,—dedi Salimxon sochini taragan tarog‘ini puflab, — shuncha ko‘rishni orzu qilaman, hech to‘g‘ri keltirib bo‘lmaydi. Juma kunlari kelmaysiz ham... Xayr, qalay, o‘qishlardan xursandmisiz?

— Endi... Yaxshi, ishqilib...— dedi Saidiy bosh barmog‘ini tirmog‘iga qarab.

Salimxon jon-dili bilan Saidiyning begonasiratmaslikka, o‘zi bilan teng ko‘rib muomala qilishga tirishar va hatto, o‘zini nodonlikka solib, Saidiyning salmog‘ini orttirar edi. Universitet ahvoli, studentlik hayoti, Saidiyning tutgan yo‘li to‘g‘rilarida ko‘p so‘roqlar berdi. Salimxon o‘zini past olgandan so‘ng Saidiy tilga kirdi. Bir

soat o'tar-o'tmas, ikki oradagi begonalik chizig'i ancha xiralashdi, ammo Saidiy uning shaxsiga naqadar el bo'lsa ham obro'yi, ulug'sifatligi har holda ozmi-ko'pmi tortinishga majbur qilar edi.

Salimxon gap kovlab, munosabat tug'dirib, Saidiyning boshlang'ich va o'rta tahsil olgan yerlari, muallimlarini so'radi. Bir yoki bir-biriga yaqin qishloqda yashaydigan ikki kishi avlod-ajdodlarini surishtirgan-da qarindosh chiqib qolganday, Saidiy qancha yoshlik yillarini eslasa, shuncha Salimxonga yaqin kelar edi. Munisxon Saidiyg'a Ishoq afandining suratini ko'rsatganini va Saidiy uni taniganini akasiga aytishdan boya qo'rqan edi, endi bu sir bo'lmay qoldi. Munisxon ustidan og'ir bir yuk tushganday yayrab ketdi-da, shu ondayoq bu gunohning butun g'uboridan ko'nglini poklashga shoshildi:

— Rahimjon Ishoq afandini tanir ekan... Esingizda bormi, aka? — dedi va akasining ko'ziga qaradi.

Salimxon talmovsiradi:

— Qaysi u? Ishoq... ha, ha... Ishoq afandi! Bu odam so'nggi vaqtda bosmachiga chiqib ketgan, deb eshitar edim... Ahmoq...

Saidiy bosh irg'itdi va uning o'limi to'g'risida bilganini so'zlab berdi.

Saidiy so'zlayotganda royalni sekin-sekin ding'illatib o'tirgan Munisxon, u so'zini tamom qilishi bilan mashq boshladi; mashqni tamom qilgandan so'ng avval akasi, so'ngra Saidiy so'rgan kuylarni chalib berdi.

— O'z joyingiz, — dedi Salimxon Saidiy ketishga qo'zg'al-ganda, — mana endi, bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish... Biz bir ko'rishganda do'stlashdik... Munisxon sizdan xursand. Sizlar o'qiydigan fanlarni men bilmayman. Men Madrasai oliyadagidan boshqa tahsil ko'rmaganman, shuning uchun bunga yordam qilolmayman. Endi siz, har qalay, yordam berib turing. Birodaron bir iltimos... Juma kunlari bo'shsiz, men ham bo'shman... Shu kuni dunyoning ishini qo'ying-da, keling, o'tirishamiz. Har haftada bir kun dam olish zarur. Istasangiz yaqin ko'rgan o'rtoqlaringizni ham olib keling.

Saidiy ta'zim qilib chiqdi. Salimxon uni ko'chagacha uzatib qo'ydi; qaytib kirganida chehrasi ochiq edi. U ikki qo'lini quymuchiga qo'yib, uying o'rtasida andek o'ylanib turdi-da, so'ngra divanga o'tirdi. Munisxon kitoblarini yig'ishtirayotib, akasining choyga maylini so'ragan edi, akasi javob berish o'rninga so'radi:

— Nima munosabat bilan Ishoq afandi to'g'risida so'z bo'ldi?

Munisxon bunday so'roqni kutmagan edi, yuragi «shuv» etib ketdi-da, akasiga o'girildi. Salimxon iljayib turar edi.

— Xudo ursin agar... O'zi aytdi, — dedi Munisxon, — akasining iljayishidan shubhalanib.

Salimxonning iljayishi qahqahaga aylandi.

— Men seni ayblamadim... ayblamadim...

— Nima, bo'lmasa... odamga allaqanday qaraysiz? O'zi aytdi. Saidiyning Ishoq afandi chet elga olib ketmoqchi bo'lgan ekan. Men aytdimki, bu odam... bir vaqtlar... akam yomon ko'rar edi, biznikiga ham bir kelgan edi, dedim...

Shu kechasi Salimxon erta saharda poyezdga chiqadigan odamday xotirjam uxlay olmadi. Bu kecha unga odatdagidan uzunroq tuyuldi.

XII

So'nggi haftalar davomida Salimxon Saidiyning shuncha tez-tez so'raydigan bo'ldiki, hatto, Munisxonning ko'ngliga turli gaplar kela boshladi. So'z o'rni kelganda, u Saidiyda zakovat belgilari ko'rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini so'zlar, buni esa Munisxon oqizmay-tomizmay Saidiyga yetkizar edi.

Saidiy kelgan kunlari Salimxon uyda bo'lishga tirishar va Saidiyning juma kunlari kelishini ko'p pisanda qilar edi. Saidiy ko'pincha turli bahonalar bilan kelolmasligini bildirardi. Bir safar, katta odamning gapini hadeb qaytaraverishga yuzi chidamay, juma kuni kelishga va'da berdi; kelganida qanday bo'ldiki, ikki-uch soat o'tirishni mo'ljallagan odam kechasi soat o'n birgacha o'tirdi. U kelganda Munisxon yo'q edi. Qayoqqa ketganini so'ragani bo'lmadi, ammo uni shu vaqtgacha bu yerga bog'lagan

ip har holda Munisxon emas edi. Nechukdir Salimxon bilan ikki orada Munisxondan boshqa yana bir vosita tug'ildi. Bu vosita o'rgimchakning to'riday kuchsizgina bir ip bo'lib, uning nimadan iborat ekanini Saidiyning o'zi ham bilmas edi. Bu nima ekanini o'sha kechasi hujrasiga borib ko'rpaga kirganidagina payqaganday bo'ldi: Salimxon o'zining obro'yi, ulug' sifatligiga qaramay, takabbur emas, dilkash, ko'nglida kiri yo'q, kim qanday yomon ahvolda qolsa yordam qo'lini cho'zadi; madaniyatni sevadi, o'zbek xalqidan dohiylar chiqishini tilaydi; odam taniydi; kishidagi qobiliyat, zakovatni go'yo o'ta ko'radi. Xususan shu so'nggisi o'sha ipning asosiy unsuri edi.

Shunday qilib, Saidiy avvallari har zamon, so'nggi choqlarda har juma, ba'zan payshanba kechalari Salimxonning qistashiga ko'ra kelib turadigan bo'ldi. Saidiy haftalik hordig'ini chiqarib qaytardi, payshanba kechalari kelganida ba'zan yotib qoladigan bo'ldi.

Kuni bo'yi va kechalari bilan bo'lgan suhbatlarda gap mavzudan mavzuga sakrardi. Juda ko'p mavzular o'tdi: Panama kanalining qazilishi, Rus-Yapon urushining sabab va natijalari, «Imperatritsa» paroxodining halokati, ingliz olimi Ramzeyning yer ostidagi ko'mimi gazga aylantirib foydalanish mumkin ekanligini ochgani, Bayronning jahongashta bo'lgani, Angliyaning mustamlaka siyosati, To'qay davridagi tatar adabiyoti, insondagi qobiliyat va zakovat, islom va isloh, turklar bilan armanilar orasidagi adovat, kompartiyaning milliy siyosati, Turkistonning fath qilinuvi va hokazo.

Bir juma kuni so'z Tolstoyning vafoti haqida ketib, Salimxon Abdulla To'qayning shu munosabat bilan yozgan sochma she'rini yod o'qib berdi.

Tolstoy o'lganda Salimxon Ufa madrasasida bo'lib, yangi borgan choqlari edi. Otasi uni o'zining do'sti — taraqqiyparvar mashhur boy Husaynovning qistashi bilan yuborgan. Husaynov Salimxonni Qozonga olib borib, o'zining yosh kuyovi bilan Ufaga yubordi. Uning kuyovi jonli, hushyor, qo'lidan har ish keladigan yosh bir yigit edi. Salimxon ko'p yillarni shu bilan hamhujra

bo‘lib o‘tkazdi. Bu yigit o‘sha vaqtdagi Salimxonni hayron qoldiradigan masalalar bilan shug‘ullanar, gazeta-jurnallar o‘qib, maqolalar yozar edi. Keyin-keyin Salimxon uning fikriga tushuna boshladi, hatto ba’zi bir masalalarda bahslashadigan bo‘ldi. Bu odam dinda, maktablarda turli islohotlar o‘tkazishni, podsho hukumatining yiqiluvini tilar, turkcha so‘zlab doim: «Har kasing hurriyati afkordan istifoda etdigi zamonda Rossiya musulmanlari bu hurriyatdan nechun mahrum o‘lsinlar?» der edi. Salimxon nazarida esa chor hukumati yomon bo‘lsa ham, Rossiyaning fabrika-zavodlari yaxshi edi; bir necha yil shu fikrda yurib, bir martaba Turkistonga kelib ketganidan so‘ng, yigitning gapi ma‘qul, o‘shanday talablar haqli ekaniga ishondi va shu fikrning butun musulmon sharqiga tarqalishini xohlab qoldi; so‘nggi yillarda «Vaqt», «Tarjimon» va boshqa birmuncha gazetalarning nima deyayotganini anglab, Turkistondagi milliy harakatni shu g‘oya bayrog‘i ostiga burish uchun xizmat kamarini bog‘ladi. Bu davrdagi Turkistonning yosh ziyolilari esa shunday tajribali ustod qo‘lidan chiqqan shogirdlarga muhtoj edi...

XIII

Bir kuni Saidiy o‘qishdan qaytib, hujrasining eshigini ochganida oyog‘i ostiga bir konvert tushdi. Konvert uzunchoq, yuqqagina bo‘lib, ustida bir idoraning shtampi bosilgan edi. Pochchasi bilan birga ekanida Moliya shu‘basining bildirishini, tergov idoralarining chaqiruv qog‘ozlarini ko‘ra-ko‘ra yurak oldirib qolgan Saidiy qo‘rqib ketdi. Xira tushgan shtampni sinchiklab o‘qishga sabri chidamay, konvertni yirtdi. Uning ichidagi ikki buklangan qog‘ozning yuqorisida Saidiyni yoniga yo‘latmagan o‘sha jurnalning shtampi bo‘lib, ostiga «o‘rtoq Saidiy!» deb yozilgan edi. Saidiy bu xatni hayot-mamotdan darak beradigan telegrammaday ko‘zdan kechirdi:

«O‘rtoq Saidiy! Idora xizmatchilarimizning ehtiyotsizligi orqasida bo‘lsa kerak, qoladigan materiallar orasiga tushib ketgan «Vodiy» sarlavhali she‘ringiz, «Qalandar» sarlavhali hikoyangizni

kechikib bo'lsa ham navbatga qo'ydik. Shu ikki asaringiz yuzasidan idoraga bir kirib chiqishingiz so'raladi. O'rtoqlik salomi bilan: Kenja»

Saidiyning vujudini titroq bosdi, bu titroq qo'rquvdanmi, kutilmagan sevinchdanmi ekanini o'zi ham bilmas edi. U xatni ikki-uch qayta o'qigandan so'ng, o'zini andak bosib olib, atrofiga qaradi, nazarida, butun ashyolar tusi o'zgargan, kulib turganday ko'rinar edi. Saidiy xatarli dovonga yopishib oxiri eson-omon uning ustiga chiqqanday uf tortdi-da: «Olam yaxshi. Hayot go'zal. Natijasiz mehnat bo'lmaydi», dedi.

U eshikni yopib pechkaga suyandi, so'ngra, paltosini yechib karavotga irg'itdi-da, karavot yoniga bordi, uning ostidan jumallarni oldi va tiz cho'kib hammasini varaqlay boshladi; jumallarning muqovasidagi litograf¹ bo'yoqlarining hidi, nechukdir, dimog'iga xush kelar, uni ataylab hidlar edi.

Saidiy shu kuni kechgacha hujrada ivirsib ovqatga ham bormadi; kechasi hujrani yaxshilab yig'ishtirdi, kitoblarni qaytadan terdi, xatni oppoq qog'oz yoyilgan stolning bir chetiga qo'yib, she'r va hikoyalarini ko'chirib qo'ygan daftarini uzoq varaqlab o'tirdi; biron narsa yozishga uringan edi, sira boshlay olmadi; biron narsa o'qishni esa sira xohlamas edi.

Saidiy ertalab vahimaga tushdi: xatda garchi she'r bilan hikoya bosish uchun navbatga qo'yilgani ochiq aytilsa-da, yozuvchilik ishi nazariga bir tilsim bo'lib ko'ringani uchun bunga to'la ishonib yetmas edi. U Kenjaning kim va qanday odam ekanini bilmaydi. Kim biladi, balki u jo'rttaga shunday xat yozgandir: borsa yo urishib berar, yo «shoir bo'lmagan bir sen qolgan eding, yaqinda ariza va qarorlar ham she'r bilan yoziladigan bo'ladi!» deb ko'pchilik ichida o'sal qilar. Bormay qo'ya qolsa-chi?

Saidiy har holda borishga qaror berdi, ammo yuragi orqasiga urib, nonushta ham qilolmadi, non og'zida aylanadi, xuddi bir narsa tomog'idan bo'g'ib turganday, yutolmaydi.

¹ *Litograf* — bosmaxonada harf teradigan uskuna.

Saidiy jurnal idorasiga yetguncha o'zini-o'zi ogohlantirib bordi: «Hoy bola, asli, qachon bo'lsa-da, ro'yobga chiqish umidida mashqningni qilib yuraversang bo'lar edi. Endi-ku, borishga borayotirsan, so'lib qaytishni bir martaba bo'yingga olib qo'y!» Butun qiyinchilik qovog'ini solib turganday ko'ringan boshqarma binosi bo'sag'asidan o'tishda bo'ldi, yo'lakka kirganidan so'ng o'zini dadil tutdi, hatto ikki tomondagi qator ketgan eshiklarning biridan chiqqan ulug'sifat bir odamdan Kenjaning qaysi uyda ekanini tortinmay so'radi, o'shanday dadillik bilan eshikni ochib kirdi. Kiraverishda o'ng tomonga qo'yilgan abjaqqina stol yonida bir yigit o'tirar edi. Uyning to'ridagi, ko'rinishda kattaroq odamning o'rni ko'ringan stol ustida dasta-dasta qog'oz yotar, ammo egasi yo'q edi. Haligi yigit boshini ko'tarib, Saidiyga bir qaradi-da, yana o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi. Saidiy uni tanidi. U bir vaqt borgani yozuvchilar majlisida kaltaklangan, bebro' qilingan yigit edi. Saidiy to'g'ri sersavlat stol yoniga borib kutdi. Ozginadan so'ng pakana, yumaloq, bo'yni kalta, yuzi shishinqiragan, zahil bir yigit kirib, Saidiyning aftiga ham qaramay, stolga o'tirdi va qog'ozlarni titkilay ketdi. Saidiy ancha kutdi. Bu odam boshini ko'tarib qaramagandan so'ng, sekin:

— O'rtoq Kenja siz bo'lasizmi? — deb so'radi.

Shunda ham bu odam Saidiyning yuziga qaramay javob berdi:

— Ana u kishi!

Saidiy burilib ketdi, Kenjaning oldiga bordi. Kenja ishlab turgan ishini bir chetga surib, Saidiyga qaradi va so'rashgani qo'l uzatdi.

— Siz Rahimjon Saidiymi? Yaxshi, qani o'tiring!

Saidiy o'tirdi. Kenja stolning tortmasidan Saidiyning qo'lyozmalarini oldi.

— Bu sizning birinchi asarlaringizmi yo ilgari ham yozib yurar edingizmi?

— Shu... Uncha-muncha mashq qilib yuraman. Bir-ikkitasini yuborgan edim.

— Har ikkala asaringiz ham bosishga yaraydi, ammo ikkovida ham, xususan she'rda, mening bilishimcha, birmuncha kamchiliklar bor. Men bularni aytay, istasangiz hozir, shu yerning o'zida, yo'qsa keyinchalik bafurja muhokama qilib ko'ring. Agar to'g'ri bo'lsa, o'zimiz va boshqa o'rtoqlarning yordami bilan tuzatarmiz.

Olamda kishini yayratadigan narsalarning hisobi yo'q, ammo bularning hammasi zaharli so'z, olovli qamchi kutgan kishing tomonidan bo'lgan iltifotga yetarmikin? Kenja «mumtoz shoirlar»dan emasligini Saidiy bilsa ham, har holda, undan zaharli so'z, olovli qamchi kutgan edi.

— Yozgan narsalarim maslahat berishga arzirlik bo'lsa, yana siz ko'mak va'da qilsangiz suyunaman...

Saidiy uning she'r haqida bergan maslahatlarini ma'qulladi, ammo ichida o'ylar edi: «Bu yumshoqlik, shirin so'zlik bilan odamning adabini beradigan xilidan ko'rinadi. Hozirgina ikkala asarni ham yaroqli degan edi. Muloyimlik bilan she'rni chiqitga chiqardi. Endi hikoyani ham sekin qo'limga qaytarib beradi-ku!»

— Hikoyangiz yaxshi, ammo notamom, — dedi Kenja.

«Ana, — dedi Saidiy ichida, — aytmadimmi». U nimadir demoqchi edi, Kenja davom etdi:

— O'zbek qizining yomon turmushini ustalik bilan ko'rsatgan bo'lsangiz ham, shu bilan kifoyalanmaslik kerak edi. Biz, bo'lajak adiblar, turmushning botqoq yerlarinigina emas, undan chiqish yo'llarini ham ko'rsatishimiz lozim. Shuning uchun men hikoyangizga bir bob qo'shdim. O'qib beraman, rozi bo'lsangiz — shunday, yo'qsa, aslicha bosilar.

Bu bob hikoyagagina emas, Saidiyning o'ziga ham jon kirgizdi.

— Bilasizmi, Kenja aka, — dedi Saidiy, — shu hikoya bosilib chiqsa qancha xursand bo'lishimni ko'z oldingizga keltira olasizmi? Hozir men undan necha hissa ortiq sevindim. Hikoya bosilib chiqqanda men faqat uning bosilganiga quvonar edim, xolos. Shu hikoyani tuzatish uchun qancha vaqt, sabr va mehnatni ayamaganingiz menga boshqa bir shodlikdan darak beradi: demak, yozaversam bo'ladi, demak, maslahat va ko'mak berishga arziyman,

demak, odamlar asarimni ko‘rib «orzuga ayb yo‘q», yo bo‘lmasa «notavon ko‘ngil», deb kulmaydi.

Kenja kuldi.

— Demak, shu bobga rozisiz?

— Do‘stona ko‘magingiz uchun tashakkur bildirishdan boshqa so‘zim yo‘q.

Kenja qo‘lyozmalarni stol tortmasiga soldi. Saidiy o‘rnidan turmoqchi bo‘lganda, Kenja to‘xtatdi.

— She‘ringizda chiroyli satrlar bor, boshqa she‘r yozganingizda shularni ishlating. Mavzu tanlashda bu kun maydonda bo‘lgan hamma asarlarga ham ergashavermang. Bir yosh shoira o‘tmishdagi xoqonlarni sog‘inib she‘r yozibdi. Holbuki xon-xoqonlar zamonasida unga o‘xshagan o‘nlab ayollar bitta erkakning cho‘risi edi. Nimasini sog‘inadi o‘sha hayotning? Kulgi! Men bilaman, bu ayol xon-xoqonlarni sog‘ingani yo‘q, ba‘zi bir katta shoirlarga ta‘sib qilib shunday she‘r yozgan...

Saidiy hozir mast kishiday — uning ko‘ziga qiyin ish oson, filday narsa hasharotday ko‘rinar edi. Agar bu xushfe‘l, xushmuomala, oqko‘ngil odamga odamlarcha muomala qiladigan kishi yer islohoti mavzui yaxshi, der ekan, nima uchun shu mavzuda besholti hikoya yozish mumkin bo‘lmasin? Kamchiligi bo‘lsa o‘zi do‘stlarcha kengash va yordam berar ekan. Saidiy shu mavzuda bir hikoya yozishga va‘da berdi va ketgani o‘rnidan qo‘zg‘alayotib, minnatdorchilik bildirdi.

— Qimmatli vaqtingizni berganingiz va ko‘rsatgan do‘stona yordamingiz uchun rahmat. Men ilgariroq bilmaganman, agar bilsam ilgari she‘rlarimni pochta orqali yubormasdan o‘zim olib kelar edim.

— Ilgari ham she‘rlar yuborganmidingiz?

— Yo‘q, gap ularning bosilmaganida emas. O‘zim olib kelganimda kamchiliklari ko‘rsatilar va bu ko‘rsatmalarning keyingi ishlarim uchun katta yordami tegar edi.

— Ilgari ham she‘r yuborganmidingiz? Bizga kelmagan, — dedi Kenja va narigi stolda o‘tirgan badqovoq yigitga qaradi.

— Yoqubjon, Rahimjon Saidiyning she'rlari sizga tushganmi? Yoqubjon negadir zardobga to'lib o'tirgan ekan, do'ng'illab javob berdi:

— Bilmayman, ko'rganim yo'q!

— Shundaydir, o'rtoq Saidiy, yuborgan bo'lsangiz ham bizga kelmagan bo'lishi mumkin, bunday hodisa bo'lib turadi.

— Jurnalda javob ham chiqqan... Ko'p javob beril-di... — dedi Saidiy tortinib.

— Qani, qachon, qaysi sonlarda? — dedi Kenja va chiqqan jurnallarni olib Saidiyning oldiga qo'ydi.

Saidiy jurnallarga qo'l tekkizmay «o'tgan ishga salavot» demoqchi bo'ldi. Kenjaning o'zi qarab chiqdi. Bir necha son jurnalda muttasil va ba'zi bir sonlarda ikki joyda Saidiyning ismini «bosilmaydi» so'zi bilan bezalganini ko'rib avval hayron qoldi, so'ngra bir oqardi, bir qizardi.

— Yoqubjon, shu narsalarni men ham ko'rganmikanman?

Yoqubjon o'zini ishga haddan tashqari berilib ketgan va uning gapini eshitmaganga soldi.

— A, Yoqubjon?

Saidiy o'ng'aysizlanar va Kenjaning aftini ko'rib, biron mojaro boshlanishidan qo'rqar edi.

Kenja savolini yana bir takrorlagandan keyin Yoqubjon, yuzida asabiy tabassum bilan javob berdi:

— Sizning ko'rgan-ko'rmaganligingizni men qayoqdan bilaman? Kecha qaysi pivoxonada uchib qolganingizni ham mendan so'raysizmi?

Kenjaning rangi oqardi.

— Yoqubjon, men sizdan nasiyaga mol so'rayotganim yo'q, idorada, ish ustida, ish yuzasidan gapirayotirman?

Kenja butun jurnallarni qo'ltiqlab Saidiyni yetakladi, uni muharrirning oldiga olib kirdi va voqeani boshdan-oyoq bayon qildi. Muharrir juda og'ir odam ekan, jurnallarni ko'rib chiqqanda, bosh qashlab dedi:

— Xo'sh, kim ko'rgan ekan bu narsalarni?

— Hamma gap shunda-da! Aftidan, hech kim ko‘rmasdanoq, «bosilmaydi» javobi berilavergan. Jurnalda yoshlarga tarbiya va kengashni reklama qilamiz, holbuki bir yosh yozuvchi yigirmalab asar yuborib bir og‘iz maslahat ololmaydi.

Muharrirning jahli chiqdi.

— Nega shunga qaramaysiz, axir? U asarlarni ko‘rmagan bo‘lsangiz, mana bu javoblarga diqqat qilmaysizmi? Nima bu, ketma-ket yigirmalab «bosilmaydi». O‘rtoq Saidiy, bitta ham yozma javob olganingiz yo‘qmi?

Saidiy «yo‘q» degani tortindi. Kenja javob berdi:

— Eng oxirgi asarlarini ham men korzinkadan topdim. Bitta ham yozma javob olgan emas. Men «bosilmaydi»larga diqqat qilmabman.

— Qani, Yoqubjonni chaqiring! Kenja chiqib Yoqubjonni olib kirdi.

— Xo‘sh, Yoqubjon, — dedi muharrir, — bu «bosilmaydi»ni ko‘paytirib yuboribsizmi? Yosh qalamlaringizga yozma maslahat yuborishni esingizdan chiqarganingiz yo‘qmi?

Yoqubjon xiyla shoshib qoldi:

— Borib turadi. Ba‘zilari qaytadi. Berilgan adres noto‘g‘ri bo‘ladi.

— Mana bu kishining o‘zi kelibdi, agar ko‘rsatgan adresi chatoq bo‘lib, xat qaytgan bo‘lsa, hozir o‘ziga bering.

Yoqubjon chinakam gangidi.

— Qaytgan xatlarni saqlamaymiz.

— E, qaytgan xatni saqlamasangiz uning yuborilgani va qaytganini qanday bilamiz? Mana hozir bu kishi bizga da‘vogar. Ayb bizda emasligini qanday isbot qilamiz? Bu yaramaydi. Yoshlarga tarbiya va kengash uchun oyiga ming so‘mlab jamoat pulini sarf qilamiz. Berilgan maslahatlar havoga uchaversa, sarf qilingan pul isrof hisoblanadi-yal!

Yoqubjon o‘rnidan turmoqchi edi, undan ilgari Kenja chiqib Ilhomni olib kirdi. Saidiy Ilhomni tanidi, uni ikki marta Salimxonning uyida ko‘rgan edi. Muharrirning avzoyini ko‘rib Ilhomning ham rangi o‘chdi.

— Xo‘sh, o‘rtoq Ilhom, — dedi muharrir,— yosh qalamlaringizning ahvolidan xabardormisiz, yo maslahat berish ishini ham to‘xtatib qo‘ydilaringmi? Yuborilgan maslahatlardan kopiya qolmas ekan. Ish rasvo-ku! Xo‘sh, gapni qisqa qilaylik-da, ertadan keyin soat o‘n birga shu ishga aloqador kishilaringizni to‘plang. Erta-indin chiqadigan sonda ham bir talay «bosilmaydi» bordir-a, Yoqubjon? — Bosmaxonaga borib, olib tashlang. Minba‘d jurnalda javob berishni tark qiling. Kallamiz toza shishgan ekan!

Yoqubjon chiqib ketdi. Uning ketidan Ilhom ham chiqdi.

— Jinoyat!—dedi muharrir.

Kenja qo‘zg‘olmandan keyin Saidiy ham o‘rnidan turdi. Shunday ko‘ngilsizlikka sabab bo‘lgani uchun Saidiy ko‘p xijolat tortar edi. Kenja bilan xayrlashganida afv so‘radi...

XXII

... Saidiy birinchi xayrixohlikni Ilhomga qildi.

Bir kuni universitet binosining ikkinchi qavatidan Munixon bilan tushib kelayotganida zining oxirida bir bola «Rahimjon aka» deb, so‘rashgani qo‘l uzatdi. Saidiy uni tanidi. U yoshligidagi hammaktabi — Tesha edi. Saidiyning ko‘z oldiga darhol uning ro‘zada saharlik ustida uxlab qolishi keldi va maktab mudiri turk ofitserining «hodi, qalq, bir urib bolta yoparim» degani qulog‘iga eshilib ketdi.

— Baxayr? — dedi Saidiy.

— Rabfakda o‘qib turibmiz... — dedi Tesha, universitet studenti oldida o‘zini past olib.

Munixon zinadan tushib, eshik oldida Saidiyi kutib turar edi. Saidiyning bu bola bilan gapirishadigan gapi zotan yo‘q, bori ham tugadi-da, uyga taklif qilishdan boshqa gap topolmadi. Tesha Saidiyning imzosini matbuotda ko‘rsa ham, o‘zini sira uchratolmaganini aytganidan keyin, Saidiy adresini berdi.

Oradan ikki kun o‘tgandan keyin kechqurun Tesha Saidiyning hujrasiga keldi. Saidiy ham uni yaxshi qarshi oldi. Muloyim,

kamtar bu yigit Saidiyga shuncha yoqdiki, u bilan yarim kechagacha gaplashib o'tirdi.

Shundan keyin Tesha tez-tez kelib turadigan bo'ldi. U har safar Saidiydan ko'p ma'lumotlar umidvor bo'lib kelar va noumid ketmas edi. U ketgandan keyin Saidiy o'zicha: «Bilimga chanqagan yigit», deb qo'yar edi. Tesha bir kuni yozmoqchi bo'lgan bir maqolasi to'g'risida maslahat so'rab keldi. Tesha, odatda, Saidiy bilan bahslashish kuchidan kelmaganini har bir so'zi, har bir harakati bilan bildirib turar edi, ammo bu safar bahs ochildi. Tesha Saidiyning hamma so'zini ma'qullar, ammo muddaoga kelganda boshini chayqar edi. Nihoyat, Saidiyning achchig'i keldi:

— Xo'p, nima demoqchisiz?..

— Nima demoqchi bo'lar edim. Ilhom domlaning bu fikrlari noto'g'ri! Endi mana shu maqolani gazetaga beraman.

— Xayr, bera qoling, balki bosilar...

Shu bilan Tesha uning hujrasiga ikkinchi qadam qo'ymadi. Saidiy bu xabarni Salimxonga yetkazdi.

Orada uch kun o'tar-o'tmas, Ilhom turar joyining uzoqligini bahona qilib, rabfak direksiyasiga ariza berdi va muallimlikdan bo'shab oldi. Shu bilan Saidiy Ilhomga xayrixohlik ko'rsatgan bo'ldi.

Shundan keyin Ilhom Saidiyga ilgarigidan ham yaqinroq bo'ldi.

— Bir hikoya, — dedi Ilhom bahor kechalarining birida, shahar bog'ida pivo ichib o'tirib, — eridan uchta go'dak bilan qolgan xotin. Qish, uyidagi butun ro'zg'orini sotganda bir qadoq nonga yetmaydi. Kechqurun. Qattiq shamol. Ochdan o'lmaslik uchun xotin bolalarini yetaklab ko'chaga chiqadi. Odamlarning sovuqligi qishning sovuqligidan ham ortiqroq bo'ladi. Xotin yiqiladi, bolalari uning ko'kragida. Xotin jon beradi. Qor ko'madi. Istanangiz bolalarni ham o'ldiring, istasangiz ularni biron farzandsiz olib ketsin.

— Sun'iy chiqadi, — dedi Saidiy, — turmushda bo'lmaydigan narsa...

— Yo'q... Ustalik bilan berilganda bu manzaraning qanday ta'sirli chiqishini aytaman. Juda badiiy chiqadi...

Saidiy unamagansimon qoldi. Oradan bir hafta o'tgandan keyin Ilhom unga shu hikoyaning planini berdi. Bunda hikoya uch bobga ajratilgan: bola bilan qolgan bevaning turmushi, qish sovuqligi va odamlarning sovuqligi, ijtimoiy ta'minot idorasi.

— Oxirgi bobning ahamiyati yo'q, — dedi Ilhom, — siyosiy yoqdan kerak, xolos. Avvalgi ikki bobni ishlashda bor kuchingizni ko'rsatasiz. Bu badiiy lavha. Atoqli tanqidchi Abbosxon ham mavzuni ma'qulladi:

— Basharti tanqid qilinsa yana yaxshi, tanilasiz, tanqid darajasida asar yaratish oson ish emas. So'kilsangiz ham mayli, o'quvchingiz ko'payadi.

Saidiy hikoyani bir haftada tamom qilib, Ilhomga ko'rgani bergan edi, ikki kundan so'ng uni Abbosxonning qo'lida tahrir qilingan holda ko'rdi. Hikoyaning yarmini deyarli tashkil qiladigan oxirgi bobi batamom o'chirilgan va undan faqat shu jumlar qolgan: «Bolalar ijtimoiy ta'minot idorasini topishdi va yagona soyabonlari ekanini bilishdi».

Abbosxon buni jurnalning navbatdagi sonida bostirishni va'da qilgan edi, biroq jurnal uch son chiqdi hamki, hikoya bosilmadi. Shu hikoya tufaylidan Kenja bilan Abbosxon orasida ko'p janjallar bo'libdi. Buni Saidiy keyinchalik Munisxondan eshitib, Kenjaga bo'lgan adovati yana ortdi.







MAQSUD SHAYXZODA
(1908 – 1967)

Umumturkona soʻzlarning sermaʼno tovlanishi, mohirona topilgan qofiyalarning qoʻllanilishi, badiiy vositalarning taʼsirchanligi singari uslubiy fazilatlari maftunkor tafakkurli Shayxzoda lirik qahramonini oʻquvchiga yanada hammaslak va hamfikir qiladi. Qalamiga mansub «Mirzo Ulugʻbek» dramatik fojiasi shu janr va mavzudagi nodir asarlardan. Hassos shoir lirikadagi ijodi bilangina emas, tarjimachilik, olimlik, muallimlik faoliyatining yorqin siymolaridan sanaladi.

TOSHKENTNOMA

(Lirik poemadan parchalar)

BAGʻISHLOV

Shaharlar boqiydir, umr — oʻtkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar — koʻchkinchi.
Har kim oʻz shahrida qoʻygan esdalik:
Yo bino qurishda katta ustalik,
Yo shirin latifa yoki ixtiro,
Yo daraxt, yo farzand, koʻprik, yo misra,
Yo qoʻshiq, yo dori, maktab, sogʻchilik,
Xulosa: dunyoda biron yaxshilik...
Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab
Qilarkan taʼrifin, sen bir oz toʻxtab:
«Shunchalar bormikan?» deb gumon qilding,
«Koʻrganda aytamiz!» deb imo qilding.

Va aytding — darvoqe, koʻrgandan keyin:
«Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!»
Qomatga munosib boʻlsin deb libos,
Shahrimga dildagi muhabbat, ixlos
Dostonga quyilsin degandim u choq,
Kechikib yozganim kechirgin, oʻrtoq!
Bu yerda turganlar yoki koʻrganlar,
Yoki koʻrayin deb istab turganlar,
Yoki Toshkentimning shaklin soʻrganlar,
Naqshini dilida olib yurganlar...
Sizga bu taronam — kuyim armugʻon,
Nasr — ogʻir qadam, nazm — chopogʻon.

III

Eh-hey, mening shahrimning koʻhna qissasin,
Qissasinki, ming yillar qaʼriga choʻmgan,
Yer qatlarida qotgan sir-hodisasin.
Hodisaki, vaqt uni tuproqqa koʻmgan, —
Kimlar ayta oladi? Bormi guvohlar?
Axir, ming yil yashamas qushlar, giyohlar!
Tushdi ne-ne zahmatlar bu yer, bu elga.
Balki toshlar aytardi, kirsaydi tilga!

.....
Sargʻaygan qoʻlyozmalar, jimjima xatlar,
Mulla bobolarimiz chizgan sanadlar...
Varaqladim birma-bir oʻtmishni eslab,
Asrlar qadamida bir maʼno izlab.
Bir avlodning umri-ku bagʻoyat qisqa,
Ammo talay avlodlar mangu xalq demak.
Xalq kurashi oʻlmaslik uchun vasiqa,
Dadillikka umidlar berardi koʻmak.
Uzilmasin zamonning rishtasi deya,
Asrlarning orasi qolmasin deb boʻsh,
Yemasin deb tarixning varagʻin kuya,

Qullikka erk tilagi kerib turdi to'sh...
Ha, bilim qolar ekan, yozuv qolarkan,
Yozuvdagi azaliy orzu qolarkan,
Yomonlik o'lar ekan, pastlik o'larkan,
Istibdodning qal'asi bir kun qularkan!..
Oh, kitoblar, kitoblar, mangu ishchilar,
Beg'araz xayrixohlar va kengashchilar!
Mehnatning ta'rifini yozgan kitoblar,
Mardlar nomin harfma-harf tizgan kitoblar;
Yillarim oqib ketdi sahifalarda,
Siz goho kuldirdingiz latifalarda.
Goho mudhish janglarni tasvir qildingiz,
Qirg'inlarni naql etib, ta'sir qildingiz.
Goh ustalar hunarin bayon etdingiz,
Olimlarning kashfini ayon etdingiz.
Lekin sizlar shohidi bo'lgan zamona
Ming yildan nari o'tmay turar hamona
Nari yoqning kechalar va kunduzlarin
Xalq esida qidirib topdik izlarin.
Qolgan-qutgan naqlar, afsonalar bor,
Nom-nishonsiz kuychilar qo'ygan yodgor:
Ajdodlarning devlar-la panjalashgani,
Kelganida g'animning qancha lashkari,
Pahlavonlar yovlarni qirib quvgani,
Buloqlarda qon yuqi qilich yuvgani...
Ertaklarning tog' kabi eski mag'zida
O'tgan mojarolarning chuvuq iplari,
Dostonlarning suv kabi ravon so'zida
Go'zallikning, mardlikning so'nmas tiplari.
Naqlarga, qo'shiqqa, rivoyatlarga,
Maqollarga, ertakka, hikoyatlarga
Men umrimda juda ko'p quloq osibman.
Eshitibman bog'bondan, nonvoy, kosibdan,
Paxsazonlar — tuproqni pishitganlardan,

Ular o'zi eshitgan eshitganlardan.
Arxeolog kuragin tuproqqa qoqib,
Turtdi moziy belini bosgan yuklarni,
Numizmatlar¹ ko'ziga oynagin taqib,
O'qidilar tangada ming yilliklarni.
Isodan, Iskandardan, Kaykovuslardan,
Ilgariroq bu yerda bozorlar bo'lgan.
Taqachilar suv ichgan ko'k hovuzlardan,
Ayvonlarni oynasoz oynaband qilgan.
«Shosh kamoni»² ta'rifi merganlar aro
Eron bilan Turonda bo'lgan ovoza.
Polizlarda uzoqdan ko'rinar qaro,
Chalinardi ko'zlarga baland havoz.

V

Esimda Anhorning yog'och ko'prigi,
Bu yerni azaldan deyishgan O'rdada.
Jismi yo'q, ismi bor. Beklarning arki,
Nom qolgan, ammo nom egasi murda.
Toshkentning hokimi, beklar begisi
Shaharni so'ragan O'rdada turib,
Lekin g'ovak ekan qal'a negizi,
Devor ham, davlat ham qulagan chirib.
Zamon po'k narsani tez unuttirar,
Ya'ni, turg'unlikdan hayot o'ch olar.
Eski loy qal'a yo'q, qissasi turar,
Yerga cho'kib ketgan eski ko'chalar...
Hozirda bu holat... Ammo bu yerda —
Avvalgi asrning yarmiga dovur
Hukumat deyilsa mazmuni — «O'rdada».

¹ *Numizmat* — qadimgi tangalarni tekshiruvchi mutaxassis.

² «*Shosh kamoni*» — qadim davrlarda Shoshning — Toshkentning o'q -
yoylari Eron, Turkiston va boshqa sharq o'lkalarida mashhur bo'lgan.

U yillar otganlar Sayhunday og'ir,
O'n ikki qopqadan, o'n ikki yo'ldan.
Bojgirga pul to'lab kirgan karvonlar,
Har yurtning matoin quv bozorbonlar
Joylab qo'yar ekan, o'tkazib qo'ldan...
Goho yutqizishda, goho yutuqda,
Bir-birin anglardi oliq-sotiqda,
Bir-birin tilmochsiz tushunar edi,
Ularga aniq til — molning sifati.
O'n ikki qopqadan, o'n ikki yo'lga
Jo'nab ketar ekan yukli karvonlar.
Janubga, Shimolga, o'ngga va so'lga
Qatnab yurar ekan yukli karvonlar.
O'n ikki qopqadan goho bemahal.
Otliq bosqinchilar kirgani ham bor.
Xanjarlar damida sanchilib ajal,
Tinch xalqni to'nardi qilib tor-u mor.
Goho atrofdagi yo'lto'sar beklar
Dastidan sovrildi karvonlar — yuklar.
Goho olisdagi amirlar, xonlar,
Ishratga o'larmon nafsi yomonlar
Xun deya, kul deya, pul deya bosdi,
Talon-toroj qildi, zo'rladi, osdi.
Goho yot yerlardan «men-men»chi shohlar
Lashkar tortib keldi dag'dag'a birla,
Yo'llarda yotardi ko'p begunohlar,
Fotihlar izlari — beson qabrlar.
Tilingdan, elingdan kech, deb buyurdi,
Tiz cho'kmay «yo'q» dedi botirlar yurti.
El-elat qo'zg'alib zolimni quvdi,
Qaytadan tuproqdan axlatni yuvdi.
Ammo biri ketsa, battari keldi,
Yangi ochko'zlarning xatari keldi.
Goho Buxoroga, goh Samarqandga,

Goh Qipchoq cho'lig'a, goho Xo'qandga
Xiroj to'lar edi Shosh fuqarosi,
Cho'zildi uzilmay janglar arosi.
Erksevar shaharning yoshi, qarisi.
Tosh ila, musht ila, o'q va tig' ila
Erkinlik jazmida xalqning barisi
Bosqinchi lashkarga qilardi hamla.
Anqovroq ko'rinsa shahar hokimi,
El sha'nin saqlagin mardlar turkumi
Muhrini qo'lidan tortib haydashdi;
(Ko'pdir fuqaroyu bek sarguzashti!)
Shosh ahli bahodir bo'lsa-da, asti
Birovlar shahriga bo'lmagan qasdi...

X

— Nimasi ko'p Toshkentning?
— Suvi, soyi, soyasi...
Toshkentga ixlosmandning
Tugamas hikoyasi!..
— Nimalar ko'p Toshkentda?
— Oshlar, ishlar, kishilar.
Sozanda-yu pazanda,
Ishchilar, ishboshilar.
— Nima ko'rding Toshkentda?
— Mevalarning aslini,
Doim quyosh faslini,
Quyosh bunda izzatda.
Orasta ayvonlarda
Yangi qizlar ko'raman,
Yashil xiyobonlarda
Eski do'st-la yuraman.
Tong yorigan choqlarda
Yerga kulgi sochilar,
Shu uchun dudoqlarda

Sho‘x g‘unchalar ochilar.
Toshkentda yoz issig‘i
Dilga berar yigitlik,
Kabobpazning har sixi
Kun tufayli xushhidlik.
Terakzorlar xushbichim,
Bog‘larda hamma yoq jim.
Yer ham, ko‘k ham moviy rang,
Havoning yuzi tiniq.
Shuncha tiniqki, qarang:
Gullarning atri aniq —
Havoda bilinadi,
Ko‘zlarga chalinadi.
Anu daroz chinorlar
O‘tgan kuzni va qishni,
Bahorda kelgan qushni
Tinmay-sinmay sanarlar.
Bulut osiq Chotqolga,
Bulut o‘xshar soqolga,
— Bulutlar, hay bulutlar,
Sizda bormi burgutlar.
— Burgutlarni bilmaymiz,
Ammo bor samolyotlar.
Bizning shunqor botirlar,
Uchqur, devkor botirlar,
Shahrimizga har yoqdan
Uchib kelayotirlar.

XIII

Tinchlik bizga qimmat tushdi,
Erk yo‘lida el urushdi.
Xotirlardan chiqmas, evoh,
Og‘ir sinov haftalari...

Varaqlardim qo'lyozmani,
O'qir edim Xondamirni,
Jimjimador har so'z — ma'ni,
Har so'z saqlar eski sirni.
Navoiyning zamonasin
Sayr etardim ko'zim yumib.
Javharlari namunasin
Tizar edim esga, jimib...
Yon eshikdan kirdi kimdir.

Boqsam bizning oshna-mudir,
Rangi o'chgan, go'yo o'zga,
Bu — o'zgami, o'shamidir?
Zo'rg'a og'iz ochdi so'zga
Titrab dedi: «Yomon xabar.
Gitler bizga qildi hamla,
Sarhad bo'lgan zer-u zabar!»
Sirqiradi dil alam-la,
Xondamirni yopib u dam
Men ko'chaga chiqdim ildam...

Kechagina biz majlisda,
To'yga qaror qilgan edik.
Lermontovning to'yi qoldi,
Dushman ishga ishkal soldi...
...Men Lohutiy ko'chasida
To'xtab turdim hayajonli.
Xiyobonning chekkasida
Ko'rdim Hamid Olimjonni;
Har galgiday xotiri jam,
Qiyofati jips, ixcham,
Lekin o'zin odatidan
Ko'ra shoshqin tashlar qadam.
Esonlashdik: «Urush», dedi,

«Fashist qildi xuruj», dedi.
«Jang bo'ladi ko'p haybatli,
Yov g'alamis, quv, shiddatli.
Bosib kirgan yerimizga,
Qasos deya qo'zg'algan el,
Kel, birodar, she'rimizga —
Kiygizaylik biz ham shinell!
Qurbon-ku, ko'p bo'lur, yo Shayx,
Pirovardi biz yengamiz,
Istaymanki, ko'p yil yashay,
Erishamiz, bil, bunga biz!»
Asl shoir edi Hamid,
She'ri — kurash, baxt va umid!
Shaharlar-la qator turib
Bajaroldik biz ontimiz.
Sevib, siylab, ishlab, qurib
Shuhrat topdi Toshkentimiz...

XIV

... Bola desa xotirlanar bolajonlilar,
Bolalarga g'amxo'rlilar, mehribonlilar.
Men toshkentlik temirchiga aytaman: — Rahmat!
O'n to'rt bola asrab olgan Shoahmad aka...
A, mehribon Bahri opa, sen chekib zahmat,
O'z bolangday mehr qo'yding o'n to'rt o'ksizga.
O'n to'rt bola, o'n to'rt millat, turli o'n to'rt ot,
Shoahmadning farzandi deb tanilgan avlod.
Bu gulzorlar, bu hovuzlar, bog'lar-bog'chalar,
Allanelar eslatadi bu keng ko'chalar...

O'tayotgan do'st-oshnalar haddan ziyoda.
Salomlashib bormoqdaman ko'krakda qo'lim,
Bu el bilan sheriklikdir hayotim, yo'lim.
Mana artist, mana ishchi, talaba, shofyor,

Mana doktor, bu — ministr, bu-chi — injener...
Men bu xalqning shoiriman... Shu uchun go'yo
Har salomda ehtirom bor va bir oz da'vo...
Ko'p xayollar, goho ravshan, goho pajmurda,
Taxlanmagan varaqlarday turar fikrda...
Qumrilarning «hu-hu»lari, gullarning isi,
Shabnamlarda hali o'chmay qolgan oy nuri,
Tunov kungi ziyofatda qizlar kulgisi,
Lola rangi, nay ohangi, shiyponli so'ri,
Marhumlarning xotirasi, tirik vasiyat,
O'tgan kunlar, bugungi ish, ertangi niyat...
Lekin bildim va angladim o'ylarga tolib:
Yomonliklar o'tkinchidir, yaxshilik — g'olib.

XVI

Shaharlarning nomi abadiy,
Bu nomlarni qo'ygan el-ulus,
Manglaylarin sekin o'padi
O'tib turgan asrlar xolis.
Odamlarga qo'yganday laqab,
Shaharlarning sharafin olqab —
Qo'yilganda unvonlar maxsus,
Toshkentimiz olgan taxallus.
«Salomobod» bo'lar edi, rost,
Bu taxallus shahrimizga mos!..
Sharqdan, g'arbdan, janubdan mudom
«Salom» deya kelar mehmonlar,
«Salom» desa, «alikkassalom»
Va guldasta olar mehmonlar.
Ular ko'ngil qo'noqlaridir,
Chin do'stlikning inoqlaridir.
Osoyishning, ravshan tinchlikning
Ustimizda esar havosi.
Shu uchun ham bosqinchilikning

Cho‘chitmaydi bizni ig‘vosi.
O‘n ikkimas endi darvoza,
Balki bir oz o‘n uchdan oshiq,
Olam aro iliq ovozi —
Shuki, Toshkent, qo‘li ko‘p ochiq!
Qul yerlarda jabr-u zulmdan
Jafo tortgan yo‘lchilar kelar,
Besh qit‘adan, yetti iqlimdan
Suzib, uchib elchilar kelar.
Sharqning havo darvozasi biz,
Yangilikning andozasi biz.
Do‘stlar uchun eshiklar ochiq,
Salomlar-la nurlanar qo‘shiq.
Tinchlik bizning an‘anamizdir...
Mehmonlar, siz — yurak qo‘nog‘i,
Xush kelibsiz uyimizga siz,
Ortsin do‘stlar soni-sanog‘i,
Jang balosin hech ko‘rmagaysiz!
Sizga bergan guldastalarda
Anqir mehmondo‘stlikning atri,
Qalbi-dili payvastalarda
Kam bo‘lmaydi mehrning qadri!..
Yashasin gul, yashasin kulgi!
Yashnab tursin shunday bir gulki,
Uning nomi bo‘lgay yaxshilik,
Kuyib ketgay yovlik-vahshiylik!
Kurashlarda saflar zichligi!
Shunda ellar, dillar tinchligi...

XVIII

Toshkentni sevmοqlik yurakning ishi,
Shu uchun shartmikan bunda tug‘ilmoq!
Shartmi, bir romanga ishqiboz kishi
O‘zi u romanga qahramon bo‘lmoq!

Umrim bino bo'ldi Ozarbayjonda,
 Kechdi bolaligim u gul makonda.
 Nizomiy vatani, Ganja o'lkasi
 O'pkamga to'ldirdi she'r havosin,
 Kur nahrin muloyim, tinch muzikasi
 Ko'nglimda uyg'otdi kuylash havasin.
 Lekin shoirlikning nozik tolei
 Kuldi Sirdaryoning havzalarida,
 O'zbek quyoshining chin otaligi
 Aks etdi mastoba kosalarida.
 Hazrat Navoiyning o'pib qo'lini
 O'zbek vodiysida otimni surdim,
 Ijod karvonining uzoq yo'lini —
 Aziz yo'ldoshlar-la o'toldim, yurdim.
 Yo'q, men taqdirimdan emasman xafa,
 Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa!...
 Ko'chat ko'chib kelib ekilgan tuproq
 Uning vatanidir deyish to'g'riroq.
 Bu shahar she'rimning tiniq chashmasi.
 Yashadim o'ttiz yil bunda chamasi.
 Bu yerda tug'ilgan G'afur va Oybek,
 Umrimning boshlang'ich mavsumlarida
 Meni ardoqlashdi quchib og'adek,
 Inilik ko'rsatdim ta'zimlarida...
 Biri — she'rimizning o'tli yuragi,
 Biri — nasr uyining baland tiragi,
 Ochdilar uy bilan qalb eshiklarin,
 Ayamay o'git va mezbonliklarin.
 Yigitcha edim men havaskor, sodda,
 Bo'ldim oqibatda shoir Shayxzoda!...
 Toshkent, sen o'zingsan azim poema,
 Seni asrab keldi ona kabi vaqt,
 Hech qachon, yo'limni tugatdim, dema!
 Sen mang-u shaharsan, kunday bezavol,

Seni ta'rif qilgan dostonchining ham
Baytlari tugashi, bu — amri mahol,
Har qancha tarannum etilsang bu, — kam!..
Safar chog'i seni tushda ko'raman,
Sharqdan uchib kelgan qushda ko'raman...
Men o'zbek she'rining to'qqiz vaznida
Sening dostoningni ohangga soldim.
Qissaga keskinlik bermoq jazmida,
Baxshi bisotidan o'lchovlar oldim.
Derlar, kam o'qilar uzun dostonlar,
Ayniqsa sarguzasht oz bo'lsa agar.
Ammo yaxshi ko'rgan narsa tufayli
Kishi sergap bo'lsa bu uzr, mayli!
Oshiq o'z ishqidan so'ylasa nuqul,
O'ylarki, hammaga sevgisi ma'qul...
Uzrim shu tariqa, aziz kitobxon,
Sergap bo'lishligim suyganimdandir.
Toshkent taqdirida kelajak ayon,
Dilda kelajakni tuyganimdandir.
Kuyladim o'n sakkiz bobda — qo'shiqda,
Va «Toshkentnoma»ga qo'ydim so'ng nuqta.

1957

AYRILIQ

Ko'p uzoq, qunt bilan ishladi shoir,
Ilhomga bag'ishlab oltin yillarin.
Baxsh etdi qog'ozga chin mayllarin,
Dil o'z mavzuiga bo'lgandek asir.

Boshida sochlarning ko'paydi oqi,
Kamaydi sochlarning o'zi, darvoqe,
Nihoyat, qo'yildi daftarga nuqta...
Asar tayyor bo'ldi. Poema — ulug'...

Bir asr kuylangan oʻli qoʻshiqda.
Yaxshi xizmat qildi, qalamga — qullugʻ!

Biroq yozilganda soʻnggi sahifa,
Shoir sezib qoldi oʻzini nogoh —
Hazin yolgʻizlikda, gʻarib va xafa,
Goʻyo yoʻlda qolib ketdi bir hamroh,
Goʻyo ajralgandek sevgili yordan,
Goʻyo yoshligiga vido etgandek,
Goʻyo yoʻlga chiqib tuqqan diyordan
Notanish shaharga koʻchib ketgandek.

1962

QOʻLLAR

Koʻzlarni debdilar: «Ruhning koʻzgusi».
Ularda namoyon qalblar sezgisi:
Ham qaygʻu, ham quvonch, ham vaʼda, ham doʻq,
Shoyad shu tufayli erkaklarning yoʻq —
Xushroʻylar koʻzidan koʻzin uzgisi.
Koʻzlarni qalblarning tilmochi dedik,
Qalblarning siriga shu bilan yetdik.
Negadir, odamning qoʻllari, biroq —
Shoirilar lutfidan qolibdi yiroq.
Holbuki, qoʻllarning har siquvida
Ne-ne maʼnolar bor, alomatlar bor.
Bunga kim razm qoʻysa, oʻz uquvida
Koʻzning egasi ham unga oshkor.
Qoʻllar bor — muloyim, gʻoyat shafqatli,
Qoʻllar bor — ayovsiz, yovuz shiddatli.
Qoʻllar bor — hayotbaxsh qon bilan iliq,
Qoʻllar bor — goʻr kabi sovuqqa toʻliq.
Qoʻllar bor — ishyoqmas, lapashang, tanbal,
Qoʻllar bor — tezligi bilinar dangal.

Qo'llar bor — qo'yilar undan yaxshilik,
Qo'llar bor — tirnaydi, yovlik, vahshiylik.
Qo'llar bor — oshirar senga to'g'rilik,
Qo'llar bor — yashirar quvlik, o'g'rilik.
Qo'llar bor — mag'zida mardlik, qo'rqmaslik,
Qo'llar bor — ramzidir qo'rqqoqlik, pastlik.
Qo'ldagi xusumat yoki do'stlikning,
Uyatsiz yolg'onning yoki rostlikning,
Qo'ldagi saxiylik yo baxillikning,
Boisi nima shu xilma-xillikning?
She'rimning avvalin yodingga keltir:
Nima degan edim ko'zlarga doir?
Ko'zlar yuraklarning ko'zgusi dedim,
Bu so'zda hech xato qilmagan edim.
Xo'sh, qo'l-chi? Qo'llar-chi?
Bu qo'llar, qo'llar!
Qo'llarni qaysi bir ta'rif ma'qullar!
Daraxt belgilaydi ko'lankasini,
Qo'llar ham qo'llaydi o'z egasini.
Buyruqni bajarmoq qo'l hunaridir,
Ha, qo'llar — yurakning navkarlaridir.

1964

SHE'R CHIN GO'ZALLIK SINGLISI EKAN

She'rsiz qalblarga achinaman men,
Ularda na tonglar kunduzni boshlar,
Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,
Na bahor chog'ida sayraydi qushlar.

Qo'shiqsiz uylarga kulgi yoqmaydi,
Xonadon ahlining qovog'i osiq.
Hatto derazadan quyosh boqmaydi,

Soatning o‘zi ham tiqillar bosiq.
She’rsiz ko‘chani tole qarg‘agan,

Bu joyda sevgining manzili bekik...
Quvonch bunda kezar kayfi tarqagan—
Keksa xumoridaq qomati bukik...
Bechora odamlar, bilmaski, ular—
She’r chin go‘zallik singlisi ekan,
Har kimki u bilan sevishsa agar—
Husniga chiroylar qo‘shilar aynan.
She’riyat diyorin shoirlarimiz,
Har uy, har ko‘ngilga baytlar bo‘lsin yor!
Elga dastyor bo‘lsa she’rlarimiz—
Demakki, umrimiz o‘tmabdi bekor!..

1963







HAMID OLIMJON
(1909–1944)

Beg‘ubor insoniy tuyg‘ular, jozib kechinmalar, baxt sururidan shodon lirik qahramonning kurashgan ruhiyati shoir she‘riyatida xalqona, musiqiy ravon ifoda tarziga ega. Jozibador xalqchillik liro-epik asarlari, adabiy ertaklari, dramalarigagina emas, lirikaning kichik janrlarida bitgan asarlariga ham tarovat bag‘ishlagan.

G‘AZAL

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol bo‘lsam,
Labing yaprog‘idin tomgan-ki, go‘yo qatra bol bo‘lsam.
Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,
O‘pib g‘unchangni ochmoqliqqa tong chog‘i shamol bo‘lsam.

Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mast-u mustag‘riq,
O‘zimning san‘atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.
Sening birla qolib bu mast-u lol olamda men yolg‘iz,
O‘zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo‘lsam.

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa,
Kiming bor roziman qasringga hattokim, duvol bo‘lsam.
Boshim hech chiqmasa, mayli, malomat birla bo‘htondin,
Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, qamol bo‘lsam.

Kezib sahro-yu vodiylar yetishsam bir visolingga
Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam.

OFELIYANING O'LIMI

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo,
Qo'yingda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin, ruhing to'la motam va azo.

Foyda yo'qdir, go'zal, zolim falakdan
Qancha dod qilsang-u, qancha shikoyat,
Qancha yalvorsang-u qancha to'ksang yosh,
Baribir, alamga bo'lmas nihoyat.

Qancha ma'sum bo'lsang, qancha vafodor,
«Qorday oq bo'lsang-u muz qadar toza»,
Hech zamon kor etmas, shum falak badkor,
O'qilur sevgingga qora janoza.

Nega kerak edi, shu chiroy, shu o't,
Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq?
Nega lablaringdan husn oldi yoqut,
Nega siynang bo'ldi qor tog'iday oq?

Husn balosiga kim etdi duchor?
Holbuki busiz ham qanchalar alam,
Holbuki busiz ham qizning boshida,
So'ngsiz musibatlar, dunyo-dunyo g'am.

Holbuki busiz ham qiynalardi jon,
Busiz ham yetardi falokat, azob.
Faqat go'zal emas, hatto hunuk qiz
Ko'z ochib ko'rardi yolg'iz iztirob.

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan
Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo,
Qo'yingda bir quchoq oq va nafis gul,
Lekin, ruhing to'la motam va azo.

Shundayin latofat, shu oq ko'krakka,
Nahot munosibdir shu g'amgin libos,
Onang shuning uchun suyunganmidi?
Nahotki, shu sifat go'zallikka xos?

Javob berib ko'rchi, nomard tabiat,
Bunchalik go'zalni nechun yaratding?!
O'zing gunohkorsan, osiysan behad,
Nechun yaratding-u o'tlarga otding?

Hali sevimliqdan shumidir ma'no?
Faqat azob bordir qismatda, nahot?
Nahotki, sevgiga shudir tamanno?
Nahot, go'zal uchun faqat, faqat dod!..

Hamlet sevar edi, uning qalbini,
Go'yoki ikki cho'g', ikkita otash
Bo'lib yondirardi ko'zing tun-kuni,
U ham qilmas edi bu otashga g'ash.

Hamlet yuragiga berardi hayot
Sening u otashin, gulbarg lablaring.
Jasur xayoliga bog'lardi qanot
Bog'idan bir kezib o'tganing sening.

Faqat netmak kerak, bordir nachora,
Sevguchi yurakni qurshasa balo?
Butun olam ko'zga esa qorong'u,
Balolarga Hamlet esa muhtalo?

Shubha otashida yonar tafakkur,
Dunyo bir g'amxona, «Doniyo zindon»
Yo'qdir yuraklarni yoritgali nur,
Zanjirdadir sevgi, qafasdadir jon.

Ishqiy tug‘yonlarga qaynab yurakdan
Chiqolmas bir tovush, bir sazo, bir un.
Etmishdir yerdagi oddiy azoblar
Allaqachonlarkim, Hamletni majnun.

Hosil bo‘lmas murod, hech narsa nasib,
Qancha yig‘lasang-u, qancha cheksang oh:
Sevguchi yigitni solmishdir yo‘lga
Tunda ertak aytgan bir mudhish arvoh.

Jannat, farishtalar, toza malaklar,
Bir puldir eng ma’sum va eng pok o‘pish,
Do‘zax ichra Hamlet yonib alahlar,
Butun olam ko‘rinadi go‘yo tush.

Ko‘ngil gulshanini qopladi xazon,
Yo‘qoldi shunchalik bebaho sevgi.
Shu bo‘ldi bokira, dunyo ko‘rmagan
U yoqut lablarning qora taqdiri.

Sevgi ko‘klarida uchuvchi lochin
Arshidan yiqildi va ko‘hna dunyo —
Butun armonlarni kul qilgan otash
O‘zi bo‘lib qoldi sevgiga gado.

O‘RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg‘ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo‘lar takror,
Har bahor ham shunday o‘tadi,
Qancha tirishsam ham u beor
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli deyman va qilmayman g‘ash,
Xayolimni gulga o‘rayman;
Har bahorga chiqqanda yakkash,
Baxtim bormi deya so‘rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,
Baxting bor deb esadi yellar,
Etgan kabi go‘yo bir talab,
Baxting bor deb qushlar chiyillar.

Hamma narsa meni qarshilar,
Har bir kurtak menga so‘ylar roz.
Men yurganda bog‘larga to‘lar
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,
Etagingga siqqanicha ol,
Bunda tole har narsadan mo‘l,
To o‘lguncha shu o‘lkada qol.

Umrida hech gul ko‘rmay yig‘lab,
O‘tganlarning haqqi ham senda,
Har bahorni yig‘lab qarshilab
Ketganlarning haq ham senda...»

Derazamning oldida bir tup
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi...

MUQANNA

(Dramadan parda)

4 parda, 8 ko‘rinishli tarixiy drama

Qatnashadilar

Hoshim Hakim o‘g‘li — Muqanna.

Fero‘z — qul xo‘jasi.

Otash

Gulobod — uning xotini } Fero‘zning qullari.

Guloyin — qizi.

G‘irdak

Xishriy } Zarafshonlik dehqonlar.

Bog‘iy

Hakim

Kulartakin — harbiy.

Sayidbattol — arab qo‘shini qo‘mondoni.

Jaloyir — arab ruhoniysi.

Ibn Muoz — arab qo‘shini qo‘mondoni.

Zayd — elchi.

Mulozim, qorovul, qullar, dehqonlar, harbiylar, arab askarlari va boshqalar.

Voqea VIII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda o‘tadi.

BIRINCHI PARDA

BIRINCHI KO‘RINISH

Otashning uyi. Bahor. Bir chekkadan tog‘lar, qirlar yashnab ko‘rinadi. Uyda yolg‘iz o‘ltirgan Gulobod oldiga Otash kirib keldi.

O t a s h.

Qizing qani?

Gulobod.
Chiqib edi dalaga.
Tabiatni, bahorni ko'p sevadi,
Ko'katlarda soatlarcha yotadi.
Unga dala, gulu chechak bo'lsa bas!

Otash.
Ham go'zal-u va ham arzon bir havas.

Gulobod.
Gulga botib kelyapti, hov ana.

Otash. (*Qaraydi*).
Qo'llarida, chakkasida gul-lola.

Guloyin.
(*Bir quchoq lola-gullar ko'tarib kiradi*).
Salom, dada.

Otash.
Salom, qizim.

Gulobod.
Yolg'izim,
lola kabi ochilibsan o'zing ham.

Guloyin.
Lola kabi yuzim qizil, ichim g'am.

Gulobod.
Nega darkor, qizim, axir shu gaplar,
Xursandsan-ku, qo'llaringda chechaklar.

Guloyin.
Chechak bilan xursand bo'lsa gar odam,
Yer yuzida bo'lmas edi qayg'u-g'am.

Hamma unda yolg'iz bir gul terardi,
Na xohishi, na ozori, na dardi...
Mana bahor, butun atrof lola, gul,
Hamma odam terganda ham yotar mo'l.
Gul ochilgan qoyalarning boshida,
Lolalar bor buloqlarning toshida.
Ammo hech kim shod-u xurram emas-ku?
(*Lolani ko'rsatib*).
Baxtiyorlik alomati emas bu.
Bahor o'zi yaxshi narsa, shubhasiz...

O t a s h .

Iching to'la ma'no sening dono qiz.

G u l o y i n .

Yurtimizda hatto yaqin zamonda
Ko'p bayramlar bo'lar ekan bahorda.
Juda xurram o'tar ekan u damlar,
O'ynar ekan, kular ekan odamlar.
Qani o'sha bayramlardan bir nishon?
Xursandmasmen, onajonim, sen ishon.
Dalalarda lola terib yurarkan.
Ko'p ajoyib fikrlarga tushdim man,
O'zing aytgan ertaklarni esladim...

(P a u z a)

Ertak boshqa. Hayot boshqa... qoldim jim.
Hozir agar sen bo'lmasang musulmon
Dushman bermas yemoq uchun parcha non.
(*Gullarni ko'rsatib*).

Bu ko'rganing lola emas, yolg'iz qul,

O t a s h .

Biz qul edik, hozir butun o'lka qul.
Hozir gap shul: kim musulmon, kim kofir.

G u l o y i n .

Erkak-ayol o‘z yurtiga musofir.
Mana senga kerak bo‘lsa gulbahor,
Bahor emas, ustimizga yog‘ar qor.
Dada, nima yangi gap bor shaharda?

O t a s h .

Xurosondan chopar kepti saharda,
Xalofatdan bo‘lgan emish bir farmon:
Paykand qilinsin deb yer bilan yakson.

G u l o b o d .

Essiz shahar, essiz shahar, yo tavba!
Uni vayron qiluvdi-ku Qutoyba.
Go‘zal shahar boyqushlarga oshiyon
Bo‘lib qoldi. Kaltakesak va ilon —
Qadim oliy saroylardan shul qoldi,
Zo‘r shahardan nishon bo‘lib kul qoldi,
Yaxshiki yer yutdi o‘sha tulkini.

O t a s h .

Poykanddagi elning bori mulkini,
Qaramasdan yig‘i-sig‘i, faryodga,
Karvon-karvon ko‘chirganda Bog‘dodga,
Butxonadan topgan ekan bir sanam,
Oltin bilan rop-rosa qirq ming dirham.
U sanamning ko‘zlarida kabutar
Tuxumicha keladigan injular
Bo‘lgan ekan. Qutoybaning o‘zi ham,
Yer yuzida bunchalik boy shahar kam,
Deb Hajjojga yozgan ekan maktublar,
Ko‘chirganda karvon-karvon oltin-zar.

G u l o y i n .

Yana uni yakson qilish nedarkor?

O t a s h .

Sen bilmaysan, bunda katta hikmat bor.
Xalq yangidan qo‘zg‘almoqda. Dushmanlar
Ko‘rsatmoqchi shuning uchun bir hunar:
Odamlarning yuragini olmoqchi,
Bo‘g‘oziga yana changal solmoqchi.

G u l o y i n .

Poykand bilan na dahli bor bu ishning?

O t a s h .

Sodda bo‘lma, bosqinchilar fikri keng.
Bu yerlarga ular yangi kelganda,
Zo‘r qarshilik ko‘rgan ekan Poykandda.
Bosqinchiga qarshi chiqib butun xalq,
Barchasini qilgan ekan qonga g‘arq.
Mingan oti tizza bo‘yi qon kechib,
So‘ng Qutoyba kelgan ekan qon ichib.
Saroylarni olovlarga u tutgan,
Qilich tutgan har bir jonni quritgan:
Xotinlarni asir olgan hech qo‘ymay,
Mol to‘plagan o‘ljaga hech u to‘ymay.
Lekin bular, bu jazolar, bu balo
Bosqinchiga berolmagan tasallo.
Vayrona ham xotirini buzarmish...

G u l o b o d .

Ajab bir xalq, ajab bir hol, ajab ish!

O t a s h .

Yer yuzidan bir shaharni yo‘qotmoq
Bilan ular xalqning ko‘zin qo‘rqitmoq
Fikridalar. Mudhish bir ish. Ham isyon
Qo‘zg‘almasmish shunday qilsa begumon.

Vodiylardan xiroj ortib o'tganda
Xotirlari buzilasmish Poykandda!

Guloyin.

Unga qarshi qo'zg'alibdi kim yana?

Otash.

Butun xalq. Butun vodiy. Muqanna!

Guloyin.

Kim? Muqanna? Kim ekan u?

Otash.

Ko'p gaplar bor: marvlik ekan, niqobdor,
Ochmas ekan odamlarga yuzini,
So'ylamoqda hamma uning so'zini,
Xudo ham men, mening o'zim payg'ambar,
Deyar emish so'zlaganda har safar.

Guloyin.

Buxoroda nima gaplar bor ekan?

Otash.

To'rt martaba qaytib ko'rdi u dindan.
Bosqinchilar tinkasini quritdi,
Ulamolar avray berib qon yutdi.
Xudotlarning hammasi ham begumon
Bo'lgan emish hozir endi musulmon.

Gulobod.

Arablarga zo'r ish qildi xo'jamiz.

Guloyin.

Dabdabali masjid soldi betamiz.

O t a s h .

Endi uning masjidiga bejanjal
Borgan odam yashar emish behalal.
Ular hatto pul berarmish juma kun
Namozgohga o'zi kelgan xalq uchun.

G u l o b o d .

Biz ham borib pul olaylik bo'lmasa.

G u l o y i n .

Agar mening pulga ko'nglim to'lmasa,
Unda nima? Yo bo'ldingmi musulmon?
Bosqinchiga keltirdingmi sen imon?

G u l o b o d .

Yo'q, hali yo'q. Hali toza vijdonim,
Otashgohning olovida bu jonim.

G u l o y i n .

Otash desang ko'nglim tushar bir g'ashga.

O t a s h .

Biz hali ham topinamiz otashga.
Senchi, qizim?

G u l o y i n .

Nima qila olar edim men o'zim?
Qancha baland uchsa hamki chumchuq qush
Uyasida o'rganganni o'qirmish.
Yosh chog'imdan o'tga tomon sen tortding,
Sen otashga topinmoqni o'rgatding.
Nima qilay. Men nimani bilardim?
Yosh bolani yo'lga boshlar avval kim?
Ota-ona. Shundaymasmi? O'zing ayt!

O t a s h .

Yoshlik o'zi bo'lar ekan qiziq payt,
Bola yolg'iz o'rganishni bilarkan.

(P a u z a)

Ixtiyorni hozir sanga berganman,
Yosh emassan, qizim, endi yo'lingni
O'zing tanla; hech kim tutmas qo'lingni.

G u l o y i n .

Na otashdan, na Muhammad dinidan
Foyda ko'rgan bir kimsani bilmayman.
Shuncha yillar otashgohga topindim
Va bilmadim ilohim kim, tangrim kim?
Qayg'usi yo'q biror kunni ko'rmadim,
Biror soat men baxtiyor bo'lmadim.
Isinmadim oloviga hech qachon,
Yorimadim, bo'lolmadim charog'on.
O'tinidan tolelari sho'r bo'ldim,
Tutunidan ikki ko'zi ko'r bo'ldim.
Ixtiyorni bersang agar menga san,
Ozodlikka topinardim yolg'iz man.

G u l o b o d . (Tashqariga qarab).

Oq kiyingan biron keldi eshikka.

O t a s h .

Bizning uyga kelyapti u tikka.

G u l o y i n . (Qaraydi).

Oqqa buncha belanibdi u odam?

G u l o b o d .

Oq ichida oyog'i ham, boshi ham.

(G'irdak kiradi. Kiyimlari tamom oq).

O t a s h .

E, G'irdak-ku, bu oq kiygan farishta!
(*Ko'rishadilar*).

G ' i r d a k .

Bir alomat bo'lar ekan har ishda,
Isyon qildim. Muqannaga topindim.

G u l o y i n .

Arablarchi? Nima uchun oq kiyim?
Muqanna kim? Qaydan chiqdi bu xil nom?

G ' i r d a k .

Kimligini sizga qilay men e'lon:
Hoshim ibn Hakim degan bir odam,
Xo'rlanganlar uning uchun muhtaram.

G u l o b o d .

Bir niqobdor, afsonachi, sehrGAR.

G ' i r d a k (*kulib*).

Yangi chiqqan bir nayrangboz payg'ambar.
Shundaymi? Yo'q! Sehgarmas, donishmand!
Arab aytgan payg'ambardan ham baland.
U, odam u. Odamlarga rahnamo,
Boshin silar qayda bo'lsa benavo,
Faqirparvar yo'l boshchi u. Va, ammo,
Dushman bo'lsa ko'rinmasin ko'ziga,
Uni ko'rgan dushman kelmas o'ziga.

O t a s h . (*Hayajon ichida*).

U, qayda u?

G u l o y i n .

Uni ko'rsak mumkinmi?

G'irdak.

Oq kiyim kiy, ko'rmoq bo'lsang sen uni.

Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar,

Yurak-bag'ri g'ussa bilan to'lganlar.

(*Chiqib ketdi*).



Otash.

Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar?

Guloyin.

Yurak-bag'ri g'ussa bilan to'lganlar?

Gulobod. (*Yana tashqariga qaraydi*).

Darvozaga qadam qo'ydi yana kim?

Guloyin.

Qara, bormi ustlarida oq kiyim?

Otash. (*Qaraydi*).

Allaqancha qilich taqqan arablar.

Guloyin

Kecha-kunduz sanqishadi darbadar.

(Eshik ochildi. Jaloyir, Sayidbattol va bir necha askar kiradi).

Jaloyir.

Salom, Otash!

(Otashning gazablanganini ko'rib).

Nima, halal berdikmi?

Battol.

Nega jimsan, yo befursat keldikmi?

Otash. *(Sekin, kinoya bilan).*

Halal bermas sizday aziz mehmonlar!..

Guloyin. *(O'z-o'ziga).*

Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar!..

Otash. *(Kinoya bilan davom etadi).*

Bu xomush uy bukun bo'ldi bir bozor,

Kirib-chiqar har kun ming xil xaridor.

So'z bo'ladi har xil iker-chikirlar,

Xalofatdan bunda kelar fikrlar.

Butun jahon siyosati, din, qur'on,

So'z bo'ladi kim kofir, kim musulmon!

Ruhoniylar, qo'mondonlar keladi,

Sehrgarlar, bilimdonlar keladi.

Yetmasinmi, bu boshimiz osmonga?

Shundan ortiq baxt bo'larmi insonga!

Salom bo'lsin, uy to'rimiz sizniki.

Jaloyir. *(Battolga).*

Ko'rdingizmi, g'azabining yo'q cheki,

(*Otashga*)
Rahmat o'g'lim, bizga o'zing keraksan.

O t a s h .
Taqsir, hali men musulmon emasman.

J a l o y i r .
Endi bas qil, yurma bunday beimon,
Bizga topin, bo'lgil endi musulmon!

B a t t o l . (*Guloyinga nazar tashlab*).
Qizingni ham qo'yma bunday darbadar!

G u l o y i n . (*Battolga qarab*).
Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar...

J a l o y i r .
Zarafshonda kofir yolg'iz sen qolding.

O t a s h .
Yolg'iz qolsam bo'lar ekan dunyo keng,
Dunyoni keng ko'rmoq — tilak shul edi.

B a t t o l .
Ochiladi bu kun xo'jang maschidi.

J a l o y i r .
Jaholatda ketmay desang bekafan,
Sen qur'onga topinmoqqa majbursan!

B a t t o l .
Qani, ketdik!
(*Otashni sudraydilar*).

O t a s h .
O, dushmanlar, dushmanlar!

Guloyin.

Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar.

*(Otash, Gulobod va Guloyinni sudraydilar.
Ular qarshilik ko'rsatadilar, dod chekadilar).*

Otash.

Kimga dod aylab chekaylik biz fig'on?

Gulobod.

Tarqalarmu boshimizdan bu tuman?

Guloyin.

Barcha el bu zulm ila bo'ldi ado,
Xor-u, zor-u, muhtalo-yu bag'ri qon!

P a r d a

1942—1943







MIRTEMIR
(1910–1978)

Millat turmush tarzi, dunyoqarashi va orzu-intilishlarining betakror qirralarini oʻzga ijodlardan farqli xalqona bir yoʻsinda oʻzbek badiiyatiga olib kirgan hassos, donishmand shoir. Sheʼriyatida soʻzning inja maʼno nozikliklari, qadim va turkiyona mavqelari qad rostlab, shoirning fusunkor, zakiy hikmatlariga xizmat qiladi.

SURAT

Lirik qissadan parchalar

Oʻlimlardan hatlab...
Na oltin, na javohir edim...
Armonli bir yosh shoir edim.
Zuhro boʻlmasang ham chiroyda,
Men ishqingda naq Tohir edim.

Toshlon oʻldi, degan kim axir?
Gulday soʻldi, degan kim axir?
Nahot poymol qutlugʻ ishq ahdi,
Bol boʻlurmi shunchalar taxir?

Barchinoyday kutganing qani?
Zardob-u qon yutganing qani?
Umr yoʻlida to yumguncha koʻz,
Birga-birga ketganing qani?

Gunohim ne?—Jangda bo'lganim,
Qon kechganim, yuz bor o'lganim.
Diydoringni unutmayin,
O'limlardan hatlab kelganim...

Surat, surat!

Och nazarim tushar suratga...
Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Termulaman suratda xatga...
Janglarda yor eding-ku, o, qiz!
Surat, surat! Nega sen tilsiz?..

Ko'zlarimga boqasan qiyg'och,
Kulasan-u, ko'zlarimga yosh.
Halqa-halqa, tarqoq sumbul soch,
Zar qiyilgan bir juft qalam qosh.
Kulasan-u, ko'zlarimga yosh...

Esingdami so'nggi bo'salar,
Senga toqat tilaganlarim,
Yuz ochganda ayoz bir sahar,
Xayr!— deb soching silaganlarim,
Senga toqat tilaganlarim?

Surat, surat! Nega sen tilsiz?
Seni asrab to'rt yil qo'ynimda...
Topinardim, o'pardim... esiz!
Evoh, qanday zil yuk bo'ynimda,
Seni asrab to'rt yil qo'ynimda...

Ilk bag'ishlovlardan...

I

Oqshom tushar... o'ng-u so'lda
Oppoq-oppoq xirmonlar,

Tinmay o'tar katta yo'lda
Xirmon yukli karvonlar.
To'lib ketar ko'kka yulduz...
Kelinlar soch tarashur.
Sen ham horg'in, sochi qunduz,
Senga hordiq yarashur...
Ko'z tashla oqshomning so'lim chog'iga,
Kel sen ham Oysuluv,
Kel sen ham Oysuluv —
Soy qirg'og'iga...

Tun sochidan tutib sho'x yel
Tortar olis tog'larga.
Asta-asta taralur yel
Soya-salqin bog'larga...
Quyib o'tdi bemahal sel,
Ko'k charog'on kechqurun;
Qo'shiq yangrar: «Jononim, kel! —
Oydin, yorug' bo'lar tun».
Ko'z tashla oqshomning so'lim chog'iga,
Kel sen ham Oysuluv,
Kel sen ham Oysuluv —
Soy qirg'og'iga...

II

O'xshatma

Sen kelgin tong chog'ida,
Sen kelgin naq tong misol,
Tong bolqib yonog'ingda,
Ko'zlarim o'ynata oll..

Sen kel tush paytida ham,
Daryoda epkin misol.

Sochlarim to'zg'it bir dam,
Dilni ham qo'zg'ata ol!

Sen kelgin oqshom, mayli,
Oqshom qo'shig'i misol.
Go'yo sahnada layli,
Zavqimni uyg'ota ol!

Sen kelgin oydin tunda,
Albatta kel oy misol.
Quchog'imga afsunday,
To'lin oyday to'la qol...

III

Dilim ranjitsa ham do'q-u dag'dag'a,
Bog'imda bu oqshom jonon o'ynasin.
Gulday chiroyidan bo'lay sadag'a,
Ochilib-sochilib, chunon o'ynasin.

Jo'r bo'lsin bulbullar chalgan torimga,
Qo'shiqlar kuylayin vafodoringa,
Suqlanay Oysuluv otli yoringa,
Sho'x ohuday aylab javlon o'ynasin.

Xipcha belga bog'lab yashil rang kamar,
Gullar-chechaklardan taqsin gulchambar,
Tengi kam o'yinchi, tengi kam dilbar...
Tomoshaga kelib, osmon o'ynasin.

Tovusday tovlangin, ey qoshi kamon,
Visol chamanida bo'laylik omon,
Ayriliq g'ussasi o'limdan yomon...
Qolmayin zarracha armon o'ynasin.

IV

Qo'shiqlar to'qisam — no'noq bo'lmasa,
Sendan o'zga dilga qo'noq bo'lmasa!
Kuylasam tun-u kun suluvlaringni,
Kuylash mumkinmi dil qaynoq bo'lmasa?
Ko'nglim o'ksinadi, ko'nglim sinadi,
Ko'nglim bilan ko'ngling inoq bo'lmasa!
Ko'nglim o'ksinadi uchrashganimda
Oysuluvjon sho'x-u quvnoq bo'lmasa!

Sening har maqoming...

Yana tolpinishing ko'rdim sahnada...
Sening har maqoming — nechog'liq tanish!
U kez uchratardim seni panada,
Dilda yonish bordi, yonish va yonish.

Keyin, toqatlar-toq, kutardik visol,
Keyin manguликka berishdik va'da.
Keyin, quchog'imga to'lding baxt misol —
Innaykin... innaykin... men bo'ldim dada.

Innaykin, ayriliq jaf o toshini
Bizning peshonaga urdi ayovsiz.
Innaykin, yiroqda qalam qoshlimni —
Sog'indim, sog'indim, sog'indim... Esiz!

Esiz, ayoz tunlar, uyqusiz tunlar!..
Jang va burch... Yor hajri... Qatma-qat jaf o.
Nahot men seni deb bo'ldim tutunlar?
Nahot, shundoq dilbar beburd, bevafo?

Yana talpinishing ko'rdim sahnada...
Sening har maqoming menga oshino.
Hozir men ko'rmasam seni panada,
Shukurlar qilaman ming marta, inon!

Ikki dard

Tushlarimda duch kelganda ham
Sho‘xlingingni aslo qo‘ymaysan.
Dam qah-qah-u, dam ko‘zingda nam,
Bu kulfatdan nechun to‘ymaysan!

Ham nafratim, ham ayanchim bor,
Yurak — ikki dardga muhtalo.
G‘amzalar... oh bekor-ku, bekor...
Qayta og‘ir bo‘ldi bu balo!

Ko‘rmay desam, ko‘zim ko‘r emas,
Yurmay desam, oyog‘im butun.
Ammo yurak ortiq jo‘r emas,
Xayollarda bo‘laman tutun.

Tug‘ilmagan bo‘lsaydim, koshki,
Bo‘lur eding baxtli, ehtimol.
Ering bilan, mayli, yarashki,
Ering axir... Uvol-ku, uvoll!

Xat...

Xating, jonon, obdan beta‘sir,
Uzilgan ip nechuk bog‘lanur?
O‘zing axir, saqlayapsan sir,
O‘z aybingdan qalbing dog‘lanur.

Muncha uzun, muncha oh-u voh,
Pushaymonga qoldimi o‘rin?
Agar senda bo‘lmasa gunoh,
Bildirmading nega sal burun?

Bazmlarning guli bo‘lganing —
Yolg‘on bo‘lsa, boq-chi ko‘zimga.

Maqtovlarning quli bo'lganing —
Yolg'on bo'lsa ayt-chi o'zimga!

Qani ular? Soxta muhabbat?..
Nega fahming yetmaydi avval?
Sog'inishga qoldimmi faqat?
Dunyo ishi shundoq... Galma-gal.

Taqillatsam...

Kichik uyda o'chmagan chiroq,
Bilamanki, sen hali uyg'oq.
Parishonsan, xayollar tarqoq,
Tun yarimdan ancha o'tgan choq,
Bilamanki, sen hali uyg'oq.

Bilamanki, o'qiysan kitob,
She'rim seni etadi kabob.
Oh chekasan, bitar toqat-tob,
Bilamanki, yod bo'lgan bir bob,
She'rim seni etadi kabob.

Yuragingda uyg'onur u soz,
Taqillatsam berasan ovoz.
Xayolingda qishing bo'lur yoz,
Ammo qaytib ketaman... Ayoq...
Taqillatsam, berasan ovoz.

Bilamanki, chiqmas ko'nglingdan,
Ne yomonlik ko'rding sen mendan?
Shu vajdanki har kun singlimdan
So'roqlaysan ahvolimni san...
Ne yomonlik ko'rding sen mendan?..

Bugun yo'lda...

Bugun yo'lda duch kelganingda,
Nega birdan to'xtading, jonon?
Ering kelar edi yoningda,
Sal qoldiki chaqirsang: «Toshlon!»

Men panaga oldim o'zimni,
Sen yo'lingga tushding haytovur.
Ko'rmaganga soldim o'zimni,
Janjal bo'lur albatta bir qur.

Sho'rlik Toshlon, bechora Toshlon!
G'amdiyda, hey, ko'zlarim, yoshlan!..

Amon!..

Xuddi shunday erta bahorda
Uchrashgandik ikkov kechqurun.
Ayrilgandik erta saharda,
Hali issiq ko'rinur o'rin...

Hamon o'sha chinor — yam-yashil,
Daryo bo'yi — zumrad soyabon...
Bezovta bo'ldi-ku andak dil,
Amon, xayol! Amon, al-amon!..

Bolajon

Ey... Ko'zlaring muncha ham qiyiq,
Muncha qiyiq, muncha betiyiq,
Kipriklaring muncha ham quyuq,
O'g'limga o'xshaysan, bolajon!

Bilmas hatto yaqin hamxonang,
Ocharmidi yuragin onang?

Men-chi... Menchi... Men-chi, begonang...
O'g'limga o'xshaysan, bolajon!

Haftada, oyda...

Amaki de, xafa bo'lmayman,
Ota dema, yuz berur balo.
Haftada kel, mayli, o'lmayman.
Fahm etarsan axir bir yo'la.

Haftada kel, mayli, oyda kel,
Amaki de, aka de, mayli...
Ammo qolmay albat mayda kel,
Uzoqmas-ku, hozir Kegayli!..

Ertak...

... Qissamizni yoyma olamga,
Yuragimiz bo'lsin jim makon.
Ertak kabi so'yla bolamga,
Ma'lum bo'lsin unga bu doston...

Muhabbatning gavhar donasin —
O'g'irlatgan tentaklar, desin.
Har kun, har kun qistab onasin: —
Ertak, ertak, ertaklar!—desin!

Barini unut!

Yana bahor, shovillar anhor,
Boshlaringda nega yo'q chambar?
Yana bog'da kezasan tanho,
To'lib-to'lib yig'laysan magar.
Boshlaringda nega yo'q chambar?

Gul yuzingda g'am ko'lankasi,
So'zladimgi suvga tushingni?

Adashganlik bo'ldi hammasi,
Yaltiroq rang oldi hushingni?
So'zladimgi suvga tushingni?
Nega ko'zing bezovta, betinch,
Boqishlaring bu qadar mungli?
Barin unut, pushaymoning kech,
Og'rimasin yangi yor ko'ngli...
Boqishlaring bu qadar mungli?

Balki, esga tushdi may tuni,
Tabiatning to'lin oy tuni,
Muhabbatga joyli-joy tuni,
Vafolarga mo'l va boy tuni.
Tabiatning to'lin oy tuni...

Balki esda u ilk muhabbat,
Muhabbatga qanot bo'lgan xat?
Marmar toshga o'yilgan kabi,
Ko'z oldingdan ketmas u fursat,
Muhabbatga qanot bo'lgan xat...

Yor deguncha...

Oylar, yillar qiynadi jafong,
Jon ayading, bo'lmadi vafong.
Yor deguncha, do'st ataguncha,
Desang yaxshi: «Aylansin onang...»
Opa deyman, yor atamayman;
Hayhot!.. Opa, ayaga boyman,
Murdor ekan yurak naqadar,
Ba'zan tanho achchiq yig'layman.

Dilda qoldi...

Qaydan chiqdi bu balo surat,
Balolarga muhtalo surat,

Xotirimga tushdi yigitlik,
Kayfim oldi ajdaho surat...

Dudoqlari yarqiroq la'li,
Pari desam yarashur, bali.
Shahlo ko'zlar, qasdi jon ko'zlar,
Yonarmisan shu xilda hali?

So'ldi butun ishqim bog'lari,
Yigitlikning bahor chog'lari.
Sen yonasan, men o'rtanaman,
Dilda qoldi hijron dog'lari...

Sen dildorsan unga noiloj,
Suyuk yorsan unga noiloj...
Ikki yillik shirin umrdan —
Qoldikmi shu kunga noiloj?

Faqat!

Nega ko'nglim, bo'lding betoqat?
Tinchlan, dedim senga necha qat.
So'narmidi g'ussa otashi —
Yozgan bilan menga ba'zan xat?

U — yoshlikni sog'inar faqat,
Esdaliklar jon qiynar faqat.
Yoshlikdagi muhabbat o'chmas,
Ajal kelsa, u tinar faqat...

Yana surat...

Siynang toza oq marmar kabi,
Marmar emas, yumshoq par kabi.
Marmar sovuq ammo bu siyna —
Do'zax kabi, yo'q, battar kabi...

Siyning shundoq... Yuraging-chi, tosh...
Ko'zlaring-chi, beayov — bebosh.
Shahlo emish... Shahlo nimasi?
Oh, u ko'zlar bir parcha quyosh.

Tasviringga no'noqman, nochor...
Menga qoldi surat yodgor...
O'xshashingni topolmayman hech,
Bu malohat faqat senda bor.

Hammasidan — kulishing yaxshi.
Dilkash, munis turishing yaxshi.
Ko'kraginga boshingni qo'yib,
Taslim bo'lib turishing yaxshi.

1956—1957, Qoraqalpog'iston

ONAGINAM...

Tovonimga chaqir tikanakday botguvchi —
g'ashlik.

Bedavo sizloviqday sizlatguvchi —
g'ashlik.

Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon,
Chuchvaraga chekkuvchi —
g'ashlik.

Meni o'ylab notavon va nimjon,
G'ashimga tekkuvchi —
g'ashlik.

Suyaklarimni sirqiratib,
och tevatday g'ajiguchi,

Ko'zimga yosh tirqiratib,
Jig'ildonimda achchiq bo'zaday achiguchi g'ashlik.
Dunyoga qayta kelishimga ko'zim yetsaydi,
Yigit yoshim to'lmay turib,
Ayрилиq zaylida qoq yog'ochday qurib

Jon bergan onamni ko‘rishimga ko‘zim yetsaydi,
Tizzasiga bir nafas bosh qo‘yishimga ko‘zim yetsaydi,
Onalik mehriga o‘bdon to‘yishimga ko‘zim yetsaydi,
Oq sutingni oqlay, deyishimga ko‘zim yetsaydi,
Menda g‘ashlik netardi?

Yantoq o‘tinidek,
Tamaki tutunidek,
Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek —
Cheksiz fazolarga tarqab ketardi!

Onaginam!

Odam bo‘ldimmi menam?

Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib

bermagan bo‘lsam,

Yo tashnaligingda bir kosa sharbat to‘ldirib

bermagan bo‘lsam,

Yo non yopishing uchun,

Hatto bir yo‘la, bir kun

Sahrodan o‘tin orqalab kelmagan bolangman...

Og‘zingdan so‘z chiqmay, yelmagan bolangman...

Sening arzimas bir yumushingni ado lolmaganim,

Sening bir ishorangga yuz o‘mbaloq

oshib

ketolmaganim,

Seni jindak xushvaqt qilgani,

Seni jindak xushbaxt qilgani —

Tagsiz jarlardan o‘tolmaganim,

Seni so‘nggi yo‘lga o‘zim uzatolmaganim —

Tog‘day zil.

Abadiyatday cheksiz armon bo‘lib qoldi

dilimda,

onaginam!

Odam bo‘ldimmi menam?

Ha, odam sanashar meni elimda.

Senga qilolmagan xizmatim,
Sen deb chekolmagan zahmatim —
Jindak zehnim, jindak she'rim,
jindak g'azalxonligim,
Onalik mehriга to'ymagan mehrim,
jindak yaxshilik va yomonligim
Meni odam sanagan elimga baxshida,
jafodiyda onaginam!
Elga xizmatim — senga xizmatim emasmi axir,
El meni farzandim demasmi axir!
Rozi bo'l, odam sanalay menam...
Dunyoga qaytib kelurman,
Lekin boshqa o'g'il bo'lib...

1960

BULUT

I

Ko'k yuzida pag'a bulut — oq bulut,
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?
Pag'a bulut — yaxshi ko'klam elchisi.
Havolarda yomg'ir isi, sel isi...
Ko'k yuzida dam qaldiriq, dam sukut,
Yog'may o'tma, pag'a bulut — oq bulut!
Yog'ib o'tsang — tizza bo'yi o't bo'lur,
O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur.

II

Ko'k yuzida pag'a bulut — oq bulut...
Bir qarasang — osmon to'la oqquvlar,
Bir qarasang — baland qorli cho'qqilar,
Bir qarasang — ko'z ilg'amas oq barqut.
Ko'k yuzida — yorug', oydin bir ro'yo...
Usta rassom chizmish ajib manzara —

Tepa-tepa paxta — beg‘ubor, sara,
Kuzgi xirmonlarning akslari go‘yo...
1957

OQSOQOL

Bir oqsoqol ko‘rdim — bo‘yi chinordek,
Egnida banoras, ko‘kragi ochiq,
Qora chaqmoq kabi yal-yal qorachiq,
Bilaklarda yo‘lbars quvvati bordek.

Ko‘chalardan o‘tar sekin, salmoqdor,
Har odimi yerga titroq solguday,
Yerning tanobiki tortib olguday,
Oshkor bir savlat, botirlik oshkor.

Yo‘llardan o‘tadi — billur sharshara,
Jarlar, yonbag‘irlar, dovonlar tanish,
Mevazorlar tanish, qo‘rg‘onlar tanish,
O‘n olti o‘g‘il-qiz, qirq bir nevara.

Yo‘llardan o‘tadi — go‘yo boboyga
Ona tabiatning o‘zi ta‘zimkor,
Odamlarday go‘yo salomga tayyor,
Boboyni ko‘rganda to‘lar chiroyga.

Belida to‘rt belbog‘, qo‘lida aso,
Shu joylarning to‘ng‘ich hukmronidek.
O‘tmishi, buguni, pok vijdonidek
Aqli luqmonlardan to‘liq va raso.

Qora terga botib ekarkan g‘o‘za,
Egnidagi to‘ni edi yuz yamoq.
Buloq bo‘ylarida qaqrarkan tomoq...
Baxt u payt tuproqqa ko‘milgan ko‘za.

Qora terga botib yaratarkan bog',
Lekin mevasini tatiy olmasdan,
Nolasi ucharkan olis Olmosdan,
Soqol oqarguncha dil bo'lmabdi chog'...

Yo'llardan o'tadi — tog' yanglig' o'mrov,
Hali ne yuklarni ko'tarolgudek,
Hali ne tog'larga panja solgudek,
Hali ham yurtida misoli kam dov.

Mehnatkash insonga xos ko'rk va savlat,
Tabiatday barhaq, barhayot, ezgu.
Ha, piyri badavlat deganlari shu,
Yuz bir shohdan ortiq piyri badavlat.

1961, mart. Olmos qishlog'i.

BALIQ OVI

Bizning qishloq tog' bag'rida,
Tog' bag'rida — bog' bag'rida,
Etagida chopqillar soy.
Yozda tiniq,
Kuzda tiniq,
Suvda quyosh yuz bir siniq,
Ko'klam chog'i soy butun loy.

Qirg'og'ida jambul, yalpiz,
Quchog'ida balig'i mo'l.
O'ltiraman ba'zan yolg'iz,
Suvga tushmay usti-bosh ho'l:
Qarmog'imga ilinmaydi,
Suzmoqdami yo chopmoqda,
Suv tagidan ne topmoqda?
Yuz tikilsang bilinmaydi...
Tashlay qolsam non ushog'in,
Yugurishib kelar talay,

Ulgurishib kelar talay.
Ilinsaydi ulkanrog‘i,
Eltar edim jon buvimga.
— Hay, rostdanmi, hay, baliqmi,
Tangalikmi, chaqalikmi?
Balli, derdi, uquvimga...
Ilinmaydi lekin hozir.
Bundan keyin to‘r tashlayman,
Tashlasam ham zo‘r tashlayman,
Qo‘lga tushar bari oxir.

1961

MEN SENI...

Men seni injitmayman
Va lekin tinchitmayman...
Charx urib, bo‘z to‘rg‘ayday bo‘zlashim bor boshingda
Ey, sochlaring to‘lqini tun singari sim-siyoh,
Xol kabi paydo bo‘lgum yonog‘ing yo qoshingda
Ey, izlaring g‘ubori ko‘zlarimga to‘tiyo...

Saratonda sel bo‘lib,
Lolazor yaratgayman.
Qahratonda yel bo‘lib,
Gul atrin taratgayman.

Yo‘l yurib, cho‘llab qolsang,
Shildiragum buloqday.
Yoki dashtga yo‘l solsang,
Yastangayman o‘tloqday.

Istab qolsang soyabon,
Men darrov chinor bo‘lgum,
Cho‘mar bo‘lsang nogahon,
Men darrov anhor bo‘lgum.

Kezar bo'lsang bog'ingda,
Pichirlagum misli barg,
Kuyib sening dog'ingda,
Bo'lmasaydim juvonmarg...

Bu dunyoda hech kim yo'q senga menday mahliyo,
Umidim bor — qaragung axiyri qiyο-qiyο...

Epkin bo'lib saharda,
Gulzoringda kezurman.
Qo'shiqlarim avj parda,
G'unchalaring uzurman.

Nasim kabi sezdirmay,
Kiprigingga to'qingum.
Ozor bermay, bezdirmay,
Suratingga cho'qingum...

Qush bo'lib qochar bo'lsang, tarlon bo'lib quvgayman,
Tog'larda sharsharadek g'uboringni yuvgayman.
Har mushkul, har xatarda, har balodan saqlagum,
Qayrilsang-qayrilmasang, o'lguncha ardoqlagum.

Tong payti yulduz misol, oq siynangda yongayman,
Yong'irda kamalakday, yuz rangda tovlangayman,
Ko'rkingga tikilgayman to ko'zimda bor ziyo,
O'zing bilmaysan, senda shunchalar mehri giyo!

Men seni tinchitmayman
Va lekin injitmayman...

1960, iyul, Qirg'iziston.

KIPRIKLARIM

Yosh qalamkashlarga ataganim

Kipriklarim qo'ng'irmikan yo qora?
Kipriklarim yuztamikin yoki ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko'zginamning kipriklari...

Quyunlarda qolganimda, changga o'ralganimda,
Ohangaron to'zonidan, zangi qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,
Yoki bir she'r armonida, yuz bir ko'ralganimda,
O'zbekiston tonglarini, bedor kutgan ko'zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin, tashna yutgan ko'zlarim.
Ko'zlarimga chegarada shay askarday qo'riqchi,
Ko'zlarimga olis Bobur g'ussasiday yo'riqchi,
Ey, aziz kipriklarim.
Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari.
Kiprigimday azizlarim, nechog'liq ham suyuksiz.
Armonimday buyuksiz!

1960







ZULFIYA
(1915–1996)

Yigirmanchi asr o‘zbek adabiyotining barkamol ijod sohibasi. She’riyatida inson ruhiyatining shodon, mahzun xilma-xil kechinmalari, davr to‘fonlari va yashash mohiyatiga doir ulug‘vor falsafiy qarashlar mujassam. She’r-u dostonlari umumbashariy g‘oyalari bilan, ularning jozibali hamda san’atkorona ifodasi bilan o‘zbek va dunyodagi boshqa ko‘plab xalqlar she’riyat muxlislarining qalbidan mustahkam joy olgan.

BAHOR KELDI SENI
SO‘ROQLAB...

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yarlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,
O‘rik gullarining eding maftuni.
Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so‘radi seni,
Ul ham yosh to‘kdi-yu, chekindi nari.

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

Qirlarga ilk chiqqan qo‘ychivonlardan
Qayda shoir, deya ayladi so‘roq.
Barida sukunat, ma‘yuslik ko‘rib,
Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan za‘far yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

«Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?»
«Baxtim bormi deya, yakkash so‘roqlab»
Meni she‘rga o‘rab, suqlanib boqqan?»

O‘rik gullariga to‘nmaydi nega,
Elda hilpiratib jingala sochin?»
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?»

Qanday ishqqa to‘lib boqardi tongga,
Kamol toptirardi keng xayolimni.
Uning rangdor, jozib qo‘shig‘ida
Mudom ko‘rar edim o‘z jamolimni.

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?»

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamda tutoqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozining yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

1945

O'G'LIM, SIRA BO'LMAYDI URUSH

To'lisharmi o'lkada bahor,
Quyosh kezar osmon ko'ksida.
Qaldirg'ochlar qanotmi qoqar,
Undan soya labi ustida.

Mana, o'g'lim labi ustida
Qaldirg'ochning mayin qanoti.
O'spirinim toza ko'ksida,
Kunda oshar yangi his toti.

Bo'yi oshib ketdi bo'yimdan,
Bosa olar ko'ksiga boshim.
Sevgim qurib bergan uyimda
O'sdi mening katta yo'ldoshim.

Yurak to'la shodlik, mehr, baxt,
Uning ko'zlariga boqaman.
Nigohiday tiniq va yorqin
Orzu to'lqinida oqaman.

Orzulari qalbinga ziynat,
Hayotidir ko'zim qorasi.
O'kinaman, ba'zida faqat,
Yonida yo'q, uning otasi.

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Yulding ota demak baxtini,
Juda murg'ak go'daklarimdan.

Yaxshi ham bor shunday Vatani,
Dalda bo'ldi yuraklarimga.

Ota bo'lib soldim men yo'lga,
Ona bo'lib mehrimga oldim.
Mana, yurtga o'g'il o'stirgan
Bir davlatmand boy bo'lib qoldim.

Qancha ishonch, umid baxsh etar,
Ham Vatanga, ham menga bu dil,
Qoya kabi yonimdan chiqib,
Suyan,— deydi,— kiftimga dadil.

Men onaman, mening yuragim
Farzandlarim quvonchiga kon.
Dil orziqar, ba'zan tilagim
Vahimalar o'ragan zamon.

Yo'q, urushning nomi ham o'chsin,
Mening o'g'lim kerak hayotga.
Istamayman, uning dudlari
Qo'nsin labi uzra qanotga.

Bas, bas, ezgu onalar qalbi
Yashay olsun bexavf, baxt bilan.
Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz
Tinchlik, deydi butun xalq bilan.

Ko'krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush!

1954

MUSHOIRA

Go‘zal tuproq uzra quyiladi oqshom,
Kunduz olar dam,
Jo‘shqin mushoira etadi davom,
Do‘stim, kel sen ham!

Bunda uzoqdagi do‘st bo‘lar yaqin,
San‘at, mahoratning bayrami bunda.
Qofiya, so‘z, misra bahslari qizg‘in,
Yuraklar davraga kiradi bunda.

Qay dil chamani boy, jozib nafasi,
Kimning fikri o‘tkir, teran, bokira?
Bu guring — shoirlar musobaqasi —
Sharq she‘riy chamani, bu mushoira.

Hind tuprog‘i uzra quyilib oqshom,
Kunduz olgach dam,
Jo‘shqin mushoira etadi davom,
Do‘stlar bo‘lib jam.

Yuraklar jo‘r ekan, ovoz hamohang,
Zarra ehtiyoj yo‘q muhtasham zalga.
Bu she‘r bog‘ida go‘zal, rang-barang
Qo‘shiq solib kelgan har shoir dilga.

Nil qudratin jo‘shib kuylar bir shoir,
O‘zgasi Gang misol qilar zamzama.
Faqat mango nusxa ajoyib chodir
Bu go‘zal davraga ajib boshpana.

Bengal ko‘rfaziday ko‘k edi oqshom,
Atrofdagi tabiat olardi nafas.
Rang-barang chiroqlar shu‘lasi beson —
Osmon ko‘zlarida etar edi aks.

Salqin sohillardan esgan shabboda
Goh olib kelardi gullar bo'yini.
Goh hindu qiz kuyin, goh yaqin bog'da —
Sayragan anvoi qushlar kuyini.

Lekin hokim edi davrda ilhom
Va jasur qalam.
Jo'shqin mushoira etardi davom,
Do'stlar bo'lib jam.

O'zbek supasiday sahnada gilam
Chiroqda yonardi go'yo kamalak.
Sehr-u muhabbatin ko'rardi baham
Haqiqat va nurga intilgan yurak.

Sahnaga chiqardi sipo va vazmin
Chinor ham, nihol ham she'r chamanidan.
Keksa-yu yosh ota-yu farzandday yaqin
Yonma-yon do'stlikning bu bayramida!

Sharqning ham buzilmas odatlari bor,
Hindlar udumiga qilamiz amal.
Chordana quramiz mehmon va mezbon
Kamalakrang gilam uzra bemalol.

Poygakda yechilgan xil-xil poyafzal,
Mening nazarimda o'zi bir dunyo.
Har biri o'zida mehnat va go'zal
Eli tuprog'ini keltirgan go'yo.

Ajib Hindistonning mohir, mirishkor
Kosibin san'atin qilib namoyish —
Hindlar sandallari tizilgan qator.
(Sandal daraxtidan yasalgan emish).

Juda soz! Albatta kiyib birini
Safarga do'stlar-la men ham chiqaman.

Har qo'lg'a tutqazib xalqim mehrini,
Buyuk Hindistonni yayov kezaman!

Xitoyning bejirim, Bog'dodning puxta
Oyoq kiyimlari turar yonma-yon.
Qarayman, Seylon bor va boshqa juftda
Eron kosibining san'ati ayon.

Mo'g'ulcha etiklar Panjob kashfiga
Ertak so'zlaganday egilib turar...
Ko'zlar quvonadi inson ishiga,
Shod etar tuprog'-u, mehnat va hunar.

So'ngra tevarakka sezdirmay sekin
Men ham tuflimga tashladim ko'zim.
Yomon emas, Ahmad, mohir, kamtarin
Vatandosh, ishingga olqish o'qidim.

Bilaman, sening ham bunda do'sting bor,
Balki Bombeyda u, balki Kashmirda.
Qayerda bo'lmasin xuddi sen misol
Yashaydi davrada yangragan she'rda!

Chodir ichi gavjum, ko'zlar muntazir,
Mikrofon oldida davr sohibi:
Kumushday sochida jilvalanar nur,
Ko'zida yoshlikning so'nmas yolqini.

Nelarni ko'rmadi bu ko'zlar? Yurtida
Ko'z yoshi daryoday oqqanin eslar.
Iroda va umid toblanib o'tda,
Qari haqsizlikni yoqqanin eslar.

Endi Hindistonning ustida oftob,
Shuning-chun yosh, dadil, munavvar boqar,
Bizni she'r bahsiga qiladi xitob,
Qo'shiq yuraklardan daryoday oqar.

Go‘zal tarjimondir zangori oqshom,
Har yurak hamdam.
Bizning mushoira etadi davom,
Do‘stim, kel sen ham!

Mana, musiqaday, sevgiday mayin
Davraga kiradi Panjob bulbuli.
Nafis satrlari yoniq o‘tdayin,
Jasur jaranglaydi onalik dili.

She‘r o‘qiydi Nepal, Vetnam, Xitoy,
Rus, tojik o‘qiydi she‘rini sarbast.
Qora alangaday soqolli singxlar,
Qorday oq libosli bengallar, hindlar.

Zavqidan tebranib naq to‘lqinli soy,
Tinglardi hayajon og‘ushida mast.
Qo‘shiq-chi?
Goh kurash, goh qiz sevgisi.

Goh ko‘kdan non kutib ko‘r bo‘lgan nigoh,
Goh go‘dak kulgusi, goh banan isi,
Surmali ko‘zlarning nozi bo‘lib goh,
Goh bo‘g‘iq haqiqat dod, hayqirig‘i,
Gohi yulduz kabi yiroq, yorqin baxt.

Qullikka sanchilgan g‘azabning tig‘i,
Goh erk tantanasi bergan adolat —
Osiyo, Afrika kartasi bo‘lib,
Hayot alamiga, baxtiga to‘lib,
Kirib kelar edi dildan dillarga.

Yellar misralarni dillardan yulib —
Million yo‘llar bilan butun ellarga
Ketardi go‘yo bir samimiy sayyoh,
Yolqin qanotida do‘stlik va mehr.

Go‘yo sharqliklarning baxtiga guvoh,
G‘arbni chorlar edi davraga she‘r.

Ey latif, fusunkor hind oqshomlari,
Ne sehr bor edi zangor qo‘yningda?
Tinglovchi va shoir hayajonlari
Bu ulkan qalb bo‘lib tepar to‘lqinda.

Yangi kuy, yangi o‘y olib shoirlar,
Daraga kelardi, kelardi hamon.
Dillarni payvandlar edi satrlar
Do‘stlik, qardoshlikning ko‘prigisimon.

Yor-u birodarning mehriga serob.
Yurakday davramiz borar kengayib,
Jafokash qoniga solib oftob,
Ko‘zida qalbning oqligi yonib —

Afrika farzandi o‘qiydi she‘r.
Irmoqday quyilar tinchlik so‘zlari.
Orom og‘ushiga kirgan bo‘lar yer,
Yorqinroq chaqnaydi ko‘k yudduzlari.

Sen ermak emassan, sen non, sen orom,
Orzu pokiza.
Sen hayot! Hayotni kuyla sen mudom,
Ey, mushoira!

Sen chorla, ovozing eshitsin jahon!
She‘rning urib turgan yuragi bo‘lib,
Hayotning eng ajib kuyiga to‘lib.

Davramizga kirsin ishchi va dehqon,
Hayot san‘atkori eng oddiy inson.

Balki u she‘r yozib, o‘qimagan ham,
Ijodning lazzatli dardi begona.

Kurashi — qalbida qaynagan ilhom,
Kitobi — erkka ishq, orzu va g'oya.

Mayli, o'rin olsin, bu shonli safdan,
Shoirilar kuyiga bo'lsin hamovoz.
Mehnat-la yaratgan saodat, baxtdan
Naql etgan misralar keng qilsin parvoz.

Hayot go'zalligi she'riyatining
Yoniq nafasiga to'lsin bu jahon.
Xavfdan xalos bo'lgan bashariyatning
Qo'shig'in to'qisin ozod, tinch inson.

Davramiz mehrga to'liq bir olam,
Do'stlar bari jam,
Buyuk mushoira etadi davom,
Kelingiz, siz ham!

1958

XOTIRAM SINIQLARI

Hurriyat, keldingmi — nahotki kelding,
Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.
Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek —
Sening nasimingga qalbimni tutdim.

Mana, qalb — baxt-u dard to'la dengizim,
Mavjlari shuhratim, hijron, o'kinchim.
Qo'rquv kalxatlari tegib sindirgan —
Yodim siniqlari ostda — cho'kindi.

Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,
Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh.
Qaragin titroqda — hammasi jonli,
Qara, hammasining yuzi qontalash...

Bu onam — tangrining baxtli onida
Ayri ixlos bilan yaratgani chin.
Qarogʻida mehr shamlari yoniq —
Gullagan oʻrikday orasta otin.

Kun toyib, shuʻlalar koʻchgach ufqqa,
Sayroqi qushlarning tinganda bazmi,
Onam dilimizni chorlab qoʻshiqqa,
Nim-nim sochar edi mumtozlar nazmin.

Soʻfi Olloyormi, devona Mashrab
Bayozlarin oʻpib qoʻlga olardi.
Yumushmi, oʻyinmi — barini tashlab,
Sehrli olamga kirib borardik.

Rang-u ohanglarni jonga quyganda,
Shuʻlaga toʻlardi butun koinot.
Oʻzimni seherga asir tuyganda,
Yurakda yozardi qoʻshiq oʻt qanot.

Yangamga esh boʻlib tikdim palagim,
Qogʻozdan sir tutgan satrimni tepchib,
Gullardi palakda shirin tilagim —
Koʻzimdan yoshlikning nurlarin ichib.

Hovlimiz ziynati jambil, rayhonday,
Otam taʻbiricha edim boychechak.
Hali biz sezmagan qora qish aro
Nahot, jonlanmoqda ishq otligʻ chechak...

Va hademay sezdik bu qahramonni,
Tigʻday tillarida yalay boshladi.
Qadami yetganda har xonadonning —
Quvonchi bujmayib, soʻliy boshladi...

... Aka, koʻzingizda otash bor edi,
Aka, joningizda quyosh bor edi,

Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat,
Sardorniki yanglig' bardosh bor edi.

Sizni-da qora tun oldilarmikin,
Qo'lingizga kishan soldilarmikin,
Yukinish, yalinchmas — g'ururni ko'rib,
Vahshiy g'azablarda yondilarmikin?!
Aka, jonim akam — jondoshim akam,
Oltmish yil izimga qaytib yig'layin,
Bo'g'zimda tosh bo'lgan yo'qloqlarimni
«Oh»larim eritar — aytib yig'layin.

Singilni «mehrardan bino» deydilar,
Ko'z yoshga yetdimi mehrimning kuchi!
Gunohsiz, jonimning qotillariga
O'q qilib otdimmi nafratim, o'chim?

... Buncha chidam qaydan — po'lat, olovdan,
Metindan yaralgan jonmida otam...
Otash og'ushidan topib bizga non,
G'amga ham chidamli bo'larkan odam.

Onam qo'llarida mushtday tugunchak,
Tosh shaharni kezar avaxta izlab,
Avaxta nechadir, zor ona necha,
Nechalar yashardi zamoni «siz»lab.

Keksa ko'zlarida mo'ldir va mo'ldir
Qotgan ko'z yoshlarga boqardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,
Ne bois muttasil dillari vayron...

Kuni bo'yi kezib, bukchayib, tolib,
Keksa bag'rin yerga berib yotardi.
Biz nochor bir-biriga ezilib boqib,
Sukut dengiziga og'ir botardik.

Onam, «suv boshidan loyqa» derdingiz,
Bilmasdik bu gapda haqiqat zuhur,
Muhtasham binoda sirli, yashirin
Asl yigitlarga qazilardi go‘r.

Qolganda azoblar iskanjasida,
Ota, bir ko‘rmadik ko‘zingizda yosh.
Yashab umidlarning pok sajdasida,
Hatto yovingizga otmadingiz tosh.

Va faqat dedingiz: «Soldim xudoga»,
Bu qirg‘in doyasi xudosizlar-ku.
... Sabr, qanoatdan yaralgan elim,
So‘qir ham o‘ziga so‘qmoq izlar-ku!

Norg‘ul o‘g‘illaring qirildi qushday
Sibirning nur tushmas o‘rmonlarida.
Sen esa yasharding misoli tushda
Turtinib g‘ofillik tumanlarida.

Menmi? Men shu qadar yosh edim hali.
Yoshlik — g‘am — begona biri-biriga.
Qutulmoqqa anduh botqoqlaridan
Osildim muhabbat shodliklariga.

Menmi? Men ishq otlig‘ bir jahon aro
She‘r tinglab, she‘r tizib — she‘rlarda qoldim...
Behishtiy jaranglar — jonimga oro —
O‘zimning baxtimda o‘zim yo‘qoldim.

Baxt qasrimga kirib meni topdi dard,
Urush, yozda yoqqan qor kabi o‘lim.
O‘ttizga yetmayoq sochim qor yalab,
Ko‘z yoshim soyiga to‘kildi gulim.

Onam, donolikda yagona onam,
Isyon ko‘tarishdan bermabsiz saboq,

Ustimga ketma-ket tog' qulagan dam
Qoldim yashin urgan polopon siyoq.

Bo'ldi, bas! Jangdan so'ng horg'in sarkarda
Tirik askarlarin tizganday qator —
Men tirik hislarim bir joyga yig'dim
Va kuchli yashashga ayladim qaror.

Yurtni bo'ron bo'lib kezdim bosh-oyoq,
Qabristonlar aro quyunday yurdim,
Eng kichik giyoh ham nazdimda uyg'oq,
Faqat el-elatni sukutda ko'rdim.

Tushlarimda topib akam jasadin,
Otamning yoniga qazitdim qabr.
O'zim yonganimda ruhlar yondi deb
Xokiga suv sepib, tiladim sabr.

Taqdir, taqdir dedim, yashadim uzoq,
Taqdir peshonaga yoziq deyishdi.
Yoziqni devorga urdim-u biroq
Men sindim, qonimdan g'ishtlari pishdi.

Alam. Yomon alam ko'zing ko'r bo'lsa,
Lekin so'qir dillik undan-da dahshat.
Xalq ganjin yulmoqqa cho'zilgan qo'lga
Biz alvon guldasta tutibmiz faqat.

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,
Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil.
Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin
Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil?!

Toji yo'q podshoday sezdimi o'zin,
Shu'la yoyilmadi bukik dilida?
Qo'lida zarra yo'q ixtiyor, izn,
Bildimi yitardi g'urur elida?!

«Vatanparvar» debmiz o‘z-o‘zimizni,
Dengizlar quribdi, chiribdi baliq,
«Insonsan, boshingni ko‘tar», demabdi,
Ko‘ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?

O‘zing berganding-ku, poklik, halollik,
Iymon-u ishonchlar — butun, beillat,
Qilolmas edi-ku shayton dallollik,
Ilm-u hikmatlarga yor edi millat.

... Ey gumbazigardun, qoldimmi g‘ofil,
Ishonch, e‘tiqodlar chiqdi puchlarga?!
Suyanib najotlar kutgandik, nahot,
Bizga choh qazigan qora kuchlarga?!

Kim bilsin, savob deb urinishlar ham,
Zamona soziga o‘yinmi bari.
Deydilar: yaratgan eng ulug‘ hakam,
Hech qachon adashmas tarozulari.

Qay biri vazminroq savobmi — gunoh,
Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning —
Nimasin yoqardi do‘zax o‘tlari...

Bu dunyoda ko‘rgan azob, ko‘z yoshlar
Savob posangisin xiyol bosarmi?
Gumrohlik pallasin to‘ldirsa toshlar,
Eng baland doriga meni osarmi?

Yoshim ketib-ketib, torday tarangman,
Kapalak sharpasi tegsa, uzilur
Chiday-chiday yuqqa tortgan parangman,
Cho‘yan bo‘lsa ham dil — qulfi buzilur.

Lekin yashayapman, otam va onam
Chayir arqoqlardan to‘qishgan chog‘i.

Aytilmagan alam, yozilmagan she'r,
Olinmagan qasos — yurak titrog'im.

Boshim — portlovchi dud to'ldirilgan xum,
Portlashin kutardim soniya sari.
Sabrlar to'kildi naq kaftdagi qum —
Yuzim ruhlarida qonli izlari...

Bilmayman, savobmi yo koni gunoh,
Zinhor shakkoklikka yo'y mang tilagim.
Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,
Obi rahmatlarda sovisin tanim...

... Yallig'lanib yotar keksa xotiram
Ichida shu dardlar, tig'li siniqlar...
... Holbuki, nur ichra dala-yu daram,
Holbuki, bog'imda bulbul chah-chahlar...

Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding!
Kelar yo'llaringda pinhona toldim.
Mening ota-onam, jon Vatanimda,
Elim taqdirida abadiy qolding...

Kelding-ey, Istiqlol, istiqbol bo'lib,
Qalbinga nasiming bilan yo'l solding.
Sen shu hur nazmga ixtiyor berib,
Men og'ir bulutdek bir yog'ib oldim...

Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,
Seni qalxim, ko'zim, so'zlarim quchar.
Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...

Ruhim u yoqlarga qush bo'lib uchar...

1995







SHUHRAT (1918–1995)

O‘zbek adabiyotining taniqli namoyondalaridan biri shoir, nosir va dramaturg Shuhrat (G‘ulom Alimov) o‘z ijodini 1935 yilda she‘r yozish bilan boshlagan. Uning «Shinelli yillar» romani ijodkorga katta obro‘ keltirgan. Shuhratning «Oltin zanglamas», «Jannat qidirganlar» kabi yirik asarlari mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida ham o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shuhrat «Besh kunlik kuyov», «Qo‘sha qaringlar» komediyalari orqali teatr san‘ati rivojiga ham munosib ulush qo‘shgan.

OLTIN ZANGLAMAS

(Romandan bob)

ISHONCHGA KIRGAN TUHMATCHILAR

So‘ngsiz shirin orzular og‘ushida ekan, nazoratchi eshikni zarb bilan ochib: «Kiyin! Yur!» deganida quvonchdan ichida: «Ana, uyga ketdim», deb apil-tapil kiyingan Sodiq, sal o‘tmay o‘zini yana Chuxanov kabinetida ko‘rdi.

Tergovchi o‘z o‘rniga o‘tirib, stol tortmasidan oq qog‘oz olib, ko‘zdan kechirdi. Keyin boshini ko‘tarib, Sodiqqa qaradi:

— Demak, iqror bo‘lmoqchi emassiz? Foydasi bo‘lsa davom ettiravering, o‘zingizga qiyin.

Sodiq churq etmadi. Tergovchi o‘z joyiga borib o‘tirdi. Telefon qilib bir kishini o‘rniga vaqtincha kirib turishga taklif etdi. Sal

o'tmay u odam eshikda ko'rindi. Yangi kirgan leytenant Sodiqning salomiga alik olib, Chuxanovning o'rniga o'tirdi. U tunov kuni ham bir-ikki kirib-chiqib ketgan edi. Shunda kimdir uni Pushkaryov, deb chaqirganda, familiyasini bilib olgan edi. U muloyim kirib, Chuxanov bilan qo'l olib ko'rishadi-da, Sodiqqa yumshoq nazar tashlab qo'yadi, salomiga bosh chayqab alik oladi.

Pushkaryov hozir ham Sodiqqa qarab bir-ikki og'iz juftladi-yu, gapirmadi. Yana qo'lidagi kitobini varaqladi, qiziq suratga ko'zi tushdi shekilli, miyig'ida kulib qo'ydi. Keyin yumshoqlik bilan uning ahvolini so'radi, ko'nglini ko'targan bo'ldi.

Sodiq Pushkaryovning bu mehribonligidan kurortga bepul putyovka olgan kishidek quvondi va ayni vaqtda xo'rliqi kelib ketdi. Insonning ko'nglini olish, uni mamnun qilish uchun axir ko'p narsa kerak emas-da!

Pushkaryov buni tushundi, o'rnidan turib kelib, yupatish ohangida gapirdi:

— Xafa bo'lmang, keragi yo'q.

U yana nimalardir deb yupatmoqchiga o'xshardi-yu, lekin jur'at etolmagani ko'rinib turardi. Sodiqning fahmicha, Pushkaryov bu yerda ro'y berayotgan ba'zi nohaqliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib turibdi, ichidan kuyadi, ammo biror ish qilishga, bir ish qilish emas, hatto aytishga ham ojiz!

— Yuragingiz kasal emasmi? — dedi bir ozdan keyin.

— Yo'q, — bosh qimirlatib javob qildi Sodiq.

— Unda hech narsa qilmaydi, o'tib ketadi, sal toliqibsiz.

Sodiqning ko'zi shu kichik suhbatdan keyin charaqlab ochildi. Ko'ziga shu leytenant dunyoda eng mehribon kishi bo'lib ko'rindi. Boshini ko'tarib, Pushkaryovga qaradi. Nazarida juda o'zgachadek bo'lib tuyulgan bu yoshgina yigit oq-sariqdan kelgan, ko'zlari ko'm-ko'k, qoshlari sezilar-sezilmas kulrang, burnining uchi birov chertib qo'ygandek to'mtoq, engagi uchli, labi cho'g'dek qizil ekan. Bunaqa oddiy rus kishilarni u ko'p ko'rgan. Ulardan qanchadan-qancha o'rtoqlari bor edi.

U Pushkaryovning ko‘ziga termilib qoldi. Bu ko‘zlar unga hayot va istiqbol va‘da etardi, bu ko‘zlar umid va ishonch baxsh etardi. Bu ko‘zlarda odamiylik va haqiqat yonardi.

— Siz ham shu yerda ishlaysizmi? — dedi jur‘at qilib Sodiq.

— Ha, — dedi Pushkaryov va ko‘zini kitobdan olib kulimsiradi. Bu tabassum Sodiqda yana jasorat tug‘dirdi.

— Siz ham tergovchimisiz?

— Bunisi sir, — dedi u yana kulib, lekin saldan keyin qo‘shib qo‘ydi: — Sizcha kimman?

— Bilmasam.

— Men ham tergovchiman, albatta.

Sodiqning fikri ravshanlanib o‘ylay ketdi: Chuxanov ham tergovchi, bu ham tergovchi. Ikkalasi ikki dunyo. Biridan kishining ko‘ngli suv ichadi, ikkinchisidan ensang tosh qotadi. Pushkaryovga o‘xshaganlar bo‘lgani holda nega Chuxanovlar bunaqa ish tutadi ekan?

Sodiqning Pushkaryovga rahmi keldi. Unga ishlash juda qiyin bo‘lsa kerak. Axir uning mana hozir Sodiqqa qilayotgan rahmdilligini Chuxanovga o‘xshaganlardan birontasi ko‘rib qolsa, indamay turmaydi-da!

Pushkaryov kitobni bir chetga surib qo‘yib, Chuxanov tez-tez ko‘zdan kechirib turadigan papkani ochdi. Har qog‘ozni o‘qiganda yuzi o‘zgarib turdi. Bu Sodiqning delosi. U anchagina qalin, kepak rangidagi muqovasi uringan. Sodiq uning o‘z delosi ekanini birinchi marta ko‘rganda ishonmagan, shuncha material qayoqdan yig‘iladi deb o‘ylagan, Chuxanov muqovasini ko‘rsatib, uning familiyasini o‘qib berishga majbur bo‘lgan edi. Baribir, hali ham uning ichidagi materialning hammasi o‘ziga taalluqli ekaniga ishonmaydi.

Pushkaryov deloni o‘qiyverib zerikdi shekilli, xo‘rsinib undan boshini ko‘tardi. O‘rnidan turdi. Og‘ir qadamlar bilan Sodiq o‘tirgan burchakka keldi.

— Rostingizni ayting, sovetlardan norozi bo‘lgan yillaringiz bo‘lganmi? Hech jinoyatga qo‘l urganmisiz?

— Mutlaqo! Xayolimga ham kelmagan. Buning uchun asos ham yo‘q: badavlat xonadondan chiqmaganmanki, otamning sho‘ro hukumati tufayli qo‘ldan ketgan mol-mulkini eslab, xumori tutsa; chet elda bo‘lganim yo‘qki, uning usti yaltiroqligiga uchsam, o‘shanday hayotni orzu qilsam; birorta mafkurasi buzuq odamda o‘qiganim yo‘qki, u meni yo‘ldan urgan bo‘lsa!

Sodiqning astoydil kuyib-pishib gapirishi Pushkaryovning diqqatini tortdi. U tushundiki, qarshisida uyqudan qolib, holdan tolib o‘tirgan kishi hayotga befarq qaraydiganlardan emas, bundaylar komil ishonch bilan yashaydi, ikki yuzlamalikni bilmaydi.

Pushkaryov ana shu xulosasini yana bir tasdiqlab aniqlab olmoqchi bo‘lgandek, Sodiqni boshdan-oyoq ko‘zdan kechirdi, horg‘in ko‘ziga boqdi, yuzlaridan nimalardir izladi. Keyin yana o‘z joyiga o‘tib, deloni ko‘rdi. Yelkasini qisib qo‘ydi.

— Qiziq, juda qiziq...

Shundan keyin oraga uzoq jimlik cho‘kdi. Ancha hushyor tortgan Sodiq fikran bir necha marta uyiga borib keldi, sevgan maktabini aylandi, darsga kirdi, ovga chiqdi. Shirin orzular og‘ushida mast bo‘lib o‘tirar ekan, Chuxanov kirib keldi. Qo‘lida bir varaq qog‘oz. Pushkaryov chiqib ketdi.

Chuxanov stuliga o‘tirib, Sodiqni oldiga chaqirdi.

— Mana buni o‘qib qo‘l qo‘ying.

Sodiq Chuxanov uzatgan qog‘ozni o‘qidi-yu, ustidan sovuq suv quyilgandek hushyor tortdi. Qog‘oz uning partiya билетini shahar partiya komitetiga topshirilgani haqida edi.

— O‘chdimmi? — deya oldi o‘zini bu dahshatli xabardan arang o‘nglab Sodiq.

— Bo‘lmasam-chil!

Sodiq shundan keyin qanday qilib joyiga kelib o‘tirganini, qog‘ozga qanday qo‘l qo‘rganini, qachon uni kameraga olib tushganlarini eslay olmaydi. Partbileti haqidagi to‘rt enlik qog‘oz ko‘z oldidan ketmay qoldi...

Sodiq o‘z o‘limiga o‘zi aza ochgandek, ho‘ngrab yig‘lab yubordi, bu uning umrida balki birinchi marta ho‘ngrab yig‘lashi edi.

Bir necha kun o'tgach, uni yana tergovchi chaqirdi.

Sodiq kirib borganda Chuxanovning xonasida Mirsalim o'tirgandi. Sodiqni ko'rishi bilan sal bezovtalandi, lekin tezda o'zini o'nglab, yutinib oldi. «Bu nima qilib yuribdi?» — Sodiqning miyasiga kelgan ilk fikr shu bo'ldi. Xayolida bunga javob topguncha, nechundir, yuragi orqasiga tortib ketdi.

Mirsalim qandaydir soxta ishshayish bilan o'midan qo'zg'alib, salomlashgan bo'ldi.

Sodiq o'tirar-o'tirmas tergovchi so'z tashladi:

— Tanish bo'lsanglar kerak?

— Ha, birga ishlardik, — dedi Sodiq bo'shgina. Mirsalim boshi bilan tasdiqladi.

— Tanish ham gapmi, sirdoshlar-ku. Qancha-qancha shishalarni birga bo'shatishgan, — gapga aralashdi Chuxanovning yonida o'tirgan qorachadan kelgan, yuzlariga husnbuzar toshib ketgan novcha yosh yigit. Sodiq bu yigitni biladi. Familiyasi Saydullayev. Buni ilk bor eshitganda nahotki familiyasining noto'g'ri ekanini bilmasa, asli Sa'dullayev-ku, deb ko'nglidan o'tkazgan edi. Uning talaffuzidan Samarqand shevasi yaqqol sezilib turardi. U ba'zan-ba'zan kirib Chuxanovga ko'maklashadi. Hatto bir kuni Sodiq bilan yolg'iz qolib: «Bo'yingizga oling qo'ying-da, o'zingizni qiynab nima qilasiz, siz kuch bergan to'nka endi ko'karmaydi», degan edi. Shu-shu yigitni yomon ko'rib qolgandi.

Chuxanov «barvaqt luqma tashlading!» degandek Saydullayevga qarab, avvalgi yumshoq tovush bilan yana so'radi:

— Bir-biringizga shaxsiy adovatlaring yo'qmi?

Boshlab Mirsalim javob berdi:

— Yo'q.

— Xizmatdagi ba'zi bir to'qnashuvlarni hisobga olmasak, albatta, yo'q.

Sodiq shunday deyishga dedi-ku, ammo ichidan sovuq yel o'tgandek bo'ldi. Yuragi qandaydir ko'ngilsizlikni sezayotgandek hapriqib ketdi.

— Xizmatda bunaqa gaplar bo‘ladi, adovatga kirmaydi! — cho‘rt kesdi Chuxanov.

Ana shundan keyin Sodiq yetti uxlab, tushiga kirmagan gaplar boshlandi.

Mirsalim guvohlikka kelgan ekan. U shunaqa ayblarni Sodiqqa taqadiki, uncha-muncha odamning tiligacha muzlab ketadi. Sodiq o‘z tug‘ilgan qishlogida bir necha maslakdosh kishilari bilan sovetlarga qarshi ishlar qilgan emish. Maqsadi — yoshlarni yo‘ldan urish bo‘lgan emish. Shu niyatda maorif sohasiga ko‘chgan, qamalgan Boltaqul uning o‘ng qo‘li ekan. O‘z faoliyatini kengaytirish maqsadida markazga ko‘chib kelgan, Mirsalimni verbovka qilishga uringan, u yon bosmaganidan keyin turli yo‘llar bilan qisa boshlaganmish.

— Yolg‘on! Tuhmat! — bardosh berolmadi Sodiq.

— Baqirmang! Qo‘l ostingizdagilarga baqiradigan direktorlik vaqtingiz o‘tib ketgan. Men bu gaplarni o‘z og‘zingizdan eshitganman.

Mirsalimning bu surbetligidan Sodiq yana tutaqib ketdi:

— Tuhmatchi! G‘alamis! Bo‘hton qilgani uyalmaysizmi!

Uni Saydullayev qayirib tashladi.

— Sovet kishisini haqorat qilmang, grajdanin Qo‘chqorov.

Sodiq tergovchilarning tanbehiga parvo qilmay, ig‘vogarning o‘ziga tashlandi:

— Sening-ku tilyog‘lama, ichidan pishganligingni bilardim, lekin yuragi qora, iflos, ig‘vogarligingdan bexabar ekanman. Mayli, gapir, og‘zingga siqqancha gapir, vijdonsiz!

Chuxanov ishning buzilib ketishidan qo‘rqdimi, nima uchundir, og‘irlik bilan oraga tushdi:

— Qo‘chqorov! Yengillik qilmang! Haqiqat doim shunaqa achchiq va zalvorli bo‘ladi. Shularning barchasini shu vaqtgacha o‘zingiz tartibi bilan aytib berishingiz mumkin edi. Birovning og‘zidan eshitish va fosh bo‘lish, albatta, og‘ir! Nachora!

Mirsalim xizmatlari evaziga mukofot olayotgan odamdek bemalol o‘tirardi. Lekin qandaydir bezovtalik yuziga sharpa solib

turardi. U Sodiqning yuziga boqolmas edi: yo bardoshi yetmaydi, yo tuhmatining sezilib qolishidan cho‘chirdi. Sodiq esa, aksincha, uning qarashini ovlar, ko‘zini uchratib, ichiga nazar tashlamoqchi bo‘lib, payt poylardi. Oxiri bunga muyassar bo‘ldi, uning ko‘zini uchratdi: Mirsalim bir necha lahzaga bardosh beroldi, xolos! Sodiq uning bu behayolarcha boqishidan g‘alamislik, ig‘vo, tuhmatchilik qon-qoniga singib ketgan, qotillikdan qaytmaydi, kishilar boshiga qora kun solishdan zavqlanadi bu odam, degan ishonchga keldi: «Eh, attang, nega avval bilmagan ekanman» deb o‘kinib qo‘ydi.

Sodiq qanchalik qattiq turib o‘zini himoya qilmasin, Mirsalim shunchalik bezbetlik bilan unga tuhmat toshlarini yog‘dirar edi.

Sodiq bu yerda haqligini isbot qilishga qurbi yetmasligini bildi. Ishi sudga oshsa, o‘sha yerda uzil-kesil g‘alaba qozonishga umid bog‘lab, o‘ziga dalda berib turganda, yana boshqa biri paydo bo‘ldi. Bu bir vaqtlar darsga ichib kelgani uchun Sodiqdan dakki yegan o‘qituvchi Shukurov edi. U Mirsalimga o‘xshash surbetlarcha gerdayib o‘tirmagan, shartta-shartta gapirmagan bo‘lsa ham, Mirsalimning aytganlarini ba‘zan to‘ldirdi, ba‘zan tasdiqladi. Sodiqni maktabdagi halol o‘qituvchilarni quvg‘in qilish, ta‘qib ostiga olish, talabalar orasida diniy targ‘ibot olib borish (qaldirg‘ochni Makkayi-mukarramadan kelgan degan, taloq haqida odobsiz latifa aytib berganmish), maishiy jihatdan buzilib, yosh xotinga uylanish, ochilgan xotin-qizlarni tahqirlashda aybladi. «Hukumat xotin-qizlarni erkaklar bilan teng qilaman, deb bekor urinadi, yigirmata xotinning aqli bir tovuqnikicha yo‘q. Bir ayolning g‘iybati qirqta eshakka yuk bo‘ladi», degan emish.

— Qachon? Qayerda? — so‘radi ajablanib Sodiq.

— Maktabda, koridorda. Mavjuda Abdurahmonova nomzodi deputatlikka ko‘rsatilganda.

Sodiq Shukurovning bu tuhmatidan yoqa ushladi: — yo tavba! — saldan keyin o‘zini tutib oldi, — Shukurov, sizning tuhmatchiligingizga emas, it yeganini qusadiku, lekin qo‘lingizga

tarbiyalash uchun ishonib topshirilgan bolalarga jonim achiyapti. Essiz bolalar! Essiz tarbiya!

— Siz o‘zingizning g‘amingizni yeyavering, — uni cho‘qiladi Saydullayev. Uning ko‘krigidagi Osoavixim nishoni qiyshayib, o‘ng ko‘zi ostidagi qora xoli yiltillab ketdi.

— Mening vijdonim pok. Itning tili tekkani bilan daryoning suvi harom bo‘lmaydi. Yolg‘onning oyog‘i qisqa, uzoqqa borolmaydi, bir kuni misi chiqadi. Lekin sizlarning bunday g‘alamislar gapiga ishonganinglarga hayronman.

— Xalq dushmani Boltaqul sizning maslakdoshingiz ekanini unutmang! — cho‘rt bo‘ldi Chuxanov.

— U dushman emas!

— U sizdan ko‘ra aqlli ekan: o‘zini qiynagani yo‘q, hammasini aytib berdi, — dedi Chuxanov.

«Nahot shu gaplar to‘g‘ri bo‘lsa! Boltaqul dushman, o‘zi iqror! Yo‘q, mumkin emas!» — dedi ichida Sodiq va yana ajablandi.

Sodiq gangigancha kamerasiga kirib keldi. U mudhish tushdan uyg‘onolmagan odamga o‘xshardi.







ASQAD MUXTOR
(1920–2004)

Roman, qissa, hikoyalari va she'riyati o'zining falsafiy teranligi, yoqimli badiiy mavjlari bilan o'quvchini rom etadi. «Opa — singillar», «Tug'ilish», «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu», «Jar yoqasida chaqmoq», «Buxoroning jin ko'chalari» singari yirik nasriy asarlari elga manzur. Adib yangicha mazmuniy va shakliy izlanishlarining samaralari bilan ham o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos iz qoldirdi.

TO'QQIZINCHI PALATA

Hikoya

Nafing qancha bo'lsa — umring shuncha.
(Quloqqa chalingan gaplardan)

Qurilish shaharchasining yangi kasalxonasi juda qulay joyga tushgan — tog'ning kungay etagi, bir tomoni yosh terakzor, katta yo'ldan uzoqda. Yoz kunlari bemorlar derazalarni lang ochib, tog' havosini to'yib-to'yib shimirishadi.

Bahromovning palatadagi qo'shnisi keksa odam, ahvoli ancha og'ir, lekin ko'p sergap ekan, yotgan joyida ham inqillab gapirishini qo'ymaydi.

— Ha, hozirgilarni nuqul yuragidan olyapti, taqsir, oltmishga bormay, «sertsam-sertsam»ga tushib qolishyapti. O'zlari nechaga kirdilar?

— Oltmish yetti, — dedi Bahromov.

— Ana. Bizniki shu bu yil tut pishig'ida ikkam sakson bo'ldi, xudoga shukur, serts-perts bilan ishimiz bo'lgan emas...

Lekin Bahromov ko‘rib turibdiki, cholning mazasi yo‘q, salqi qovoqlari sap-sariq, kecha sartarosh kelganda ham o‘midan turishga majoli yetmadi. Undan ko‘ra, qimir etmay yotsa ham, Bahromovning o‘zi tetikroq.

Hamshira kirdi. Bu Ma‘mura degan uzunchoq yuzli, bo‘ydorgina qora qiz edi.

— Sizga qimirlash mumkin emas, bilasiz-a,— dedi u Bahromovning yostig‘ini sal ko‘tarib,— mana mundoq, faqat chalqancha yotasiz.

— Bilaman, bilaman, qizim, ming marta eshitdim, faqat... qancha? Qachongacha shunday yotaman? Hech kim aytmaydi.

— Aytamiz.

Ma‘mura «aytamiz» derdi, lekin uning shu holda qancha yotishi kerakligini bilmasdi — bir haftami, uch oymi... Hamshiraning vazifasi bemorni ogohlantirib, ko‘z-quloq bo‘lib turish.

Ammo Ma‘muraning bu palatadan ko‘ngli tinch edi: bemorlari beozor, ikkalasi ham kekxa, bosiq odamlar, kelgan kuniyoq til topishgan, u dunyo-bu dunyodan gaplashib, ortiqcha oh-u nolasiz kunni kech qilishadi.

Hamshira cholga ham dori ichirib, chiqib ketdi. Ochiq derazadan maysazor maydon ko‘rinardi. Barra maysada hurpaygan chipor tovuq jo‘jalarini ergashtirib o‘tib borarkan, Bahromovga o‘t-o‘larga qoqina-qoqina tizilib ketayotgan bu sarg‘ish-yashil momiqchalar juda zaif, himoyasizdek tuyulib ketdi, kalxat-malxat yo‘qmi deb osmonga ham qarab qo‘ydi, osmon shishadek tiniq edi. Uch haftadan beri qimir etmay chalqancha yotib, badanlari tosh qotib ketgan Bahromov hamma narsadan bezor bo‘ldi, hamma narsadan to‘ydi-yu, mana shu tubsiz tiniq osmonga tikilib to‘ymadi. Goho shu soflikka tikilib, xayolga cho‘mganida cholning ming‘ir-ming‘ir gapi ham bachkana tuyulib yoqmay qoladi, quloq solmay qo‘yadi.

— Bugun ham kun o‘tdi,—dedi chol,—ana, taqvodor qo‘sh-nimiz namoz asirga o‘tirdi, qarang...

Bahromov qaramasa ham biladi: sayxonning narigi chetida tikanak chetan bilan ihota qilingan salqin mevazor hovli bor,

hovlining egasi doim oq yaktak, oq ishton kiyadigan namozxon odam. Besh vaqt namozini kanda qilmay mana shu hovli etagida o'qiydi.

Qo'shnisining bu taqvodorni orqavorotdan kalaka qilishlari yoqmasdi Bahromovga. Oti Hoji buva, o'zi saksonga borgan bo'lsa ham, kasalxonaning yovg'on oshini bismillosiz tushiradi. «Imonsiz chol» deb qo'yardi Bahromov ichida.

— U dunyodan umidi katta qo'shnimizning,— dedi Hoji buva.

— Ha, umid...— Bahromov osmondan ko'zini uzmay gapga qo'shildi. Umid degan odam bolasini ne ko'ylarga solmaydi. Bir kitobda o'quvdim — Hindistonda keksalar muqaddas Gang bo'yida jon berishni orzu qilisharkan. U yerda o'lgan odam shahid ketib, to'g'ri jannatga noil bo'larmish. Shuning uchun odamlar Gang sohilida uzlat chekib, haftalab och yotishar, kecha-yu kunduz xudodan o'lim tilashar ekan. Umid shunaqa. Umid har xil bo'ladi, Hoji buva. Biri dilingni kunday ravshan qilib, bamisoli qanotdek osmonga uchirsa, biri...

— Yo'q, menga unisi ham kerak emas, bunisi ham...— dedi «imonsiz» chol zahil yuzini, ko'ksiga yoyilgan soqolini silab.— Mening umidim — yashash. Shuncha umrni bergan xudo buyog'ini ham ayamas.

— Nima ish qilardingiz, buva?— so'radi Bahromov.

— Endi ish qoptimi, taqsir,— dedi chol, chamasi to'g'ri javobdan chalg'itishga urinib,— ko'p ish qildik, qilmagan ishimiz qolmadi, endi yashash kerak. Umidim shu...

Bahromov indamagandan keyin, chol so'radi:

— Yo sizning umidingiz bo'lakmi, qo'shni?

— Nega? Yashashga qarshi emasman. Yashashga nima yetsin. Lekin paymona to'lib qolgan bo'lsa-chi, unda nimaga umid qilish kerak?

Chol boshini ko'tarib, za'faron yuzida hayrat bilan Bahromovga qaradi:

— Anov namozxonniki to'g'ri demoqchimisiz?

Bahromov shiftga qaragancha jilmaydi.

— Yo‘q. Mening umidim... kelajakda. U dunyoda emas, shu dunyoning kelajagida. Axir bizdan keyin ham odamlar qoladi-ku...

— Sizniki qiziq bo‘ldi,— dedi Hoji buva ancha jimlikdan keyin,— odam o‘zi o‘ladi-yu, umidi qolarmishmi? Kelajak deganingizda siz bilan biz bo‘lmaymiz, umidimiz nima qiladi? Bu ham bir tasalli, o‘z-o‘zini aldash. Anovi taqvodor qo‘shnimizniki tuzuk chiqdi-ku siznikidan.

Bahromov yana jilmaydi. Lekin jilmayishi asta-sekin so‘nib, oriq yuzi ilgari rangsiz holatiga keldi.

— Bolalaringiz bormi, Hoji buva?— dedi madorsiz.

— E-ha, siz uni aytasiz. Ha, bor, bolalardan bor. O‘zlariniki-chi?

Bahromov qo‘lini asta ko‘tarib, ikki barmog‘ini ko‘rsatdi:

— Ikkita edi. — Anchadan keyin qo‘shib qo‘ydi: — urush olib ketdi. Ikkita Bahromovni olib ketdi. O‘zimiz ham mana...

Hoji buva boshini yostiqa qo‘yib joylashib yotdi, Jovon ustidagi kaltakni olib, devorga qo‘ngan pashshani uzoq poyladi. Axiri urib devorga yopishtirgandan keyin qanoat hosil qilib, yana gap boshladi.

— Menikilarni urush qiyalab o‘tdi, xudoga shukur. Lekin bari qo‘ldan chiqqan, bari o‘z tirikchiligi, o‘z niyati bilan. Bittagina nevaram qo‘limda edi, hozir undan ham umid, men sizga aytсам, haminqadar...

— Ha, nima bo‘ldi nevaraga?

— Niyatim Ergashvoyni shaharda o‘qitib odam qilish edi, terlab-pishib yurdi-yurdi-yu, bir kuni imtihondan yiqilib, qaytib keldi bachchag‘ar. Keyin qarasam, anov bosh to‘g‘onga ishga kirib olibdi. Ishlab turay-chi, yangi yilga tag‘in borarman, deydi. Qayoqda, bu qurilishga bir ilingandan keyin odam bo‘lgani qo‘yadimi, domiga tortib ketdi. Hozir yuribdi, o‘sha sheriklariga o‘xshab, na yuragida yog‘i bor, na uyda chirog‘i.

— Ishlayotgan bo‘lsa bo‘pti-da.

— Ishlayapti. Gap umiddan ketganiga aytaman...—
Sherigining gapi esiga tushib, Hoji buva birpas jim qoldi,—
aytganday, bolalarim yo‘q dedingiz-a? Unda, haligi gapingiz
nima bo‘ldi?

— Qaysi gap?

— Kelajak, umid...

Bu mahal ochiq derazadan ayol kishining ingichka o‘tkir ovozi
eshitildi: «Alisher-ov! Hov, Alisher!» Bu bemorlarga tanish ovoz
edi. Alisherning oyisi haligi namozxonning hovlisida yosh kelin
bo‘lsa kerak, har kuni shu mahalda Alisherini yo‘qlab chinqiradi.
Alisher — ishtonsiz bo‘lsa ham, nuqul qizil botinka kiygan,
koptokdek yum-yumaloq — maysada jo‘jami, chumchuqmi,
kapalakmi, qoqina-turtina quvlagani-quvlagan.

— Meniki bo‘lmasa, o‘zgalarniki bor, Hoji buva,— dedi
Bahromov, yostig‘ini sal qiya qilib derazadan boqdi. Alisher,
xuddi o‘ylaganidek, adashib chiqqan bir jo‘janing ketidan xuddi
koptok singari yumalab ketib borar, oyisining kuyib-ϑishgani bilan
ishi yo‘q edi.

Bahromov to qosh qorayguncha derazadan ko‘z uzmadi. Uning
so‘lg‘in yuzida xira nurlangan shom sharpalarini tushunmagan
Hoji buva yana bir nimalarni gapirdi, shu yoshidagi oyisiga quloq
solmagan Alisherni «tirmizak» deb, so‘kdimi, u odam bo‘lguncha
onasi qarib-churiydi, undan umidi nima bo‘lardi, dedimi, bu
gaplar Bahromovning qulog‘iga kirmadi. Qiziqki, boshida hech
qanaqa o‘y ham yo‘q edi, shunchaki, hech narsani eshitmay,
hech narsani o‘ylamay, rohat qilib yotaverdi. Keyin shu bilan
uyquga ketibdi.

Ertalab chamalab qarasa, shunday miriqib uxlabdiki, ko‘p
oylardan beri shunday shirin uxlagani yo‘q edi. Shunday bo‘laversa,
tuzalib ketishi ham hech gap emas.

Biroq shu kuni kechga yaqin qo‘shnisi Hoji buvaning ahvoli
og‘irlashib qoldi. Uning to‘satdan «o‘laman»ga tushib qolishi
birinchi marta bo‘layotgani yo‘q, lekin bu galgisi chindan ham
xavfli edi shekilli, vrachlar, hamshiralar yugurgilab qolishdi. Uzoq

davom etgan kasaldan keyin sargʻayib ketgan, xaltadek osilgan badanlariga yana allaqanday ukollar qadashdi. Cholning yuzi choʻzilib ketgan, atrofdagilarni tanimayotgandek bejo tikilar, gapirolmas edi. Goh jon berayotgandek koʻzidan maʼno qochganda, atrofdagilarning nafasi ichiga tushar, yurakni muzlatadigan sovuq jimlik choʻkkanda, Maʼmuraning koʻksini yorib chiqqan yigʻi tovushi eshitar edi. Maʼmura cholning qiynalغانlarini koʻp koʻrgan. Ayniqsa uning hilviragan badanlariga igna sanchib qiynashlarini koʻrgani koʻzi yoʻq edi. Hozir ham vrachlar toʻpidan chetda, Bahromov koykasining yonida turib, yigʻlab, qizarib ketgan burnini xalat etagiga artar edi.

— Nimaga qiynashadi-ya! Tinchgina jon berishiga qoʻyishmay...

Bahromov yotgan joyida uning qoʻlini ushlab qisdi.

— Tavba deng, qizim.

— Nimaga qiynashadi axir! Nimaga? Bari bir...— Maʼmura baqirib yigʻlab yuborishidan qoʻrqib, yugurib chiqib ketdi.

Vrachlar Hoji buva atrofida kechasi bilan parvona boʻlishdi. Bemor bir zum tilga kirib: «uydagilarni chaqirtiringlar, xayrlashib, rizoliklarini olay», dedi. Undan yana qon olishdi, tomiriga bir nimalar quyishdi, ukol qilishdi. Ertalab Ergash yetib keldi.

Bahromov uni sira koʻrmagan boʻlsa ham, darrov tanidi. Novcha boʻyli, tiyrak koʻzli, chayir oʻspirin Ergash bir necha oʻrtoqlari bilan kelgan edi. Buvasi uni tanimadi, kun yorishganda Ergash oʻrtoqlariga javob berdi — ular smenaga borishlari kerak ekan.

Yolgʻiz qolganda Ergash Bahromov bilan gaplashib oʻtirdi. Bobosi koʻz ochganda goʻdakday quvonib, xaltasini agʻdara boshladi:

— Posyolka bozoridan oldim, buva! Mana gilos, koʻnglingiz tusasa, olcha! Jindak xomroq ekan, lekin yirik-yirik, qarang!

Shu-shu Ergash tez-tez keladigan boʻldi. Hoji buva bir haftaga qolmay oʻnglanib, oyoqqa turdi. U butunlay tuzaldi desa boʻlardi. Lekin qandaydir xunuk toʻlishib, ovqatga toʻymaydigan boʻlib qoldi. Kasalxonada berganlari yuq boʻlmay, Ergash koʻtarib kelgan

pomidormi, nonmi, kolbasami — barini ko‘rdim demay supurib tashlaydigan bo‘ldi. Shunda ham ko‘zlari ola-kula. Bahromovning qolgan-qutganini ham kishi bilmas yamlab, yana eshikka alanglar, ovqat kutar edi. Ovqat kelsa, og‘zini chapillatib, soqollarini iflos qilib, ochko‘zlik bilan tez, xunuk eydi. Bahromov keyinroq sezib qoldiki, uning jovonidan ham ba‘zan beso‘roq, ko‘zini shamg‘alat qilib, to‘g‘risi, o‘g‘irlab u-bu yeydigan bo‘ldi. Bahromov keksa odamga yarashmagan bu qiliqdan dam hayratda qolar, dam rahmi kelib tikilar, ovqatdan chalg‘itishga urinib, gapga solar edi.

— Ergashingiz siz aytganchalik «ko‘chada qolgan» bola emas ekan,— dedi Bahromov,—gaplashib o‘tirdik, havasim keldi. Aqlli, mag‘zi butun ishchi yigit. Vijdonli, mehnatkash bo‘ladi.

Hoji buva og‘zini chapillatib, bir nimani kavshar edi, indamadi. Anchadan keyingina:

— Bugun kech qoldi, qayoqda daydib yuribdi ekan, bachchag‘ar,—deb ming‘illadi.

Bahromovga u Ergashni emas, Ergash ko‘tarib keladigan xaltani, oziq-ovqatni kutayotgandek tuyuldi.

Endi Bahromovga juda qiyin bo‘lib qoldi. Qo‘shnisi bilan ilgarigidek gaplasholmaydi.

Hoji buvaning gapi endi kasalliklar mavzuidan chetga chiqmay qoldi, u ham ko‘pincha ma‘nosiz. Qachondir bod bo‘lib, siydik bilan davolangani bormi, qaysi bir irimchi kampirning topgan giyohlari bormi, ishqilib, na aqlga, na ko‘ngilga qo‘r bo‘ladigan gaplar. Xunuk semirib, betinim pishillab ovqat yeyishlari bo‘lsa, joniga tegib ketdi. Tezroq tuzalib chiqib keta qolsa edi. Kasal deydi ham qolmagan, o‘rnidan turib ham yuradi, lekin doktorlar negadir javob bermay ushlab turishibdi.

Bahromovning ahvoli bo‘lsa o‘sha-o‘sha. Qimir etmay chalqancha yotgani-yotgan, atrofdagi hamma gap qulog‘iga kiraveradi, qiladigan ishi yo‘q, goho uymalashib kelgan o‘ylardan boshi tars yorilguday bo‘ladi. Eng dahshatlisi — uyqusiz kechalar.

Bugun kechasi osmonni bulut qoplab, yomg'ir yog'olmay, avval rosa dim bo'ldi. Keyin qayoqdandir beqaror shamol esib, yarim tunda to'zonli dovul turdi. Daraxtlar dengizdek shovullar, qayoqdandir ochiq qolgan deraza pallalari urilib, chilparchin bo'lar, terak shoxlari sinib tushar, to's-to'polon. Qora tun tuynugiga chang'-to'zon tiqilib qolgandek, nafas bo'g'ilar edi.

Bahromov zo'rg'a tong ottirdi. Ertalab Ma'mura derazalarni ochganda haligina savalab o'tgan yomg'ir hidi keldi, osmon yana musaffo, ko'm-ko'k sayxonning har joy, har joyida sinib tushgan shoxlar yaproqlari so'lib yotardi. Bahromov iliq yomg'ir yuvgan maysazorni uzoq tomosha qilib yotdi. Ertalabki quyoshda yilt-yilt etgan nam maysaning salqinini bag'rida sezganday bo'ldi, jilmaydi. Shu maysani yalang oyoq bosib, lo'kanglab borayotgan Alisherga shunday havasi keldiki, ko'zidan yosh chiqib ketdi.

Kim biladi, hozir yerni qo'msab, burishib yotgan tovonlariga shu maysa tegsa, butun vujudiga orom yetib, dardchil badaniga jon kirib, tuzalib ketarmidi...

Bahromov xayolga sho'ng'ib ketgan ekan, birdan bezovtalanib qichqirib yubordi:

— Hoji buva! Hoji buva! Alisher kelyapti, qarang!

Qo'shnisi qimir etmadi: nima bo'пти, har kungi o'sha boladir-da.

— Qoch! Qayt! Kelma, Alisher! Qarang, qo'shni, qarang, simga qarab kelyapti! Qoch deyman, qayt, ana oying chaqiryapti!

Alisher lo'ppi, momiq oyoqchalari bilan maysani bosib hamon kelardi, oldida esa tomdan uzilib tushgan yalang'och simning uchi ilondek buralib yotibdi. Elektr simi!

Bola yana o'n qadam yursa yonib ko'mir bo'ladi!

— Qo'shni, jon Hoji buva, turing, yuguring, simga qarab kelyapti! Hoy, kim bor!

Hech kim yo'q edi, hech kim javob bermadi. Hoji buva asta turib, kavushini kiydi-da, derazaga yaqinlashdi. Qarasa, bola chindan ham simga qarab tikka kelyapti. Sim ustida kechasi

dovulda sinib tushgan o'rik shoxi ko'karib yotardi, danakday-danakday g'oralari yiltillab, bolani o'ziga tortardi chog'i.

— Tegma,—dedi Hoji buva. Bola eshitmasdi.

— Yuguring, jon aka, oling bolani!— deb yalindi Bahromov,— uning ko'zlari bejo, o'zining ojjizligidan azobda, bo'yin tomirlari bo'rtib chiqqan edi.— Tez bo'lsangiz-chi!

Hoji buva bolani «bachchag'ar», onasini «qizig'ar», qaynotasini «taqvoingdan o'rgildim» deb so'ka-so'ka, karavotiga o'tirib, paytavasini o'ray boshladi.

— Hoji buva! Jon aka! Qoch, qayt!— deb talvasa chekar edi Bahromov. Hoji buva ming'ir-ming'ir qarg'anib, jovondan borib etigini oldi, yana kelib karavotiga o'tirdi. Etik qo'njadagi eski loyni tirsagi bilan ishqab tozalay boshlaganida Bahromovning sabr kosasi to'ldi shekilli, ko'rpani shartta uloqtirib tashlab, derazaga o'zini urdi.

Hoji buva uning: «Alisher! Alisher!» degan ovozi eshitib qoldi, xolos, qarasa — bir yarim oy qimir etmay chalqancha yotgan qo'shnisi ishtonchang maysada yugurib ketyapti!

— Hoy, sizga turish mumkin emas-a, hay siz yoting, qo'shni, nima qilyapsiz! degancha. Hoji buva derazadan qarab qolaverdi. Bahromov bolani simning shunday yonginasidan dast ko'tarib olib, chiyillatgancha chetanning narigi yog'iga olib kirib qo'ydi. Ichkaridan Alisherning oyisi yugurib chiqdi. Bahromov qaytib kelib simni tayoq uchiga ilib, devorga ko'tarib qo'ydi. Keyin atrofiga alanglab, maysada gandaraklagancha derazaga qarab yurdi.

— G'o'radan olakeling birato'lasi, qo'shni,—dedi ichkaridan Hoji buva,— hozir qatiqmi-sut payti, juda xushxo'r nordon bo'ladi.

Bahromov eshitmadi, boshi gir aylanib, ko'z o'ngi qorong'ilashgan edi, derazaga kelib suyandi, qo'shnisi uni qo'lidan tortib, ichkariga oldi.

— Hoji aka... Hoji aka, qayerdasiz!— dedi yotganidan keyin ham hech narsa ko'rmay,— qanday yugurib borganimga hayronman,

dorimni olib bering,— dorisini ichib ham ko‘z ochmadi,— Ma‘muraga aytmang, xo‘pmi, Hoji buva... Xo‘p deng.

— Xo‘p, xo‘p, akasi, lekin bekor qilding. Do‘xtir buyurmaganni qilish kerak emas, rangingni qara, loxovla-a, murdaday bo‘lib qolding.

Bahromov bir zumga ko‘zini ochib unga qaradi-yu yana yumdi. Tinchib qoldi.

Qo‘shnisi ham yoqasini ushlagancha o‘rniga borib yotdi. Keyin Ma‘mura kirdi. Hoji buva bo‘lgan voqeani aytmadi, Bahromov aytadimi deb qo‘rqib yotgan edi, yo‘q, aytmadi.

Lekin Ma‘mura dorilarni berib, chiqib ketayotganida Hoji buva uni to‘xtatdi.

— Qizim, sen... ketma. Birpas o‘tir,— deb qoldi. Ma‘mura cholning nimadandir qo‘rqib qaltirayotganini payqab qoldi. Shunda ikkalasining ko‘zlari uchrashib qolib, qiz tushundi: Bahromov oppoq bo‘lib yotardi.

Bahromov jim qolishlaridan ularning xavotirini sezdi-yu, gap bilan ovora qilishga urindi.

— Rostdan ham, Ma‘mura qizim, biz qariyalar bilan ham bir nafas gaplashib o‘tirsang bo‘lmaydimi?— dedi madorsizligini yashirishga harakat qilib.— Yo boshqa palatalarda yoshlar ko‘pmi? Darvoqe, bu yerga kelgandan keyin yosh bo‘lib qayoqqa bordi, bu yerda yosh-u qari barobar, barining oti «bemor»,— u gapni to‘xtatmaslikka urinar, qizni o‘zidan chalg‘itish uchungina emas, o‘zi ham hozir negadir sergapligi tutib, ko‘nglini nimalardandir bo‘shatib olgisi kelar edi.

Nafasini rostlab davom etdi.— Odam bir umr esi past bo‘lar ekan, qizim. Yoshimizni yashab qariymiz, munkayib qolamiz, o‘lim yelkamizdan no‘qib turadi-yu, es-hushimiz hamon ravshan tortmaydi. Ammo nihoyat, shunday bir zum keladiki, qizim, es-hushinggina emas, butun vujuding ravshan tortib, hamma narsani birdan tushunasan... Bir umr yongan-kuyganlaring, yig‘lagan-quvonganlaring, xavotir-u vahimalaring, orzu-armonlaring bari shu bir zumda jam bo‘ladi. Titraysan, lovullaysan, yuraging yosh

to'kib, yengillashishni istaydi. O'zing ham yo'q, dunyo ham: nimadir, boshqa narsa ko'z oldingda turadi: u tunday qorong'i, quyoshdek yorug'...

Odam bu zumning kelishini ilgaridan bilganda edi... Biz bilmaymiz-da, qizim.

Kunimizga quvonib, yerimizdan, odamlar mehridan nurlanib yuraveramiz. Aytmaymizki hay, inson bolasi, buning oxirida barini chaqmoqday yorituvchi, yakunlovchi bir zum bor, unda hayotingdagi eng mayda narsalar ham buyuk bo'ladi, butun bosib o'tgan yo'ling esa cheksiz bir olamdek ko'rinadi. Hayratda qolasan: nega buni bilmagan ekanman, nega buni ilgari o'ylamagan ekanman, deb hayratda qolasan...

Bahromovning yana ko'p gaplari bor edi shekilli-yu, darmoni yetmadi. Ma'mura unga sehlrangandek termilib qolgan edi.

Birdan payqadiki, bemorning yuzi yorishib ketdi, lablariga rang kirgan, qoshlari qop-qora, uzun-uzun kipriklari nurlangandek edi.

Ma'mura Bahromovning bunday chiroyli odam ekanligini ilgari payqamagan ekan, qo'rqib o'rnidan turdi. Ko'ngliga dahshatli fikr keldi: «Nega bexosdan bunday gaplarni gapirib qoldi?!»

— Endi, sen boraqol, qizim, damingni ol, men uxlayman...— dedi Bahromov.

— Yo'q, men shu yerda o'tiraman!—deb yubordi Ma'mura. O'zining ovozidan o'zi cho'chib tushdi. Nega bunday deganini o'zi ham bilmaydi. Lekin Bahromov unamadi.

— Bor, men uxlayman, xayr...— dedi qizning qo'lini zaifgina qisib.

Bir soatdan keyin Ma'mura palataga Alisherning onasini boshlab keldi.

— Mana shu yerda, shu, shu,— der edi ayol; uning quchog'ida bir dasta atirgul.

Alisherini yasantirib yetaklab olgan, Ma'muraning ogohlantirishiga qaramay, bostirib kirib kelaverdi.

Ma'mura bemorning yoniga borib:

— Bahromov aka, uxlayapsizmi, mana, sizga gul keltirishibdi,— Ma'mura ovozi pasaytirib, ayoldan so'radi: — Kimdan? Kimdan dedingiz?

— Alisherdan.

— Alisherdan ekan, mana, voy manavi gulni! Bahromov aka...

Bemor uyg'onmagandan keyin hamshira uning yuzini ochdi. Ochdi-yu, sariq devorga yuzini bosib, qotib qoldi. Bir zumdan so'ng yelkalari titrab yig'lab yubordi.

— Voy o'lay!— deb qichqirdi ayol Alisherini bag'riga tortib. Bahromov o'lgan edi.

Ma'mura yig'lagancha doktorlarni boshlab kirdi.

— Bilgan edim, ko'nglim sezuvdi, nega ketdim?! Nega ketdim!—deb yig'lardi Ma'mura.

Ayol nima qilishini bilmay, guldastani o'rtadagi jovon ustiga, shisha bankaga o'tqazdi.

Jovonning u yonidagi o'rinda Hoji buva suyuq ovqatga qo'lini solib, bir nimani kavshayotgan edi. Jovon ustida ertalab Ergash keltirgan olmalar qip-qizarib yotardi.

Alisher yonib-yiltillab turgan olmalarga zavqi kelib, tikilib boqqan edi, Hoji buva isqirt qo'li bilan darrov yig'ishtirib oldi. Buni payqagan Ma'mura qizargan ko'zlari bilan cholga shunday achinib boqdiki, go'yo bu palatada hozirgina Bahromov emas, Hoji buva jon bergan edi.

Qiz Alisherni bag'riga olib, chiqib ketdi. Kelin ham o'lik yonida og'zini chapillatib ovqat yeyayotgan cholga g'alati qarab, uning yonidagi guldastani oldi-da, Bahromovning ko'ksiga avaylabgina sochib tashlab, Ma'muraning ketidan tez chiqib ketdi.

Shom oldidan maysazorda yana chipor tovuq bilan momiq jo'jalar, yana qizil botinkacha kiygan yum-yumaloq Alisher ko'rindi, to'qqizinchi palataning derazasida esa yana katta, durkun guldasta paydo bo'ldi.

ASQAD MUXTOR SHE'RIYATIDAN

YILLARIM

O, orqada qolgan mening yillarim...
Sizni unutib bo'lmas, siz — mening o'zim.
Siz mening mehnatim, elga aytgan so'zim.
O, orqada qolgan mening yillarim!
Biringiz boqiyisiz, biringiz — balki puch,
Biringiz shodliksiz, biringiz — o'kinch,
Biringiz baxtlisiz, biringiz — baxtsiz.
Biringiz yarador, o'lgansiz vaqtsiz.
O, orqada qolgan mening yillarim.
Sizga nasib qilgan quvonch — yuragimda,
Qalbda dardingizni olib yuraman.
Siz meni ayamay o'tda tobladingiz,
Shundan, zamin uzra g'olib yuraman.
Siz mening tirmashib chiqqan zinamsiz,
Har biringiz g'isht-u men imoratman.
Siz mening daxlsiz, yolg'iz xazinamsiz,
Sizdan iboratman,
O, mening orqada qolgan yillarim.
Do'stlar ketdi tashlab qo'shiqlarni,
Men go'yo birgina ko'rib ulgurdim
Va huvillab qolgan cheksiz bo'shliqlarni
Azobli o'ylarim bilan to'ldirdim.
Sizni unutib bo'lmas, ana shunday g'amlar
Zil bosib turibdi mening ruhimni.
Ammo g'alabali, nurafshon damlar
Ezgu ko'rsatadi har anduhimni.
Rang-barangsiz — men ham xilma-xil,
Sizning muhringiz bor mening xulqimda.
Quvvat berdingizki, suzaman dadil
Hayot deb atalgan bebosh to'lqinda.

Har biringiz — mening bir xislatim,
Men kelajak uchun yashadim.
Yashadim — men sizni o‘zim yasadim,
Sizning mazmuningiz — mening qismatim.
Bahor kelsa, ochilar basma-bas
Bultur o‘tqazilgan umid gullarim.
Siz men uchun aslo o‘tmish emas,
O, orqada qolgan mening yillarim!

EL-YURT

Men dunyoga ko‘z ochgan kunim
Guldastalar kelgan onamga.
Tug‘ildi, deb xursand bo‘ladigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yashash — bir dard, orzular qaynar,
Dilga tushar ezgu alanga.
Sehri tortib, mehri balqib turgan
El-yurt kerak yana odamga.

Murg‘ak qallda grajdan uyg‘onsin,
Ruhim o‘tsin, desang, bolamga,
Avlodlarda yashamog‘ing uchun
Yana el-yurt kerak odamga.

Zamon zayli bilan uzoqlarga ketsang,
Yo sayohat qilsang olamga,
Ko‘krakda olib yuradigan
Aziz el-yurt kerak odamga.

Birdan tushsa boshga musibat,
Chidab bo‘lmay qolsa alamga,
Bir so‘z bilan qadding rostlaydigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yoʻldan chalgʻib, botib gunohlarga
Holdan toyib yiqilsang, hamda
Umri boshqatdan boshlamoq boʻlsang,
Yana el-yurt kerak odamga.

Terangga sigʻmagan paytlar boʻladi,
Omad kelganida, toʻyda, bayramda,
Quvonchlaring oʻrtoqlashish uchun
El-yurt kerak yana odamga.

Vijdon va haqiqat deya cholishib,
Tushkunlikdan yengilgan damda —
Oldida tiz choʻkib uzr soʻrashga
Ona el-yurt kerak odamga.

Yoʻllar turfa-tuman, bekat esa bir,
Armonli yer uzra soʻnggi qadamda
Manzilingga eltib qoʻyadigan
Aziz el-yurt kerak odamga.







SAID AHMAD
(1920)

Adibning aksar hikoya, qissa va romanlari xalqning yaqin o'tmishda kechgan murakkab hayotini, olijanob insonlarning el-yurt manfaati uchun mardona kurashlarini aks ettiradi. «Ufq» trilogiyasi «Qirq besh kun», «Hijron kunlari», «Ufq bo'sag'asida» romanlaridan tarkib topgan. Dramatik turdagi asarlari, xususan, «Kelinlar qo'zg'oloni» komediyasi dunyo teatrlari sahnasida e'tibor qozongan. Hajviy ifoda yo'sini — Said Ahmad ijodining muhim qirralaridan biri.

«UFQ»
ROMANIDAN

UCHINCHI BO'LIM

I

Nayman to'qaylari yonardi.

Qurib-qovjirab qolgan qamishlarni olov bir chekkadan yamlab boradi. Pag'a-pag'a qurumlarni shamol olis-olislarga quvib ketmoqda. To'ng'izlarning besaranjom xur-xuri, o'rdak va qashqaldoqlarning g'aq-g'uqi olamni tutgan.

Ikromjon baland do'ng tepasida qo'ltiqtayog'iga tiralib o'tning to'qay ichkarisiga o'rmalashini kuzatmoqda.

Havo salqin. Izg'irin jonni achitadi. Ammo shamol alanga taftini Ikromjon turgan do'nggacha olib kelmoqda. Goh qop-qora tutun bulutlar orasida ko'rinmay ketadi. Shunda u xuddi bulut o'ragan qoyaga o'xshab arang ko'zga tashlanib qoladi.

Aravadan chiqarilgan otlar tutun achchig'idan bezovta bo'lib, boshlarini o'qtin-o'qtin silkitib qo'yishadi.

Nizomjon bola bo'lib bunaqa katta yong'inni ko'rmagan edi. U buralib ko'tarilayotgan tutunlarga jimgina tikilmoqda. Tutun buralayotgan joydan ozib, junlari osilib qolgan bir bo'ri otilib chiqib qum tarafga qochdi. Ammo sal nariroqqa borib yana orqaga qaytdi. Tutun orasiga kirib ketdi.

Nizomjon uning o'zini o'tga urishidan ajablanib turgan edi, miltiqni o'qlayotgan Ikromjon o'zicha gapirdi:

— Modasini chaqiryapti.

Ikromjonning gapi rost chiqdi. Sal o'tmay o'sha alanga orasidan boyagi bo'ri emchaklari osilgan modasini ergashtirib chiqdi. Ikromjon mo'ljalga olib o'q uzdi. O'q yegan bo'ri oqsoqlanib uch oyoqlab yuguranicha tepalik orqasiga o'tib ketdi.

Modasi esa yong'inda qolib yonboshi kuygan ekan, qumga yetmay yiqildi. Turolmay uch-to'rt metr sudralib bordi. Keyin qimirlamay qoldi.

Shamol kuchayib olovning tili yana ham uzunlashdi. U yashin tezligida qamishlarni yamlab borardi. Ammo cho'l shamolidek telba shamol bo'lmaydi. Hozirgina old tarafdin esayotgan shabada saldan keyin orqa tarafdin esadi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Nizomjon, o'tning bu xil yonishi bo'lsa biron hafta ichi o'chmasa kerak, deb o'ylagan edi. Yo'q, shamol oldindan esa boshladi-da, o'tni orqaga purkadi. O'n besh minutlarda alanga so'ndi-qo'ydi.

Ikki qo'lini beliga tirab turgan To'lanboy:

— Ikromjon, qo'shtig'ni bolaga bering,— dedi.— Bo'rini quvsin. Oyog'i yaralangan, uzoq ketolmaydi.

Ikromjon miltiqni Nizomjonga uzatarikan, ta'kidladi:

— O'qni isrof qilma! Ehtiyot bo'!

Nizomjon miltiqni oldi-yu, qumlikka qarab chopdi. U to'xtab, oyoq ostida yotgan bo'rini miltiq qo'ndog'i bilan ag'dardi. Bo'ri sap-sariq ko'zlari baqraygancha o'lib qolgan edi. Nizomjon tepaga qarab chopdi. To'lanboy rost aytgan ekan, yaralangan bo'ri oldingi chap oyog'ini ko'targancha savag'ich uyumi oldida unga yomon

tikilib turardi. Nizomjon umrida bo'riga duch kelmagan edi. Qo'rqib ketdi. To'xtadi-yu, qimirlamay qoldi. Bo'ri unga tomon uch oyoqlab kelaverdi. Nizomjon nima qilishini bilmasdi. Oz bo'lmasa miltiqni tashlab yuboray dedi. Shundagina u qo'lida miltiq borligini bilib qoldi. Shoshib mo'ljalga oldi-da, ketma-ket ikkala tepkini bosdi.

O'q tovushi tinganda savag'ichning qurigan qiyohlari to'zib ketganini ko'rdi. Tutun tarqadi. Qonga belangan bo'ri qumda bezovta dumalab, oxiri bir-ikki marta oyoq siltadi-da, jim bo'ldi.

Nizomjon bo'riining o'lgan-o'lmaganini bilolmay bir oz qarab turdi. Bo'ri boshqa qimirlamadi. Shundan keyingina yaqiniga borib tepib ko'rdi.

Nizomjon ikkala bo'rini oyog'idan sudrab kelganda qator palatkalar oldida uch-to'rt kishi bordon to'qib o'tirardi. Nizomjon bo'rilarni ular oldiga tashlab ketmonini oldi-da, o'choq kovlashga tushib ketdi. Ikromjon ham, To'lanboy ham Nizomjonga bir so'z deyishmadi. Faqat bir-birlariga ma'noli qarab olishdi.

Kimsasiz cho'l bir kundayoq gavjum bo'lib qolgan edi. Qo'shaloq tol tagida ikki kishi yerga qoziq qoqib so'ri yasamoqda. Oq tunukadan yasalgan bakni yero'choqqa o'matib, atrofiga loy chaplashmoqda. Bir chol bochkadan rezinka ichak bilan kerosin so'rib, toshfonarlarga quymoqda.

Nizomjon o'zining qobilligi bilan bu yerdagilarga darrov ma'qul bo'la qoldi. Undan hech kim qayerdan kelganini, bu yerda nima qilib yurganini surishtirmadi. Ehtimol, Ikromjonning qarindoshi deb o'ylashgan bo'lsa kerak. Har qalay, Nizomjon ularga tez el bo'lib ketdi.

Bugun kun qamish kuydirish, o'choq qurish bilan o'tdi. Kech kirib, qorong'ilik boshlanganda hamma jam bo'lib, katta chodir ichida, toshfonar yorug'ida choyxo'rlik qilib, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirardi.

Choy ichib o'tirgan odamlarning dilida qandaydir og'ir o'ylar bor edi. Ammo hech kim og'iz ochib urushdan gapirmasdi.

Ularning nima uchun shunday qilayotganlarini Nizomjon sezib o'tirardi. Agar urushdan, urushga ketgan bolalardan gap ochilsa, Ikromjonning dili og'rishini o'ylab, gapni boshqa yoqqa chalg'itishyapti.

To'lanboy amaki hammadan ko'p gapirardi:

— Bola malades, bo'rini qoyil qildi. Ayniqsa, modasi tirik qolsa, sal kunda hamma yoqni bo'riga bostirvorardi. Qo'yaver, bola, Tog'adan mukofot olib beraman.

Nizomjon indamadi.

— Ertaga Zirillamadan arava kelmasa, ishimiz to'xtab qoladi,— dedi To'lanboy ancha jim o'tirgandan keyin.— Tog'a to'rtta temir plug yubormoqchi edi.

— Traktor-chi?—dedi Nizomjon gapga aralashib.

To'lanboy uni ermak qildi.

— Voy bolasi tushmagur, bu botqoqda pardek yengil odam yurolmaydi-yu, og'irligi necha tonna keladigan traktorga yo'l bo'lsin! Botib qoladi, jiyani, botib qoladi. — U Ikromjonga o'girildi. — Aravalar bugun yetib borishsa, ertaga qaytib kelishlari mumkin. Kech ketishdi. Ishqilib, biron joyda botib qolishgan bo'lmasin.

— Yo'g'-e,— deb unga e'tiroz bildirdi Ikromjon,— kelgan yo'limizdan ketishsa bemalol yetib olishadi. Ko'rding-ku, yo'l yomon emasdi. Endigi gap bizda qoldi. Mayning yettilariga borib urug' sochish kerak. O'shangacha mana shu kuygan to'qayda shudgor ochib taxt qilib qo'yishimiz kerak. Qilolamizmi, shuni?

Uning gaplariga jim quloq solib o'tirgan To'lanboy javob berdi:

— Urinib ko'ramiz, oqsoqol. Agar traktor kelolsaku ko'p ishlarni eplashtirardik-a, iloji yo'q-da. Tog'a va'dasida turib, kanaldan ariq tortib kelishga odam yubormasa ishimiz chatoq bo'ladi. Sizot suviga ishonib bo'lmaydi.

— Tog'a qattiq va'da qilgan,— dedi Ikromjon.— Suv haydab kelishdan tashvish qilma. U yog'ini rais eplashtiradi. Undan tashqari, yer qotishi bilan bitta traktorni ham bizga yuboradi.

Chigitdan qutulishi bilan yuboradi. Yana yer ochamiz. Qovun ektirmoqchi Tog'a.

Shu gapdan keyin hamma xotirjam bo'lib, ertangi ishning maslahati boshlandi. Kim qayerdan ish boshlaydi, kim qurilishda bo'ladi — hammasiga reja tuzildi. Katta qurilishlar keyin bo'ladi. Hozir oshxona, yoniga bitta chog'roq tandir quriladi. Ikromjon kanaldan suv tashib kelishni Nizomjonga yuklayotgan edi, u rozi bo'lmadi.

— Yo'q dema, bola. Bitta eshak beraman, fermadan sut tashiydigan ikkita bidon ola kelganmiz. Qo'shbidonlab tashiyverasan.

Nizomjon unga yolvorgandek qaradi:

— Meni eng og'ir ishga qo'ying, iltimos qilaman. El qatori ishlab ter to'kay. Meni kichkina, nimjon demang. O'zlarining qatori ko'raveringlar. Dalada o'sganman. Ketmonda suyagim qotgan. Bir ishlay.

Ikromjon bilan To'lanboy bir-birlariga qarab olishdi.

— Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q, menga hech narsa kerakmas. Boshpana bo'lsa, qornim to'q, ustim but bo'lsa bas. Nimaiki ishlab topsam kolxozga. Mehnat haqi ham kerakmas!— Nizomjon ko'p gapirmoqchi edi, o'pkasi to'lib, gapi tomog'idan chiqmay, hiqillab qoldi. U entikib gapini tamom qildi. — Chap qo'ling cho'ltoq ekan, deb urushga olishmadi. Uyimga sig'madim. Erta-indin og'aynilarim urushdan qaytib kelishadi. Shularning ko'ziga qandoq qarayman. Nima qilding, qaysi kovakda mog'or bosib yotgan eding, deyishsa nima deyman? Eshakda suv tashib, tirikchilik qilib yurdim, deymanmi? Yo'q, to'qay buzdim, bola-chaqalaringga ovqat topib berdim, ularni boqdim, deydigan ish qilmoqchiman. Jon akalar, meni ayamasdan ishga tashlayveringlar.

U shunday yalinib gapirardiki, ra'yini qaytarishning sira iloji qolmagan edi.

— Xo'p,— dedi Ikromjon.— Aytganing bo'la qolsin.

Oldi odamlarni uyqu bosib, kaftlariga esnay boshlagan edilar. Qariyalar dasturxonga fотиha o‘qishgach, hamma o‘rmdan turdi.

Nizomjon bilan Ikromjon palatkadan chiqishganda qumlik tomondan allaqanday iliq shamol esayotgan edi. Ikromjon olachalpoq bulutlar orasiga dam kirib, dam chiqib suzayotgan oyga ichki bir iztirob bilan tikilib turdi-da, uh tortib palatkasiga qarab ketdi. Nizomjon indamay ergashdi. Palatkaga kirgan Ikromjon fonar yoqdi-da, boya Nizomjon to‘shagan qamishlar ustiga ko‘rпасini yozdi.

— Joyingni sol, bolam, yotaylik endi.

Negadir uning ovozi titrardi.

— Amaki, yotavering, uyqum kelmayapti. Bir oz oydingda yuraman.

— Ha, mayli, o‘zing bilasan. Ertaga ish zo‘r bo‘ladi, yota qolganing ma‘qul edi.

U shunday deb, yog‘och oyog‘ining tasmalarini bo‘shatib ko‘rpaga kirarkan, yana og‘ir uh tortdi. Nizomjon uning ahvol-ruhiyasini sezib turganidan fonar piligini pasaytirib, tashqariga chiqib keta qoldi.

Ikromjonning yuragi kuyardi. Ota o‘z bolasini ming marta oq qilganda ham yuragining bir chekkasida shu bolaga atab ardoqlagan, uning kamolini ko‘rishga asragan mehrining zarralari yotadi. Bu zarralar vaqti-vaqti bilan alanga olib, yana so‘nadi. Hozir Ikromjon yigirma bir yil qalbidan nari ketkizmagan, har bir daqiqasi katta umidlar va‘da qilgan niyatlari bilan keyingi bir hafta orasida bolasini olislarga olib ketgan, porloq niyatlarini kuydirib jizg‘anak qilgan hodisalar orasida o‘rtanardi.

Ikromjonni bir narsa ko‘proq qiynardi.

Nega shunday bo‘ldi? Nega uning bolasi qo‘rqoq chiqdi?

U o‘ylab-o‘ylab, o‘yiga yetolmasdi.

Yemay yedirdi, kiymay kiydirdi...

Ikromjonning birdan ko‘zlari ochilib ketdi.

Ha, ha, hamma gap ana shunda. Qo‘lini sovuq suvga urdirmadi. Og‘ir ish qildirmadi. Yig‘laganda qo‘shilishib yig‘ladi.

Kalishini ham yuvib qo'yardi. Kasal paytida ham uni toyloqdek qilib opichib yurardi. Betini yuvganda o'zi suv quyib turardi...

Ikromjon peshanasiga shatillatib bir tushirdi.

— Jazangni tort, jazangni tort, Ikrom. Uni o'zing shu ko'yga solding. Endi ming yig'la, befoyda. Senga bu jazo kam!

Ikromjon o'g'lining shu ko'yga tushishini sira o'zidan ko'rmagan edi. Endi bunga iqror bo'ldi. Iqror bo'ldi-yu, alamiga chidolmay ingrab yubordi.

Shunday iztiroblar girdobida qolgan kishini hech narsa bilan yupatib bo'lmaydi. Bunday paytlarda uni o'zidan boshqa ovuta olmaydi. Ikromjon shuning uchun ham o'zini o'tga-cho'qqa urib, o'tli xayollar yolqinidan chiqishga intilardi.

Mana, Nizomjon, kuyib kulga aylangan to'qayda tanho kezib, umidlar sarobga yetaklagan shu kishi to'g'risida o'ylamoqda. Huvillab qolgan cho'l go'yo Ikromjonning qalbiga cho'kkandek. Bo'sh, uning xayollaridek, uning istaklaridek bo'sh cho'l oydinda o'liksimon sokin yotibdi.

Shu huvillab yotgan sokin cho'lni uyg'otish uchun bilak shimargan kishilar zora Ikromjonning ham yuragiga qo'l solib unda yangi umidlar uyg'ota olishsa, zora Ikromjon cho'l bilan baravar yashnab ketsa. Nizomjon uning qo'ltig'iga tirgak bo'ladi. Yuragidan iztirobli o'ylarni quvib chiqaradi. Atrofga umid bilan, odamlarga ochiq yuz bilan qaraydigan bo'lguncha yonidan jilmaydi.

Yulduzlar miltirab turgan cho'l kechasida Nizomjon diliga ana shunday beg'ubor niyatni tugib qo'ydi.

Olisdan deraza pardasini shamol silkitgandek g'alati ovoz keldi. Nizomjon quloq tutdi. Bu ovoz bora-bora kudungi ketmagan atlas ko'yлак etagining yelpinishiga o'xshab eshitalaveradi. Nizomjon ufqqa qaradi. Olisdan bir gala o'rdak uchib kelayotgan edi. O'rdaklar galasi palatkalar tepasiga kelib, g'aqillab aylana boshladi.

Nizomjon ularning tinimsiz aylanishi sababiga tushunolmadi. O'rdaklar o'tgan yili tashlab ketgan inlarini olis yurtlardan izlab kelishgan edi. Ular tark etgan to'qayning bir cheti endi yo'q edi. O'rdaklar karvoni pastlab uchib qorayib yotgan yer ustida yana

bir aylandi-yu, g‘aqillab qumlik chetida sokin shovullagan qamishlar ustiga sho‘ng‘ib ketdi.

Nizomjon qaytib kelganda Ikromjon qo‘lini boshiga qo‘yib palatka tepasidagi tuynukdan tushib turgan nurga tikilganча kiprik qoqmay yotardi. Nizomjon fonar piligini balandlatganda uning ajinli yuzlaridan ko‘z yoshlari dumalayotganini ko‘rib darrov pilikni pastlatdi. Fonar ikki-uch marta lipillab o‘chdi.

U yechinib ko‘rpaга kirgach, Ikromjonga nimadir demoqchi bo‘lib boshini ko‘tardi. Ko‘tardi-yu, nima deyishini bilmay tirsagiga tiralganicha ancha turib qoldi. Nizomjon biron gap aytib unga juda-juda taskin bergisi kelardi. Ammo nima deydi? Qanday gap aytsa, Ikromjon amakining ko‘ngli taskin toparkin? Nizomjon shuncha o‘ylab arzigulik gap topolmadi, nihoyat:

— Meni o‘g‘lim deysizmi? — dedi.

Ikromjon indamadi.

Sal o‘tmay qorong‘ida Nizomjonning ham piq-piq yig‘lagani eshitildi...

QORAKO‘Z MAJNUN

Hikoya

«Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».

(«Qur‘oni Karim», «Baqara» surasi, 217- oyat)

«Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu «Ashobi kahf»ning vafodor itidir».

(Hadisi sharif, «Al-jome al-Kabir»)

Saodat aya bomdod namozini o‘qib, joynamoz poyida uzoq o‘tirib qoldi. Bundan uch yil oldin olamdan o‘tgan eri usta Turobga atab qur‘on tilovat qildi. O‘ris shaharlarida daydib qolib ketgan o‘g‘li Bo‘rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek

umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijo qildi.

Kampir har sahar ichki bir ezginlik bilan shu gaplarni takrorlardi. U qo'l cho'zib, joynamozning bir burchini qayirib o'rnidan turdi.

Sentyabr oyoqlab, suvlar tiniqqan, ariq tublaridan bola-baqra tashlab yuborgan piyolami, choynak qopqog'imi, qoshiqmi shundoqqina ko'rinib turibdi. Qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'ygan palla.

Qo'shni hovlilardan maktabga ketayotgan bolalarning injiqliklari, xarxashalari, onalarning yalinib-yolborishlari eshitilib turibdi. Kampir bu tovushlarga bir dam quloq tutib, boshini tebratib, kulib qo'ydi.

Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo'lgandi. Sochlari taqimini o'pard. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, buyog'ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o'rganda, yana shunchasi ortib qolardi.

— E, soching qursin! — derdi opasi. — Qo'llarim tolib ketdi, sochingni o'rdirishga odam yollash kerak.

Ko'chada amirkon mahsi-kovushni g'irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko'ziga surtib qochishardi.

Mana, yillar o'tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir o'sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo'yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o'g'ri tutar sandiqning kalitini osib qo'yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo'lganidan tizzalasa, kalit bemaol qulfga yetadi. Endi yangi uylarga sandiq urf bo'lmay qoldi. Hamma uyni po'rim javonlar bosib ketdi.

Bundan tashqari, qulfn daranglatib ochadigan kalitlarni yasaydigan ustalar qolmagan.

Kampirning sochlari hamon yoshligidagidek. Faqat yarmidan ko'pi oqarib ketgan. Orqasiga tashlab qo'yadigan, uchi birlashtirilgan ikki o'rim sochining uchiga erining frontdan olib



kelgan og'irgina medalini osib qo'ygan. Tayyor ilgagi ham bor, sochni pastga tortib turadi.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sarg'aya boshlagan. Qurigan shoxiga bahorda ilinib qolgan varrakning qamish qovurg'alari skeletdek bo'lib turibdi. Faqat uzun latta dumi shamolda ilondek to'lg'onadi.

Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog'dek ikkita — biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rinadi. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor. U kampirning oyoq tovushidan bir ko'zini erinibgina ochdi-yu, chala yarim kerishib, yana uyquga ketdi.

— Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding.

— Qo'y, urishma, opasi, Qorako'z hali bola-da!

— Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'larkanman?! — dedi Qumrixon nolib.

— Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman.

— Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e!

— Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga aytchi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos.

— Oyijon, qo'ying endi... — dedi Qumri norozi bo'lib.

Itning bir qulog'ida, bo'ynida, oyoqlarida qon qotib qolgan edi.

— Ahmoq! — dedi kampir. — Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo'lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta'ziringni yebsan-ku! E o'lmagin-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o'zingdan ko'r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!

Qumrixon itning bo'ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi. It g'ingshiydi, ingillaydi. Qumrixonning qo'llarini tishlamoqchi bo'ladi.

— Ana, bo'ldi. Endi ovqatingni beramiz.

Bir oydan beri o'g'li surunkasiga kampirning tushiga kiradi. Na yotishida, na turishida halovat bor. O'g'lini o'ylagani-o'ylagan. Yoshi saksonga yaqinlashib, kuch-quvvatdan qola boshlagan, bolamni ko'rmay o'lib ketamanmi, deb kuyib-yonadi.

O'g'li Bo'rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki uyga qaytmadi. O'sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib, qolib ketdi. Ba'zi-ba'zida undan «Ya zdorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o'n besh yildirki, adresni unutib qo'yanmi, ishqilib, shu o'rischagina xat ham kelmay qo'yan.

Kampir qo'ni-qo'shnilarnikiga ham chiqmaydi. Uyda o'tira-
verib qon bo'lib ketadi. Ba'zan kiyim-boshlarini apil-tapil tugib
— o'g'illari yo qizlaridan birinikiga otlanib qoladi.

Baribir borgan joyida ham halovat topmaydi. Qizi Qumrixonni
o'ylab qaytib keladi. Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor
turmush qildi, farzand ko'rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab
ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qolgan onasiga kim
qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo'y, ishlama, tirikchiliging
bizning bo'yimizda, onamga qara», deb qo'yishmadi.

Kampirning o'g'illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning
zorini qilishsa ham, otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman,
men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko'nmadi.

Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta
xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi, albatta, ular quruq
kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o'tadi, deya qadrdon
uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa — baxti chopmagan bolasi
bilan birga bo'ladi.

O'tgan yili o'tli-shudli, har ish qo'lidan keladigan nevarasi
Anvarjon, tog'amni topib kelaman, deb chiqib ketdi. Shu ketgancha
yigirma kun deganda daragini topib keldi.

Bu gapdan xabar topgan qo'shni xotinlar kampirni qutlagani
kirdilar.

— Buvijon, tashvishlanmang, tog'amning ishlari «besh».
Ro'zg'ori but, tirikchilikdan kami yo'q. Uchta bolasi bor. O'zi
o'zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o'rischa
gaplashdi. Bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi,
o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu
mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo'chka-bo'chka samogon-
aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog'amni
«Bo'rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan.

Bu gaplarni eshitib, kampir yer yorilmadi-yu, kirib ketmadi.
Bolasi tushmagur-ey, qo'shni xotinlarning oldida shu gaplarni
aytib o'tiribdi-ya! Birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning
shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi.

Qachongacha chilla o'tiraman, deb kampir bugun qizirikiga o'tlanib qoldi. Kampirning niyatini sezgan Qorako'z ostonaga borib o'tirib oldi. Yaqin bir oydan beri hech qayoqqa bormagan Qorako'z o'zida yo'q shod edi. Boshini bir tomonga egib irg'ishlar, tezroq chiqmaysizmi, degandek, har xil ovoz chiqarib g'ingshirdi.

Kampir shoshilmasdi. O'sma ekilgan bir bo'yra yer oldida cho'nqayib, o'smalarning sersuv, bo'liq barglarini tagidan kertib uzardi. Oxiri kafti o'smaga to'lgach, rayhonning gul otmagan shoxlaridan sindirib olib, o'smaga qo'shib dastro'moliga o'radi. U qiz nevaralariga, kelin-u qizlariga albatta o'sma olib borardi. Nihoyat, kampir tugunni qo'ltiqlab chiqdi. Qorako'z o'tirgan joyidan bir sapchib ko'cha tomon otildi. Kampir uning ketidan borarkan, hoy, muncha shoshasan, sekinroq, deb javrardi.

Qorako'z uning gapiga tushungandek, ko'cha o'rtasida to'xtab orqasiga qaraydi. Kampir yetib kelguncha yayrab qulog'ini qashlaydi. Bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik qiladi. Orqa oyog'ida turib bir-ikki aylanadi. Kampir yetib kelishi bilan yana o'ynoqlab yugurib ketadi. Yo'lda uchragan mushuklarni tiraqaylatib quvib, nim qizil tilini osiltirgancha hansirab qaytib keladi. Daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab akkillaydi. Ariqdan shapillatib suv ichadi. Ba'zan yo'l chetiga chiqib, paxsa devor tagini ho'l qilib qaytadi. Velosiped minib o'tgan bolalarga ergashib uzoqlarga ketib qoladi.

Kampir uning qiliqlariga andarmon bo'lib yo'l yurganini sezmaydi. Qorako'z donlab yurgan tovuqlarni qaqag'latib, to'rt tarafga to'zg'itib yuboradi. Yo'lda uchragan itlar bilan iskashib, quvlashmachoq o'ynaydi. Ko'cha betidagi uy ostonasida tinmay akillayotgan kalamushdek kuchukni tuproqqa qorishtirib bulg'aladi. Ariq bo'yidan qo'porib tashlangan to'ngak soyasida yotgan bo'ribosar itga ham zo'rlik qilmoqchi bo'lgandi, ta'zirini edi. Bo'ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashladi.

Yo'l o'rtasiga borib tushdi, tuproqqa qorishdi.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

— Hoy, jinni, senga kim qo'yibdi otang tengi it bilan olishishni!
Qorako'z unga qaray olmadi. Yo'lning bu yog'iga ma'yus alpozda, yugurmay, ohista ketdi. Baribir Qorako'z it-da, itligini qiladi. Bir qora itning dumini hidlab, ochiq turgan eshikdan kirib ketdi. Bir ozdan keyin uning vangillagani eshitildi. Eshikdan chiqayotganda ichkaridan otilgan eski tufli qoq beliga tushdi.

Katta yo'lga chiqishdi. Bu yo'lning o'ng yog'i Chirchiqqa, chap yog'i Toshkentga olib boradi. Oldinlab ketgan Qorako'z, qayoqqa yuraylik, degandek, kampirga qaradi.

— Abdumalik akangnikiga boramizmi, Dilbar opangnikigami? Dilbar opang domda turadi. Itdan hazar qiladi. Seni uyiga kiritmaydi. Endi nima qilamiz? Mayli, shunikiga boraylik. Yotib qolmaymiz. Chiqqunimcha hovlida bolalar bilan o'ynab turasan.

Qorako'z bu gaplarga tushunadi. Har gal ko'cha boshiga kelganda, albatta, kampir shu gaplarni takrorlaydi.

Olisdan baland imoratlarning qorasi ko'rindi. Qorako'zning sabri chidamadi. Ildamlab ketdi. Kampir unga yetolmay halloslab qoldi. Qorako'z yugurib emas, g'ildirab ketayotganga o'xshaydi. Bir zumda ko'rinmay ketdi.

Uchinchi qavatning boloxonasida o'ynayotgan bolalar Qorako'zni ko'rib, buvim kelyapti, deb qiyqirishdi. Tapir-tupur qilib zinaning ikki poyasini bitta qilib, pastga yugurib tushishdi. Bittasi Qorako'zga konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi. Birpasda hovli bolalarga to'lib ketdi. Qorako'zning boshini, orqasini silashdi. U erkalanib turib berdi. Boloxonada Dilbarxon ko'rindi. Onangiz kelyapti, degan xushxabar olib kelgan Qorako'zga mehr bilan boqdi. Unga qand tashladi.

Nihoyat, hansirab kampir yetib keldi. Bolalarga qurt, yong'oq, turshak ulashdi. Qorako'z ham umidvor bo'lib qo'liga qaradi.

— Senga yo'q, bevafo! Meni yo'lga tashlab ketgansan. Orqangdan halloslab yugurib, tilim og'zimga sig'may qoldi.

Qorako'z gunohkorona bosh egib turdi. Kampir konfet tashladi. Qorako'z ilib oldi-yu quvonchdan hovlini shamoldek aylanib chiqdi. Kampir qizi bilan kechgacha ezilib gaplashdi. O'g'lini

eslab ko‘z yosh ham qilib oldi. Qumrining betoleligidan, men bir balo bo‘lib ketsam, u sho‘rlik nima bo‘ladi, deb afsus-nadomatlar qildi. Gap orasida Qorako‘z esiga tushib, ovqat-povqat berdingmi, deb so‘rab qo‘yardi. Kampir asr namozini o‘qib, ketishga shoshildi.

— Endi ketay, shom namozini uyginamda o‘qirman.

— Ovqat qilyapman, oyijon, yeb keting. Bir kechagina yotib ketsangiz nima bo‘ladi. Uyingizni bo‘ri yeb ketarmidi!

Kampir tugunni qo‘ltiqlab pastga tushdi. Hovlida bolalar bilan yayrayotgan Qorako‘zning ketgisi kelmaydi. Bolalar tuflab uloqtirgan kaltakni o‘tlar orasidan topib keladi.

Kampir yo‘lga tushdi. Qorako‘z erkalanib, irg‘ishlab goh undan o‘zib, goh orqada qolib qulog‘ini qashlaydi.

Uyda Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g‘uborlarini tarqatadigan, ko‘ksidan tog‘dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik kutib turardi.

U uyiga yaqinlashganda eshigi oldida u yoqdan-bu yoqqa shoshib yurayotgan odamlarni ko‘rib, yuragi hapqirib ketdi. Qadamini tezlatdi. Eshik oldida turganlar unga, qulluq bo‘lsin, sevinib qoldingizmi, qariganingizda dilingizga yorug‘lik tushgani muborak bo‘lsin, deyishardi.

Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo‘ldi, degan xushxabar kelgan bo‘lsa kerak, o‘zingga shukr, Allohim, deb ostona hatladi.

Shoxiga katta lampochka osilgan tut tagidagi supada yoshi oltmishlardan oshgan bir notanish odam o‘tirardi. Uning ko‘zlari... bundan o‘ttiz ikki yil oldingi Bo‘rixonning ko‘zlari edi. Kampir, voy bolam, deb unga talpindi. Supaga yugurib bordimi, uchib bordimi, bilmaydi. Bag‘rida o‘g‘lini ko‘rdi. Undan aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi. G‘oyibining hozir bo‘lganidan mast-alast edi. Karaxt edi, baxtiyor edi. O‘g‘lining boshlariga, yelkalariga ko‘z yoshlari to‘kildi.

O'g'li uning bag'ridan chiqishga urinar, ammo kampirning qoq suyak, chayir qo'llari uni bo'shatmasdi.

— Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot i priyexal, xvatit, xvatit, — derdi o'g'li.

Ona bu gaplarni eshitmasdi. Eshitganda ham baribir tushunmasdi.

Kampir hushini yig'ib, bolasini bag'ridan bo'shatdi. Serrayib turgan Qumriga:

— Nega baqrayib turibsan, Rahmon qassobni chaqir, bolamning oyog'i tagiga og'ildagi qo'yni so'ysin! Qo'shnisidikida telefon bor, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb xabar qil! — dedi.

Qorako'z kampirning oyog'i tagiga o'tirib olgan. Bu notanish odamga g'ashlik qilib tinmay irillardi.

— Qayoqlarda yurganding? — dedi kampir o'g'liga. O'g'li onasi nima deyayotganini tushunmay yelka qisdi. Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo'lib ketibsan.

Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'pti. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qopti.

Rahmon qassob allaqayoqqa ketib qolgan ekan, topib kelishdi. Ko'cha tomonda qo'sh mashinaning gurillagani, o'g'il-qizlarining ovozlari eshitildi.

Abdumalik qo'y yetaklab kirdi. Qizlari, kuyovlari karton qutilarda, xaltalarda meva-cheva, olma-uzum ko'tarib kirishdi. Bir zumda hovli gavjum bo'lib qoldi.

Bo'rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi.

Bo'rixon begona uyga kirib qolgan odamdek qovushmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyishni bilmasdi. To'g'ri, nima deyishni bilardi. Ammo til bilmasa nima qilsin? O'ylab-o'ylab, «Salyam!» dedi. Jigarlari kulishni ham, yig'lashni ham bilmay hayron turib qolishdi.

Qassob og'ildan kattakon, boquvdagi qo'yni sudrab chiqdi. Bo'rixonning oyog'i tagiga yotqizib, ukam, qani bir fotiha bering, dedi. E, darvoqe, o'zbekcha bilmasligingizni esimdan chiqaribman, qani, omin denglar, kampir enamizning umrlari uzun bo'lsin, g'oyiblari hozir bo'lgani rost chiqsin, omin!

Qassob shunday deb qo'yning bo'g'ziga pichoq tortdi.

— Ну зачем, зачем? — dedi Bo'rixon. — ведь барана жалко, все равно я столько мясо не съем! У нас баранину не едят.

To yarim kechagacha kampirning hovlisi to'yxonaga aylanib ketdi. Tarqash paytida Abdumalik akasini mehmonga taklif qildi.

Hovli jimib qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir bolasiga tikilib mijja qoqmadi. Bo'rixon to'ygunicha ichgan edi. Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turibdi. Kampir ro'molining uchi bilan burnini berkitgancha o'tiribdi. Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb o'ylardi kampir. Qarib ketibdi, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qopti. Ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zaxil bir befoylik zohir edi uning yuzlarida. Ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi o'tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlariga begona bo'lib beparvo yotibdi.

Saodat kampir uni chaqaloqligida xuddi shu supada beshikka belab tebratardi. Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi. Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi.

Bo'rixon u yonboshidan bu yonboshiga ag'darildi. Shunda... shunda uning ustidagi oq choyshab sirg'alib yelkalari, ko'ksi ochilib qoldi. Kampir badanidan chayon o'rmalagandek seskandi. O'zini orqaga tashladi.

Bo'rixonning bo'ynidagi zanjir uchida but yaltiradi. Kampirning ko'zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdiy-u ayvon tomonga chekindi...

Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi.

Qallig'ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi.

Ana shundan keyin Bo'rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o'lgandan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi qilib qo'yishdi. Nimaiki ish bo'lsa, barini u bajaradigan bo'ldi. Piligi so'xta bo'lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lganlarini almashtiradi.

1970- yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi...

Oh, otaginasi tirik bo'lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvon tomon tisarilib borar ekan, ana shunday o'ylardi. U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi. Qorako'z uning atrofida yurib aylanardi. Qumri yotgan uyning eshigini timdalab, uni uyg'otmoqchi bo'ldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarg'ay-qarg'ay hovliga chiqdi. Qorako'z uning etagidan tortib, kampir yotgan joyga sudradi. Qumri onasining behush yotganini ko'rib qo'rqib ketdi. Qarib, mushtdekkina bo'lib qolgan onasini dast ko'tarib ayvonga olib chiqdi. Boshi ostiga yosti qo'yib, suv ichirdi. Yelkalarini uqaladi. Kampir ko'zini ochdi. Hali tong yorishmay turib, Abdumalik mashinada kelib akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko'rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg'a-salomlar olib bermoqchi edi.

Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga

e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Ertalab kampir hech narsa bo'lmagandek o'rimdan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi.

Qumri onasining nega bunaqa bo'layotganini bilib turardi. Boya akasi tong yorishmay hovli etagidagi yong'oq tagida devorga qarab cho'qinayotganini ko'rib hayron-u lol qolgandi. Ayollar umuman titimsak xalq bo'ladi. Akasi Abdumalik bilan hovlidan chiqib ketgach, ichkari uyda turgan chemodanini titkiladi. Shunda sariq baxmalga o'ralgan bir narsaga ko'zi tushdi. Ushlab ko'rdi. Qutichaga solingan narsa to'pponcha emasmikan, deb baxmal tugunni yechib qaradi. U xristianlarning muqaddas kitobi Injil edi. Uni ushlagan qo'llari kuyayotgandek shoshib yana baxmalga o'rab qo'ydi.

Kampir bomdod namozini o'qiyotib, har sajdaga bosh qo'yganida joynamozga ko'z yoshlari tomardi. U joynamoz burchagini qayirib, eriga atab qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi.

Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Bo'ri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi.

— Oyi, kiyinasizmi? Abdumalikning mashinasi hozir kelib qoladi. O'g'lingiz tayinlab ketgan.

— O'zing boraver, men shu yerda qolaman, — dedi kampir.

— Axir, akam, kechqurun poyezdga chiqadi. Xayrlashmaysizmi?

— O‘zi kelgan, o‘zi ketaveradi. Mashina kelsa, chemodanini tashlab qo‘y. Bu uyga endi qaytib kelmasin, — dedi kampir qat‘iy qilib.

— Oyijon-ey, juda qahringiz qattiq-da! Bugun ketadi, qaytib ko‘ramizmi-yo‘qmi, bolam-bo‘tam, deb kuzatib qo‘ya qolsangiz nima qiladi-ya! — dedi zorlanib Qumri.

— Bu bolani men emas, bo‘ri tuqqan... Bir marta dadam qani, deb so‘ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya rahmatli.

Ko‘chadan mashina ovozi keldi. Qorako‘z o‘qdek otilib chiqib ketdi. Bir ozdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrofida gir aylanib kirib keldi.

— Iya, hali ham kiyinmay o‘tiribsizmi? Uyimiz qarindosh-urug‘larga to‘lib ketdi. Dadamning o‘rtoqlari ham kelishgan. Qani, bo‘la qolinglar!

— Men bormayman, — dedi kampir. — Qumri boradi. Chemodan o‘lgurni ola ketinglar.

— Iya, qiziq bo‘ldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku! Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan boshini chiqarib:

— Sen boraver, bolam. Men bilan o‘tirib qon bo‘lib ketding. Jigarlaring bilan birpas yozilib kelasan, — dedi Qumriga.

Mashina ketdi. Kampir hayhotdek hovlida bir o‘zi qoldi. Uning ko‘ksiga allaqaydan kelib tushgan bir parcha muz kechadan beri erimay, vujud-vujudini qaqshatardi.

U uyga kirib tugun ko‘tarib chiqdi. Undan Bo‘rixonning go‘dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini olib qaradi.

Ilgari kampir ba‘zi-ba‘zida bu kiyimlarni hidlab yig‘lardi. Endi ko‘ksidagi muz uni yig‘lashga qo‘ymadi. U hovli o‘rtasiga xazon to‘plab gugurt chaqdi. Gurillab yonayotgan gulxanga Bo‘rixonning kiyimlarini birma-bir tashlay boshladi. Gulxanda Bo‘rixonning bolaligi yonardi. Qorako‘z gulxan atrofida aylanar, goh alanga taftiga chidolmay nari ketardi. Bir bo‘xcha kiyim zum o‘tmay yonib kulga aylandi. Shamol kuyindilarni hovlining to‘rt tarafiga uchirib ketdi.

Qumrining ko‘ngli bir nimani sezdimi, ko‘cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi.

Uyga kelganda, onasi kaftini iyagiga tirab, qimirlamay o‘tiribdi. Qorako‘z uning xayollariga sherik bo‘lgandek, u ham old oyoqlariga dahanini qo‘ygancha ko‘zlarini yumib, qimirlamay yotibdi. Qumri u yoq-bu yoqqa qaradi. Hovlidan kuygan latta hidi kelyapti. Qo‘shnilardan birortasi eski-tuskilarni yondiryapti shekilli, deb o‘yladi. Hovlining supradek joyi qorayib qolganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Yaqin borib qarasa, qoraygan yerda bolalar ko‘ylagiga qadaladigan o‘n-o‘n beshta qovjiragan tugma sochilib yotibdi. Qumri nima bo‘lganini bildi. Ichidan zil ketdi.

— Oyi, — dedi u, — nima ovqat qilib beray? Ertalab ham hech narsa tatimadingiz. Bunaqada toliqib qolasiz-ku.

Kampir boshini sarak-sarak qildi.

— Ishtaham yo‘q, bolam. Ichim to‘la muz. Tanamga asta tarqalyapti.

Qumri qo‘rqib ketdi.

— Ko‘p kuyinmang endi, bo‘lar ish bo‘ldi. Xudoning irodasi bu.

— E, qizim-a, bola tug‘magansan-da, bilmaysan! Kampir qiziga hech qachon «tug‘magansan» deb aytmagan. Aytasa, ta‘na qilayotgandek bo‘lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytasa chidash mumkindir. Ammo o‘z onang aytasa, yuragingni kimga ochasan? Qumri onasining gapini malol olmadi.

— Farzand dog‘i yomon bo‘ladi, bolam.

— Axir akam tirik-ku, shukr qilmaysizmi?

Kampir uning gapini cho‘rt kesdi:

— U yo‘q endi!

Kampir so‘zini oxiriga yetkaza olmay yonboshiga bexush yiqildi. Qorako‘z bezovtalanib sapchib turib ketdi. Qumri onasini ko‘tarib, ko‘rpacha ustiga yotqizdi.

Eshik taqilladi. Qorako‘z darvoza tomon yugurdi. Qumri onasi bilan ovora edi.

Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko‘rib, bir-biriga qarab olishdi.

— Qizim, — dedi mutavalli, — bemavrid kelib qopmiz. Onaxondan suyunchi olmoqchi edik.

Ular ayvon oldiga kelishdi. So‘nggi nafasini olayotgan kampirga:

— Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo‘ldi, — deyishdi.

Imom-xatib Saodat ayaning «Hoji badal» bo‘lgani to‘g‘risidagi hujjatni uzatdi.

Kampir qo‘lini ko‘tara olmadi. Ko‘zini arang ochib, o‘zingga shukur, Allohim, deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo‘lgan edi, tili kalimaga kelmadi.

Qumri uning nima demoqchiligini bildi. Yugurib uyga kirdi-yu ikkita ohorli to‘n ko‘tarib chiqdi.

— Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar.

U shunday deb ikkovining yelkasiga to‘n tashladi.

Kampir ikki kun shu alpozda yotib, sal o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Tilga kirdi.

Aslini olganda, uning umri tugagan edi. Bu xushxabar uning tugab borayotgan umriga umr ulagan edi. Bu hol shamning o‘chish oldidan bir lop etishiga o‘xshardi.

— Ukalaringni, singillaringni chaqir! Vasiyat qilib qo‘yay. Sen qo‘rqma, qizim. O‘lim haq. Bu jon degani Allohning tandagi omonati. Undan qochib qutulib bo‘lmaydi. Puf etadi-yu, chiqadi-ketadi.

Kampirning bolalari yetib kelishdi. Qumri onasining orqasiga yostiq qo‘yib berdi. Qator o‘tirgan bolalariga, nevaralariga qarar ekan, kampir mamnunlik bilan:

— Xudoga shukur, tobutim oldida boradigan hassakashlarim ko‘p ekan, — dedi. — Eshitinglar, bolalarim. Abdumalik, endi bularga sen ota o‘rnida otalik qilasan. Qumri, qizim, endi sen mening o‘rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylantiringlar. Yilimni kutib o‘tirmay to‘y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo‘ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida

qolsin. Shu uy uniki. Onam go'rida tinch yotsin, desanglar Qumrini aslo yolg'izlatib qo'ymanglar.

Kampirning lablari quruqshadi. Qumri piyoladagi suvga paxta botirib og'ziga tomizdi.

— Shoshib turibman, bolalarim. Meni otalaring oldiga olib ketishga kelishyapti. Endi buyog'ini eshitinglar. Hamma tadorigimni ko'rib qo'rganman. Yilim o'tguncha bo'ladigan marosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo'rganman. Qizim, qulog'imdagi ziragimni, mahsi-kovushimni g'assolga bergin. — U endigi aytmochi bo'lgan gapidan iymandi shekilli, jilmaydi. — Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o'sma...

Kampir shu jilmaygancha ichidagi muz erimay osongina jon berdi.

Hovliga tumonat yig'ildi. Unga «Hoji ona» deb janoza o'qishdi. Tobutni ko'tarishayotganda Qorako'zni qabristonga bormasin, yomon bo'ladi, deb qo'shnining hujrasiga qamab ketishdi.

Kampirning qirqi o'tgandan keyingina hovlidan odam oyog'i tovsildi. Egasi ketib fayzi yo'qolgan hovlida Qumri va Qorako'z mung'ayib qolishdi.

Bir kun Qorako'zning mijjalarida yosh ko'rib Qumrining yuraklari ezilib ketdi. Qorako'zga qo'shilib u ham yig'ladi. Asta qo'l yuborib, uning boshlaridan siladi. Oldin bu itni jinidan ham yomon ko'rardi. Necha marta kosov bilan urgan. Oyog'i ostida o'ralashganda tepib yuborgan. Qorako'z ham uni unchalik suymasdi.

Ana endi ikki munglig' bir-biriga qarab yum-yum yosh to'kishyapti.

Qorako'z endi kechalari daydib ketmay qo'ydi. Har kuni hali tong yorishmay turib (kampir bomdodga turganda) uyg'onib ketardi.

Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi. U tong otgandan to kun botguncha

hammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib keladi.

Bugun ham tong sahardan Qorako‘z chiqib ketdi. Pildiragancha Chirchiq tomonga yo‘l oldi. Kimyogarlar shaharchasida kampirning kenja qizi turadi. O‘g‘li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozi tasмага yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozi ham bildirmay yozibdi. O‘shanda kampir supada o‘tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako‘zga tanbeh berayotgan edi.

Qorako‘z Kimyogarlar shaharchasining eng chekkadagi «dom»ga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako‘z unga dumini likillatib yaltoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Bir ozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladi. Qorako‘zning qulog‘i ding bo‘ldi. Yaqin ikki oydan beri yo‘qotgan qadrdon kishisining ovozi eshitib yig‘layotgandek g‘ingshidi. Qorako‘z uchinchi qavatga otilib chiqdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi...

Magnitofondan kampirning ovozi kelardi.

«Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o‘tirasanmi-yo‘qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina. Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?..»

Qorako‘z akillar, yerni timdalab orqasiga tuproq otardi. Shu hovlida kecha to‘y bo‘lgandi. Shirakayf yigitlar mikrofonni baland qo‘yib, hech kimni uxlatmagan edi. Uyquga to‘ymagan odamlarga tong mahali akillayotgan itning bu qilig‘i malol kelardi. Quturgan bu it qayoqdan paydo bo‘ldi, uni yo‘qotish kerak, deb o‘ylashardi.

Qorako‘z odamlarni jonidan bezor qilib, tinmay vovullar, u yoqdan-bu yoqqa yugurib, akillagani akillagan edi.

— Daydi itlarni tutadiganlarni chaqirish kerak, — dedi birinchi qavat boloxonasiga choyshab yopinib chiqqan kasalmand bir kishi.

— Quturgan bu, bolalarni tishlab olmasin-da! Uni otib tashlash kerak! Hoy, kimning miltig‘i bor? — deb asabiy qichqirdi uchinchi qavatdan bittasi.

Kampirning ovozi hamon eshitilib turibdi. Qorako‘z akillashini qo‘ymaydi.

Shu payt to‘rtinchi qavatdan kimdir varanglatib o‘q uzdi. Qorako‘z vangillab yonboshiga ag‘darildi. Orqa oyog‘ini bir-ikki silkitib jimib qoldi.

Magnitofon tasmasi hamon aylanardi.

«... Qorako‘z o‘lmagur, Majnuningina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma‘shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko‘rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko‘ray...»

Qorako‘z kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha jonsiz yotardi.

1999- yil, yanvar







ODIL YOQUBOV
(1926)

Tarixiy hamda zamonaviy mavzulardagi roman va qissalari bilan o‘zbek nasrida muhim o‘rin tutadi. Yozuvchining o‘nlab qahramonlari yashashning ma’no-mohiyatini teran idrok etish tarzlarini, ezgulik va adolat yo‘lidagi kurashchanliklari, bokira umuminsoniy tuyg‘ulari bilan minglab kitobxonlarning sevikli obrazlari bo‘lib qolgan.

«ULUG‘BEK XAZINASI»
ROMANIDAN

3

To‘riga quyma tilladan yasalgan o‘ymakor kursi o‘rnatilgan salomxonada nimqorong‘i edi. Shiftdagi oltin qandilda nechundir bir nechtagina sham yonar, bu shamlar shulasida lojuvard koshinlar bilan qoplangan devorlar, qubbasimon shiftdagi nozik bezaklar qandaydir hazin tovlanib, xonaga allaqanday sirli bir ruh baxsh etgan edi. Ali Qushchining esiga beixtiyor sohibqiron atalmish Amir Temur tushdi. Bu sirli nimqorong‘i xonada, to‘rdagi quyma tilladan yasalgan naqshinkor taxtda bir mahallar sohibqiron o‘tirgani ko‘z oldiga kelib, vujudi jimirlab ketdi. Go‘yo xonada uning notinch ruhi hokim, bu ruh go‘yo uning suyuqli dargohiga Ali Qushchiday faqir bir allomaning kirib kelishidan norizo edi.

Mirzo Ulug‘bek poygakka cho‘kkalab ohista, ammo kishining dilini ravshan qiluvchi hazin tovushda uzoq tilovat qildi, keyin horg‘in tebranib o‘rnidan turdi-da, devorga tutilgan surmarang

ipak pardani yulqib ochdi. Parda ochilganda bir kishi zo'rg'a sig'adigan, raxlariga mis tasma qoqilgan kichikroq eshik ko'rindi.

Mirzo Ulug'bek belidagi serbar kamariga osilgan kalitni olib eshikning qulfini jaranglatib ochdi. So'ng, qubbasimon tokchadan bitta sham olib, Ali Qushchiga uzatdi, ikkinchi shamni o'zi olib yoqdi-da, kifti bilan eshikni itardi.

Po'lat qoplangan zalvorli eshik asta g'ichirlab ochildi-yu, qorong'i bo'shliq ko'rindi.

Mirzo Ulug'bek yarim bukilib eshikdan qorong'ilikka sho'ng'idi. Uning orqasidan kirgan Ali Qushchi zim-ziyo Quduqni ko'rdi. Dimog'iga mog'or hidi gup etib urdi. Mirzo Ulug'bek, bir qo'lida sham, bir qo'li bilan quduqning sirpanchiq devorini paypaslaganicha tik pillapoyalardan pastga tushmoqda edi. Nihoyat, u «quduqning tagiga» yetdi chamasi, yana bir eshikni ochib, yerto'laga o'xshagan xonaga sho'ng'idi.

Bu— devorlari qora marmar bilan qoplangan, shifti past, torgina chorsi xona bo'lib, ichi muzday sovuq edi. Xonaning to'rt burchida to'rtta po'lat sandiq turar, sandiqlar og'ir zanjirlar bilan temir qoziqlarga bog'langan edi.

Sovuq go'rga o'xshagan bu tosh sag'anada ham o'sha sirli ruh hokim, go'yo sandiqlar ortida, shamlarning zaif shu'lasini yoritolmagan zimiston burchaklarda kimdir bor, kimdir qahrli sukut bilan ularni kuzatib turardi...

Mirzo Ulug'bek ko'zlarini yumib va boshini egib bir lahza turdi, tilovat qildi chamasi, lablari pichirlab, yuziga fotiha tortdi, so'ng,



ro'paradagi katta po'lat sandiqning qulfiga kalit solarkan, Ali Qushchiga qarab, «yordam ber», degan ma'noda imo qildi. Sandiqning qopqog'i shunday og'ir ediki, ikki kishilashib arang ko'tarishdi. Qopqoq jaranglab ochilishi bilan g'ira-shira xona go'yo charaqlab ketdi.

Katta sandiq yal-yal yongan olmos, la'l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi.

Mirzo Ulug'bek toshlardan bir hovuchini olib hayrat bilan tikildi.

Toshlar ko'k, qizg'ish, yashil va firuzarang nur taratar, bu nurlar bir-biriga qo'shilib, kamalakday ajib bir manzara kasb etardi.

— Bag'dod va Qohira xazinalaridan keltirilgan,—dedi Mirzo Ulug'bek o'ychanlik bilan.—Bobom Amir Temur sulton Boyazidni tor-u mor etganda olib qaytgan o'ljalari: Lekin hazar qilmag'il. Aslini surishtirsang, fuqaroning mulkidur bu. Undan bir xalta olg'il.

Ali Qushchi hayrat bilan ustodiga qaradi.

— Bularni ne qilamen, vallomat?..

— Senga boylik kerak emas. Buni bilamen. Ammo bu dur-u javohirlarni boya men aytgan yaxshi tilak yo'lida ishlatusen!

Mirzo Ulug'bek shunday deb, sandiqdagi toshlarni bir chetga surdi. Yarim qorong'i xona yana ham yorishib ketdi: toshlarning tagida quyma oltinlar yaltilladi. Yum-yumaloq qoliplarga quyilgan oltinlar xuddi to'ntarilgan piyolalarday sandiq tagiga qator terilgan edi.

Mirzo Ulug'bek tillalardan bittasini olib, qo'lida salmoqlab ko'rdi.

— Naq uch qadoq kelur,—dedi.—Bular jannatmakon bobomning menga qoldirgan ulushidur. Men o'z ulushimni jahongirlik emas, saltanatni obod qilmoq, madrasalar qurib, ilm-fan rivojiga sarf etmak niyatida edim. Endi ham shu niyat yo'liga sarf bo'lg'ay...

Mirzo Ulug‘bek sandiq ostidan qalin qizil charm xaltacha olib, piyoladay-piyoladay quyma oltindan o‘ntasini sanab oldi, keyin kaftlarini to‘ldirib, besh-olti hovuch javohirlardan soldi-da, Ali Qushchiga yuzlandi:

— O!

Ali Qushchi charm xaltani sandiqdan olib yerga qo‘ydi: xalta zilday og‘ir edi.

Mirzo Ulug‘bek xayolga tolib soqolini tutamladi.

— Filhaqiqat, sen bu tillarni ishlatmoq yo‘lini bilmassen,— dedi u, ancha sukutdan keyin. — Lekin bularni tangaga almash-tirmoq lozim bo‘lsa, Xoja Salohiddin zargarga murojaat qilg‘il. Zotan, zargar bilan uning o‘g‘li mavlono Muhiddinga ham salomim, ham uzr-ma‘zurimni yetkazgil. Toki bu mushkul ishda suyangan bir tog‘im sen bo‘lsang, bir tog‘im mavlono Muhiddindir... Shahzodaning gunohini kechirgay. Salomimni etkazgil, Ali.

— Bosh ustiga, ustod...

Mirzo Ulug‘bek sandiqning qopqog‘ini yoparkan:

— Qolgani shahzoda Abdulazizning ulushi bo‘lur,— dedi va go‘yo bu gapi uchun Ali Qushchidan uzr so‘raganday qo‘shimcha qildi:

— Bilasen: shahzoda — nogiron, qalbi majruh...

Ustod Jayhun bo‘ylarida qo‘shin tortib turgan mahalda Samarqandda qolgan shahzoda Abdulazizning munofiqliklari esiga tushgan Ali Qushchi: «O, ustod, ustod!—dedi ichida.—Nechun bu farzandingizga qattiq mehr qo‘ydingiz? Sizning boshingizga tushgan barcha nadomatlariga shu farzandi arjumandingiz sabab emasmi? Siz uning jismini nogiron, qalbini majruh deysiz, u bo‘lsa... o‘rningizga Samarqandda qolg‘anida sarkardalaringizni tazyiq ostiga oldi, amir Ibrohimbek o‘g‘lini qatl qildirib, barcha lashkarboshilaringizni sizga qarshi qo‘ydi...»

Mirzo Ulug‘bek, go‘yo Ali Qushchining fikrlariga tushungan-day, ohista xo‘rsinib qo‘ydi:

— Men o‘zimdand qo‘rqmaymen, Ali. Haq taolo in‘om etgan umrni yaxshidur, yomondur, o‘tkardim. Bu noraso dunyo lazzati

shunchalik bo‘lur. Ammo... pushtikamarimdan bo‘lgan bu farzandimning taqdiri ne bo‘ladi? Og‘a-ini bir-birini ne qiladi? Buni o‘ylasam yuragim eziladi, zero uning jismi nogiron, qalbi majruh, Ali!

Ali Qushchi, go‘yo ustodiga gustohlik qilganday tuyulib, uning g‘amgin chehrasidan ko‘zini olib qochdi.

— Bas! Tangri taolo o‘zi mushkulimizni oson qilg‘ay!— Mirzo Ulug‘bek sandiqning qulfini ildi-da, shamni qo‘liga olib, oldinga o‘tdi. Salomxonaga chiqqach, eshiklarni ochib, boshqa xonalarga qaradi, hech kim yo‘qligiga ishongach, Ali Qushchiga yuzlandi.

— Ko‘ksaroydan bu javohirotni olib chiqqaningni hech bir kimsa bilmasligi darkor,—dedi u.—Belbog‘ bilan belingga ikki qator qilib tugib ol!

Ali Qushchi bosh irg‘ab ustodiga tikildi.

— Kaminadin tag‘in ne tilaysiz, ustod?

Mirzo Ulug‘bekning ko‘zlari qisilib, chehrasida o‘ychanlik aralash shiddatli bir ifoda paydo bo‘ldi.

— Bor tilagimni boya aytdim, men o‘zimning chin boyligim deb, toj-u taxtni emas, ilm-ma‘rifat yo‘lida qilgan xizmatlarimni, bitgan asarlarim, to‘plagan ilm xazinasini bilurmen. Bu bebaho xazinaning taqdiri sening qo‘lingdadur, Ali. Bu xazina butkul Movarounnahr, ehtimolki, butkul bashariyatning boyligidur. Mabodo haq taolo bandai ojizni saltanatdan mosuvo qilib, elda xurofotki avjga mins... bu xazinani bo‘lg‘usi avlodlar uchun asrab qolmoq sening gardaningdadur. Ehtimolkim, uni tog‘larga olib chiqib aniq bir joyga yashirursen. Ehtiyot shart, shu bugundan usta topib, o‘n-o‘n besh po‘lat sandiq yasatib qo‘ymoq maqbul bo‘lur.

— Angladim, ustod...

Mirzo Ulug‘bek qo‘llarini shogirdining yelkasiga qo‘ydi.

— Haq taologa shukurkim, o‘z pushtikamarimdan bo‘lg‘an farzandlarimdan yolchitmasa-da, senday shogird ato qildi... — Mirzo Ulug‘bek qaltiragan qo‘llari bilan Ali Qushchini quchoqlab, peshanasidan o‘pdi.

Ali Qushchi nechundir yana o'sha iliq bahor kunini esladi, ko'z oldiga nimjongina oppoq chol—jannatmakon ustoz Qozizoda Rumiyl keldi. Chol ham xuddi Mirzo Ulug'bekka o'xshab peshanasidan o'pgani, yuziga tekkan oppoq mayin soqoli yodiga tushib, ko'ngli erib ketdi.

— Billoh, faqir ham Olloga shukur qilamenkim, sizday mehribon ustod ato qildi! — Ali Qushchi beixtiyor ko'ziga yosh oldi. — Taqdir boshqa yo'lni ixtiyor etganda kim bo'lur edim?

Mirzo Ulug'bek yirik tilla uzuk taqilgan shahodat barmog'i bilan ko'z yoshlarini artib, to'satdan shikasta ovozda:

— Men sendan abadul-abad rozimen, — dedi. — Agarchi diydor ko'rishmoq nasib etmas, rozi bo'lg'aysen, o'g'lim. U bu kun ikkinchi bor Ali Qushchini «o'g'lim» dedi. — Faqir ham rozimen, ustod, toabad rozimen...

Ustod bilan shogird, ko'z yoshidan tillari lol, qattiq quchoqlashganlaricha jimgina qotib qoldilar.

4

Mirzo Ulug'bek Ali Qushchini pastki oshyonagacha kuzatib qo'yib, ovchilik o'ljalari bilan bezatilgan xonaga qaytib kirdi. Bu muazzam saroydagi son-sanoqsiz xonalar orasida Mirzo Ulug'bek shu keng osuda xonani ko'proq xushlar edi. Salomxonada o'tirib charchaganida, saltanat ishlari ko'ngliga tekkanida aksariyat shu xonada o'tirib hordiq chiqarar, mutolaa va mushohada lazzatini surar edi.

Xonaning to'ridagi xontaxtada kumush barkashlarga solingan kabob va patirlar, nozik munaqqash piyolalarga quyilgan boda qanday bo'lsa, shunday turardi.

Mirzo Ulug'bek kursiga o'tirib, bir ho'plam sharob istagida piyolani qo'liga oldi, lekin shu payt marmar zinalarda gurs-gurs oyoq tovushlarini eshitib, piyolani joyiga qo'ydi. Xonaga tund yuzlik saroybon kirib, bosh egdi.

— Bobo Husayn Bahodir...

— Qani? Ayt, kirsin!..

Mirzo Ulug‘bek so‘zini tugatmagan ham ediki, ostonada kecha Keshga chopar qilib yuborilgan suyuqli navkari Bobo Husayn Bahodir ko‘rindi.

Novcha, xushqomat, xushsurat Husayn Bahodir qo‘l qo‘vush-tirganicha poygakka tizza bukdi. Boshidagi uchlik dubulg‘asi ostidan oqqan shig‘-shig‘ ter tomchilari yuzini yuvib, qop-qora soqol-mo‘ylovlariga tomchilar, mis sovut tagiga yashiringan keng ko‘kraklari temirchining bosqoniday ko‘tarilib-tushib turardi. Mirzo Ulug‘bek rangi o‘chib o‘midan turdi.

— Nechuk gungday qotib qolding? So‘zla!

— A‘lohazratlari afv etsinlar. Siz shahriyori falakiqitdorni xushnud qiladurg‘on xabar keltirmadim...

— So‘zla! — baqirib yubordi Mirzo Ulug‘bek.

— Kesh qo‘ldan ketgani aniqdur, valine‘mat! Qal‘a dorug‘asi Amir Kamoliddin Kesh kalitini shahzodaga qarshiliksiz qo‘sh-qo‘llab topshiribdur!

— Amir Arslon qaydadur!

— Amir Arslon o‘z lashkari bilan dovonda turibdur...

Mirzo Ulug‘bek qo‘llarini orqasiga qilganicha xonani bir aylanib chiqdi. Uning ko‘zlari qisilib, burun kataklari pirpiray boshlagan, jag‘ paylari turtib chiqqan qoramtir yuzida, butun vajohatida shafqatsiz bir ifoda paydo bo‘lgan edi. Sukut cho‘zilib ketgach, saroybon Husayn Bahodirni sekin turti. Husayn Bahodir tomoq qirib:

— Siz hazratimning farmonlariga tayyormen, — dedi.

Mirzo Ulug‘bek boshini ko‘tarib, uyqusizlikdan qizargan ko‘zlari bilan navkariga qaradi, lekin navkarini ko‘rmadi, xayoli boshqa yoqlarda kezib yurardi.

— Ne deding? Ha! Subhidam lashkar tortib yo‘lga chiqamiz. Ot-anjomlar shay bo‘lsin!

— Farmoni humoyun amri vojibdur, onhazratim. Va lekin bir arzim bor...

— So‘zla.

— Arzim shuki, cherik¹ yig‘sak.

— Cherik?

— Fuqaro sizga sodiqdur, valine‘mat! Ijzat etsangiz besh-o‘n ming cherik yig‘ar edik.

Mirzo Ulug‘bek soqolini tutamlab uzoq o‘tirdi, keyin ohista bosh chayqab:

— Yo‘q, — dedi. — Lashkar bas kelmagan joyda cherik ne qiladi? Bor, damingni ol, Bobo Husayn...

Saroybon bilan Bobo Husayn Bahodir orqalari bilan yurib chiqib ketishdi. Mirzo Ulug‘bek sharob to‘la piyolani qo‘liga olib, bir ko‘tarishda sipqarib tashladi... Hayhot, uning so‘nggi umidi ham chil-chil sindi. U shahzoda Abdullatifning katta qo‘shin bilan Jayhundan o‘tib, Keshga yaqinlashayotganini bilsa-da, bu mustahkam qal‘a unga jang-jadalsiz taslim bo‘lishini kutmagan edi. U Amir Kamoliddinga ishonar, uning qal‘a kalitini shahzodaga qarshiliksiz topshirishini sira kutmagan, chunki uni o‘zining eng sodiq amirlaridan biri deb o‘ylardi!.. Bas, Amir Kamoliddinki sotqinlik qilgan ekan, endilikda kimga inonmoq, kimga suyanmoq darkor? Esiga beixtiyor bobosining bir gapi tushdi.

Amir Temur Hirotda, «Bog‘i jahonda» Shohruh Mirzo bilan suhbatlashib o‘tirib, o‘g‘lining qaysi bir amirning sodiqligi to‘g‘ri-sida aytgan gapiga zaharxanda bilan kulgan edi:

«Bu amirlarga inonma, o‘g‘lim! Ularni sodiq bo‘lsin desang, qilichingni ilgingda² mahkam ushla!»

Darhaqiqat, mana, salkam qirq yil Movarounnahrda saltanatli shoh bo‘ldi. Muruvvatli fuqaroparvar podshoh bo‘lishga urindi, butun iqtidori va salohiyatini shu davlat, shu el osoyishtaligiga sarf qildi, ammo bukun boshi nadomatda qolganda... dardini aytadigan na bir habibi, na bir tabibi bor!.. Taqdirning qanday o‘yini ekankim, uning boshi malomatdan chiqmay qoldi. Yo... al qasosil minalhaq! Bobosi Amir Temurning qonli qilmishlari

¹ *Cherik* — ko‘ngillilar ma‘nosida.

² *Ilik* — qo‘l.

uchun taqdir undan o'ch olmoqdamu? Yo shafqatsiz Xuroson yurishida uning ixtiyoriga qarshi to'kilgan qon uchun haq taolu uni o'z mehri shafolatidan mosuvo qildimu?

Buni o'ylashi bilan otasi Shohruh Mirzo vafotidan keyin Hirotga borganida ro'y bergan bir voqea esiga tushib, vujud-vujudigacha jimirlab ketdi.

Juma kuni edi. Mirzo Ulug'bek Hirotga kirishi munosabati bilan barcha din peshvolari, arkoni harb va arkoni davlatlar masjidi jomega yig'ilgan edi. Mirzo Ulug'bek Hirotning a'yon va boyonlari qurshovida Madrasai Shohruhiyadan chiqib, qiblagohi qurdirgan qalandarlar xonaqosidan o'tayotganida soch-soqoli o'sib ketgan, majnunsifat bir darvesh paydo bo'ldi-yu, xuddi zikr tushayotganday g'alati harakatlar qilib, bejo ko'zlarini o'ynatib, uning yo'lini to'sdi.

Oldinda borayotgan suvoriylar darveshning ustiga ot soldirib, uni yo'ldan haydashga urinishdi. Lekin Mirzo Ulug'bek imo bilan ularni chetlatib, darveshning arzini eshitishga moyillik bildirdi. Shunda telba darvesh juldur jandasiga osilgan qo'ng'iroqchalarini jaranglatib, g'alati qiyshanglaganicha Mirzo Ulug'bekning oldiga keldi. U og'zi ko'pirib, zikr orasida allanimalarni gapirar edi. Darvesh g'udurlab gapirgani uchunmi, Mirzo Ulug'bek uning so'zlariga arang tushundi.

Telba devona uning sarkardalari Hirot tevaragidagi qishloqlarnigina emas, hatto yo'qsillar va gadolar xonaqohlarini ham talon-toroj qilganidan so'zlar, bu ish uchun Olloning qahriga duchor bo'lishini bashorat qilardi... Mirzo Ulug'bek o'zini eshitib-eshitmaganlikka olib, jadallab o'tib ketdi. Lekin o'shandan beri telba darveshning mudhish bashorati esidan chiqmaydi. Mana hozir ham o'sha manzara yodiga tushib, etlari jimirlab ketdi...

Ha! Bu mash'um Xuroson yurishi uning boshiga ko'p savdolar soldi. Boshda uni bu yurishga da'vat etgan amirlar esa zafariyatsiz urushdan keyin undan yuz o'girib, zimdan choh qazish payiga tushdilar. Lekin ne chora? Otasi Shohruh Mirzo vafotidan so'ng - pokiza ruhi ravzai rizvonda masrur bo'lg'ay! Volidai mehriboni

Gavharshod begimning kirdikorlari tufayli Hirot saroyida nizo-
nifoq avj olib, beqiyos saltanat xavf ostida qoldi!

Mirzo Ulug‘bek ko‘zini yumib, boshini sekin chayqadi. U
validai mehriboniga nisbatan ko‘nglida iliq bir tuyg‘u uyg‘otishga
harakat qildi. Lekin ko‘z oldiga uzun bo‘yli, ko‘k ipakdan keng
ko‘ylak kiyib, boshiga ko‘k ro‘mol o‘ragan, qo‘lidan tasbehi
tushmaydigan kalondimog‘ bir xotin keldi. U qosh-ko‘zlari qop-
qora, qiyg‘ir burun, xushsurat xotin bo‘lsa ham, farishtasi yo‘q,
chehrasi sovuq ayol edi. Bobosi Amir Temur Ko‘ragoniy shahodat
sharobini ichgandan beri Gavharshod begim bu kiyimni, ko‘k
ipak ko‘ylagi bilan ko‘k ro‘molini tashlamas, go‘yo sohibqiron
uchun to o‘lguncha motam tutgan, shu bilan bu dunyo ishlaridan
qo‘l yuvib, u dunyo g‘amiga o‘tgan edi. Hayhot! Amir Temur
Ollo rahmatiga yo‘l tutib, Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o‘tiribdi
hamki, Gavharshod begim toj-u taxtni o‘z qo‘liga oldi. Saroyni
johil gumrohlar ila Xoqoni Saidni ko‘rolmaydigan badxohlarga
to‘ldirib yubordi. Hirot fisqi fujur uyasiga aylandi. Shohruh Mirzoni
chalg‘itib, sayidlarni qatl qildirgan, shahzodalar orasiga nizo
tushirgan, suyakli nabirasi Alouddavla bilan Abdullatifni bir-
biriga qayrab solib qatlu qirg‘in chiqargan ham, evoh, shu validai
mehriboni Gavharshod begim bo‘ldi!.. Bu fitna-yu xunxorliklardan
ish chiqmagach, o‘z o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekka «shohi sharir»
degan nom taqib, shahzoda Abdullatifni qayrab soldi. Shahzoda
esa... Naqshbandiylar jamoasining rahnamosi janob Nizomiddin
Xomush yanglig‘ din peshvolarining domiga ilinib qoldi. O,
xurofot botqog‘iga botib qolgan bu johil ulamolar! Ilgari, Mirzo
Ulug‘bek taxtda muqim o‘tirgan mahalda ular tishlarini tishlariga
qo‘yib bo‘lsa ham chidab yurishgan edi. Lekin Mirzo Ulug‘bek
Xuroson yurishidan mag‘lub qaytdi hamki, darhol bosh ko‘tarib
chiqishdi. Mirzo Ulug‘bek inongan lashkarboshilar esa... Yuksak
rutba, shon-shavkat va zeb-ziyatga o‘ch bu amir-u umaro esa...
faqat taxt sohibi kuchda turgan mahaldayoq qo‘l qovushtirib
turadi. Saltanat sal tebransa, darhol Shohi sharir—buzuq shoh
o‘giradi. Kimningki qilichi o‘tkir—ular shunga xizmat qiladi!

Ha, Xuroson yurishidan ko'p boylik, yuksak rutba va shon-shavkat kutgan sarkardalarning hamma umidlari puchga chiqdi. Ne chora, bu og'ir yurish zafar keltirmadi. Keyinchalik, Mirzo Ulug'bek o'z o'g'li Abdullatifga qarshi ko'shin tortib, Jayhun bo'ylariga otlanganida esa Samarqandda qolgan shahzoda Abdul'aziz ko'p nomaqbul ishlar qilib, bir qancha nufuzli amirlarni unga qarshi qo'ydi, urushdan charchagan fuqaro ham undan sovidi. Oqibat, mana, qirq yillik mehnati xavf ostida turibdi!..

Mirzo Ulug'bek bu o'ylardan boshi g'ovlab, peshanasini ishqaladi, yana bir piyola sharob ichdi, lekin uni o'z qa'riga tortgan tug'yonli o'ylar girdobidan chiqolmadi.

U shogirdi Ali Qushchining ming chandon haq ekanini dil-dilidan his etar, ayni zamonda uning boyagi gaplari qayta-qayta esiga tushib, yuragini o'rtar edi. Axir nahot uning shuncha xizmatlari, ilmi ma'rifat yo'lida chekkan zahmatlari, sarf etgan boyliklari, fuqaro uchun qurdirgan hammom-u qazdirgan ariqlari, nahot buning hammasi inobatga o'tmasa? Nahot bo'lg'usi nasllar uni boshqa shoh va boshqa fotihlardan farq etmasa? Ali Qushchi o'ylaydiki, Mirzo Ulug'bek saltanat talashmasdan toj-u taxtni shahzodalarga berib, ilmu idrok yo'liga o'tsa bas, shahzodalar uni o'z holiga qo'yadilar, suyakli ishing bilan shug'ullan deb, rasadxona va madrasalarning darvozalarini ochib beradilar. Hayhot! Agarchi foniy olam yumushlari Ali Qushchi o'ylaganday oson bo'lganida Mirzo Ulug'bek bu bevafo hokimiyatni allaqachonlar tark etib, o'zini suyakli ishiga bag'ishlamas erdimi? Boshidagi toj, tagidagi taxt ilmi funun uchun darkor ekanini tushunmaganida, bu sovuq koshonani, gunohi azimga botib qolgan bu haram, shon-shuhrat va mansab ishqida hech bir razolatdan toymagan bu amirlar, sarkor-u saroybonlar, xurofot va taassub botqog'iga botgan din peshvolaridan yuz o'girib, suyakli talabalari orasiga, ma'rifat dargohiga ketmas erdimi? Lekin ne chora? Bu manhus toj-u taxt, bu saltanat, insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim inonadi? Kim uning samimiyatligiga, o'z ixtiyori bilan saltanatdan qo'l

yuvganiga inonib, tinch qo'yadi? Agar unga inonsalar, inonib ilm-u idrok bilan bamaylixotir shug'ullanishga qo'yib bersalar, u hozir ham vafosiz hokimiyat, bu toj-u taxtdan bajon-u dil voz kechar erdi...

MUZQAYMOQ

Hikoya

O'sha oilamiz boshiga og'ir kulfat tushgan kuni, men, o'n yashar bola, nimadandir ko'nglim g'ash, uyimiz ro'parasidagi paxsa devorga chiqib, o'zimcha go'yo otga minib o'tirardim.

U mahalda biz Turkiston shahrining eng so'lim joylaridan biri — Lager ko'chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o'sha zamon imkoniyatiga ko'ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo'lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmashoq o'ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida «jon saqlardik».

Oilamiz boshiga musibat tushgan o'sha mash'um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to'rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo'ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa, sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu'lasiga solib, tomosha qilib o'tirishni yoqtirardim.

Bu suratlar ham juda g'alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to'pponcha taqib olgan harbiy, ba'zilari esa ot o'ynatgan, qizil alvon ko'tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo'lsa ham, negadir barchasining ko'zlari o'yib olingan yoki yuzlariga ko'k siyoh tortilgan edi. Nega shunday? Men bu sir-asromning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so'rashga esa yuragim dov bermas, sababi, dadamlar

qahri qattiq odam edi, «bu kitoblarni senga kim ko‘rsatdi» deb dashnom berishlari mumkin edi.

O‘sha qora kun ham, nimadandir ko‘nglim notinch, kitob titish esimga tushib tomga chiqdim. Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko‘chaning boshida qo‘sh ot qo‘shilgan chiroyli foytunga ko‘zim tushdi. Sal o‘tmay, foytun darvozamiz ro‘parasiga kelib to‘xtadi. Undan o‘sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo‘lgan yashil rang galife shim va gimnastyorka kiygan o‘rta yashar ikki kishi bilan qizil ko‘ylakli, ko‘zlari qiyg‘och bir ayol tushdi. Erkaklardan biri tomda meni ko‘rib qolib:

— Egamberdi Jaqipovning uyi shulma? — deb so‘radi.

— Shu, — dedim men. Shu payt hovlidan chiqqan oyimlarning:

— Kelinglar, mehmonlar, xush kelibsizlar, — degan ovozi eshitildi. Men boloxona ustunidan sirpanib, yerga sakrab tushdim. Mehmonlar ichkariga kirishgan, oyimlar allaqanday hayajonda edilar.

— Dadangning mahkamasiga chop! — dedilar oyimlar negadir shivirlab. — Ayt: SAKUda birga o‘qishgan og‘aynilaringiz kelishdi, de! Kutib o‘tirishibdi, tezroq kelar ekansiz, de! Ha aytmoqchi, biryo‘la maktabga borib, opang bilan pochchangga ham ayt, tezroq kelishsin. Dasturxon-pasturxonga qarashib yuborishsin!

Men negadir, aftidan «mehmon» so‘zidan ko‘nglim yorishib, ikki oyog‘imni qo‘limga olib chop ketdim. Garchi pochcham bilan katta opamlar o‘qituvchilik qiladigan maktab dadamlar ishlaydigan mahkamadan xiyla narida bo‘lsa-da, avval o‘sha tomonga o‘tib, oyimlarning gapini opamlarga aytdim, so‘ng, hamon ikki oyog‘im qo‘limda, yalangoyoq, yalangbosh, ko‘cha changitib dadamlarning mahkamasiga qarab chopdim.

Dadamlar bir mahallar Qozog‘iston Xalq komissarlari kengashi qoshida tuzilgan mayda millatlar (asosan o‘zbeklar) xalq komissari lavozimida ishlagan. SAKUni tugatganlaridan keyin esa hozirgi Chimkent viloyatining Sayram rayonida birinchi kotib, keyinroq esa Qozog‘iston temir yo‘li Siyosiy boshqarmasi boshlig‘ining

birinchi o‘rinbosari vazifalarida xizmat qilganlar. Lekin keyingi yillar «Otang so‘fi bo‘lgan, sen buni yashirgansan», — degan aybnoma bilan pastga surila-surila, yumalay-yumalay oxir-pirovardida Turkiston tumani moliya bo‘limiga mudir etib tayinlangan edilar.

Rahmatli buvamlar Yoqub (jonlari jannatda bo‘lg‘ay!) haqiqatan Qarnoq qishlog‘ining eng katta masjidida to inqilobgacha so‘filik qilgandilar. Odamlarning aytishicha, u kishining ovozlari shu darajada zo‘r bo‘lgan emishki, har subhidam masjid mezasasiga chiqib azon aytganlarida nafaqat o‘n ming kishilik Qarnoq ahli, balki o‘ttiz chaqirim naridagi Turkiston namozxonlari ham eshitgan emishlar. Shu boisdan Qarnoq ahli buvamlarning ismlariga shayx so‘zini qo‘shib, Yoqub shayx deb ataganlar... Lekin o‘n oltinchi yilgi qattiq qurg‘oqchilikda bobomiz Yoqub shayx og‘ir ahvolga tushganlar. Shu bois otamiz oilasini boqa olmay, bir-ikki qo‘y, bir-ikki qop g‘alla evaziga bir boyning o‘g‘li o‘rniga mardikorlikka ketganlar-u, uyoqdan bolshevoy bo‘lib qaytganlar. Shu-shu, otabola biri — shayx, biri — bolshevoy, qip-qizil sinfiy dushmanga aylanganlar.

Dadamlarning mahkamasi ulkan savdogar qurgan va endilikda partiya qo‘mitasi joylashgan ko‘rkam binoning shundoq biqiniga joylashgan edi. Men borganimda dadamlar ham idoradan chiqqan ekanlar. Meni uzoqdan ko‘rib darvoza oldida to‘xtadilar. Dadamlar to‘ladan kelgan, novcha, qirraburun, o‘sha davrda rasm bo‘lgan to‘mtoq mo‘ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi hozir xotiramda yo‘q, agar yanglishmasam o‘sha mahalda Stalinga taqlidan kiyiladigan ko‘krak cho‘ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o‘sha zamonlarda rasm bo‘lgan g‘arch-g‘urch xrom etik.

Rahmatlik dadamlar, uyqusizlikdanmi, boshqami — ko‘zlari qizargan, allaqanday horg‘in ko‘rindilar menga. U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari sal yorishib:

— Yur, bolam! — dedilar boshimni silab. — Senga bitta muzqaymoq oberay!

Boya aytganimdek, dadamlar diydasi qattiqroq, o'ktam, kamgap odam edilar. O'sha kungacha men u kishining biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim. Aksincha, hanuz esimdan chiqmaydi: dadamlar ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala oxir pirovardida qishloqqa qaytib, uyda ko'kragini zaxga berib yotgan paytlar. Bir kun oyimlar qo'limga pul va ikki-uch litrli grafin (dadamlar katta lavozimlarda ishlagan mahalda orttirgan nodir matoh) tutqazib:

— Do'konga kirib qimiz olib chiq, dadang aytdilar! — dedilar.

Do'konga kirsam qimiz tugagan ekan. Men parvoyifalak, qo'limdagi grafinni o'ynatib uyga qaytdim. Yo'lim yog'och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozoridan o'tardi. To'satdan nimadir «shaq» etdi. Qarasam, qo'limdagi grafin temir qoziqlardan biriga tegib, tangaday joyi o'pirilib tushibdi. Yuragim orqamga tortib ketdi. Uyga qaytishga jur'at qilolmay anchagacha bog'imiz poyidagi soy bo'yida aylanib yurdim. Nihoyat, yuragimni hovuchlab uyga kirib bordim. Oyimlar meni ko'rib:

— Qayoqlarda daydib yuribsan, bevosh? Dadang sho'rlik kutaverib diqqinafas bo'p ketdilar-ku! — deb koyidilar so'ng grafindagi teshikka ko'zlari tushib, qo'limdan ushlagancha ichkariga sudradilar.

Dadamlar ulkan, chorxari uyimizning to'rida kitob varaqlab, yonboshlab yotardilar...

— Do'konda qimiz yo'q ekan, bu ham yetmagandek, o'g'lingiz grafinni sindirib qo'yibdi... — Oyimlar shunday deb grafinni dadamlarning oldidagi xontaxtaga qo'yidilar.

Keyinchalik oyimlar bu ishlaridan pushaymon bo'lib ko'p gapirganlar: «Nega shunday qilganimni o'zim ham bilmayman, bolam, dadanglarning nochor ahvoli hammamizni ezib qo'ygan edi», deguvchi edilar, rahmatlik.

Dadamlar shitob bilan qadlarini rostdadilar-u xontaxtadagi grafinni olib, menga qarab otdilar. Zarb bilan otilgan grafin

shundoq qulog‘im tagidan o‘tib (chamasi, jonholatda boshimni olib qochgan bo‘lsam kerak!) devorga tegib chil-chil sindi.

Men tura qochdim, qocharkanman, oyimlarning:

— Qimiz ham o‘lsin! Qimiz deb bolamni o‘ldirmoqchimisiz, adasi? — degan achchiq faryodini eshitdim.

Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo‘lganlar. Kim bilsin, ehtimol boshiga og‘ir musibat tushishini sezib yurgani uchundir, ehtimol bir mahal dilimga ozor bergani esiga tushib, uni ko‘nglimdan chiqarmoqchi bo‘lgandir, har qalay, umrimda birinchi bor boshimni silab, muzqaymoq oberishga ahd qildilar.

Ko‘chaning narigi yuzida shahar bog‘i bo‘lar, bog‘ oldidagi maydonchada har xil suv, meva sharbatlari, muzqaymoq sotiladigan mitti-mitti do‘konchalar bo‘lardi. Borsak, do‘konlar yopilgan ekan. Dadamlar astoydil ranjidilar.

— Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim, bu ham nasib qilmadi-yov, bolam! — dedilar u kishi allaqanday chuqur o‘kinch bilan.

Uyga borganimizda chiroqlar yongan, hovlidagi o‘choqqa qozon osilgan, bizdan avval yetib kelgan katta opamlar bilan oyimlar o‘choq atrofida kuymalanib yurishar, pochchamlar ko‘rinmas edilar.

Dadamlar ichkariga kirib ketdilar-u darhol qaytib chiqdilar. Chehralari ochilgan, kayflari chog‘ edi.

— SAKUda birga o‘qigan eski qadrdonlarim kelishipti. Qalay, tuzukroq go‘sht-po‘shtlaring bormi, Gulshan? — dedilar dadamlar oyimlarga qarab. — Bor bisotingni dasturxonga to‘kasan bugun...

Marhum validamizda jindak shaddodlik bo‘lardi.

— Siz qozon-o‘choq atrofida aylanavermay ichkariga kirib mehmonlaringizga qarayvering! — dedilar shartta kesib.

Dadamlar oyimlarning bu sal yasama qo‘rsiligiga kulimsirab, ichkariga kirib ketdilar.

Hovlimizda, shundoq o‘choq yonida bir tup gujum o‘sar, gujum tagida chuqur quduq bo‘lar, issiq yoz va iliq kuz kunlari go‘shtni shu quduqda asrardik.

Oyimlar menga quduqdan go'sht olib ber, — dedilar. Men quduq chang'irog'ining dastasini aylantirib, go'sht osilgan chankni torta boshladim-u, to'satdan ko'chadan kirib kelgan ikki harbiyga ko'zim tushib, negadir yuragim orqamga tortib ketdi. Ular o'choq atrofida kuymalanib yurgan oyimlar bilan opamlarga bir qarab qo'ydilar-da, etiklari bilan yerni tap-tap bosib ayvonga chiqishdi. Ayvondan uyga kirishdi. Harbiylarni ko'rishlari bilanoq turgan joylarida tosh qotib qolgan oyimlar bilan opamlar birdan dod solishib, uyga qarab yugurishdi. Quduq chang'irog'ini beixtiyor qo'yib yuborib men ham ketlaridan chopdim.

Men o'sha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima bo'layotganidan bexabar edim, albatta, shu bois oyimlar bilan opamlarning harbiylarni ko'rishlari bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlari sababini anglamadim. Ammo ular mudhish maqsad bilan kelishganini aql bilan bo'lmasa-da, yurak bilan his etgandim. Keyin bilsam, o'sha davrda hamma joyda bo'lganidek, Turkistonda ham har kuni, har daqiqada ko'plab odamlar hibsga olingan ekan. Oyimlar va opamlar bundan boxabar bo'lganlari uchun ham harbiylarni ko'rib dod solishgan ekan. Eshikdan kirishim bilan harbiylardan biri — novchadan kelgan, malla sochlarining uchlari qoshlariga nafis egilib tushgan xushsurat o'ris kapitan polni g'arch-g'urch bosib, eshikka keldi-da, uning ilmog'ini solib:

— Tintuv tugaguncha endi hech kim uyga kirmaydiyam, chiqmaydiyam! — dedi yurakka g'ulg'ula soluvchi bir qat'iyat bilan.

Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o'рта eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo'yniga osilib yig'lamoqda, oyimlar ham dadamlarning yelkasiga suyanib, unsiz titramoqda, kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tiqilishib, xuddi kalxatlardan qo'rqqan jo'jalarday, ko'zlari ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi.

Ikki tavaqali o'рта eshik ochiq, ichkari xonaning to'rida SAKUda dadamlar bilan birga o'qigan mehmonlar, ranglarida rang yo'q, tippa-tik serrayib turishardi. Ikkinchi harbiy esa ichkari

uydagi katta qizil shkafga terilgan kitob va albomlarni bitta-bitta koʻzdan oʻtkazmoqda edi.

Kitoblarning deyarli hammasi qizil jildli Lenin asarlari edi. Tintuv boshlagan harbiy Lenin asarlariga tegmas, qalin, sersurat albomlarni esa varaqlab koʻrib, bepisand yerga tashlar edi. Hanuz esimda: bu albomlar ham xuddi boloxonadagi kitoblar kabi, allaqanday rahbarlarning suratlariga toʻla boʻlib, ularning ham aksari allaqachon qamalmani uchun (buni men keyin bildim, albatta) yuzlariga koʻk siyoh chaplangan, koʻzlari oʻyib olingan, baʼzi suratlarining kallalari «kesib» tashlangan edi. Bepisand harbiy (agar yanglishmasam, u ham kapitan edi) albomlarni koʻzdan kechirarkan, dam ulardagi koʻzlari oʻyilgan, boshlari «kesilgan» suratlariga, dam dadamlarga qarab:

— Koʻrinib turibdi, ja gʻoyaviy ekanlar! — derdi miyigʻida kulimsirab.

Xushsurat mallosoch kapitan esa tashqi xonadagi qutilar, sandiq va sandiqchalar, shkaflarning tortmalarini ochib, ulardagi buyumlarni titkilar, latta-puttalar orasidan allanimalarni qidirar edi. Navbatdagi shkafga kelganda harbiy urinmasin, uning pastki tortmalarini ocholmadi. Uyda birorta sandiq, yo shkaf yoʻq ediki, men uni ocholmasam. Kapitanning qiynalayotganini koʻrib, men qoʻlimga mix oldim-u pildirab borib shkafning tortmasini shartga ochib berdim. Kapitan chehrasi yorishib kuldi-da:

— Malades! — dedi boshimni silab. — Kelgusida zoʻr odam chiqadi sendan!

Kapitanning bu kutilmagan maqtovidan yuragim «jiz» etdi. Keyinchalik, katta boʻlganimda, men uydagi dod-faryodga qaramasdan otamni qamashga kelgan jallodning maqtovidan bir zungina boʻlsa-da, yayrab ketganimni har eslaganimda bir oʻzimdani ijirgʻanib yurdim. Ammo oʻsha daqiqada, afsusnadamatlar boʻlsinkim, uning soʻzlaridan gʻururlanib ketganim ham haqiqat, mudhish haqiqat!

Shu payt dadamlarning:

— Suv! — degan ovozlari eshitildi. — Bir piyola quduq suvi beringlar, yuragim kuyib ketyapti!

Uyda suv yo‘q ekan. Opam yig‘idan to‘xtab:

— O‘rtoq kapitan! — dedilar hiqillab. — Ruxsat bering, ukam quduqdan suv olib kirsin!

Kapitan shkaf tortmasidan boshini ko‘tarib:

— Agar dod-voyingni qo‘ysang — ruxsat beraman! — dedi va kuldi: — Shunday chiroyli qiz ham bunaqa yig‘loqi bo‘ladimi?

Kapitanning opamlarga qilayotgan soxta xushomadi yoqmadi. Lekin nima ham qilardim? Chelakni olib tashqariga otildim. Hovlidagi chiroq o‘chgan, ayvondan uzoqroqda, quduq yonidagi gujum panasida kimdir qoqqan qoziqdek qaqqayib turardi. Bu — pochchamlar edi. U lom-mim demasdan qo‘lidagi chaqaloqni menga tutqazib, quduqdan yarim chelak suv olib berdi-da, sharpasiz odimlab hovlining qorong‘i burchagiga qarab ketdi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko‘p aytguchi edilar:

— O‘sha kuni pochchangni xudo o‘zi asradi! Agar pochchang opang bilan birga kelganida, kim bilsin, uni ham birga o‘pketisharmidi bu toshbag‘irlar?

Oyimlarning bu gapida jon bor edi, chunki tintuv tugab, dadamlarni olib ketayotganlarida harbiylar SAKUchi sho‘rlik mehmonlarga Turkistondan ketishdan avval NKVDga borib, ruxsat olishlari shart ekanini uqtirishib, qo‘llaridan tilxat olishdi.

Men yarim chelak suvni ko‘tarib, ichkariga kirganimda, dadamlar stulda o‘tirib, oyoqlari tagida hamon dod solib yig‘layotgan katta opamlar bilan oyimlarni tinchitishga urinardilar. Azaldan qoramag‘iz odam, dadamlar bir zumdayoq bamisoli olovda qolgan archadek qorayib ketgandilar. Oyimlar tokchadan kosa olib berdilar. Dadamlar bir kosa muzday quduq suvini bitta sipqorib:

— Qo‘y, yig‘lama, qizim, yig‘lama, Gulshan! — dedilar og‘ir hansirab. — Hukumat oldida tariqcha gunohim yo‘q! O‘rtoq Stalin tirik ekan, bu tuhmatlardan qutqarib oladi hali!

Dadamlar quduq suvini kosalab sipqorar edilar-u shu bitta gapni qayta-qayta takrorlardilar:

— Hukumat oldida begunohman, Gulshan! O‘rtoq Stalin barhayot ekan, bizni bularning oyog‘i ostiga tashlab qo‘ymaydi!

Men hozir, shaxsga sig‘inish davrining mudhish kirdikorlari, mudhish inqilob dohiylari, ayniqsa, Stalin hukmronligi davrida yuz bergan shafqatsiz qatl-u qirg‘inlar, million-million begunoh kishilarning boshiga tushgan g‘urbatlar, ota boladan, bola otadan ayrilib, odamlarning ko‘z yoshi daryo bo‘lib oqqan o‘sha zimiston yillar haqida o‘ylaganimda, dadamlarning Stalin to‘g‘risida gaplarini eslab, hayron bo‘laman. «Nahot otam bu qirg‘inbarotni ko‘rmagan-sezmagan bo‘lsalar, nahot Stalin bu jabr-u sitamlardan bexabar edi, degan sodda, bemantiq so‘zlarga ishongan bo‘lsalar?»», degan fikr bot-bot ko‘nglimdan o‘tadi.

Lekin unday desam... o‘sha davrda hukm surgan inqilob chavandozlari orasida mash‘um Inqilobning soxta otashin chaqiriqlar, jo‘shqin qo‘shiqalar, alvonlari, «dohiy»ning alangali nutqlariga astoydil ishongan, bo‘layotgan qatl-u qirg‘inlarning hammasi insoniyat baxti uchun qilinyapti, degan mudhish yolg‘onga uchgan soddadil, oqko‘ngil odamlar oz bo‘lganmi?

Albatta, yurakni zirqiratuvcchi bu o‘ylar mening xayolimga ko‘p yillardan keyin o‘sha davrlardagi dahshatli voqealar fosh qilinib, ko‘zimiz ochilganda keldi. U mahalda esa...

Bilmadim, tintuv qancha davom etdi. Lekin dadamlar quduq suvini sipqora-sipqora, «O‘rtoq Stalin sodiq farzandlarini xor-zor qilib qo‘ymaydi», degan gapni takrorlay-takrorlay yarim chelak suvni ichib tugatganlari hanuz esimda.

Men keyinchalik bu gapni aytsam ko‘plar ishonmay:

— Qo‘ying-e, odam bolasi yarim chelak suvni icha oladimi?
— deguvchilar ham bo‘ldi, ammo men, o‘n-o‘n bir yashar bola, buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman, dadamlarning o‘sha so‘zlarini o‘z qulog‘im bilan eshitganman! Ichi yonib ketayotgan odam yarim chelak u yoqda tursin, bir chelak suvni ham ichadi!

Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar.

Oyimlar bilan opamlarning nolasi ko'kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. Oyimlar dadamlarning yelkasiga paltosini ildilar. SAKUni bitirgan sho'rlik mehmonlarga tuzalgan dasturxonadan ilingan narsani ro'molga tugib, qo'llariga tutqizdilar.

Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval hamon faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so'ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshanalaridan o'pdilar-u, navbat menga kelganda:

— «Hay, attang! — dedilar to'satdan ko'zlariga yosh olib.
— Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'luvdim. Shuniyam eplayolmadim-ov, bolam!..

Butun tintuv davomida ko'zimga yosh olmagan, «kelgusida zo'r odam bo'lasan», degan so'zlardan shishib ketgan norasida, birdan hamma narsa — dadamlarning hech qachon erkalamaganini ham, do'kondan qimiz topolmay qayganimda grafinni quloch-kashlab otganlari ham — hammasi esimdan chiqdi-yu alamli chinqiriq bilan dadamlarning tizzalarini quchoqlab oldim...



...Bir necha oy o'tdi. Bu orada xonadonimiz motamsaro bir makonga aylandi. Qish yaqinlashib qolgan, kun sayin uning qahrli nafasi kuchayib borar, uyda esa na o'tin bor, na ko'mir!.. Biz tancha qurib, bir amallab kun kechiramiz.

Haftada bir marta, yanglishmasam, shanba kunlari dadamga ovqat olishadi. Oyimlar bir amallab topgan-tutganlarini pishiradilar-u tong mahal u kishi bilan birga avaxtaga ravona bo'lamiz.

Turkistonda Qul Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O'rta Osiyoni zabt etgan general Chernyayev qurdirgan besh-oltita mustahkam g'ishtin binolar bo'lardi. Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan. Sho'ro hokimiyati esa ularni qamoqxonaga aylantirgan-u atrofini tikanli sim bilan o'rab tashlagan.

Har shanba tikanli sim bilan chegaralangan bu qal'a ro'parasiga kamida 150—200 ayol, chol-kampirlar yig'ilishadi, bular «xalq

dushmanlari»ning oila a'zolari. Yosh-yosh juvonlar qaqshab-qaltirab qolgan keksalar hibsxona xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydirab turishadi. Oyimlar qamoqxonaga gohida meni ham yetaklab borishlariga sabab — mabodo dadamlar bilan yuz ko'rishish nasib etsa, otamlar meni ko'rib qolsinlar degan niyatda edilar. Lekin dadamlarni biror marta ko'rsatishmadi, ko'rsatishmaganlari ham mayli, bot-bot olib borgan ovqatlarimizni qabul qilmasdan qaytarib yuborishardi. Goho men bir necha soat mahtal bo'lib kutganimdan keyin biror bahonani ro'kach qilib, hibsxonaning shundoq yonginasidagi shahar bog'iga qarab chopardim. U yerda xudoning kuni borki, miting bo'lar, shahar maktablaridan nog'oralar gumburi va karnay-surnaylar sadosi ostida bolalar saf tortib boqqa kelishardi. Bog' o'rtasiga qizil alvon bilan o'ralgan ulkan minbar o'rnatilgan bo'lib, charm palto kiygan, to'pponcha taqqan faollar unga chiqib va'z aytishar, va'zlarning aksariyati trotskiychilar¹ va ularning «dum»larini fosh qilishga bag'ishlanardi. Bu va'zxonliklarning dahshatli tomoni shunda ediki, bugun Trotskiyning «dum»larini fosh etib, otashin nutq so'zlagan notiqqlarning aksari ertasiga o'zlari «dum»ga aylanib, fosh etilganlar ro'yxatiga tushib qolishardi.

Meni bu mitinglarga borishga nima chorlaganini hanuz tushunolmayman. Aftidan, karnay-surnay va nog'oralar sadosi saf tortib o'tadigan tengdoshlarimning quvnoq va jo'shqin qo'shiqlari bo'lsa, ajab emas. Chunki bu gumbur-gumbur sadolar, otashin qo'shiqlar qulog'imga chalinishi bilan xuddi nog'oraga o'rgangan harbiy otday oyoqlarim o'z-o'zidan raqsga tushib, yuragim hapriqib ketaverardi. Faqat bir narsa murg'ak qalbimni ezar, u ham bo'lsa, minbardan turib aytiladigan nutqlarda ba'zi-ba'zida dadamlarning nomi ham «dum»lar qatori tilga olinadi. Lekin shunday paytlarda

¹ *Trotskiychilar* — 20- yillarda sobiq kommunistik partiya ichidagi oqimlardan biri.

dadamlarning Stalin to‘g‘risidagi so‘zlari esimga tushardiy-u yuragimga quyilib kelgan alamli tuyg‘uni haydardim. Bu hol toki shahar yoshlar qo‘mitasining kotibi bilan yuzma-yuz kelgunimcha davom etdi.

Bu yosh, xushqad, xushsurat yigitcha bizga qo‘shni edi. Oilamiz boshiga musibat tushgunga qadar, u xonadonimizga bo‘zchining mokisidek qatnar, dadamlar bilan kechalari uzoq suhbatlashib o‘tirardi. U o‘sha yozda uylangan, xotini ham, o‘ziga o‘xshash ko‘hlik, xushqad, xushsurat edi. Dadamlar ularning to‘ylariga to‘yboshi bo‘lgan, oyimlarning aytishicha, dadamlar unga moddiy yordam ham bergan ekanlar.

Dadamlar qamalganlaridan keyin yon qo‘shnimiz qorasini ham ko‘rsatmaydigan bo‘ldi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi, chunki shogird tugul qarindosh-urug‘lar ham bu og‘ir, g‘urbatli kunlarda uyimizni chetlab o‘tishar, bitta-yarimta kelsa ham kechalari qo‘rqapisa kelib, so‘ng devor panalab qaytib ketardi.

Shanba kuni edi. Chamasi, qamalganlar soni ko‘paygan, chunki avaxtaga ovqat ko‘tarib kelganlar soni ancha ortgan, navbat kutayotganlarning dumi ko‘rinmasdi. Kun sovuq, savalab mayda yomg‘ir yog‘ardi. Shu boisdanmi, boshqami, oyimlar men so‘ramasdanoq uyga ketishimga ruxsat berdilar. Men tinimsiz maydalab yog‘ayotgan yomg‘irdan diydirab, uyimizga tomon ravona bo‘ldim-u to‘satdan bog‘ tomonda yangragan nog‘oralar gumburi-yu karnay-surnaylar sadosini eshitib, beixtiyor to‘xtadim.

Nog‘oralar va karnay-surnaylar sadosi tobora avjga chiqmoqda, chamasi, odatdagidan ham katta miting boshlanmoqda edi. O‘rgatilgan otga o‘xshab yana nog‘oralar gumburlayotgan tomonga burildim. Haqiqatan ham yomg‘irga qaramay, bolalar har tomondan saf-saf bo‘lib boqqa yopirilib kelishardi.

Darvozaga yaqinlashib qolganimda nogahon ro‘para tomondan kelayotgan qo‘shnimiz — shahar yoshlar qo‘mitasining kotibiga ko‘zim tushdi. U bir o‘zi emas, charm paltolik harbiy odam bilan uch burchak soqol qo‘ygan, jikkakkina mo‘ysafid qurshovida kelardi.

Kotibni ko‘rishim bilan yuragim negadir «shuv» etib, boqqa sho‘ng‘ishga chog‘landim, ammo kotib bir sakrashda yo‘limni to‘sib, bilagimdan shappa ushladi-da:

— Ha, qashqirdan tug‘ilgan qashqircha! — dedi titroq bosib. — Bitta shaltoq buzoq bir to‘da podani buzadi! Bo‘yingga soxta qizil galstuk taqib, bu sofdil qizil pionerlarni buzmoqchimisan? — U qo‘limni og‘ritib siqqancha o‘ziga torta boshladi. Lekin shu payt jikkak mo‘ysafid:

— Qo‘yib yubor, bolapaqimi, — dedi oraga tushib. — O‘rtoq Stalin aytdi-ku, bola otasi uchun javob bermaydi, deb? Gunohi nima bu norasidaning!

Yosh kotib qovog‘idan qor yoqqanicha bir qariyaga, bir charm paltoli harbiyga qaradi-da, qo‘limni qo‘yib yubordi va: «Yo‘qol ko‘zimdan!» — deb o‘shqirdi.

Shundan keyin nima bo‘ldi, nima qo‘ydi — hozir esimda yo‘q, faqat kotibning ombirdek metin changalidan chiqdim-u tomog‘imni g‘ip bo‘qqan ko‘z yoshini yuta-yuta, saf-saf bo‘lib o‘tayotgan baxtli tengdoshlarim yonidan katta ko‘cha tomon otildim...



Dadamlar hibsga olingandan so‘ng uch-to‘rt oy o‘tdi hamki, u kishi bilan biror marta ko‘rishga olmadik. Butun shahar hanzuz tahlikada, hamma joyda, hatto maktablarda ham dushman qidirish hamon davom etardi. Sira esimdan chiqmaydi. O‘sha yili ulug‘ rus shoiri Pushkin vafotining 100 yilligi nishonlanar edi. Bu g‘amgin sanaga atalib qanaqa tadbirlar belgilandi, qanaqa kitoblar chiqarildi, qanaqa majlislar, adabiy kechalar o‘tkazildi — buni bilmayman. Ammo o‘sha sanaga atalib o‘quvchilar uchun daftar chiqarilgani yodimda. Million-milion nusxada chiqarilgan bu daftarlarning oldi muqovasida bolalikdan hammamizga tanish jingalak soch, habashchehra shoirming surati solingan, muqovaning oxirgi betiga esa shoir ertaklaridan biriga chizilgan surat berilgan edi. Avval boshda hech qanday gap yo‘q edi. Keyin to‘satdan

shaharda, jumladan, men o'qiydigan maktabda ham vahimali mish-mishlar tarqaldi. Go'yo Pushkin yubileyiga chiqarilgan bu daftarlar, to'g'rirog'i, daftar muqovasidagi suratlariga aksilingilobiy so'zlar bitilgan emish! Kimki Pushkinning soch va soqollari, ayniqsa, muqova oxiridagi ertaklarga chizilgan suratlarni e'tibor bilan ko'zdan kechirsa, shoirning jingalak sochlari-yu ertaklarga chizilgan suratlarni hushyorlik bilan nigohidan o'tkazsa, makkorona bitilgan aksilingilobiy so'zlarni topishi mumkin emish!

Men o'qiydigan 3-«A» sinfida yoshi anchaga borgan, tishlari to'kilib qolgan, ammo juda muloyim, mehribon rus kampiri dars berardi. Bir oydan beri bu kampir — hozir ism-shariflari yodimda yo'q — kasal bo'lib, o'rniga yosh tatar yigitcha dars bera boshlagan edi. Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo'shni bo'lmish raykom kotibining qaynisi bo'lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o'qrayib qaray boshlagan edi. Ammo hayotning o'yinini qarangi, dadamlardan keyin bir hafta o'tar-o'tmas yosh o'qituvchimizning pochchasi ham hibsga olinib, «xalq dushmani» deb e'lon qilingan edi. Shu-shu battar mung'ayib, avvalgidan battar oqsoqlanib qolgan o'qituvchi menga achinib qaraydigan, yo'lakdami, hovlidami — tanho yurganimni ko'rsa, boshimni silaydigan bo'lib qolgandi. «Pushkin suratlari ichiga qabih aksilingilobiy so'zlar yozilgan emish», degan gap tarqalgan kuni yosh o'qituvchimiz sinfimizga juda xomush bir qiyofada kirib keldi. U mungli ko'zlari bilan bolalarga uzoq tikilib turgach:

— Bolalar! — dedi allaqanday yolvorib. — Qani, kecha tarqatilgan daftarlaringni olinglar-chi! Haligi... muqovalariga Pushkin surati solingan daftarlaringni aytyapman!.. Oldilaringmi? Ehtimol, eshitgandirsizlar, ashaddiy dushmanlarimiz makkorona chizilgan harflar vositasida SSSRga qarshi so'zlar yozishipti! Bu mudhish so'zlarni topgan bolalar bor. Ularning suratlari ertaga faxriy doskaga osiladi. Nahot bizning sinfimizda birorta hushyor o'quvchi bola topilmasa? Qani, suratlariga yaxshilab qaranglar!

Shoyad sizlar ham dushmanlarimizning bu qabih soʻzlarini topib, ularni fosh etsalaring!

Yosh oʻqituvchi shunday deb menga oʻzgacha bir umid bilan qarab qoʻydi. Har qalay menga shunday tuyuldi-yu oldimdagi daftarga chizilgan suratlarga tikilib, jon-jahdim bilan makkorona chizilgan harflarni qidira boshladim...

Asablarim tarang tortilgan, miyam nazarimda lahcha choʻqqa aylangan edi. «Nahot jonajon hukumatimizga qarshi yozilgan bu mudhish soʻzlarni topib, dushmanlarning kirdikorlarini fosh etolmasam? Yoʻq, topaman! Topganda ham birinchi boʻlib topaman. Ikkinchi boʻlishning foydasi yoʻq!.. Toʻxta, shoir yelkasidagi mana bu gajak tola nimani eslatadi? «S» harfining oʻzginasi-ku!.. Uning yonidagi gajak-chi! U ham «S»! Uning yonidagisi ham!» Mana bunisi «R»ning oʻzginasi-ku! Voy, tavba! Bu battollar «SSSR» deb yozib qoʻyishibdi-ku, boyadan beri shuni ham koʻrmapman-a?... Mana bu gajak tola-chi? Quyib qoʻygandek «D» ku! Undan keyingi gajak-chi? «O»ning xuddi oʻzginasi-ku! «O» boʻlgan joyda «L» ham boʻlishi kerak? Mana «L»! Yonginasida esa «Oy»ga oʻxshash ikkita gajak qatorlashib turibdi! «Doloy SSSR!, yaʼni «Yoʻqolsin SSSR!» degan gap-ku bu!».

Men hayajondan nafasim boʻgʻilib:

— Topdim, muallim, topdim! — deb baqirib yubordim.

Majruh oʻqituvchim tekis polda qoqilib-surinib oqsoqlana-oqsoqlana yonimga keldi. Sinf toʻla oʻquvchilar ham «gurr» etib oʻrnilaridan turdilar-da, ustimga yopirildilar.

Men xuddi bezgak tutgandek dir-dir titrab, ulugʻ shoirning jingalak sochlari orasidan topgan mudhish harflarni koʻrsata boshladim. Nihoyat, koʻrsatib boʻlib, tengdoshlarimga magʻrur qaradim. Sinfga choʻkkan ogʻir sukunat ichidan toʻsatdan oʻqituvchimizning:

— Malades! — degan xitobi eshitildi. — Hushyor pioner deb shuni aytadilar!

Hamma menga hasad bilan qarar, men oʻzimni chinakam qahramon his qilardim.

— Qani, daftarlaringni yig‘ib beringlar! Bir soatdan keyin sport maydoniga butun maktab to‘planadi. Hammamiz birga bu mudhish daftarni yoqish marosimida qatnashamiz!

O‘qituvchimiz oqsoqlana-oqsoqlana sinfdan chiqib ketdi, lekin bir soat tugul ikki soat o‘tdi hamki, u qaytmadi. So‘ng daftarlarni yoqish marosimi boshqa kunga qoldirilipti, degan xabar keldi-yu uy-uyimizga tarqaldik.

Kechqurun men kunduzi bo‘lgan voqeani hayajondan entika-entika oyimlarga aytib berdim.

Oyimlar men kutgan maqtov o‘rniga:

— Hoy, bolam-ov, bolam-ov! — dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. — Senga nima bo‘ldi, bolam-ov!

— Menga nima bo‘pti? Nega bunday deysiz, oyijon? — dedim ranjib.

— Hech nima... Iloyo dadangga o‘xshab qahri qattiq bo‘lma. Ollodan bitta-yu bitta tilagim shu, bolam.

Oyimlarning gapiga yaxshi tushunmadim. Ertalab maktabga, to‘g‘rirog‘i, zalda osilgan hurmat taxtasiga qarab chopdim. Nadomatlar bo‘lsinkim, ro‘yxatga bir necha marta ko‘z yugurtirib chiqdim: yo‘q, na nomim, na suratim bor! Dushmanning yovuz kirdikorini fosh etgan hamma hushyor pionerlarning surati hurmat taxtasiga osilgan-u, bitta mening suratim yo‘q! Aftidan, kimdir hushyorlik qilib xalq dushmani farzandining suratini hurmat taxtasiga osish mumkin emasligini aytib, mendan ham hushyorroq bo‘lgan!

Mana, bu voqealarning sodir bo‘lganiga yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Shaxsga sig‘inish davrining ne-ne jinoyatlari fosh etildi. Bu jinoyatlar qanday dahshatli bo‘lmasin, nazarimda, ularning eng yomoni — kattalar yetmagandek, menday go‘daklarni ham hamma narsaga shubha bilan qarash, hammayoqdan yovuz kirdikorlar qidirishga qaratilgan urinishlar deb bilaman.



Nihoyat, dadamlar bilan vidolashadigan kun ham keldi. Vidolashishga uch kishiga ruxsat berishgandi: oyimlar, katta

opamlar va menga! Shu boisdan bo'lsa kerak, qarindosh-urug'lardan hech kim, na dadamlarning ukalari, na yor-do'stlari — hech kim kelmadi.

Oyimlar bilan opamlar kechasi uxlashmay, dadamlar uchun bug'doy talqon, so'k talqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi. Chunki bu payt dadamlar ozod bo'ladi degan umid o'z miltirab turgan shamday so'ngan, u kishini uzoqlarga olib ketishlari chamasi oyimlarga ayon edi.

Ertalab to'rtva-xaltalarni ko'tarib qamoqxonaga qarab yo'l oldik. Bu safar bizni ko'p kuttirishmadi. Beliga choynakdak to'rtponcha taqib olgan harbiy bizni uzun, tor, nimqorong'i yo'lakdan ichkariga boshladi. Yo'lakning yarmiga borganda o'ng qo'ldagi eshikni ochib, bizga yo'l berdi. Chog'roqqina to'rtburchak xonaning to'rtidagi stol oldida gimnastyorka kiygan, sochlari oppoq bir odam allanimalarni yozib o'tirardi.

Dadamlar burchakda kursida o'tirgan ekanlar (men avval u kishini tanimay qolibman!) biz kirishimiz bilan dik etib o'rnidan turdilar. Azaldan barvasta, to'ladan kelgan, novcha odam birikki oy ichida cho'pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko'zlari kirtayib, qiyg'ir burni so'rrayib qolgandi.

Yana qamalgan kechasidagidek yig'i-sig'i boshlandi. Oyimlar-ku, yuzini ro'moliga yashirib, jimgina titrab yig'lar, lekin opamlar... dadamlarning bo'yinlariga osilib olgan opamlarning faryodi tor xonani zir titratardi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko'p aytguchi edilar:

— Noinsoflar jilla qursa yarim soat ham fursat bermadilar. Dadang sho'rlikning diydoriga ham to'y madik. Bergan chorak soatlari ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi...

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar biror marta Stalinning nomini tilga olmadilar, qamalgan kunlaridagidek: «Men partiya oldida gunohkor emasman! O'rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo'ymaydi!», — demadilar. Bilaks, bir necha marta ko'zlariga yosh olib:

— Meni kechir, Gulshan. Ayol boshing bilan besh bolani qanday boqasan — aqlim bovar qilmaydi. Endi yuz ko‘rishishimizga ham ko‘zim yetmaydi, kechir meni! — dedilar.

Har safar dadam shunday deganlarida stolga mukka tushib, allanimalarni yozayotgan kishi:

— Hoy, Yoqubov! — derdi qog‘ozdan bosh ko‘tarmay.— Senga nima bo‘ldi? Yosh bolamisan, Yoqubov!

Nihoyat, bu odam qarshisidagi devorga osilgan almisoqdan qolgan devor soatiga ko‘z tashlab:

— Fursat tugadi, Yoqubov. Endi xayrlashinglar! — deb buyurdi.

Opamlarning nidosi battar avjiga chiqdi. Oyimlar ozgina pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo‘llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa:

— Bolalaringga yarat, Gulshan! — deb yolvorar edilar. Lekin oyim ko‘nmay, axiri pulni olishga majbur qildilar.

Oyimlar keltirgan pul bor-yo‘g‘i ellik so‘m bo‘lib, o‘nta besh so‘mlikdan iborat edi. Dadamlar pulni qiynala-qiynala olarkanlar, besh so‘mliklardan birini menga uzatdilar. Oyimlar pulni mendan olib, dadamlarga qaytarib bermoqchi bo‘lgandilar, dadamlar ko‘nmadilar, kaftlarini boshimga qo‘yib:

— Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan, bolam, — dedilar va yana ko‘ziga yosh oldilar. — Oyingga yordamlashib, ukalaringga qarab turgin, bolam!

Dadamlar shunday deb besh so‘mlikni cho‘ntagimga soldilar.

— Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgan edim, bu ham nasib etmadi. Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o‘g‘lim!..

Boyadan beri oyim va opamlarga qo‘shilib yig‘lashni o‘zimga ep ko‘rmay serrayib turgan bola, to‘satdan, xuddi dadamlarni olib chiqib ketayotgan paytlaridagidek yuragimda nimadir darz ketganday tuyuldi-yu NKVD xodimining maqtovlari ham, aksilinqilobchilar kirdikorlarini fosh etgan hushyor pioner ekanligim ham — bari yodimdan chiqib, «Dadajon!», degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim.



Bu mash'um voqealardan keyin ko'p yillar o'tdi, ko'p suvlar oqib ketdi. 1955- yili Xrushchevning butun dunyoni larzaga solgan mashhur nutqidan keyin oilamiz, shaxsga sig'inish zulmidan jabr chekkan million-million oilalar kabi dadamlarning taqdirini, o'lik yo tirik ekanini (ungacha yozgan o'nlarcha xatlarimizning bittasiga ham javob ololmagandik) so'rab, yuqori tashkilotlarga murojaat qildik.

Maktublarning bittasini Qozog'iston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasiga, ikkinchisini SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasiga yo'lladik. Taxminan to'rt-besh oydan keyin birin-ketin ikkita javob keldi. Javoblarning birinchisi Qozog'iston Markaziy Qo'mitasidan bo'lib, unda dadamlarning partiyaviy ishi ko'rib chiqilgani, u kishi Stalin shaxsiga sig'inish qurboni bo'lganligi e'tirof etilgan va 1918- yildan e'tiboran partiya a'zosi sifatida tiklangani xabar qilingan edi.

Ikkinchi javob Moskvadan, Davlat xavfsizligi qo'mitasidan bo'lib, unda aytilishicha, dadamlar Uzoq Sharqdagi qaysi bir o'rmon xo'jaligida daraxt kesuvchi bo'lib ishlagan, 1943- yil qish oylarida (vaqti aniq aytilmagan) daraxt kesayotgan paytida yiqilib vafot etgan.

Birinchi javobdan farqli o'laroq, bu xatda shunday ilova ham bor edi. Agar validamiz (men yozgan xat, tabiiy, oyimlar nomidan bitilgan edi) nafaqa yoshida bo'lsalar, u kishiga davlat tegishli miqdorda nafaqa to'laydi. Agar oyimlarning turar joyi bo'lmasa, u kishi qo'mitadan kelgan ushbu javob asosida shahar kengashiga murojaat qilib, navbatsiz uy oladilar...

Har ikkala xat ham haqiqatni qaror toptirish, adolatni tiklashga qaratilgan edi. Ammo men negadir, ehtimol, Uzoq Sharqda olti yil oddiy soldat bo'lib, butun qiyinchiliklarni boshimdan o'tkazganim uchundir, nogahon o'zim ko'rgan bepoyon sovuq o'rmon, qor tagida egilib turgan daraxtlar, qish ko'z oldimga keldi. Bir zum nigohim oldiga bu qorong'i o'rmonda behol imillab daraxt kesayotgan dadamlar keldi, keldi-yu, alam, iztirob, mehr-shafqat va xo'rlik tuyg'ulari toshqinday guvillab vujudimni qaqshatib yubordi.

«Yo‘q! Bu nopoklar 1918- yildan firqa a‘zosi bo‘lmish otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni istamay, qahraton qishda ham o‘rmon kesdirib, o‘limga mahkum etadilar-u, endi o‘z gunohlarini yuvish umidida judolik azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to‘larmishlar, boshpana berarmishlar! Yo‘q, men bitta onamni ular bergan sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpana topib beraman!»

Xayolan shunday deb, yaxshi niyat bilan yozilgan ikki xatni burda-burda qilib yirtib tashladim...







PIRIMQUL QODIROV
(1928)

Zamonaviy hamda tarixiy mavzularda yozilgan ko‘p roman, qissa va hikoyalari o‘zbek realistik prozasining nodir namunalari qatoridan o‘rin olgan. Yozuvchi asarlarining olijanob insoniy mas‘uliyatlarni ulug‘ maqsad bilgan qahramonlari turfa qarashlar, mafkuraviy to‘lqinlar girdobida yashaydilar. O‘lmas g‘oyalar, chin e‘tiqod va donishona tafakkurning tantanalari adib ijodiyotida hayotiy haqqoniyati, qizg‘in jozibasi bilan namoyon bo‘ladi.

«YULDUZLI TUNLAR»
ROMANIDAN

SEKRI. Qayta ko‘z ochgan buloq

1

Bobirning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga kelayotgan Mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy va mudarris Ibrohim Qonuniy uch oyga yaqin yo‘l yurdilar.

Badvahima Xaybar dovonidan o‘tib, sersuv Sind daryosidan kechib, changalzor o‘rmonlarni oralab borar ekanlar, Mavlono Xondamir olamning naqadar ulkanligini endi birinchi marta astoydil his qildi. Haftalar, oylar davomida otliq safar qilib oxiriga yetib bo‘lmaydigan bag‘ri keng o‘lkalar hammasi endi yaxlit bir davlat bo‘lib birlashganligi, Balxdan Qobulgacha, undan Laxo‘r va Dehligacha hamma joyda Boburning muhri bosilgan farmonni beto‘xtov ado etishlaridan sezilar edi. Bu farmonga muvofiq, Xuroson va Movarounnahrda Boburning taklifi bilan kelayotgan ilm-u san‘at



ahlini, hunarpeshalarni barcha viloyat hokimlari, barcha qo'riqchi askarlar va bekat nazoratchilari qo'shni davlat elchilariga ko'rsatiladigan izzat-ikrom bilan kutib olib, kuzatib qo'yishlari kerak edi. Yo'llarda hali qaroqchilar tugatilmagan, tartib o'rnatilmagan notinch shahar va qishloqlar bor edi. Xondamir va uning hamrohl-arini bunday joylardan «bad-raqa» deb ataladigan ikki yuz-uch yuz kishilik qo'riqchi askarlar o'tkazib qo'yishardi.

Karvonsaroylarda ham ularni «podshohning xos mehmonlari» deyishib, eng yaxshi xonalariga joylashtirishar, qo'llaridagi qog'ozlariga binoan kundalik taomlari uchun bepul guruch, go'sht, yog' berishar, tag'in mayda xarajatlari uchun maxsus ulufa ham to'lashardi. Charchagan ot-ulovlarini almashtirishlari kerak bo'lib qolsa, yomchilar boquvdagi ot-ulovlaridan ularga birinchi navbatda berishar edi. Kobuldan Dehligacha bo'lgan minglab chaqirim yo'l bo'yidagi karvonsaroylar va yomlar Boburning harakatlari bilan shunchalik obod va shunchalik yaxshi ishlab turar edi.

Xondamir yo'llarda, bekatlarda Hindistonga borib kelayotgan elchilar, sayyohlar va savdogarlarni ko'p uchratardi. Bultur Agradan ellik chaqirimcha g'arbdagi Sekri degan joyda Bobur Ra'no Sango bilan urushib, Panipatdagidan ham ulkanroq g'alabaga erishgandan keyin uni astoydil tan olib elchi yubora boshlagan podshohlar ko'payib qolgan edi. Xondamir Laxo'rda uchratgan qizilbosh-larning elchisi Shoh Taxmasp¹ nomidan g'alati sovg'alar olib

¹ *Taxmasp I* — Shoh Ismoilning o'qli. 1524- yilda Shoh Ismoil vafot etgach, Taxmasp o'miga shoh bo'ladi.

bormoqda edilar. Bu sovg'alar orasida oq tuyaning zar uqali kajavasida parvarishlab olib ketilayotgan ikkita go'zal cherkas qizi ham bor edi. Shoh Taxmasp bu qizlarni Boburning haramiga atab yuborgan edi.

Xondamir Dehlidan shimolroqdagi bir bekatda samarqandlik va toshkentlik elchilarni ham uchratdi. Sekridagi g'alabaning shuhrati atrof mamlakatlarga yoyilganidan keyin Bobur Hindistonda tuzgan yangi davlatni uning ashaddiy dushmanlari bo'lgan shayboniyzodalar ham tan olgan edilar. Hozir Samarqand taxtida o'ltirgan Ko'chkinchi xonning elchisi Bobirga Samarqandning soyaki mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'riklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahrning boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuklab, yoniga ikki yuzta yaxshi otni ham tortiq qilib qo'shib keltirgan edi. Bobur bu elchini o'zining Jamna bo'yida qurdirgan yangi Hisht Bihisht bog'ida xonlar o'tiradigan oq kigiz ustiga o'tqazib, kamoli ehtirom bilan qabul qilgan edi. Bobirning qabulidan va sovg'a-salomlaridan mamnun bo'lib qaytayotgan xon elchisi Xondamirga maqtandi:

— E, mavlono, biz Hindistonda ko'rgan xirmon-xirmon oltinlarni hali hech kim ko'rmagandir. Bobur mirzo quyma oltindan qilingan taxtda o'ltiribdir. Taxtning pastiga katta gilam to'shalgan ekan. Viloyat hokimlari har yili beradigan oltinlarini shu gilamning ustiga keltirib to'kdilar. Birpasda oltindan katta xirmon ko'tarildi.

Bobur shayboniyzodalarning oltinga suq odamlar ekanini bilgani uchun elchining ko'zi oldida ataylab shunday xirmon ko'targanini Xondamir ich-ichidan sezib kuldi:

— Janob elchi bu xirmondan kapsan olmadilarmi?

— Podshoh bizga qimmatbaho sarupolar kiydirdi. Gilam ustidagi oltindan hazrat Ko'chkinchixonga atab sovg'a berildi. Oltin tangalarni sanab ham o'ltirmadilar. Ikki yuz ellik misqolini bir kumush tosh bilan tortib berdilar-qo'ydilar.

— Ikki orada biron shartnoma tuzildimi?

— Ha, bemaol bordi-keldi qiladigan bo'ldik. Savdo-sotiq tiklandi. Aloqalar ilgarigidan yaxshiroq ravnoq topg'usidir. Biz

bulardan ipak, ziravor olurmiz. Bularga ho‘l-u quruq mevalar, otulovlar soturmiz... Yo‘li uzoq bo‘lsa ham karvonlarimiz ishtiyok bilan kelib ketadi. Chunki Bobir mirzo butun qalamravida tamg‘a¹ solig‘ini bekor qilmishlar. O‘zbek, turkman, tojik, hind, arab, ajam, fors — qo‘ying-ki, hamma bani bashar² bu og‘ir soliqdan xalos bo‘lib, daromadlari oshibdi. Hunarmand-u savdogarlar ham shunisidan juda mamnun. Faqat Bobur podshoning bir amri bizga ma‘qul kelmadi.

— Qaysi amri? — qiziqib so‘radi Xondamir.

— Butun mamlakatida may ichish man etilmishdir. Bobur mirzoning o‘zi ham «minba‘d ichmaymen», deb butun el oldida tavba qilibdirlar. May ichiladigan oltin-kumush kosalarni sindirmishlar. G‘aznidan o‘n to‘rt tuyada ikki oy ovora bo‘lib asl chog‘irlardan Agraga olib borgan ekanlar. Hammasiga tuz soldirib, sirkaga aylantirmishlar. «Butun mamlakatda hech kim ichimlik sotmasin, hech kim chetdan ham olib kelmasin!» — deb qatag‘on qilinmishdir... Bazmlari ichkiliksiz... muzdakkina!

Ko‘chkinchixonning elchisini ko‘ngilsizlantirgan bu yangilik Xondamirning ruhini ko‘tardi. Husayn Boyqaroni va uning o‘g‘illarini ichkilik balosi qay darajada xarob qilgani hali mavlononing esidan chiqqan emas edi. Bundan to‘qqiz yilcha burun Bobur Hirotga ikkinchi marta borganda Xondamir uning ham mayxo‘rlikka ruju qila boshlaganini ko‘rgan: «Nahotki, bu nodir siymo ham boshqa ko‘p temuriylar singari iste‘dodini ichkilikka boy bersa!» — deb tashvishlangan edi. Elchining hikoyasi uning mana shu tashvishini tarqatib yubordi.

Xondamir bu uzoq va mashaqqatli safarga Boburni orqa qilib chiqqan edi. Yoshi ellikdan oshayotgan olim bu uzoq yurtlardan Hirotga sog‘-salomat qayta oladimi, yo‘qmi, hali o‘zi uchun qorong‘i edi. U Bobur tufayli mana shu qorong‘ilikni bo‘yniga olib kelmoqda edi. Endi yo‘llarda Boburning irodasi va

¹ *Tamg‘a* — qo‘shimcha daromat solig‘i.

² *Bani bashar* — odam farzandi.

aql-zakovatidan dalolat beradigan nimaiki uchrasa, hammasi mavlononing qalbidagi mash'um qorong'ilikni quvayotganday bo'lar va yorug' bir istiqbolga ishonch uyg'otar edi.

Xondamir Agraga kelib kirganda daryo bo'yiga qurilgan Hisht Bihisht va Zarafshon bog'larini, marmarlariga chiroyli gullar solib ishlangan tosh imoratlarni, tomlari maysalar bilan bezangan tillakori tololarni¹, chaman-chaman gullari ko'zni qamashtiradigan gulzorlarni ko'rdi. Bu ulug'vor go'zalliklar mavlononing kelakelguncha ko'rgan va eshitganlariga qo'shildi-yu, u Boburni avvalgidan boshqacha favqulodda qudratli bir qiyofaga kiritib tasavvur eta boshladi...



Lekin Bobur so'nggi yillarda ko'p kasal bo'lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan edi. Xondamir uning o'zini qanchalik oldirib qo'rganini Sekri tog'iga sayrga chiqqanlarida o'tob yorug'ida juda aniq ko'rdi. Bobur Sekri tog'ining mo'jazligi va tekis joyga tushganligi O'shdagi Buratog'ni eslatishi haqida gapirar, tog' etagidagi ko'l ichiga qurilayotgan tosh supani qo'li bilan ko'rsatar, pastda qulf urib o'sgan yam-yashil bog' va daraxtlar orasidan ko'rinib turgan yangi imoratlar qanday barpo bo'lganini hikoya qilardi.

Xondamir esa uning suyagi bo'rtib qolgan ozg'in yuziga, ko'z atroflari va peshanasidagi qavat-qavat ajinlariga, uyqusizlikdan ichiga botib ketgan qovoqlariga qarab, ich-ichidan unga kuyunar edi.

Tog'dan ko'l tomonga tushib borayotganlarida Bobur Xondamirning bu kuyunishini sezganday bo'lib:

— Mening taqdirim g'alati, mavlono,— dedi. — Atrofimni obod qilganim sari o'zim so'lib bormoqdamen.

— Unchalik emas-u... har qalay, o'zingizga ham ko'proq g'amxo'rlik qilishingiz zarurmikin?

¹ *Tolor* — shiypon.

— Zarurlikka zarur. Lekin mamlakat qanchalik ulkan bo'lsa, uni idora etish shunchalik qiyinlashar ekan. Men zo'r bir davlat tuzish maqsadini zimmamga olganimda buning qanchalik mushkul ekanini tasavvur qilmagan ekanmen. Tun-u kun mehnat, tashvish, o't, olov... Xuddi harakatdagi vulqonlar orasiga tushib qolgan-dekmen. Ko'zlagan maqsadim amalga oshguncha umrim yetgaymi, yo'qmi, bilmaymen.

— Niyatni butun qilmoq kerak, hazratim. Siz hali yigit yoshidasiz, alhol qirq olti yoshdasiz.

— Ammo Hindga kelganimdan beri har yili besh-o'n yillik umrim sarf bo'lgandek tuyulur. Isitma, uyqusizlik...

Xondamir Boburning Hindistonga kelib tuzgan yangi devonini bugun ertalab o'qigan edi. Shu devondagi bir ruboiy hozir uning esiga tushdi:

*Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur,
Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur.
Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek,
Borg'on sari bu ortadur, ul kam bo'ladur.*

Boburning uyqusiz tunlardan kirtaygan ko'zlari sal shamol tegsa yoshlanadigan bo'lib qolgan edi.

— Tabiblar uyqusizlikning davosini bilar edilar-ku?

— Hiroflik xos tabibimiz Yusufiy muolija qilib ko'rdi. Bo'lmadi. «Sizga orom kerak», deydir. «Davlat tashvishlarini unuting», deydir. «Kechalari she'r yozmang», deydir. Ammo... davlat tepasida o'ltirib, uning tashvishini qanday unutish mumkin? Faqat she'r yozganda, ijod qilganda bu tashvish xayolimdan ko'tariladir. Lekin Agrada bo'lsam ijodga ham fursat topolmasmen. Kechasi ham, kunduzi ham davlat tashvishi... Bezor bo'lib, mana shu Sekriga chiqib keldim. Ijod uchun bu yer tinchroq... Anchadan beri masnaviy yozmoqdamen. Sanasam, bir kecha-kunduzda ellik bayt masnaviy bitibmen.

Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab o'zini juda toliqtirib qo'yganini, uyqusizlikning bir sababi shu ekanini, tabib kechalari

she'r yozishni man qilishi to'g'riligini Xondamir sezib borardiyu, lekin buni aytishga andisha qilardi. Tabiatan orom nimaligini bilmaydigan Bobir o'zini ayamay ishlab o'rganib qolgan edi, u bir kunda shuncha she'r yozganidan mamnun bo'lib yurganda uni bu mamnuniyatdan ham mahrum qiladigan nasihat gap aytish mavlonoga o'rinsiz tuyuldi.

— Ishqilib, xudo sizga quvvat bersin,— deb qo'ya qoldi.

Bobur mavzuni yangilagisi kelib:

— Mavlono, «Habib ussiyar¹»ni necha yil yozgansiz?— dedi.

— O'n bir yil. Lekin hali xatm qilgan emasmen. Xotirjamlik bo'lganda Hirotda xatm qilmoqchi edim. Lekin yigirma yildan beri sunniy-parastlar bilan shiaparastlar Hirotni bir-birlaridan tortib olib, goh o'tga urdilar, goh suvga...

— Ho' o'shanda... Unsiyaning minorasida turib so'zlashganimizda «Hirotning tole quyoshi botib ketmasmikin?» — deb iztirob chekkan edingiz. Shu iztiroblar bari o'rinli ekan-da.

— Hirotdan tole ketganda Samarqand bizga quchoq ochib tursa ekan! Shia-sunniy adovati Movarounnahr bilan Xurosogna Eronning madaniy aloqalarini uzib tashladi. Bu aloqalardan qancha avlodlar bahra olgan edi, qancha iste'dodlar kamol topgan edi. Johil sultonlar Movarounnahrni biqiq muhitga solib qo'yib, xurofot bilan bid'atga yem qilmoqdalar. Samarqanddan kelgan bir olim yig'laguday bo'lib aytib berdi. Obirahmat bo'yidagi uch oshiyonlik Ulug'bek rasadxonasi vayron bo'lmishdir. Shahar hokimining parvoyiga kelmas emish. Johillar nurab yotgan rasadxonaning g'ishtlarini olib ketib, o'z hovlilariga ishlatmoqda emishlar.

— Biz o'zga yurtga kelib imoratlar qurganda ular o'z yurtimizdagi obidalarni buzmoqdalar! Charxning bundan achchiq

¹ «Habib ussiyar» — «Sevimli do'stning tarjimai holi» demakdir. Xondamir o'zining bu katta asarida Arab, Eron, O'rta Osiyo, Xuroson tarixining olam paydo bo'lganidan to XVI asrgacha o'tgan eng muhim davrlari haqida so'z yuritadi.

kinoyasi bo‘lurmi, mavlono? Shuni o‘ylasam, o‘z yerimizni qo‘yib, Hindga ko‘ngil berganim menga xuddi oqibatsizlikdek ko‘rinadir!

— Biroq falakning gardishi shuni taqozo qilsa odam iloj topolmas ekan-da. Mana, men ham sizdan ibrat olib, Hindga keldim-ku! Muarrix bo‘lganligim uchun tarixiy zarurat bizdan zo‘r bo‘lishini ko‘p sezmishmen.

Bobur Xondamirning so‘nggi gapiga qiziqib, otini uning otiga yaqin yurgiza boshladi.

— Darhaqiqat, tarix alohida shaxslar irodasiga bo‘ysunmas ekan,— dedi Bobur. — Oyog‘ingiz tagidagi tog‘ pastga qarab ko‘chsa, siz yuksakka qanchalik intilmang, tog‘ ko‘chkisi bilan birga pastga qulab ketar ekansiz. Endi o‘ylab ko‘rsam, Movarounnahrda ko‘chkilar meni xuddi shu ko‘yga solgan ekan. Biroq siz qadam qo‘ygan tog‘ ichdan ko‘tarilib o‘sib borsa, ko‘zlagan yuksakligingizga qanday ko‘tarilganingizni o‘zingiz sezmay qolur ekansiz. Hindiston menga ichdan ko‘tarilib o‘sib boruvchi tog‘dek tuyuladir, mavlono. Shuning uchun Samarqand-u Andijonda qilolmagan ishlarimni bu yerda qilish umididamen!

— Mening nazarimda ham endigi yuksalish asri Hindga ko‘chganga o‘xshaydir. Jaholat quvgan juda ko‘p ilm-u san‘at ahli sizdan panoh istab Hindga kelishlari bejiz emasdir. Chunki falakning gardishi o‘zgardi. Axir bir vaqtlar Xuroson-u Movarounnahr ham ichdan ko‘tarilib o‘sib boruvchi tog‘dek yuksalgan emasmidi? Xorazmda — Beruniy, Buxoroda — Ibn Sino, Tusda — Firdavsiy, Bolasog‘unda — Yusuf Xos Hojib — bular hammasi bir-biriga asrdosh. Shuncha zo‘r siymolar chiqqan asr — bizning ulug‘ bir yuksalish asrimiz edi. Chingizxonning ko‘chmanchi o‘rdalari bosib keldi-yu, madaniy taraqqiyotimiz iplarini bir necha asrga uzib tashladi. Ulug‘bek davrida Samarqandda, Navoiy davrida Hirotda juda ko‘p madaniy daholar yana uyg‘ondi. Yangi yuksalishlar asri boshlandi. Lekin kajraftor falak buni ham bizga ko‘p ko‘rdi! Yana ko‘chmanchi sultonlar madaniy taraqqiyot iplarini uzib, chalkashtirib yubordilar... Faqir Hirotda topolmay yurgan kalavaning uchini

shu yerda topgandek engil tortmoqdamen. Musofirlik juda og‘ir bo‘lsa ham, lekin bashariyat yashab turgan shu keng olamda yangi daholari uyg‘ongan, ilm-u san‘atga astoydil yo‘l ochilgan Hindning borligi qalblarga quvvat beradir... Men endi «Habib ussiyar»ning so‘nggi tahririni shu yerda qanotingiz ostida tugallash umididamen.

— Bajonidill!.. Bizdan neki ko‘mak zarur bo‘lsa, tortinmay ayting.

— Faqir Hazrat Mir Alisherning kutubxonalarida ko‘p yil ishladim. Husayn Boyqaro hazratlarining kutubxonalaridagi nodir qo‘lyozmalardan ham ko‘p foydalandim... Endi... bu kutubxonalar Hirotda qoldi.

Xondamir Boburning ham ellik kishi ishlaydigan ulkan kutubxonasi borligini bilar, Hirotdan topilmaydigan nodir manbalar bu yerdan topilishi mumkinligiga ishonar edi. Biroq podshohning xos kutubxonasiga ancha-muncha odam yo‘lay olmaydi. Xondamir shuni o‘ylab, gapining davomini aytishga iymandi.

— Siz bizni deb shuncha joydan kelibsiz-u biz kutubxonamizni sizdan ayagaymizmi, mavlono? — dedi Bobur uning imyanish sababini sezib. — Abdulla kitobdorga buyurgaymen, sizga neki asar zarur bo‘lsa topib bergay. Kutubxonada Hindistoniylar kitoblar ham ko‘p. Abdulla kitobdorning ixtiyorida sanskritni yaxshi biladigan tarjimon olimlar bor. Shulardan bir-ikkitasini sizning ixtiyoringizga berurmen, neki xizmatigiz bo‘lsa ado eturlar.

— To abad minnatdormen, hazratim! Gustohlik sanalmasa, yana bir erkalgim bor...

— Marhamat, mavlono.

— Hirotda o‘zingiz yozgan sarguzashtlaringizdan parcha o‘qib bergan edingiz. Meni maftun etgan edi. Agar shu asaringizning tayyor qismlari bo‘lsa, men uchun... eng aziz, eng nodir manba bo‘lur edi. Chunki siz boshdan kechirib, tadqiq etgan tarixiy voqealarni boshqa hech kim shunday yaxshi tadqiq etgan emas...

Bobur otining chimirilgan quloqlariga tikilib bir oz jim bordi. U ikki yildan beri «Boburnoma»ni boshidan qaytib ko‘chirib,

yaxlit bir asar holiga keltirmoqda edi. Bultur yoz issiqlari tugab, yomg'ir fasli boshlanganda juda qattiq shamol ko'tarilgan. Bobur chodirda ishlab o'ltirganda yomg'ir aralash kelgan dovul uning chodirini yiqitib, qo'lyozmalarning o'nlab varaqlarini uchirib ketgan edi. Butun-butun boblarni yomg'ir dovul halok qilgan edi. Ularni tiklash uchun haligacha yaxlit bir vaqt topilmas edi. Qo'lyozmani shu ahvolda Xondamirga bersa to'g'ri bo'larmikin?

— Men o'ylab ko'ray, mavlono.

Bu orada ular Sekri tog'ining etagidagi buloqqa yaqinlashdilar. Atrofi orasta qilib qo'yilgan suvi muzday buloq Boburning yaxshi ko'rgan joylaridan biri edi. Shu yerda Xondamir ikkovlari otdan tushdilar.

Tiniq mavjlarga toza qumlar qo'shilib qaynab chiqayotgan buloq sokin gulzorlarni oralab, shildirab oqmoqda edi.

— Atrof shunday sokin, — dedi Xondamir. — Ko'l bo'yida qurilishlar... Bundan ikki yil burun shu Sekrida Ra'no Sango bilan dahshatli janglar bo'lganini tasavvur etish mushkul.

Bobur o'sha qonli urushning tahlikali damlarini ko'z oldiga keltirdi-yu:

— Men shu vaqtgacha ko'rgan janglarning eng dahshatlisi o'sha edi, — dedi. — Bu jang arafasida bo'lgan hodisalarni, muhoribaning barcha tafsilotlarini maxsus bobda yozmishmen, Xattot kitobning tayyor qismlari bilan birga shu bobni ham bugun ko'chirib bo'lgay. Oqshom hammasini sizga berurmen, mavlono. O'qib fikr aytursiz.

Boya javobsiz qolgan iltimosiga endi javob olgan Xondamir qo'lini ko'ksiga qo'ydi:

— Siz menga tengsiz bir ishonch bildirursiz, hazratim!

— Sizni Hirotdan chorlab keltirishdan maqsad ham ijodiy ishlar bo'yicha maslahatingizni olmoq edi.

— Sarafrozmen!

Shu payt ot dupuri eshitildi. Yo'lka oxirida uzoqdan ot choptirib kelgan chopar sakrab yerga tushdi va ta'zim bilan Bobur tomonga kela boshladi.

— Agrada biron shoshilinch ish chiqqanga o‘xshaydir, — dedi Bobur.— Mavlono, agar men poytaxtga ketsam, «Vaqoi’»ni sizga oqshom keltirib berurlar.

Bobur otini tutib turgan jilovdor tomonga yo‘naldi.

2

Sekri tog‘ining shimoliy yonbag‘rida salqin bog‘ning to‘rida joylashgan uch xonali shinam xilvatxona Mavlono Xondamirga berilgan edi. Bobur o‘sha kuni Agraga jo‘nab ketdi. Mavlono xilvatxonaning o‘ymakor ayvoniga chiqib, undan yaxshi ko‘rinadigan shishaday tiniq ko‘lni tomosha qilib o‘tirganda xonai xosning savdarboshisi Boburning qo‘lyozmasini unga olib kelib berdi.

Qo‘lyozma xattot tomonidan zarvaraqlarga benihoya chiroyli qilib ko‘chirilgan edi. Xondamir uni xona ichiga olib kirib, miz¹ ustiga qo‘ydi. Tepada yonayotgan shamlarni miz ustiga yaxshi yorug‘ beradigan qilib o‘rnatgach ko‘zoynagini taqdi va asarni ehtiyot bilan varaqlab o‘qishga tushdi.

Bundan o‘n yilcha avval Bobur Hirotga ikkinchi marta borganida Xondamirga «Vaqoi’»dan o‘qib bergan bobning uslubi mavlononi xiyol taajjubga solgan edi. Mana bu qo‘lyozmada ham Bobur qalamga olgan voqealar juda murakkab bo‘lsa-da, muallif ularni og‘zaki hikoyaga yaqin bir tarzda hiyla oddiy uslubda yozgan edi. Ko‘p joylarda Xondamir hatto Boburning so‘zlash tarzining, ohangi, ba‘zi bir shaxsiy xislatlarini payqab: «g‘alati-ku!»—deb qo‘ydi. Chunki otasi Mirxond Xondamirni yoshlikdan boshqacha e‘tiqodlar bilan tarbiyalab o‘stirgan edi. Bu e‘tiqodga binoan, nasrnavis muarrix o‘z shaxsiy uslubini davr uslubiga bo‘ysundirmog‘i, o‘z «meni»ni davr ummoniga qo‘shib bilintirmay yubormog‘i kerak edi. Agar asarda muallif o‘zini namoyon qilaversa, bu — nokamtarlik belgisi hisoblanardi. Katta tarixiy kitoblar hukmdorlar uchun yozilar,

¹ Miz — taxta, stol.

asosiy ta'rif-u tavsif o'shalarning ishlariga berilardi. Nazokatli o'xshatishlar, jimjimador majozlar va shoirona ko'tarinki uslub hukmdorlarga xush kelar va barcha mualliflar bo'ysunadigan bir qonun hisoblanardi.

Bobur mana shu qonunni butunlay inkor etuvchi uslub bilan asar yozgani Xondamirga ortiq darajadagi bir shakkoklikdek tuyuldi. Bobur o'g'li Humoyunga yozgan xatini ham kitobida keltirgan edi:

«...Xat bitirda takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq¹ bo'latur. Betakalluf pok alfoz bila biti, senga ham tashvish oz bo'lur va o'qig'uvchig'a».

«Ajabo!— o'ylandi Xondamir, — betakalluf til bilan asar bitmoq Bobur mirzo uchun pok uslub belgisi hisoblanur ekan-da!» Xondamir o'zining o'n yildan beri yozayotgan «Habib ussiyar»ida nazokatli takalluflar ko'pligini esladi-yu, o'zini o'ng'aysiz sezib, o'qishdan to'xtadi va ayvonga chiqdi.

Osmonda sakkiz kunlik oy suzib yurar, uning nuri qarsidagi ko'lning o'rtasida oydin yo'lka hosil qilgan edi. Ko'lning narigi chetidan tog' etagigacha kelgan bu nur yo'lkasida to'lqinlar jimir-jimiri gavhar jilvasiga o'xshab ko'zni qamashtirardi. Lekin Xondamir shu nur o'yinida ham Bobur tasvirlagan voqealarni ko'rar, ularning ta'sirini xayolidan uzoqlashtirolmas edi. Sertakalluf, serbezak uslub Xondamirdan juda ko'p kuch, vaqt, mehnat talab qilar edi. Bunday uslubda asar yozish qanchalik qiyin bo'lsa, uni o'qib tushunish ham shunchalik qiyin edi. Bobur ikki tomonni ham bu qiyinchilikdan qutqarishga intilsa nimasi yomon? O'g'liga yozgan xatida «senga ham tashvish oz bo'lar, o'qig'uvchiga ham» deganda u haqli emasmi? Unda Xondamirning yuksak shoirona uslubga oid e'tiqodlari puchga chiqadimi? Yo'q, bu mumkin emas!

Xondamir qaytib ichkariga kirdi-yu, o'zining haqligiga dalil qidirib, ochiq qo'lyozmaning davomini o'qishga tushdi.

¹ Mug'laq — tushunib bo'lmaydigan.

Hali hech bir muarrix qalamga olmagan g'aroyib voqealar bu qadar ko'p! Xondamir kitobning mazmuni yangi va maroqli ekaniga tan bermay iloji qolmadi. Bobur o'zini-o'zi ochiqchasiga muhokama qilgan, o'z xatolarini ro'y-rost yozgan joylari ham Xondamirga juda iliq tuyuldi. Oxirgi boblarida yana ajib bir xat uchradi. Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohim begimga atab yozilganini Xondamir sezdi.

Boburning zaharlanish tafsilotlari shu yerda bitilgan edi: «Dasturxon ustida ikki-uch marta ko'nglum barham urib, qusayozdim. Oxir ko'rdumkim bo'lmas, ko'ndum... Obxonaga borib qalin qusdim. Hargiz oshdin so'ng qusmas edim, balki ichganda ham qusmas edim. Ko'nglimga shubha kechdi.

...Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra' borkim:

*«Kim o'lar holatga yetsa,
Ul bilur jon qadrini».*

Tangri taoloning inoyati bor ekandir, manga yangi boshdan jon bag'ishladi».

Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron qoldirdi. Keyingi bobda yana bir tafsilot uning e'tiborini tortdi. Ichkilikni bundan uch yil oldin tashlagan Bobur uni haligacha qaytib og'ziga olmas edi. Buning oson bo'lmaganini Xondamir quyidagi satrlardan bildi: «Bu o'tgan ikki yilda chog'ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g'oyat edi, andoqki, chog'ir ishtiyoqidan borlar¹ yig'lamoq sarhadiga yetar edim».

O'z istagiga qarshi kurashib, yig'lash darajasiga borganini ochiq yozish tojidorlar orasida misli ko'rilmagan bir sohibdillik ekaniga Xondamir ich-ichidan tan berdi. Ochiqchasiga aytgan mana shunaqa oddiy tafsilotlar tufayli Bobur unga o'zi kabi bir inson farzandi bo'lib tuyuldi. Ammo boshqa tojidorlar tarixiy

¹ *Borlar* — «ba'zi paytlar» ma'nosida.

kitoblarda oddiy odamlarga o‘xshab ko‘rinishdan qanchalik cho‘chiydilar! Ular el-yurtdan mumkin qadar balandda bo‘lishni, oddiy insondan ko‘ra xudoga yaqinroq turishni qanchalik yaxshi ko‘radilar! Shuning uchun ham Xondamirdek muarrixlar podsholar haqida oddiy odamlar tushunmaydigan balandparvoz, sertakalluf tilda kitob yozishga majbur bo‘ladilar.

Bobur o‘zi podshoh bo‘lgach, bunday takalluflarni kim uchun yozadi? Hamma tomonidan qabul qilingan davr uslubining qonunlarini buzib chiqib, o‘z hayoti haqida shunday erkinlik va rostgo‘ylik bilan asar yozishi — hech kimga qaram emasligi tufayli emasmikin?

Bu fikr Xondamirni Boburning uslubidagi o‘zgachalik bilan go‘yo yarاشتirdi. Shundan keyin Boburga xos oddiylikning teran bir she‘riy nafosati ham borligini, bu nafosat odamni sehrlab olishini sezdi. Tun yarmidan oshganda esa asarda tasvirlangan voqealarga qiziqib; uslubini butunlay esdan ham chiqardi.

Tongga yaqin ozgina uxlab, so‘ng yana o‘qishni davom ettirdi-yu, qo‘lyozmaning oxiriga yetmaguncha undan ajralolmadi.



Bobur Sekriga uchinchi kun ertalab qaytib keldi — kunduzi havo juda issiq bo‘lgani uchun yo‘lni tun salqinida bosib o‘tgan edi. U Xondamirni yana bog‘da uchratdi, ikkovi piyoda o‘sha buloq bo‘yiga keldilar.

Bobur yo‘l yurib charchagan, uyqusiz o‘tgan yana bir tun yuzini juda so‘litib qo‘ygan bo‘lsa ham u o‘zini xushhol tutib:

— Mavlonο, mensiz dilgir bo‘lmadingizmi? — dedi.

— Hazratim, men tun-u kun sizdan ayrilmay suhbatingizda bo‘ldim, siz yozgan asar sahifalarida unutilmas damlarni boshdan kechirdim.

— Hali oxirga yetmagandirsiz?

— Kecha peshinda oxirgi sahifasini yopganimcha hamon uning ta‘siri bilan yashamoqdamen.

— Meni ayamang, mavlonο, rostini ayting.

- Rostini aytsam, siz meni chil-chil sindirdingiz!
 Xondamir bu gapni shunday jiddiy turib, ichki bir dard bilan aytdiki, Bobir taajjublanib to‘xtadi:
- Nechuk sindirmishmen, mavlono?
- Uslubingizdagi nafis bir soddalik qarshisida mening yuksak shoirona uslubim ortiqcha bir takallufdek tuyuldi.
- E, takallufmi? Ammo mening ahvolim o‘zingizga ma’lum. Jumlalarni takalluf bilan bezashga fursatim yo‘q edi.
- Asli go‘zal bo‘lgan yuzga ortiqcha zeb-ziynat ne hojat? Hazratim, siz adabiyotimizda hali hech kim qilmagan ulug‘ bir ishni qilmishsiz. Muborak bo‘lsin!
- Minnatdormen, mavlono. Biroq hali men bu ishning yo‘qolgan sahifalarini tiklamog‘im kerak.
- Tiklashingizga aminmen. Oxiri yana boshqa nek ishlaringiz yozilg‘usidir. Biroq shu turishda ham men bu ulkan asaringizni turkiy tilda aytilgan yangi bir so‘zdek qabul qildim. Men aminmenki, avlodlarimiz sizning bu shoh asaringizni Alisher Navoiyning «Xamsa»si kabi e‘zozlagaylar. Chunki shu vaqtgacha turkiy tilda bitilgan eng ulug‘ she’riy asar «Xamsa» bo‘lsa, shu vaqtgacha turkiy tilda bitilgan eng ulug‘ nasriy asar, menimcha, «Boburnoma» bo‘lg‘usidir.
- Mavlono, garchi mubolag‘a qilgan bo‘lsangiz ham dil so‘zlaringiz uchun tashakkur. Men bu asarni nihoyasiga yetkazish uchun bugun yana Sekriga qaytib keldim. Agar nuqsonlari bo‘lsa ochiq ayting.
- Faqir ba’zi sahifalardagi sanalar-u nomlarda noaniqliklar uchratdim. Xususan, Hirotga Husayn Boyqaro saroyiga oid boblar xiyol tahrirtalab.
- Mana shu nuqtalarda menga sizning ko‘magingiz darkor.
- Bajonidil, hazratim. Neki noaniqlik bo‘lsa, barchasini alohida qog‘ozga yozib qo‘ydim. Asaringiz bilan birga bermoqchimen.
- Shu payt tepadan o‘tayotgan qushlar keskin hushtak chalganga o‘xshab noxush ovoz chiqargani eshitildi. Bobur osmonga qarab,

qoramtir-qizg'ish kalxatlar galasi qanot qoqmay uchib borayotganini ko'rdi. So'ng ularni Xondamirga ko'rsatib:

— Bu yirtqichlar janglardan so'ng o'laksa yeb mazaxo'rak bo'lmishlar, — dedi. — Ra'no Sango bilan bo'lgan jangdan so'ng mana shu ko'l atroflarida, bog'ning o'rnida o'lib yotgan odamlar, otlar, tuyalar, fillar behisob edi. Kalxatlar qon hidini sezib, uzoqlardan gala-gala uchib kelganlari yodimda bor...

Bu xotira Boburda noxush tuyg'ular qo'zg'aganini sezgan Xondamir:

— Nachora, hazratim, — dedi. — Hanuzgacha hech bir ulug' davlat jang-u jadalsiz barpo bo'lgan emasdir.

— So'zingiz chin-u, ammo... So'nggi yillarning voqealarini qog'ozga tushirganimda, barcha qurbonlar, to'kilgan barcha qonlar ko'z o'ngimda shunday to'liq gavdalandiki, uyqularim o'chib ketdi... Bajur qo'rg'onida uch ming kishining qilichdan o'tkazilgani... Panipatda bir necha yuz asirning to'fangdan otib o'ldirilgani... Bizning odamlar ham kallaminoralar qo'pargani...

— Hammasini umr kitobingizda ro'y-rost bitmishsiz.

— Chunki avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o'ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o'zimizga nechog'liq og'ir tushganidan ogoh bo'lsinlar.

Boburning ruhida dam-badam sezilib qolayotgan ichki bir dard—faqat xastalik yoki charchoqlikdan emasligini Xondamir endi sezdi. Bobur ijodiy ishga berilgan sari uning qalbidagi shoh bilan shoirning murosas qilishi qiyinlashib ketardi.

Xondamir beixtiyor Hirotni va Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi murakkab munosabatlarni esladi. Bu ikki zot yoshlikdan bir-birlarini yaxshi ko'rar edilar, ammo podshohning shafqatsiz ishlari shoirning nafis tuyg'ulariga shu darajada zid kelar ediki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan bir shaharga, hatto bir mamlakatga sig'ishmay qoladigan va

¹ *Botil* — qalbaki yo'ldan borish, adashish.

Xurosonni tashlab chiqib ketishga astoydil intiladigan paytlari bo'lardi.

Hatto bir shaharga va bir mamlakatga sig'maydigan katta shoir bilan podshoh Boburning qalbida birga yashashga majbur ekanini va bu uni qanchalik qiyin ahvollarga solishini Xondamir hozir yaqindan ko'rganday bo'ldi. Uning yodiga Boburning:

*Yuz hayfki, zoye' o'tadir umri aziz,
Afsuski, botir boradir umri sharif!*

degan satrlari tushdi. «Shoir bu satrlarni podshohlik tashvishlaridan to'yib ketgan paytda yozgan bo'lsa kerak!» — degan o'y ko'nglidan kechdi. Bobur buloq bo'yiga cho'nqayib o'tirib, kaftini muzday tiniq suvga to'ldirib oldi-da, uni simirib, xiyol tafti bosilganday bo'ldi. Xondamir gapni yoqimliroq mavzuga burgisi keldi:

— Hazratim, Hirotda uchrashganimizda siz o'z hayotingizni... ko'chki bosgan buloqqa o'xshatgan edingiz. Yodingizdami?

— Yodimda bor.

— Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnaxrda ko'chki bosgan buloq balki shu yerga kelib qayta ko'z ochgandir?

— Aql bovar qilmaydir. Orada shuncha uzoq masofalar bor.

— Lekin chinakam zo'r iste'dodlar—o'lmas buloqlarga o'xshar ekanlar. Ularning ko'zini o'n joyda bekitsalar, o'n birinchi joydan yana yorib chiqar ekanlar!

— Lutf qildingiz, mavlono. Hozir ijodiy ish meni xuddi shu toza buloqdek o'ziga tortadir. Janglarning qonli sellari, saltanatning toshqin daryoday betinim talotumlari jonimga tegdi. Toj-u taxt bevafoiligini ko'pdan beri sezib yuribmen. Menga vafo qilsa faqat yozgan asarlarim vafo qilmog'i mumkin. Vatanimga o'zim qaytolmasam ham asarlarim qaytmog'i mumkin. Endigi orzuim — men tug'ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatini asarlarim qilsa... Andijon-u Samarqandni, meni o'stirib shoir qilgan o'lkalarni qanchalik sog'inganimni bilsangiz edi, mavlono!

Bobur ko'pdan beri uyqusiz yurganidanmi yoki sog'inch hissining zo'ridanmi, ko'zlari beixtiyor yoshga to'ldi.

— Men ham Hirotni behad sogʻinib yuribmen, hazratim. Lekin... oʻzingiz aytgan edingizki, Hind ham endi biz uchun Vatan. Yozgan asarlaringiz Hindning shavkatiga ham shavkat qoʻshgʻusidir. Hindda barpo qilgan ulugʻ davlatingiz esa sizni voyaga yetkazgan Movarounnahrğa ham shuhrat keltirgusidir.

— Zora shunday boʻlsa! — dedi Bobur.

U Xondamir bilan kechgacha dardlashib yurdi-yu, koʻnglini boʻshatib, oʻzini ancha yengil sezdi. Biroq kechasi yana uyqusi qochib tong otguncha mijja qoqmadi.







ERKIN VOHIDOV
(1936)

Hozirgi zamon o‘zbek she‘riyatining taniqli vakili. Aruz va barmoq vaznlarida yozgan asarlari birdek mashhur. Ijodining asosini lirik turning barcha janrlaridagi she‘riyati, dostonlari, dramatik asarlari, I. V. Gyote, S. Yesenin, R. Hamzatov singari jahon adabiyoti namoyandalari she‘riyatidan qilgan tarjimalari tashkil etadi.

O‘ZBEGIM

(Qasida)

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o‘zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.

So‘ylasin Afrosiyob-u
So‘ylasin O‘rxun xati,
Ko‘hna tarix shodasida
Bitta marjon, o‘zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Forob avlodidan,
Asli nasli balki O‘zluq,
Balki Tarxon, o‘zbekim.

O‘tdilar sho‘rlik boshingdan
O‘ynatib shamshirlarin

Necha qoon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.

Tog'laring tegrangda go'yo
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
Ikki daryo — ikki chashming,
Chashmi giryon¹, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingiz-u Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen — Muqanna, sarbador — sen,
Erksevar qon, o'zbekim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,
Senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston², o'zbekim.

¹ *Chashmi giryon* — yig'lovchi (giryon), ko'z (chashm).

² *Kavkabiston* — tiniq, yulduzlari charaqlab turgan osmon.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek
Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk —
Qo‘ydi narvon o‘zbekim.

Mir Alisher na‘rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She‘riyat mulkida bo‘ldi
Shoh-u sulton o‘zbekim.

Ilm-u she‘rda shoh-u sulton,
Lek taqdiriga qul,
O‘z elida chekdi g‘urbat,
Zor-u nolon o‘zbekim.

Mirza Bobur — sen, fig‘oning
Soldi olam uzra o‘t,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug‘yon, o‘zbekim.

She‘riyatning gulshanida
So‘ldi mahzun¹ Nodira,
Siyim tanni yuvdi ko‘z yosh,
Ko‘mdi armon, o‘zbekim.

Yig‘ladi furqatda² Furqat
Ham muqimlikda³ Muqiyim,
Nolishingdan Hind-u Afg‘on
Qildi afg‘on⁴, o‘zbekim.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,

¹ *Mahzun* — g‘amgin, qayg‘uli.

² *Furqat* — ayriliq.

³ *Muqimlik* — birjoyda turuvchilik, yashovchilik..

⁴ *Afg‘on* — g‘amdan nola qiluvchi, faryod etuvchi.

Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra¹ shoming
Shu'laafshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul.
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahon-u
Menga Bayron bir jahon,

¹ *Tiyra* — qorong'u.

Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay, boshda do'ppim,
G'oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sut-u tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.

INSON

(Qasida)

Sobitu sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing.
Mulki olam ichra bir
Xoqon o'zing, sulton o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams¹ — dil taftingdadur,
Sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
Bog'bon o'zing, mezbon o'zing.

Bu yorug' dunyo nadur?
Koshonadur, vayronadur,

¹ *Shams* — quyosh, oftob.

Senga mehmonxonadur,
Mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shoh-u gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o'zing, bul yon o'zing.

Sen balo, ham muftalo,
Xayr ila kin, rost-u riyo,
Fitnagar olam aro
Fatton¹ o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,
Piri adovat gohida,
O'z diling dargohida
Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

Xormisan yo gulmisan,
Tojdormisan yo qulmisan,
Chug'zmisan², bulbulmisan
Nodon o'zing, xushxon o'zing.

Bu hayot o'rmon ekan,
Jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan,
Sirtlon o'zing, jayron o'zing.

Bu hayot ummon³ ekan,
Ummon abad gardon⁴ ekan,
Qatradek sarson ekan,
Sarson o'zing, gardon o'zing.

¹ *Fatgon* — fitna qiluvchi.

² *Chuqz* — boyqush, boyo'g'li.

³ *Ummon* — okean, dengiz.

⁴ *Gardon* — aylanadigan.

Mash'ali fikrat — sening,
Ham changali vahshat sening,
G'ayratu g'aflat sening,
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qilding u oyda xirom,
Ham yerda qon to'kding haram,
Ushbu holingdan mudom
Xandon o'zing, giryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,
Chiqding funun¹ osmoniga,
Bu jahon ayvoniga
Arkon² o'zing, vayron o'zing'.

Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog'i arz obod erur
Sendin agar imdod erur,
Yo'qsa u barbod erur,
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,
Tavrot, Zaburdin yuksalib
Boymisan yoki g'arib,
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,
Irq, qon talash, imon talash,
Shulmi insondek yashash,
Armon o'zing, afg'on o'zing.

¹ *Funun* — fanlar.

² *Arkon* — ustunlar, tayanchlar.

Mamlakatga mamlakat,
Millatga millat bo'lsa qasd,
Qilg'uchi so'ng oqibat
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onaizing — zamin,
Tanho yo'g'u boring — zamin,
Xasta bemoring — zamin,
O'g'lon o'zing, darmon o'zing.

Bag'rida yotquchi — sen,
Ne'matlarin totquchi sen,
Tig' bo'lib botquchi — sen,
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otquchi — sen,
Zuhroni uyg'otquchi — sen,
Uyquda qotquchi — sen,
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.

Kelding olamga, demak,
Yetmas uni so'rmak, yemak,
Yerni etmog'ing kerak
Bo'ston o'zing, rizvon¹ o'zing.

So'zga ham poyon bo'lur,
Yozsam yana devon bo'lur,
Rustami doston bo'lur,
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,
Bor bo'l mudom borliq aro,
O'zni etgil doimo
Inson o'zing, inson o'zing.

¹ *Rizvon* — jannat.

Ey, sen Erkin, sen bukun
Yozding dilingdan bir tugun,
Sen kim-u ne dahri dun,
Biyron o'zing, nodon o'zing.

YAXSHIDIR ACHCHIQ HAQQAT

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga mendek
Aldanib qolg'on yomon.
Umrimiz aldoq jahonda
Aldanib o'tgay, valek
So'nggi qiynalg'on yomondir,
So'nggi qiynalg'on yomon.
Aytgali achchiq azobing
Bo'lsa dildosh yaxshidir,
So'z demay o'tli alamni
Joningga solg'on yomon.
Jonga solg'on ham na sozdir
Elga so'ylab men kabi
Shoiri devonai ishq
Nomini olg'on yomon.

O'ZBEK NAVOIYNI O'QIMAY QO'YSA...

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Demyan Bedniyni suysa,
Qora sochning malla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.

Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Aldangani, alla bo'lgani shudir.
Yulg'ich aziz bo'lib, bilgich xor bo'lsa,
Paytavaning salla bo'lgani shudir.

El komil bo'lmasa, yurt emas ulug',
Beqadr mahalla bo'lgani shudir.
Qalb to'la nur xalqning rizqi ham to'lug',
Ombor to'la g'alla bo'lgani shudir.

O'zbek o'zligini anglasa bekam,
Uning «Barakalla» bo'lgani shudir.
Olamga Navoiy nasliman degan
Ovozi baralla bo'lgani shudir.

1971–2000

O'LMAS EDI BALKI ODAMZOD

O'lmas edi balki odamzod,
Bo'lar edi dunyoga ustun.
Aqli bo'lsa jahlidan ziyod,
Sabri bo'lsa nafsidan ustun.

Ajal deya ataluvchi choh —
Ichra zinhor tushmasdi odam,
Bo'lsa edi ozgina ogoh,
O'ylabgina qo'ysaydi qadam.

Ish o'ldirmas, ishkal o'ldirar,
Jon zavoli yuz yoshmas, ko'z yosh,
Inson nega dunyodan ketar
Quvlab unga otmasalar tosh?!

Tahqir zahr-u xanjar ila teng,
Tuhmat ortiq o'qdan va dordan.
Inson o'lmas biri birining
O'lishiga bermasa yordam.

Inson o'lmas o'ldirmasa g'am,
Makon qilmas qaro turbatni.
Ko'rsa agar tirigida ham
O'lganida topgan hurmatni.

Olam to'la fitna, adovat,
Mangu qolib netar odamzod?
Bir kun charchab, izlab farog'at
Tinch dunyoga ketar odamzod.

NEGA YAPON YUZ YIL YASHAR...

Nega yapon yuz yil yashar-u
O'zbek buncha yoshga bormaydi?
Chunki yapon bizdek qorong'u
Sahar turib oshga bormaydi.

Motamida u obro' uchun
Elni chorlab ziyofat qurmas.
Bayramida bel bog'lab uch kun
Shamdek qotib ko'chada turmas.

Garchi bizdan yuz bor farovon,
Garchi bizdan yuz karra to'qdir.
To'y xarjida yuzta boy yapon
Bir kambag'al o'zbekcha yo'qdir.

Bu so'zimni yaponga aysam
Dedi battar qisib ko'zini:

– Yapon bundoq yasholmas hech ham,
Xarakiri¹ qilar o‘zini.

DANGASALAR

G‘ayratlilar yelib-yugurib,
Mehnat bilan mudom ovora.
Dangasalar esa o‘y surib,
Yotish uchun izlashar chora.

Ishchan azal tinmay yer chopgan,
O‘g‘ir tuygan, sovurgan somon.
Yalqov o‘ylab charxpalak topgan,
Ijod qilgan shamol tegirmon.

Parvoz etsam yuksak samoda
Zamonaviy laynerda bukun.
Rahmat deyman yorug‘ dunyoda
Dangasalar borligi uchun.

Yo‘qsa yurar edik hoynahoy
Hanuz yayov changitib tuproq.
Xo‘b yurtim bor, dangasaga boy,
Ishchanidan yalqovi ko‘proq.

Rost aytsam, bu mening ham dardim,
Xolimasman bu kasallikdan.
G‘ayrat qilsam bir kasb topardim,
Shoir bo‘ldim dangasalikdan.

Bizlar shundoq, bizda yo‘q ixlos
Dabdaba-yu as‘asalarga.
Ishlang, bizni tinch qo‘ying xolos,
Tega ko‘rmang dangasalarga.

¹ *Xarakiri* – yapon samuraylarining or-nomus uchun o‘z joniga qasd qilishi.

SERGEY YESENIN SHE'RIYATI TARJIMALARIDAN

Singlim Shuraga

Bu dunyoda men bir yo'lovchi,
Shodon menga qo'l silki, erkam.
Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo to'kar kuz fasli oy ham.

Isinurman oyning taftiga.
Ilk bor undan orom olar jon.
Allaqachon so'ngan sevgiga
Umid bog'lab yashayman hamon.

Bunga bois — shu makonimiz,
Shu yer — oppoq, sho'r manglay turbat,
Qaylardadir toptalgan nomus,
Kimlardadir qadrdon g'urbat.

Yashirmayman, har kim ham bilar:
Boshqa-boshqa emas, jon singlim,
Ikkimiz ham bir sevgi bilan
Shu vatanga qo'rganmiz ko'ngil.

ONA IBODATI

Qishloqning bir chetida
Pastakkina uy turar,
Sajda qilib shu uyda
Onaizor o'ltirar.

Yolg'iz o'g'lin eslar u
Yonib achchiq firoqda.
O'g'li esa yurt uchun
Jang qiladi yiroqda.

Ona sajda qiladi,
Ko'z yoshlari shashqator.
Bir nuqtaga tikilgan,
Xayolida nelar bor?

Ko'z oldiga keladi:
Keng dala — jang maydoni.
Jonsiz yotar maydonda
Mard o'g'li — pahlavoni.

Ko'kragida jarohat,
Qop-qora qon har yog'i.
Qolmish jonsiz qo'lida
Dushmanining bayrog'i.

Ona yuzin qoplar g'am,
Chimirganча qoshini
Asta suyar qo'liga
Oppoq sochli boshini.

Yurak dardi yosh bo'lib,
To'lib kelar ko'ziga.
Marjon-marjon tomchilar
Oqib tushar yuziga.

IT HAQIDA DOSTON

Quyosh o'ynar javdar xirmonda
Chiptalarda nuri tilla rang,
Bolaladi ona it tongda,
Yetti kuchuk tug'di malla rang.

Yuvib-tarab tillari bilan
Oqshomgacha erkaladi u.
Ona itning issiq bag'ridan
Qor ustida erib oqdi suv.

Oqshom payti, tovuqlar endi
Qo'nog'iga tizilishgan dam,
Uy egasi xo'mrayib keldi,
Qopga soldi yettovini ham.

Sho'rlik ona chopdi ketidan,
Uzoq-uzoq quvlab bordi u.
Muzdek terlar oqib etidan,
Achchiq-achchiq uvlab bordi u.

Botqoqlardan kechib o'tdi loy,
Oyoqlari toldi, urindi.
Qaytar ekan tom ustida oy
Bolasiga o'xshab ko'rindi.

Sho'rlik yana bolasin so'rab,
Ko'kka boqib uvladi xasta.
Yangi oy ham asta g'ildirab
Tushib ketdi ufqdan pastga.

Bechoraga ermaklab, kulib,
Non o'rniga otishgandek tosh,
It ko'zidan yulduzlar bo'lib
Qorga oqdi tomchi-tomchi yosh.

SHAHINAM, O' MENING SHAHINAM...

Shahinam, o' mening Shahinam,
Bilsang, shimol Vatandir menga.
Dalalardan so'ylaymi senga,
Oy nur sepgan boshhoqlardan ham.
Shahinam, o' mening Shahinam.

Bilsang, shimol vatandir menga,
Unda oy ham yuz bora ulkan.

Sheroz qancha bo'lmasin ko'rkam
Aziz o'lka Ryazandir menga,
Bilsang, shimol Vatandir menga.

Dalalardan so'ylaymi senga?
Sochim olmish bug'doyidan rang.
Barmog'ingga o'ra xohlasang,
Zarra og'riq sezilmas menga,
Dalalardan so'ylaymi senga?

Oy nur sepgan boshohlardan ham
Oltin sochim so'ylasin, dildor,
Kul, o'yna-yu dalamni zinhor
Eslatmagin menga jonginam,
Oy nur sepgan boshohlarni ham.

Shahinam, o' mening Shahinam,
Shimol yoqda bir nozanin bor.
Senga o'xshar, g'oyatda dildor,
Balki meni o'ylar ul sanam...
Shahinam, o' mening Shahinam.



Xurosonda bir darboza bor,
Ostonasi gulga ko'milgan.
Unda yashar bir pari ruxsor,
Xurosonda bir darboza bor,
Hayhot, uni ocholmadim man.

Qo'llarimda kuch ham yetarli,
Sochlarimdan oltin rang olgan,
Asir etdi meni ul pari,
Qo'lda garchi kuchim yetarli,
Ul eshikni ocholmadim man.

Mardligim ne ishq maydonida,
Ayting, kimga qilay sharhi g'am?!
Sevmas bo'lsa Shahi jonidan,
Ul eshikni ocholmas bo'lsam,
Mardligim ne ishq maydonida?!

Yana tushdi Rus sari yo'lim,
Eron, sendan ketgummi hali.
Nahot, seni boz ko'rmas bo'ldim?
Ona yurtga mehrim tufayli
Yana tushdi Rus sari yo'lim.

Xayr endi, xayr, parizod!
Darbozangni ocholmasam-da,
Shirin g'aming birla umrbod
Kuylab o'tay seni o'lkamda
Xayr endi, xayr, parizod!







ABDULLA ORIPOV
(1941)

O‘zbek she‘riyatining yorqin, betakror siymosi. O‘ziga xos uslub, she‘riy ovoz sohibi. Lirik qahramoni — dunyoning sir-sinoatiga oshufta va undan hikmat izlovchi, komillik va ezgulik tantanasiga jo‘shqin qalb shijoati bilan intiluvchi serfazilat inson. Dramatik dostonlari, jahon adabiyoti durdonalaridan qilgan tarjimalari ham mashhur.

ODAMLAR

— Ey, yo‘lovchi, bo‘la qol, qo‘noq,
Uyda borin ko‘rarmiz baham,
Tag‘in o‘zing bilasan, biroq
Qosh qoraydi, yiroqdir yo‘l ham.
Yo‘lchi qolar ovulda, mezbon
Keltiradi topgan-tutganni.
Otamlashar so‘ngra ikkovlon
Yodga olib o‘tgan-ketganni.
Horg‘in yo‘lchi mudrar ichib choy,
Cho‘ziladi mezbon ham asta.
Tongda yo‘lchi tovush qilar:—Hoy,
Men ketdim.— Qol!— Rahmat.
Shu bas-da!
Ajralishar, ular hattoki,
Ismlarin so‘rashmaslar ham.
Ular qayta uchrashar balki,
Balki qayta uchrashmaslar ham...

1963



Bola edim,
Mening ham ozroq
Bo'lar edi vahima «dardim»,
Guldurasa nogoh momaqaldiroq,
Onamning bag'riga yashirinardim.
Bovliq eshar edim bir kun pichanda,
Hamla qilib qoldi chinqiroq ilon.
Serkesak shudgorga qochdim o'shanda
Onamning bag'riga shoshganimsimon.
O'sha yillar edi, qishloq ko'chasida
Quvlagandi meni bir it quturib,
O'shanda osilib chinor shoxchasiga
Quturgan itdan ham qoldim qutulib.
Mayli, deyman bugun bo'ron tursa ham,
Mayli, dahshatlarga to'lsa ham dunyo.
Balki fazolarning qo'ynida bir dam
Bekina olurman ulardan, ammo
Gar gunoh orttirsang o'zingga og'ir,
Vijdon azobida qovrilsang bot-bot,
Hayhot! Kimga borib dod deysan, axir,
Qayga bekinasan o'zingdan, hayhot!

1964

DORBOZ

Bulutlarga yondosh, osmon ostida
Kiprikdagi yoshday turibdi dorboz.
Qilichning damiday arqon ustida
Ko'zlarini yumib yuribdi dorboz.
Odamlar, odamlar, uni olqishlang,
Qarang, u naqadar epchil va o'ktam.
Biz-chi, eh... ba'zi bir ko'zi ochiqlar
Eplab yurolmaymiz katta yo'lda ham.

1965

TEMIR ODAM

Bir haykal turibdi,
U — Robot emish,
Temirdan yasalgan, odam timsoli,
Ilmda eng so‘nggi kashfiyot emish,
Aqlli zot emish, qusurdan xoli.
Shaxmat ham o‘ynarmish,
Yer ham qazarmish,
Rosmana yuvarmish yuz-u qo‘lini,
Hadis-u hisobdan adashmas emish,
Hattoki sanarmish Somon yo‘lini,
Yonida xaloyiq hayratda turar:
— Qarangiz:

naqadar aqlli, mumtoz!
Xullaski, olamda kashfiyot derlar,
Kashfiyot emas bu, kechiring, ustoz,
Tilsimni bilmayman, ammo anchayin
Odatim tark etib, ko‘krak keraman!
Men sizga temirning xuddi shundayin
Ajib bir nusxasin topib beraman.
U ham ishlay bilar, uning qoshida
Sizning temiringiz ojiz bir buyum.
U ham sanay bilar, uning boshida
Aljabr usuli uyum va uyum.
Balki u donodir beqiyos, yakka,
Balki yo‘q uning-chun biror muammo;
Balki u hech qanday temir-tersakka
A‘lo vujudini egmaydi, ammo
Ustoz, qalbi yo‘qdir uning ham, hayhot,
Na nafrat, na ishqni tanlamas u ham.
Uning ham ko‘zida chaqnamas hayot,
Munis boqishlarni anglamas u ham.
U ham to‘lg‘anolmas, ingramas, kulmas,

Yigʻlagan goʻdakni yupatolmas ul.
U ham yulduzlarning hidini bilmas,
Bagʻrini tirnamas soʻlayotgan gul.
Kimsaning mehridan, balki, o, balki
Sizning temiringiz boʻlar minnatdor.
Aziz doʻst, mehrni bilmas bu hali,
Doʻst kutib, yoʻllarga chiqmas intizor.
Dunyo-yu odamlar taqdiri zarra
Tashvishga solmagay, yoʻq zoʻr-u zori.
Tashvishga solmagay na qoʻshiq va na
Mening yuragimda nimalar bori.
Balki temirlar ham yigʻlaydi chindan...
Bu-chi, yigʻlayolmas, aylangan toshga!
Kimdir u?
Kimdir u?
Balki u menman?!
Balki u sizdireziz?
Balki u boshqa...
Hayotning poyonsiz ummoni ichra
Bor shunday gʻariblar — temirlar hissiz
Va lekin oʻzlarin temirmas sira,
Muhtaram inson, deb atarlar, esiz...
Shundaylar boʻlmasa, azaldan tuproq
Yashnardi tagʻin ham goʻzal-u mumtoz.
Temir odam yasab yurguncha, koʻproq
«Jonli temir»larni oʻylangiz, ustoz.

1964

TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb oʻtadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda koʻrgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir koʻlmak hovuz deb bilar dunyoni...

1965

ONAJON

**(Onam turdi Karvon
qizi xotirasiga)**

Necha kunki, yoʻq oromim,
Kelolmayman hushimga.
Onajonim kechalari
Kirib chiqar tushimga.
Qoʻllarida oq yelpigʻich
Oy nurida yaltirar.
Onajonim imlab meni
Qoshlariga chaqirar.
Keltirarlar goho beshik,
Koʻzlarida hayajon.
Yotar payting boʻldi-ku der,
Kela qol, der, bolajon.
Qaylargadir yuguraman,
Figʻonimdan chiqar dud.
Yigʻlama, deb qoʻllaringa
Tutqazarlar soʻng tobut.
Tongda ruhsiz koʻz ochaman,
Qovurilar tanda jon.
Onajonim, bunday qilma,
Bunday qilma, onajon.
Axir oʻzing der eding-ku,
Silab oʻksuk boshimni:
— Endi senga bersin umr,
Senga bersin yoshimni.

Afsus, o'zing erta ketding,
Erta ketding olamdan.
Ukalarim bag'rim ezar,
Ajraldik deb onamdan.
Bevaqt xazon bo'lmay har kim
Yashab o'tsin dunyoda.
Onajonim, har kim oshin
Oshab o'tsin dunyoda.
Garchi fano har kimsaga
Azaliy bir qismatdir.
Lekin, ona, tiriklik ham,
Bilsang, yarim hikmatdir.
Tushlarimda, mayli, boshim
Silab turgin, onajon.
Qolganlarga endi umr
Tilab turgin, onajon.

U kun chetda oh chekardim
G'ussalarning dastidan,
Sen otamga pul beribsan
Yostig'ingning ostidan.
Aytibsanki, onasizlik
Kelmasin hech o'yiga.
Sarf qilingiz, menga emas,
Abdullaning to'yiga.
O, o'g'lingga sen shafqatni
Bilarding-ku, onajon.
Bundan ko'ra bag'rim o'ysang
Bo'lardi-ku, onajon.
Zarragina rahm etgali
Sabring menga yo'qmidi?
Onajonim, bundan o'zga
Jabring menga yo'qmidi?
Yo'qmidi hech o'zga gaping,—

Nola qilib so‘ylasang.
Nahot, axir so‘nggi dam ham
Farzandingni o‘ylasang.
Axir orzu qochib ketmas,
Bitkazar-ku tiriklar.
Onajonim, bir kunini
O‘tkazar-ku tiriklar.
Unutilar g‘ussalar ham,
Orzular ham cho‘zar bo‘y.
Onajonim, balki bir kun
Aytganingday bo‘lar to‘y.
Balki sening qabring uzra
Ko‘karganda gul, chechak,
Ostonamga qadam qo‘yar
Sen istagan kelinchak.
Kimdir uning yo‘llariga
Balki gul ham sochadi,
Balki munis opajonim
Kel deb, quchoq ochadi,
Balki do‘stlar davrasida
Kamim bo‘lmas hech qachon,
Lekin seni o‘sha damda
Qaydan topay, onajon.

Esimdadir, titrar edim —
G‘amgin, bolish pastida.
Kitobimni ko‘rdim nogoh
Boshginangning ostida.
Toshday qotdim o‘shal oni
Bor toqatdan ayrilib.
— Shoir o‘g‘lim,

— deding menga
Sekingina qayrilib.
Onajonim, so‘ng bor menga

Nafas qilding u zamon.
Shoir bo'lgin deya balki
Havas qilding u zamon.
Onajonim, balki men ham
Bir kun shavqqa to'larman,
Balki men ham aytganingday
Bir kun shoir bo'larman.
Kuylay desam hurmatingni
Ushbu kunda tilim lol.
Balki faqat shu sababli
Shoir bo'lsam ehtimol.
Balki sarson-arosatda
Qolib ketmas bu tanim,
Kamolimni ko'rar balkim,
Yurtim — ona-Vatanim.
Payti kelib to'lar bir kun
Paymona ham beomon.
Kuzatarlar meni ham so'ng
Senga tomon, sen tomon.
Balki u kun boshim uzra
Do'stlar bosh ham egadir,
O'sha damgi iqbolim ham,
Onajonim, sengadir.
Dilda neki jur'atim bor,
Dilda neki hayajon,—
Bari-bari senga bo'lsin,
Senga bo'lsin, onajon,
Senga bo'lsin bor hayotim,
Nomim, shonim bir yo'la,
Xotirangga ushbu she'rni
Yozdi o'g'ling Abdulla.

1966

MEN ANGLAB YETGAN FALSAFA

Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,
Bozorga o'xshaydi bunda ham ma'ni.
Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo
Molim yomon degan biror kimsani.

1973

GENETIKA

Men ham yashayapman o'z zamonimda,
Davrimdan qayga ham tushardim yiroq.
Va lekin bilmadim, mening qonimda
Qaysi bir bobomning xislati ko'proq.

Barchaga barobar meros bu bashar,
Otdan qosh-ko'zni olgan o'g'ildek,
Bilmadim, qonimda qay ajdod yashar,
Balki bobo Kayfiy, balki Ulug'bek.

Tunlar qulog'imga chalinar elas
Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.
Balki Muqanno bu — tinib-tinchimas,
Balki Panipatda Bobir urhosi.

Balki tanglayimni ko'tarib ketgan
Darbadar bir oshiq va yo sarbador.
Balki biror bobom shahanshoh o'tgan,
Balki vujudimda darvesh qoni bor.

Men yaxshi anglayman, moziy ne demak,
Tarixda har kimning bor o'z zamoni.
Lekin tanimizda kezar-ku beshak
Olis bobolarning ming yillik qoni.

Nechog'li sabot bor yovqur Shiroqda,
Eryigitov to'pga ko'ksin bosar jim.
Rahimov g'animga tashlangan choqda
Alpomish shiddatin payqamagan kim?!

Oh-u bolasi bu — ohuday boqqan,
Shervachchada esa sherning shiddati.
Avlodlar qonida ming yillab oqqan
Buyuk bobolarning turfa xislati.

Neki ezgulik bor jahonda poydor
Joylab ola bildik barchasin qonga.
Asrlar so'ngida tole kelib yor
Farzand bo'la bildik buyuk zamonga.

Singdi ruhimizga mangu barhayot
Alisher she'ri-yu Pushkin bayoti.
Singdi ruhimizga g'olib hissiyot —
Jasur Matrosovning tengsiz saboti.

Singdi qonimizga shu otash dunyo,
Singdi qonimizga muhabbat, g'azab.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Qay bir xislatimiz qolarkin, ajab?

Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,
Qay his — yuraklarda topolgan kamol?
Yiroq avlodlarga bizlardan beshak
Qolar kurashlarda toblangan xayol.

Shu yovqur asrda yashadik ro'y-rost,
Ranj-u balolardan hayiqmay taqir.
Yiroq avlodlarga bizlardan meros
Buyuk bardoshimiz qolg'usi axir.

Bizdan ham qolg'usi shu qadim dunyo,
Qon bilan, ter bilan qotgan shu tuproq.
Yiroq avlodlarga bizlardan ammo
Tashnalik qolg'usi, do'stlarim, ko'proq.

Yashadik shu rangin dunyoda mas'ul,
To ellar ko'z yoshi bo'lmasin chashma.
O'zni bag'ishladik kurashga butkul,
Demakki, yashadik oromga tashna.

Tashna yashadik biz mehrga mutloq,
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz.
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq,
Haqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz...

To'fon, qasirg'alar kechar-ku hali,
Kechadi avlodlar qator, galma-gal.
Balki oro topib bashar sayqali,
Tug'ilar eng oliy inson, mukammal.

U o'zin tanigay shunda daf'atan,
To'fon, qasirg'alar bosirqi bir tush.
Shu buyuk sayyora — yagona Vatan,
Inson o'z baxtidan o'zi ham sarhush.

Munis nigohini qadab quyoshga
Turar u nurday pok, ishqday bezavol.
Kechmish kamolotin ko'tarib boshga,
Yiroq asrlarga ko'z tikib xushhol.

Turar u go'dakday beg'ubor kulib,
Balki kulgusi ham bizdan meros bu.
Rishtai jonida bir zarra bo'lib,
Bizning ham qonimiz gupurgay, rost bu...

Bobolar dunyodan oʻtdilar shundoq,
Biz ham yetuklikka boʻlmadik timsol.
Lekin sen boʻlarsan bokira mutloq,
Lekin sen yasharsan farishta misol.

Kahkashon sayrida hur quyosh bilan
Kezarsan to abad shodumon, xurram.
Labda tabassum-u koʻzda yosh bilan
Senga talpinaman, buyuk nabiram...

1973

SEN BAHORNI SOGʻINMADINGMI

Uygʻonguvchi bogʻlarni kezdim,
Topay dedim qirdan izingni.
Yonogʻingdan rang olgan dedim —
Lolazorga burdim yuzimni,
Uchratmadim ammo oʻzingni,
— Sen bahorni sogʻinmadingmi?

Uzoqlarda zalvorli togʻlar
Xayolimni keldilar bosib.
Kechdi qancha intizor chogʻlar,
Vasling menga boʻlmadi nasib,
Sensiz men ham, bahor ham gʻarib,
— Sen bahorni sogʻinmadingmi?

Oʻngirlarda sakraydi ohu,
Naʼmatakda saʼva mittijon.
Qorliklardan sipqarilgan suv,
Daralarda uradi javlon.
Nigohimdan faqat sen pinhon,
— Sen bahorni sogʻinmadingmi?

Mana, bugun navro'zi olam,
Do'stlarimga gullar tutarman.
Qaylardasan, sevgili erkam...
Qo'limda gul, seni kutarman,
Umrin bo'yi chorlab o'tarman,
— Sen bahorni sog'inmadingmi?

1963

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

Men nechun sevaman O'zbekistonni
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo?
Nechun Vatan deya er-u osmonni,
Muqaddas atayman, atayman tanho?
Aslida dunyoda tanho nima bor,
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku, butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men
O'paman: «Tuprog'ing bebaho, Vatan...»
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashg'ar tuprog'i, qashshoqmiding sen?!
Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni,
Sababini aytgin, desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,

Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar,
Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog' unsin manguлик muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!
1964

«MUNOJOT»NI TINGLAB...

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang?
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Qaylardan tug'ilmish bu oh-u faryod.
Kim u yig'layotgan? Navoiymikin
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!
Yetar, ey cholg'uvchi, bas qil sozingni,
Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir!
Agar shu munojot rost bo'lsa agar,
Agar aldamasa shu sovuq simlar,
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,
Sen beshik emassan, dorsan, tabiat,
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..
Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,
Asrlar g'amini so'ylar munojot.
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod!
1964

BIRINCHI MUHABBATIM

Kecha oqshom falakda, oy bo'zarib botganda,
Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayi ham tushdim ba'zan qalb bilan, imon bilan,
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim,
Mang-u g'aflatda qotdim, birinchi muhabbatim.

Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan...
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

Holbuki orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q,
Erta xazon gul kabi sarg'ayib so'lganim yo'q,
Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.

Yo'lin yo'qotsa odam — muhabbatga suyangay,
G'ussaga botsa odam — muhabbatga suyangay,
Chorasiz qotsa odam — muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirlil tushlar ko'rib men bor dunyoni unutdim,
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz Oллоhim mening, birinchi muhabbatim.

O'ZBEKISTON

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirilar bor, o'z yurtin butun —
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o'lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat o'jiz qalamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O'tirmasman ertaklar so'zlab,
Musallo deb yo'nmasman qalam.
Ko'klamningdan olib sururni,
Dovrug' soldi ustoz Olimjon,
G'afur G'ulom tuygan g'ururni
Qilmoq mumkin dunyoga doston.
O'lis tarix qadamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.
Maqtamasman moziyni, biroq
O'tmishingni o'ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim.
O'zbekiston,
Vatanim manim.

Bobolardan soʻz ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tugʻilgan ilk bor
Koʻragoniy jadvallarida.
Qotil qoʻli qilich soldi mast,
Quyosh boʻlib uchdi tilla bosh.
Doʻstlar, koʻkda yulduzlar emas,
U, Ulugʻbek koʻzidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
Oʻzbekiston, Vatanim manim.

Koʻz oldimdan kechar asrlar,
Koʻz-koʻz etib nuqs-u chiroyin.
Sarson oʻtgan necha nasllar.
Topolmasdan tugʻilgan joyin.
Amerika — sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mashʻali.
Kolumbda bor alamim manim,
Oʻzbekiston, Vatanim manim.

Koʻp jahongir koʻrgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh — yer osti.
Lekin, doʻstlar, sheʻr ahli aro
Jahongiri kam boʻlar, rosti.
Besh askim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sheʻr.
Temur tigʻi yetmagan joyini
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo boʻldi chamanim manim,
Oʻzbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan soʻzladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyak.

Buyuklarga baxsh etgan daho,
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin
O'zi yemay o'g'liga tutgan.
Sen o'zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o'tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim:
O'zbekiston. Vatanim manim.

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
O'tdi Buddha, o'tdi Zardushti.
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g'azabga to'lib
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo'lib
Sakrab o'tding Amudaryodan.
Sensan o'shal samanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Etmoq bo'lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo'ldi qora tunlaring.
Qonga to'lgan kafanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Lekin oftob poymol o'lmas,
Kavaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam — Haq bor, beg'araz,
Mazlumlarning buyuk g'amxo'ri.

Kilich serpab tole tongida
O'zligingni tanib qolding sen.
O'g'lonlarning qatra qonida
O'zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug' gulshanim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko'hna olam,
Tinch turarmi dog'uli zamon?
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dansigda manim,
Sobir Rahim yiqilgan chog'da.
Lekin, yurtim, kezolmas g'anim.
O'zbekiston atalgan bog'da.
Sensan nomus va sha'nim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
— Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz.
Deding: — Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.
Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki balqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,

Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuprog'i zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutmang aslo,
Unutmang hech, onajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

1964–1970

SOHIBQIRON

Besh pardali she'riy dramadan parcha

Qatnashuvchilar: Amir Temur, Yeldirim Boyazid, Bibixonim, Uljoy Turkon, Amir Husayn, Shayxulislom, Mir Said Baraka, Xonzodabegim, Barlos Bahodir, Kayxisrav, Ibn Arabshoh, Muhammad Qavchin, Devonbegi, Aloviddin, Hofiz Sheroziy,

Yassaviy (Darvish, Xizir), Shitberger, Ioan Sultoni, Xitoy elchisi, Ispaniya elchisi, Buqalamun, Shohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Pirmuhammad, Qosimbek; amirlar, eshikbon, yasovul, choparlar, sartarosh, qariya va boshqalar.

I SAHNADAN

Tomosha boshlanishi oldidan Amir Temur haqidagi she‘r o‘qib turiladi.

Har qancha faxr etsang arziydi, o‘zbek,
Balqibsan bir zotning yuksak shonida.
Temurbek yulduzi Oltin qoziqdek
Charaqlar buyuklar kakhshonida.

Vo ajab, yolg‘iz bir Zanjir saroyning
O‘chini O‘rdadan ola bilgan zot.
Turon deb atalmish kattakon joyning
Bag‘riga shuncha yil sig‘mabdi, nahot?!

Jahonni mo‘g‘ullar istilosidan
Qutqarib qololgan barlosiy botir —
Qocholmay taqdirning taqozosidan
Fotih deb nom olmish o‘zi ham oxir.

Eng ulug‘ binolar mujassam bo‘lmish
Olamda tengi yo‘q Samarqand-ku bor:
Temurbek jang-jadal shavqiga to‘lmish,
Qo‘lida shamshir-u tagida tulpor.

Hukmi oliy bilan etmish namoyon
«Kuch bu — adolatda», degan so‘zlarin.
Qon to‘kmish Jahongir goho beomon
Yovlari tikmasdan qonli ko‘zlarin.

Otani boladan tirik ayirib,
Toj-u taxt taloshi qizirkan borho.



Sulton ne zotlarning qo‘lin qayirib,
Muhtasham saltanat aylamish barpo.

Allohim baxsh etmish shunchalar shukuh,
Komil-u yetukdir shajara, zoti.
Bir yon Bibixonim, bir yonda Shohruh,
Bir yonda Ulug‘bek — sinmas qanoti.

Ne baxtkim, tuqqan yurt bo‘lganda ozod,
Muborak Vatanga qaytib kelmishsiz.
Quloq tutgaymi, deb noahil avlod,
Tashakkur, bizlarni ko‘zga ilmishsiz.

Hamon yer yuzida shayton tug‘yoni,
Tillarda duo-yu dillarda zarda.
Ko‘rib bu noqis-u notinch dunyoni
Qayta bosardingiz balki, sarkarda.

Sa'yi niyatlarda ruhingiz sardor,
Yovuzlik chekingay, o'chgay yomonlik.
Dastingiz shamshirga bormasin zinhor,
Hazrat, barchamizga tilang omonlik!

*Parda ochiladi. Samarqand. Temur saroyi.
Sohibqiron soch oldirayotgan bir manzara.*

... Sartarosh chiqadi.

Eshikbon.
Olampanoh,
Xuttalondan hokim Kayxisrav
Bir bandini keltirmishdir.

Temur.
Bandi kim u?

Eshikbon.
Amir Husayn!

Temur.
Amir Husayn?
Olib kirishsin!
Hozir bo'lsin Shayxulislom, amirlarim ham
Va albatta piri komil Said Baraka.

Eshikbon chiqadi.

Boshlangan har hikoyatning oxiri bo'lgay,
Mojaroni boshlagan kim?
Men-mi, Husayn?
Parvardigor barchasidan voqif va ogoh.
Qayin og'a hisobilarar menga bu amir.
Zaifamiz Uljoy Turkon uning singlisi.
Biroq yerga to'kilar payt qurt tushgan meva
Uni asrab qololmagay sog'lom ildiz ham.

Amir Husaynni ahli devon qurshovida olib kiradilar.

Qo'l-oyog'in yeching buni!
Marhabo, amir!
Kishan sendan xalos bo'lsin.

A m i r H u s a y n .
Taqdirga la'nat!
Tiriklayin sen Iblisga ro'baro' qildi.

T e m u r .
(*Mir Said Barakaga*).
Eshitdingiz, muhtaram pir Said Baraka,
Siz bu bilan Balx shahrida suhbatdosh bo'lib
Yashagansiz,
Sinagansiz.
Taqdir deydi u.
Axir men ham tobemasmi o'sha taqdirga?
(*Amir Husaynga*).

Umringda hech kitob ko'rmay ulg'aygan eding,
Shu sababdan gaplaringda mantiq yo'q, amir.

Mir Said Baraka.
Odamzodni yaratibdi Alloh serkaram,
Taqdirin ham belgilamish,
Biroq ayni payt
Odamzodni ozod qo'ymish sinamoq uchun,
Bu sinovdan o'tolmagay Amir Husayn.

A m i r H u s a y n .
Pirim, Sizga ne qilibmen?
Gunohim nedir?

Mir Said Baraka.
Gunohingdan bittasini aytayin, amir,
Balx shahrida saroy qurding kayf-safo uchun.

Masjidlarning mablag'larin sarf etding unga.
Yana yig'lab taqdir deysan...

T e m u r .

Umr chopag'on!

Bizlar mingan bedovlardan ko'ra uchqur u.

Yo Husayn!

Eslaysan-a, birga o'sgandik.

Sen Qozog'on nabirasi!

Men — barloszoda!

A m i r H u s a y n .

Bir qibлага bab-barobar yuzni bursak ham,

Sen o'zga bir xonadondan,

Men — Chingiziyman!

T e m u r .

Xotirangdan chiqmagandir u o'smir yillar,

Ikkimizni qo'yishgandi bir payt poygaga.

Mendan ortda qolib ketding, biroq past tushmay

O'shanda ham degan eding:

«Men — Chingiziyman!»

Odamlarning shajarasi daryolar kabi

Bir-biriga qo'shilmog'i shubhasiz, bor gap.

Sening bobong Chingiz emas,

Aslida Hasad!

Hasad!

Hasad!

Bilib qo'ygin, Amir Husayn.

Oyoq-qo'ling bog'lab kelgan o'sha hasaddir.

Men buyuk bir saltanatni tuzmoqdaman-u

Biring u yon,

Biring bu yon tortasan, attang.

O'rtamizga qo'yib hatto Kalomulloni

Necha marta qasam ichding,

Esla, Husayn!
Oxirgi payt seni bog'lab keltiray desam,
Qochib qolding.

Amir Husayn.
Omad mendan yuzin o'girdi.
Yo'qsa sening toj-u taxting bo'lardi menda!
Madrasaga bekingandim, ablah Kayxisrav
Tanib qolmish egnimdagi zarbof to'nimdan.

Temur.
Kayxisravning otasini sen o'ldirganding,
O'sha xun deb seni tutib keltirmishdir u.
Omadsizlik emasdir bu — qilmish-qidirmish.
Meni esa rasman holda Balx qurultoyi
Mamlakatning amiri deb saylab qo'yibdi.
Endi sening kimligingni aytay, Husayn,
Lashkarini siylamagan sen — xasis amir!
Sirdaryoning bo'ylarida Jetega qarshi
Ikkalamiz chiqqan edik o'sha mash'um kun.
Osmon go'yo teshildi-yu jami bulutlar
Suvlarini to'kkan edi jang maydoniga.
Ust-boshi ho'l, holdan toygan sening lashkaring
Och-u nahor bo'lgani-chun ortga chekindi.
Loy jangida sen sababli nochor qolganman.
O'n ming askar nobud bo'ldi, afsus, o'shanda.

Amir Husayn.
Temur, menga to'nkama u mag'lubiyatni,
Firibingni ko'rsat edi, sarkarda bo'lsang!

Temur.
Ko'rmagansan firibimning mingdan birin sen.
Atrofimni zanjir kabi o'rab tursa ham,

Jetelarni tumtaraqay quvdim Vatandan.
Bir jang chog'i muhtaram pir Said Baraka
Egildi-yu yerdan siqim tuproqni olib,
«Yog'iy qochdi!» — deya nido qilganlaricha
Yov tomonga sochdi uni,
Yov-chi, ha, qochdi!
Bu ham frib, shundoqmasmi?

Mir Said Baraka.
Avval xudodan!
Gar muzaffar qilar bo'lsa, madadin bergay.

Shayx ul islom
Qiblagohning unvonlari Sohibqironidir.
Allohimning karami-la sakkiz yuz yilda
Yulduzlarning holatlari ayricha bo'lgay.
Jadiy burji ko'ringaydir kiyik shaklida.
O'sha yili tug'ilgaydir bir Sohibqiron.
Eng avvali shoh Iskandar, undan so'ng esa
Tug'ilmishdir Rasuli Akram —
Payg'ambarimiz.
Uchinchisi Hazrat Temur —
Sohibqironidir.
Avliyolar allaqachon bashorat qilib
Aytmishlarkim, Sohibqiron dunyoni olgay.
Sakkiz yuz yil saltanati turgay barqaror.
Jahongirga abadiyan xudo yor bo'lgay.
Ilohi omin!

(Qolganlar ham «Omin», «Omin» deya yuzlariga fotiha tortadilar).

K a y x i s r a v .
A'lohazrat, izn bering bir so'z demoqqa.

Te m u r .

Sening otang Badaxshonning hokimi edi,
Yurt talashib o'ldirgandi uni Husayn.
Ha, Kayxisrav, tushunaman ahvolingni men.

K a y x i s r a v .

Urushlarda qon to'kilgay, men ham anglayman,
Padarimni o'ldirgan-ku shu nomard, ammo
Necha bora qasam ichdi Sizni ham aldab.
Kamonining sadog'idan mana bu o'qni
Topib oldim.
A'lohazrat, yozuvi ham bor.
O'qib ko'ring!

(Kayxisrav kamon o'qini Temurga uzatadi).

Te m u r .

(Yozuvni ovoz chiqarib o'qiydi).

«Bu — Temur uchun».

Xuddi shundoq shakldagi paykonlar bilan
Sijistonda yog'iy meni yaralagandi.
Bir oyog'im ham bir qo'lim hanuz nogiron.
Ajab holkim, o'shanda sen malham qo'yganding,
Eslaysanmi o'sha kunni,
Amir Husayn?

A m i r H u s a y n .

Ushbu o'qim yuragingga atalgan ammo.

Te m u r .

Zaharlidir?

A m i r H u s a y n .

Ha, albatta! Tegsa bilarding.

Te m u r .

Qay bir fozil aytgan ekan: Tuz aynisa gar

Uni nima tuzatar deb.

O‘h, ablah, olchoq!

Barlos bahodir.

A’lohazrat, ruxsat bering, bu gazandaning

Paykonini o‘z ko‘ksiga joylab qo‘yaylik.

Orqa eshikdan Uljoy Turkon yugurib chiqadi.

Uljoy Turkon .

Olampanoh,

Olampanoh,

Bir zum sabr eting.

Te m u r .

Uljoy!

Amir Husayn .

Uljoy?!

Te m u r .

Sen qayoqdan paydo bo‘lding?

Uljoy Turkon .

Xosxonada men,

Bosh yuvmoqqa suv tayyorlab odatdagidek,

Sartaroshning ketishini poylab turgandim.

Va da’atan bu dahshatli suhbat g‘ovuri

Qulog‘imga chalindi-yu ketolmay qoldim.

Afv etgaysiz cho‘ringizni.

Te m u r .

Sen cho‘ri emas,

Amir Temur zavjasi sen, malikadursan.

Amir Husayn.
Sen — Qozogʻon nabirasi,
Husaynga singil.

Uljoy Turkon.
Men ikki oʻt orasida jizgʻanak boʻlgan,
Ikkisin ham ayaydurgan Uljoy Turkonman.

Temur.
Uljoy, mening gaplarimga quloq tut andak,
Seni goʻyo gʻubori yoʻq sahro guliday
Oʻz bagʻriga bosguvchini tushungil deyman.
Shafqat bilmas hukmdor deb oʻylama meni,
Unutmaki, har qanday kas feʻlidan topgay.
Men akangning qilmishlarin afv eta-eta,
Oqibatda botgandurman gunohga balki.
Afsus, akang shu qadarli ochofat, yuho,
Oʻngʻay kelsa, ayamagan hatto seni ham.

Amir Husayn.
Xudodan qoʻrq,
Amir Temur, isbotingni ayt!

Temur.
Necha muddat ikkalamiz it-mushuk boʻlib
Uchrashmayin,
Arazlashib yurgan kezlarda
Makkor moʻgʻul Samarqandni qayta bosgandi.
Podshohi yoʻq mamlakatning ahvoli maʼlum:
Shunday paytda bosh koʻtarib chiqdi bir guruh.

Amir Husayn.
Sarbadorlar!

Temur.
Sarbadorlar, ha, sarbadorlar!

Mardonavor qo‘riqladi ular shaharni,
Uloqtirib tashladilar mo‘g‘ul qo‘shinin.
Sen bilan men tayyor oshga bakovul bo‘lib
Saltanatni tortib oldik sarbadorlardan.
Sen o‘zingni amir deding, meni-chi, vazir.
Sarbadorning bitta aybi — uquvsizligi.
Umrida hech toj-u taxtni ko‘rmagan kosib,
Uchta-to‘rtta mullavachcha ne ish qilardi?
Pala-partish farmonlarni chiqarib ular
Boyonlarni o‘zlaridan tezda bezdirdi.
Shul sababli omadimiz chopdi bizlarning,
Biz ularni dorga tortdik — nomiga loyiq.

A m i r H u s a y n .

Men bilardim, moyil eding sarbadorlarga,
Dordan olib qolgan eding ulardan birin,
Ismi uning Mavlonozoda.

T e m u r .

Sen sabab bo‘lib
Samarqandda norozilik boshlanib ketdi.
Bir och bo‘ri daf‘atanda qo‘raga kirib,
Ko‘zi to‘ymay duch kelganni bo‘g‘izlagandek
Soliq solding beva demay, bechora demay.
Soliq yig‘ish balosini menga topshirding.
Behuda qon to‘kkanlaring bir karra bo‘lsa,
El-u yurtni talaganing o‘n karra bo‘ldi.
Men bir necha sarbadorni saqlab qololdim.
Vatan uchun jonin tikkan fidoyilarning
Qismatiga achingandim, taxtiga emas.
Qish faslida ochilgan bir chechakday ular:
O‘z-o‘zidan halokatga mahkum edilar.
Biroq sening ochiq go‘rdek yuho og‘zingni
O‘sha paytda yopolmasdan armonda qoldim.

Elga solgan solig'ingning katta qismini
Uljoy bilan ikkalamiz qoplagan edik.
O'z singlingga o'zing hadya qilgan ziraklar
O'z qo'lingga qaytib borsa, olding, noinsof.

Uljoy Turkon.
Nahot, aka?!

Amir Husayn.
Ziragingni tanimaganman.
O'tgan o'tdi.
Temur endi valdirayverar.
Har doimo haq bo'ladi muzaffar odam.

Temur.
Temur bilan gaplashganda bu hikmating puch,
Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun.
Ulug' bir zot yashab o'tgan bizning zaminda.
Turkistonlik avliyo u
Ahmad Yassaviy.
Tingla uning bir hikmatin,
G'oyat ibratli.
«Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi.
Termiltirib xaloyiqqa zor ayladi».
Aynan senga mo'ljallangan bir juft o'qdir bu.

Uljoy Turkon.
Afsuski, men xabardorman buning baridan,
Necha yildir orangizda qora xusumat.
Aka, Sizning joningizni Ulug' Amirdan
Qancha marta so'rab oldim yig'lab, yolborib.

Amir Husayn.
Agar mening singlim bo'lsang, yolborma, Uljoy.
Axir men ham jangchiman-ku, men ham bahodir.

Yaxshisi, sen ko'shkingga ket, oromgohingga,
Kechir meni, aziz singlim!

Uljoy Turkon.
O, Olampanoh,
Hadya qiling menga o'sha kamon o'qini,
U dahshatli bir tarixdan xotira bo'lgay.

Temur
Modomiki, xosxonada bizni tinglabsan,
Xabardorsan bu suhbatning tafsilotidan.
Ma, ola qol,
Yozuvini o'qima faqat.

Uljoy Turkon.
(*Kamon o'qini oladi. Chiqayotib o'qiydi.*)
«Bu — Temur uchun».
Yo'q, bu — men uchun.

Uljoy Turkon chiqadi.

Temur.
Men hamisha shukr aytdim parvardigorga,
Qodir Alloh oydin qildi yo'limni doim.
Zabt aylasam qay bir zamin,
Qay mamlakatni,
Xudoyimning xohishiga tayandim mudom.
Hatto yiroq yulduzlarning fe'li qandoq deb,
Tinglaganman qur'achi-yu munajjimlarni.
Turfa din-u e'tiqodga ibodat qilgan
Necha-necha qavmlarni hukmimga oldim.
Muhammadning yalovini ko'tardim baland.
Biroq o'zing birga o'sgan,
Birga ot surgan,
Bir masjidga some bo'lgan zotdan ayrilmoq —

Bu g'oyatda ma'yus qilib qo'yar odamni.
Siz ne deysiz,
Muhtaram pir Said Baraka?

Mir Said Baraka.
Musulmonning qonin to'kmoq joiz bo'lmag'ay.
Ammo-lekin dini Islom bayrog'in tutgan
Yo'lboshchiga pand bermoqlik gunohi azim.
Tavba qilsin,
Tavba qilsin, Amir Husayn.
Zero, shundoq lutf etmishlar payg'ambarimiz:
Ertayu kech ochiq erur tavba eshigi.

Temur.
Shayxulislom janoblari, fikringiz nedur?

Shayxulislom.
Muborak bir kalimani keltirib o'tay,
U — «Qur'oni karim»dandur!

Temur.
Vujudim quloq!

Shayxulislom.
«Yaf'alullohu moyashau va yaaxkumu mo yo'rid»,
Ya'ni, Alloh nimaniki xohlasa agar,
Irodasi bilan shuni hukm qilgaydir.

Temur.
Insho'lloh, yaratganning o'zi bilgaydir.
Ey, Siz mening amirlarim, bahodirlarim.
Qadamidan o't chaqnagan lashkarboshilar.
Alloh Sizning dilingizga ne tuyg'u solmish?
Muntazirman javobingga, Barlos bahodir.

Barlos bahodir.
Muntazirmiz amringizga, o, Sohibqiron,
Siz amr eting — kemirgaymiz Ko'hi Qofni ham.
Siz amr eting — simirgaymiz Bahr-u ummonni.
Kuch olgaymiz shijoat-u himmatingizdan.
Sizga sodiq bo'lurmiz deb qasam ichganmiz.
Ulug' Amir, xudo shohid, jangchining onti
Har qandayin martabadan turar balandroq.
Sizning aziz joningizga otilgan har o'q
Eng avvalo, kelib tekkay bizning ko'krakka.
Nomard yovni agarda Siz kechirsangiz ham,
Biz mutlaqo kechirmasmiz. Ketgaymiz tarqab...





MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O‘ZBEK
NASRIDAN NAMUNALAR



O‘LMAS UMARBEOV

SOVG‘A

Hikoya

— Men tayyorman. Tayyormisiz? — so‘radi Valijon.

— Tayyorman, bolam. Yoz! — dedi Shahodat xola.

Lekin nimadan boshlashni bilmay, o‘ylanib qoldi. U sira o‘g‘liga xat yozmagan edi. Eriga yozar edi. Rahmatli Rahmonqul aka arabcha o‘qishni bilardi. Innaykeyin, uning yozuvini yaxshi ko‘rardi. «Shahodat, zerbabarini xo‘p keltirasan-da. Pulemyotday o‘qiyman xatingni!» — derdi har yozganida.

O‘g‘li arabchani bilmaydi. O‘zining esa yangi alifbega uquvi yo‘q. Uquvi bo‘lganda qo‘shnisining o‘g‘lini chaqirib o‘tirmasdi, o‘zi yozardi. Yozadigan gapi ko‘p edi. Mana, bir yil bo‘ldiki, o‘g‘lidan xat olmaydi, nom-nishonsiz ketdi. O‘qib yurgan paytlarida tuzuk edi, haftada, juda bo‘lmasa oyda bir yozib turardi. Ishga kirdi-yu, bedarak ketdi. Ammo ishga kirganda o‘n besh so‘m pul yubordi! Erta kuz edi o‘shanda. Avji dolzarb payt. Butun qishloq, tirik jon borki, dalada. Shahodat xola kolxoz bog‘chasida tushlikdan keyin bolalarni endigina uxlatib o‘tirgan edi, hovlini boshiga ko‘tarib Qoravoy pochta kelib qoldi.

— Shovqining qursin, namuncha baqirasan? — dedi bo‘g‘ilib Shahodat xola. — Bolla uxlavotti! Nima deysan?

— Sizga pul keldi, pul! — dedi pochталон og‘zining tanobi qochib.

— Qanaqa pul? Qatdan? — hayron bo‘ldi Shahodat xola.

— Qanaqa pul bo‘lardi? Qog‘oz pul-da! — dedi pochталон.

— Next o‘n besh so‘m! O‘g‘lingiz yuboribdi.

— O‘g‘lingiz yuboribdi? Voy, o‘g‘limdan aylanay! — Shahodat xola sevinib ketdi, bolalar esidan chiqdi, shang‘illab gapira boshladi. — Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan! Xat-pat ham bormi?

— E, xola! — pochталонning jahli chiqdi. — Xatni nima qilasz? Pul yuboribdi, bo‘ldi-da. Nochor odam pul yuboradimi! Pul so‘raydi. Xo‘sh, hozir olasizmi? Yo ertaga pochtaxonadan olasizmi?

Shahodat xola o‘ylanib qoldi. Nima qilish kerak? Hozir olib qolsa, hech kim bilmaydi. Bilsa yaxshi bo‘lardi. Ayniqsa, Qumri otin bilan A‘lobush bilsa yaxshi bo‘lardi. Go‘yo ikkalovining farzandi farzand-u boshqalarniki farzand emas. Boladan gap ochildimi, tamom, biri-biriga gap bermay ertani kech qilishadi, kechni erta. «Xolposhsham tushmagur... baloda, balo!..» deb otin boshlasa, bilginki, ketidan A‘lobush turadi: «Sobirjonimni aytmaysizmi, tasadduq!» «Tasadduq» demay ket ikkaloving ham!

— Ertaga pochtaxonadan ola qolay?!

— O‘zim ham shunday dersiz, deb turuvdim, — pochталон tirjaydi. — Butun qishloq bilsin, deysiz-da! Durust, durust. A‘lobush kennoyim ham hech uyda olmaydilar, borib oladilar.

Ertasiga ertalab Shahodat xola yangi kavush-mahsisini, Qumri otin bilan birga uzoq yili tiktirgan qora duxoba kamzulini kiyib ko‘chaga chiqdi. Hali erta edi. Hech kim yo‘q. Faqat muyulishda rais shofyorining eshigini taqillatib turardi. «Ichibdi-da yana, — xayolidan o‘tkazdi Shahodat xola. — Rais endi yeb qo‘yadi». Shu payt dimog‘iga gup etib issiq nonning hidi urildi. Osmonga qaradi. A‘lobushning mo‘risidan tutun chiqib turardi. Shahodat xola shu yoqqa yurdi.

— A'lobush! Hoy, A'lobush! — dedi eshikni qiya ochib.
—A'lobush-uvv!

Avval javob bo'lmadi. Keyin:

— Huvv, tasadduq, huv-v-v! — degan cho'ziq ovoz eshitildi.

Bu A'lobush edi. Shahodat xola jilmayib qo'ydi. Ko'p o'tmay bir savat bug'i chiqib turgan kulcha ko'tarib yo'lakda A'lobushning o'zi ko'rindi.

— Eshikda nima qilib turibsiz, tasadduq? — dedi A'lobush Shahodat xolaga boshdan-oyoq qarab chiqib. — Ichkariga kiring. Choyim tayyor.

— Shoshih turibman, rahmat, — dedi Shahodat xola.

— Ha, yo'l bo'lsin, tasadduq? — so'radi A'lobush, yangi kavush-mahsiga ko'z qirini tashlab.

— Po'shtaga ketyapman, aylanay, — dedi beparvolik bilan.

— Ha, tinchlikmi, tasadduq? — so'radi A'lobush.

— Adhamjon pul yuboribdi, — dedi Shahodat xola. — Shuni olib kelmoqchiman.

— Voy, tasaddug'-ey, ey, voy, tasaddug'-ey! Ho'-o'p bolalarimiz bor-da, tasadduq! — dedi A'lobush. — Sobirjonimni aytmysizmi, tunov kuni xatida, oyi, mandalinni posilka qilsam nima deysiz, depti. Yo'q, dedim, tasadduq, yo'q, dedim. O'zing kiyaver, dedim. Maskopda yarashadi bunaqa kiyimlar, dedim.

— Mandalini nima ekan, aylanay? — so'radi Shahodat xola, kulgidan o'zini zo'rg'a tiyib.

— Nima bo'lardi, tasadduq, allambalo materiyal bo'lsa kerak-da!

Shahodat xola endi o'zini tutib turolmadi. Mandarinning nimaligini aytib yuboray dedi-yu, lekin aytmadi, o'rtog'ini xafa qilgisi kelmadi. Faqat to'yib-to'yib kuldi.

— Nega kulyapsiz, tasadduq? — so'radi A'lobush.

— Bolalarning qilgan ishiga kulmay bo'ladimi?

— To'g'ri aytasiz.

A'lobush qo'shnisiga qo'shilib kuldi.

— Xo‘p, men boray bo‘lmasa, — dedi Shahodat xola va ko‘chaga chiqdi. Chiqdi-yu, quruqdan-quruq ketayotganidan tortindi. Maqtangani kirgan ekan, deb o‘ylamasin tag‘in A‘lobush! Orqasiga qaytdi.

— Aytganday, A‘lobush! Esim qursin, nega kirding ham demaysiz. Bir qatim oq ipingiz bormi? Buvinisaning kenjasi fartug‘ini yirtib qo‘yibdi. Tikay desam, ipim tamom bo‘libdi.

— Bir qatim emas, bir g‘altak oling, tasadduq. Ip sizdan aylansin!

Pochta Qumri otinning uyidan ikki hovli nari edi. Shahodat xola kiray dedi-yu, bog‘chaga kech qolishini o‘ylab, kirmadi. Kirib ham nima qiladi?! A‘lobush bildi — butun qishloq bildi degan gap!

Pochtada darrov ishi bitdi. Taxi buzilmagan o‘n so‘mlik bilan besh so‘mlikni qo‘liga olar ekan, ko‘zlarida yosh yiltiradi. Pichirlab, o‘g‘lini duo qildi. Pulni cho‘ntagiga solishni ham, solmaslikni ham bilmay, qo‘lida ushlaganicha ko‘chaga chiqdi. To‘lib turgan yuragi bo‘shashib ketdi — yig‘lab yubordi. Uning birinchi marta shunday yig‘lashi edi. Rahmatli eridan qolgan dard ham, o‘zining tortgan hamma qayg‘u alamlari ham, o‘g‘lining mana shunday obro‘ga erishib, pul yuborishi ham shu yig‘ida aks etar edi.

— Shahodatxon, ho, Shahodatxon! Ko‘chaning o‘rtasidan nima qilib turibsiz?

Shahodat xola shosha-pisha ro‘mol uchi bilan ko‘zlarini artadi, yoniga qaradi.

Ikki qo‘lini beliga tirab, eshik oldida Qumri otin turardi.

Shahodat xola o‘zini bosib olib, shu tomonga yurdi. Pulni cho‘ntagiga solmoqchi edi, solmadi. «Otin ham bilib qo‘ysin!» — dedi ichida.

— Assalomu alaykum! Ertalab po‘stada nima qilib yuribsiz? Adhamjonga pul yuboryapsizmi? Bola tushmagurga haliyam pul yuborasizmi-a?

— Yo‘q, otin, — Shahodat xola jilmaydi. — Men yuborayotganim yo‘q. Adhamingizning o‘zidan pul kelibdi. Shuni olib kelyapman!

— Shundog‘ deng, voy, umringdan baraka topkurey. — Qumri otin qo‘lini yozib duo qildi. — Martabasi baland bo‘lsin, topgani tugallik bilan o‘tsin. Omin! Shundoq deng?

— Shundoq, aylanay, shundoq.

Shahodat xola uyiga qanday yetib kelganini bilmadi. Keldiyu, pulni kechagina o‘qib o‘tirgan «Yusuf va Zulayho»ning o‘rtasiga solib, tokchaga qo‘yib qo‘ydi. O‘n so‘mligi hali ham taxi buzilmay turibdi. Besh so‘mlikni ishlatib yubordi. Ishlatmoqchi emas edi, Adhamjon kelganda ikkovini ham o‘ziga bermoqchi edi. Pulga zor bo‘lmasa nima qiladi ishlatib? Buning ustiga, yaqinda pensiya bera boshlashdi. Pulga zor emas. Lekin ishlatib yubordi. Qoravoy pochtagi uylanganda to‘yona oldi-yu, miyonchaga yetishmay qoldi. Shunda ishlatib yubordi. O‘n so‘mligi turibdi. Juda o‘ksib ketganda tokchadan kitobi bilan olib qarab o‘tiradi. Kecha chidolmadi. Pochtaga bordi. Qoravoy yolg‘iz o‘tirgan ekan.

— Yo‘qmi? — so‘radi unga termilib.

— Yo‘g‘-a, xola, yo‘q, — dedi Qoravoy aybdor ohangda. — Men ham tushunolmay qoldim. U yoq-bu yoqqa ketib qolgan bo‘lsa kerak-da... — U shunday dedi-yu, yaxshi bahona topganday, shu gapga mahkam yopishib oldi. — Ha, u yoq-bu yoqqa ketgan!! Injener degan gap hozir juda zarur gap, xola. Injener hamma yoqda kerak. Biron yoqqa jo‘natishgan. Kelib qoladi. Mana ko‘rasiz, yo xat keladi, yo o‘zi kelib qoladi.

Shahodat xola uyiga qaytdi. Ko‘ngli xira edi. Zora Qoravoyning aytgani kelsa?! U erinibgina ovqatga unnadi. Piyoz bilan go‘shni qovurib bo‘lib, nima qilishini bilmay o‘ylanib qoldi. Keyin, bo‘lganicha bo‘lar, deb bir tovoq suv solib yopib qo‘ydi.

Shu payt kimdir eshik tomondan:

— Xola, kirsam maylimi? — deb qichqirdi.

— Bo‘masa-chi, kiraver, — dedi Shahodat xola. Bu Buvinisaning to‘ng‘ichi — Valijon edi.

— Kel, bolam, kel, — dedi Shahodat xola. — Ha, nima deysan?

— Xola, meni maktabimdan yuborishdi, yo‘q... O‘zim keldim. Anaqa... — Valijon tutilib qoldi.

— Ha, qanaqa? Gapiraver, — dedi Shahodat xola.

— Bilasizmi, yaqinda... Sakkizinchi Mart, — dedi Valijon o‘ylanib-o‘ylanib. — Shunga... shunga sovg‘a qilmoqchiydik. Men. Annaqa... qanaqa sovg‘a qilishimni bilmayman.

Valijon burnini sho‘lq etib tortdi-da, Shahodat xolaga qarab javdiray boshladi.

— Tuzukroq gapir, bolam, nima qilmoqchisan, qanaqa sovg‘a?

— Sizga sovg‘a, — dedi Valijon.

— Menga? — Hayron bo‘ldi Shahodat xola.

— Sizga. Uchinchi «B»dagilar hamma xotinlarni bo‘lib olishdi.

Men oyim bilan sizni tanladim. Ukam sizni yaxshi ko‘radi. Nuqul bog‘chadan kelganda «buvimga boyaman» deb yig‘laydi.

Shahodat xola jilmaydi.

— Shuning uchun menga sovg‘a qilmoqchimisan?

— Ha, — dedi Valijon. — Lekin nima qilishimni bilmayapman. O‘zingiz aytib bera qoling.

Shahodat xola kulib yubordi. Ko‘ngli birdan yorishib ketdi. Valijonni bag‘riga bosdi.

— Rahmat, bolam, rahmat, — dedi u Valijonni o‘parkan.

— Menga sovg‘a kerakmas.

Hamma sovg‘ani oyingga qilgin. Oyingga kerak sovg‘a. Senlarni boqaman, deb bechora tinim bilmaydi.

— Oyimlarga tayyorlab qo‘ydim, — dedi Valijon.

— Bo‘lmasa, qo‘ya qol. Menga kerakmas.

— Ayta qoling!

Valijon yig‘lagunday bo‘lib turardi. Kampir o‘ylanib qoldi.

— Nima sovg‘a qilsang ekan?

Ko‘p o‘yladi. Nihoyat topdi:

— Yozuving ko‘hlikmi? — so‘radi u.

— Doim besh olaman! — dedi Valijon.

— Bo‘lmasa, Adham akangga bitta xat yozib berasan.

— Xat? — Valijonning lablari cho‘chchaydi.

— Men aytib turaman, sen yozasan. Bu juda g'alati xat. Ana shu menga sovg'ang bo'ladi. Bo'ptimi?

— Bo'pti! — dedi Valijon.

— ...

— Yozmaymizmi? — so'radi Valijon zerikib.

— Yozamiz, bolam, yozamiz, — dedi Shahodat xola o'pkasi to'lib va sekin gapira boshladi.

U shunchalik sekin gapirardiki, Valijonga bir marta ham qayta so'rashga to'g'ri kelmadi. Qosh qorayganda xat tayyor bo'ldi.

— Qani, o'qib ber-chi, — dedi Shahodat xola.

Valijon salmoqlab o'qiy boshladi:

«Assalomu alaykum, Adhamjon, o'g'ilginam! Esonmisan, omonmisan? Tinchmisan? Yuborgan pulingni olib, boshim osmonga yetdi. Rahmat. Rahmatli dadangning o'rnini bosib turganligingdan benihoya xursandman. Ishqilib, umring uzoq, martabang baland bo'lsin. Niyatingga yet.

O'g'lim, bolajonim, ko'nglimni g'ash qilib turgan bir gapni aytsam, xafa bo'lma, har holda onangman. Mana, yil bo'lib qoldi, sendan xat olmayapman. O'zing ham kelmaysan. Bilaman, ishing ko'p, vaqting yo'q. Lekin ikki enlik bo'lsa ham xat yozsang, shu menga kifoya. Sog'lig'ingni, o'ynab-kulib yurganingni bilsam, bas.

Mendan ahvol so'rasang, ahvolim yaxshi. Hali ham bog'chada bolalar bilan bag'-bug'lashib yotibman. Kecha mozor boshiga borib, dadangning mozorini suvab keldim. Rahmatli orzu-havasingni ko'rolmay ketdi. Tunov kuni Sobirjondan xat kelgan ekan, seni so'rabdi. Yaxshi, dedim. Ishqilib, qayerda bo'lsang ham omon bo'l.

Seni sog'inib kutguvchi oying Shahodat».

Valijon xatni shu kuniyoq pochta qutisiga tashladi.

Oradan bir hafta o'tdi. Shahodat xola bog'chadan kelib, ayvonda ko'rpa qavib o'tirardi. Ko'chadan shang'illab

A'lobush o'tib qoldi. Ko'p o'tmay o'zi kirib keldi. Qo'lida posilka quti.

— Tasadduq! Sobirjoningizdan posilka keldi, — dedi u ayvonga chiqib va birdan kulib yubordi.

— Ha, tinchlikmi? — so'radi Shahodat xola.

— Tinchlik, tasadduq, tinchlik!... — u kulgidan o'zini to'xtatolmay zo'rg'a gapirardi:

— Maldalini tushmagur kiyimlik emas ekan, tasadduk, yeydigan narsa ekan, yeydigan! Nima ekan, deb sabrim chidamay po'shtada ochdim. Bundoq qaragam, maldalin! Oling, mazasini ko'ring, tasadduq.

U bir hovuch mandarinni Shahodat xolaning etagiga tashladi.

— Biram mazali, biram mazali! Maskopda yo'q narsa bor ekan, tasadduq, yo'q narsa bor ekan.

Shahodat xola zo'r-bazo'r iljaydi.

— Umridan baraka topsin Sobirjon.

— Iloyim aytganingiz kelsin, tasadduq. Xo'p, men chiqay, ovqatim kechikib ketdi. Chiqing, tasadduq, chaqchaqlashib o'tiramiz, chiqing.

A'lobush yana shang'illab chiqib ketdi.

Shahodat xola mandaridan bittasini archib, og'ziga soldi. Lekin o'tmadi. Chaynalib qoldi. Ko'zlari yoshga to'ldi. Miyasiga quyilib kelayotgan og'ir fikrlarni haydamoqchi bo'lib o'rnidan turdi. Hovliga tushib og'zidagini tupurib tashladi. O'choq boshiga borib, qaytib keldi. Ayvon ustuniga suyandi.

— Yana ko'z yoshimi-a? — dedi shu payt kimdir.

Shahodat xola cho'chib orqasiga o'girildi.

Yo'lakda og'zi qulog'iga yetib Qoravoy turardi.

— Qani, darrov ko'zingizni artib oling-chi!

— Xo'p, bolam, xo'p.

Shahodat xola yangi bilan ko'zlarini artib, jilmaygan bo'ldi.

— Mana bu boshqa gap, — dedi Qoravoy. — Endi manavi xatni oling.

Shahodat xolaning yuragi o'ynab ketdi.

— O'g'limdanmi?
— Ha, o'g'lingizdan.
— Voy, bolam-ey, bolajonim-ey! — Shahodat xola gullik konvertdagi xatni bag'riga bosib yig'lab yubordi.

— Iya-iya! Bu qanaqasi bo'ldi? — dedi Qoravoy kulib. — Xat kelmasayam yig'i, kelsayam yig'i ekan-da? O'qib beraymi? Shahodat xola bosh irg'adi.

— Bu yoqqa bering.

Qoravoy konvertni ochdi-yu, hayron bo'lib qoldi. Xatni u yoq-bu yoqqa aylantirib ko'rdi, konvertni yangitdan qarab chiqdi. Keyin o'ylanib qoldi.

— O'qimaysanmi?! — dedi Shahodat xola yengidan tortib.
— Adhamdan ekanmi?

— Ha, ha, o'g'lingizdan.. Adhamdan... — dedi Qoravoy xatdan ko'zini uzmay.

— O'qi bo'lmasa!

— Hozir... mana... eshiting, — Qoravoy Shahodat xolaga bir qarab qo'ydi-da, o'qiy boshladi. — «Assalomu alaykum, oyijon. Sizni sog'intirib qo'yganim uchun meni kechiring. Uzoqqa ketib qoluvdim. Oyijon, sizni juda sog'indim. Ahvollaringiz tuzukmi? Xatingizni olib juda xursand bo'ldim. O'zingizni urintirmang. Mening ishlarim yaxshi. Yaqinda uchrashib qolamiz.

Oyijon! Sizni xotin-qizlarning xalqaro bayrami — Sakkizinchi Mart bilan tabriklayman. Xatingizni sog'inib kutuvchi o'g'lingiz — Adham».

— Bolam, bolajonim!

Shahodat xola ko'zini daryo qilib xatni Qoravoyning qo'lidan oldi-da, bag'riga bosganicha uyga kirib ketdi.

Qoravoy hech narsaga tushunmay joyida turib qolgan edi.

Xatni Valijon yozganidan u ham xabarsiz edi.







SHUKUR XOLMIRZAEV

QARIYA

Hikoya

Qo‘ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qiladi. Xususan, moli yo‘qolgan kishilarga asqotadi: «O‘zi ola buzoq, bir pochasi qora, ikki yashar! Kimki ushlagan bo‘lsa, yo ko‘rgan bo‘lsa, yo bog‘lagan bo‘lsa o‘ttiz so‘m suyunchisi borho-o!!» deb baqira boshlaganida ovozi yetti mahalla nariga ketadi. Qo‘ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan cho‘tal oladi. Biroq hozir bu kasbning omadi ketgan, rayon shaharga aylanayotgani uchun aholi ko‘payib, yer tag‘in ham torlik qilib, tomorqalarda mol saqlab bo‘lmaydigan darajaga yetyapti. Shuning uchun molini yo‘qotib, Qo‘ziboy cholga murojaat qiladigan kishilar ham juda oz! Biroq besh-olti yildan buyon Amudaryo yoqasiga yaqin ko‘llar bo‘yida guruch yetishtirayotgan koreys o‘rtoqlar bozorga serqatnov bo‘lib qolishgan. Ular kuzda kelib yotib olishlari bilan toki qishni chiqarmay ketishmaydi! Shundoq bo‘lgach, ular qo‘shimcha dastyorlarga muhtoj: keltirishgan qop-qop guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak. Vaqt-bevaqt ularga choydandan qarashib turish lozim. Ishning eng qiyin va «sermahsuli» qishga qoladi. Ayniqsa sahar paytida bozordan baralla ko‘rinib turuvchi tog‘lardan shundoq izg‘irin esadiki, toqat qilib bo‘lmaydi. Shunda beva xotin «jon olov, jon er» deganidek, sotuvchi o‘rtoqlarga kul paqirda keltirilgan laqqa cho‘g‘ juda ham asqotadida! Bu cho‘g‘ni ularga Qo‘ziboy chol qilib beradi.

Bozorda bu qariyadan bo‘lak tag‘in beshta xizmatchi bor. Biroq chol sotuvchilar bilan toza elakishib, mijoz bo‘lib ketgan. So‘ngra u boshqalardek ortiqcha to‘ng‘illamaydi, berganini olib, haqiga mo‘l-ko‘l duo qiladi. Pishiqchilik mahalida ham Qo‘ziboy cholning ishi ko‘payib, qo‘li qo‘liga tegmay qoladi. Hali qarabsiz, shartta yorib yeb ketadigan qovun-tarvuz po‘choqlarini chelakka yig‘ib yuradi. Hali qarabsiz, oyoq osti bo‘lgan uzum, pomidor, karam po‘choqlarini supurib yuradi. Ba‘zan qo‘shni mol bozoriga o‘tib, tezak ham to‘playdi.

Shu ishi evaziga bozorkomdan oltmish so‘m maosh oladi, xizmatchilar ro‘yxatiga «ishchi» deb yozib qo‘yilgan. Maoshdan tashqari, sotuvchilarning himmatiga qarab tushadigan uch-to‘rt chaqa pul ham cholning cho‘ntagiga kiradi.

Qo‘ziboy chol — oriq, oyoqlari chilcho‘pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirsam, umrida ko‘rmagan odami bilan ham nihoyatda quyruq so‘rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi.

Darvoqe, ravoch chiqqanda ham qariyaning omadi yurishib qoladi: chunki eshaklarida qop-qop ravoch olib tushgan tog‘lik o‘rtoqlar ham Qo‘ziboy cholning mijozlaridir. Ular rayon markazidagi aholi singari og‘ir, «bardoshli»mas. Keltirgan mollarini donalab sotib o‘tirgandan ko‘ra, uni ko‘tara savdo qilib, o‘zlariga kerakli narsalarni xarid qilib qaytishga shoshadilar: tog‘ uzoq, kechgga qolmay qishloqlariga yetib olishlari kerak. Ana shunda Qo‘ziboy chol ularning bamisoli hojatbarori bo‘ladi. Biroq u bu xil olibsotarligidan kam foyda qiladi. Negaki, savdoga qiziqib ketganidan keyin «o‘n tiyinga beshtalab» sotayotgan ravochini «o‘n tiyinga o‘ntalab» sotganini ham bilmay qoladi. Shunga qaramay, bu ishni qo‘ymaydi. Ayniqsa kechagi kinoxona yonida chordana qurib sota boshlaganida o‘zi ham juda mamnun bo‘lib ketadi, boshqalar ham...



Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo‘q. Shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozchilarga qo‘shilib, ko‘mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan. Qo‘y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan. Bola ko‘rmagan. Xotini bundan sakkiz yil muqaddam o‘zining qo‘lida jon bergan. Xotining qabri Qizil Gazada. Uchiga paxta qo‘shib o‘rilgan qubbali jamalagi bilan kiygichi hamon qariyaning uyida, tokchada...

Shundan beri chol yolg‘iz. To‘rt yil bo‘ldiki, uni o‘lim vahimasi chulg‘ay boshladi. Ko‘zi pishib ketgani uchun o‘limdan emas, jonkuyari bo‘lmagani uchun o‘lganini hech kim bilmay qolishidan qo‘rqadi.

O‘limligini tayyorlab, tayinli bir kishiga berib qo‘yishni o‘z burchi deb bildi va bu yillar orasida jamg‘argan pulini Qobil qassobga berib qo‘ydi. Onda-sonda qassobning do‘koniga kirib: «Qalay, zo‘rmi?!» deya pulning omon-eson turganiga shama qilib qo‘yadi. Qassob ham katta iyagini qashiyotgan bo‘lib: «Xotirjam bo‘l!» deydi.

...Bu yil kuz barvaqt tushdi. Pastidan to‘kilgan daraxtlar uchi qontalash. Chug‘urchuqlar serob. Mezonlar ko‘p — simyog‘och simlarida, daraxt shoxlarida, tom bo‘g‘otidan chiqib turgan yog‘och uchlarida. Chumchuqlar ham sertashvish. Rayon ko‘chalarida odam siyrak. Hamma paxta terimida. Qo‘ziboy chol ham bir hafta terimda bo‘lib keldi. Juda yayradi! Biroq qaytib kelgan kuni kimsasiz bozorga kirib, huvillab yotgan rastalarni ichki bir mamnuniyat bilan aylanib ko‘rarkan, bozor odog‘idagi kichkina darcha qattiq itarilib, ochilib ketdi, Ro‘moli uchini og‘ziga tutib olgan to‘lagina ayol qizargan ko‘zlarini yashirib, darvozaga qarab yo‘naldi.

— Bahay? Tinchlikmi? — so‘radi bozor ishchisi.

— U, akajon... Otamni berib qo‘ydik. Bilasiz-ku, qandoq odam edi! — kelinchak o‘tib ketdi.

«E, misgar olamdan o'tibdi-da... Chakki ish bo'пти. Rahmat qilsin»,— dedi qariya va bu kelinchak haqiqatan ham misqarning kelinimi-yo'qmi ekanini bilmogchidek, uning ketidan tushdi. Kelinchak chorrahadan o'tib, past ko'chaga tushib ketdi.

Qo'ziboy chol choyxonaga kirdi. Kimsasiz, zax xonaga o'tib, bitta ko'k choy buyurdi-da, chorpoyaga o'tirdi. Do'ppisi ustidan qiyiqcha o'ragan G'oziboy choyni olib kelgan edi, uni ro'parasiga o'tqazib:

— Attang-a... miskar o'tibdi!— dedi.— Dunyo shu ekan-da, birodar!

Choyxonachi shoshib qoldi, surishtira ketdi.

— E, qizishmang, inim,— dedi Qo'ziboy chol beparvolik bilan. — Ajal vaqtiki kelib, har birimizning ham eshigimizni taqillatadi. Musulmon odam o'limni bo'yniga olib qo'ygani ma'qul... Meni boshqa bir nima o'ylatadi, inim! Qodirboy ko'p mo'min-musulmon odam edi. Balli... Uning izzat-hurmatini joyiga qo'yib chiqararmikan bu kelinchak? Shu yog'i meni o'ylatadi... Chakki ish bo'пти-da! Balki tayyorgarligi yo'qdir? A?.. Unda qiyin! Inim, o'lim degani to'y emas, men sizga aytsam. To'y degani bamaslahat bo'ladi, o'lim tuyqusdan keladi. Buning farqi katta!.. Attang!

Bo'shshib qolgan choyxonachi Qo'ziboy qariyaning uzun, oq oralagan echki soqoli, cho'kik yonoqlariga o'ychan tikildi.

— Ota, so'raganning aybi yo'q. Necha yoshga bordingiz?— so'radi u.

Chol taltayib har tarafga qarab oldi.

— Nasib bo'lsa, mening hisobimda... ikki kam yetmishga kirdim! Men bilan o'sgan, mana, Qobil qassob payg'ambar yoshini berganiga naq besh yil bo'ldi. Shu hisobda uyam ikki kam yetmishga chiqdi. Men ham yetmishni qoralab qoldimov!

Choyxonada odam ko'paydi. Qo'ziboy chol ular bilan so'rashib, paxtadan olgan taassurotlarini hikoya qilib xiyla o'tirib qoldi:

— E, bu Shoymardon Quدرات deganingiz toza zo‘r ekan! Desangiz, paykalda paxta oppoq bo‘lib shu... charvi moydek bo‘lib oqib yotibdi! Mashinasi bilan bir oralasa bormi, quruq g‘o‘zasini ko‘rasiz! U zo‘r ekan... Haloli bo‘lsin! Oltita bolasi bor ekan, xo‘sh... bitta qo‘li cho‘loq. O‘zi anavi Sho‘rchidan bo‘ladi. Qo‘ng‘irotdan! Boysun Qo‘ng‘irotdan! Alpomishning urug‘i-da, baraka topsin...

Kechqurun uyiga bordi. Qo‘shning echkiları tomorqaga kirgan ekan, ularni haydab kentikdan oshirdi-da, o‘ylab turib bostirmaga chiqdi:

— Ho-ho-o! — deb baqirdi. — Biri ola, biri qora echki ko‘rgan bormi! Suyunchisini olib kelaver-ho! Qo‘ziboy jarchining makkasini yeb yuripti! Baraka topsin egasi-yo!

Qo‘shni chiqdi, chol bilan kulishdi. U dahlizga kirayotgan edi, yiroqdan kelayotgan yig‘i tovushini eshitib, turib qoldi. Xafa bo‘ldi. Siyrak, uzun qoshlarini chimirib, ichkari xonaga o‘tdi. Po‘stakday qotib ketgan palos ustida turib, xonaga razm soldi. Tokchadagi jamalakni ko‘rib, qo‘liga oldi-da, tomosha qildi. Yana avaylab joyiga qo‘ydi va qornidan ochiladigan yog‘och sandiq ustidan eski joynamozini olib to‘shadi. Tiz cho‘kib, rosa tilovat qildi. O‘lganlarga jannatdan joy tiladi, tiriklarga insof-adolat... So‘ng pichirlab: E rasuli barhaq! Imonimni ber, — dedi. — Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim... Tog‘lik og‘aynilarni ham aldamadim. Ko‘pning duosini oldim... Ha, farzand ko‘rmadim. Senga bir yomonligim o‘tgandir-da... O‘zingga shukr, Qobilboyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko‘msin! E, Qo‘ziboyning hech kimi yo‘q ekan demasin birov!...»

U yengil tortib qo‘zg‘aldi. Biroq tashqariga chiqib tag‘in yig‘i ovozi eshitdi va tag‘in ta‘bi kir bo‘ldi. Allaqanday vahima yuragiga tushib, tor ko‘chaga chiqdi.

Ko‘chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi. Soyning tik qirg‘og‘ida qadimgi qo‘rg‘on

vayronalari qaqqayib turar, uning vodiya qarab ochilgan shinaklarini kaptarlar in qilgandi. Qo'rg'onning devori ustida ikkita bola ko'rinar edi.

«Hah, shumtakalar! Yiqilib tushsa, kimga qiyin?! Yosh-da, yosh...»

Shu kecha qattiq shamol bo'ldi, chol bekorchilikda ekib, yaqinda o'rib qo'yan makkajo'xorilarini har tarafga sochdi. Bostirma eshigi ko'p marta ochilib yopildi.

Allaqayoqdan bir it uzoq hurdi, tongga yaqin uvladi.

Qo'ziboy cholning ta'bi battar xira bo'lib uyg'ondi.

Shu kuni uning ishi yurishmadi: kecha shamolda to'sto'poloni chiqqan bozorni supurib, supurindini axlat qutisiga solib qo'yan edi, bir mashina tislani to'kib yubordi.

Chol bozorkom raisidan dakki eshitdi. U Qodir miskarning o'limiga ham kechikib bordi...

Kechqurun Qo'ziboy chol gangib, qassobxonaga mo'raladi:

— Hormang, usta? Zo'rmi?

Qassob go'sht sotilmayotganidan kuyunib o'tirgan edi, tumshaydi: buzilib qolsa, nima qilaman?

— E, tashvish chekmang,— dedi Qo'ziboy chol.— Hademay paxtadan odamlar qaytishadi... Bu yoqda kun soviyapti!

— Siz ham gapirasiz-da!



Qo'ziboy chol shu oqshom yotib qoldi. Saharda turganda yomg'ir shivalab yog'ar, tevarak tinch, bostirma biqiniga taqab taxlab qo'yilgan sap-sariq jo'xoripoyalari ustida chumchuqlar g'ujg'on o'ynashardi. Yomg'irda shalabbo bo'lgan bir it devor tagida iskalani turardi.

— Tur! Yo'qol!— Qo'ziboy chol unga kesak otdi. It kentikdan o'tib ketdi.

Chol odati bo'yicha soyga yuvinishga tushdi-yu, qaytishga madori yetmay qoldi. Azoyi badani uvishib og'rir, shundoq toza havo ham unga yetishmayotgandek edi. Uyga zo'rg'a

yetib kelib, ko'rpachaga cho'zilgan edi, ko'zi ilinib tush ko'rdi. Marhuma xotini emish. «Yuring, yuring!» deb qo'lidan tortayotgan emish. Chol uyg'onib, bu tushning ta'birini yomon tomonga yo'ydi. Bozorga borishga ham hafsalasi bo'lmadi. Ayyondagi dekchanning tagiga to'rtta qurigan yog'ochni tiqib, ichiga bir kosa suv, kartoshka bilan ikkita sabzi solib, miltillatib qo'yishni o'yladi-yu, erindi. Ovqatga ishtahasi yo'q edi...

Shu bo'yi yotib qoldi. Xayriyat, ertasiga qo'shnisi Jamol aka tag'in bu yoqqa tushgan echkilarni haydagani kirganida uni ko'rib qolib uyidan bir kosa achchiqqina sho'rva chiqardi. Qariyaning ichi ilib, sal madorlandi.

— Bahay, olamda nima gap?— so'radi u.— Men... bozorga chiqolmadim, Jamolboy! Andak tobim aynib yotib qoldim deng... Shamol tegdimi, bilolmadim, Xo'sh?

— Yangilik shulki, rayon odamga to'lib qoldi,— dedi qo'shni.— Paxtadan qaytishgan, bozoringiz ham gavjum... Ko'chaga chiqing, yaxshi bo'ladi.

— To'g'ri aytasiz. Yotishdan foyda yo'q!

Qo'ziboy chol shundoq degani bilan tushgacha ko'chaga chiqolmadi. Kechga tomon umrida birinchi marta hassa tayanib chiqdi. Rayon markaziga oralaganda, uning kayfi xiyla chog' bo'lib ketdi... E! Chol haqiqatan ham yolg'iz emas! O'g'li bo'lmasa, o'g'lidek izzat qiladigan yoshlar bor... Ana, o'zi tengi qariyalar ham unga izzat-ikrom ko'rsatadi... Shu koreys o'rtoqlar ham eski mijozlarini asti unutishmaydi-da; paxtaga ketayotgan xalq chalg'imasin, deb ularga ham guruch sotish man etilgan edi, yana molini chiqarishibdi. Hammasi xursand! Qo'ziboy chol ular bilan so'rashib, choyxonaga kirdi.

G'oziboy uning oldiga bir choynak choy qo'yib, aftiga tikildi.

— Nima bo'ldi, ota?

— E, issiq jon... Olloyim sevgan quliga kasal berar ekan, inim. O'limni unutmasin, meni eslab tursin deb. Shundoqki, biz ham andak yotib oldik!

U ko'chaga chiqqanida, sovun, tuz xarid qilish uchun tog'dan tushgan tojik oshnalariga yo'liqdi. Ular g'oyat so'zamollik bilan choldan ahvol so'rashdi.

— Akun in sol ham chukuri mo'l meshad! — deyishdi ular. — Sizga rahmat... Bo bizdi esdan chig'ormang, baxudo xapa bo'lamez. Mana, bir yuz-u oltmish panj kundan so'ngra chuquri chiqadu!

— Ha, o'limga sabr bersin, hammasi bo'ladi, — dedi qariya.

U uyiga qaytar chog'i qassobxona yonidan o'tarkan, dili andak og'ridi. Do'stining xabar olmaganini endi yodiga tushdi...

— Xo'sh, tani sihatlikmi? — dedi u ichkariga qarab.

Yo'g'on, baquvvat qassob unga o'tkir tikildi:

— O'zingizni oldirib qo'yibsiz?..

— Shunchaki...

— Mana, ish ham ko'payib qoldi, qo'l-qo'lga tegmayapti.

Chol yo'lda o'zini ovutdi: «U ishli odam. O'zidan ortib borolmayapti. Hozir birovdan gina qiladigan vaqtmiz?»



Qo'ziboy chol o'nglanmadi. Tag'in uch kun yotib, ko'zlari do'layib, olti oylik kasaldek bo'lib qoldi. Yarim kechada tag'in tush ko'rib uyg'ondi va xotinini eslab o'tirgandi, tashqarida jo'xorilar qattiq shig'irlab, it g'ingshidi. So'ng cho'zib uvladi, chol dong qotdi.

«He, endi vaqt yetibdi, — deb o'yladi u to'shakda chordona qurib, engashib o'tirarkan. — Kun to'libdi endi... Rahmatli kampirim ham sezibdi. Ana, it ham... Bekorga ulimaydi-ku? Ovqatdan ham qoldim. Rizq-nasiba uzilyapti. Endi tayyorgarlik ko'rish kerak».

Ertalab u xotirjam bir holatda hovliga chiqdi. Odamlardan rozi-rizolik olish, qo'shnilarning uyiga mo'ralash, keyin bozorga borib, tanish-bilishlar bilan ham xo'shlashish, Qobilboyga uchrab, xotining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham bir yo'la o'tkazib

yuborishni tayinlash, so'ngra bozorkomga yo'liqib, u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...

Odamlar ham qiziq-da!.. Qo'ziboy chol bilan vidolashib undan rozi ekanlari, bemalol oyog'ini uzatib o'laverishi mumkin ekanini aytish o'rniga nuqul kulishdi. Hatto bir-ikkitasi: «Vosvos bo'psiz, o'qiting o'zingizni», deb hazil ham qildi. Yoshlar esa, dangaliga: «Qo'ying-e! Bo'ydoq odam ham shunday deydimi? Avval uylaning, bola-chaqa ko'ring, keyin bir gap bo'lar-da!» deyishdi. Lekin cholning bukchayib behol qadam tashlab ketishini orqadan kuzatgan ba'zi birovlar achinib xo'rsinishdi ham.

Albatta Qo'ziboy chol ko'plarning gapi, kulgisidan mamnun bo'ldi. Bu narsa... o'limning avval sezilmay kelgan hayajonini ham bosdi...

Nihoyat, yoshlik do'sti Qobil qassobning do'koniga kirdi.

— E, gapirmang-e!— dedi u.

— Xo'p deyaving, do'stim!—dedi Qo'ziboy chol kursida qo'zg'alib qo'yib.— Menga ayon bo'ldi...

Yo'g'on yong'oq to'nkasi ustidagi go'sht parchalari, suyak siniqlarini sidirib terib olayotgan qassob unga tikilib qoldi va birdan xo'rsinib, skameykaga o'tirib qoldi...

Bu baquvvat, barvasta, sog'lom odamga Qo'ziboy aka avvallari ham oriqligi, qotmaligi uchun kasaldek ko'rinar, ming so'm pulni keltirib sanab berganida «shu o'ladi-yov», deb ko'nglidan o'tkazgan edi. Hozir uning botib ketgan ko'zlari, za'faron yuzi, qo'lidagi dag'al hassasiga tikilib: «Ha, o'ladi», deb o'yladi.

— Shuning uchun do'stim,— davom etdi qariya,— men avvalambor, sizdan rozilik olmoqchiman. So'ngra... andak vasiyatim bor.

— Vasiyat?!

Qassob Qo'ziboy cholning pulini o'shandayoq ishlatib yuborgan va bu odamning hech kimi yo'qligi, o'zi xudojo'y hamda urish-janjaldan nari yurishini bilgani uchun o'shandayoq quvonib: «Bu o'zimmiki bo'ldi», deb qo'ygan edi.

— Ha, esim borida vasiyat qilib qo‘yay, do‘stim... Bir haftadan beri mazam yo‘q! Siz ish bilan ovorasiz... Inchunin o‘lib qolganimni bilmay qolishingiz ham mumkin, labbay? Shuning uchun har uch kunda anavi dastyoringizni yuborib, mendan ahvol so‘ratsangiz, haqiga o‘sha puldan bir so‘mdan bering...

Qassob piyolasidagi choyni to‘kib tashlab, peshtaxtani tushira boshladi. Xona qorong‘i bo‘lib qoldi.

— Tashqariga chiqaylik.

— Xo‘p bo‘ladi... Yo siz ham menga ishonmayapsizmi? Undoq bo‘lmasin.



Yarim soatdan keyin Qobil qassob darvozaga qarab borar, bozor xizmatchilarining yordami bilan rasta taxtasiga chiqib olgan Qo‘ziboy chol ko‘zidan shashqator yosh oqizib, atrofga xira ovozda jar solar edi:

— Eshitmadim demanglar! Suyunchisi bor... Qobil qassob past odam ekan. Men o‘limligim deb, ming so‘m berib qo‘ygan edim, tondi! Xaloyiq! U pul sizlarning pullaringiz edi. Mening halol mehnatim uchun so‘mlab, tiyinlab bergan edingiz. Ana shu odamga berib, o‘limimga yarat deb edim... Tondi. Yeb ketdi endi... Odamlar, Qobil qassob haromxo‘r! Odamning haqini yeydi bu... Xudodan tilagim shulki, o‘ligi ko‘chada qolsin, bekafan bo‘lsin, xaloyiq... Meni bekafan qildi, odamlar!

Qobil qassob darvozadan chiqqan joyida orqaga qarab chopdi. U yetib kelganida, yoshlar, qariyalar uning yo‘lini to‘shid. Cholni himoya qilishdi. Ishga militsioner aralashdi. Qassob bilan Qo‘ziboyni bozorkomning idorasiga kiritib, so‘roq qildi.

— Bunda pul bo‘ladimi, o‘zi o‘n tiyinga zor-ku?!— baqirdi qassob... — Jinni bo‘pti bu... Olibsotar! Guvohing bormi? Asti birovga yaxshilik qilma ekan... Hech kimi yo‘q, deb do‘konga chaqirardim, choy quyib berardim! Mana, tovon to‘la deb turipti... Ketmaydi! Haqiqat bor!

Oraga bozorkom raisi ham qo‘shildi. Natija chiqmadi. Qassob qutilib ketdi. Qo‘ziboy tashqariga chiqib, gujum ostiga o‘tirdi.

Janjalni uzoqdan kuzatib turgan baland bo‘yli, qozoqbashara, o‘rta yashar Mirg‘ozi qassob kelib cholning tirsagidan ko‘tardi.

— Ota, xafa bo‘lmang,— dedi. — O‘limni o‘ylamang... Siz bekor g‘ovg‘a ko‘tardingiz, shu hassa bilan boshiga solishingiz kerak edi.

— U, bolam...

Mirg‘ozi Qo‘ziboy cholni uyiga eltib qo‘ydi. Qo‘shnilariga choldan xabar olib turishni tayinlab qaytdi.



U jimjit uyida, palos ustida cho‘zilib yotib, shu fikrga keldi: «Bu ahvolda men qandoq qilib o‘laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O‘limlik qilishim kerak... Undan keyin o‘lsam, boshqa gap...»

U qo‘shni chiqargan ovqatni zo‘rlab yedi. Yarim kechada turib, go‘sh t qovurdi. Sahar uyg‘onib, soyga tushdi. Yuvindi. Tetiklanib, ko‘chaga yo‘l oldi...

Qo‘ziboy chol avvalgidek bo‘lib ketdi.





TOHIR MALIK

SHAYTANAT

Qissaning 4-kitobidan parcha

IX bob

O‘limi yaqinlashayotganini sezgan bir qariya Nor tuyasining bo‘ynini silab turib, g‘amgin ravishda rozilik so‘rabdi:

— Norjon, sen bilan ko‘p yillardan beri birga edik. Men sendan roziman. Sahroda adashgan mahallarimda necha martalab meni o‘limdan saqlab qolding. Sendan sira yomonlik ko‘rmadim. Ammo men sening dilingni og‘ritgandirman, besabab urib, siltagandirman. Mendan ko‘rgan yomonliklaringni kechirgin. Yana qiyomatda uchrashganimizda yuzim shuvut bo‘lmasin.

Shunda Nor tuya debdiki:

— Ey hojam, urib-so‘kkaningiz, siltalaganlaringiz, hatto burnimni teshib, burundug o‘tkazganingiz uchun xafa emasman. Bu sizning mening ustimdagi haqqingiz edi. Men nohaq harakatlaringizning barchasini unutam, ammo bitta ishingizni sira kechira olmayman.

— Qaysi aybim ekan, ayt, — debdi qariya.

— Esingizdami, falon zamonda sahroda adashib qolgan edik. Men ne mashaqqatlar bilan sizni omonlikka olib chiqdim. Shaharga yaqinlashgan onimizda siz mening burundug‘imga bog‘langan arqonning bir uchini eshakning dumiga bog‘lab qo‘ydingiz. Men o‘shanda eshakning dumi hukmiga bo‘ysunib shaharga kirdim. Mana shu xo‘rligni kechira olmayman, hojam, — degan ekan Nor tuya.

Xongirey huzuridan chiqqan Asadbek o'zini o'sha Nor tuya holida ko'rdi. Xongirey uning burnidan ip o'tqazib bir uchini Kesakpolvon qo'liga tutqazmoqchi edi. Asadbek taqdirning bu shum haziliga itoat etganday bo'ldi-yu, o'zidan nafratlandi. Boshiga sho'r tushganidan beri u bu qadar xorlanmagan edi. Mamatbey kuzatuvida mehmonxonaga qaytgan Asadbek zohiran odam kelbatida bo'lsa ham, aslida bir vayrona edi. Biroq u buni tan olgisi kelmadi. Mamatbey bilan bo'lgan muomalasida ham, Jamshid, o'g'illari bilan ko'rishganida ham sir boy bermaslikka urindi. Jamshidga: «Maskovda ishimiz bitdi, qaytish harakatini qilaver, men bir pas dam olvolay», deb xonasiga kirdi. Yuz-qo'llarini yuvib, sochiqqa artayotganida ro'parasidagi ko'zguga qarab qoddi. Oppoq sochlariga tikildi. Hali, Xongirey bilan uchrashuvga bormay turib ko'zguga qaraganida sochlarining oqarib ketganiga hozirgiday hayratlanmagan edi. «Shum Mamatbey sezdi, — deb o'yladi Asadbek ko'zgudagi aksidan ko'z olmagan holda. — Xongirey-chi, payqadimikin? Sezmagani bo'lsa, shum aytadi. Keyin «qoyillatibmiz», deb quvonishadimi? Uyga qaytganimda Haydar xunasa ham yayraydi. Manzura... Qo'rqib ketadimi? Bo'yatib ola qolsammikin?» Shu to'xtamga kelib dahlizga chiqdi-yu, biroq darrovgina shashtidan qaytdi. «Balki Xongirey shu topda Haydarga telefon qilib «oqsoch xo'jayiningni kutib ol», deb ishshayayotgandir. U xunasa kesak ham eng avval boshimga qarar. Keyin «uyalغانidan bo'yatib olibdi», deb xabar berar. Yo'-o'q... bu xunasalarni in-iniga kirg'izib yuborib, keyin bo'yataman...»

Bir pas hordiq chiqarish niyatida karavotga cho'zilgan Asadbekning tanasi salgina rohatlanganday bo'ldi-yu, biroq ruhi orom ololmadi. Deraza ortidagi olam shom qorong'uligi hukmiga bo'ysuna boshlagan damda eshik qulfining shiqillashidan sergaklandi. «Yaxshi niyatli odam eshikni bunaqa ehtiyotlik bilan ochmaydi», degan fikr vujudini qalqitib yubordi. Uning nazarida qulfga qandaydir odam emas, Azroil kalit solib burayotganday edi.

... Hozir kirib keladi.

Suratlarda chizilganday chalgʻi koʻtarib, kafanga oʻralib olgan qoqsuyak mahluq koʻrinishida kiradimi...

... Balki

... Mamatbey qiyofasida kirar?

... Boshi chalgʻida olinadimi?

Balki...

Qilarqonda boʻgʻilar?..

Ertalabgacha tili osilib yotadimi? Jagʻini bogʻlab qoʻyishga bir mehribon topilmaydimi?

Bu fikrlar yashin tezligida kelib ketgan boʻlsa-da, shumligini amalga oshirishga ulgurdi: Asadbekning hatto tili ham muzlab qolgandek boʻldi. Xayolidagi Azroil kirib kelishga ulgurmay, oʻlishga tap-tayyor boʻlib qoldi. Oʻzini himoya qilishga kuch topish u yoqda tursin, nechundir xohish ham uygʻonmadi. Yumuq koʻzlarini bilinar-bilinmas ravishda ochib yotaverdi.

Eshik juda astalik bilan ochildi.

Oyoq sharpasi eshitildi.

Soʻng bir bosh koʻrindi...

Kim u? Jamshidmi? «Shunga topshirishgan ekanmi?»

Asadbek koʻzlarini baralla ochdi.

— Jamshid? — Asadbek shunday deb qaddini sal koʻtardi.

— Nega mushukka oʻxshab pisib yuribsan?

— Bek aka, — Jamshid ichkari kirib, qoʻl qovushtirdi, — uxlayotgan boʻlsangiz, uygʻotvormay dedim. Oʻn ikkidagi samolyotning uchishi ertalabga qoldirilibdi. Aytib qoʻydim, uchadigan paytda xabar qilishadi. Keyin...

— Chaynalma, nima demoqchisan?

— Restoranda ham toʻrt kishilik joy tayyor. Birga...

— Qornim toʻq, oʻzlaring oʻtiraverlaring. Kennayingga aytib qoʻydingmi?

— Aytдим, lekin... Bek aka, chiqsangiz yaxshi boʻlardi. Chehrangizni ochib oʻtirsangiz... Har holda doʻst bor, dushman bor.

Jamshid aql o'rgatishga o'rgatdi-yu, biroq xojasining yuzlari uchganini ko'rib, nafasini ichiga yutdi. Asadbek esa g'ashlangan ko'yi tirsagiga tiralganicha bir necha soniya harakatsiz yotdi. A'yonining taklifiga na «ha» dedi, na «yo'q». Ko'kragida «Sen bola, menga aql o'rgatma!» degan hayqiriq uyg'ondi-yu, baqiriq shakliga kirishi mumkin bo'lgan bu norozilikni sergak aql bo'g'izdan nariga o'tishiga yo'l qo'ymadi. «Nega sachramoqchisan, bola to'g'ri aytyapti, — dedi aql. — Mushukka o'xshab hurpayib olganing nimasi? G'alaba qilganingda gerdayib yurishni bilarding. Bir mushtlik holing bormi? Sen yig'lasang, ular mazza qilib kuladilar. Yo'q, yaxshisi sen kul, ular alamdan dod solishsin!»

Aqlga taslim bo'lgan Asadbek o'rnidan turib kiyindi-da, a'yon hukmiga bo'ysunib, ikki o'g'lini ikki qanotiga olgan holda, qaddini g'oz tutib, restoran tomon yurdi.

Ko'cha tomondan odamlar qo'yilmagan, xos mehmonxonaning nozika'b mehmonlarigagina xizmat qilgani uchun restoran gavjum emas edi. Ularga deraza tomondan joy hozirlangan ekan. Asadbek yumshoq stulga o'tirayotib tashqarida qoramtir tusda ko'rinayotgan kremlning tuya tishlarini eslatuvchi devoriga ko'zi tushdi-yu, o'zi uchun ham kutilmagan tarzda Deputatning gaplarini esladi: «Bek aka, siz bilan bizning taqdirimiz kreml devorlari ortida hal qilinadi. Biz bu devorni buzmas ekanmiz, bag'rimizga shamol tegmaydi...» Bu gapga javoban Asadbek o'shanda «Hammayoqni senga o'xshagan ishbuzuqilar buzadi», degan edi. Hozir esa boshqacha o'yladi: «Bu devorlarni yiqib bo'larmikin?..»

Asadbek siyosatni durustroq fahm etganida: «Bizlar uchun bu devorning turgani ma'qul. Sening bag'ringga shamol tegmasa tegmas, biz shu devorning ichida o'sib-ulg'aydik, qanot yozdik, bizlarning himoyamiz ham shu. Agar bu devor yiqilsa, tagimizga suv ketadi», degan bo'lardi balki.

Asadbek o'zini xushnud tutishga urinib, o'g'illari bilan chaqchaqlashib o'tirishga intildi. Farzandlarining go'dakligidagi qiliqlarini esladi. Jamshid ham chetda turmay, bir-ikki latifa aytib kuldirgan bo'ldi. Ular tomonga qarab-qarab qo'yuvchilar go'yo

baxtiyor oilaning mas'ud damlariga guvoh bo'ldilar. Asadbekning nigohi restoran bo'ylab sarsari kezib turishini sezishmadi. Asadbekka Xongireyning odamlari ularni qaysi bir burchakdan turib kuzatishayotganday tuyuldi. Bu gumon haqiqatga aylanayozganida Asadbek g'ashlandi. Ikki soat davomida u restoranda emas, balki tikonlar ustida ishtonchan o'tirganday bo'ldi. Go'yo amr etish huquqi Jamshidga berilganday, ijozat so'rash nazari bilan unga qarab-qarab qo'ydi. Jamshid xojasining bezovtaligini sezib: «Yana ozgina kuting», degan iltijoli nigohi bilan javob berdi. Jamshidning maqsadi faqatgina kuzatishi mumkin bo'lgan ko'zlarni shamg'alat qilishgina emas, balki xojasining yolg'iz ezilish balosidan oz fursatga bo'lsa-da, qutqarib turish edi.

Jamshidning ixtiyori bilan uyushtirilgan restoran tomoshasi tugagach, u xonasiga yo'nalgan xojasini to'xtatdi:

— Bek aka, boshqa xonaga joy tayyorlatib qo'rganmiz.

Asadbek bu safar noroziligini yashirmadi:

— Ja oshirvording, bola!

Agar Chuvrindi bo'lganida xotirjamlik bilan: «Bek aka, ehtiyot — shart!» — deb qo'yar, Asadbek esa unga itoat etardi. O'zining Chuvrindi martabasida emasligini yaxshi bilgan Jamshid ortiqcha gapirmadi. «Aytдим-qo'ydim, jon shirin bo'lsa, o'zingizni ehtiyot qiling», deganday qarab qo'ya qoldi. Hozir Asadbekka Chuvrindining o'rni bilindi. «Bu bola sodiqlikka sodiq, lekin ikki dunyoda Mahmud bo'lolmaydi», deb o'yladi.

Kengroq xonadagi uchta karavot bilan bitta divanga joy qilib qo'yilgan edi.

— Hammamiz charchadik. Tiniqib uxlashimiz kerak. Uyga ko'zlarimiz kirtayib borsak, onang o'zidan ketib qolmasin, — Asadbek shunday deb pidjagini yechib stul suyanchig'iga tashladi-da, shimini yechmay, o'rin ustiga cho'ziddi. O'g'illari ham otalari kabi omonat yotishgach, Jamshid chiroqni o'chirdi.

Bo‘lib o‘tayotgan voqealarning zamirida bir shumlik yotganini sezsalor ham, otalaridan so‘rashga jur‘at etolmayotgan o‘g‘illar shiftga tikilganicha qimirlashmasdi. Asadbek «O‘g‘illarim qattiq toliqishibdi, uxlashyapti», deb yanglishdi. Yigitlar besaranjom bo‘lsalar-da, karavotni g‘ijirlatib otalarini bezovta qilgilari kelmay, xayollari oqimiga mayllarini berib yotishardi. Bu uch jonning joni uchun o‘zini mas‘ul deb bilayotgan Jamshid esa «tiq» etgan tovushga ham sergak quloq tutardi.

Tiniqib uxlab olish niyatidagi to‘rtovlonga bu kech uyqu xiyonat qildi.

Hozir Asadbek ustiga kelgan odam uning ko‘zlari yumuq ekanini ko‘rardi. Biroq, tabiiyki, qalbi yumuq ekanini bilolmasdi. Abdurahmon tabibnikida ekanida, o‘lim farishtasidan bo‘sa olay deb turganida Tangri taolo sari ozginagina siljigan edi. Oллоh esa, va‘dasiga ko‘ra, bandasi tomon yurib, uning boshi ustidagi balo bulutini hayday boshlagan edi. Bundan qoniqqan Asadbek Yaratgan sari yurmoqdan to‘xtadigina emas, dunyo tashvishlariga bandi bo‘lib, asliga qayta qoldi. Ochilmoqqa moyil qalbi yumuqlik balosidan qutula olmadi. Ko‘zlari yumuq Asadbek ayni choqda yumuq qalbi bilan chora izlardi.

Donishmand deb ekanki:

Ilohi, yomon af‘olimdin parishonligim cho‘ktur

Va shum nafsimda pushaymonlik yo‘qtur

Mundoq balolardan qutularg‘a umidim sendin o‘ktur...

Shunga ko‘ra, Asadbek pushaymonlardan nari ekan, najotga ham umid yo‘q ekanini idrok qila olmas edi. Uning ko‘r qalbi: «Ey Xudo, senga nima yomonlik qiluvdimki, menga bu ofatlarni yuboryapsan», deb xitob qilardi. Bandalarga qilingan yomonlik Tangriga qilingan yomonlik kabi ekanini esa fahm etmasdi. Hozir shu yotishida ham Xudoni savolga tutardi. Pushaymonlik, tavba ko‘chalariga kirmoqlikni esa o‘ylamasdi.

Ilohi, — dard-u holimni har kimga aytsam,

Rad qilsa, senga tavajjuh etgayman.

Va agar sen rad qilsang, netgayman
Va kimga ketgayman...¹

Asadbek dardini birovga aytadiganlardan emasdi. Afsus shuki, Tangriga yuzlanadiganlar safida yo‘q edi u. Nadomatkim, rad etilganlar guruhida edi...



Manzura qo‘rquv aralash taajjubini astagina «voy» deb, pastki labini tishlash bilan ifoda etdi-yu, boshqa sado chiqarmadi. «Voy adasi, u yoqda nima gap bo‘ldi, nega sochingiz oqarib ketdi?» deb so‘ragisi keddi-yu, mehmonlar, ayniqsa hadiksiragan qushday salomga shay turgan kelinlari oldida erining zaharli gaplari otilib chiqishidan qo‘rqdi.

Kelinlarining salomiga alik olib, har birining oyog‘i ostiga bittadan gilam tashlagach, erkaklar uchun yasatilgan xonaga qarab yurdi.

— O‘g‘illaring balo, — dedi Kesakpolvon o‘tirishgach, — kelinlarning naq shkalatning o‘zi.

— Ko‘zingni chaqchaytirma, — dedi Jalil uning gapini bo‘lib. Keyin uy sohibiga yuzlandi: — Asad, men ketdim.

Asadbek do‘stining bu darajada shoshilishidan achchiqlandi: — Kelmasang ham bo‘lardi, ovoragarchilikda ancha aziyat chekkandirsan, — dedi zaharli piching bilan. — Kelishingda bez-mezing tushib qolgandir, a?

Nasiyaga gap olishni yoqtirmaydigan Jalil bu safar odatiga xilof qildi, piching o‘qlarini shirin, ammo tagdor so‘z bilan qaytardi:

— Endi og‘aynijon, chillalik uy, degan gap bor. Chillalik uyga hatto it ham kirmay turgani ma‘qul.

Asadbek uning maqsadini uqib, Kesakpolvonga zimdan qarab oldi. Unda o‘zgarish sezmagach, o‘rnidan turdi:

— O‘tirib tur. Chillalik uyga sen begona emassan. Shu bolalarning amakisisan. Men hozir kelaman.

¹ Hazrat Alisher Navoiy bitgan munojotdan.

Kesakpolvon unga ergashmoqchi edi, Asadbek ostona hatlamay turib, o'girildi:

— Sen ham o'tirib tur.

Asadbek yolg'ondan bo'lsa-da: «Sen ham amaki qatoridasan», demoqchi edi-yu, biroq, tili bu gapga aylanmadi.

Asadbek hovlida turgan Halimjon bilan Jamshidga imlab qo'yib, darvoza sari yurdi. Aslida uning uchun yigitlardan biri kifoya edi. Biroq, «Kesakpolvon deraza yonida turib kuzatayotgandir», degan xayol ikkala yigitni ergashtirib chiqishga undadi.

U yanglishmadi: joyiga qaytib o'tirmay deraza yonida turgan Kesakpolvon yigitlarning xojalariga ergashganlarini ko'rgach, ko'ngli g'ashlandi, chap yuzi uchdi.

Asadbek Moskvani tark etar mahali: «Borishim bilan onam bilan ukamni ziyorat qilaman, mozorga u-bu atayman», degan niyatni diliga tukkan edi. Bu g'ofil banda ham o'zga adashganlar kabi najotni Yaratgandan emas, qabristondan kutayotgan edi.

Dastlabki mo'ljali bo'yicha to'g'ri qabristonga borishi lozim edi. Lekin kutib olgani chiqqan Kesakpolvonni o'ziga ergashtirgisi kelmadi. Kesakpolvon Asadbekni mag'lublik jandasida ko'rmoqni, arazlagan odamning ginali gaplarini eshitmoqni kutgandi. Asadbekning ochiq chehra bilan tushib kelib, «Haydar oshnam, omonmisan», deb quchoqlab qo'yishi uni tamom gangitib qo'ydi.

Kecha kechqurun Xongirey qo'ng'iroq qilib «Ish pishdi. Endi bek — sensan. Asadni istasang ostonangga it kabi bog'lab qo'y. Xohlasang eshak qilib minib yur. Rahm qilsang, tepasiga tuproq tortib qo'yaver. Ha, qulingning oppoq sochlaridan silab, o'pib qo'y. Bekman, deb kerilib, jonlaringni oladigan xo'jayining ishtonini ho'l qilib qo'ydi», degan edi. «Sochlari oqarganini hisobga olmasa, ishtonini ho'l qilib qo'rganini» Kesakpolvon sezmadi.

Hovlidan chiqib ketayotgan Asadbek bilan yigitlar izidan qarab turgan Kesakpolvon deraza ko'zini sindirib, tashqariga uchib chiqmoqqa shay edi, ammo o'zi ham anglamagan bir kuch uni joyida mahkam tutib qoldi. O'zi bilmagan bu kuch — oqibat

qoʻrquvi edi. Garchi Xongirey Asadbekning boʻynini (goʻyo) bukib bergan boʻlsa ham, Kesakpolvon undan qoʻrqardi. It qilib bogʻlab qoʻyolmasligini, eshak qilib minolmasligini, hatto tepasiga tuproq tortib ham tinchiy olmasligini yaxshi bilardi.

Asadbek biron-bir odamning shoxini qayirmoqchi yoki sindirmoqchi boʻlsa: «Sen hamma narsani unutsang unut-u, ammo Bek akangni unutma! Sen hatto mening oʻligimdan ham qoʻrq. Chunki men goʻrimda ham tinch yotmayman. Tirigimda shu odamni oʻldirib qutulaman», deb niyat qilarsan. Lekin goʻrda yotganimda yonimga kelib qayta oʻldirolmaysan, mendan qutula olmaysan. Yotgan yerimdan qoʻlimni chiqarib, kekirdagingni sugʻurib olaman!» deb Poʻpisa qilardi. Bu poʻpisini eshitgan Kesakpolvon «Bek, gapni ham qiyvorasan-da», deb kulardi. Bir kuni navbatdagi oʻljaning popugi pasaygach, Kesakpolvon hazil tariqasida «Bek, bu dunyodagi ishlarini koʻrib turibman-u, goʻrdan chiqaradigan qoʻlingga hayronman-da» degandi Asadbek «Hayron boʻlma, goʻrdan chiqaradigan qoʻlim — sensan», degan edi.

Shaytanat olamidagi kichik bir mamlakat hukmdori Asadbekning taxtiga oʻtirish onlari yaqinlashgani sayin Kesakpolvon oʻsha suhbatni bot-bot esladi. «Endi men uning goʻrdan uzatib chiqaradigan qoʻli emasman. Kekirdagi uzib olinadigan oʻljasiman. Qoʻl kim? Jamshidmi yo halim soʻtakmi?» Shu savollar ichini bir tirnasa, «E, yoʻq, Bek bunchalik past ketmaydi. U mard odam. «Olsang olaver!» deb choponni yelkaga tashlab chiqib ketaveradi. Har holda bolalikdan qadrdonmiz. Nima qilgan boʻlsak ham birga qilganmiz», — degan fikr oʻzini goʻyo ovutardi. Ammo yuki boʻlmagan bu fikrlariga oʻzi ham ishonmasdi. Deraza yonida turib xavotir tirnogʻi hukmiga tushishi shundan.

Musallama kazzob oʻzini paygʻambar deb eʼlon qilganida bir koʻzi koʻr, ikkinchisi esa xiralashgan qariya kelib: «Paygʻambar boʻlsang duo qilib, koʻzlarimning nurlarini qaytar», deb soʻrabdi. Kazzob «kuf-suf» qilgan ekan, cholning ikkinchi koʻzi ham koʻr boʻlibdi. Kimga eʼtiqod qilishni bilmagan nodon cholga oʻxshab

qolgan Kesakpolvonning noqis aqli bo'lajak falokatni to'la fahm etmasdi, biroq yuragi his etib, jonsiz kuz yaprog'i kabi titrab turardi.

Uchoqda uchib qaytayotgan Asadbek endigi hayoti islohga muhtoj ekanini anglagan, shu yo'lda ayrim ahdga ham kelgan edi. Ko'ngil ba'zan aqlga bo'ysunib: «Qo'y endi, bu tashvishlarni, to'ringdan go'ring yaqin bo'lib turibdi, yemoq-ichmog'ing yetarli ekan, boshqasiga qarama», derdi. Biroq afsuskim, inson fitratida nafs degan narsa ham bor. Aql va nafsning bir-biriga zid ekanligi oydindir. Aql rad etmish narsani nafs da'vo qilaverar. Ayni damlarda nafs Asadbekni boylikka undamayotgan edi. «Asadbek» deb nom berilgan bu vujudga, nainki vujudga, butkul ruhoniyyatiga hukmini o'tkazib kelayotgan nafs endi kibrga nikohlandi. Mazkur nikohning mahsuli esa Asadbekdagi mardlikni bo'g'ib, uni o'yindan chiqishiga yo'l qo'ymaydi. To'g'ri, u taxtini Kesakpolvonga topshirib qo'yaverishi mumkin edi. Biroq mag'lub holda chekinishni istamadi. Endi uni hech kim, hech qanday kuch ahdiga qaytara olmas edi.

Daryoni ko'zachaga qamash mumkin bo'lmaganidek, Asadbekning g'azab o'tlarini o'chirishga urinish befoyda edi.

Moskvadagi mehmonxonada bedorlik bilan olishib yotgan Asadbekni yo'qlab kelgan Iliko o'tlarga moy sepkan edi. Aslida Asadbek ertasi kuni Ilikodan ko'ngil so'ragani borishi kerak edi. Jamshidga «qaytishning harakatini qil», deb topshiriq bergan Asadbek Xongireyning birga borish haqidagi amrini unutmagandi. Asadbek mehmonxonadan qaytayotganidayoq bu masalani puxta o'ylab, hal qilib qo'ygandi. Iliko bilan uchrashmay o'zini salkam Xudo deb hisoblayotgan bu kibrli chechenga javob — tarsaki bo'lardi. Ikkinchidan, u Xongireyning Iliko bilan yarashib olishini istamadi.

Yarim tunda mehmonxonaga kelib Asadbekni yo'qlatgan Iliko ko'p gapirmadi. «Nega kelding, o'g'illaringga nima bo'ldi? Bu yog'ini menga qo'yib ber», demadi. Akasining o'limidan qayg'uda ekanini ayta turib «Xongirey o'lim raqsiga tushishni boshladi.

Endi qancha yashashini men hal qilaman», deb qo‘ydi. Asadbek uning ahdi ohangidan «Xongireydan o‘ch olaman, u bilan olishaman, deb ovora bo‘lma», degan ma‘noni uqib, gapni cho‘zmadi.

Derlarkim, vaqti kelganda ba‘zi narsalar uchun jonni fido qilmoq mumkin. Ammo nomus hech bir narsaga fido qilinmas, nomus jondan-da qimmatliroqdir. Asadbek ota-ona mehrisiz ham bu dunyoda yashamoq mumkinligini biladi. Biroq erkakning nomussiz yashamog‘i qanday bo‘lishini tasavvur etolmaydi. O‘zgalarning nomus-ori toptalganda rohatlangan odam, o‘ziga tajovuz qilinganda chiday olmadi. Uzoq yillar ilgari yangragan, so‘ng unut g‘uborlari ostida mudrab qolib ketgan bu qarg‘ish hech kutilmaganda uyg‘ondi. Bu qarg‘ish oldida Jalilning «Xudodan qaytibdi», degani arziyas bir gap edi. Hosilboyvachcha tashlab ketgan videokassetadagi manzarani ko‘rib ko‘z oldi qorong‘ilashganda zulmat qa‘ridan o‘sha ovoz bo‘g‘iq momaguldirak kabi chiqib kelgan edi:

— Asad, men senga Xudodan o‘lim tilayman. Men bugun sening qo‘lingdan o‘lim topmasam, ertaga joningga qasd qilmayman. O‘g‘illarim ham qasos olishga urinishmaydi. Yo‘q, sen osonlikcha o‘lib ketmagin, Asad. Sen bolalaringning xo‘rlanganini ko‘rgin-u so‘ng o‘lgin...

U damda Zaynab hali tug‘ilmagan edi...

Alam bilan aytilgan bu qarg‘ish nahot tug‘ilmagan qizning qismatiga yozilib qolgan bo‘lsa?.. Nahot uning joni-jahoni, suyuqli qizi tug‘ilganidayoq o‘sha qarg‘ish yo‘rgagiga yo‘rgaklangan bo‘lsa?..

Baqirib emas, ingrab aytilgan bu so‘zlar shunchalar qudratga ega ekanmi?..

Moskvadagi mehmonxonada yotganida bu qarg‘ishni yana eshitdi. Ovoz bu safar bo‘g‘iq emas, yeru ko‘kni larzaga soluvchi momaguldirak yangrashi kabi eshitildi.

... Aslida o‘sha g‘alvani shumqadam Kesakpolvon boshlagan edi. «O‘qilon» degan laqabdan boy odamlarning endi-endi

cho'chiy boshlagan damlari edi. Markazdagi restoran boshlig'i ularning talabiga ko'ra cho'talni kanda qilmay, kamaytirmay berib turardi. Kesakpolvon qayerdandir hid olib: «Cho'taliga gadomizmi, shuncha boyligi bor ekan, etakka to'ksin», dedi. Bu fikr Asadbekka ma'qul kelgach, restoran boshlig'iga talab avval yaxshilik bilan aytili. Talab rad etilgach, tunda uyiga bostirib borildi. Asadbek Kesakpolvonning bunaqa ishlariga aralashmas edi. O'sha kuni: «Sen ham bor, kimligingni odamlar bilib qo'yishsin», degach, bordi. Asadbek borguniga qadar Kesakpolvonning yigitlari ishni boshlab yuborishgan edi. Kesakpolvonning ta'biri bilan aytilganda, «profilaktika ishlari»ning ikki kun avval boshlanganini Asadbek o'sha yerga borganida bildi. Isitgich quvuriga bog'lab qo'yilgan uy egasi urib-kaltaklanmagan, lekin ikki kundan beri qultum suvga zor bo'lib, sillasi tamom qurigan edi. Yon xonadagi xotini, ikki o'g'li, ikki qizi ham shu ahvolda edi.

— Asad, bularingga aytgin, suv berishsin, — dedi uy egasi zorlanib.

— Ko'p suv ichsang, siyib qo'yasan, — dedi Kesakpolvon tirjayib.

— Bek, bu akaxoningga aytyapman, hozir suvning narxi oshib ketgan. Berkitgan tillalarini chiqarsin, to'ydirib sug'ormagan — nomard!

— Asad, buning valdirayveradi, menda tilla yo'q. Topganimni bitta o'zim yemayman-ku, yuqoridagilarning qanchasiga sochaman. Tilla bo'lsa o'shalarda bo'ladi. Men borimni berdim, boshqa yo'q.

— Qancha berdi? — deb so'radi Asadbek.

— O'ttiz ikki ming, yana xotinining uzuk-puzuklari... O', maraz, sen meni laqillatsang ham, Bekni laqillataman dema. Berganing bitta tishimning kavagida yo'q bo'lib ketadi. Hozir ko'chaga chiqib: «Restoran kattasining uyida shundan boshqa pul yo'q ekan», desam odamlar ishtonini yechib orqasi bilan kuladi.

— Asad, menda boshqa pul yo'q. Hech bo'lmasa kennayingga suv berlaring, bechora kasal.

— Ana ko'rdingizmi, bechora kennayim kasal ekanlar. Sizga kennayimnig jonlari kerakmi yo molmi? — dedi Asadbek, uning zorlanishlariga e'tibor bermay...

— Yo‘q! Asad, sen bilan kelishuvimiz bor. Men aytganingni berib keldim. Meni himoya qilishga va‘dang bor.

— Sen g‘irrom o‘ynading.

Asadbek unga doim «siz»lab gapirardi, hurmatini joyiga qo‘yardi. Hozirgi sensirashidan zulm bobida sherigiga yaqinlashganini ma‘lum qildi. Buni fahmlagan uy egasi so‘nggi ilinj bilan uni insofga qaytarmoqchi bo‘ldi:

— Asad...

Kesakpolvon uning gapini uzdi:

— «Asad» dema! Nima, bu sening o‘rtog‘ingmi?! «Bek aka», de!

Uy egasi bir yutinib olib, amrga bo‘ysundi:

— Bek aka, shartimizda bunisi yo‘q edi. Uyingda borini berasan, demagansiz.

— Demagan bo‘lsam, endi deyman. Xo‘sh, qani tillalaring?

— Tilla yo‘q menda...

— Hukmni o‘zing chiqarding, mendan domangir bo‘lib yurma...

Asadbek «buqachalaringni qo‘yib yuboraver», deganday sherigiga qaradi. Kesakpolvonga shu qarashning o‘zi kifoya qildi. Zulm harorati o‘tidan sachragan uchqun bir oilaning pokiza gullarini so‘ldirdi.

Uy egasi o‘shanda qarg‘agan edi.

O‘shanda Asadbek: «Men ham qiz ko‘rman, vaqti kelib kimningdir iflos nafasi ardoqlab o‘stirganim pokiza gulni so‘ldirar», — deb o‘ylamovdi. Bu qarg‘ishni o‘shanda yer yutganday bo‘lib edi. Odam o‘lib ketaverar ekan-u, biroq, uning qarg‘ishi o‘lmay, yer yuzi bo‘ylab o‘ljasini ta‘qib etib yuraverarkan. Restoran boshlig‘i o‘sha voqeadan so‘ng ko‘p yashamadi. Avval xotini, so‘ng o‘zi bu dunyoni la‘natlay-la‘natlay tashlab ketishdi. Asadbek uning janozasiga borgan edi, go‘rkov tutgan etakka «meni u dunyoda ham eslab yur», deganday bir siqim tuproq ham tashlagan edi. Ha, unutmabdi, o‘zi ko‘milsa ham qarg‘ishini qoldirib ketibdi. Bu qarg‘ish yigirma yildan ziyod Asadbekka soyaday ilashib, payt poylab yurgan ekan.

O‘sha restoran xo‘jayini tirik bo‘lib, pichoq bilan hamla qilsa, Asadbek o‘zini himoya qilish chorasini topardi, yoki uni o‘ldirib qutulardi. Endi ko‘zga ko‘rinmas, chopsa chopilmas qarq‘ishdan o‘zini qanday himoya qilsin?

Asadbek qarq‘ishni eslashga esladi-yu, biroq aybni o‘zidan emas, o‘zgalardan izladi. Alqissa, hukmni ham o‘ziga emas, o‘zgalarga chiqardi. Uning qonida o‘tgan ishlardan pushaymon qilib o‘tirish degan narsa yo‘q edi, bilaks, qasos degani istagancha topilardi. Siniq ko‘nglida g‘am, buzuq xayolida alam hukmron ekan, endi Asadbekdan nimalar kutish mumkin?

Jaholat zulmidan aql ravshanligiga yeta olmay qolgan Asadbekning Olloh huzurida «birovga qasd qilmayman», degan ahdi bo‘lmagach, uni kim to‘xtata olardi?..



O‘TKIR HOSHIMOV

DUNYONING ISHLARI

Qissadan parchalar

Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam — onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog‘langan.

Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o‘xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag‘ishlanadi, aziz Onajonlar!





Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Shiftga tikilib yotaverasiz, yotaverasiz... Avvaliga chiqillab turgan soat ham bora-bora tinib qolgandek bo'ladi. Uy jimjit, deraza jimjit, qorong'i osmon jimjit. Hatto shamol ham qilt etmaydi. Shu qadar og'ir sukunat cho'kadiki, quloqlaringiz shang'illab ketadi. Zildek yuk ustingizga yopirilib, vujudingizni yerga mixlab tashlaydi: tanho, ojiz bir narsaga aylanib qolasiz. Go'yo butun dunyo bir taraf-u siz o'zingiz bir taraf... Shunday paytda mening ko'z o'ngimda to'satdan onam paydo bo'ladi. Qorong'i xonaning bir burchidan chiqib keladi-da, ma'yus jilmaygan ko'yi boshim ustiga egiladi. Yillar zahmatidan dag'al tortgan barmoqlari bilan peshanamni silagandek bo'ladi... O'pkam to'lib, o'zimni tutolmayman. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagancha o'mimdan turib ketaman...

O' RIS BOLANING OYISI

Shanba kuni mashinani darvoza oldiga olib chiqishim bilan motor o'chib qoldi. Generator tok beryapti, benzin nasosi ishlayapti... Tavakkal qilib karbyuratorni kavlashtirishga tushdim. Ochishga ochdim-u, bemorning qornini yorib qo'yib, u yog'iga nima qilishini bilmagan no'noq jarrohdek dovdirab qoldim. Mushtdek apparat ichida shuncha murvat borligini bilmagan ekanman. Hammasi qandoq bo'lsa, shundoqligicha joy-joyiga qo'yib chiqqan edim, yana allaqancha vintlar, gaykalar «ortib qoldi». Nima qilishimni bilmay tajang bo'lib tursam, orqada yuk mashinasining voshillab tormoz bergani eshitildi. Kabina eshigi taraqlab ochildi. Qarasam, o'zimning bolalikdan birga o'sgan «o'ris o'rtog'im» Vali tushib kelyapti. (Asl oti Valentin ekanini keyin bilganman). Mahallada shu bolaning oldiga tushadigan shofyor yo'q. O'zi ham mushtdek boshidan temir-tersakka qiziqadi.

— Bormisan! — dedim quvonib. — Xudoning o'zi yetkazdi seni.

U shoshilmasdan oldimga keldi.

— Nima bo‘ldi? — dedi motorga mo‘ralab.

— Buni ko‘rmaysanmi, — deb qo‘limdagi murvatlarni ko‘rsatdim. — Olmadedek narsaga shuncha lash-lushni erinmasdan joylaganini qara! Injenerlar ham ovsar ekan!

U «operatsiya» bo‘lgan karbyuratorga qaradi-da, hushtak chalib yubordi.

— Injenerlar ahmoqmas, sen ahmoqsan! — dedi jingalak sochlarini silkitib. — Ertadan boshlab men ham kitob yozib tashlasam nima bo‘ladi? Aqling yetmagan ishga aralashib nima qilasan?

G‘aribona qiyofada iljayib turgan bo‘lsam kerak, u kulib yubordi. Porolon kurtkasini yechib, mashina tomiga tashladi-da, buyurdi:

— Otvoyorkangni ol!

Biroq ishga kirishmadi.

— Aytmoqchi, mamashkani olib keluvdim, — dedi ZIL tomonga imo qilib. — Sizlar gaplashib turgunlaringcha bu yog‘ini amallab ko‘raman.

Boyadan beri e‘tibor bermagan ekanman. Yuk mashinasining kabinasida o‘tirgan Zebi xolani endi ko‘rdim. Ikkovlashib mashina oldiga bordik. Vali zinaga sakrab chiqib kabina eshigini ochdi. Boshiga qalin ro‘mol o‘ragan, qora baxmal nimcha kiygan oyisini ko‘targudek bo‘lib zinadan tushirdi. Qarasam, Zebi xola mushtdekkina bo‘lib qolibdi. Oyimning ma‘rakalarida kelganida o‘z tashvishim bilan bo‘lib, razm solmagan ekanman, endi payqadim. Avvalgi alp qomatli, yurganda yer gursillaydigan Zebi xolaning yarmi ham qolmabdi. Ro‘moli ostidan chiqib turgan sochlari qordek oqarib ketibdi. Qop-qora yuzi yanayam qorayib, ko‘kimsir tusga kirgandek.

— Poshsha singlimdan qolgan yodgorim! — dedi u meni bag‘riga bosarkan, bo‘g‘iq ovozda. Ozg‘in qo‘li bilan yelkamga qoqib, og‘ir-og‘ir harsillab nafas oldi. — O‘zimning shirin o‘g‘limdan o‘rgilay, yaxshi o‘tiribsanmi?

Bolalikdan qulogʻiga rayhon taqib yurishiga koʻnikib qolganim uchunmi, hozir ham undan rayhon isi anqib ketgandek boʻldi.

— Yuring, — dedim uyga boshlab. — Birpas dam oling.

— Yoʻq, u yoqqamas, singlimning uyida oʻtiranman.

— Zebi xola ogʻir-ogʻir qadam bosgancha oyimning xonasiga qarab yurdi. — Singlimning joyida birpas oʻtiray,— dedi-yu doim oyim oʻtiradigan joyga, deraza tagiga choʻkdi. Boʻgʻiq ovozi titrab uzoq tilovat qildi.

— Dunyo shunaqa ekan, jon bolam, — dedi oʻychan ovozda. — Hamma bir-bir ketaverarkan...

— Oʻzingiz bardammissiz, xola? — dedim soʻlgʻin yuziga, titrab turgan qop-qora qoʻllariga qarab. — Nevaralar katta boʻlib qoldimi?

— Xudoga shukur, bolaginam oʻzidan koʻpaydi. Olti nevaraning duosini qilib oʻtiribman. Valijonim bitta boʻlsa ham oʻntaga tatiydigan chiqdi. — Zebi xola shoshilmasdan choy hoʻplarkan, devordagi mixga iligʻlik duxoba gʻilofli dutorga qarab-qarab qoʻydi. Oyim dutorni juda avaylar, «adangdan qolgan yodgorlik», deb doim koʻz oʻngida saqlardi. Shu ondayoq bolalikdagi xotiralar, Zebi xolaning dutor chalganlari esimga tushdi-yu sekin soʻradim:

— Hali ham chalib turasizmi?

Zebi xola maʼyus jilmaydi.

— Dutor chalish qatta, bolam. Qoʻl oʻlgur titraydi. — U bir zum jimib qoldi-da, oʻychan davom etdi. — Qaysi kuni tush koʻrsam, poshsha singlim bilan bir joyda oʻtiribmiz. Nuqul dutor chalayotgan emishman.— U shikasta kuldi. Odamzod shunaqa ekan,— dedi xoʻrsinib. — Bola-chaqam derkan, yelarkan-yugurarkan, endi ogʻzi oshga yetganda yiqilarkan. — U titroq qoʻllari bilan tizzasining koʻzini siladi. — Sal sovuq tursa, oyogʻim shishib ketadi. Valijon mahsi oberaman, oʻzingiz kiyib koʻrib tanlaysiz deb qoʻymadi. Ketayotgan joyimda birrov singlimnikiga kirib chiqay, dedim.

Yana choy quyib uzatgan edim, Zebi xola bosh chayqadi.
— Mayli, bolam, men bora qolay endi.

Ikkovlashib tashqariga chiqqanimizda Vali mening mashinamda o'tirar, motorni gurillatib sinab ko'rar edi.— Bo'ldi,— dedi o'tirgan joyida derazadan boshini chiqarib.— Ikkinchi bunaqa ustachilik qilsang, o'zingdan ko'r.

Ikkovlashib Zebi xolani kabinaga chiqardik. Vali narigi eshikdan kirdi-yu mashinasini gurillatgancha haydab ketdi. ZIL muyulishda ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan g'ira-shira tong pallasida ko'rgan tushdek xotiralar yopirilib keldi.



Zebi xoladan hayiqmaydigan bola yo'q edi. Erkaklardek barvasta gavdali, qop-qora bu xotinning yo'g'on ovozi ham, uzun qirra burni, ketmonni yelkasiga tashlagancha etik kiyib g'oz yurishi ham boshqa ayollarga o'xshamas, hatto qoramtir siyrak mo'ylovigacha bor edi. U qachon qarasa qulog'iga rayhon taqib yurar, Darhon arig'i bo'yidagi hovlisida yoz bo'yi rayhonlar barq urib yotardi. Uni birinchi marta ko'rganimdayoq qo'rqib qolganman. O'shanda juda kichkina bo'lsam kerak. Oyimga ergashib Zebi xolanikiga bordim. Nimagaligi esimda yo'g'-u, xarxasha qilaverdim. Oyim u deb ko'rdi, bo'lmadi, bu deb ko'rdi, bo'lmadi. Shunda Zebi xolaning jahli chiqib ketdi.

— Jim bo'lasanmi yo hozir ishtonimga qamab qo'yaymi! — dedi do'rillab. Uning vajohati shu qadar qo'rqulik ediki, ovozim o'chdi-qoldi.

... Zebi xola sap-sariq jingalak sochli, ko'kko'z «o'ris bola»sini — Valini jonidan yaxshi ko'rardi. Qaysi to'yga borsa, ko'ylagining keng yengiga popukqand, monopasi, jiyda solib kelardi. Uning yengi shunchali barakali ediki, Valini do'ppisi birpasda shirinlikka to'lib chiqardi. Vali qizg'anchiq emas, oyisi olib kelganlarni hamma bilan bo'lishib yeydi... Biroq bironta bola Valini chertsu bormi, oyisidan baloga qoladi. Zebi xola o'sha zahoti aybdor bolaning onasini yumma talaydi. «Sen echkiga o'xshab har yili bolalaysan,

meniki atigi bitta! — deydi shang‘illab. — Qani, yana bir marta qo‘l tegizib ko‘rsin-chi, qo‘lini sindirib o‘choqqa tiqaman».

Zebi xola bolasini bunchalik avaylagancha bor edi. Dadamning aytishiga qaraganda, urush bo‘layotgan joydan keltirilgan bolalardan bittasini berasanlar, deb Zebi xola ham boribdi. Ammo o‘sha idoradagilar ko‘nishmabdi. «Siz so‘qqaboshsiz, topish-tutishingizning mazasi yo‘q», deyishibdi. Shunda Zebi xola kursini mushtlab chunonam to‘polon ko‘taribdiki, noiloj mana shu Valini xatlab berishibdi.

Zebi xola so‘qqabosh bo‘lsayam, Valini kamsitmagan. Qo‘y so‘yib, yurtga osh berib to‘yini ham qilib bergan.

Vali ham birinchi sinfda men bilan o‘qir, hisobdan yaxshi edi-yu, ona tilidan qiynalardi. «Q» bilan «G»ni aytishga hech tili kelishmasdi. Risolat opa degan chiroyli o‘qituvchi opamiz buni bilgani uchun ko‘p ham qiynamasdi. U doim deraza oldidagi partada o‘tirardi.

Bir kuni maktabga komissiya kelib qoldi. Bir emas, to‘rt kishi orqa partaga borib o‘tirishdi. O‘qituvchi opamiz dars o‘tyapti-yu, hayajondan ovozi titraydi. Sinf jimjit. Shu payt deraza sharaqlab ochildi-da, Zebi xolaning yo‘g‘on ovozi eshitildi.

— Vali, ma, non!

Hammamiz o‘sha tomonga qaradik. Valining sariq yuzi olovdek yonib ketdi. Nima deyishini bilmay, nuqul «keting», deb imlaydi. Zebi xola bo‘lsa derazadan ikkita arpa non uzatib turibdi.

— Olsang-chi, qo‘lim kuyib ketdi! — dedi u zarda bilan. Sinfxonani birpasda yangi yopilgan non hidi tutib ketdi, Risolat opamiz bir zum esankirab turdi-da, tashqariga yugurdi.

— Nima qilyapsiz, xola? — dedi yig‘lagundek bo‘lib. — Maktab-ku bu!

— Maktabligini o‘zim ham bilaman! Machitga kelganim yo‘q! — Zebi xola ovozini baralla qo‘yib do‘rilladi. — Bolam ertalab choy ichmasdan chiqib ketuvdi. Och o‘tirsinmi endi?

Risolat opamiz yalinishga tushdi:

— Jon xola, komissiya bor.

— Nima, kamissiyang non yemaydimi! Bolam bir kun kech olim bo'lsa bo'lar. «Kamissiya keldi», deb tishining kirini so'rib o'tirsinmi?

Boyadan beri suv qo'ygandek jimjit bo'lib turgan sinfxonada to'satdan qahqaha portladi.

— Ana, kamissiyangning o'ziyam kulyapti-ku! — Zebi xola derazadan boshini suqdi. — Ma, bolam, yeb ol, uyalma.

... Bir kuni jo'raboshimiz sigirini qaytarmagani uchun Valini urib burnini qonatdi. Ertasiga qiziq bo'ldi. Tol soyasida dam olib o'tirsak, maydoncha chetida Zebi xola ko'rindi.

Toy jo'raboshining yelkasiga turti.

— O'lding! Zebi xola kelyapti, qoch!

Jo'raboshining ko'zi olayib ketdi. Qaddini rostladi-yu, keyin qo'l siltab shineliga yonboshladi.

— Qatta uradi! O'zi zo'rg'a kelyapti-ku.

Qarasak, Zebi xola chindan ham zo'rg'a-zo'rg'a kelyapti. Qo'lidagi tayoqqa suyanib ikki qadam yuradi-da, to'xtaydi. Oqsoqlanib qadam bosadi.

— Yiqilib oyog'i singanga o'xshaydi, — dedi jo'raboshimiz.

Zebi xola inqillab-sinqillab yaqin keldi. Ammo besh qadamcha qolganda birdan cho'loqligi tuzalib qoldi. Tayoqni baland ko'targancha ikki hatlab jo'raboshining tepasiga keldi. Tayoqning qarsillashi bilan jo'raboshining dodlashi baravar eshitildi.

— Mana urish!—dedi Zebi xola do'rillab.— Urish mana bunaqa bo'ladi. — U jo'raboshining gardaniga tag'in tushirdi.

— O'zidan kichkinaning burnini qonatish mana bunaqa bo'ladi! Jo'raboshi jonholatda dumalar, ammo qocholmasdi.

— Oyi! Urmang, oyi! — Vali oyisining qo'lidagi tayoqqa yopishdi.

— Tavba qildim! — Jo'raboshi tipirchilab, kafti bilan boshini pana qildi. — Jon xola, o'lay agar, ikkinchi qilmayman!

— Oyi! — Vali Zebi xolani quchoqlab oldi. — Kerakmas! Zebi xola tayoqni uloqtirdi.

— Nima, meni bolam malaymi senga?! — dedi dag‘dag‘a bilan. — Sening molingni boqsin, deb katta qilib qo‘yibmanmi bolani?!

... O‘sha voqeadan keyin jo‘raboshimiz ancha yuvosh tortib qoldi. Uchinchimi, to‘rtinchimi kuni mog‘or bosgan kattakon qovoq ko‘tarib keldi. Tol soyasida o‘tirib qovoqni ikki pallaga ayirdi-da, qirg‘ich bilan tozalashga tushdi. Keyin pallalarning qirrasini arraning tishiga o‘xshatib jimjimador qilib qirqib chiqdi. Ikki pallani bir-biriga yopgan edi, orasi kovak koptokka aylandi-qoldi.

— Nima qilmoqchisan? — dedi Toy burnini tortib.

— Burningga osib qo‘yaman! — dedi to‘ng‘illab jo‘raboshi. — Artib ovora bo‘lib yurmaysan. — Keyin qovoqni bir chekkaga qo‘ydi-da, Toyga buyurdi. — Qorong‘i tushganda shu yerga kelasan. Sen ham, — dedi menga imo qilib. — Xo‘ja baribir kelolmaydi. Dadasi chiqarmaydi.

— Nimaga o‘zi? — dedim tushunmay.

— Sirk ko‘rsataman.

— Vali-chi, Vali ham keladimi? — dedim nariroqda tol yog‘ochidan hushtak yasayotgan Valiga imo qilib.

— Yo‘q. — Jo‘raboshi keskin bosh chayqadi. — U ham oyisidan qo‘rqadi. Es-es, kim kelmasa pes!

Kechki ovqatdan keyin bekinmashoq o‘ynayotgan akalarimning ko‘zini shamg‘alat qilib maydonchaga chiqdim. Qorong‘ida, tol tagida Toy bilan jo‘raboshi turibdi.

Jo‘raboshining qo‘lida boyagi qovoq. Faqat odamning boshiga o‘xshatib «og‘iz-burun» teshib qo‘yibdi. Negadir hammayoqni lampamoy hidi tutib ketgan...

— Laychang nimaga keldi? — deb to‘ng‘illadi jo‘raboshi. Qarasam, gurji kuchugim oyog‘im tagida dumini likillatib turibdi.

— O‘zidan so‘ra! — dedim men ham to‘ng‘illab.

Jo‘raboshi yerdan kesak olib otgan edi, it angillab qochdi.

— Nega urasan?

— Xalaqit beradi! — dedi jo‘raboshi zarda bilan. — Yur, bo‘lmasa kech qolamiz.

Toy ikkalamiz beixtiyor unga ergashdik. Qatorlashib Darhon arig'ining bo'yiga bordik. Ariq shu yerdan burilib oqar, nariroqda shox-shabbalar ustiga tuproq tashlab yasalgan ko'prik bor edi. Jo'raboshi ikkalamizni majnuntollar quyuq o'sgan qorong'i sohilga olib tushdi. Negadir yuragimni qo'rquv bosdi.

— Nima qilamiz o'zi? — dedim ovozimni balandlatib.

— O'chir! — Jo'raboshi kerosin hidi anqib turgan mushtini burnimga tiradi. — G'ing desang, suvga otvoraman.

Shu payt uzoqdan allakimning qadam tovushi eshitildi.

— Kelyapti! — dedi jo'raboshi pichirlab. Shosha-pisha qovoq pallasini ochdi. Kerosin hidi qayerdan kelayotganini endi bildim: qovoqning ichi to'la lampamoyga botirilgan latta ekan. Jo'raboshi yonidan gugurt olib chaqqan edi, lop etib olov ko'tarildi. U chaqqonlik bilan ikkinchi pallani yopdi-da, qovoqni suvga qo'yib yubordi. Suv yuzasida «og'iz-burni»dan olov chiqarayotgan «kalla» qalqib-qalqib suzib ketdi. Jo'raboshining niyatini endi tushundim. Boyagi qadam tovushlari Zebi xolaniki ekanini ham endi bildim. Qorong'i bo'lsa-da, katta-katta qadam tashlashidan, yelkasidagi ketmonidan tanidim. Hushimni yig'ib olgunimcha u tuproq ko'prik ustiga kelib qoldi. Suv yuzida qalqib kelayotgan olovli «kalla»ni ko'rdi-yu taqqa to'xtadi.

— Voy, voy o'lmasam! — dedi-da, ko'prik ustiga tappa o'tirib qoldi. — Bis-bis-bismillo... — dedi duduqlanib. Hatto tovushi ham ingichkalashib ketgandek bo'ldi. Keyin gandraklab o'rnidan turdi-da, ovozi boricha qichqirdi. — Dod, voydod!

O'mimdan otilib turdim.

— Qo'rqmang, xola! — dedim baqirib. Ammo jo'raboshi bilagimdan mahkam tutib, kerosin hidi anqib turgan kafti bilan og'zimni to'sdi. Ko'nglim aynib ketdi.

— Qo'yvor, eshak! — dedim bo'g'ilib. — Baribir aytib beraman!

— Aytib ko'r-chi! — Jo'raboshi yana mushtini do'laytirdi. — Jig'ingni ezib qo'yaman.

Boyadan beri angrayib turgan Toy jahl bilan qo‘l siltadi-da, indamay nari ketdi.

Ertasiga choy ustida oyim vahimali xabarni dadamga aytib berdi.

— Zebi opa sho‘rlilik bir holatda yotibdi. Ajina ko‘rdim, deydi. Og‘zidan olov sochib bechoraga daf qilganmish. Yo ko‘ziga ko‘ringanmi...

Dadam jerkib berdi:

— Ajinaga balo bormi! Bitta-yarimta xudobexabar qo‘rqitgandir-da.

— Bechoraga shu ko‘rgilik ham bor ekan, — dedi oyim iztirob bilan. — O‘zining g‘ami yetmasmidi...

Hammasiga men aybdordek sekin boshimni ichimga tortdim-u mum tishlab o‘tiraverdim.

Zebi xolaning nima g‘ami borligini bir haftadan keyin tushundim. O‘sha kuni hoji buvining chorbog‘ida sumalak bo‘ldi. Qiyg‘os gullagan o‘rik tagiga sholcha yozilgan, hamma topganini olib chiqqan, xotinlar bir-biriga gap bermay chuvillashar, biz bolalar ham sumalak yalashdan benasib qolmaslik uchun atrofda o‘ralashar edik. O‘shanda Vali bilan yangi o‘yin topib olgandik. Baquvvatroq simni «Ch» harfiga o‘xshatib buklaymiz-da, eski bochkadan chiqqan temir halqaga tirab g‘ildiratamiz. Qancha tez yugursak, g‘ildirak shuncha qattiq jaranglaydi. Agar ovozi pasaytirmoqchi bo‘lsak, buning ham yo‘li bor: g‘ildirakni suvga botirib olsak, ovozi chiqmaydi. Maza!

Bir mahal Zebi xolaning oldida o‘tirgan oyim imlab chaqirib qoldi.

— O‘rtog‘ing bilan borgin-da, — dedi sekin, — adangning hujrasidagi dutorni obke.

Ikkilanib qoldim. Dutorga hech kim qo‘l tegizolmas, dadam uni doim hujrasida saqlar, ba‘zan kechqurunlari «Dilxiroj», «To‘rg‘ay», «Qari navo», yana allaqanday kuylarni chalib o‘tirishni yaxshi ko‘rardi. Oyimning aytishicha, dadam dutorni yoshligida eng zo‘r ustaga buyurtirib yasatgan ekan.

— Bilib qolsalar urishadilar-ku, — dedim oyog‘im tortmay.
— Bilmaydi! — Zebi xola qo‘l siltab do‘rilladi.— Nima, yeb qo‘yarmidim.

— Ketdik! — dedim Valiga.

Ikkalamiz g‘ildiraklarni jaranglatgancha yugurib ketdik.

— Ehtiyot bo‘l, sindirib qo‘yma! — deb baqirdi oyim ketimizdan.

...Zebi xola g‘ilofni ochgan zahoti dutor sadaflari yaraqlab ketdi. U dutorni cherta boshlashi bilanoq, boyadan beri chuvir-chuvir qilayotgan xotinlar jimib qolishdi. Qiziq, o‘zim ham o‘rikka suyangancha bir qo‘limda sim, bir qo‘limda g‘ildirak bilan qotib qoldim. Dutor dadamning qo‘lida qandaydir sho‘x, baland ovozda jaranglar edi. Hozir Zebi xola chertganda esa ingrab yuborgandek bo‘ldi. Go‘yo dutorni Zebi xola chalmas, torlarning o‘zi nola qilar edi. Ayollar har xil alpozda sehrlangandek qotib qolishgan, bahor chechaklari barq urgan daraxtzor orasida oqish-pushti o‘rik gullari qanotida, Hoji buvining qizg‘aldoqlar lovullagan pastak tomi ustida nurdek mayin kuy taralardi.

Zebi xola bir-ikki tomoq qirib oldi-da, qo‘shiq boshladi. Uning erkaklarnikiga o‘xshash do‘rillagan ovozi ashula aytganida shu qadar yoqimli bo‘lib ketganiga hayron qoldim. Yo‘q, uning tovushi mayinlashgani yo‘q. Ammo u shunchalik bosiq, shunchalik o‘rtanib kuylardi-ki, badanim jimirlab ketdi.

*Yor yurgan ko‘chalarni supuray sochim bilan,
Changi chiqsa suv sepay, ko‘zdagi yoshim bilan...*

Mayin shamol esar, o‘rik gullari unsiz to‘kilar, daraxtzor ostida maysalar ohista tebranar, ammo butun tabiat bir zum unsiz bo‘lib qolgan, hamma-hammasi faqat mana shu dutor sadolariyu mana shu qo‘shiqni tinglash uchun tinib qolgandek edi. O‘sha manzarani o‘ylasam, xayolimga hadeb bir gap keladi.

Keyin, katta bo‘lganimdan keyin ham muhabbat haqida, vafo haqida ko‘p qo‘shiqlar eshitdim. Biroq ayol sadoqati to‘g‘risida bundan yaxshi ashula eshitganim yo‘q...

Zebi xola endi ko'zlarini yarim yumgancha yangi qo'shiq aytardi.

*Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan, bergil xabar,
G'amda boshim, ko'zda yoshim, ichganim bo'ldi zahar.
Za'farondek sarg'ayurman, hasratingda qon yutib,
Ko'zlarimning nuri ketdi, yo'llaringga ko'z tutib.*

Hammamiz qo'rqadigan, ko'rganda hammamiz qochadigan Zebi xola shumi? O'sha qo'pol, o'sha jahldor Zebi xolami shu? Valining oyisida shuncha dard bormidi? Shuncha alami bor ekanmi? Nimaga biz bilmagan ekanmiz!

Zebi xolaning yumiq ko'zlaridan ikki tomchi yosh silqib chiqdi-yu qirra burnining chetida to'xtab qoldi. Dutorni yonboshiga qo'ydi-da, keng yengining uchi bilan ko'zini artidi. Hamma jimib qolgan, hech kim birinchi bo'lib gapirishga jur'at etolmas edi.

— Hech bo'lmasa, Kimsanim kelgandayam mayli edi, — dedi u xo'rsinib.

— Qo'ying, opajon, — dedi oyim sekin. — Unaqa demang, xudoga shukur, mana, bor-ku. — Oyim nariroqda g'ildirak ushlab mo'ltirab turgan Valiga imo qildi. — Nasib etsa, to'ylar qilasiz, qo'sha-qo'sha nevaralar ko'rasiz.

Zebi xola yarq etib Valiga qaradi. Ko'zida yosh bilan jilmaydi.

— Sumalak yedingmi, o'g'lim? Qorning ochib qolgandir?

— Yedim, — dedi Vali sekin. U ham oyisining yig'laganini ko'rib o'pkasi to'lib turardi.

— Bo'lmasa, o'ynay qolinglar.

Birpasdan keyin Zebi xola bizni yana chaqirdi.

— Oborib qo'ya qol joyiga, — dedi dutorni g'ilofga solib. — Dadangdan baloga qolib yurmay tag'in.

Bir qo'limda dutor, bir qo'lim bilan g'ildirak g'ildiratgancha yo'lga tushdim. Vali ham g'ildiragini aylantirib yonma-yon borar, ammo endi avvalgidek yugurmas edik. Qulog'imda hamon Zebi xolaning qo'shig'i yangrab turar, go'yo g'ildiraklar

ham g'ildirak emas, dutorning ikki tori edi. Ana, ikkovi bir-biriga jo'r bo'lib jaranglayapti. Zebi xola bo'lsa hamon qo'shiq aytayapti:

«Jon bolam, jonim bolam, qaylardasan, bergil xabar...»

Chetini o't bosgan ariqchadan o'tayotganda g'ildiragim sakrab ketdi. Bir hatlab oldinga talpingan edim, o'tga sirg'anib yiqilib tushdim. Dutor yerga urildi... Qars etdi. Tamom! Kuy ham, qo'shiq ham tindi-qoldi.

— Sindi! — dedim ovozim titrab. Vali yugurib tepamga keldi:

— Voy-y-y! Endi dadang o'ldiradi! Ikkalamiz qo'limiz titragancha g'ilof bog'ichini yechdik. Qarasam, dutorning ip tortadigan qulog'i sinib tushibdi.

— Endi nima qilamiz? — dedi Vali ko'm-ko'k ko'zlarini jovdiratib.

Yig'lamoqdan beri bo'lib, yelkamni qisdim.

— Yur! — Vali qo'limdan tutib uyiga boshladi. Ikkalamiz ularning hovlisiga kirdik. Hovli etagidagi bostirmada eski quti bor ekan. Vali qutini titkilab zanglab ketgan temir topdi.

— Mana! — dedi tantana bilan. — Endi hech ham sinmaydi!

Dutorning singan qulog'i o'rniga temir tiqdik-da, imi-jimida g'ilofga solib joyiga ilib qo'ydik. Kechqurun oyimga nima bo'lganini aytib bergandim, rangi o'chib ketdi. Lekin nima qilishni oyim ham bilmasdi.

O'sha kuni emas-ku, uch kundan keyin sir ochildi.

Dadam hujradan turib jahl bilan qichqirib qoldi:

— Dutorga kim tegdi?

Zum o'tmay dutorni ko'tarib chiqdi.

— Garangmisanlar? Qaysi biring sindirding? Bu nima qiliq?

— dedi Vali «tuzatgan» dutorni ko'rsatib.

Oyim aybdor qiyofada o'tirar, akalirim hayron bo'lib bir-biriga qarashar edi. Hozir katta janjal bo'lishini sezib qo'rqib ketdim.

— Tiling bormi?! — dadam battar tutaqib ketdi.

— Zebi opa chaluvdi, — dedi oyim sekin. — Sumalakka chiqqanimizda... bir chalib beray, devdi... Qiziq, dadam birdan hovuridan tushdi.

— Mayli, — dedi ovozi pasayib. — Zebi chalsa mayli.

U hujraga kirib ketdi-da, anchadan keyin bir bo‘lak yog‘och ko‘tarib chiqdi. Dandon sopli pichog‘i bilan yog‘ochni kesa boshladi.

— Dutorning qulog‘ini tutdan qilmasa sinaveradi, — dedi sekin. Yog‘ochning u yoq-bu yog‘ini o‘yar ekan, uh tortdi. — Qarab turib xudoning ishlariga ham qoyil qolmayman. Otaboladan bir oyda «qoraxat» kelsa-ya!

— Shuni ayting, — dedi oyim jonlanib. — Tag‘in ham odamzod chidarkan. Ham eridan, ham yakka-yolg‘iz o‘g‘lidan judo bo‘lib o‘tiribdi boyaqish. — U bir zum o‘ylanib turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. — Bechora, Valisiga juda suyanib qolgan. Ishqilib, orzu-havasini shundan ko‘rsin...



Valentin tuzatib bergan mashinani haydab borarkanman, beixtiyor Zebi xolaning ko‘chasiga burildim. Ana, Valentinning uchastkasi. Shifer tomli uy oldida ZIL turibdi. Kabina zinasida katta-kichik uch bola oyog‘ini likillatib o‘tiribdi. Biri do‘ppi kiygan, biri shapkasini bostirib olgan... Mashinani sekin haydab o‘tib borarkanman, ichkaridan dator sadolari eshitilgandek bo‘ldi. Kim bilsin, ehtimol menga shunday tuyulgandir?..

ILTIJO

Oyi, men keldim... Eshityapsizmi, oyi, men yana keldim...

Qarang, oyi, tag‘in ko‘klam kirdi. Esingizdami, har yili bahor kirishi bilan sizni dalaga olib chiqardim. Siz charaqlagan oftobni, tiniq osmonni, ko‘m-ko‘k maysalarni ko‘rib quvonardingiz. Esingizdami, nevaralaringiz terib kelgan boychechaklarni ko‘zingizga surtib, «omonliq-somonliq» qilardingiz...

Bugun... o‘zingizning ustingizdan boychechak o‘sib chiqibdi...

Yo‘q, yo‘q, oyijon... Yig‘layotganim yo‘q. Bilaman, men yig‘lasam, siz bezovta bo‘lasiz. Hozir... hozir o‘tib ketadi. Mana, bo‘ldi...

Ertalab-chi, oyi, yomg‘ir yog‘di. Qattiq yomg‘ir yog‘di. Siz bahor yomg‘irini yaxshi ko‘radingiz... Keyin oftob chiqib ketdi. Qarang, oftob charaqlab yotibdi...

Esingizdami, siz menga oftob to‘g‘risida cho‘pchak aytib bergan edingiz. O‘sha oftob charaqlab yotibdi... Ko‘ryapsizmi...

Ecingizdami, oyi, siz ukamga alla aytardingiz. Men allaning ohangiga mast bo‘lib uxlab qolardim. O‘sha beshikda men ham yotganman. Allangizdan men ham orom olganman. Nima qilay, oyi, men alla aytishni bilmayman. Qabringizni silab qo‘ysam orom olasizmi... Mana, oyijon, mana... Yo‘q, yo‘q, yig‘layotganim yo‘q. Hozir, hozir o‘tib ketadi... Esingizdami, oyi, siz bir marta, atigi bir marta, o‘shandayam hazillashib: «Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim» degandingiz. Men: «Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?» degan edim. Xafa bo‘lmang, men ham hazillashgan edim. Mana, o‘sha kitob. Yo‘q, uni men yozganim yo‘q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog‘ozga tushirib, odamlarga tarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shundoq bo‘lsayam, ularning hammasi Sizga o‘xshashini xohlayman...

1980- yil, mart — 1981- yil, mart







MUROD MUHAMMAD DO‘ST

DASHTU DALALARDA

Hikoya

Xadicha ketdi-yu ko‘ngildan halovat ham ketdi. Uy bamisoli o‘lik chiqqanday huvillaydi. Polvonning yuragi toriqdi — uyni tark etdi, boqqa olib tushadigan qiyalikdagi bobosidan qolgan yerto‘lani o‘ziga boshpana qildi. Odamlarning kulishini bilardi, ammo uydagi hamma narsa Xadichani esga soladi: ostonaga qadami tekkan, devorga yelkasi — chidab o‘tirishi qiyin bo‘ldi.

Yerto‘la eski bo‘lsa ham havosi quruq edi. Eri naq metin — cho‘kich tegsa, chaqin chiqadi. Qoratoyni ham ichkari olib kirdi. Bechora it ochiqqa o‘rgangan edi, yerto‘laga ko‘nikolmadi, uch-to‘rt kecha uvlab chiqdi, lekin — yo‘q, keyin-keyin egasining holiga tushundi chog‘i, poygakka to‘shalgan poxol ustida indamay yotadigan bo‘ldi.

Yerto‘la avvaliga sal vahimali ko‘rindi. Shifti past, agar chiroq bo‘lmasa, naq lahadning o‘zginasi...

Asta-sekin yerto‘laning go‘rsimon ekaniga ham ko‘nikdi. Yomg‘irli bir tunda uyqusiz yotib uzoq o‘yladi, o‘zining tirikligini o‘yladi, yonida iti Qoratoy borligini, Xadichaning ketganini... Bir o‘zi ketsa go‘rga edi, qizchani ham yetaklab ketdi... Shu tariqa, xayoli to‘rt yashar qizchasi Chamanga og‘di, qizim hozir Sho‘rquduqning ko‘chasida bemalol o‘ynab yurgandir, deb o‘yladi, hatto uning qo‘lchalarini tuproqqa belab qichqirayotganini eshitganday bo‘ldi. Yarim tun ekani, tashqarida yomg‘ir sharros

quyayotgani — barisi bekor edi. Xo‘rligi keldi, o‘zidan xafa bo‘ldi, keyin poygakda xumday boshini yerga qo‘yib mudrayotgan itiga so‘zlandi: mening holim shu, Qoratoyjon, xotin ketdi, har kim o‘z yo‘liga ekan...

It otini eshitib, ko‘zlarini ochdi. Polvon gapirib yotaverdi. Go‘yoki bor alami tanidan hovurdek ko‘tarilib, butun yerto‘lani to‘ldirayotganday edi Qoratoy egasining qarashiga chiday olmadi, poxol ustida g‘ujanak bo‘lib, yana ko‘zlarini yumdi.

... Kunlar shu zaylda o‘taverdi. Singlisi Adolat har kech sigir sog‘ar mahali holidan xabar olib turardi. Akasining o‘rligini bilar, shu sababli unga ko‘pda aql bo‘lavermas edi. Lekin, axiyri y ham chidab turolmadi.

— Mengayam oson tutmang, aka, — dedi. — Jo‘jabirday jonman, qaysi birovlaringga qarayman? Odamlarga kulgi bo‘ldik, aka, bu kuningizdan o‘lganingiz behroq edi!..

Har safar singlisi kelganda miq etmay yotadigan odam, bu gal ilkis qo‘zg‘aldi:

— Men o‘lsam tinchiysanmi, Adol?

— Qaytib oldim, aka, — dedi y. — Tillarim qirqilsin, aka, qaytib oldim!..

— Senga og‘irim tushgani rost, — dedi Polvon. — Sal sabr qilgin, singil, men avval old-ortini bir o‘ylab olay...

O‘shandan beri Adolat qorasini ko‘rsatmaydi. Olib kelgan narsasini ham yerto‘ladan tashqariga, eski toltovoqning ostiga qo‘yib ketadi.

Kunduzlari bir nav — yolg‘izlik ko‘p bilinmaydi. Ertalab qo‘liga gavron olib cho‘lga chiqib ketgani bilan to shomgacha podaga andarmon bo‘lib yuradi. Baxtiga, sherigi Hasanboy kamgaproq odam, bir marta uylanib, yil o‘tmay ajrashgan, Polvonning xotini ketib qolganiga ko‘p ham ajablanmaydi.

Kunduzlari bir nav, jami azob shomdan keyin, shifti past yerto‘laga qaytgan mahali boshlanadi.

Xadicha yoningda yotganida o‘lim yodingga tushsa ham qo‘rqmaysan: xotining bor, bolang bor, tepangda— xudo, e, bir

gap bo'lar-da, deb o'ylaysan. Xadicha bo'lmasa qiyin ekan. Endi uning siyog'i ham esdan chiqqanday; bechora salga shamollardi, shamollab dimog'i chippa bitganida pishqirib bezor qilardi, huda-behuda chiroq yoqardi, ivirsib g'ashingga tegardi, lekin bari bir, borligi durust edi — ovunarding, istagan paytingda qo'l uzatsang yetadi, g'ingshisa g'ingshir, iloji yo'q, o'rtada non singan, nikoh o'qilgan; bag'ringga bosib yuz-u ko'zidan muchchi olgan chog'laringda bechora kichrayib qolardi, u-ku kichkina, lekin sen ham o'zingni pardek yengil sezasan; dimog'ingda sutning hidi, qayoqqadir uchib ketgilaring keladi; doim ko'klam bo'lsa, ko'kalamzor bo'lsa, yalangoyoq, yalangbosh, pardek yengil Xadichani ko'tarib hovlidan chiqsang, keyin shu ko'targancha ketsang, hech kimdan uyalmasang, ketsang, yo'lingda biron uchramaca, ketsang-da, qayoqqa ketayotganingni o'zing ham bilmasang!..

U xotinini umrida bir marta — chimildiqda amallab ko'tarib olgan, xolos. Faqat, ba'zan poda ketidan yurganida xayoli og'ib, uni ana shunday ko'tarib chopmoqni istaganlarini eslaydi. Chimildiqda ikkita ayol etagidan bosib turgan, bittasi — Xadichaning o'rtancha ammasi, shunchaki etakdan bosmay, naq taqimiga qistirgan. Polvon unda yosh edi, bir-muncha sho'xligi ham bor, kishibilmas timirskilanib turib, Xadichani qo'ltig'idan shartta ko'tardi. Amma g'aflatda qoldi, kapadek bo'lib ag'darilib tushdi. Uni poca kulgi qilishdi. Xotin-xalaj baralla kuldi. «Mana senga, Oybuvi, mana senga kuyovning zo'ri», deyishdi. Zo'r-u nozo'ri kimga kerak — shunchaki gap bo'lsa bas, hamma og'ziga kelganini aytadi, hammaning dimog'i chog'. Polvon chimildiq ortidan mast odamday gandiraklab chiqdi, chiqdiyu ko'chada sho'rquduqlik yigitlar bilan o'rlashib turgan jo'ralarini ko'rdi. Kuyovning o'zi chiqqach, sho'rquduqlik bittasi battar avj qildi: «Senga Xatcha hayf, Polvon, — dedi. — O'zimizdan ortib qolgani yo'q edi, qulog'ini tishlab qo'yuvdik, haliyam tashlab ketaber!..» Polvonning yomon ajinasi tutdi, lekin urishgani jo'ralari qo'yishmadi, neki harb-u zarb bo'lsa, o'zlarini balogardon qilishdi... So'ng, Sho'rquduqdan chiqar mahal, ko'chani adog'ida, ular

tushgan ulovga tosh yog'ildi. Polvon sal enkayib, kelinning boshida turdi, lekin Xadicha shusiz ham bexatar edi. Ust-boshi qalin, yumshoq — unga hech ziyon yetmadi. Birgina G'uchchi cholga tosh qattiqroq tegdi, bechora yilqichi, alami tutib, ovozing boricha aytib qo'yabardi: «Nokas sho'rquduqlik, mening aybim nima? Chimildiqqa kirgan menmi?!» Uning baqirganiga birov parvo qilmadi. «Er-yor-yoron-ey!» deb qo'shiq aytishdi. Galatepada bunday qo'shiq rasm emasdi. Uni Sho'rquduqdan qo'shilib chiqqan kelinning xeshlari boshladi. Galatepaliklar avvaliga iymanibroq turishdi, keyin ular ham qo'shildi, to o'zlarining sarhadlariga yetguncha bo'kirib borishdi: «Tomda tovuq yotadi, yor-yor-yoron-ey, oyog'i sovg'atadi yor-yor-yoron-ey!..» Yolg'iz Polvon qo'shiq aytmadi. Indamay keldi. G'alati edi. Yonida — Xadicha, hali yuzini tuzukroq ko'rolgani ham yo'q, uyat-u qo'rquvdan bir burda bo'lib o'tiribdi, ulov har silkinganda yelkasi tegadi, xuddi bir yashin urganday, o't, olov, qiyomatning naq o'zil.. Keng bir dala, yo'l, ulov... E xudo, ulov degani muncha imillamas!.. Bir yoqda qo'shiq, bir yoqda G'uchchi chol, haliyam so'kinyapti: sho'rquduqlik nomard chiqdi, ko'chada ro'para bo'lolmadi, orqadan tosh otdi... Endi G'uchchiga qiyin, endi uning g'urrasini Galatepa rosa bir oy kulgi qiladi, ajab bo'пти, xo'b bo'пти, sen cholga kuyovnavkarlikni kim qo'yibdi; e, enalari o'lsin, nimasini eslaysan, Polvon, eslagulik joyi qoldimi! Yoningda Xadicha yotsa tuzuk, Polvon, hali bu ko'rganlaring oz, Polvon!..

Xadicha bir sidra kiyimini tugun qilib, poygakda qotib turdi, bechora biror sazo chiqishini kutdi, lekin Polvon er bo'lib bir narsa demadi. Xadicha dahlizga chiqib yana birpas turdi, hovliga chiqib hovlida turdi, ilindi, qaytarib olar-ku, dedi, ammo Polvon teskari-to'ng bo'lib yotaverdi, so'ng, Xadicha darvozaga yetganda chidab turolmadi, qizchasi Chamanni qo'lidan sudrab chiqdi: «Ma, muniyam obket, pishirib yeysanmi, isqotingga qo'yanmi!..» Musht yeganda yig'lamagan ayol, buni eshitib yomon bo'shshdi, ko'ziga yosh oldi: «Haq, falak! — dedi. — Mayli, ketsam ketayin, beqadr bo'ldim, mayli xudodan toping». Shu gapni

aytdi-yu qizini yetakladi-ketdi. Polvon uyga kirdi. Yalang palosda kesak bo'lib yotdi. Qancha yotganini bilmaydi, bir payt chiqib qarasa, Xadicha uzoqlabdi, Sho'rquduqning yo'lida qizini iyartib ketyapti. Polvon Toshgazagacha izma-iz bordi, lekin ularning qayrilmaganini ko'rib shartta to'xtadi, avvaliga g'azabi yo'q, ichi to'la alam, chakmonining bariga bir urdi: «Hay, mayli, ketsang ketaber, Xatcha, Sho'rquduq borasanmi, nariroqqa o'tib ketasanmi, bir boshimda bir kunim, men ham sensiz uloqib ketmasman!..»

Orqaga qaytdi. Hovlida o'tirib, zambilg'altakning bo'shagan tirsagini sozladi, chalg'ining tig'ini peshladi, o'zini yupatdi, hatto sal ovunganday ham bo'ldi, keyin, kech tushganda qarasa, taqron joyda toq o'zi o'tiribdi, dardlashgudek mahrami yo'q, yig'layin desa, ko'r bo'lgur ko'zga yosh kelmaydi. Notavonligini endi sezdi, alamidan xotin bechoraning uyda qolgan kiyim-kechagini hovliga olib chiqib, oshpichoq bilan qiymaladi, kultepaga eltib ko'mdi. Io'q, bu bilan ham tinchimadi, kultepaga o'zini eltib ko'msa ham tinchiguday emasdi. Bezovta, beorom, miyasiga qurt tushgan qo'chqordek hovlini gir aylanib yugurdi. Aylanaturib darvozaga ro'para bo'ldi-yu, uni lang ochiq ko'rdi. Ko'chaga chiqdi, Sho'rquduqqa yo'l tutmay, to'g'ri Salim chaqichnikiga burildi. Borca, Salim hovli o'rtasida sandal qo'yib, oldida mag'zava to'la tog'ora, bir parcha pishiq g'isht bilan tovonining emini qirtishlab o'tiribdi. Polvon tog'orani bir tepib ag'dardi, so'ng Salimning yoqasidan oldi. O'rtaga Mahfirat tushmaganda oxiri yomon bo'lardi. Salim uning qo'lidan yulqinib uyga chopdi, zum o'tmay, otasidan qolgan qo'shtig'ni ko'tarib chiqib, Polvonga o'qtaldi: «Ket, bo'lmasam otaman!» Mahfirat miltiqqa ko'kragini tutdi: «Avval meni otasan!..» Polvon uni chetlatdi: «Qo'y, singlim, ering hazillashyapti». Yo'q, xotin aytganidan qolmadi, eridan miltiqni yulqib olib, hamsoyaning hovlisiga otdi. Polvon boshqa musht ko'tarmadi, g'azabini ichiga yutib, tashqari chiqdi. Hayal o'tmay, ortidan Salim saqich ham chiqib keldi, qachon yirtib ulgurgan bo'lsa ham, egnidagi kiyimning butuni yo'q, yenglari-yu ishtonining baloqlarigacha ro'dapoday osilib yotibdi, boshidan

tuproq sochganmi, aft-basharasining kulga yumalagan toyxardan farqi kam, chiqa solib Nizomboy milisaning uyiga jo'nadi. Polvonning xayoli qochdi: bu nomard boshini yorishdan ham toymaydi! E, opketsa, opketar, nima, ortingda yig'lab qoladiganing bormi! Mayli, oxirigacha nomardlik qilaversin, Nizomboyga chaqadimi, boshqa qiladimi, mayli, shu nomardning ham xusuri qonsin!..

O'zi keyingi paytlar Salim saqich bilan oshnachilikni bas qilmoqchi edi. Bir-ikki bor atay so'kishgani chog'lanib bordi. «Zora so'kishib qolsagu ora ochilib, yuzko'rmas bo'p ketsak», deb o'yladi. Yo'q, so'kish ham oson emas ekan, odamning yuzidan o'tishi qiyin bo'ldi.

Ikki piyola aroq ichguncha har ne janjalga xezlanib o'tirdi. Keyin sal kayfi oshdi. Salim saqichga rahmi keldi: «Bu dayus sil qon tuflab yurib, o'zini o'nlaguncha ozmuncha urindimi», deb o'yladi, qiynaldi. Salim Kattaqo'rg'ondan murch, saqich, hushtak, hatto erkak odam nomus qiladigan narsalargacha olib kelib sotardi. Keyin ana shu attorlikdan tushgan sarmoya bilan boshqa bir ishni kasb qildi. Kechqurunlari, qishloqda ismi do'kon yopilgan mahal, so'rab kelganga bir so'm ustamasi bilan aroq sotadi. Hozir endi tuzuk bo'lib qolgani — yuziga qon yugurgan, yo'tali yo'q, gaplari ham dadil.

Oxirgi gal Salim saqich unga nasihat qilgan bo'ldi:

— Bu ishingni qo'y, bola, sen ko'p ichaverma.

Polvon uning nasihati astoydil ekaniga ishonmadi, kuldi. Salimning esa jahli chiqdi.

— Men bir oti yomon odamman, Polvon ukam, — dedi y.

— Eshitsang, o'zing uchun eshitasan, eshitmasang — otangning go'riga!..

— Gapning o'zi qiziq-da, Salim, — deb e'tiroz qildi Polvon.

— O'zing quyib berasan-u, ichmagin, deb aytganing nimasi? Keyin, oshna, xudo bo'lsang ham, ota-buvamni o'rtaga qo'shma, tepada tinch yotsin, men hali o'zimdan qolganim yo'q.

— Holingga boqmaganing yomon, — deb kuldi Salim saqich.

— O‘zingcha ne xayollarga borib yuribsan! Aytib qo‘yay, menga ko‘p shox qilaverma, bo‘lmasa, naq changingni chiqaraman! Sen bu yoqda ichib yurasan, xotinchang Sho‘rquduqqa bir oylab o‘tlagani ketadi!..

Polvon Salimni jag‘iga bir urib ko‘rpachaga qulatdi. Lekin y taslim bo‘lmadi, tishining orasidan sizayotgan qonni kafti bilan sidira turib, yana gapirdi:

— Sen bu yoqda, y naryoqda... Enasinikida o‘sma qo‘yib o‘tiribdi, deb o‘ylaysanmi!..

— Bas qill!..

— Bo‘pti, men bas qildim, lekin sen ham o‘zingga ehtiyot bo‘l, Polvon ukam! Kuchingni xotinga ham ko‘rsatib tur!.. — Salim saqich pixillab kuldi.

Polvon tag‘in musht ko‘tardi, lekin urmadi, shartta joyidan turib jo‘nadi. Yo‘l bo‘yi Xadichani o‘yladi. Buzuq desa, buzuqligiga ishonmaydi, tuzuk desa, erta bahorda Sho‘rquduqqa ketib, poca ikki hafta o‘sha yoqda qolgani rost. «Sattorqulning xotini tug‘ibdi», degan edi. Bunisini Polvonning o‘zi ham bilardi. Sho‘rquduqqa borganida bildillab qarshi oladigan tojik qiz — Sattorqulning xotini keyingi safar undan tortinibroq turgan edi. O‘choqning boshidan beri kelmagan. O‘zi oriqqina, shundan, qorni battar do‘ppayib ko‘ringan edi.

Uning-ku bo‘shagani rost, lekin Xadichaning o‘sha yerda bunchalik qadalib qolganiga nima deysan?..

Uyga qaytib, xotini burovga oldi. Xadicha qasam ichdi, qizini, enasini, xudoning o‘zini guvoh qildi. Lekin Polvon ishonmadi. Ishonay dedi-yu, ko‘ngilda tugun qolarini sezdi. Kayfi bor edi, chekayotgan azobi bol tuyuldi — xotiniga ishonmadi.

Bir kuni azonda podani cho‘lga haydab keta turib, Toshgazaning so‘l betida qirg‘iydek qo‘qqayib o‘tirgan Nazar Maxsumni ko‘rdi. Hayron bo‘ldi: «Maxsum-ku o‘zidan tinchigan odam, choshgohdan oldin qorasini ko‘rsatmaydi — bugun bunday o‘tiribdi? «Qichqirib salom berdi. So‘rashay desa — uzoq, salomini kifoya bilib, yana podaga andormon bo‘ldi, haydayverdi.

Bir vaqt Nazar Maxsum kulrang toyxarida orqadan yetib keldi va yonma-yon ketaverdi.

— Nevaramning to‘yiga bir kelasiz-da, Polvonboy, — dedi y. — O‘zingiz kelib bir davra qursangiz. Odam yuboraman.

— Ko‘p qatori borarman, — dedi Polvon. — Lekin Maxsum buva, o‘zingiz bilasiz, men olishadigan polvon bo‘lmasam, otamning qo‘yib ketgan oti...

— Olishmasangiz ham bir keling, — dedi Nazar Maxsum. — Nevaramning to‘yini bir ko‘ring. Yaxshi yigit, boshqalarning bolasiga o‘xshamaydi, asli palagi toza-da, Polvonboy. Usta Xoliyor vahima qilib yuribdi: «Muningiz bir Alpomish yigit, muni ko‘rpachaga qanday ag‘natamiz?», deydi...

— O‘sarqulni bilamiz, Maxsum buva,— dedi Polvon.— Tuzuk bola.

— E, past ketdingiz, tilla-ku, tilla! — dedi Nazar Maxsum.— O‘zingiz qalaysiz, Polvonboy? Xotiningiz ketibdi, deb eshitib edim, shu gaplar rostmi?

— Ertaga qirq kun bo‘ladi,— dedi Polvon.

— Chillasi chiqarkan-da, — dedi Nazar Maxsum. — Bekor qipti, Polvonboy, sochi uzunlik qipti, endi sizday yigitni topolmaydi. Taloq-palog‘ini aytdingizmi?

— Ko‘zim qiymayapti, Maxsum buva. Aytсамmi deyman-u, qurg‘ur ko‘z qiymaydi.

— O‘ychining o‘yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi, — dedi Nazar Maxsum. — Sho‘rquduq boryapman, agar talog‘ini aytasangiz, men o‘zim opketardim.

— Dabdurustdan bo‘lmas, — deya mulohaza qildi Polvon. — Buning bir xil qoidalari bo‘lardi, shunday aytib yuborgan bilan...

— Bo‘laveradi, — dedi Nazar Maxsum. — Endi, o‘ylab o‘tirasizmi, Polvonboy, magarkim, yuzingizga oyoq qo‘ydimi, endi o‘ylash yo‘q! Bu o‘zi bir chuvalgan savdo, talog‘ini aytasiz-u shartta qirqasiz — davosi shu!

Polvon qanday «xo‘p» deb yuborganini bilmay qoldi.

— Bitta «xo‘p» bilan ish bitmaydi,— dedi Nazar Maxsum uning nodonligidan ranjib. — «Taloq qildim», deb ayting. — Taloq...— dedi Polvon.

— Bo‘lmaydi, qattiqroq, — dedi Nazar Maxsum. — Yana ikki marta ayting, qoidasi shu.

— Taloq, taloq!

Qahri qo‘zib turgan edi, taloq aytib ham hovri bosilmadi. Alamidan orqaroqda borayotgan sigirning quymichiga gavron bilan tushirdi, keyin birdan ko‘zlari tindi, bo‘shashdi, yolg‘izoyoq yo‘lning chetiga behol o‘tirib qoldi...

Bir zamon qarasa, sigirlar yo‘ldan chiqib, lalmi yo‘ng‘ichqaga oralab ketibdi. Nazar Maxsum ham olisda, xuddi yov quvganday ortga qarash yo‘q, toyxarini qichab boryapti. Polvon bir kasofatni sezgandek bo‘ldi, lalmi bedaga urib ketgan podani ham unutib, Nazar Maxsumning ortidan chopdi. Quvib yetib, yo‘lini to‘sdi:

— Kinga mo‘ljal qilib boryapsiz, Maxsum buva?

— Mo‘ljalim yo‘q, Polvonboy, hech mo‘ljalim yo‘q, — deya Nazar Maxsum taysalladi, ko‘zlarini olib qochdi. — O‘rolni aytganday bo‘lishuvdi, lekin men ko‘nmadim, meniki bir savob...

— Savobingizning uyi kuysin,— dedi Polvon.— Vakolatimni qaytib bering!

— Ana, oling, Polvonboy,— dedi Nazar Maxsum aqli shoshibroq. — Ana, oling vakolatingizni, men bir savob ish, deb edim, mayli, o‘zingiz borib ayting.

— Mo‘ljalni xato olgan ekansiz, — dedi Polvon. — Qo‘yadigan xotinim yo‘q!

Xo‘p, xo‘p, Polvonboy, bizniki tig‘iz emas, — dedi Nazar Maxsum. — Lekin siz ham bir o‘ylang, hozir menga zug‘um qilyapsiz, ertaga o‘g‘lim Sanaqulbek kelganda nima javob aytishingizniyam bir o‘ylang.

— O‘rolga Sananing xotinini ob bering! — dedi Polvon. — Uyga qayting, Maxsum buva, Sho‘rquduqqa keyinroq borasiz.

Nazar Maxsum itoat qildi — toyxarini orqaga burdi. Polvon bedaga oralagan sigirlarni bir amallab to‘da qildi-yu, ovloq bir kamarga qamab, o‘zi Sho‘rquduqqa jo‘nadi.

Darvoza ochiq ekan. Har gal bemalol kirib boraveradigan odam, bugun taqillatgani ham jur‘at qilmadi — turaverdi. Xayriyat, hovlida Xadichaning o‘zi ko‘rindi, ajablandi, qo‘lidagi cho‘ltoq supurgini tashlashni ham unutilib tashqari chiqdi. Arazi tarqamagan chog‘i: salom bermadi, xuddi begonaday, ko‘zlari yerda, og‘zini ro‘mol bilan to‘sdi... Polvon achchiqlanmadi, qaytaga — xo‘rligi keldi, xotini o‘ragan bir so‘mlik gardi ro‘mol-u uning kir unnagan ko‘ylagi sabab bo‘ldimi yoki qo‘lidagi cho‘ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o‘zini nomard, noinsof sezdi.

— Obketay deb keluvdim, Xatcha, — dedi sekin, ovozini o‘zi ham tanimay.

— O‘ldirib qo‘yasan, — dedi Xadicha. — Men-ku borarman, lekin sen tentak o‘ldirib qo‘yasan.

Shunday deb yig‘ladi. Polvon unga jo‘yaliroq gap topib berolmadi. «Rost, — deb o‘yladi, — bu borsa, yana jinim qo‘zisa, yana so‘ksam, ursam, xotin degan narsaning nima holi bor, o‘ldirib qo‘yaman».

Xadicha ichkari kirib, Chamanni yetaklab chiqdi. Qizcha qo‘rqib qolgan ekan — otaga qarab talpinmadi.

— O‘lmasang, manavi norasida odam bo‘lganda tushunarsan, topisharsan, — dedi xotin. — Meni o‘z holimga qo‘y endi.

Polvon birdan sergaklandi: Xadicha xotin boshi bilan boyadan beri sensirayotgan ekan.

— Sensirama, Xatcha, — dedi u. — Toza tomiring suvga yetgan bo‘lsayam sensiramay gapir!

Xadicha sho‘rlik to‘lib turgan ekanmi, battar ters keldi:

— Qo‘lingdan kelganini qil! — Bu gapni aytishga aytdi-yu, ortga tislendi. Polvon angrayib turib qoldi.

— Sen y yoqda odamga o‘xshab gapirarding, Xatcha, — dedi u bir vaqt o‘ziga kelib. — Kimning darsini olding, nega munday gapirasan?

Xadicha indamay yerga qaradi. Ukasi Sattorqul darvoza orqasiga kelib bekingan ekan, shartta otilib chiqdi.

— Ket! — dedi u ko'ragini kerib. — Esing borida ket, bo'lmasa, yomon qilaman!

Polvon uni taniyolmay qoldi. Yigitning kayfi buzuq, mo'ylovining uchlarigacha titrab turibdi, indamasang, uradigan shashti bor. Polvon, bir ko'ngli, gardaniga solay, deb o'yladi, lekin shaytonga hay berdi: «Qo'y, baravar bo'lib o'tirma, bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom, qo'y, Polvon, o'zingni bos!

Orqasiga yurdi. Sattorqul izidan qolmadi.

— Ket! — deb baqirdi u tag'in. — Qaytib shu ko'chada qorangni ko'rsam, oyog'ingni urib sindiraman!

Polvon bo'g'ilibroq kuldi. O'zining ne alfozda ketayotganini o'yladi: yelkalari qisiq, qaddi bukik, bo'yniga musht tusharini kutgandek. Uyat, uyat, ne kunlarga qo'yding, Xatcha? Sendan shuni kutib edimmi, Xatcha?! Ko'rgan birov nima deb o'ylaydi, enag'ar Xatcha?! Yer bilan bitta qilding-ku!..

Nomus zo'r chiqdi, chidolmadi, taqqa to'xtadi. Sattorqul ham to'xtasa durust edi, ammo y to'g'ri bostirib keldi, musht ko'tardi, lekin ulgurmadi, o'zi zarbdan yerga ag'darilib tushdi. Polvon uni bilagidan dast ushlab, siltab turg'azib qo'ydi, lekin gap qotmadi, yo'liga ketaverdi.

Yegan mushti alam qilgan ekan. Sattorqul yarim yo'lda, adirdagi tuyaquduq yonida quvib yetdi. Yolg'iz emas, qavatida yana ikki Ochshiq, biri — Ahmad shayton, unisi — yuqori labi kemtik, jikkakroq odam.

Etik qo'njiga qo'l yuborsa nomardlik bo'ladi, gavron ham poda qamalgan qamarda qolgan — bir o'zi uchovini daf etarga holi kelmadi. Bir nafasda qo'llarini orqasiga qayirib boylashdi, so'ng haligi labi kemtik yigit bexosdan taqimiga tepdi — Polvon chalqancha qulab tushdi. O'rnidan turmoqchi bo'lib uringanida, Sattorqul kelib, yelkasidan etigi bilan bosdi:

— Xatchaning talog'ini aytasan! — dedi u. — Keyin, mayli, tusagan yog'ingga ketaber. Aytsang — bo'shatamiz.

— Hozir bo'shat, deya Polvon qaynisiga emas, labi kemtik yigitga yuzlandi. — Bo'shatib qo'yib gaplash.

Polvonning o'ziga bepisand qaragani Sattorqulga alam qildi:

— E, beshbattar bo'lmaysanmi!.. — Etigining uchi bilan Polvonni yuztuban ag'darib tashladi va yag'rini aralash qamchi tortdi. O'rmasi mayda ekan — badanni tig'dek kuydirib o'tdi.

Polvon iyagini zarang yerga tiragan ko'yi qotib yotaverdi. Avvaliga og'riqni sezib turdi, qamchi har tushganida eti ko'pchib-qabarib chiqayotganini ham bildi, lekin birpasdan so'ng eti o'lib, quloqlariga qamchining havoni vizillatib chizayotgan tovushigina qoldi.

Ishongisi kelmadi. Tinchgina molini haydab ketayotib edi, yo'lda Maxsum uchradi, taloqni olib ketmoqchi bo'ldi, uni iziga qaytarib, o'zi keldi, mana, endi, manavi zarang yerda, tuyaquduq yonida, qo'llari bog'liq, qimir etgani imkoni yo'q, yep bilan bitta... Tush ko'ryapman, deb o'yladi u, hammasini tush ko'ryapman, seniyam tush ko'ryapman, Sattorqul inim, podachining tushi qursin, bir xil tushlarimda meni ilon chaqadi, tishi etigimdan o'tib boldirimga sanchiladi, dod deyman, dodlayman-u uyg'oiib ketaman, seniyam tush ko'ryapman, Sattorqul inim, yaxshi qilmading, inim, mayli, qattiqroq yur, toki men uyg'onib ketay, hammasi tush bo'lib chiqsin, uyg'onib, yonimda Xatcha bilan Chamanni ko'ray... Yolg'izlik yomon, inim, sizlar uchov, men bir o'zimman... Sen ham harsillab qolding, charchading, inim, mayli, qamchini labi kemtik jo'rangga ber, u ham ursin, ayt, qattiqroq ursin, o'rmasi har sermab o'tganida yag'rinimdan parcha-parcha et uzib olsin-u men uyg'onib ketay, tushdan forig' bo'lay, yonimda Xatchani ko'ray, tushimda bo'lsayam uni uyga obketay, mayli, uraber, inim, yara-chaqa bo'lsa bitib ketar, to'xtama, nega to'xtading yoki menga rahming keldimi, inim?..

Chidab yotdi. Ingramadi. Bir mahal havo dim tortganini sezdi. Dim, epkinsiz, quyuq. Yelkasidan chiqqan ter ko'zyoshiday issiq... Termi bu, qon emas-mi?.. Qip-qizil, ko'zyoshiday jizillatadi, sarg'ish chakmonni bag'ir tusiga bo'yab boryapti...

Ko‘zlarini yirib, oldinda bir juft toshtovon etikni ko‘rdi. Ag‘darma ko‘n, choklari pishiq, jiyirilgan joyi yo‘q, faqat nag‘ali yeyilibdi, qushning tiliday yupqa, bugun-erta uziladi...

Etiklar qimirladi. Polvon yotgan joyida bir-ikki silkinib tushdi. Keyin etiklar yana manglay tarafiga o‘tdi. Polvon tag‘in ularga tikildi, biroq etiklar tutqich bermadi, soniya sayin kichrayib, uzoqlashib boraverardi. Ko‘zlarini yumarkan, chuqur tin oldi, iljaydi: etiklar qochdi, qochdi!..

...Sahar mahali kunbotar tarafda yilqi kishnadi. Sayxonlikdagi yantoqlarni shitirlatib salqin shamol turdi. Polvon unga yuz tutdi — uzoq, to sal tetik tortgunicha. So‘ng yilqi ovozi kelgan yoqqa qarab o‘rmaladi.

Ko‘p sudraldi. Tizzalari, tirsaklari zirapchaga to‘ldi. Taqirga yetganida qurigan loy qisir-qisir sina boshladi. Bir payt barmoqlari balchiqqa tegdi. Chanqoq xuruj qildi: balchiqni siqimlab og‘ziga solib shimidi. Suv chiqmadi hisob, tomog‘iga tiqilib, nafasini qaytardi. Yana oldinga o‘rmaladi. Biror besh daqiqa o‘tib, uzatgan qo‘li suvga tegdi. Polvon ikki-uch to‘lg‘onib olg‘a jildi-yu betini suvga botirdi, so‘ng tirsaklariga tayanib, tili bilan yalashga tutindi. Ko‘nglida g‘alati bir g‘urur uyg‘ondi, o‘zining miskinligidan, manavi qora balchiqqa belanib yotganidan, suvni kuchukka o‘xshab shaloplatib ichayotganidan shodlandi, sovuq tomchilarning chanqoq vujudi bo‘ylab bir maromda taralayotganiga quloq soldi...

Xadichani Sho‘rquduqdan berida, poda yotar joydan topdi. Ustida o‘sha kir ko‘ylagi bilan gardi ro‘moli, etagida qo‘ng‘iz kavlab ketgan besh-oltita g‘ovak tezak (shuni bahona qilib chiqqan), birov urganmi, o‘zi yig‘laganmi, ko‘zlari qizargan...

Polvonni avvaliga tanimadi, yo‘q, tanidi-yu, ko‘zlariga ishonmadi, qo‘rqdi, qo‘li bilan yuzini pana qildi — qamchidan to‘sganday.

— Talog‘imni aytdingizmi? — deya sekin, xo‘rlanib, kelar baloni daf etolmasligidan qo‘rqqandek so‘radi; ko‘zlari mo‘ltiradi, etagidagi tezak yerga to‘kildi.

— Aytardim, Xatcha, — dedi Polvon. — Aytardim, lekin endi bo‘lmaydi, ilojim yo‘q, aytsam — qo‘rqoqqa chiqaman. Chidaysan endi, Xatcha...

Xadicha yig‘ladi. Ko‘zlarini artarkan, ro‘moli boshidan sirg‘alib tushdi, sochlari yelkasiga yoyildi.

— Boraymi? — deb so‘radi. — Urmaysizmi?.. Polvonning xo‘rligi keldi: seni urgan qo‘l sinmaydimi, Xatcha!..

Xadicha yaqinroq keldi, erining usti-boshiga chaplangan loy va qonni artmoq bo‘lib qo‘l cho‘zdi, ammo botinmadi, yovuqlikning o‘zi mahobatli bir devor misol ko‘z oldini to‘sdi — qo‘llarini tortdi, ko‘ngliga yana qo‘rquv oraladi.

Polvon hayratlandi: senga shunchalik ko‘ngil qo‘yib edimmi, Xatcha? Kel, qo‘llarimda azod ko‘taray seni, o‘n besh kunlik oyday quchog‘imni to‘ldir, Xatcha, meni qattiq-qattiq chimchila, zora seni tush ko‘rmagan bo‘lsam!..

U ayolni dast ko‘tarib oldi. Xadichaning bilaklari bo‘yniga chirmashgan zamon majoli qochdi, gandraklab ketdi, lekin sal o‘tib bilaklarning kuydirguvchi taftiga ko‘nikdi, charchog‘u og‘riq unutildi, go‘yo tani ham unut bo‘ldi-yu uning o‘zi bo‘yniga chirmashgan bilaklarga aylandi... Faqat yuraklarning ola-tasir urgani seziladi, go‘yo butun dasht-u dalalar ularning dupuriga to‘lgan... Seni shunchalar sog‘inib edimmi, Xatcha? Ko‘ngildagi kin-u g‘azabim qani? Nega yig‘laysan, Xatcha? Sen ham sog‘indingmi? Sog‘inganing rostmi, Xatcha? Biror narsa de, shubhalarig bekor, de, Xatcha, ko‘nglimni qabartma, belimni bukma, gavharni toshga urmaylik, Xatcha!..

Ayolning yuziga tikilib, gumoniga tasdiq izladi. Lekin Xadichaning turgan-bitgani — yuz-u ko‘zi, bo‘yniga chirmashgan bilaklari, yoqasiga qadalgan bir qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.

Xadicha erining ko‘zlarida bir og‘riq ko‘rdi, ammo so‘z so‘ylarga majoli yetmadi, bo‘g‘ziga tiqilgan achchiq xo‘rsiniqni ichiga yutdi-yu, uning tarashadek qotgan jun chakmoniga betini burkadi...







TOG'AY MUROD

OT KISHNAGAN OQSHOM

QISSADAN PARCHALAR

... Odamlar meni kal deydiغان bo'ldi. Ziyodulla kal emish! E tavba-e, e tavba-e! Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovillab yondim. Ko'nglim o'ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo'ldi. Ko'nglimga singdi. Quloqlarim o'rgandi. Endi Ziyodulla kal demaydiganlardan o'pkalardim. Ayniqsa, pochtachidan. Qachon ko'rsa o'rtoq Qurbonov, deydi. G'ashim keladi. Meni mayna qilayotganday tuyuladi.

Bir safar jerkib tashladim:

— Nimaga o'rtoq Qurbonov deysiz? Men bir amaldormidimki yo diplomim bormidiki, o'rtoq Qurbonov deysiz? Bor-yo'g'i beshinchi sinf kalam bo'lsa. Ko'p mayna qilmang, sochim bo'lmasayam tarog'im tillodan.

— Bo'lmasa nima deyin?

— El qatori Ziyodulla kal deya bering. O'z otim o'zim bilan.

Xayriyat-e, endi pochtachiyam kal deydiغان bo'ldi!

Diplom so'ramaydigan turli ishlarda ishladim. Qorovul bo'ldim, go'lah bo'ldim. Oxiri podachi bo'ldim. Odamlarning qo'yini boqdim. Adirlarda nay chaldim. Nafasim yetmay qolib, eski bir do'mbira topdim. Do'mbirani sayratib, bepoyon adirlarga, yoyilib o'tlayotgan qo'ylarga, cho'qqilar uchida uzmay chug'urlyotgan qushlarga, bo'lak-bo'lak oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to'ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo'yib,

biri aytardi. Ularning ko‘plari rahmatli bo‘ldi. Rahmatlilarday doston aytib bo‘lmaydi. Bizniki baholi qudrat-da.



Birodarlar, hamsoyamiz Qulmat polvon bozorlab keldi. Devordan bo‘ylab, narx-navoni so‘radim. Denov bozorida mayiz o‘n so‘m bo‘pti. Regarda yanayam qimmat emish. Mayizingiz bo‘lsa armonda qolmang, dedi. Mayiz bizda bor-da! Olti unxalta! Saratoday sariq mayiz! Qo‘chqorday-qo‘chqorday o‘g‘illarim bor! Katta bo‘lsa otning Tarlonini minaman deyapti! Mayizni shularning to‘yiga bosib yotibman. Bu qish kuchim yetmadi, yanagi qishda katta to‘y beraman. Nasib bo‘lsa!

Shanba oqshomi ombordan mayizning bir xaltasini sudrab chiqdim. Supadagi gilamga yoydim. G‘alvirda elab, changdan pokiza etdim.

Subhi sodiqda Tarlon ikkovimiz bozor jo‘nadik. Qizilsuvga doxil bo‘ldik. Daryodan kechib o‘tib, yuqoriladik. Mol bozori oldida tevaragi sim bilan o‘ralgan yep bor. Bozorlab kelganlar ot, eshaklarini shu yerga bog‘laydi. Tarlonni shu yerga bog‘ladim.

Mayizni orqalab, bozorladim. Yarim bukilib, po‘sh, po‘sh, deb bordim. Dimog‘imga manti hidi keldi. Bozorchilar qatorida xaltani ochib, mayizimni maqtab-maqtab o‘tirdim. O‘n so‘mdan pastga tushmadim.

Qarasam, savdoning ma‘quli yo‘q. Bor-e, yetti so‘mdan, deb yubordim. Bir mayizjallob dikonglab kelib, ko‘tara savdo qildi.

Xaltani tizzamga urib qoqdim. Buklab-buklab qo‘ltig‘imga qisdim. Bozor oralab bozorlik qildim. Noz-ne‘matlar oldim. Jiydaga boshqorong‘i ayolimizga Xorazm jiydasi, o‘g‘illarimizga xo‘rozqand, qog‘ozida kuchugi bor qand, teshikkulcha oldim. Barini xaltaga solib orqaladim. Choyxonaga bordim. Ostonadan ichkari mo‘ralab nafasim qaytib ketdi. Ichi liq to‘la odam. Havosi dim. Tashqaridag‘i so‘rilardayam odam ko‘p. Birovlab sanasa yuzlar bor.

Xaltani so‘ri ustuniga suyadim. Bo‘sh joy izladim. Birov ketdi. Xaltani shu bo‘shagan yerga sudrab bordim. Ketgan odam

bo'shatgan choynakni oldim. Yonimdagi odamga, so'rganlarga bu joy egalik deng, dedim. Choy, kulcha olib keldim. Ko'chaning narigi yuzidagi baliqxonaga o'tdim. Bir sermo'ylov odam katta qozonda baliq qovuryapti. Navbatga turib, bir kilo baliq olib keldim. Chordona qurib, baliqni tushirdim. Qiltig'i ko'p ekan, xunob bo'ldim. Ketimga qaragam ikkita drujinachi choy ichib o'tiribdi. Haligi drujinachilar emasmikin degan hadikda sinchiklab qaradim. Yo'q, boshqa ekan. Shunda, ushla o'g'rini, ushla, degan ovoz keldi. Bozor darvozasi oldidagi g'uj-g'uj olomon orasidan bir bola chopib chiqdi. Ketidan bir beqasam choponlik odam quvib keldi. Bola ko'chani kesib chopdi. Yuqoridan shiddatli kelayotgan qizil mashinaga duch keldi. Mashina shig'illab toyib to'xtadi. Bola o'zini yo'ning bu betiga otdi. Qop-qora suv oqayotgan ariqqa shaloplab tushdi. Loy bo'lmagan yeri qolmadi. Quvib kelayotgan odam mashina ketidan o'tdi. Bolaning loy yoqasini juftlab ushladi. Bola tipirchilab, beqasam choponlikning changalidan chiqolmadi. Choponlik, bolaning oyoqlariga qo'shib qoqib, yerga yumalatdi.

— Pulni chiqar! Qani pul?!

— Men emas.

— Sen! Qo'lingni kissamda ushladim-ku! Yaxshilikcha chiqar, bo'lmasa enangni Uchqo'rg'ondan ko'rsataman!

— Men emas deyapman-ku!

— Unda o'zim topaman. Tort qo'lingni! Manavi kissangni ko'rsat!

Choyxonadagilarning ko'plari borib qaradi. O'tkinchilar oyoq ildi. Odam tumonat bo'ldi. Men so'rida tik turib qaradim. Beqasam choponlik bolaning kissasini kovladi. Qo'ltig'iga qo'lini tiqib, bir dasta pul oldi. Bolaning tumshug'iga tiqdi.

— Bu nima, enangning qalinimi?

Bola boshini yelkari ichiga oldi. Yuzini loy kaftlari bilan pana qildi. Beqasam choponlik bolaning chakkasiga qulochkashlab soldi. Bola balchiq suvga shalop etib tushdi. Beqasam choponlik bolaning yoqasini juftlab ushlab, suvning oqishiga qarab yetakladi:

— Senga kissavurlik qilishni ko'rsatib qo'yaman! Yur melisaga!
Bola oyog'ini tirab, gavdasini orqaga tashladi.

Shu vaqt olomon orasidan ikkita novcha yigit sug'urilib keldi. Ikkoviniyam sochlari yelkasiga tushadi. Ust-boshi badaniga chippa yopishgan. Botinkalarining tovonini otning tuyog'iday qalin-qalin.

Ular beqasam choponlik odam oldiga keldi. Birovi uning tirsagidan ushladi. Beqasam choponlik bolani qo'yib yuborib, o'girildi. Kelganlarning birovi uning tumshug'iga sozlab soldi. Beqasam choponlikning zuvalasi pishiqlik ekan. Gandiraklab, yiqilmadi. Endi unisi soldi.

Olomon haybarakallachi bo'ldi:

— Ur, sol tumshug'iga!

— Ur, musht turganda muomala nima kerak!

Beqasam choponlik birovini qo'shqo'llab bir urdi. Yigit chalpak bo'lib yiqildi. Birovi beqasam choponlikning ketidan kelib biqiniga tepdi. U biqinini ushlab enkaydi.

Olomon haybarakallachi bo'ldi:

— Ur, kalla qil, kalla!

Shu vaqt maydagina bir qora kuchuk vangillab kelib, urayotgan yigitning butiga yopishdi. Yigit oyog'ini sernadi. Kuchukning izidan haligi baliqpaz keldi. Kuchugini urishib-urishib haydab ketdi.

Chalpak bo'lib yiqilgani sapchib turdi. Beqasam choponlikning ichiga tepdi. Loyga belanganiyam tepdi. Beqasam choponlik yuzlari burishib bir ichini, bir biqinini ushlab, cho'k tushdi.

Men xunob bo'lib, ketimdagi drujinachilarga aytdim:

— Borsalaring-chi axir, o'ldirib qo'yadi!

Birovi xotirjam qo'l siltadi:

— Bizga aloqasi yo'q. Bu yer boshqa birovning uchastkasi. Mening uchastkam vinzavod taraf.

Olomon yakun yasadi:

— Tamom, nokdaun!

Yo'q, tamom bo'lmadi. Beqasam choponlik cho'kkalab o'tirib-o'tirib, birdan sapchib turdi. Biqiniga tepganning yuziga kalla

qildi. Yigit yuzini kaftlari bilan yopib, enkaydi. Barmoqlari orasidan qon sizib chiqdi. Shunda, yana birovi kaftiga bir qora nimani qo'yib, choponlikning peshanasiga urdi. Choponlik voh o'ldim-e, dedi. Peshanasidan qon oqdi. Ko'zlari yumilib, ketiga gandarakladi. Ana yiqilaman, mana yiqilaman deyotganda yana birovi xuddi to'p tepayotgandayin sapchib ko'kragiga tepdi. Beqasam choponlik uchib ketdi. Qo'llarini yozib, qimirlamay qoldi. Ikkovi yotgan choponlikni tepa boshladi. Kalla yeganiyam keldi. Uchovi choponlikni o'rtaga olib, ko'ziga qaramay tepdi.

Ketinga qarasam, drujinachilar yo'q. Tevarakka alangladim. Ikkoviyam choyxona yonidan pisib ketyapti.

Men ich-ichimdan ezilib ketdim. Supadan tappa tashladim. Olomoni qulochlarim bilan yorib, o'rtaga kirdim.

Birovini yelkasidan g'ijimlab ushlab siltab yubordim. Birovini sochidan g'ijimlab chetga tortdim.

— Imoning kuygurlar, bir bandai mo'minni o'ldirasanmi!

Sochini g'ijimlab turganim chotimga tepdi. Esankirab qoldim. Qo'limning keti bilan yuziga soldim.

Mashina signal berdi. Suv oqayotgan tarafdagilar chetlanib, yo'lni ochdi. Bemorxonada mashinasi ko'rindi. Ichidagi oq kiyimli odam ko'zoynagi ustidan qonga belanib yotgan choponlikka qaradi.

— Nima bo'ldi bunga?

Xo'rligim kelib yig'lab yubordim.

— Ko'rmaysizmi bechorani! Ular uchov, bu bechora yolg'iz bo'lsa?

— Tushunarli. Dam olish kuni deb o'zidan ketib qolmay kamroq ichsin!

— Buni olib keting, o'lib qoladi, birodar.

— Biz vizovga ketyapmiz, zakaz bor. Boshqa skoriy pomosh chaqiringlar. Ketdik, haydang!

O'pkam to'lib, yenglarimga yig'ladim, choponimning yoqalariga yig'ladim, o'ngirlarimga yig'ladim. Olomonga alangladim.

— Ay birodarlar, bechora inson shunday o'lib ketaversa yaxshimi? Uyida bola-baqراسi bordir!

Birov ovoz berdi:

— Tanishingiz ekan, tezroq olib keting.

Ko'cha yuzidagi mayda mashina egasiga yalindim. Ko'ndi. Beqasam choponlikni sudrab mashinaga soldim. O'zim oldiga o'tirdim. Bir yigit mashinaga shoshib keldi. Shu odamning o'g'limikin, degan xayolda derazadan yuzimni chiqardim. Yigit shu yerdagilardan so'radi:

— Nima bo'ldi-a?

Zo'r tomosha bo'ldi! Uchchalasi bittasini shunaqangi soldi. Paq-paq! Nokdaun!

Beqasam choponlikni melisaxonaga olib bordik. Ular mening kimligimni, qayerdanligimni so'rab, yozib oldi. Bo'lgan voqeani so'radi. Oqizmay-tomizmay aytib berdim. Melisalar mendan bir qog'ozga qo'l qo'ydirib oldi. Birgalashib ekspert deganiga olib bordik. Ular ko'p tekshirdi. Suratga oldi. Bemorxonaga olib bordik. Mashina egasiga uch so'm berdim. U olmadi. Men unga qulluq, dedim. Melisalar zarur bo'lib qolsangiz uchastkavoyingiz orqali topamiz, dedi. Barimiz o'z yo'limizga ketdik.

Choyxonaga borsam, xaltam joyida yo'q. Choyxonachidan so'radim. Bilmayman, dedi. U, beqasam choponlikning holini so'radi. Olib borib joylashtirdik, dedim.

Bozor oralab, qaytadan bozorlik qildim. Barini belbog'imga tugib, Tarlonning oldiga bordim.

Dunyoni endi ko'rganday, osmondan tushganday bo'lib qoldim.



Otar adirda yoyilib o'tladi. To'dalagunimcha kech bo'ldi. Uyga qosh qorayganda keldim. Uchastkavoyimiz bir parcha qog'oz berib ketibdi. Ertaga soat o'nda organda bo'lsin, debdi. Sherigimning uyiga borib uzrimni aytdim. Ertaga qo'yni sen boq, zarur ishim chiqib qoldi, biror kun qaytaraman, dedim.

Saharmardonda Tarlon ikkovimiz shaharga jo'nadik. Tarlonni bog'lab, bordim. Eshik oldida o'tirgan melisaga qo'ynimdagi qog'ozni olib ko'rsatdim. U meni eshigi g'ilofli xonaga ergashtirib

bordi. To'rd a o'tirgan yigit o'rnidan turib, keling, keling, dedi. Men bilan ko'rishib, o'zini kapitan Ro'ziyev, dedi. Meni ergashtirib kelgan melisa ketdi. Kapitan katta ruchkasi uchi bilan menga joy ko'rsatdi. Men o'tirdim. Kapitan katta qog'oz titkiladi.

— Xo'sh-xo'sh, familiyangiz Qurbonov-a? Nega kechikib yuribsiz, aka? Soat o'n ikki bo'ldi-yu?

— Men sizga aytsam, kapitan katta, Tarlonning oyog'iga qaradim.

— Xo'sh-xo'sh, Tarloningiz kim?

— Bizning otimiz-da, kapitan katta.

— Xo'sh-xo'sh, hali otda keldingizmi? Shuncha texnika turib-a!

— Esa-chi. Texnika bizga bo'lmaydi, kapitan katta.

Benzinning isini xush ko'rmayman.

— Xo'sh-xo'sh, banditlarni izlayapmiz, aka. Shubhali tiplarni jabrlanuvchiga yuzma-yuz qildik. Bular emas dedi. Siz esa kelmadingiz, endi boshqa kun chaqiramiz...

Ikki kun deganda uchastkavoyimiz qog'oz olib keldi. Tarlon ikkovimiz azonda yo'l oldik. Bu safar qichab haydab, vaqtida keldik. Kapitan katta to'rtta o'spirinni bemorxonaga olib borib, beqasam choponlikka yuzlantirib keldi. Keyin menga ro'paro' qildi. Bular emas, dedim boshimni chayqab. Ularning sochi uzun-uzun edi, dedim. Kapitan katta kuldi.

— Xo'sh-xo'sh, eslay olmaysizmi, aka, ularning yuzida biron jarohat izi yo'qmidi?

— Esa-chi. Iziyam gapmi, yaraning o'zi bor edi, kapitan katta.

— Xo'sh-xo'sh, qanaqa jarohat?

— Ikkovining yuzidan qon oqdi. Beqasam choponlik kalla qilib edi-da.

— Xo'sh-xo'sh, shuni ertaroq aytmaysizmi, aka. Ana bu boshqa gap.

— Keyin, bir maydarog'ining ust-boshi loy bo'ldi, kapitan katta.

Kapitan katta yoza-yoza bosh chayqab kuldi. Nimaga kuldi — farosatim yetmadi.

— Xo‘sh-xo‘sh, ayting-chi, aka, voqeani ko‘rgan odamlarning aqalli birontasini taniysizmi?

— Men sizga aytsam, kapitan katta, lof bo‘lsayam yuzdan oshiq odam bor edi. Qaysi birini taniyman. Hatto ikkita drujinayam bor edi.

— Kim, kim? Drujinachi?

— Esa-chi, kapitan katta. Ular shunday ketimda o‘tirib choy ichdi.

— Xo‘sh-xo‘sh, ular ham voqeani ko‘rdimi?

— Esa-chi. Barini ko‘rib turdi, kapitan katta.

— Xo‘sh-xo‘sh!

Kapitan katta temir sandig‘idan bir katta qog‘oz olib yoydi. Ichi to‘la g‘ij-g‘ij surat ekan.

— Qarang-chi, aka, shuning ichida siz ko‘rganlar bormi?

Suratlarga barmog‘imni yugurtirib qaradim. Oxiri, ko‘rganlarimdan birovini tanidim. Peshanasiga barmog‘imni nuqdidim.

— Xayla, anavi!

Kapitan katta enkayib qarab, bosh irg‘adi. Suratlarini taxlab, sandig‘iga soldi. Tashqarilab, qaytdi.

— Xo‘sh-xo‘sh, siz aka, mana bu xonaga kirib turing. O‘zim chaqiraman.

Yon xonaga kirib o‘tirdim. Xona eshiksiz ekan. Kapitan katta baxmal pardani tushirdi. Birov mumkinmi, dedi. Kapitan katta so‘radi.

Xo‘sh-xo‘sh, siz yigirma to‘rtinchi yanvar yakshanba kuni soat o‘n ikkilarda qayerda edingiz?

— Qaysi yanvar, bu yilgi yanvarmi? Uchastkada edim.

— Xo‘sh-xo‘sh, aniqroq ayting.

— Vinzavod atrofini nazorat qilib yurgan edim.

— Xo‘sh-xo‘sh, demak zavodda?

— Ha, zavodda.

— Xo‘sh-xo‘sh, shu kuni choyxona oldida bo‘lgan voqea; xabaringiz bo‘lmadimi?

— Qanaqa voqea?

- O'sha yerda to'polon bo'lgan.
- O'limdan xabarim bor, bundan xabarim yo'q.
- Xo'sh-xo'sh, bu yoqqa bir qarang, aka.

Ularning oldiga chiqdim. Kelgan yigit xuddi o'sha ketimdan choy ichgan drujinaning birovi ekan. U meni ko'rdi-yu, rangi oqarib ketdi. Kapitan katta meni unga ko'rsatdi.

- Xo'sh-xo'sh, shu odamni biron marta ko'rganmisiz?

U menga tikilib turib-turib, yelkasini qisdi.

- Eslayolmayapman.

Kulgim keldi. Balki tanir deya choyxonani eslatdim. U shiftga qarab o'ylab-o'ylab, ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga nuqidi.

— E, ha, bo'ldi, bo'ldi! Endi esladim. O'sha yerdan uchastkamga o'tib ketayotgan edim. Ko'chada odamlar to'planib turgan ekan. Biron nima sotayotgan bo'lsa kerak deb o'yladim.

- Eb-ey, eb-ey, ikkovimiz gapirishdik-ku, uka. Me sizga...

— Men bilan-a? Bekorni aytibsiz! Tuhmat! Soqolingiz bor, og'zingizga qarab gapiring. Siz meni boshqa odamga adashtiryapsiz.

Kapitan katta menga qaradi.

- Ana, bo'lmaganman deyapti-ku?

Men yoqamni ushladim.

- Yo tavba, yo tavba!

— Xo'sh-xo'sh, sizg'a ruxsat, Qodirov. Yana biron kishini eslay olmysizmi, aka?

Esa-chi, shu gaplarni choyxonachiyam ko'rdi.

- Choyxonachi? Yana?

— Keyin, baliqpaz ham biladi.

— Xo'sh-xo'sh, baliqpaz. Buguncha bo'ldi, aka, qolganini boshqa kun gaplashamiz.

Yanagi qog'oz kelishida bormadim. Boisi, Dono momo bandalik qildi. Momoni o'rab-chirmab, yig'lab-yig'lab qo'yib keldik.

Uyda azali kayfiyatda yonboshlab yotib edim, osmondan tushganday Rixsiyev paydo bo'ldi. Ayolimizga, choy qo'yinglar, dedim.

— Aha, nega kayfiyatingiz yo'q, o'rtoq Qurbonov?

— Dono momoni qo'yib keldik.

— Qayoqqa qo'yib keldingiz?

— Shunda, uning azaga bormaganini bildim.

— Dono momo olamdan o'tdi, shuni aytyapman.

— Aha, dafn qildik deng. Qo'yib keldik deganingizga biror predmetni qo'yib kelibdimi debman.

Yuzimni o'girib, ko'zlarimni yumdim. O'zimni bosolmadim. Yana o'girildim. Birinchi marta Rixsiyevga oqsoqolchilik qilishga jur'at etdim:

— Rixsiyev aka, siz o'qigan odamsiz, olamdagi bor gapni bilasiz. Sizga o'rgatib bo'lmaydi. Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan ikki vaqt elning yonida bo'ling. Biri — to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush-xushvaqt o'tkazib bering. To'y ko'pniki, ha. Yana — biri azasida. Yig'lab-siqtab elning qayg'usiga hamdard bo'ling. O'lim qayg'usini bir odam ko'tarolmaydi. Og'irlik qiladi. Shunda siz yonida bo'lib, qayg'usiga sherik bo'ling. Odam shu ikki vaqtda odamligini bildiradi.

— Aha, men unday momoni tanimayman, kim o'zi y? Qanday lavozimlarda ishlagan?

— O'zimizday odam. Faqir bir momo. Umri kolxozda ishlab o'tdi. Qarigan chog'ida magazinda qorovul bo'ldi. Ha qizi bor, na uli, bechorahol momo edi. Yig'laydiganlariyam bo'lmadi. O'zimiz momomlab, xolamlab yig'lab, jo'natdik. El ko'mdi.

— Aha, qulog'imga bir chalinganday bo'ldi. Men maktabga darsga ketayotgan edim, kimdir, birov o'libdi, dedi. E'tibor bermadim.

— Ana shu-da. Shu sababliyam azada odam kamchil bo'ldi. Ko'nglim yarim bo'lib qaytdim. Odamzotning qadri endi shu bo'ldimi, dedim o'zimga-o'zim. Rixsiyev aka, bir kun kelib biz

ham ketamiz. O‘lim barimizning boshimizda bor savdo. Shunday kunda bir-birovimizning kunimizga yaramasak, odam bo‘lib nima qilib yuribmiz.

— Hammaning borishi shartmi, o‘rtoq Qurbonov. Qarindosh-urug‘idan to‘rt kishi borsa bo‘ldi-da. Tobutning to‘rt yog‘ochidan ushlab ko‘tarib boradi. To‘rt kishidan ortig‘i ortiqlik qiladi. Aha, xo‘p, olti kishi ham bo‘lsin. Ikkitasi go‘r qazib turadi.

Rixsiyev aka, odam it emas, oyog‘idan sudrab borib, chuqurga tashlab kela bergani. Odam o‘z nomi o‘zi bilan odam. Odamdan ulug‘ jonzot bormi.

— Ha, endi, bir kampir ekan-da. Bor-yo‘g‘i qorovul! Xalqaro ahamiyatga, aqalli mahalliy ahamiyatga molik shaxs bo‘lsa ekan, bilagimizga qora lenta taqib faxriy qorovullikda tursak, motam tutsak, nutq so‘zlasak aha.

— Rixsiyev aka, odamning katta-kichigi bo‘lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Qo‘lidan kelgancha tirikchilik qilib, o‘zini odam sanab yurdi. Biz bilan betma-bet bo‘ldi, yelkama-yelka bo‘ldi, davrma-davr bo‘ldi. Endi qaytmas bo‘lib ketyapti. Odam qaytmas bo‘lib ketayotganda bormagan odam odammi?

— Kampirlarning o‘limi mahalliy gap, o‘rtoq Qurbonov. E‘tiborga molik emas. Ana, xalqaro arenada qancha tragediyalar sodir bo‘lmoqda. Aha, Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib, bir kinoteatni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi. Dahshat! Men Eron xalqiga chuqur ta‘ziya bildiraman. Men xalqaro ahvoldan tashvishdaman, o‘rtoq Qypbonov. Qattiq tashvishdaman! Xalqaro vaziyat kun sayin keskinlashib boryapti...

Shaharga avtobusda bordim. Yo‘lda derazadan qusdim. Organga borib, g‘ilofli eshikni ochdim. Kapitan kattaga Dono momoni aytdim. U bosh irg‘ab, hamdardlik bildirdi.

Xonaga bir melisa kirdi. Kapitan kattaning oldiga bordi.

— Ayrimlar «Kommunizm» ko‘chasida turadigan Mo‘mindan ko‘ryapti, o‘rtoq kapitan.

— Xo‘sh-xo‘sh, qayerda ekan shu bola?

— Ko‘rinmayapti. Bildirmay, hamsoyalaridan surishtirdim.

Uyida yuzlariga dori surtib yotgan emish.

— Xo‘sh-xo‘sh, hozircha ko‘z-quloq bo‘lib turing, hidlanmasin. Men aytganda olib kelasiz. Hozir borib bozorning og‘zidagi choyxonachi bilan baliqpazni olib keling.

Xiyol o‘tib, ketgan melisa keldi.

— Olib keldim, o‘rtoq kapitan, kirsinmi?

— Olib kiring.

Ostonada choyxonachi bilan baliqpaz ko‘rindi. Choyxonachi egilib salom berdi. Kapitan katta qalami uchini choyxonachiga nish qildi.

— Avval siz kiring. Siz esa koridorda o‘tirib turing.

Choyxonachi kapitan katta bilan ko‘rishmoqchi bo‘ldi. Qo‘llari ko‘ksida gilamdan yurdi. Kapitan katta boshini ko‘tarmay, qalami uchida choyxonachiga joy ko‘rsatdi. Choyxonachi dovdirab, qalamni qo‘shqo‘llab ushlashiga bir bahya qoldi. Qo‘llarini tez tortib olib, qalam uchi tarafga o‘tirdi. Menga ro‘paro‘ bo‘ldi. Men bilan bosh irg‘ab so‘rashdi. Kapitan katta bir dasta qog‘ozning u yog‘iga qaradi, bu yog‘iga qaradi. Choyxonachiga yuzlandi. Uning kimligini yozib oldi.

— Xo‘sh-xo‘sh, endi bizga choyxonangizda bo‘lgan urishni gapirib bering, Sattorov aka.

— Qanaqa urish?

— Yigirma to‘rtinchi yanvar, yakshanba kuni bo‘lgan urishni.

— Qanaqa urish? Tush mahali? E, ha-a, bo‘ldi, bo‘ldi! Bu voqea bizning choyxonadayamas, ko‘chada bo‘lgan, kapitan uka.

— Ishqilib, choyxonangiz oldida bo‘lgan.

— Endi, kapitan uka, bozor kuni odam ko‘p bo‘ladi. Qo‘lim-qo‘limga tegmaydi. Hatto qulog‘im eshitmaydi.

— Xo‘sh-xo‘sh, oddiy choyxona shovqini bilan ur-to‘polon shovqinining farqiga borarsiz?

— Bormayman, kapitan uka, bormayman. Gap shunda. Mana shu quloqlarim osti g‘uvv-g‘uvv etadi. Kim gapiryapti, nimani gapiryapti, farqiga bormayman. Sizga yolg‘on, menga chin. Manavi barmoqlarim bilan sanab aytaman: ovozlarining ichida cholnikiyam bor — bir! Yoshnikiyam bor — ikki! Momonikiyam bor — uch! Qiznikiyam bor — to‘rt! Chaqaloqnikiyam bor — besh! Xo‘-o‘sh, beshta bo‘ldimi? Endi boshqalariniyam sanaymiz. Bulardan boshqa ko‘chadan o‘tayotgan «Jiguli»nikiyam bor — bir! Bozordan qaytgan sigirnikiyam bor — ikki...

— Bo‘ldi, bo‘ldi. Siz menga ko‘rgan voqeangizni gapirib bering.

— I-ya, eshitmagandan keyin qanday qilib ko‘raman, kapitan uka?

— Ko‘zingiz bor-ku, ana.

— To‘g‘ri, ko‘zim bor. Lekin bilasizmi, kapitan uka, choyxonamizning bir piyola choyi nasib etganda ko‘zingiz tushgandir, samovar choyxonaning ichida, ha! Laryoknikidayin maydagina tuynugi bor. Mana shuncha! Shu tuynukdan choy beraman. Tuynuk ko‘kragim baravar keladi. Mana bunday enkayib qaramasam, tashqarini ko‘rmayman. Egila berib, egila berib bellarim og‘rib ketdi, kapitan uka.

— Xo‘sh-xo‘sh, shu voqeadan sal bo‘lsayam xabaringiz bordir?

— Bor, kapitan uka. Bir egilib qarab, ko‘cha yuzida odamlarning to‘dalashib turganini ko‘rdim. Boshqa hech nimani ko‘rmadim.

— Xo‘sh-xo‘sh, bo‘pti, boring. Zaril bo‘lsa yana chaqiramiz. Hamrohingizga ayting, kirsin.

Choyxonachi qo‘llari ko‘ksida kapitan» kattaga bosh irg‘adi. Go‘yo birov quvib kelayotganday pildirab eshikka yurdi.

Baliqpaz kirdi. Kapitan katta uning ham kimligini yozib oldi. U yoyilib o‘tirishi, eshitamiz deganday kapitan kattaga qoshlarini chimirib qarashidan dimog‘dor, ko‘pni ko‘rgan odam. Men shu odamdan umid qildim.

— Xo‘sh-xo‘sh, endi sizdan eshitamiz, Shukurov aka?
Baliqpaz pinagini buzmadi. Mijjasiniyam qoqmadi.

Nimani eshitasiz?

— Xo‘sh-xo‘sh...

— Eshitdim, uchastkavoy aytdi. Men hech nimani ko‘rganim yo‘q. Shu! Yozib berishim ham mumkin. Shu! Ketsam maylimi?
U yog‘da ish qolib ketyapti. Shu!

— Gap endi boshlandi, shoshilmang. O‘ringizga odam qo‘yib kelgandirsiz.

— O‘g‘lim qolgan. U hali yosh, xo‘randalarni ranjitib qo‘yishi mumkin. Shu! — Xo‘sh-xo‘sh, ko‘p shushulamang! Gapga javob bering! Bir inson taqdiri hal bo‘lyapti! Tushundingizmi? — Siz ham mansab stolingizdan foydalanib xalqqa baqirmang. Shu!

— Xo‘sh-xo‘sh, men xalqqa emas, sizga gapiryapman. — Xalq bir kishidan boshlanadi. Shu! Men xalqning bittasiman, baqirmang. Shu!

— Baqirayotganim yo‘q, gapiryapman.

— Baqiryapsiz. Shu!

— Xo‘sh-xo‘sh, ana, baqirmadik. O‘zi bugun chap yog‘ingiz bilan turganga o‘xshaysiz, Shukurov aka. Boring, sizga ruxsat, yana chaqiramiz.

— Ixtiyoringiz. Baribir shu gapim gap. Shu!

Baliqpaz g‘o‘dayib chiqib ketdi. Kapitan katta mengayam javob berdi. Yana kelasiz, dedi.

— Kapitan katta, uyda ishlarim to‘lib yotibdi. Buyog‘i ko‘pkarilardan qolib ketyapman. Boshimni qashigani fursatim yo‘q...

— Xo‘sh-xo‘sh, men nima qilay, aka? Bu ishga o‘zi guvohning keragi yo‘q, ana, meditsina ekspertizasi bor. Sizlar faqat jinoyatchilarni aniqlashga yordam bersalaringiz bo‘ldi. Haligi ikkovi shaharlik. Baliqpaz bilan choyxonachi jinoyatchilarni taniydi. Ularning gapini esa eshitdingiz...







XURSHID DO‘STMUHAMMAD
BEOZOR QUSHNING QARG‘ISHI

Hikoya

— Qadriya, men bir savdoyi yigit bo‘lsam, mening nimamni yoqtirasan?

— Voy, o‘libgina keta qolay, men qachon seni «yoqtiraman» depman?! O‘zing-chi, o‘zing! Qizimni uzatay deyaqman-u, nima jin urib menga ilakishib yuribsan?! Boshqa tirikchiliging yo‘qmi?!

— Tirikchilik?.. — Fozilbek shunday dedi-yu, tishi simillab og‘rigan odamday aftini bujmaytirdi, ko‘zini xiyol ochib, ro‘parasida — rastaning u tomonida shamshoddek qomatini tik tutib turgan juvonning paxtaday oq, buloq suvidek tiniq yuziga, bo‘yniga... qirmizi olmadek yonog‘iga razm soldi. Ovozini pastlatib so‘radi:

— Badaning sadafdan ishlanganmi?

— Suyulma, — dedi Qadriya, — musulmon odamning farzandisan-a!

— Musulmon kishida nafrat emas, muhabbat kuchliroq bo‘ladi.

Juvon savolga ortiq e‘tibor bermadi, aftidan u duch kelgan erkak yo ayol bilan e-eski qadrdondek sirlashib-tillashib ketaveradigan, dam beg‘ubor, dam o‘ta quv ko‘rinadigan kundashunda bu yigit bilan guring qurish niyati yo‘q edi. Biroq Fozilbek muddaosini tushuntiribroq ifodalashga kirishdi:

— Mana, Qadriya, o‘zing o‘ylagin: odamlar odamlar bilan til topishib, bir-birini yoqtirib yashagani durustmi yoki it-mushuk bo‘lganimi?..

Qadriya suhbatni bas qilish niyatida beozorgina jilmaydi, jilmaydi-yu, Fozilbekning iltijo to‘la nigohini ko‘rib, unga nimadir deyishga o‘zida majburiyat sezdi.

— Bilasanmi, Fozil, bozor nima durust, nima nodurust deb bosh qotirib turadigan joy emas. Bor narsangni pullasang-u, hayyo-huyt deb uyingga jo‘nab qolsang bo‘lga...

— To‘xta, Qadriya! Gapirma!..

Juvon labini tishladi. Fozil qaymoqning oq-sarg‘ishligiga, suzmaning oqligiga, tirnoqlari etiga qadab olingan juvonning barmoqlari, bilagi, bo‘yni, yuzi... xalati, yassi qoshig‘i-yu cho‘michi, sirlangan idishlarigacha oq-oppoqligidan mutaassir bo‘lib, ko‘zini uzolmay qoldi.



Bir safar Fozilbek tortinmay-netmay shuni juvonning yuziga solgan: «Odam sut-qatiq ichaversa, qaymog‘u suzma yeyaversa badani shunchalik tiniq, musaffo bo‘lib ketsa kerak-da?» deb savol qotgan, Qadriya: «Havasingiz kelsa, pulini to‘lang-da, boshingizni ko‘tarmay yeb-ichavering», deb yasama jiddiylashgan.

Shunda Fozilbek o'zicha xayol surib yurib yaratgan «olamshumul» kashfiyotini samimiyat bilan oshkor qilgan:

— Hamonki, doim va muttasil iste'mol qilgan narsang badaningdan, husn-u tarovatingdan sezilib turibdimi, demak, ular ko'nglingni, dilingni ham shunchalik nurga to'ldirib, yoritib turgan bo'lishi aniq.

Qadriya o'z sha'niga aytilgan maqtovni eshitib, duv qizarib ketgan, ichi cho'g' tushgandek qizigan, charos ko'zlarini yerga qaratgan va yigitni chalg'itmoq umidida lab juftlagan, shunda Fozilbek: «To'xta, Qadriya! Gapirma!» — deb yuborgan edi.

Hozir ham shunday bo'ldi: Fozilbek Qadriyaning so'zini cho'rt uzdi-yu, unga ham tahdid, ham umidvor ma'noda termildi:

— Qalbi bu qadar bokira va pokiza ayollar bunday o'ylamaydilar.

— Q-qanday?... — zo'rg'a so'radi Qadriya.

— Bozor bosh qotirib turadigan joymi-emasmi, bilmadim-u, har qalay sen bozor ayoli emassan.

— V... voy?!

— Keltirgan narsasini pullashdan bo'lak orzu-havasi bo'lmagan ayollardan ko'ra muqaddasroq ayolsan, Qadriya!..

Fozilbek qachonlardir bir safar suhbatlashganining o'zidayoq Qadriyaning bokira tuyg'ularini ilg'ab olgan, o'zi sadafdek oppoq ayollarning qalbi ham yosh bolaning ko'z yoshiday tiniq, rahm-shafqatga limmo-lim bo'ladi, bunday ayollar har qancha suyishga, e'zozga va ardoqlanishga loyiq deb hisoblar edi.

— Qadriya, — dedi Fozilbek.

Qadriya bosh ko'tarib, yigitga so'zsiz qaradi.

— Qadriya!..

— Gapiraver!

— Timga qaldirg'och kelganmikan?..

— Qaldirg'och shovqin-suronli joyni xushlamaydi.

— Yana qanday joylarni xushlamaydi?

Qadriya Fozilbekdan bu savolni ilgari ham eshitgan, u kuyunib, afsuslanib, achinib: «Bilasanmi, Fozil, qaldirg'och bexosiyat

xonadonlarga uya qurmaydi», deb javob bergan, hali durust-quruq tanishib ulgurmagan qaymoqfurush juvondan shu javobni eshitgan Fozilbekning boshidan bir chelak muzday suv agʻdarilgandek boʻlgan...

Uning nafasi ich-ichiga tushib ketganda: «Biznikiga qaldirgʻ och sira uya qurmagan», degan...

Yigitning avzoi tuyqus oʻzgarganini, tovushida adoqsiz armon va oʻkinch yashiringanini Qadriya oʻsha zahoti payqagan. Yigit koʻnglidagi oʻkinch va armonini sezdirib qoʻygani, sezdirib qoʻyishdan tortinmagani juvon koʻnglining nozik pardalariga tegib oʻtgan.

Xullas, Qadriyaning gap aylanib, favqulodda aytgan bir ogʻiz lufi yigitni behalovat qildi. Oʻzi tugʻilib voyaga yetgan uy-joylari uncha-buncha odam suqlansa suqlanguday, bekami-koʻst qurilgan, moyboʻyoqda gullar solingan. Biroq na devor-u ravonga, na kungrador boʻgʻotlarning hech bir yeriga qaldirgʻ och uya qurish niyatida yoʻlamagan.

Unday desa, qaldirgʻ och uya qurmagan xonadonlar kam emas. U holda ne boisdan Fozilbekning tovushi bu qadar oʻkinch va armonli chiqdi?..

— Oʻshanda necha yoshda eding? — Qoʻshni Tim tomondan kelayotgan gʻala-gʻovurga bir zum xayoli qochib soʻradi Fozilbek.

— Qachon?

— Oʻshanda-da, qaldirgʻ och...

— Qoʻysang-chi, Fozil, bozor qizib turganda choʻzili-ib oʻshani aytib berarmidim?..

— Aytaver, Qadriya...

— Meni bozorimdan qoldirib...

— Sotilmay qolgan qaymogʻ- u qatigʻingga oʻzim pul toʻlayman, hammasiga. Aytib beraqol!..

Bolalikning aziz xotiralariga qaytishni kim istamaydi deysiz! Qadriyaning oʻzi bajonidil rozi boʻlgani uning koʻzlaridan sezildi, u ham xayolan, ham ruhan bozordan uzilgan, savdo rastasiga faqat jisman bogʻlanib — suyanib turgan edi.

— Maktabga chiqadigan yilim edi. Olchaga rang kirgan kezlar... — U shunday deb o‘ychan alfozda hikoyasini boshladi, birdan atrofiga alanglab, bosh chayqadi:

— E, qo‘ygin, Fozil. Nima, men ertakchi kampirmanmi, senga!..

Fozilbek bozordan, izdihomdan butkul uzilib ulgurgan, uning nazarida sut mahsulotlari rastasining bu tomonida o‘zi-yu, narigi tomonida Qadriya — yolg‘iz yuzma-yuz turishar, juvon ayta boshlagan hikoyasi Fozilbekning ichiga sehrli suyuqlik yanglig‘ oqib kira boshlagan edi.

— Ha-ha, maktabga chiqqan yiling, olchaga rang kirgan... Aytaver!.. — Dalda berdi Fozilbek juvonga u. Qadriya hikoyadan to‘xtamasligini istayotgan edi.

Qadriya esa asta-sekin ertakchi buvi qiyofasiga kira boshladi.

— Aytgandim-ku, oilamiz ka-atta bo‘lgan... bir tomoni oynavand ravonimiz bo‘lardi... sandalning gir atrofini to‘ldirib o‘tirib choy ichardik, ovqatlanardik...

Ravonning shiftiga qaragan odam qadi-im-qadim-dan qolgan tashlandiq qo‘rg‘onga kirib qolgandek his etardi o‘zini. Qalin-qalin to‘sin tashlangan, to‘sin tepasidan may-yda toqi zich-ch terilgan. To‘q-q ko‘kmidi, qoramidi-ey, rangi?.. Yoki, hayotda bo‘yoq tegmaganmidi-ey! Ishqilib, rangini bilib bo‘lmas edi!..

Bir kuni sandal atrofini to‘ldirib ovqatlanayotgan edik. Kattalar sandal tevaragida, men ukam bilan kattalardan chekkada, alohida dasturxoncha to‘shab ovqatlanib o‘tirgan edik... Yoz kezlarida sandaldan foydalanmasak-da, ko‘rpassiz kursi turaverar edi...

Onam bilan dadam arazlashgan kunlar ekan... — Qadriya ko‘zlarini katta-katta ochganicha rasta ustidagi suzma uyumiga tikildi. — Uyimizda biron yig‘in bo‘lsa, mehmon-izlom kelsa negadir dadam bilan onamning oralaridan muqarrar ola mushuk o‘tmay qo‘ymas edi... Bilmadim, nega shunday bo‘lardi?.. O‘sha kunlar esa Zulfiya opamni uzatganimizga hali yigirma kun ham bo‘lmagan... Dadam bilan onam arazlashib, bir-birlari bilan gaplashmay qo‘yishganiga biz bolalar ham «churq» etib ovoz

chiqarishga cho‘chir, uyimiz yaqindagina to‘y bo‘lib o‘tgan uyga ham o‘xshamas edi...

Xullas, hammamizning nafasimiz ichimizda, ovqatlanib o‘tirgan edik, Umid akam: «I-ya, anovini qaranglar!» deb jimlikni buzdi. Hammamiz akam ko‘rsatgan tomonga — shiftga qaradik — devorga yaqin to‘sin biqiniga qapishib qaldirg‘och qo‘nib turgan ekan! Ukam o‘zini tutolmadi.

— Ur-re-e, qaldirg‘och! — deb ravonni boshiga ko‘tardi. Irg‘ib o‘rnidan turdi.

— O‘chir! — dedilar onam tahdidli tovushda, lekin ovozlari balandlatmay.

— Nimaga qo‘nib turibdi? — hayron bo‘lib so‘radi kichik akam.

— O‘shatta mix bor... qolib ketgan... Dadamning beparvo va bamaylixotir aytgan gapidan hammamizning hayronligimiz battar ortdi.

— Hech qaysimiz ko‘rmagan mixni, shu qush topibdi-da!..

— Sekin, Umid! — onamning ovozlari ham ehtiyotkorlik, ham quvonch, favqulodda mamnunlik sharpasi yaqqol sezildi.

— Cho‘chib ketmasin.

— Qo‘nib turaveradimi? — so‘radim men qaldirg‘ochning qizg‘ish tomog‘idan, jajjigina, yum-yumaloq boshidan ko‘z uzmay.

— Kechayam kirgandi. Haydasam, ros-sa aylanib-aylanib uchdi-de, derazadan chiqib ketdi. Yana kiribdi.

— Hay, bemaza, nega haydaysan?! Uch kundan beri aylanishadi-ya. Bugun tunashga qoldi.

Onam birovlardan norozilansalar eng og‘ir so‘zlari «bemaza» bo‘lardi. Demak, ukamning qaldirg‘ochni haydagani yengil gunoh, «bemaza» degan so‘zlari shunchaki jo‘n tanbeh emas edi.

— Haydamaymi, oyi?! — boyagi hovliqishidan picha bo‘shashib so‘radi ukam.

— Yo‘q, haydama, — dedilar onam xuddi qaldirg‘och eshitib qolishidan xavotirlanganday shivirlab. — «Shetga uya qursam

ruxsat berasizlarmi-i?» deb ijozat so‘ragani, shu turishi. qaldirg‘ochni haydasa yomon bo‘ladi...

Esimda, piyoladagi choyni maydalab ho‘plab o‘tirgan dadam birdan tovush chiqarmay, yelkalarini silkita-silkita kulib yubordilar.

Hammamiz savol nazari bilan dadamizga qaradik. Dadam yana bir dam kuldilar, kulishdan to‘xtab choyni oxirigacha ichdilar. Birdan jiddiy tortdilar. «Yalt» onamga qaradim. Onam yuzlarini chetga burib, o‘tiraverdilar. Hammamiz dadam bir narsa desalar kerak, degan taxminda u kishining og‘zilarini poyladik. Dadam esa to‘satdan qisqagina, «Omin!» deb fotiha o‘qidilar-da, qo‘zg‘aldilar. Ravondan chiqa turib poygakka yetganda biz tomonga qaramay, kesatiq ohangida g‘o‘ldiradilar:

— Yomon bo‘larmish!..

Qadriya har safar hikoyasining shu yeriga yetganda bir zum o‘yga toladi, chamasi, ichidan kelgan xo‘rlikmi, yig‘imi — uni gapirtirmay qo‘yadi. So‘ng buning sababini quyidagicha izohlaydi:

— Dadam bilan onam nihoyatda totuv yashar edilar. Faqat, aytdim-ku, uyimizda biron yig‘inmi, to‘ymi — umuman sarfxarajat ko‘paysa, bir ko‘ngilxiralik chiqmay qolmasdi... Hammasi chorasizlikdan edi, shekilli...

— To‘y o‘tgan edi-ku?..

— O‘tishga o‘tdi-yu, negadir onamning ko‘ngillari g‘ash edi... Buyog‘i to‘ydan keyin opamning uyga birinchi kelishlariga hozirlik ko‘rish, shu munosabat bilan o‘ziga yarasha ovoragarchiliklar kutayotgan edi...

— Qaldirg‘och nima bo‘ldi?

— Qaldirg‘och ikki kecha ravonda — o‘sha mixga qo‘ngan holda tunadi... Men, onam, ukam ravonda qato-or yotardik. O‘ringa kirib, uyquga ketguncha qaldirg‘ochdan ko‘z uzmas edik. Qimir etmas edi, xuddi kimdir loydan yasagan-u qanotlarini tim qoraga, boshini qizg‘ish, to‘shini oqqa bo‘yab mixga qo‘ndirib qo‘ygandek.

Uchinchi kundan ikkita-uchta bo‘lib chug‘urlab ravonni bozor qip yuborishdi. Dam o‘tmay kiraveradi-chiqaveradi, g‘oyib bo‘ladi-

yu, zum o'tmay sho'ng'ib ochiq derazadan o'zini ravonga uradi. Qarasak, mixning yonginasida, to'sinning toqi bilan tutashgan joyda tomchi-tomchi loy dog'lari paydo bo'ldi. Ikki kun o'tar-o'tmas uya devori ko'zga tashlandi.

— Qaldirg'och-chi, — dam hayajonlanib, dam bosiq, davom etdi hikoyasida Qadriya, — uyasining devoriga ikki qator loy uradi, loyning nami ketib qurigunicha sabr qiladi-da, loy oqarib, xom sopol tusiga kirgachgina yana loy tashishga kirishadi.

Bu safar, kunduzi, hovlida yursam, ravon tomondan qaldirg'ochlarning bezovta chug'urlashi eshitildi, yugurib ravon oldiga bordim, ichkariga kirdim, ukam o'sha yerda ekan — u meni ko'r-di-yu, rangi quv o'chdi. Ikki qaldirg'och dam shiftga sapchib, dam pastga sho'ng'ib charx urib aylanar, na tashqariga chiqar, na mixga qo'nar edi.

— Nima bo'ldi, nima qilding?! — deb so'radim ukamdan.

Ukam og'ir gunoh ustida qo'lga tushgan odamdek rangi qum o'chdi. Musht qilib olgan kaftini ochdi. Qaradim. Chagalida bir siqim olcha danagi. Yangigina ajratib olgan ekan, changali qip-qizil qonga botgandek, danaklar qon ichida turgandek edi..

— Ayt, nima qilding?! Hozir onamga...

— Aytma, — dedi ukam yolborib.

— Nima qilding?

— Danak otuvdim...

Ukamning «qontalash» changaliga shapati urdim, danak palosga sochildi.

— O'lasan, qo'ling qaltiroq bo'lib qoladi!

Gapimni eshitib ukamning esxonasi chiqib ketdi. Qo'li hoziroq qaltiray boshlaydigandek qontalash kaftiga qo'rqa-pusa angraydi.

— Tegmadi... — dedi burnini tortib. — Ikkitagina otuvdim...

— Kim qaldirg'ochni o'ldirsa, qo'li qaltiroq bo'lib qoladi. Uyidan haydasa, battar bo'ladi!.. Onam aytdilar...

Shunday dedim-u, hovli tomondan deraza yoniga kelib bizni kuzatib turgan dadamga ko'zim tushdi. Ukamga aytganlarim

dadamga yoqmaganini sezdim. Qo'li qaltiroq «bo'lishi»dan o'takasi yorilayozgan ukam dadamni ko'rib ho'ngrab yubordi. Kaftiga yopishib qolgan bitta-yarimta olcha danaklari ham palosga sochildi.

— Bekorri beshtasini yebdi, onang!..

Dadam shu qadar darg'azab bo'lib baqirdilarki!..

Qadriya go'yo bu gaplari bilan otasining sha'nini bulg'ab qo'yishni istamagandek birdan xijolat tortdi, tilini tiydi.

— Keyinchalik, ancha esimni tanigachgina bildim. Dadamning o'sha kunlari siqilib, xunob bo'lib yurishlari men ukamga aytganlarimga, qaldirg'ochning uya qurishiga unchalik daxli yo'q ekan... Amal-taqal o'tkazilgan to'y, to'ydan keyingi chiqimlar dadamni anchagina urintirib qo'ygan, oshkor aytishga oriyat yo'l qo'ymaydi, oshkor qilmay desa, ilojsizlik... Men faqat bir narsani — dadam shunday qiyinchiliklar alamini onamdan olishlarini sira-sira tushunolmas edim...

Fozilbek o'zi tanimagan-netmagan Qadriyaning otasini, uning ahvol-ruhiyasini ko'z o'ngiga keltirishga harakat qildi. Xayolan unga achindi. Va «xo'sh, keyinchi?» deb juvonning og'ziga qaradi. Qadriya yigitga e'tibor qilmay, go'yo o'zi uchun ovoz chiqarib xotirlayotganday hikoyasini davom ettirdi:

— Oshxona tomondan onam yugurib keldilar, dadamning yonlarida to'xtamay: «Ha, tinchlikmi?» degancha ravonga kirdilar. Bizni janjallashgan deb o'yladilar shekilli, tanbeh bera ketdilar:

— Hovliga chiqinglar! Qadriya, nima qip angrayib turibsan?! Voy, vu-u, olcha danakni sen opkirdingmi?!

— Anovini yo'qotlaring!!

Men bilan ukam onamning koyishlaridan cho'chib turgan edik, dadam shunday o'shqirdilarki!.. Bizga qo'shilib onam ham cho'chib tushdilar. Uch-to'rt kundan beri arazlashib yurgan onam birdan dadamga yuzlandilar va:

— Qaysini? — deb jon holatda shoshilib so'radilar.

— Anovini!.. — Dadam barmoqlarini bigiz qilib shiftni ko'rsatdilar. — Haydab chiqarlaring!..

Men, dadamning avzoyini ko‘rib yig‘idan to‘xtagan ukam hech narsani tushunolmay angrayib turaverdik. Dadamning fe‘l-xo‘yini yaxshi bilgan onam, o‘sha topda eng ma‘qul yo‘lni topdilar.

— Xo‘p, adasi! Xo‘p bo‘ladi.

Onam ovozlarni muloyimlashtirib shunday dedilar-u, so‘zsiz-nesiz yelkamizga qoqib, bizlarni hovliga chiqishga undadilar.

«Xo‘p, adasi! Xo‘p bo‘ladi»... Onamning qo‘rquv va tahlika, qattol qaysarlik oldidagi ojizlik va umid to‘la ovozlari hali-hanuz qulog‘imdan ketmaydi...

Hammasi ertalab, tong saharda ma‘lum bo‘ldi... Sandalning yonida yotgan edim, onamning yig‘lashlarini eshitib, uyg‘onib ketdim. Ko‘zimni ochdim-u, gir aylanib, chug‘urlab ravonni boshiga ko‘tarib uchayotgan qaldirg‘ochni ko‘rdim. «Ukam tag‘in danak otibdi-da!» degan o‘y keldi xayolimga. Unda, nega onam yig‘layaptilar?! Yo‘q, ukam boshqa danak otmaslikka kecha ont ichdi, u otmagan. Oqshom uyquga ketgunga qadar ukam bilan ko‘rpa chekkasidan mo‘rala-ab ros-sa tomosha qildik. Qaldirg‘ochning biri mixga, ikkinchisi devori endi ko‘tarila boshlagan uyaning chekkasiga qo‘ngan ikkovi boshini qanotlari orasiga tortib, yonboshiga salgina qiyshaytirgancha tosh qotib uxlar edi.

— Fozil, — deb so‘ragan edi bir safar Qadriya, hikoya aytishdan to‘xtab. — Qaldirg‘ochni erinmay uzoq kuzatgan-misan?.. Uchayotganini emas, uyasida qo‘nib turganini?.. Biron lahza tinim bilmaydigan, vijirlashdan charchamaydigan qushcha qo‘nib uxlayotganida shu qadar muloyimlashadiki, yuvvosh, ma‘sum, beozor tortadiki... bechoraga o‘xshab qoladi... Qanotining sirti tim-m qora baxmal... kallasi qizg‘ish, taqir baxmal... tomog‘i oppoq shoyil!.. Ko‘zlari qop-qora munchoq deysan!.. Tomosha qilib turib, ilohiy qushligiga ishonib qolasan... Chindan ham shundaymikan, Fozil?..

— Beozor, bokira jondorlarning bari ilohiy bo‘ladilar, — dedi Fozilbek va shivirlab ilova qildi:

— Sen ham...

Qadriya yigitning iltifotiga e'tibor qilmay muddaoga qaytdi:

— Xullas, onamning yig'i tovushlarini eshitib uyg'ondim. Hayron bo'ldim. «Nega yig'layaptilar?! Dadam qayerdalar?! Nega onamga qaramayaptilar?» kabi savollar miyamga kelaverdi.

Shu xayolda o'rnimdan irg'ib turdim-u, cho'k tushgancha hovliga qarab qoldim. Ravon derazasining yonginasida dadam uzu-un tayoqni ikki qo'llab tutib turibdilar. Onam ham ikki qo'llab dadamning qo'llaridagi tayoqqa yopishganlar. Xuddi talashib-tortishayotganga o'xshadilar.

«Nahotki, dadam onamni shu-unday tayoq bilan kaltaklayotgan bo'lsalar?! Nima qilay?! Akalarim hovlining narigi burchagidagi xonada tunashadi. Yugurib borib uyg'otaymi?!»

— Yo'limdan qoch! Chetga o't!

Onam dadamga quloq solmadilar. Yorbordilar:

— Jo-on adasi, umringizdan baraka toping. Tegmang!

— O't-t, deyaрман!

Onam alam aralash yig'lamsirab yana yorbordilar:

— Mani uraqoling, adasi, roziman. o'ldiring. Faqat qaddirg'ochchi iniga tega ko'rmang! Kasofati uradi, baraka top...

Onamning bu gaplari dadamni junbushga keltirgan g'azab oloviga sepilgan moydek ta'sir qildi.

— E, irim-siriming bilan qo'shmozor bo'l-a!.. «Yomon bo'ladi — kasofati uradi»dan boshqa narsaga yetmaydi, aqling!..

Dadam shunday deb tayoqni qattiq siltagan edilar, onamning qo'llari buralib yerga cho'k kalab qoldilar. Boshlaridagi ro'mol yelkalaridan osilib tushdi. Sochlari to'zg'idi. Men dam onamga, dam ravonda charx urib bezovta aylanayotgan uch-to'rt qaldirg'ochga angrayib, yig'lab yubordim. Onam qad rostlab ulgurmay otamga iltijo qildilar:

— Ostiga taxta qoqtiraman, iflos qilmaydi.

— Foydasi yo'q!

— Iflosini o'zim tozalayman!..

— Uyni emas, miyangni iflos qiladi bular, manavi miyangni!..

Dadam shunday deb g'azab bilan onamning boshlariga nuqtdilar.
— E, irimni bilgan!..

Onam birdan yig'ini, yalinib-yolborishni bas qildilar. Jiddiy tortib, dadamni ko'ndirishning boshqa yo'liga ko'chdilar:

— Mayli, irimga ishonmasangiz, qizingizni o'ylang!.. Zulfining baxtiga zo...

Dadam onamning gaplarini ochiqdan-ochiq mazax qilib kuldilar.

— E, odammi o'lgani yaxshi! Har narsa bo'gani yaxshi-ya!.. Zulfiyaning oilasiga nima daxli bor, bu qushning?!

Onam ham o'z bilganlaridan qolmadilar.

— Beozor qush, qarq'ishi yomon bo'ladi, axir... Niyatingiz shunday ekan, nega uch kun qo'nib turganida haydamadingiz?

Dadam javob qaytarmadilar. Onam so'zlarim kor qildi deb o'yladilar chog'i, sal shashtlaridan tushdilar.

— O'sha qo'ngan kunlari haydasak... bezovta qilsak ham mayli edi, baraka topgur... Endi bo'lar ish bo'ldi, baraka topgur. Rozi bo'la qoling, adasi...

Bir oz hovurdan tushgan, sal bo'lsa-da, xotirjam tortgan onam ro'molni olib boshlariga o'radilar. Men cho'k tushgan ko'yi yig'idan to'xtagan, biroq «qimir» etmay nega qaldirg'ochlar olamni boshlariga ko'tarib gir-gir aylanayotganini tushunolmay turaverdim. Keyin bilsam, bu, qaldirg'ochlarning faryodi ekan...

— Ha-ha, «bo'lar ish bo'ldi», — dedilar dadam zaharxanda tovushda, keyin qo'llaridagi tayoqni daraxt ostiga taraqlatib uloqtirdilar. — Ko'chirib tashladim...

... Dadamning gapini onam dabdurustdan tushunib yetmadilar, birdan hushyor tortdilar-u, lahza sayin anglay boshladilar: onamning yuzlari qiyshayib ketdi... onam rahmatli sutga chayilganday oppoq, nihoyatda xushro'y ayol edilar... vujud-vujudlaridan toshib chiqqan qandaydir ko'rinmas bir kuch onamning yuzlarini g'ijim-g'ijim qilib tashlagandek bo'ldi!

Onam shu qadar jon holatda oldinga tashlandilarki, o'zlarini to'xtata olmay, ko'ksilari bilan ravon derazasi raxiga zarb bilan

urildilar, shunda ham to‘xtamay boshlarini ichkariga suqib, bo‘ynilarini cho‘zib — butun vujudlari ko‘zga aylanib, qaldirg‘ochning uyasi tomon qarashga intildilar. Yo‘rgakdagi bolajoni yotgan uyga o‘t ketganini ko‘rgan onaizorgina shundayin telba ahvolga tushishi mumkin... Men ham shundagina uya tomon qaradim. Qaradim-u:

— Voy-y! — deb qichqirgancha ikkala kaftimni og‘zimga bosdim.

Onam dahlizga, dahlizdan ravonga o‘qday otilib kirdilar. O‘sha topda onam sho‘rlik ko‘zdan qolgan odamday harakat qilayotgan edilar. Bo‘lmasa, hovlida turgan joylaridan ko‘zga tashlanib qolgan uyani ostiga borib tursalar ham ko‘rmadilar, chunki... onam uya qurila boshlangan joyga sinchiklab, ko‘zlariga ishonmay qayta-qayta qaradilar va to‘satdan sapchib orqaga tislандilar — oyoqlarining ostiga engashdilar. Engashib... piyola sinig‘iga o‘xshab ikki bo‘lak bo‘lib yotgan qaldirg‘och uyasini ikki qo‘llab ko‘tardilar. Hamon ishonqiramay ko‘zlariga yaqinlashtirdilar.

Onam gapiro olmay qoldilar, yo‘q, gapirayotgan ekanlar-u, ovozlari chiqmayotgan ekan. Birdan, oyoqlari majolsizlanib devorga suyandilar, kaftlarida turgan uya qoldig‘ini ko‘rsatib oldinga cho‘zgancha boshlari barobar ko‘tardilar. Onam sho‘rlik qaldirg‘ochlar uya qoldig‘ini olib yana joyiga yopishtirib qo‘yadi degan so‘nggi ilinjda shunday qildilar. Qaldirg‘ochlar esa uvvos solib, yanada shiddat bilan chir aylanishga tushdi — «g‘uvv» etib derazadan hovliga chiqib g‘oyib bo‘lar, zumda qaytib kirar, shiftga, devorga urilib ketay-ketay der, toshdek sho‘ng‘ir, yana sapchib ko‘tarilar, shu asnoda bu beozor qushlar onamning zor qaqshab qilayotgan tavallosini anglayotgan edimi-yo‘qmi, yolg‘iz Yaratganga ayon edi.

— Sho‘rim!.. Sho‘rim quridil.. Sho‘rim qurib qoldi... — Onam yana nimalardir dedilar-u, ovozlari chiqmadi, ranglari dokaday oqarib devorga suyangancha orqalari bilan sirg‘alib tushib, hushdan ketdilar...

Dadamning: «Suv opke!» degan tovushlari keldi hovlidan. Umid akam piyolada suv ko'tarib ravonda qanday va qachon paydo bo'lganlarini sezmay qoldim. Akam onamning yuzlariga suv purkadilar, onam sapchib tushdilar...

Qadriya jim bo'lib, o'ygacha cho'mdi. Aftidan u xotira-hikoyasining muhim joyini unutib qoldirgandek diqqatini yanayam jamlashga urindi va ovozini boyagidan picha ko'tarib davom etdi:

— Ishonasanmi, Fozil, onam hushdan ketgan zahoti qaldirg'ochlar ravonni tark etdilar, bir-birini quvib, biri-biridan o'zib hovlida chug'urlashib, bezovta aylanaverishdi, hatto, ravon derazasiga qadar yaqinlashib uchib o'taverishdi hamki, lekin ularning birortasi ravonga yo'lamadi.

Onam tezda hushlariga keldilar. Janjal kattalashadi degan xavotirda yuragamni changalladim. Biroq onam «churq» etib og'iz ochmadilar. Ko'zlari nursiz, ranglari devor, o'zlari suratdek, behol-bemajol turib qoldilar. Akam onamni ichkari xonaga yetakladilar — onam so'zsiz, qadamlarini surgab akamga itoat qildilar.

Birdan uy ichimiz, hovli sahni suv quygandek sukunat og'ushiga botdi.

Ichkaridan Umid akamning onamni yupatish uchun aytayotgan gap-so'zlari uzuq-yuluq eshitildi. Onamga shunaqayam achinib, bilasanmi, Fozil... He-ech kimga aytmagin-u, o'sha topda dadam dunyoda e-eng toshbag'ir insondek tuyuldilar... Shunda... hovlida, tok so'risi yonida yer chizib turib qolgan dadamga qaradim. Onamning himoyasi uchun dadamga biror gap aytib yubormoqchi bo'ldim shekilli, dadamning biz tomon o'girilishlarini kutdim. Shunda, dadamning tok zangini siqimlab tutgan qo'llariga ko'zim tushdi. Zangni azbaroyi qattiq siqimladilarki, zangning qurigan po'sti uvalanib-uqalanib yerga to'kildi... va birdan dadamga qattiq achinib, ichim achishdi...

Qadriyaning oydek chiroyi necha bor qizarib, necha bor oqardi. Ko'zi yoshlandi. Ortiq gapirolmadi. Fozilbekka qolsa, Qadriyaning hikoyasi sira tugamasa, u gapiraversa-gapiraversa, Fozilbek

qadriyadan ko‘z uzmasa, uning har bir so‘zini vujudi quloqqa aylanib tinglasa...

— Otangga achindingmi? — uni qiyin vaziyatdan xalos etish niyatida so‘radi Fozilbek.

— Yuragim uvishib ketdi!.. — dedi Qadriya.

— Hozirgina dunyoda e-eng bag‘ritosh odam bo‘lib tuyulgan edilar-ku?

— Avval achinding, keyin yaxshi ko‘rib ketdingmi?

— Ikkalovlariga achindim...,

— Qanday qilib? — so‘radi jilmayib Fozilbek.

— Chunki, orada dadam ham, onam ham tushunmayotgan, tushunsalar-da, izohlab bera olishmayotgan nimadir bor edi...

— Qanday nimadir?.. Keyin topdinglarmi o‘sha nimadimi?

— Mengina emas, oila a‘zolarimiz — hammamiz iqror bo‘ladigan hodisa yuz berdi.

— Qanday hodisa?!

— Uch oy o‘tar-o‘tmas Zulfiya opam oilasi buzilib, uyimizga qaytib keldi...

1995





ERKIN A'ZAMOV

KO'K ESHIK

Hikoya

Tanishimizning ijara uyiga aylanma zinadan chiqilar ekan... Oynaband ravoncha, keyin devorlariga rasm solingan serhasham xona. Ungurda sakrab yurgan hurkak ohu bolalari tasviri Hamidga, ayniqsa, ma'qul tushdi: qishlog'imizni, uni qurshagan tog'larni eslatgan bo'lsa kerak.

Darvoqe, gap devordagi bezakdami? U holda biz yashaydigan xona devorlarini tog' ungurida o'ynab yurgan ohular emas, seryomg'ir kelgan bulturgi bahorning tomdan sizib o'tgan chakka dog'lari «bezagan». Yagona derazasi tirqishlarida chilla shamoli bemalol daydigan, ilituvsiz bu uyda Hamid ikkimiz galma-gal tumovlab turamiz. Mana, gap nimada!

Borgan joyimiz dardimizni yangiladi. Mezbon tinmay dam sharoiti: elektr, gaz, suvini aytib g'ururlansa, dam uy egasining odamoxunligini maqtardi. Biz uning omadiga — xo'jayin, elektr, gaz, suviga tahsin o'qib, Hamidning ta'biricha, «saroyimiz»ga qaytarkanmiz, o'yg'a toldik.

Boshqa joy topish kerak!



Darvozadan kirganda tomiga qora qog'oz yopilgan ko'rimsizgina ikki uy, bir dahlizga ko'z tushadi. Zax bosgan, qorong'i dahlizdan chapdagi xonada kampir, o'ngdagisida biz

turamiz. (Nachora, ayb o‘zimizda — yotoqxonada shovqini malol keldi). Shifti Hamidning pakana bo‘yiga moslangandek pastak bu xona ikki kishi uchun chinakamiga «saroy»: buklama karavotlarimiz va ustiga kitob qalangan siniq stolni hisoblamasa, unda hech vaqo yo‘q.

Torgina bu hovlida kampir yolg‘iz, faqirona kun kechiradi. Qo‘shnisiga tushgan qizi oilasi bilan andarmon, qo‘li tekkan mahaldagina kirib turadi. Bizdan tashqari, hovli to‘rida, tut tagidagi bostirmasimon hujrada istiqomat qiladigan Bo‘riboy akaning derazaga qaray-qaray negadir xavotirlanib gapirishicha, kampirning qizidan keyingi yagona o‘g‘li daydi chiqqan, onasiga qarashmay, xabar ham olmay qo‘ygan; harbiydan qaytgach, bir beva ayolga uylanib allaqayerda yasharmish.

— Ba‘zan ichib kelib qoladi. Ana keyin ko‘rasiz tomoshani,
— deydi Bo‘riboy aka pichirlab.



Tushdan keyin o‘qiyman. Kechqurun sovuqda junjikib qaytaman. Hamid yo kampirning uyni zo‘rg‘a ilituvchi cho‘yan pechi oldida gap sotib o‘tirgan, yoxud Bo‘riboy akanikida xalqaro ahvoldan masala talashayotgan bo‘ladi. Karavotga cho‘zilib oyog‘imni ko‘rpaga o‘rayman-da, kitob o‘qishga tutinaman. So‘ng sovuqdan hushim kelmay kitobni qo‘yib, kampirning xonasiga bosh suqaman.

— Voy bolam-ey, ko‘karib ketibsana! Kir-kir... Qachon kelding? Man xavotir olib o‘tiribmanku, bu izg‘irinda bolafaqir qay ahvolda kelarkan, deb. O‘lgur sovuq ham... Mayli, hademay issiq kunlar kep qolar. Bo‘riboy aytayotuvdi. Gazetada yozganmish. O‘qishinglarni bitirib, hali bir odam bo‘lasanlarki, hammasi unutilib ketadi. Sani, Hamid bolamni uylariga borib bir davron surishim bor. Umidim katta sanlardan, ha-ha!..

Chindan ham kampirning bizga ishonch-ixlosi zo‘r, kelajagimizdan ko‘p narsa kutadi. U, ayniqsa, Hamid bilan soz.

Uning sho‘x-sho‘x hazillaridan boshini orqaga tashlagancha miriqib-miriqib kuladi.

— Oyi, shu-u, bo‘yga yetgan qizingiz bo‘lmagani chatoqda, — deydi Hamid menga ko‘z qisib.

— O‘zim ham shunga achinaman. Bo‘lganida sandan boshqaga bermasdim-a, attang! — deb astoydil kuyunadi kampir. — Hay, parvo qilma, bolam, sani o‘zim uylantiraman, ko‘rasan. Ko‘z ostiga olib yurganim bor. Qo‘shnilardan. Bir nozaninki, sochi taqimiga tushadi.

— O‘shani tezroq olib bermasangiz, sochini qirqtirib qo‘yadi, oyi. Hozir shunaqa.

— Sho‘x bo‘lmay ket-a, bolam...

Bo‘riboy akaning hujrasiga o‘taman. O‘ttizlarni qoralagan bu odam qo‘shni kampirning o‘g‘li; akasi bilan murosa qilolmay uyidan arazlab, shu yerda so‘qqabosh yashaydi. U birinchi kun bizni sovuqqina qarshilab:

— Musofir ekansizlar, — dedi negadir parishon bir qiyofada. — Mayli endi. Lekin kampirni ranjitish yo‘q—shart shu. O‘g‘li tufayli ko‘ngli yarim o‘zi. Ammo-lekin tilla kampir-da. Mana, o‘zimiz ham...

Uzoq kirish so‘zidan keyin u «Vokrug sveta» jurnalini o‘qish-o‘qimasligimizni so‘radi. Hamidning mujmalroq javobini eshitgach:

— O‘qib turish kerak, — dedi. — Ammo-lekin shu jurnalda gap ko‘p. Mana, o‘zimiz ham...

Uning katalakdek hujrasi gazeta-jurnalga to‘la. Zax taxmonning tepasigacha sonma-son «Vokrug sveta» taxlangan. Ba‘zan tongga qadar hujrada chiroq miltillab turadi: Bo‘riboy aka o‘ninchi lampa yorug‘ida boshini qashlab, qo‘lida qizil qalam, gazeta titadi. Yurganda ham uning qo‘lidan gazeta tushmaydi, qo‘ltig‘ida, albatta, jurnal bo‘ladi. O‘zi qurilishda oddiy ishchi-yu, hamisha oq ko‘ylak, bo‘yinbog‘, shlyapada yurishi, muomalasi ziyoli kishilarni eslatadi.

U goho ichib kelib, hovlini boshiga ko‘targudek o‘kirib yig‘laydi; akasining sirlarini bilishini, bir kunmas-bir kun uni fosh

qilajagini aytadi, bo‘ralab so‘kadi. Keyin ishkom tagidagi chorpoyaga o‘tirgancha hasratga tushadi.

— Men baxtimni yo‘qotganman, ukalar, — deydi bizga. — Musofirsizlar. Ammo-lekin musofirchilik yomon narsa. Mana, o‘zim ham... Baxtimni tortib oldi. Nomardlar! Men hali ularga ko‘rsatib qo‘yaman! Ha! Ilmiy ishlarim qolib ketdi...

Uni kampir onasidan o‘zga hech kim tinchitolmaydi ham, ovutolmaydi ham.

— Hi, Bo‘rivoy, tag‘in nima bo‘ldi sanga? — deya darvozadan munkillab kiradi kampir.

Bo‘riboy aka goh onasining bo‘yniga yosh boladek osilib oladi, goh uni yerdan dast ko‘taradi.

— Oyijon, oyijonimsiz! — deydi u qayta hiqillashga tushib. — Ilmiy ishlarim bitsin hali, men sizni boshlarimga ko‘taraman, ha, xuddi osmonga! Nomardlar-r! Tortib oldi-ya, oyijon...

Eshitishimizcha, bu devonatabiat odamni tole qisgan, suygani kuydirib ketgan ekan. «Ilmiy ish» degani esa bir paytlardagi orzusi bo‘lsa kerak. U mudom nimadandir xunob, nimadandir shikasta. Nimadanligini biz ham bilmaymiz, o‘zi ham.

Gazetaga ishqibozligim uchunmi, Bo‘riboy aka menga boshqacha qaraydi. U meni ehtirom bilan qarshi olarkan, Hamid o‘midan turadi.

— Ha, mulla? — deydi Hamidga. — O‘tiring endi. Mana, bu yoqqa keling, boyagi masalani hal qilamiz.

— Rahmat, — deb hafsalasiz jilmayadi Hamid. — Ilmiy ishni tugatish kerak. Ertaga kengashda muhokamasi...

U chiqib ketgach, Bo‘riboy aka maxfiy sirni ochayotgandek, derazaga qarab pichirlaydi:

— Sherigingiz tupoy ekan-ku? Daniyaning qirolchasi kimligini bilmaydi-ya! Oliy maktabda o‘qiy turib... Ha-a, bu, Kambodja masalasini eshitdingizmi?

Kosada ovqat ko‘targan onasi kiradi-yu siyosat chetda qoladi.

Kelsam, «tupoy» ilmiy ishi — seminarga tayyorgarlik ko‘rib, allaqachon to‘shakka kiribdi.

— Seni, tupoy ekan, dedi.

— Kulgim qistaydi.

— Kim? Musofirmi? (Hamid Bo‘riboy akaga shunday deb laqab qo‘ygan). — U qiziqsingancha yostiqaqqa yonboshlab oladi. — Hi! O‘ziyam mendan qolishmaydi. Ilmiy ish emish! Uylanish taraddudida yuribdi. Topganmish bittasini. Kwartira berishibdi. Yaqinda ko‘chmoqchi bu yerdan — mana, senga ilmiy ish! Qarasam, allaqaydagi savollar bilan boshimni qotiryapti, «Bor-e», dedim. E, buyam o‘zimizga o‘xshagan bir afandi-da. Sho‘rluk musofir!

Kampirning: «Uy sovuqlik qilayotgan bo‘lsa, mani yonimga, bu yoqqa o‘ta qolinglar, harna issiqroq», degan gapini Hamidga aytaman.

— Qo‘ysang-chi, — deydi u ko‘rpani yuziga tortib. — Hech biri o‘zimizning mana shu saroyga teng kelmaydi: muzdekkina, maza!

— Tezroq boshqasini topmasak...

— Bu kecha tushimizga kirib chiqsin, ertaga topamiz.



Hamidning tushi o‘ngidan keldi: u ertasi kuni darsdan xushxabar bilan qaytdi. Kursdoshlari orqali surishtirib, universitetning yonginasidan uy topibdi. Kechqurun ko‘rgani bordik. Uy biz kutgandan ziyoda, o‘sha tanishimiznikidan o‘tsa-o‘tardiki, qolishmasdi. Ertaga ko‘chib keladigan bo‘lib bekasi bilan ahdlashdik. U negadir sal jonsarak, ammo juda muloyim ayol ekan.

— Mayli, kelaveringlar, — dedi. — kechqurun adasining o‘zlari gaplashadilar. Fe‘llari bir oz anaqaroq, «Xo‘p», deyaverasizlar.

Galdagi mushkulot ko‘chish, ya‘ni bu gapni kampirga aytish edi. Nima deyish, kim ayishi xususida Hamid bilan xiyla bosh qotirdik.

— Yotoqxonada yashamoqchimiz, desak-chi?

— Kallangga balli!

Uzoq tortishuv, ikkilanishlardan soʻng, «Kampir seni yaxshi koʻradi, u-bu», deb gaplashishga uning oʻzini koʻndirdim.

Hamidning orqasidan kampir uyga yigʻlab kirdi.

— Sanlarni oʻz bolam degandim, oʻrganib qoluvdim, — deya hiqillardi u. — Bir hovlida yolgʻiz oʻzim... Boʻriyoy ham yaqinda uylanib ketib qolarmish. Mana, bu yogʻi bahor edi. Bilaman, sovuqda xiyla qiynaldinglar, shoʻrlik bolalarim. Ahvollaringni koʻrib ich-etimni yeyman. Ilojim yetganda-ku... Yonimga oʻta qolinglar, dedim... Yo biror nimadan xafa boʻldinglarmi, a, bolalarim? Tunov kungi...

Tunov kuni, kampir qizirikida edi, oʻgʻli keldi. Koʻrinishdan beozorga oʻxshagan bu odam ancha nagʻma koʻrsatdi: u gʻirt mast, oyogʻida turolmas edi.

— Kim qoʻydi sanlarni bu yerga? Kimsanlar oʻzi? Bu mani uyim, ha! Hech kimning haqi yoʻq, ha! — deb baqirdi u bizga. Keyin yerga boqqancha chayqalib soʻkinishga oʻtdi... — Oyim qani? Oyimni topib berlaring! Tez boʻl, hozir!

Hamid kampirni chaqirib chiqdi. Oʻgʻli tagʻin dagʻdagʻaga tushdi.

— Bas qil, jinni, qoʻshnilar eshitadi, — deya kampir uni sudrab uyga olib kirdi.

— Man-n qoʻshnilaringizni... — Uning hush-behush baqirigʻi eshitalardi. — Bular kim? Kim qoʻydi bularni? Sizga pul kerakmi, a, ayting, pul kerakmi? Mana, mana!..

— Puling oʻzingga buyursin, — dedi kampir titroq tovushda. — Nima desang de, lekin man bu bolalarni yonimdan jildirmayman, ular oʻzimizniki...

Amallab oʻgʻlini joʻnatgach, kampir yigʻlab hasrat qildi, uzr soʻragan boʻldi.

U hozir oʻsha gapni eslardi. Koʻnglimiz buzilib ketdi. Biroq endi qolish ham oʻngʻaysiz edi.

— Xabar olib turamiz, oyi, — deya yupata boshladi Hamid.

Kampir battar toʻliqdi. Soʻngra yotoqxona sharoitini obdon surishtirdi, koʻngli toʻldi shekilli:

— Mayli, bolalarim, nimayam derdim, — dedi past, dardchil ovozda. — Niyatlarim ko‘p edi...

Nihoyat, kampirning duosini olib, birinchi bor ko‘rayotgandek qadrdon hovliga so‘nggi marta g‘amgin nazar tashlaganicha, ko‘ngilda bir orziqish... ko‘k darvozadan chiqib ketdik.

Yangi joyga o‘rnashib, kechqurun beka aytgan kishining kelishini kutdik. Keldi. Tanitishicha, allaqayerda bufetda ishlarkan, burnining uchi ham xuddi vinoga tiqib olingandek edi.

Bekaning «quloq qoqdi»siga ko‘ra, «bir oz anaqaroq» bu odamning gaplariga «Xo‘p», deyaverishimiz kerak edi. Vazifamizga kirishdik.

— Yotoq yoqmabdi-da, xilvat qidirib qolibsizlar? — deb boshladi u so‘zini.

— Xo‘-o‘p, — dedi Hamid. Xo‘jayin unga bir o‘qrayib qo‘ydi.

— Pulini xotindan eshitgandirsizlar? Aytib qo‘yay, har oynning boshida to‘lashinglarga to‘g‘ri keladi. Qalay?

— Xo‘p.

— Soat to‘qqizdan keyin darvoza berk bo‘ladi. Buniyam hisobga ollaring, xo‘pmi?

— Xo‘-o‘p...

— Rubobinglar ham bor ekan. Buniyam vaqti-vaqti bilan, a?

Menga-ku bari bir, seminarga tayyorlanish o‘rniga Hamid ba‘zan ermakka ting‘irlatib o‘tiradi.

— Xo‘pmi, vo-ot... Tag‘in har qanaqa oshna-og‘aynini boshlab kelish ham yo‘q. Keyin siz, uka, mo‘ylovniyam, a?.. To‘g‘ri kelmaydi, mahallachilik.

Shu yerga yetganda Hamid tamom bo‘ldi, lekin sir bermadi.

— Xo‘pmi, vo-ot, chiroq masalasi... soat o‘n ikkigacha.

Bu gap ikkimizga birdek ta‘sir qildi: qishloqni, maktab davrini eslaydigan gurunqlarimiz qisqaradi endi.

Keyin gaz, suv, kran masalalari muhokamasiga ko‘chdik. Biz o‘z vazifamizni og‘ishmay ado etardik. Hamid «xo‘p, yaxshi, bo‘pti», deb o‘tirar, dam-badam chap ko‘zini qisganicha ko‘rsatkich

barmog'i bilan burnining yonini qashib qo'yar edi: ensasi qotgani, «qo'yaver», degani.

Nihoyat, xo'jayin shartlarini tamomlab: «Shundoq bo'lsin», deya o'rman turdi. U ketgach, Hamid ikkalamiz bir-birimizga tikilganча xiyla fursat xona o'rtasida qaqqayib qoldik. So'ngra o'tirib kampirni eslashdik.

Shu kecha alla-pallaga qadar uyqumiz kelmadi.



Ertasi kuni darsdan keyin uy qidirishga tushdik. Bir xillar uyiga o'zi sig'mayotganidan shikoyat qilardi; bir xillarini shum ijaragirlar dog'da qoldirib ketishganmish...

Ijaraga qo'ymasliklariga ko'pincha Hamid, uning mushtday-yu, lekin mahmadonaligi va allakimlarnikiga o'xshash ingichka mo'ylovi sabab bo'lardi. Uy egalari menga ishonch bildirishar, so'ngra Hamidga o'girilib... xavfsirab bosh chayqashar, afsus aytib, uzrlarini ilova qilishar edi.

Oxiri... eski uyimizga yaqinroq joydagi naqshindor darvozadan xizmatchiga o'xshash bir ayol chiqdi. Hafsalamiz sovib turgan bo'lsa-da, Hamid salomni quyuyq qilib, bidillashga tushib ketdi.

Albatta, bu shirinsuxan xola ijaraga qo'ymaydi: uyi o'ziga tanglik qiladi, bo'yga yetgan qizi ham bor, buning ustiga ijaragirlardan kuygan deng... Ammo, aytishicha, bizga razm solib qarasa, ancha bama'ni bolalarga o'xsharkanmiz, rahmi kelibdi.

— Muyulishdan shundoq o'tsanglar... — deya u o'zimiz ko'z yumib ham topa oladigan yo'lni tushuntira boshladi, — «Zuhra kampirning uyi», desanglar, ko'rsatishadi. Ko'k eshik. O'ziyam bir kampirjonda lekin. Bir-ikkita bola turgan ekan. Kechami, oldingi kunmi, yotoqxonaga ko'chib ketishibdi. Kampir sho'rlik yig'lab o'tirganmish o'shalarning orqasidan. «Halima opa aytdi», desanglar, yo'q demas...

Ayolga rahmat aytib, yo'lga tusharkanmiz:

— Nima qildik, xo‘jayin? — dedi Hamid.


— Qaytib borishdan o‘zga chora yo‘q shekilli?

— Insof bilan o‘ylab qaralsa, — deya xo‘rsindi Hamid, — o‘zimizdan o‘tgan, jo‘ra. Uyning u yoq-bu yog‘ini tuzatib, pechka-mechka qo‘ysak...

Ko‘k darvoza oldiga kelib taqqa to‘xtadik. Unga qo‘l cho‘zishga na Hamidda, na menda jur‘at bor edi. Nihoyat, odatdagidek uzoq tortishuv, ikkilanishlardan so‘ng Hamidni ichkariga kiritib yubordim.

Bir ozdan keyin hovlidan yig‘i eshitildi. Darvoza tirqishidan mo‘raladim. Kampir Hamidning bo‘yniga osilganча o‘tirardi... ostonada...





XAYRIDDIN SULTONOV

«YO, JAMSHID!»

Hikoya

«Rabbim!» de, Mariyal!»

Valentin Rasputin

Birinchi bo‘lib Islomboy keldi.

U chirog‘i charaqlab turgan oynaband, sirkor ayvonda ust-boshidagi qorni qoqish bahonasida to‘xtab, o‘rtadagi uyga derazadan razm soldi: onasi g‘isht pechka oldida taxmonga tikilib o‘tiribdi, O‘rinboy ustarada yaltiratib qirilgan boshini siypagancha yonboshlab yotibdi. Burchakdagi qatorasiga solingan o‘rinda to‘rt bolaning boshi ko‘rinadi.

«Xayriyat!»

Islomboy negadir yengil tortdi.

— Voy-bo‘y, yomon isib ketibdi-ku, — dedi u ichkari kirgan zahoti.

O‘rinboy shoshib o‘rnidan turdi, o‘ng qo‘lini ko‘rishishga uzatarkan, chap qo‘li bilan xontaxta ustidagi do‘ppisini olib boshiga qo‘ndirdi:

— Yo‘g‘-e, uy sovuq-ku.

Shilpiq ko‘zlari olazarak javdiragan kampir poygakka tiz cho‘kib, pichirlab fotiha o‘qigan bo‘ldi.

— Xush kepsan, — dedi O‘rinboy.

U Islomboydan besh yosh kichik, ammo akasini yoshlikdan sensirab chaqirar edi.

— Qalay, tinchmisan? — deb qo‘ydi Islomboy ham mulozamat taqozosiga ko‘ra.

— Shukr.

— Eson-omonmisan? — deb so‘radi kampir.— O‘takang ham yorilib ketgandir, bemahalda...

— Tinchlikmi? Endi yotuvdim, Samar borib qoldi.

Onasi burishiq barmoqlari bilan jigarrang ko‘ylagining etagini tekislab o‘tirarkan, indamadi. Daf‘atan og‘ir jimlik cho‘kdi. G‘isht pechka ustidagi ko‘k choygum asta shig‘illay boshladi. Dam o‘tmay bu hasratli xonish Islomboyning g‘ashiga tegdi.

Eshik ochilib, boshini iyagi aralash sholro‘mol bilan tang‘igan Anzirat — O‘rinboyning xotini ko‘rindi.

— Keling, aka, — dedi Anzirat Islomboyga qarab, bo‘g‘iq tovush bilan.

Islomboy joyidan xiyol qo‘zg‘aldi:

— E, kelin, tinch-omonmisan?

Kelini sezilar-sezilmas bosh irg‘adi. Islomboy uning salqi qovoqlari shishib, ko‘zlari qizarganini payqadi.

«E, battol! Xotini bilan yana it-mushuk bo‘pti shekilli! Bu og‘iroyoq narsa bo‘lsa... Hah, eshak!»

— Qalay, yaxshi o‘tiribsanmi? Bola-chaqa? — dedi u kelinidan hol so‘rab.

Anzirat javob qilmay, qora baxmal nimchasining barini torta-torta qaynonasining yoniga cho‘kdi, burnini tortib yerga tikildi va uvvos solib yig‘lab yubordi.

Islomboy shoshib qoldi:

— Iya, hay?

Kelinidan javob bo‘lmagach, avval rang-quti o‘chib, ko‘zida yosh g‘iltillagan onasiga, keyin esa peshanasi tirisha boshlagan ukasiga qaradi: — Ha?

Endi kampir ham piq-piq yig‘lashga tushdi. Islomboy chidayolmay baqirib berdi:

— E, tildan qoldinglarmi, nima balo?!

O‘rinboy shipga tikilib g‘alati iljaydi, burnining uchini qayta-

qayta chimdib, yo‘talga ham, kulgiga ham o‘xshagan bir ovoz chiqardi, yig‘i bosilavermagach, chaqchayib o‘shqirdi:

— Hovliqma, hovliqma, menga aza ochishga hovliqmaling hali!

Qaynona-kelin bu gapdan keyin battar o‘krab yubordi.

— Nima bo‘ldi, axir?!

Anzirat ko‘pchigan yuzlarini kaftining orqasi bilan artadi, yig‘i aralash piqillab:

— Ukangiz... ukangiz... — dedi-da, yana boshini burkab yig‘lashga tushdi.

— Astag‘firullo! Meni shu yig‘ixonlikka chaqirdinglarmi, oyi?

Kampir darhol obidiydani bas qildi, o‘g‘liga vahima bilan tikilib, xuddi shunday vahima bilan shivirladi:

— Uyimiz kuydi, bolam! O‘rinboying yutqazib qo‘yibdi!

Islomboy bu gapdan ham ko‘ra onasining vahimali tovushidan qo‘rqib ketdi, ancha vaqt miyasiga jo‘yali bir fikr kelmay, choygumning shig‘illashiga quloq solib o‘tirdi, nihoyat, ukasiga qaramay:

— Qancha? — deb so‘radi.

O‘rinboy xontaxta ustidagi non ushoqlarini jimjilog‘i bilan nari-beri surarkan, beo‘xshov kulimsirashga urinib:

— Ko‘p, — dedi.

Islomboy yetmish ikki tomiri bo‘ylab miyasiga yugurgan bor g‘azab, bor nafrati tiliga kelib to‘planganini sezdi, o‘zini qandoq bosib turganiga o‘zi ham hayron qolib, ovozi deyarli o‘zgarmay so‘radi:

— «Ko‘p»niyam bir son-sanog‘i bordir, axir?

O‘rinboy indamadi.

Islomboy besh daqiqadan so‘ng toqati-toq bo‘lib:

— Gapir, itvachcha! — dedi.

Ukasi ilkis boshini ko‘tardi, manglayidagi chiziqlar chuqur tortib, xo‘mraydi. Anchadan keyin o‘ziga-o‘zi gapirgandek dedi:

— Kofir bo‘lma, onang oldingda o‘tiribdi, itga ro‘para qilgani uyal.

Kampir bir oqarib, bir qizardi, yelkalari qunishdi.

Islomboyning jag'i qaltiradi:

— Kofir bo'lmasam, battar bo'lmaymanmi, senga nima, dayus! Sening bu qilmishlaringga odam kofir tugul, chulchut bo'lib ketar!

Uning dag'dag'asiga burchakda yotgan bolalardan biri sachrab uyg'ondi, uyquli ko'zlarini yirib ochganicha anqayib qoldi.

— To'ng'izning terisi nima-yu sen ablahning beting nima?! Yozda: «Bu b...ni ikkinchi og'zimga olsam, yigit o'lay», deb tavba-tazarru qilganlaring esingdan chiqdimi, qasamxo'r! — Islomboy joni jahoni o'rtab baqirarkan, ikki chakkasiga burov solingandek, boshida og'riq qo'zg'alganini sezdi. — Bu kuningdan qasam urib o'lganing yaxshi emasmi, xunasa!

Anzirat qaynag'asining vajohatini ko'rib yig'idan to'xtadi, olazarak ko'zlari bilan goh eriga, goh qaynonasiga qarar va beto'xtov burnini tortar edi. O'rinboy boshini solintirib o'tirgan ko'yi vaziyatini o'zgartirmay, sekin do'ng'illadi:

— Ko'p ham shoshma, o'ligimni ko'rishga juda orzumand bo'lsang, ertalab niyatingga yetasan!

Islomboy bu gapning ma'nosini o'ylab o'tirmay, battar shovqin soldi:

— E, dard-e! O'laman, deb qo'rqitmoqchimisan meni? O'lmasang o'mbaloq osh-a! E, o'lsang ham kuysam shunchalik kuyaman-da, jonimga o't qo'yvording-ku!

Kampir qo'rqqanidan o'midan turib ketdi, ro'moli yelkasiga sirg'alib tushganini ham payqamay, boshini sarak-sarak qilib titrab-qaqshab yalindi:

— Hay, o'zingni bos! Jon bolam, o'zingni bos! Qo'ni-qo'shni eshitadi-ya! Bemahalda... Islomboy onasini g'azabga oldi:

— E, butun yurt-u olam eshitsin-a! Bilsin, bu kasofatingizni! «Birov bilmasin, birov bilmasin», deb, «O'rinboyjon-O'rinboyjon» qilib, mana, oqibati, hammamizni kafangado qilib o'tiribdi!

— Qandog' qilay... — deya kampir yig'lamsiradi. — Qandoq qilay, bolam? Ko'zimning oq-u qorasi O'rinboy og'amning o'rmini bosar, deb O'rinboy ot qo'yuvdim. Beva boshim bilan yemay

yedirdim, kiymay kiydirdim, shu ikkita norasidamni boshi egilmasin, deb it ko'rmagan kunlarni ko'rdim. Mayli, meni har qancha urib-so'ksang roziman, lekin shu qoqvoshni qarq'ama. Og'amning arvohi chirqiraydi-ya! Girmonning o'qiga uchganmi, tirikmi, xudo biladi. «O'rinboying o'lsin», deysan, men bunga qandoq chiday? Xudo o'zi insof bermasa, men qandoq qilay?

Kampir zor-zor yig'ladi. Islomboyning o'pkasi to'ldi, peshanasini qashigan bo'lib, ko'zyoshlarini artidi. Choygum hamon cho'zib hushtak chalar edi.

O'rinboy birdan darg'azab ko'zlarini akasiga qadadi:

— Nega menga hokimlik qilasan? O'ynagan — men, yutqazgan — men, to'laydigan — men, senga nima keti-kuydilik?! Aka bo'lsang, akaligingda tur! Menga agar sariq chaqang o'tgan bo'lsa, hammasini hisobli, ha!

— Hoy, hoy, qaqshamagur, akaga shunaqa deydimi?

— Qo'ying... — deb pichirladi Anzirat ko'zlarini katta ochib.

— Mayli, gapirib olsin. — Islomboy bor kuchini to'plab, bazo'r jilmaydi. — Ichidagi fisqi fasodini to'ksin-chi, qani! Mayli, biz endi keti-kuydi bo'lib qolgan bo'lsak, sariq chaqa bo'lib qolgan bo'lsak... mayli, xudo bordir, ko'rib turgandir, axir. Eshigimga necha martalab ko'zining siydigini oqizib borganini o'zi bilmasa, xudo bilar, xudoga soldim! «To'ydirganning bo'g'ziga...» deb shuni aytadi-da!

Xudoning nomi o'rtağa sukunat soldi. Choygum biqirlab qaynay boshladi.

— Bunaqa ta'na-malomatni qo'ylaring, — dedi kampir anchadan keyin. — Gapni kavlasa, gap chiqadi. Qozilashgan qarindosh bo'lmas. Aylantirib kelganda ikkitasan, bir-biringdan tonolmaysan, biringni tepkingni biring ko'tarasan-da, qandoq qilasan?

Anzirat o'rimdan turib, qaynab-toshayotgan choygumni chetga surib qo'ydi.

— Sen kattasan, shu ukangga ota o'rmiga otasan, — deya kampir Islomboyga yalinchoq ohangda qaradi. — Buning past-baland gaplariga xafa bo'lma. Sendan boshqa kimi bor, axir?

Nima qilamiz endi, bir yo‘l-yo‘riq ber. Ertalabga obormasa bo‘lmas ekan.

Islomboy siyrak, qizg‘in mo‘ylovining uchini qimtib, o‘yga cho‘mdi: «Koshki yaxshilikni bilsa bu ablah!».

— Oyi, juda qiziq gapirasiz-da, — dedi u norozi chimirilib.
— Axir, ko‘rib turibsiz-ku, buningiz pista po‘choqcha ko‘rmayotibdi-ku aka jonivorni! Bir og‘iz gapirsangiz osmonga sapchiydi! Ko‘ppakka o‘xshab odamning betidan oladi! Bundoq yotig‘i bilan arz hol qilsa, maslahat so‘rasa ekanki, bir yo‘l-yo‘riq aytsangiz. «Qancha?» — deb so‘rasam, menga qarab ishshayadi.

Kampir O‘rinboyning hurpayib olganini ko‘rib, muqarrar dahanaki jangning oldini olishga shoshildi:

— Mayli, bolam, sen og‘ir bo‘l, jahl kelganda aql ketar...

— Ho‘y, menga qara, qancha axir?! — dedi Islomboy bo‘g‘ilib.

O‘rinboy akasining gavdasiga sinchiklab razm soldi, tomoq qirdi va ikki barmog‘ini ko‘rsatdi.

— Qancha buning?

— Yigirma ming.

Islomboyning qulog‘i shang‘illab ketdi:

— Eski pulgami?

Ukasi kulgisini yashirishga urinib iljaydi:

— Eski pul qolganmi shu zamonda? Islomboy O‘rinboydan ko‘z uzolmay qoldi. Ukasining naqadar dahshatli ahvolga tushganini birdan yaqqol angladi va uning nochor, asabiy kulgisini ko‘rib, yuragida shafqat uyg‘ondi, lekin zum o‘tmay vujudiga qahr-g‘azab yopirildi: «Battar bo‘lsin!»

To‘rt juft ko‘z Islomboyga qadalgan edi. U ukasining quloqchakkasiga quloch-kashlab tortib yuborish istagida o‘rtanardi, lekin, negadir, to‘satdan ezilib shivirladi:

— Shunchalik ham bo‘ladimi, uka!

Jimlik cho‘kdi. Pechkada nimadir chirs etdi.

— Amakilaring bilan ammangni aytib kelsinmi? — dedi kampir Islomboyga.

— Nima karomat qilib berardi o‘shalaringiz? — dedi O‘rinboy xo‘mrayib. Ammo onasi unga e‘tibor bermadi.

— Qaydam, bemahalda... — dedi Islomboy chaynalib, moyil bir ohangda.

— Tur, Samar, g‘izillab Salomat amming bilan Orif amakingni chaqirib kel. — Kampir pechkaga suyanib o‘tirgan naynov nevarasiga qarab, keskin ohangda buyurdi.

— Yo‘ldan Zarif buvangni ham ayt. «Tez borarkansiz», de. Qo‘rqmaysanmi?

Samar, qor urib turgan zim-ziyo ko‘chada yolg‘iz yurishdan qo‘rqsa hamki, uydagi motamsaro ahvoldan ko‘ra tashqarini afzal bilib, indamay chiqib ketdi.

Hamma o‘y surib qoldi.

Islomboy ukasining qanday qilib bu bebosh yo‘lga kirib ketgani haqida bosh qotirardi. Lekin xayoli beixtiyor ukasining boshiga tushgan bu ulkan falokat, bu ulkan falokatning dahshatli oqibati va undan o‘ziga yetadigan zarar-zahmat to‘g‘risidagi fikrlardan nari ketmasdi.

O‘rinboy hanuz hayron edi: avvaliga ustma-ust qo‘li kelib turgan edi, oshdan oldin ham dov urdi, keyin nima kasofat bo‘ldiyu... Umrida bunday katta o‘yinni ko‘rmagan edi...

Kampirning mushtday yuzi yana ham kichrayib ketgan, chakagini ushlab mum tishlagandek o‘tirar, aft-angoridan nimani o‘ylayotganini bilib bo‘lmas edi.

Anziratning yuragini tag‘in vahima changalladi. Qayerdadir qulog‘iga chalingan gaplar esiga tushdi: agar yutqazgan odam pulni to‘layolmasa, xotinini olib borib berarkan. Uning ich-ichidan titroq yig‘i xuruj qilib kela boshladi: «Sho‘rim qurib...»

Islomboy kallasidan noxush o‘ylarni sidirib tashlamoqchidek, jahl bilan peshanasini siypaladi.

— Endi nima qilmoqchisan?

— Endi... Kim biladi deysan... hovlini sotsammikan, deb turibman.

— Nima-a?!

— Ha? Boshqa iloji yo‘q. Ertalab hovliga savdo kiradi. Soat o‘nga obormasam, meni o‘ldi deyaverlaring.

Kelin qaynonaga, qaynona kelinga yalt etib qaradi va bir-birining ko‘zidagi qo‘rquvni ko‘rib, har ikkisi Islomboyga najot bilan mo‘ltirab, yig‘iga hozirlandi. Islomboy kaftlarini mushtlaganча qizil yakandozga tayanib:

— Xo‘sh? — deya ukasini ta‘qibga oldi.

— Nima «xo‘sh»? — O‘rinboyga bu savol nihoyatda malol keldi.

— Keyin-chi?

— Nima «keyin»?

— E, buncha talmovsiraysan?! Yo bira to‘la es-hushingdan ham ayrilganmisan? Xo‘p, uyniyam sotarsan, keyin nima qilasan, deyaрман? Qish chillada bir etak churvaqang bilan qayerga sig‘asan?

O‘rinboy akasining jahlidan qolishmaydigan bir g‘azab bilan javob qildi:

— Yuraging chiqmasin, haliyam senikiga bormayman, qo‘rqma.

— Mana shu-da! — Islomboy qarsillatib xontaxtaga urdi.

— Ham g‘arlik, ham peshgirlik, degani shu-da! Qilar ishni qilib qo‘yib, nega yana o‘rkachlaysan, muttaham!

— Muttahamlik qilib birovning xotinini qo‘yniga kirganim yo‘q, bildingmi!

Islomboy sezilar-sezilmas qizardi. Bu — uning faqat ukasigina biladigan yoshlik gunohiga zaharolud sha‘ma edi. O‘zini o‘nglab biror nima degunicha bo‘lmay, ayvonda odam sharpasi ko‘rindi, zum o‘tmay, ellik besh-oltmish yoshlardagi semiz ayol eshikdan harsillab-gursillab kirib keldi. Islomboyning so‘zi bo‘g‘zida qoldi.

— Uh, o‘ldim! Namuncha jahannam uylaring! — deb ayol boshidagi tivit ro‘molini yechdi.

— Keling, amma, — dedi Anzirat shosha-pisha o‘rnidan turarkan.

Salom-alikdan so‘ng Salomat xontaxta ustidagi choynakni olib jo‘mragidan simirdi.

— Xalqumim qoq bo‘lib ketdi-ya! — dedi sochini tuzatib.
— Shu bugun Dalamahallaga

ikki marta borib kelibman-a! Anuv qorang o‘chgur Toji gumbazda ozgina duxobam bor edi, qora terga tushib borsam, «quda chaqiriq»qa ketib qolibdi, pes!

— Yotuvdingizmi, amma? Bezovta bo‘lib... — dedi Islomboy.

— Xudo urdi-ketdi, namozshomdan yotamanmi? Ertaga bozor-ku, olib chiqadigan ul-bullarimni ko‘rib o‘tiruvdim, Samar borib qoldi. Ha, tinchlikmi, ishqilib?

Hoy, Anzirat, qatig‘ing bo‘lsa, yarim piyola olib kel, ko‘nglim gumurib o‘layotibdi.

Ayvonda «quv-quv» yo‘tal tovushi eshitildi. Soqol-mo‘ylovi tekis kuzalgan, bir-biriga nihoyatda o‘xshagan ikkita chol eshikdan boshlashib kirdi:

— Assalomu alaykum.

Yuzlari qizarib ketgan Samar anchadan keyin kirib, eshikni yopdi.

Bir piyola choy ichilgach, kampir yig‘lamsirab voqeani bayon qildi. Chollar indamay tinglasharkan, qovoqlari uyilib borardi. Salomatning surma tortilgan ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketdi.

— Voy, yashshamagur! — dedi soniga shapatilab. — Bir qop pul-a, uvoli tutmaydimi, juvonmarg?!

Amakilarning kichigi — Zarif nayza cho‘ntagidan nosqovog‘ini olib nos otdi-da, uzoq sukutga cho‘mdi. To‘tiburun Orif baqiroq esa salmoqlab so‘z boshladi:

— Jiyani, mendan xoh xafa bo‘l, xoh xafa bo‘lma, lekin, mana, hammangning oldingda aytaman, bu ishing qip-qizil ahmoqlik! Shu la‘natini o‘ynamasang, xotining taloq tushadimi, a?

Anzirat tokchadan kosa olib, tashqariga chiqdi.

— Shunisiga kuyib ketaman-da, amaki! — dedi Islomboy uh tortib. — Nimasiga o‘ynaydi bu badbaxt! Nima baraka topasan shuni o‘ynab, deng!

— O‘zing o‘ynamaganingdan keyin qayoqdan bilasan,— dedi O‘rinboy sekin.

— Falokating o‘zingdan beri kelmasin-e, nega o‘ynar ekanman!
— deb guvrandi Islomboy.

Zarif nayza namatning chetini qayirib, og‘zidagi nosni tufladi.

— Endi nima qilmoqchisan?

Kampir ro‘molining uchi bilan ko‘zini artib:

— Uyni sotar emish, — dedi-da, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

Salomat bir gaz bo‘yi irg‘ib tushdi:

— Sotib bo‘pti! Sotib bo‘pti! Bekorginalarni aytibsan! Otabuvarimizdan qolgan bu hovli! Senga qimorga boy bergin, deb berib qo‘yganimiz yo‘q muni! Qayerdan topib to‘lasang, to‘layver, qani, hovliga tekkaningni ko‘ray-chi! Bir tiyinlik haqqing yo‘q, hovli onangning mahriga tushgan!

— O‘ligim shu hovlidan chiqsa, devdim, — dedi kampir pishillab, — qandoq qilay...

— E, akillayveradi-da, kennoyi! — dedi Salomat bobillab.

— Hovliga siz xo‘jayin. Sizga hech kim xo‘jayin emas!

— Buncha pulni qayerdan oladi?..

— Yutqazishni bilgan errayim to‘lashniyam o‘ylasin, sizga nima! E, sadqai ko‘z yoshingiz-a.

O‘rinboy Salomatga yeb qo‘ygudek o‘qraydi:

— Amma...

— Nima «amma»? Nima «amma»?! Ho‘, amming o‘lib, ammasiz qol!

O‘rinboyning dami ichiga tushib ketdi.

— Rostdan ham, hovli — onangning mahri, — dedi Orif baqiroq. — Otang rahmatlining vasiyati shundoq bo‘lgan edi. Endi, tag‘in bilmadim...

— Voy, nega bilmaysiz? — dedi Salomat akasini g‘azablab.

— Nega bilmaysiz? Ota rozi — Ollo rozimi, axir?

— Bunaqa bekorchi gapdan foyda yo‘q, — dedi Zarif nayza.

— Har balo bo‘lgandayam, shu yomon jivan — jigarimiz. Ho‘kizning shoxiga ursang, tuyog‘i zirqiraydi. Hozir buni har qancha so‘kib-so‘zlagandan tariqcha naf yo‘q. Qani, nima qilamiz, shundan gapiringlar. To‘g‘rimi, kennoyi?

Tashvish va g'am-koyishdan esini yo'qotayozgan kampir:

— Qandoq qilay, shu ko'rgiliklar ham bor ekan,— dedi.

Churq etmay o'tirgan Anzirat birdan tilga kirdi:

— Xudo xayringlarni bersin... Sizlardan boshqa kimimiz bor? Kafangado bo'lib ko'chada qolmaylik, bir narsa qilinglar...

— Qirqqa kirding, uka, qirqqa! — dedi Orif baqiroq uvishib qolgan oyog'ini uqalab. — Yerdan qor ketgandan qor tushguncha tuproq tirnab dunyo orttirsang-u, nahot, oborib daryoga oqizsang!

— E, aka, — dedi Zarif nayza, — bu gaplardan foyda yo'q dedim-ku. Bo'ladigan ishni aytinglar. Bu sho'rlikning hozir ming joyiga pichoq ursangiz, bir tomchi qon chiqmaydi-yu, nima qilamiz hadeb ezg'ilyaverib? Nima deysan, Islomboy?

Islomboy pechkaga qarab, tomoq qirdi.

— Nima derdim... Menga qolsa, hovlini sotishiga qarshiman.

— Voy, hovlini og'zingga olmalaring, dedim-ku! — deb baqirdi Salomat. — Ota-buvalarimning arvohi... hovlidan umidlaringni uzlaring, dedim-ku!

— Ha, xo'p, ana hovliga savdo kirdiyam, deylik, — dedi Zarif nayza. — Xo'sh, chamangda qanchaga oladi?

Salomat akasiga olayib qaragan edi, Zarif nayza:

— Joning chiqmay tursin, misolga aytyapman,— dedi. Islomboy o'ylab-o'ylab:

— O'n beshtaga olar, — dedi.

— Olmaydi o'n beshtaga! — Zarif nayza og'ir qo'zg'alib qo'ydi. — O'n ikkitaga olsayam katta gap. O'tkan juma To'ra cho'tirning hayhotdek hovlisi o'n to'rttaga savdo bo'ldi-yu!

Orif baqiroq ham ukasining fikrini ma'qulladi. Amakilarining bu borada omilkor, puxta kishilar ekanini bilgani uchun Islomboy indamay qoldi.

— Xo'sh, hovling o'n ikkitaga borsin, — dedi Zarif nayza endi O'rinboyga qarab. — Qolganini nima qilasan? Ul-buling bormi?

O‘rinboy, qilmishining butun dahshatini endi tushungandek, rangi quv o‘chib, amakisiga betlab qarayolmadi, ne mashaqqat bilan bosh chayqadi.

— Ha, unda... Sen nima deysan, Salomat?

Salomat labini burdi:

— Ukam oshiq otayotganda menga maslahat solgan emas! O‘zi pishirgan osh, o‘zi aylanib-o‘rgilib ichaversin!

— Xo‘p. Shoshma, ko‘p qaqshama. Erta bir gap bo‘lib qolsa, achinmaysanmi?

— Qanaqa gap? — deya Salomat siyrak kipriklarini pipiratdi.

— Endi-da... shu pulni vaqtida obormasa, jiyaning sog‘ qolmaydi, shuni bilasanmi?

Salomat akasiga qarab baqraydi.

— Ha? Nega ko‘zingni lo‘q qilasan?

— Voy, xudo asrasin, nega achinmayman, jigarim...

— Xo‘sh...

Islomboyning tanglayigacha muzlab ketdi: «Yo‘g‘-e, o‘lmas... o‘ldirmas...»

Anzirat ho‘ngillab yig‘lagancha uyni boshiga ko‘tardi, unga avval kampir, keyin Salomat qo‘shildi, hamma O‘rinboyni go‘yo oxirgi marta ko‘rayotgandek, mung‘ayib qarab qoldi.

Shu vaqtgacha atrofidagilarga yovqarash qilib o‘tirgan O‘rinboy o‘yining mudhish qonuniyatlarini esladi shekilli, birdan ko‘ziga yosh oldi.

— Ho‘y, azani to‘xtatinglar, — dedi Zarif nayza hamon xotirjam ohangda. — Bemahaldagi yig‘iyam bexosiyat bo‘ladi. Aka, nima qilsak ekan, o‘zingiz bir narsa deng.

Orif baqiroq ko‘k sallasini orqaga surib:

— Endi... O‘rinboy ming yomon bo‘lgani bilan o‘rtada akamizning arvohi bor, — dedi. — Ertami-indin, axir boramiz akamizning oldiga... Mayli endi, yorilgan bosh — yorilgan, qiyin bo‘lsa ham, og‘irchilikning ozrog‘ini olamizda bo‘ynimizga, qolib ketmas, axir.

Uy jimjit bo‘lib qoldi,

— Odamlar savob uchun ko‘prik soladi, yetim boqadi...

— E, buni sekinroq aytasizmi, aka, — deya uning gapini ma'qulladi Zarif nayza. — Kecha namozda domla aytdi: umr bo'yi boshi sajdaga tegmagan bir yigit bor ekan. Shu bir kuni ko'chadan o'tib ketayotib mundoq yoniga qarasa, bir devorning teshigidan ichkarida zino qilayotgan erkak bilan ayol ko'rinib qolibdi. Shartta qo'liga bitta kesak bilan bir changal loy olib, teshikni suwab tashlabdi. Shu yigit keyin o'lganda jannati bo'lgan ekan, Sababki, birovning aybini bekitgan ekan.

— Albatta, xudoyimning dargohi keng.

— Lekin zino qilgan, birovning haqini yegan, qimor o'ynagan odam do'zaxi bo'lar ekan, — dedi Zarif nayza pisanda bilan. — Mayli, mana, axir, ko'plashib... Lokin, men bitta gapni ochiq aytaman: O'rinboy shu qilg'ini tashlaydigan bo'lsa, mayli, qo'ldan kelgancha qarashib yuborarmiz. Illo-billo, yo'q, deydigan bo'lsa...

— Tashlaydi, o'ziyam tavbasiga tayangandir.

— O'g'il-qizi bo'y yetib qoldi, shularning tashvishini qilsin...

Islomboy ni qora vahm bosdi: «Men nima deyman?»

— Nega indamaysan? — dedi u O'rinboyga o'qrayib.

O'rinboy muntazir nigohlarga dosh berolmay, yana yerga qaradi.

— Jon bolam, qilmayman, de, rostini ayt, — deb yalindi kampir. — Tashladim de.

— Mayli, tashladim... — dedi O'rinboy xuddi yosh boladek va battar xo'rliqi kelib, boshi yerga tekkudek egildi.

Qarindoshlar bir-birlariga ma'noli qarab olishdi.

— Xo'sh, bo'lmasa, gapiring, aka, — dedi Zarif nayza.

Orif baqiroq chakagini qashib qo'ydi:

— Endi... Men hali uyga borib Akbar bilan ham maslahat qilay-chi. Nima bor, nima yo'q, o'zim tuzuk ham bilmayman.

— Mayli, axir, qurbingiz yetgancha-da, aka, himmatingiz.

— Xayrli ishga qancha himmat qilsang ham ozku, lekin... Hay, mayli, uyoq-buyoqni qoqishtirib uch ming amallab berarmiz.

Islomboy amakisiga qarab angraydi.

— Xo'p, aka, uch ming... Bu, hammamiznikiyam qarz, O'rinboy shu falokatlardan eson-omon qutulib olsa, yeb ketmaydi,

albatta. Xo'sh, men... Yozda uzumning pulidan bir yarim ming qolgan edi, sakson kilocha toza mayizim bor, xo'sh, uning ustidan ham bitta-yarimtadan ikki ming ko'tarib tursam bo'ladi. Juma vavaqdayam ming so'mim bor, bultur olgan, ertaga so'rattiraman. — Zarif nayza hisob-kitobini yakunlab, atrofga sinovchan qarab qo'ydi. — Xo'sh-sh... Salomat, sen nima deysan?

Salomat etagidagi non ushoqlarini kaftiga qoqib oldi.

— Jahlim chiqib, shundoq kofirligim tutuvdi-ku... Bu sho'rtumshuqning ko'z yoshini ko'rib, yuragim o'lgur tag'in ezilib ketdi. Har balo bo'lsayam, hovli sotilmasin. Bir etak bola-ya!

— Hovlini qo'yaver, naqd gapni gapir.

— Naqd gap ham o'lsin... Endi, ochig'i, yo'q emas, xudoga shukr, uch-to'rt tangam bor. Nasiba bola ko'rsa, beshikto'yi qilarman deb tugib yuruvdim. Qolgani o'limlik bo'lar, desam, bu yashshamagur kuyov Nasibaniyam yo'ldan uribdi, er-xotin kunora kelib: «Moshina olib berasiz», deb hiqillaydi. Bitta-yu bitta qiz, tinib-tinchib ketishini o'ylab... Ukamning boshiga mundoq ish tushib turganda, moshinaga balo bormi! Oxir-oqibati bari bir kuyov-da, kuyov — yov, o'g'il bo'larmidi menga!

— Ha, yasha! — Orif baqiroqqa bu gap g'oyat xush yoqdi.

— Ha, jigar — jigar, digar — digar! Mayli, besh ming so'm meni tanimdan, azonda opkelib beraman!

— Xudo xayringizki bersin, amma, imonboyi bo'ling, — dedi Anzirat va yana yig'i boshladi.

— Ho'y, ho'ngillamay tur! — dedi Zarif nayza uni jerkib.

— Xo'sh, yetti yarim mingu besh ming — o'n ikki ming. Xo'p! qani, Islomboy?

Islomboyning badaniga titroq kirdi:

— Menga oldin bir narsani hal qilib beringlar, amaki, — dedi u. — Qani, aka-ukachilik shunaqa bo'ladimi? Men aka bo'lib buni na tergay olmasam, na nasihat qilolmasam... Bir og'iz gapirsam, itdan battar behurmat qilib tashlasa... Men tag'in...

— Diydiyongni qo'y, — dedi Zarif nayza. — Aka-uka

keyin surishib ketaverasanlar. Alam ustida har balo bo'ladi, shunga tirtayib o'tiribsanmi? Qani, qancha berolasan, shundan gapir?

Islomboy bor kuch-quvvatini to'plab:

— Meni to'rt tangayam beroladigan qudratim yo'q, — dedi.

— Nima?

Salomat qo'lini paxsa qilib chaqchaydi:

— Xudo urdi-ketdi, uyat-e! Shunchalik o'lar joydamisan!

Kimsan usta Islomboy, qadaming pul-a!

Islomboy ammasiga qaramasdan ming'illadi:

— Hamma sizga o'xshab chayqovning o'rdagimi, amma!

— Voy, ta'na qilmang, Islomboyvachcha! G'arlik uyat, o'g'rilik uyat, tirikchilik ayb emas!

— Hoy, qaqillayverasanmi hadeb! — deya mojaroni kesdi Zarif nayza. — Xo'sh, Islomboy, rostdan ham qurbing kelmaydimi? Yo'q, ochig'ini aytaver, axir, birovdan o'tganini birov qayoqdan biladi!

— Qurbim yetmaydi, amaki, — dedi Islomboy ovozi ma'yuslanib. — Qurbim yetsa, nahot, jigarimdan ayasam? Xabaringiz bor, kichkina qizimni fotiha qilib qo'yganman. Qudam hech holonimga qo'ymayotibdi. «Ko'klam chiqsin», desam ham ko'nmayotibdi. Qiz uzatishning o'zi bo'lmasa...

— Hoy, betavfiq, miyangni yeganmisan? Ukaningni so'yib ketay deb turibdi-ku, to'yingni gapirasan-a, toshmeh! — Salomat yana bobillab gapga aralashdi. — Qizing biron yil sabr qilib turar, ersirab ketmas juda!

— Og'zingizga qarab gapiring, amma! — Islomboy ko'zlari olayib, Salomatga dahanini cho'zdi. — Og'zingizga qarab gapiring!

— Ha? Og'zinga nima qipti?

— Qo'y, aylanay, tur, uyingga ket, — dedi kampir Islomboyning yengidan changallab. — Xudo xayringni bersin uyingga bora qol.

— Haydayapsizmi? Haydayapsanlarmi? — deya vahshat soldi Islomboy. — Bunaqa ekan, nega chaqirib keluvdilaring?!

— Hech kim seni haydayotgani yo'q, uka, — dedi Orif baqiroq jerkib.

— Yo‘q, Islomboy, xafa bo‘lma, amming ming qilsayam, bari bir ayol, ayolligiga boradi, — dedi Zarif nayza. — Qurbing yetmasa, nima qilamiz, mayli, o‘zing bilasan. Zorimiz bor-u, zo‘rimiz yo‘q.

Bu gap so‘nggi tomchi bo‘lib, Islomboyning to‘lgan sabr kosasini toshirib yubordi.

— Amaki! — deya vishillagandek g‘alati ovoz chiqardi u. — Nega meni qiynayverasiz, amaki?! Nega mundoq holi kunimni so‘ramasdan, hammangiz har tarafdin talayverasiz? Birortangiz bilmaysiz, ko‘rgan kunim itnikidan battar, axir! Mana, ukam bir kechada yigirma ming boy berib kepti. Yigirma ming! Yoshim qirq beshga chiqdi, lekin shu paytgacha xotinimdan beso‘roq bir so‘m sarf qilolmayman, bilasizlarmi shuni?! Shu paytgacha buni inson zotiga aytgan emasman! Men ukamga bugun bir so‘m opkelib beray — ertaga uyimda qiyomat!

Og‘ir sukunat cho‘kdi. Allaqaysi bo‘g‘ot tagida mov mushuklar yurakni tatalagudek yoqimsiz uvilladi.

— Bu savdo har kimning uyida bor, uka, — dedi Orif baqiroq.

— Kelinning bunchaligini... yopiray, hech sezmagin edik-ku, — dedi Zarif nayza.

«Xotiningni sotib bo‘lsa ham qutulding-a, eh, rasvo!» deb o‘yladi O‘rinboy.

Salomat esa tap tortmay dilidagini tiliga chiqardi:

— Hali shu ahvolda erkakman, deb do‘ppi kiyib yuribman, degin? Xotindan xarob bo‘lib yurgan ekansan, ro‘mol o‘rab qo‘ya qolgin edi birato‘lasi!

— Amma, — dedi Islomboy og‘riq zarbidan tishini tishiga bosib. — Oltmishga kirdingizmi? Dunyoga tovuqfahm bilan kelib, tovuqfahm bilan ketar ekansiz-da! Hadeb menga pisqon uchirguncha, suyak jiyaningizga bir og‘iz nasihat qilsangiz bo‘lmaydimi? Shu xunasa qimor o‘ynamasa, bu g‘avg‘olar yo‘q edi.

Salomat birdan ko‘pirib-toshib shovqin soldi:

— O‘ynagan bo‘lsa, ajab qipti! Xo‘p qipti! Buniyam erkak o‘ynaydi, qani, xotin o‘ynab ko‘rsin-chi!

Islomboy qaltirab oʻrnidan turib ketdi, koʻz oʻngi qorongʻilashib, ammasining ustiga bostirib bordi.

— Amma! — dedi hirqirab. — Yo siz keting, yo men ketaman! Xudo haqqi, keting, koʻzimga koʻrinmang, bir balo qilib qoʻymasimdan!

— Voy, xudoyim-ey! — deya qahqaha urdi Salomat. — Ruxsor chillashirga kuching yetmagan, menga yoʻl boʻlsin!

Islomboy qattiq soʻkindi, eshikni siltab ocharkan, qarsillatib peshanasini urib oldi.

— Chiqmalaring! — dedi Salomat uning orqasidan qoʻzgʻalgan kampir bilan Anziratga. — Qorasi oʻchsin!

— Bekor qilding, — dedi Orif baqiroq sekin.

— E, battar boʻlsin! Xudo urdi-ketdi, bir qorindan tushgan jigar-a! Mayli, hech tashvish qilma, akang boʻlmasa, mana, men — amming bor! Yetsa — molim, yetmasa — jonim! E, yigʻlamang, kennoyi, sadqai koʻz yoshingiz-a! Oʻlimliksiz qolsam ham mayli, yurtu el toʻrt gaz kafan topib koʻmar. Ertaga siz oʻlsangiz: «Voy, onam», deyishgayam yaramas ekan bu toshbagʻir! Aka, qancha yetmayotuvdi?.. Boʻpti, ertalab men uydan olib beraman! Voy, aka boʻlmay goʻrga borgur, toʻngʻizdan toʻq-a!

«Hijja-reja» ertalabgacha davom etdi.

Ertalab koʻzlari qizargan Oʻrinboy uyidan sudralib chiqdida, toʻgʻri kechagi joyga yoʻl oldi. Qor tingan, quyosh yiltiraydi.

U shaxdam borib tanish eshikni ochdi. Kechasi bilan yana oʻyin boʻlgan shekilli, xona tamaki va aroq isiga toʻlgan edi.

Toʻrda yagʻrindor bir kishi maykachan boʻlib koʻk duxoba bolishga yonboshlab yotar, dasturxon yonida ikkita yigit mastava ichib oʻtirar edi.

— Hormanglar-r! — dedi Oʻrinboy imkoni boricha oʻzini bepisand tutishga urinib.

— E, keldingizmi? — dedi maykachan kishi shiftdan koʻz uzmay. Xiyoldan soʻng yonboshiga agʻdarilib, iljaydi. — Yaxshi yotib turdingizmi?

— Mana, olib qo‘ying, — dedi O‘rinboy va qo‘ynidan qora ro‘molga o‘ralgan tugunchak chiqarib, ko‘rpachaga tashladi. Mastava ichayotgan yigitlar unga qarab qolishdi.

— E! — deb qo‘ydi maykachan kishi hamon iljayib.—
Shunaqa bo‘luvdimi?

— Shunaqa bo‘luvdi, — dedi O‘rinboy g‘ijiniib.

Uning oldiga bir kosa mastava surib qo‘yishdi. Ro‘parasida o‘tirgan xoldor yigit piyolaga aroq to‘ldirib uzatdi. O‘rinboy indamay simirib, bir parrak sho‘r bodring tishladi.

— Shu pulni judayam olgim kelmayapti-da, — dedi maykachan kishi yag‘rinini ko‘tarib. — Menga qarang, bir ish qilsak-chi: yana bir ko‘rmaysizmi? Tole-da, «Ol, qulim!» deb yuborsa, tamom-vassalom. Hech narsa ko‘rmagandek bo‘lasiz-qo‘yasiz. A?

— Hammasigami? — deb so‘radi xoldor yigit.

— Bo‘lmasa-chi! A!

O‘rinboy bu gapni bema‘ni hazil deb bilgan bo‘lsa-da, zada yuragiga titroq tushdi.

«Yo‘q, yo‘q, yo‘q! Xudo saqlasin!»

...Qasos, lazzatli qasos tuyg‘usi uning yurak-bag‘rini o‘rtab borardi.

Qani endi, hozir, shu lahza, shu daqiqa qo‘lida dasta-dasta pul bo‘lsa-yu to‘g‘ri akasining uyiga bostirib borsa, qo‘ynidan dasta-dasta pul olib oldiga tashlasa, bo‘zraygan yuziga dasta-dasta pul bilan bir tushirib: «Pul topiladi!» desa-yu jismi jahonini yondirayotgan alangai otashdan qutulsa!

Qasos, lazzatli qasos!..

Birdan u o‘zini idora qilolmay qoldi: qo‘llari bo‘ysunmay olg‘a cho‘zildi, qaynoq qon vijir-vijir to‘lqin urib, tomirlari bo‘ylab yugura ketdi.

Oshiqni kaftiga olib mahkam changalladi, nafasini ichiga yutib, ko‘zlarini chirt yumdi:

— Yo, Jamshid!





SHOYIM BO‘TAYEV

HISOMIDDIN AL-YOG‘IY

Tarixiy hikoya

Qish chillasi oyoqlandi.

Sovuq zabtiga oldi.

Masjid ayvonida tirik jon ko‘rinmasdi, uzoq-yovuqdan oqib kelishgan namozxonlar o‘zlarini ichkariga olishgan.

Besh-olti yuz namozxonni bemalol sig‘dira oladigan bu binoni har biriga duradgorlar tomonidan oylab ishlov berilgan o‘n ikki yog‘och ustun o‘z kiftida tutib turardi.


Bu ustunlarda o‘n ikki mamlakatning san‘atini, urf-udumini ko‘rish, didini payqash mumkin edi. O‘n ikki mamlakatdan kelishgan ustalar o‘zlarining bor hunarlarini yog‘ochlarga muhrlagandilar. Endi ular oddiy yog‘och emas, balki masjidning ko‘rkiga ko‘rk, salobatiga salobat bag‘ishlab turgan yuksak san‘at namunalari edi.

Juma namozi bo‘lgani uchun masjidda odam tirband; ular bir-birlariga ozor va xalaqit bermaslikka urinib, namozning boshlanishini betoqat kutar edilar.

Mehrob oldida darveshlar darveshi, shayxlar shayxi Hisomiddin al-Yog‘iy sukut saqlab turardi.

Egnida janda qabo, boshida rangi o‘ngib ketgan kalonsuvo.

Bunday kiyim-bosh masjidning hashami, ayrim namozxonlarning zarbof to‘nlariga muqoyasan qaralganda judayam bechorahollik alomati bo‘lib tuyulardi.



Bundan tashqari, shuncha odamning ana shu bechoraholday ko‘ringan keksa shayxning og‘ziga tikilgancha, ilhaq turishida ham qandaydir ilohiylik mujassam edi.

Yetmishlardan oshgan shayxning oppoq soqolli yuzida, nur chaqnagan ko‘zining qarashlarida, ozg‘in yelkalarini adl tutishida masjidni fayoziyob etadigan, namozxonlar safini jiplashtirib-bog‘lab turadigan allanarsalar mavjud edi.

Namoz boshlanishiga sanoqli daqiqalar qoldi.

Namozxonlar bezovtalana-tashvishlana boshladilar.

Ularning nigohlarida, endi nima bo‘larkin, deganga o‘xshash so‘roq soylari izg‘ib yurishardi.

Endi nima bo‘larkin?

Bu savol bejiz emasdi.

Gap shundaki, hamon ulug‘ sulton Alouddin Tarmashirindan darak yo‘q edi.

Xitoy, Hindiston, Iroq podsholiklari va o‘zbek mulki orasidan musti mustahkam o‘rin olgan Movarounnahr sultoni Alouddin Tarmashirin qo‘shinining hisobsizligi-yu yovqurligi, sarhadlarining

poyonsizligi-yu ilkidagi zaminning jannatmakonligi, ahli raiyatning farovonligi-yu ular orasida adolatni qaror toptirganligi tufayli yengilmas va qudratli deb nom olgan edi. Shu bois, nainki chegaralari tutash mamlakatlarga, balki, uzoq-uzoqlarga — ummon osha, tog‘lar osha dong‘i ketgan edi.

Necha yildirki, sulton juma namozini shu masjidida o‘qiydi.

Sultonning xos mahrami bir oz avvalroq namoz o‘qiladigan gilamchani mehrob yonidagi maqsura¹ga to‘shab ketar; shundan so‘ng mahramlari, akobirlari, shotirlari qurshovida sulton yetib kelar, gilamcha ustiga cho‘kkalar, u bilan birga kelganlar yon-atrofidan, ortidan joy olishardi.

Bugun esa...

Hali gilamcha ko‘targan mahram ham ko‘rinmadi.

Nima bo‘ldiykin?

Bu hol Hisomiddin al-Yog‘iyga qanday ta‘sir qilarkin?

Keksa shayxning nigohida qilt etgan o‘zgarish sezilmasdi.

U faqat namozni boshlash tadorigini ko‘rar, teran ko‘zlarida bugungi va‘zini ko‘ngillarga chuqur joylay bilishini anglatuvchi ifodalar bor edi.

Og‘ir eshik g‘iyqillab ochildi.

Ichkariga sovuq havo yopirildi.

Eshikka orqa o‘girib o‘tirishgani uchun namozxonlar «guvv» etib yelkalari osha ortlariga o‘gilib qarashdi.

Namozxonlar bilan yuzma-yuz turgan shayx ko‘zining qirinigina tashlab qo‘ydi. Nainki eshikning ochilishi, balki qo‘porilib tushishi ham uni zarracha bezovta etolmasligi ayon bo‘ldi.

Eshikka yaqin o‘tirgan, ko‘rinishidan-da, kiyinishidan-da bu yerlikka o‘xshamagan o‘ttiz-o‘ttiz besh yoshlardagi o‘rta bo‘y, katta-katta ko‘zlaridan mug‘ombirlikka qorishiq aql porlab turgan kishi qalingina po‘stin kiyaniga qaramay, o‘zini sovuqdan chetga olayotgandek beixtiyor siljib qo‘ydi.

¹ *Maqsura* — mehrob yonida alohida ajratilgan o‘rin, davlat boshliqlari namoz o‘qigan.

Bu odam yurtma-yurt, sarhadma-sarhad kezib yurgan marokashlik sayyoh edi.

Uning yo'lga chiqqaniga o'n yillardan oshib ketdi.

E-he, bu vaqt ichida nimalarni ko'rmadi-yu!

Olim-u devona, boyyu faqir, dono-yu nodon, kamtar-u muttaham, pastkash-u olijanob, xasis-u saxiy zotlarning betinim oqimidan misli ummondek to'lqinlanib yotgan shaharlardan tortib tahqirlangan odamlari johillikka, yolg'on da'volarga, munkirlikka yuz tutganliklaridan yerparchin qilingan ellargacha u ko'rdi.

Odamzod misli hasharot, deya o'yladi.

Ammo, uni yuksaltirguvchi birgina narsa bor, deyishadi.

Nima o'sha narsa?

Sayyoh betinim qidiradi, qidiraveradi...

Oyog'i etgan notanish joylar uni hayratga soladi.

Bu hayrat yana qadam bosishga undaydi.

Axiyri, hayrati yetaklab kelgan joy shu bo'ldi.

Avval Shayx Hasan va Hisomiddin al-Yog'iy bilan tanishdi.

Sayyoh ularga otasining ham faqih bo'lganligini, o'zining ko'plab musulmon allomalarining va'zlarini tinglaganligini, hadislarni yod olganligini aytib, ba'zi masalalar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirgach, lahza ichida dunyoni bir necha marta kezib chiqa olgulik karomatga ega ikkala shayx marokashlik sayyoh ham olamni faqat oyoq bilan aylanib yurmaganini sirtidan bo'lmasada, ichdan tan olishdi.

Ular sayyohni sultonga yuzma-yuz qilishdi.

U haqda gapirib berishdi.

Sulton unga iltifot ko'rsatib, kulimsiradi:

— Xushmisan, yaxshimisan, qutlug' o'lsun, — dedi sof turkiy tilda.

Sayyohni sulton iltifotidan ham ko'ra u so'zlamish tilning jozibasi, ulug'vorligi-yu tantiligi lol etdi.

Sulton aytgan so'zlarni yodlab oldi.

Taqlid qilayotganini o'ylab ham o'tirmay, kim bilan ko'rishsada, shu so'zlarni aytdi:

— Xushmisan, yaxshimisan, qutlug‘ o‘lsun!

Bu tilga mehr uyg‘ondi sayyohda.

Ko‘proq turib, ko‘proq so‘z o‘rganish harakatida bo‘ldi.

Sayyoh hamisha shu masjidga kelib namoz o‘qir, ayniqsa, Hisomiddin al-Yog‘iyning namozdan keyingi va‘zlarini berilib tinglardi.

Bugun sayyoh masjidga kirib kelganida odam liq to‘la edi.

Shu bois, joyi poygakda bo‘lib qoldi.

Hisomiddin al-Yog‘iy masjidida hech kimga siz uyoqqa o‘ting, siz buyoqqa o‘ting, deb aytmasdi.

Ostonada chopar paydo bo‘ldi.

U boshiga mo‘g‘ulcha qalpoq bostirgan, egnidagi mo‘g‘ulcha po‘stinning juni joni bor jonivornikiday hurpayib turardi.

Chopar yelka osha o‘ziga tikilgan yuzlab nigohlardan bir zum talmovsiranib qoldi. Tikilmagan, kimsan, deya qaramagan bir nigoh-da uni hayajonga soldi.

U o‘zga sayyoradan kelib qolgandek edi.

Naq sultonning o‘zidan chopar bo‘lib kelganligi yodiga tushgach, dadillashdi.

Mehrobgacha olib borgulik yo‘l qidirdi.

Yo‘l topmadi.

Namozxonlar-da o‘rinlaridan turib, unga yo‘l berishmadi.

Shayx hamon miq etmay turardi.

Axiyri chopar sukunatni buzishga jur‘at etdi:

— Sizga xabar keltirdim!

Shayxning o‘ktam tovushi masjid gumbazlarida aks-sado berdi:

— Ne xabar ekan?

— Sizning o‘zingizga aytish buyurilgan.

Namozxonlar talmovsiranishdi.

Shayxning qonsiz lablarida istehzoli tabassum o‘ynadi.

U ozg‘in qo‘llarini oldinga cho‘zib, quchog‘ini ochdi, namozxonlarni bag‘riga bosmoqchi bo‘lgandek bir harakat-la:

— Bularning bari-da mening o‘zim! — dedi.

O‘tirganlar yengil xo‘rsinishdi.

Sayyoh zavqlanganidan bosh chayqab qo‘ydi.

Chopar nima qilarini bilmadi.

Shayx buyruq ohangida:

— Aytavering! — degach, chopar g‘oz turib, qog‘ozdan o‘qib berayotgandek e‘lon qildi:

— Sohibqironi a‘zam, ulug‘ hoqonimiz sulton Alouddin Tarmashirin hazrati oliylari bugungi namozi juma‘ga muhim davlat ishlari bilan ushlanib qolganliklari tufayli bir oz kechikib kelishlarini e‘lon qiladilar!

Olomon qalqidi!

Bu hech ko‘rilmagan hodisa edi!

Ayrim namozxonlar betoqat bo‘lishib, ichlarida, e, namozni boshlayveraylik-da, sultoni-mo‘ltoniga nima ishimiz bor, deya yengiltaklik bilan o‘ylashar, musulmonlikning bu farzini tezroq yumaloq-yostiqlik qilib, tezroq ko‘chaga chiqishga intilishardi.

Namozni boshlash vaqti yetgandi.

«Imomlikka o‘tgan Hisomiddin al-Yog‘iy noqulay ahvolda qoldi, — o‘ylardi sayyoh. — Hozir sultonni kutsa, namoz vaqti bo‘ldi, namozxonlar undan o‘pkalashadi, kutmasa sulton g‘azabi...»

Chopar ostonada shayxdan javob kutayotgandek qimir etmay turardi.

Shayx boshini ko‘tardi.

— Sohibqironi a‘zam, ulug‘ hoqonimiz sulton Alouddin Tarmashirin hazrati oliylariga chopar janoblari yetkazsinlarki, - deya hirqiroq tovushda, tantanali ravishda e‘lon qildi shayx Hisomiddin al-Yog‘iy, — vaqt shunday hakamdirki, uning qarshisida shoh*u gado barobardir. Biz uchun eng ulug‘i Allohimiz buyurganidir!

Chopar o‘zini chetga oldi. Uning yonida gilamcha ko‘targan xos mahram paydo bo‘ldi. Uyam chopar kabi mehrobgacha olib borgulik yo‘l qidirdi.

Gilamchani hamishagi joyiga — mehrob oldiga to‘shamoqchi edi.

Yo‘l topmadi.

Gilamchani ko'rsalar-da, namozxonlar o'rinlaridan turib, unga yo'l berishmadi.

Shundan so'ng mahram gilamchani qaytarib olib ketishni ham, ketmaslikni ham bilolmay picha sarosar turib qoldi. O'ylay-o'ylay bir qarorga keldi shekilli, gilamchani birgina bo'sh joyga — shundoqqina ostona ostiga, sayyoh yoniga ohista to'shab, ortga chekindi. Eshik yopildi.

Shayx imomlikka o'tdi.

Namoz boshlandi.

Oradan ancha vaqt o'tgach, eshik ochilib, sulton ostona hatladi.

Unga hech kim e'tibor bermadi.

Hamma o'z toat-ibodati bilan mashg'ul, o'qtin-o'qtin shayxning yelkalariga nazar tashlab qo'yishardi.

Janda qabonigina bazo'r ko'tarib turganday ko'ringan shayxning ozg'in yelkalarida kishini beixtiyor o'ziga jazm etuvchi, ko'zini olib qochuvchi allanarsalar bor edi. Unga iqtido qiluvchilar har doimgi namozdan keyin bir-birlariga ko'pincha:

— Imomimizning yelkalarida hamisha farishtalar o'tiradi-ya, kishini o'ziga qaratib olaveradi, — deyar edilar.

Sulton Alouddin Tarmashirin vaziyatni payqab, beixtiyor eshikni ohista yopdi.

O'zining gilamchasi ustiga cho'kkaladi.

Gilamchani uyoq-buyog'ini to'g'riladi.

Masjidning umumiy ruhi uni o'ziga singdirdi.

Buyukligi abas topdi.

Hoqonligi unut bo'ldi.

Shayxning o'ktam ovozi hammani yakdillikka chaqirardi:

— Allohu akbar!

Shu edi ulug' saodat:

— Allohu akbar!

Munavvarlik-da shu edi:

— Allohu akbar!

Yuksaklik-da shu edi:

— Allohu akbar!

Borliq-da shu edi:

— Allohu akbar!

Shu edi, shu edi, shu edi — yalakat bir vujud-da shu edi, yagona bir ovoz-da shu edi:

— Allohu akbar!

Sultonning ko'zlaridan beixtiyor yosh tirqiradi.

Sultonga ergashib kelishib, masjidga kira olishmagan, to'g'rirog'i, kirib o'tirishga joy topisholmagan a'yonlar tashqarida qolishdi.

Shu choqda ular hoqonning yodidan beixtiyor ko'tarilib ketishgandi. Ularning g'amini hamisha yeb, ustini butlab, qornini to'qlab kelgan sulton endi o'zining g'amini yemoqda edi.

O'z ruhining g'amini yemoqda edi!

A'yonlarga malol keldi bu: chunki, ular ruh-la dushman edilar, sulton o'z ruhining g'amini u esa, bizning badanimizni g'amini emay qo'yadi, deb o'ylar edilar; o'z badanlarini dunyoning hukmdori deb bilar edilar.

Ularning badanlarida hamma a'zolar mujassam edi — yurak bor edi, miya bor edi, qorin-da juda-juda bor edi; faqat, ruh yo'q edi, ruh yo'q edi — egasi tashlab ketgan tashlandiq hovliday huvillashib yotishardi.

Namoz davom etardi.

Ahyon-ahyonda shayxning shirali ovozi masjid gumbazlari aro taralar, bu ovoz har yetgan yeridan nur sachratayotgandek bo'lardi.

Tashqarida qolishgan sulton a'yonlaridan sovuq o'ta boshladi. Ular kaftlariga «kuh-kuh»lashib, namozning tezroq tamom bo'lishini kutishardi.

Eshikni qiya ochib qarashgayam yuraklari dov bermasdi, chunki eshikning takkinasida naq sultonning o'zi o'tirardi.

A'yonlar bir-birlariga bunday kuchli sovuq ancha yillardan buyon bo'lmaganini gapirishardi, holbuki, yaqinginada bundanda beshbattar sovuqlar bo'lib o'tgan, issiqqina o'rduda may ichib,

et yeb, suyak chaynab, sohibqironi a'zamni sharaflab, ko'klarga ko'tarish bilan ovora bo'lib qolishgan a'yonlar-u sovuqlarni payqashmagandi.

Namoz tugadi.

A'yonlar qalt-qalt titrashlarini zo'r-bazo'r bosib, sultonning chiqishi tadorigini ko'rib turishganda, shayx Hisomiddin al-Yog'iy va'z boshlab yubordi.

A'yonlar yana qaltiray boshlashdi.

Hisomiddin al-Yog'iyning va'zi qisqa bo'ldi.

— O'zlarining vaqtinchalik kuch va mansablarini suiste'mol etib, shulardan foydalanib, xalqqa jabr-zulm o'tkazuvchilar, albatta, qiyomatda emas, bu hayotning o'zida ham javob beradilar, — deya so'z boshladi Hisomiddin al-Yog'iy sokin tovushda. — Ular o'zlarini xalqqa yaxshilik va mehr-muruvvatda bo'lganday ko'rsatarlar yoinki haqiqatan ham o'zlarining qanday ahvolda, ravish-raftorda ekanliklarini bilmaslaridan xalqqa yaxshilik qilib, mehr-muruvvat ko'rsatayman, deb astoydil ishonarlarki, bu ularning so'qirliklari belgisidir, shu tufayli orttirgan gunohlari yana chandon ortadi. Tilidan bolu qo'lidan qon oqqan zolimlar bu dunyoning eng jirkanch maxluqlaridir, — shayxning keskir so'zlari, o'ktam tovushi hammaning boshini xam qilgan, hamma ham o'zining qanaqa odam ekanligini o'ylab o'tirar, ayniqsa, sulton Alouddin Tarmashirin ko'zlaridan oqayotgan yoshlarni yashirishga ham urinmasdi.

Shayxning so'zlari beozor edi.

Boisi, u hech kimga barmoq nuqib, ey sen, deb aytib-ko'rsatmayotgandi.

Shayxning so'zlari keskir edi.

Boisi, uning so'zlarida hammaga ham tegishli nimalardir bor edi.

Masjidga yig'ilganlarning asosiy qismini mamlakatni qo'lda ushlab turishgan boyonlar, mulkdorlar, sulton o'rdusiga yaqin kishilar tashkil etishgan edi.

Shayx barchaga bir-bir ko'zgu tutmoqda edi.

Haqiqiy qiyofani alayno-oshkor qo'rsata oladigan ko'zgu tutmoqda edi u.

Vijdonga ko'zgu tutmoqda edi.

Ko'zguda kir-chirlar, xas-xashaklar, chang-to'zonlar aks etmoqda edi, xolos; shu bois, barchaning boshi xam edi, qo'zi yumuq edi.

Boshlari xam esa-da, ko'zlari yumuq esa-da, ko'zguni ko'rib turishardi.

Va'z tugadi.

Kimlarningdir ko'z o'ngidagi ko'zgu shu zahotiyuq yo'qoldi, kimlarningdir ko'z o'ngida abadul-abad qoldi.

Namozxonlar o'rinlaridan turishib, darhol o'rtadan yo'l ochishdi, sulton Alouddin Tarmashiringa ta'zimda bo'lishdi.

Sulton asta-sekin yurib, imomning oldiga keldi.

Jilmaydi.

Qo'l uzatdi.

Imom sultonga ko'z qirini tashlab qo'ydi-da, iltifot ko'rsatayotgandek qavima qaboning titilib ketgan yenglari orasidan ozg'in qo'lini cho'zdi.

Namozi juma intihosiga yetdi.

Sulton Alouddin Tarmashirinni namozxonlar ta'zim-la kuzatishdi.

Sulton xiyol ta'zimda bo'lib turgan sayyoh yonidan o'tayotib, unga jilmaydi. Sayyoh yana-da egildi.

Sulton ortidan namozxonlar ham birin-ketin tashqariga chiqishdi. Zum o'tmay ulkan bino bo'shadi. Mehrob oldida tik turgan shayx bilan poygakdagi sayyohdan va muazzindan bo'lak hech kim qolmadi.

Sayyohning bu yurtga kelganiga ellik kundan oshgan, safari qarimoqda edi. Kelganidan buyon shu masjidda namoz o'qib, shayx bilan bot-bot suhbatlar qurib turardi. Hisomiddin al-Yog'iyning salohiyati-yu quvvai hofizasi uni lol qoldirardi. Bu cholning bilmagan narsasi yo'q edi: koinotning barcha sir-sinoatidan

tortib, odam bolasining fe'l-atvorigacha unga ayon edi, shu bois, ulug' faqih nomini olgandi.

Sayyohning bugun o'zini juda munosib tutgan shayxga nisbatan mehri yanada tovlanib ketgandi.

Sayyoh hozirgina namozxonlar o'tirishgan namat ustidan shayxning oldiga yurib bordi.

— Havo sovub ketdi, — dedi sayyoh g'uvillab sovuq yopirilib turgan ochiq eshikka qarab olib.

— Ha, sovuq, — dedi shayx beparvo.

— To'ningizni qarang, ancha urinib qolibdiku, taqsir, — dedi sayyoh ko'zi bilan shayxning egnidagi ayrim joylariga yamoq tushgan qavima qaboga ishora qilib.

Shayx jilmaydi.

Jilmaya turib:

— O'g'lim, bu ham meniki emas, qizimnikidir, — dedi.

Sayyoh egnidagi po'stinni yechishga urinayotib:

— Marhamat qilib, mana shu po'stinimni olib kiysangiz, — deya taklif qildi.

— Yo'q-yo'q, urinma, o'g'lim, — shayx sayyohning qo'lidan ushlab po'stinni yechdirmadi.

— Sizga sovg'a deb...

— Rahmat, o'g'lim, rahmat, — dedi shayx minnatdor bo'lganday. — Men ellik yil muqaddam hech kimdan tuhfa olmayman deb Allohga qasam ichganman, mabodo, sovg'a olguday bo'lsam, albatta, sendan olgan bo'lardim.

Sayyoh ta'zim qildi.

Shayx qo'lini uning kiftiga qo'yib:

— Qaddingni ko'tar, o'g'lim, — dedi.

Sayyoh qad rostladi.

Uning rangi oqarib ketgandi.

Qo'lini ko'ksiga qo'yganicha tisarila-tisarila chiqib ketdi.

...Ertasi kuni sulton Alouddin Tarmashirin yana yo'lga otlanayotgan sayyoh sharafiga katta ziyofat berdi.

Ziyofat o'rduda bo'ldi.

Sultonning oʻrdusi chodirdan tiklangan boʻlsa-da, ichkarisi har qanday hashamatli saroydan qolishmasdi.

Toʻrdagi taxtda sulton yonboshlab oʻtirardi. Oyoq ostlariga, taxtning yon-atrofiga qoplonu yoʻlbarslarning terilari toʻshab tashlangandi. Taxtni qurshab olishgan xizmatkorlar sultonning har bir soʻziga ilhaq turishar, hozir-u, osmondagi oyni olib kelinglar, desa, shunga-da yugurib ketguday edilar.

Mamlakatning barcha akobirlari, nomi chiqqan ustunlari, olim-u fuzalolari, shoir-u maddohlari... qoʻyingki, saltanatni emib yotishgan jamiki koʻkaldoshlar bugun oʻrduga yigʻilishgandi. Saroy ahli, vazir-u vuzaro, amirlar — har kim oʻz mansabi-yu mavqeiga qarab joy egallagan edi.

Sayyohni sultonning chap yoniga oʻtqazishgandi.

Yigʻilganlar oldilariga qoʻyilgan tovoqlar va koʻzalarni birin-кетин boʻshatishar, ularning oʻrniga yangilari kelardi.

Sulton ularning barchasiga koʻz ostidan erinchoqlik bilan nazar tashlar, bu qarashidan oʻtirganlarning birortasiyam uni qiziqtir-masligi koʻrinib turardi.

Sultonning negadir kayfiyati yoʻq edi.

Kechagi masjiddagi voqea uni ancha-muncha mutaassir etgan boʻlsa-da, shohlik gʻururiga ham tegib ketgandi.

U bugun sayyoh bahonasida beriladigan ziyofatda shayx Hisomiddin al-Yogʻiyga oʻzining kimligini koʻrsatib ham qoʻymoqchi boʻlgandi.

Toʻgʻri, Hisomiddin al-Yogʻiy hech vaqt oʻrduga qadam bosgan emas.

Sultonning birortayam sovgʻasiga qiyo boqmagan.

Bordi-yu Alouddin Tarmashirinning saxiyligi tutib, butun mamlakatni hadya etmoqchi boʻlsayam, shayx mensimasligini yaxshi biladi.

Shayxning undan ustunligi shunda edi.

Shayxning sayyoh bilan aloqasi durustligidan sulton uning shu bahonada saroyga tashrif buyurishiga umid bogʻlagandi.

Biroq undan darak boʻlmadi.

Sulton chopar yubordi.

Chopar qaytib kelib, Alouddin Tarmashiringa shayxning javobini yetkazganda, sulton g'azabdan ko'karib ketdi.

Tevarak-atrofiga ilkis qirg'iy qarash qilib oldi.

Xayriyat, chopar yetkazgan gapni uning o'zidan boshqa hech kim, hattoki, yonida o'tirgan sayyoh ham eshitmagandi.

Hisomiddin al-Yog'iy choparga ziyofatga kelolmasligining sababini sultonga etkazishni buyurib, mana bunday degan edi:

— Podshohning ziyofati xos kishilar uchun harom. Uning qilayotgan xayru ehsonlari olomon uchundir, chunki olomon shunday narsalarga o'ch, shu tufayli uning barcha gunohlarini kechirib yuboraveradi. Lekin Alloh kechirmaydi, xos kishilar hamma vaqt itlar oldiga tashlanadigan suyakka ijirg'anib qaraydilar. Shu sababli, o'zlari faqir bo'lsalar-da, hech qachon hech kimga bosh egmaydilar. Sultonga yetkazingki, shu bois men o'rduga borolmayman, harom kiymayman, harom yemayman deb, ellik yil burun Allohga qasam ichgandirman.

Alouddin Tarmashirin nima qilarini bilmay qoldi.

Nima qilsin?

Janda qabosi-yu eski kalonsuvodan bo'lak boyligi bo'lmagan keksa shayxga qanday jazo loyiq ko'riladi?

Agar hozir u bir imo qilsa poyida bo'riday irillab turishgan yugurdaklari lahza ichida uning boshini ko'tarib kelishlari mumkin-ku!

Yo'q!

Sulton Alouddin Tarmashirin bunday qilmaydi.

Yetti iqlimga adolatpeshaligi, fuqaroparvarligi bilan dong'i ketgan sulton bunday qila olmaydi.

Alouddin Tarmashirin davraga xuddi begonalarga qaraganday og'ir-og'ir qaradi. Uning miyasiga fikrlar quyuni chaqmoqday urila boshladi.

«Mana bu ziyofatxo'rlik qilib o'tirishgan, o'z manfaatlari yo'lida hech qanday qabihlikdan qaytmaydigan, kichkinagina tuhfa uchun itdek tavon yalashga ham tayyor olchoqlardan jismi uvoqqina

chol naqadar yuksak, ulug‘, qudratli-ya, — deya o‘ylardi sulton Alouddin Tarmashirin. — Mening o‘zim-chi? Adolatli shoh emishman! Axir, ahli raiyatga solingan soliqlar-u fuqaroning peshana teri evaziga mana bu tekinxo‘rlarni boqib yotganim yolg‘onmi? Yo‘q, yo‘q: shayx to‘g‘ri so‘zlaydi, bundan-da achchiqroq so‘zlar aytsa-da, bari rost: biroq sultonlik martabamning bir tomoni nega, nima uchun to‘ng‘iz boqarlikka aylanib ketayotganini o‘zim ham anglolmay dog‘daman...»

Sultonning miyasida ko‘ngilni xira qiladigan bir-biridan qora fikrlar g‘ujg‘on o‘ynay boshladi. Qovoq-tumshug‘i osilib dov-u dunyosi qorong‘ilashdi.

Uning kayfiyati davradagilarga ham yuqdi, sekin-asta kavshanib, ayrimlari ovqatdan qo‘l uzdi.

Sayyoh ziyaraklik va ehtiyotkorlik bilan kuzatib o‘tirardi.

Sulton ixtiyorsiz ravishda oldidagi tovoqda turgan sergo‘sh taktakon ilikni oldi-da, keskin bir harakat-la pastga tomon uloqtirdi:

— Qani ushlanglar!

Pastdagilar esankirab-dovdirab qolishdi. Sulton uloqtirgan suyakning yerga tushishi uning kayfiyatini battar yomonlashuviga bahona bo‘lishi mumkinligini hamma yaxshi anglab turgan edi.

To‘rt-beshta amaldorlar gavgdalariga nomunosib holda chaqqonlik bilan harakat qildilar. Ular havolab kelayotgan suyakka qo‘llarini cho‘zganча, o‘zlarini otdilar. Suyak bitta edi, shu bois ularning biriga nasib etdi, lekin barchalari suyakka ega bo‘lgandek quvondilar, ulargina emas, davradagilarning barchasi qiyqirib yubordilar.

Suyakni tutib olgan amaldorni olqishlay ketdilar:

— Yashang, Burg‘ubek!

— Halolingiz bo‘lsin!

— Sultonimiz himmatlariga balli!

— Umrlari uzoq bo‘lsin!

— Dunyo turguncha tursinlar!

Shu tariqa davraga xushnudlik qaytgandek bo‘ldi.

Shovqin-suron, vag'ur-vug'ur yana avj oldi, dasturxondan qo'l uzganlar yana qo'l cho'zdilar.

Alouddin Tarmashirin chap qo'lini xiyol ko'tarib davrani tinchitdi. So'ngra ellik kundan ortiq mamlakatlarida turgan marokashlik sayyoh Shamsiddin Abu Abdulloh at-Tanjij sha'niga iliq so'zlar aytib, unga ikkita ot va ikkita tuya tuhfa qilganini bildirdi.

Sayyoh o'rnidan turib ta'zim qildi.

Davradagilar sultonni olqishladilar.

So'ngra sulton o'rnidan turib, suvsar mo'ynali oq po'stinni o'z qo'li bilan sayyohga kiygazdi.

Har tomondan har xil ovozlari qushlarday uchib keldilar:

— Qulluq bo'lsin!

— Buyursin!

— Sultonimizga ofarin!

— Qulluq sultonimizga, qulluq!

Sulton qo'li bilan ishora qilib, gala-gala ovozlarni ortlariga qaytarib yubordi, ular uchishga payt poylab, inlariga qaytib qo'nishdi.

Sulton Alouddin Tarmashirin sayyohga oq yo'l tilarkan, lablari chetida nimtabassum bilan shunday so'zlarni aytdi:

— Sizning oyog'ingiz hali dunyoning ko'p davlatlariga yetadi. Ular, albatta, biz haqimizda so'rashadi. Siz ularga bizning mamlakatimiz haqida so'zlayotganda u yerda o'z sultonining taklifini ham rad qila oladigan qudratli odamlar bor ekan, deb ayting. Ular u odamlarning qudrati nimada ekan, deb so'rashsa, halolliklari va tantiliklarida ekan, deb ayting. Shularni aytsangiz, bizning buyukligimiz va kuchimiz haqida xalqlarning o'zlari xulosa chiqarib olishaveradi.

Sulton Alouddin Tarmashirin taxtga cho'kib, ko'z ostidan o'rduga sochilgan odamlarni kuzatgancha yumshoq bolishga yonboshladi.

Sayyoh ta'zim qila-qila o'z joyini ishg'ol qildi.

O'rduda qiyqiriq, olqishlar avjiga chiqdi.

Nima uchun qiyqirib, nimani olqishlayotganliklarini fikr-yodlari ziyofatda bo'lgan bu sho'rliklarning o'zlari ham bilmasdilar. Sultonga yaxshi ko'rinish, uning kayfiyatini buzmaslik — ularning muddaolari shu, boshqasi bilan ishlari yo'q edi.

Ziyofat tonggacha davom etdi.

Sayyoh ziyofatdan turiboq yo'lga tushdi.

Uning xayolini serto'lqin ummonlar, noma'lum shaharlar-u mamlakatlar bezovta qilgani qilgan edi.

Haqiqatan ham, bu tinib-tinchimas odamning oyog'i dunyoning eng chekka sarhadlarigacha yetib bordi.

Qayerda bo'lmasin, o'sha ko'rganlarini bot-bot eslab, roviylardek rivoyat qilib yurdi marokashlik sayyoh Ibn Battuta.







NAZAR ESHONQUL

MAYMUN YETAKLAGAN ODAM

Hikoya

Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi: u ko'chaning muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o'rindiqda chuqur o'yg'a tolgan holda ko'rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi tarix kitoblarida tasvirlangan badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortardi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda — go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygandek, hech narsaning qizig'i qolmagandek menga e'tiborsiz bir ko'z tashlad-ida, so'ng yana o'sha holatida yerga qarab o'tiraverdi.

Bir necha kundan so'ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo'lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo'lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Keyinchalik cholni tez-tez o'sha kitelida go'yo necha qadam umri qolganini o'lchab yurgandek og'ir qadamlar bilan uyiga yoki ko'cha boshidagi oziq-ovqatlar do'koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla

oshxonasida ovqatni titrab-qaqshab yeb o'tirganini, qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qolardim. Zaharli, odamni bo'g'ib, holsiz qilib qo'yadigan bu adovat menga o'shanda uning butun tanasidan, vujudidan, qoqshol bo'lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakzor ichidagi tilsimli qo'rg'on kabi menga noma'lum bo'lgan umr qal'asidan ufurayotgandek tuyulgandi. Uni ko'rsam, negadir yuragim g'ash tortadigan, ko'nglim behuzur bo'ladigan, kayfiyatim buziladigan bo'lib qolgandi, vaholanki, hali u bilan salom-alikdan nariga o'tmagandik. Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay, odamlarga kibr aralash dimog'-firog' bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go'yo o'zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o'tgandek tutardi. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qoldi.

Cholning sovuq yuzini esladim-u istihola qildim; biroq yo'q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursida o'tirgancha oldidagi suratromga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo'yi saqlab kelgan bo'lsa kerak, degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko'nglim ayniguday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim. Chol menga e'tibor ham bermadi, ajabsinib bir qarab qo'ydi-yu, o'z ishini davom ettiraverdi; u qandaydir bo'yog'i ko'p surat chizayotgan edi. Nariroqda turgan kichkina xontaxtani keltirib cholning oldiga qo'ydim: u shunda ham e'tibor bermadi: u o'ziga ovqat keltirib berishlariga ko'nikib qolgan edi, shekilli. Shunda uning qo'llari qaltirab, bo'yoqlarni chaplab yuborayotganini sezib qoldim. Cholning oldiga ovqatni ham qo'yganimdan so'ng, u chizishdan to'xtab, xontaxtaga o'girildi

va bo‘yoqli qo‘llari bilan nonni bemalol sindirdi, og‘ziga tutdi; yorilib qolgan lablari orasidan chirigan ko‘m-ko‘k tishlari ko‘rindi. Shunda men yana uning qandaydir badjahl ma‘budning haykaliga juda o‘xshab ketishini sezdim. U bu yerdaligimni ham unutganday, xurillatib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og‘zining ikki chetidan lag‘monning suyug‘i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt-qalt titrar, bo‘yinlarida tirishib qolgan tomirlar yutinganda bo‘rtib, ko‘karib ketar, ko‘zlari horg‘in yoshlanib turar, har dam — har damda qansharini o‘ng qo‘li bilan qashirdi. Bu unga odat edi, chog‘i — qanshari turli bo‘yoqlarga belanib qolgandi. Qo‘llari qoshiqni madorsizlik bilan ko‘tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro‘dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.

— Suratlarigizni ko‘rsam bo‘ladimi? Yigirmanchi yillardagi suratlarigizni, — deb so‘radim undan shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o‘ziga buning aloqasi yo‘qday, go‘yo bir uyum axlatni ko‘rsatayotganday, ijrg‘anib, qo‘li bilan ayvonning to‘rini ko‘rsatdi.

— Hammasi tartib bilan terib qo‘yilgan, u tomondan boshlanadi, — dedi hirqiroq, tovushda. Uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to‘riga qarab yo‘l oldim.

Cholning yigirmanchi yillardagi suratlarini shu ko‘chadagi bir-ikkita san‘atdan xabardor kishilar maqtashgandi; muzeyda ishlaydigan o‘rtog‘im ham cholning suratlari ko‘rgazmaga qo‘yilganini aytgandi. Chol yigirmanchi yillarda komsomol bo‘lgan va bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishda faol ishtirok etgan, deyishgandi.

Yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko‘targan; o‘ttizinchi yillarda mas‘ul vazifalarda ishlagan, deb hikoya qilishardi. U o‘sha amalida toki iste‘foga chiqarib yuborishgunlaricha uzoq yillar ishlagan ekan. Ko‘chadagilar uning o‘sha davr faoliyatini mish-mishlar bilan qo‘shib-chatib hikoya

qilishardi. Chol ishdan ketgach, mana shu eski uyga qamalib olgan, hech kimga qo‘shilmaydi, bir vaqtlar o‘zi ozor bergan kishilarni ko‘rgisi kelmaydi, deyishardi. Cholning xotini elliginchi yillarning oxirida o‘lib ketgan, faqat istarasi o‘zinikidan ham sovuq yolg‘iz o‘g‘li bor edi. O‘g‘li avvallari kisavur bo‘lgan, keyin qotillik qilgani uchun qamalib ketgan, endi esa qimorning orqasidan kun ko‘rar ekan. U juda jizzaki yigit edi.

Uni ikki marta ko‘chada ko‘rgandim. Aytishlaricha, u, shaharning chekkasida bir beva bilan yashar va oyda-yilda otasiga bir ko‘rinish berar, shunda ham har doim janjal bilan jo‘nab ketar edi. U cholning oldiga ko‘pincha birdan-bir maqsad bilan — pul so‘rab kelar, agar topib bermasa, g‘avg‘o ko‘tarar, hatto ikki marta otasini urib ketgan, deb aytishardi. Ko‘plar «cholning puli bor, lekin hech kimga, hatto o‘g‘liga ham ravo ko‘rmaydi, juda xasis», deyishardi. Kim biladi, o‘g‘li ham otasi haqida shunday o‘ylasa kerak; u otasini zarracha hurmat qilmasdi. Uning ovozini ko‘chadan o‘tib borayotib eshitib qolgandim. «Hech narsani bilmayman, — deb baqirardi u qandaydir qirindi tovushda, — agar topib bermasangiz, sizga qo‘shib uyga ham o‘t qo‘yaman». So‘ng taraqa-turuqlar, ihrashlar, cholning nimadir deb so‘kingani eshitildi. Kechqurun uy bekasi o‘g‘li cholni yana urib ketganini aytgandi.

Cholning ayvoni — unga ustaxona vazifasini o‘tasa kerak — oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo‘ysa bo‘ladigan, keng go‘sha edi. Cholning yigirmanchi yillardagi suratiga juda qiziqardim, umuman, cholga qarab turib qiziqishim yana ham ortgandi. Bu yerda har xil keraksiz ashqol-dashqol — sun‘iy gullar, tuvaklar, turli bo‘yoqlar, sarg‘ayib ketgan kitoblar, olov ko‘tarib borayotgan bola tasvirlangan haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to‘rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko‘ra besamar o‘tgan umrni eslatadigan besarishta qaznoqqa o‘xshab ketardi. Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘rirog‘i, bor-yo‘g‘i qirqqa yaqin surat va eskizlar «1957»,

«1947», «1937», «1928», «1926» va hokazo tartibda terib qo'yilgandi. Suratlarini oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo'rg'on tomon ko'tarilib borayotgandek his etdim o'zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo'yilgan suratning tagiga «1921» sanasi yozib qo'yilgan edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo'lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo'lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg'ish va javdari bo'yoq yigitning ko'nglidagi hissiyotni to'la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda cholning qo'li ancha kelishib, bo'yoqlar tiniq, o'z o'rmini topgan, tabiat manzaralari tobora go'zallashib borardi, ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarq'alar kabi suratlar qandaydir mavhumlik — qora rang yopirilib kirgandi. Qora bo'yoqning suratdan suratga ortib borishi meni hayratga soldi: mavhumlik tasvirda ham, bo'yoqda ham sezilardi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o'rmini qora ranglar olayotganining guvohi bo'ldim. O'ttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarini qora rang butkul qoplab olgandi. Suratlar bilan birga sizning ko'nglingizga ham mavhum bir tuyg'u yopirilib kirardi.

Chol suratlarini palapartish chizgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim o'shanda, chunki cholning mas'ul xizmat davri mana shu yillarga to'g'ri kelardi. Men suratlariga qarab turib, ularning maqsad-u maslaksiz chizilganini his qildim. Faqat birinchi suratdagi yigitning ko'zidagi qat'iyat va ishonch beixtiyor har qanday kishini o'ziga rom qilib qo'yardi, siz ham mana shu yigit izidan nomsiz, isyonkor safarga otlanginiz, vahimali, zim-ziyo o'rmondan xurofot hamda bid'atni yakson etajak ajdodlaringizni nur va kenglikka boshlab chiqib, hur qarashlar-u alg'ov-dalg'ov hayot qo'yniga

tashlagingiz kelib qolardi. Siz yigitning ko'ziga qarab tursangiz, uning tantana qilishiga ishonardingiz. Muzeydagi do'stim ham ana shunday hislarni boshidan kechirgan bo'lsa kerak, cholni rosa maqtagandi. Ana shu suratida chol o'zini qobiliyatli va istiqbolli rassom sifatida namoyon eta olgan edi. Agar cholning birinchi o'n yillikdagi suratlariga e'tibor bersangiz, sizni ham beixtiyor cholning navqironlik davridagidek ulug'vor kayfiyatlar chulg'ab olardi.

Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo'l chiqib ketmaslik uchun chizilgan bo'lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko'chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har xil qurollar, yig'layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo'rquvdan (xuddi «Pompeyaning so'nggi kuni» kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo'lsa kerak, deb o'ylagandim), bazm-u jamshid qilib o'tirgan shotirlar, yalang'och ayollar, ma'suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratleri aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yo maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi.

Bironta suratda ham aks ettirilgan manzaraga tushunmay, cholga qaradim. Chol ovqatini yeb bo'lgan va menga teskari o'tirgancha, matoga yana qo'ng'irroq tus berardi. U go'yo mening bu yerdaligimni unutmiganday edi. Cholning keyingi suratlarida bironta ham mukammal tasvirlangan odamni ko'rmadim. Hamma suratlar bo'yoqlarning mato yuziga chaplab tashlanganidan iborat edi. Bu suratlariga xos mavhumlikdan hayratga tushdim. Chunki bilishimcha, chol bularni eng yaxshi suratleri ichidan tanlab, terib qo'ygan edi. O'sha kuni men cholning mahalladoshlari maqtaganchalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko'rib, yana ham hafsalam pir bo'ldi. Bu suratlar menga umid qo'shinlari tashlab ketgan umrning tashlandiq

qarorgohlariga o'xshab tuyuldi. Endi uni shunchaki nomiga maqtashgan bo'lsa kerak, deb o'ylay boshladim.

Suratlardagi mavhumlik negadir yuragimni g'ash qilgandi. Biroq cholning hayoti bir paytlar bir kechada porillab ochilgan guldek to'siq bilmas shiddat bilan boshlanganini, so'ng bu shiddat hayotning mavhum irmoqlariga xuddi yoz yomg'iri jazirama sahroga singgani kabi qo'shilib ketgan, degan xulosaga keldim. Uning o'sha navqironlik davrini eslatadigan nigoh qontalash va shilpiqlanib qolgan bo'lsa ham, hali tiyraklik bilan tikiladigan ko'zlaridagina qolgan edi. Bu ko'zlar ham har qanday ishonch va umiddan mahrum edi.

Cholning yoniga qaytar ekanman, u chizayotgan suratga bir zum ko'z tashladim: ustiga chang tushmasin deb, doka yopib qo'ygan suratda odamning va qandaydir hayvonning oyoqlari tasvirini ko'rdim. Va bu hol meni bir oz hayratga soldi — polotnoda nihoyat ko'p yillardan keyin odam surati paydo bo'lgan edi. Surat hali chala edi. Munkayib qolgan chol surat qarshisida tiz cho'kib turganga o'xshardi, bo'yoqlar ham cholga zo'rg'a bo'ysunar, go'yo ular ham bu behuda va mavhum manzaralarni aks ettirishdan butkul charchaganday edi.

— Xo'sh, — dedi u mening idish-tovoqni yig'ishtira boshlaganimni ko'rib, — suratlar sizga yoqdimi?

Yelka qisdim va suratlarga tushunmaganimni aytdim. U charchaganidan milklariga yosh sizib chiqqan horg'in ko'zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da, keyin bosh silkidi.

— Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, — dedi g'amgin tusda, — har bosgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz.

U xuddi odamning ustidan kulayotganday yoki kinoya qilayotganday istehzo bilan gapirar, har bir so'zi asablarni zirqiratib, arralab o'tardi. Kim biladi, balki menga shunday tuyulgandir? Endi gap tamom deganday qo'liga mo'yqalam oldi. U men bilan boshqa gaplashgisi kelmayotgan, agar men bu yerda kechgacha qolsam ham uning biron og'iz gapirishi gumon edi. Idishni olib,

tezda chiqib ketdim. Chol menga qayrilib ham qaramadi. Uzoq, vaqtgacha uning gapini o‘zimcha mulohaza qilib yurdim.

Biroq menga nima uchun shunday deganiga hech tushuna olmadim. Cholning suratları ichida menga faqat maymun yetaklab borayotgan yigit surati yoqqan edi. To‘g‘ri, men tasviriy san‘at sohasida yomon muxlis edim, lekin yigitning ko‘zlaridagi ishonchdan hayajonga tushar va uning qat‘iyatli chehrasi tez-tez ko‘z oldimda namoyon bo‘lib turardi. qolgan suratları esa alog‘-chalog‘ esimda qolgandi. Ikki kunlardan so‘ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so‘ng yo‘l-yo‘lakay daraxtga bir zum qo‘nib o‘tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan butkul uchib ketdi.

Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o‘sha shilta hididan ko‘nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo‘lansa hidga ko‘nika boshlagan edim. Biz bu gal ancha suhbatlashib qoldik. qizig‘i shundaki, u juda savodli edi va shu vaqtgacha nimaiki qilgan bo‘lsa, hammasini bilib, anglab turib qilganga o‘xshardi. U Tisianni ham, Pikassoni ham, modernizmning hozirgi namoyandalarini ham, muzeydagi do‘stim maqtaydigan Jorj Brak va Umberto Bachanini ham bilar va ularning ijodidan juda yaxshi xabardor edi. Biroq biz o‘sha kuni u bilan mutlaqo boshqa narsalar haqida gaplashgandik. U hayotda nima yaxshilig-u nima yomonlik, hech qachon farqlab bo‘lmaydi, yaxshilik — ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo‘lib tuyuladi, mening umrimda anglagan xulosam shu, degandi.

— Yo‘q, — dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo‘lishi kerak degan ohangda gapirishidan g‘ashim kelib. — Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar. Yomonlik yaxshilik bo‘lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo‘lsa, u yomonlikdir, — dedim.

U hali yosh bola ekansan-ku, degandek dimog‘ aralash kuldi. So‘ng jiddiy tortib, nelarnidir eslaganday gapira boshladi:

— Men umr bo‘yi yomonlikka ham, ezgulikka ham teng xizmat qildim. Chunki nima ish qilsam, o‘sha ishim ikki qismga bo‘linar edi. Siz bilan tortishmoqchi emasman, faqat bitta misol keltirmoqchiman. Bir vaqtlar juda martabali bir do‘stim bo‘lardi, o‘zi sofdil edi-yu sal obro‘talab edi. U yigirma yetti yil amal kursisini hech kimga bermadi; usta odam edi. U nima qilardi, deng? Yuqoridan shuncha xomashyo ber, deb buyruq, kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo‘lmasdi, — biz ana shunday ruhda tarbiyalanganmiz, — uni bajarish kerak! Bajarish uchun butun korxonalar ishchilari o‘n to‘rt-o‘n olti soatdan ishlashlari kerak. Bu esa — bilasizki, rasman mumkin emas. To‘g‘rirog‘i, mumkinu, ya‘ni turli-tuman tashabbuslar tashkil qilib bajarsa bo‘ladi, biroq o‘n ikki oy bunday qilib bo‘lmaydi. Odam mashina emas. Bu minglab odamlarni mayib qilishi mumkin. Yo‘q desang, kursini topshiraver; boshqasi, albatta, shunday qiladi. Bitta sen halol bo‘lganing bilan hayot go‘zal bo‘lib qolmaydi. Shunda mening do‘stim eng maqbul yo‘lni tanlagan. Ta‘kidlayman, o‘zi juda sofdil, oqibatli odam edi. U hamma ishni bajarildi deb, qog‘ozga qo‘l qo‘yib beravergan. Boshqa korxonalarni ham bu ishga tortgan, ular «bizdan bu gina, sizdan u gina» deb yozib beraverishgan. Azbaroyi odamlarning taqdirini o‘ylab shunday qilgan. Do‘stim shu yo‘l bilan o‘zicha buyruqlar mustabidligiga qar-shi kurashgan.

Yigirma yetti yil odamlarni qog‘ozlar bilan himoya qilgan. Oxir-oqibatda uning ajali yetib o‘ldi. Keyin uning go‘riga tosh otish boshlandi; u himoya qilgan ming-minglab odamlar unga birinchi bo‘lib tosh otdilar — o‘rniga boshqani saylashdi, bu boshliq buyruqni qanday bo‘lsa, shunday bajarish uchun qo‘lidagi hamma narsadan foydalandi — hatto kuchdan ham. Daromad kamaygan, sadaqa so‘rash ko‘paygan, bora-bora odamlar oldingi boshliqni afsus bilan eslashgan, uning to‘g‘ri yo‘l tanlaganini anglashgan. Xo‘sh, ayting-chi, bu yerda nima yaxshilig-u nima yomonlik. Buni qanday farqlasa bo‘ladi. Biri odamlarni o‘ylab, qonunni suiste‘mol qildi, ikkinchisi qonunni o‘ylab, odamlarni xarob qildi. Men bu

yerda qaysi biri yomonlik, qaysi biri yaxshilik, hech farqlay olmayman. Umrin davomida ham buni farqlay olmadim.

— E'tiqod-chi? — dedim uning salmoq bilan gapirishidan achchiqlanib, to'g'risi uning dalillari meni bir oz dovdiratib qo'ydi; u o'z umri haqida juda ko'p o'ylagan edi, aftidan, shuning uchun qat'iyat va ishonch bilan gapirardi. — E'tiqodli odamlar, to'g'rirog'i, e'tiqodi mustahkam odamlar yaxshilik bilan yomonlikni juda teran anglaydilar, — dedim va gapimdagi balandparvozlikdan o'zim uyalib, to'xtab qoldim.

— E'tiqod! — dedi u g'ussali ohangda, — agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib, yonib-kuyib yashasangiz-u, bir kuni e'tiqod qo'yan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz, bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan, xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldir-shuldir, bo'm-bo'sh aravaga aylanardi. Siz esa bo'shliqni to'ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e'tiqod?! Men bu so'zni ishlatmay qo'yganimga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu so'z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko'nglim ayniydi.

U alam bilan xirillab to'xtab qoldi. Uning jahli chiqqan, negadir ko'ngli to'lib ketgandi, hozir biron narsa desam, jerkib tashlashi aniq edi. O'zining fikrini ma'qullamaganlarni yoqtirmasdi, aftidan. Uning butun umr yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay, javob topolmaganini o'zimcha tasavvur qilib, dahshatga tushdim, hatto uning o'sha kuni tushunmagan rasmlariga ham andak tushunganday bo'ldim; bu suratlar o'z-o'ziga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o'tkazgan odamning hayot haqidagi o'ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga yetgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu mavhumlik va yolg'izlikning quyuq o'rmoniga yashiringandi. O'zining o'tgan umriga mana shu yolg'izlik qo'ynidan turib nazar solmoqchi, o'z

umriga ham xulosalar yasamoqchi edi shekilli, uning gaplaridan bu sezilar, lekin, menimcha, o'ziga zarur xulosani hanuz topolmagandi. Uning yolg'iz hayoti menga chirigan daraxtning birdan emas, yilma-yil yemirilishidek mudhish bo'lib tuyulgandi. Aftidan, yolg'izlik uning so'nggi boshpanasiga aylangandi. Uning gaplarida odamning vujudini zaharlovchi nimadir bor edi. U bilan chorak soat gaplashib, o'zimni yomon his qila boshladim. Nimagaki ishonsam, chol hammasini chilparchin qilib tashlagan, meni ham o'zining ishonchsizligi bilan zaharlab ulgurgandi. O'sha kundan so'ng men ichimga kirib olgan cholning qiyofasidagi shaytonni vujudimdan quvib chiqarguncha, uzoq vaqt o'z ko'nglimni o'zim ko'tarib, faqat quvnoq hikoyalar o'qib yurdim.

Cholning oldiga boshqa qaytib chiqmadim, hovlidagi chirkinlik va shilta hididan, cholning qo'lansa gaplaridan hamon o'zimga kelolmayotgandim. Eslasam, ko'nglim aynir, birdan hamma narsaga qiziqishim yo'qolar edi. Uy bekasi haftada bir marta cholga ovqat kiritib turar, uning berilib qandaydir surat chizayotganini aytardi. U suratga tushunmasdi, shuningdek, cholni ham yomon ko'rar, lekin qarovsiz cholga butun ko'cha ovqat kiritib turgani uchun ulardan ayrilgisi kelmasdi. Umuman, beva ayollarda tabiiy shafqat hissi bo'ladi. Ularning ko'ngli yumshoq, tez ta'sirlanib, tez xafa bo'lishadi.

Men bora-bora cholning suratlari bilan ham, uning taqdiri bilan ham qiziqmay qo'ydim, o'sha payti Onettining hikoyalarini tarjima qilayotgandim. Chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu sharpa meni tinmay ta'qib qilardi. Ba'zan birinchi suratni eslab, xayollarga tolardim, xayollarim ham suratdagi yigitning ko'zlari kabi huzurli edi. Meni faqat chol chizayotgan so'nggi suratgina ozroq qiziqtirib turardi, chunki, sezishimcha, chol oxirgi suratini chizmoqda edi. Uni ba'zan yo'lda — oziq-ovqat do'koniga chiqib kelayotgan holatda ko'rib qolardim va kunma-kun hayot asari yo'qolayotgan yuz-ko'zlariga, o'z umri uchun ayanchli

xulosalar to'lib yotgan va uni masxara qilgandek ko'klam bilan birga tobora go'zallashib, yasharib borayotgan atrofidagi olamni ko'rmaslik uchun yerga yana ham ko'proq egilib qolgan qaddi-qomatiga qarab, shu mudhish fikrimga ishongim kelardi.

Butun qish davomida cholni ikki marta — darvoza yoniga kursi qo'yib, o'zini chuvoqqa toblab o'tirgan holda ko'rdim. Uy bekasi ko'p javraydigan ayol edi. U butun mahallani g'iybat qilib chiqar, so'ng yana cholni «taftish» qilardi. U chol haqida ijirg'anib gapirardi, lekin ovqat kirgizishni kanda qilmasdi: unga, ayniqsa, cholning mahalla-ko'ynikiga o'xshamagan odatlari yoqmasdi.

Bahorning boshlarida hordiq oyidan qaytib kelib, uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimga sovuq, shilimshiq narsa o'rmalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlarini keldi. «Uy hali qarovsiz, — dedi menga uy bekasi, — o'g'lini hech qayerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak».

Kechqurun cholning hovlisiga o'tdim. Hovli huvillab yotardi. Shilta hidi cholning o'zi bilan birga yo'qolgan, biroq chirkin hid hali gupillab dimog'ni kuydirardi. Suratlar bir chekkaga yig'ishtirib qo'yilgandi. Cholning so'nggi suratini izlay boshladim. Chol suratni chizib ulgurganmi, yo'qmi, meni juda qiziqtirardi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog'ozni yulib olib shoshapisha suratga tikildim. Ko'zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi — bu surat qirq yil ichida chizilgan mavhum suratlariga sira o'xshamas edi. Men rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o'rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu suratda maymun umidsiz, ko'zlariga g'am cho'kkan, yuz-ko'zida hayotdan nishona qolmagan, munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi.

Suratning shoshib chizilgani ko'rinib turardi. Ko'p joyiga bo'yoqlar nomiga chaplangan edi. Cholning o'zi ham umri oxirlashganini bilgan va shuning uchun shoshgandi. Rasmning

orqa fonidagi ranglar me'yoriga yetmagandi. Bu quyosh botib, atrofga cho'kkan xira qorong'ulikni eslatardi. Biroq ana shu qo'ng'ir rang fonida maymun va odamning qiyofasi ravshan aks etgan, odamning yuzidagi umidsizlikni yana ham kuchaytirgan edi.

Men o'shanda beixtiyor hayot kabi san'atning ham kirish va chiqish eshiklari borligi haqida o'ylagandim. Cholning suratlari go'yo sirli qo'rg'on edi; cholning ilk suratini ko'rgan daqiqadayoq bu qo'rg'onga kirib qolgandim va uning suratlaridan qolgan sovuq hissiyot bilan birga yuragim g'ash bo'lib yurishining sababini topganday bo'ldim. Shu kungacha cholning qo'rg'onida yashagan edim va hozir bu qo'rg'on eshigidan biyday kimsasiz dalaga chiqib qolganday his etdim o'zimni. Vujudimni shilimshiq, jirkanch narsa o'rniga bir narsasini yo'qotib qo'ygan odamday cholning suratlaridan qolgan xavotir egalladi.

O'zim yashaydigan uyga qaytib kirganimda beka mahalla kengashida ishlaydigan keksa bir kishi bilan gaplashib o'tarardi. «Mahalla keksalari yig'ilishib, uyni kimgadir bermoqchi bo'lishibdi, — dedi u menga, — uy olaman deb yurgandingiz, mana shu uyni ola qoling».

Birdan dimog'imga hovlidagi dov-daraxtlardan tortib, gullar-u har bitta g'ishtgacha o'mashib qolgan chirkin hid gup etib urildi; ko'nglim behuzur bo'lganday ijrg'anib ketdim.

— Yo'q, — dedim men o'z xonamga ketar ekanman. — Hozircha uysiz yashab turaman.







NORMUROD NORQOBILOV

OLIM O'G'IL

Hikoya

O'g'il, falonchi cholning o'rtanchisi olim bo'pti, degan gapning ertasi qishloqqa kirib keldi. Bu paytda Shayman chol endigina somondan qaytib, ayvonda chalop ichib o'tirardi. Tong chehrasiga ish qaynagan kezlari yuzlanmish tajanglik ingan, ora-sira gapirinib, og'zidagi luqmasini oshiqmayroq chaynarkan, kechgacha dashtga yana ikki-uch bor qatnashni o'ylardi: «Hafta-o'n kun shu sozda qimirlasak, bu yoqdan Vali guppi ozgina himmat qilsa, yetib qolar shu bilan. Ishqilib, qish oyog'i qop ko'tarib birovga yalingulik qilmasin».

Tik oftobdan tandirday qizigan hovlida o'g'il paydo bo'lganida, chol shu xil o'ylar bilan band edi. O'g'lini ko'rgach, odatiga xos jiddiy tarzda kampiriga im qoqdi.

— Mehmonga qara!

O'g'liga ko'zi tushgan kampir, azbaroyi quvonganidan, joyidan qo'zg'alayotib, choynakni ag'darib yubordi. Chol parvo qilmadi. O'g'lini sog'ingan, lekin aksariyat otalar kabi sir bermay o'tiraverdi. Hamisha o'g'li kelib ko'rishmoqqa qo'l cho'zgandan keyingina o'rnidan turib, bag'riga bosardi uni. Ortiqcha hayajon-u yalab-yulqashni yomon ko'radi u. Biroq bu safar uzoq o'tirolmadi, o'g'lining olimligi birdan esiga tushib qolib, o'zi sezmaganda holda irg'ib o'rnidan turdi. Yalangoyoq hovliga tushdi. Ming qo'yli boyga ro'para bo'lgan yupunday qimtinibroq o'g'liga yaqinlashdi. Quchoqlashishdan avval unga boshdan-oyoq razm solishga ulgurdi.

Bir oz ozganini demasa, o'g'li hech o'zgarmabdi. O'g'il otani dadil bag'riga tortarkan, mehri tovlanib koyindi: «Haliyam yer tirnab yuribsizmi, ota!.. Chol sitam tortgan odamdek ming'irladi: «Tirikchilik-da, bolam!» Bunga javoban o'g'il uning egniga ilashgan xas-xashaklarni tergan, qoqqan bo'ldi. Bundan cholning ko'ngli o'sdi. Bir vaqtlar tuman kattalaridan biri yelkasini qoqib maqtaganida ham shu hisni tuygan edi. Yuragi hapriqib, o'g'liga sog'inch-la boqarkan, katta odam bo'lgani chinga o'xshaydi, deb o'ylaydi. Boya yalpayib o'tirmay, darrov peshvoz chiqqan qolmaganidan xijolat tortdi ham.

Biror soatlardan so'ng, o'g'lining kelganidan behad dimog'i chog'langan chol eshak aravasini shaldiratib, dashtga jo'nadi. Adirda somon to'dalayotgan kenja o'g'il bilan birga qaytmoqchi edi. Nega deganda, mehmon sharofati tufayli hovlida ish ko'paygan, kechgacha hammasiga ulgurish zarur edi. Ammo qishloqdan chiqaverishdagi juvozxona oldida to'xtamasdan o'tolmadi. Yong'oq tagidagi uzun xarida qator tizilishib o'tirgan chollar tomon yurarkan, tezda jiddiy xatoga yo'l qo'rganini fahmlab qoldi. Qadam olishlari olim odamning otasiga munosib emasdi. Qanaqa yurish kerak, buniyam bilmasdi. Boshda rais yurish qilib ko'rdi: qo'llari ortda, oyoq uchlari ikki yoqqa kerilgan... O'n-o'n besh odim yurmay, tizzalari shiqirlab, chotiga og'riq kirdi. So'ng tovonlarini ko'taribroq harakatlandi. Tuyaqushga o'xshab lo'killab, yurishi xunuk chiqdi. Oxiri g'oz yurishni ma'qul topib, shu sozda chollarga yaqinlashdi.

Nazarida, chollar o'g'li haqida gapirayotgandek edi. Yaqin borib qarasaki, kundalik ming'ir-ming'ir. Shayman chol ularni gumroh sanab, ichida yandi. Taklif etilgan o'ringa cho'kmay, g'o'ddayib turaverdi. Olim odamning otasi kelsa-yu, bularning yalpayib o'tirishlarini qara. Ammo shu payt O'roq chol gapirib qoldi.

— Ulingiz olim bo'пти deb eshitdik, — dedi qurtdek boshini u tomon burib. — Qanday chikin olim bo'пти, a, Shaymanvoy?

«Olim» degani turli xil bo'lishini Shayman chol endi eshitib turardi. Ajablandi.

— Qanday chikini nimasi, — dedi so‘ng qanshari ostidan iddaoli tikilib. — Olim degani bitta bo‘ladi-da.

— Ulingiz qishloqning oldi bo‘ldi, — deya gapga aralashdi Toji chol unga havaslanib boqarkan. — Hammaning og‘zida shu gap. Vaqtida tuzuk o‘qimagsanilar-da deb kecha barini to‘zg‘itib so‘kdim.

— Bizda o‘qishga havas yo‘q, — O‘roq chol tili tagiga nos tashlab, kaftini tizzasiga surtdi. — Ana sho‘rquduqliklar, itidan-bitigacha o‘qigan. Rayondi tus kattalariyam shulardan.

— Lekin ularda olim yo‘q, — dedi Quadrat chol iyagini hassasiga tirab. — O‘qishga kelsak, anovu Eshqul cho‘loqning bolasiyam o‘qigan-da. Haliyam tuzuk ukol qilishni bilmaydi. Qaytamga kelini durust, chimillatmasdan qiladi.

— Chin gap, olim chiqmagan ulardan, — uni quvvatladi O‘roq chol. — Eshqulning bolasi bachaligidayam go‘r emasdi. Ko‘ringan bilan tebalashib, endi do‘xtir bo‘pti. Sala cho‘tirning kampiriniyam o‘sha o‘ldirgan.

— Unday demang, eshitgan quloqqa yomon.

— Kampirni rayondi do‘xtirlari o‘ldirmadimi?

— Rayonga yetganda qilday joni qolgan ekan, — O‘roq chol hassasini qiya tutib, o‘ng oyog‘ini uning ustidan oshirdi. — Aybdor Eshqulning bolasi. Tuzalib ketadi deb, uyida uch kun saqlagan. Rayonga kech oborishgan. Oborganda kampiring harom ichagi yorilib bo‘lgan ekan. Sala cho‘tir buni tushunmay rayondi do‘xtirlari bilan yoqalashib yuribdi. Men aytdim, kampiringdi rayon do‘xtirlari emas, Eshqulning uli o‘ldirgan deb. Eshqulni uli nima debdi deng. Shodiqul mashinasini luqshitib haydagani uchun kampirni ichagi yorilib ketibdi debdi. Sala cho‘tir, moshinangga o‘t qo‘yaman deb, bir g‘ovim Shodiqulga hezlanib yurdi-da, so‘ng tinchib ketdi. Kampirini yilini o‘tkazib, Abrayning bevasiga uylanmoqchi emish.

— Abrayning bevasi uni er qilmaydi, — dedi kimdir. — Baytalday tirsillagan narsa, Sala cho‘tirni pisand qilarmidi.

— Ko‘ngil-da...

— Sala cho‘tir o‘zi bo‘lmaydigan odam, — dedi Quدرات chol. — Kecha, eshitdingizmi, Shayman cholning o‘rtanchisi olim bo‘pti desam, nima, menga bir so‘m berarmidi deb, yomo-on to‘rsillab berdi. Qishlog‘ingdan olim chiqib, sho‘r-quduqliklarning oldida tilimiz ustun bo‘lganidan quvonmaysanmi, ahmoq, deb o‘ziniyam toza tuzladim. Badanini tuk bosgan bu qari maymunga xotini qanday chidagan ekan-a?

Bu gapdan Shayman cholning ichi yondi. Sala cholning hovlisi tarafga yovqarash qilarkan, dedi:

— Hali shunday dedimi? Dashtdan qaytay, tilini uzib qo‘liga beraman!

— Olim odamning otasiga yarashmaydi bu ishingiz, — dedi O‘roq chol boshini chayqab. — Og‘ir bo‘ling.

— Kichkina odammasiz endi, — dedi Quدرات chol.— Maydalar bilan teng bo‘lmang.

Maqto‘v xush yoqib, Shayman chol, endi o‘tirsam bo‘lar, deb o‘yladi. Borib Poyon cholning yoniga cho‘kdi. O‘zini beparvo tutishga urinsa-da, iyagi o‘z-o‘zidan oldinga cho‘zilib, ichidan mamnunligini bildirib qo‘ydi.

— O‘ziyam ulingiz toza o‘qidi, a, Shaymanvoy, — dedi Poyon chol qatordan qolmaslik uchungina gap qotib.— Biror o‘n-o‘n besh yil o‘qidi-yov.

— Ha, endi, esini tanibdiki, shaharda, — dedi Shayman chol yasama loqaydlik bilan. — U olim bo‘lmay, men bo‘laymi.

— Siz bunday nopisand bo‘lmang, Shaymanvoy.

— Quvoning.

— Ko‘krakni kerib yuring.

— Ullarimdi biri shunday bo‘lganida, silar bilan gaplashib ham o‘tirmasdim.

— Hammaning og‘zida shu gap. Ulingiz katta odamga o‘xshaydi. Odamlar bekorga gapirmaydi.

— Muallimlar talashib yurganmish, asli u mening shogirdim edi deb.

Chollar uzun-qisqa kulishdi.

— Olimligi yaxshiku-ya, qishloqqa kam kelishi yomonda, — deya birdan hasratga tushdi Shayman chol. — Yilda qorasini bir ko'rsatadi. Bunday bo'lmaydi-da endi. Bu safar yaxshilab bir tergab qo'ymoqchiman. So'kib qo'ymasam bu bola juda shitirab ketayapti.

— So'kmang siz, — O'roq chol unga chegrayib qaradi. — Hadeganda chopib kelaversa, olim bo'larmidi. Olimlik sizga osonmi. Oson bo'lsa, hammayam bo'lmasmidi. Esimni tanibmanki, qishlog'imizdan endi olim chiqishi.

— «Olim» degani nima o'zi, a? — dedi boyadan beri gapga qo'shilolmay, bir chekkada musichaday beozorgina o'tirgan Sadir chol, ko'zlarini pirlpiratib. — Kechadan beri shu gapni eshitaman-u, nimaligiga hech fahmim yetmayapti.

«Olim» neligini boshqalar ham bilmasdi-yu, lekin so'zdagi mavhumlik ular ongida sirli va g'aroyib tasavvur uyg'otgani bois, uning ma'nosi haqida hech kim bosh qotirmas, qolaversa, yuzaga kelgan tasavvurni so'zda ifoda etmoq oson emasdi. Hamma bir-biriga javdirab turganida, hamisha o'zini bilag'on chog'lab, birovga so'z bermay yuradigan O'roq cholning o'ktam ovozi sukunatni buzdi.

— Mullalarning mullasi degani.

— Sharof mullaning uyi kuyibdi-da unda, — dedi Sadir chol achinib.

— Nega?

— Bu yoqda mullalarning mullasi turganda, qishloqda unga non qoladimi endi.

— Unday chikin mulla emas u, — uning nodonligidan O'roq cholning jahli qo'zidi. — Profissir. Shaymanvoyning uli profissir bo'lgan.

— Ana eshitdingizmi? — Qodir cholning ovozi davra uzra qalqigan umum xitobni bosib tushdi. — Eshitdingizmi, Shaymanvoy? Bundan keyin tezlikni bas qiling. Olim odamning otasiga shapshaklik yarashmaydi. Tunov kuni kenjangizga qamchi o'qtalib yuribsiz. Shu ish sizga epmi. Ko'rgan ko'z demaydimi,

uli olim bo'lsayam, otasi qip-qizil jinni ekan deb. Bundan so'g'in bosiq bo'ling, ha.

— Shaymanvoy chatoq, — dedi xari chetida ilinib o'tirgan Olim pakana. — Damida osh pishiradi bu kishi. Bizdi ulla mendan sira hayiqishmaydi. Bolani asli bachaligidan ko'zini qo'rqitib olish kerak ekan. Esaygach, tarsaki tugul qamchidanam qo'rqmay qo'yisharkan.

— Endi siz ayolga o'xshagan odamsiz-da, Olimvoy, — dedi O'roq chol. — Bunday otadan bola qo'rqmaydi.

Asosiy masala bir chetda qolib, ular aytishib ketishdi. Olim pakana o'zining erkakligini pesh qilish uchun turib so'kisha boshladi. Shayman chol uning pachoq jussasiga boqarkan, O'roq cholni haq deb bildi. So'ng uning diqqatini dala yo'lini changitib kelayotgan qora tortdi. Yo'l bo'yidagi eshagi betoqat oyoq qoqdi. Shayman chol pinak buzmay, chollarning tinchishini kutdi. Bu orada qora nuqta aravachali motosiklga aylandi. Unda beti tovoqday, qorni qopday bo'lib Qobul uchastkavoy kelardi. Chollarning so'kishi adoqlab, hammaning diqqati unga qaratildi.

— Changitmay o'li-iy! — Quدرات chol basharasiga yopirilgan changni yelpib, so'kindi. — Xuddi otasining o'zi-ya. Soli o'pkayam shunaqa hovliqma edi. O'pkaligi tufayli otdan yiqilib o'ldi-da.

— Shu yelishi bo'lsa, buyam... — O'roq chol o'ng'aysiz yo'taldi. — Salominiyam o'zi bilan olib ketdi shekilli?

Olim pakana g'iybatga aralashmoqchi edi. Ammo O'roq chol bilan aytishganini eslab, Qobulni yoqladi.

— Salom berdi. Boshini irg'ab-irg'ab o'tdi.

— Unda yaxshi, — O'roq chol kuldi. — Boshi yo'qmikan deb o'ylovdim men.

— Siz shunaqa, — dedi Olim pakana achitib. Hamisha kir izlaysiz.

— Ullarni o'qitib-so'qitib yurmay, milisaga ishga kiritish kerakmikan deb o'ylab qolaman, — dedi Poyon chol negadir og'ir so'lish olib. — Bittasi manovu Qobul shapka. Bunda na

somon tashvishi bor, na xashak. Tayog‘ini bir silkitsa somoniyam, xashagiyam hovlisiga tushib turibdi.

— Havas qiladigan ishmi shu, — O‘roq chol istehzoli iljaydi.
— Beradigan odam bekorga beradi deb o‘ylaysanmi. Ichida to‘qson to‘qqiz marta so‘kib berar. Nafs deya har narsaga enangni ro‘paro‘ qilaverish erkak kishining ishi emas-da endi. Bundan ko‘ra issiqda chang yutganing afzal emasmi.

Olim pakana kichik jussasini bejo tebratib, qarshi gap qilmoqchi edi, Qudrat chol vaqtida oraga suqildi.

— Mayda-chuyda gapni qo‘yinglar-da, yaxshisi, Shaymanvoyning olim ulidan gapiringlar. Ishqilib, ulingiz keladiganmi, Shaymanvoy?

Shayman chol unga minnatdor qarab qo‘yarkan:

— Ul kelgan, — dedi andak dimoq bilan. — Bu yerda bekorga gap talashgandan ko‘ra bizdi hovliga o‘tinglar. Ulga bir qo‘chqor atab qo‘ygandik, shuni so‘yib saronjomlab turinglar. Men dashtga boraman-u, qaytaman. Kenjamiz dashtda... issiqda xiyla bo‘lgan chiqar. Qani, O‘roqvoy, boshlang boboylarni. Nima qayerdaligini kampirga tushuntirib kelganman.

— Bu ishingiz soz bo‘pti, Shaymanvoy.

Chollar biri olib, biri qo‘yib, uni alqab ketishdi. Kutilmagan tadbiridan o‘zida yo‘q ruhlanib ketgan Shayman chol viqorli odimlar bilan arava tomon yurdi. Eshakaravada yurish birinchi bor erish tuyulib, otni orzuladi, ammo unga yemish yetkazish qiyinligini o‘ylab, tag‘in ahdidan qaytdi.

...Oqshom ziyofat to‘kin bo‘ldi. G‘ala-g‘ovurdan chol shu narsani bildiki, o‘g‘li osmon jismlarini o‘rganadigan olim ekan. Tunda u supada osmonga tikilib yotarkan, eshitganlarini hazm qilolmay, g‘oyat ajablandi: «Tavba, osmonni nimasini o‘rganar ekan? Otam zamonidan beri so‘narib turgan manovu yulduzlarning nimasini o‘rganish mumkin? Tag‘in erdan o‘n hissa katta yulduzlaram bor deganiga o‘lasanmi. Hech vaqtda yulduz ham yerdan katta bo‘larkanmi? Nari borsa mushtdaydir, hay, qo‘shmushtdaydir. Qandayligi ana ko‘rinib turibdi-ku. O‘ntasini

yig'sang, bir cho'ntak to'lmaydi. Ulim yo o'tirikchi [154], yo o'zim hech baloni tushunmayman». Ammo chol kyoyingi gapga qo'shilmadi. O'zini juda aqlli hisoblardi. Ko'rganlarini bor holicha idrok etib, shu yo'sinda fikr qilardi. Shu bois, yulduzlarga yanada diqqat qildi. Esini tanigandan beri ilk bor samoga ayricha nazar solmoqda edi. Bora-bora koinot ko'ziga oltin tangalar sochilgan baxmal tusini ola boshladi: «Ulni osmonga tikilishida bir gap bor, — deb o'yladi. — Nimanidir biladi bu bola. Hukumat bunga o'xshaganlarga pulni qoplab bersa kerak, emasam, yer qolib, nega osmonga termiladi bu bola».

Yulduzlar oltin tangalar tusini olgani sayin cholning dimog'i chog'lana boshladi. Oxiri, olim deganiga hukumat pulni ayamasa kerak, degan shirin o'yg'a bordi-da, g'aroyib tushlar og'ushida asta uyquga ketdi.

Ertasi peshindan keyingina ota-bola holi qolishdi. Boshda gaplari uncha qovushmadi. Ota sho'rlik nima deb so'rashni bilmas, o'g'ilning javoblariga esa uncha tushunmas, oqibat, gap topolmay issiqdan shikoyatlandi. Yelpingan kishi bo'ldi. Holbuki, ular shabadaning ko'zida o'tirishar, kenja o'g'il havasga qurgan baland shiypondan chor-atrof kaftdagidek baralla ko'zga tashlanib turardi.

Shayman chol o'g'lining ozg'in chehrasidan ko'z uzib, tevarakka alahsidi. Ko'cha boshida ikki qop somon yuklangan eshagini oldiga solib kelayotgan Haydar ko'sa ko'rindi. Uni ko'rgach, kundalik tashvishlari esiga tushib, cholning qovog'i xiyol solindi.

— Haydarvoyga quda bo'layapmiz, — dedi so'ngra yarim ohangda.

— Eshitdim, — dedi o'g'il beparvo.

— Qalinni sag'al ko'paytiraman deytotganmish, — dedi chol norozi ohangda. — Shayman cholning uli olim bo'пти, olim degani pulning isiga yotolmaydigan xalq bo'ladi, shundayakan, chol qalindan qizg'anmasin deb, ertalab ukasi Salom ko'sadan aytirib yuboribdi. Sovchilar orqali yetkazishga ham sabri chidamabdi.

O'g'il kulimsirab, Haydar ko'sa tomonga qarab qo'ydi-yu, lekin indamadi.

— Qaysi qiziga? — deb so'radi bir muddatdan keyin hardamxayollik bilan.

— Kenjasiga. — Chol yonboshlab, boshini siypaladi. — Ukangni ishqi o'shanga tushibdi. Hashsha shuni olib berasilar deb turib olgach, nima qilaylik, rozi bo'ldik. Emasam, Haydar ko'sani o'zimga tengsitarmidim. Nachora, to'yni gurullatib o'tkazamiz endi.

Shu gaplarni aytarkan, chol o'g'lining rang-ro'yiga, so'ng cho'ntaklariga o'g'rince qarab qo'ydi. O'g'lining cho'ntaklari u qadar do'ppayib turmasdi. Keyin u shiypon chetidagi kattakon qora sumkaga umidvor tikildi. Yaltiroq temirlar bilan ziynatlangan sumka cholga juda sirli tuyuldi. Boz ustiga, o'g'li yurt so'ragan kishiday xotirjam o'tirar, cholning tashvishlariga aloqador xarajatlarni eshitgach ham pinak buzmasdi. Avzoyidan cholning bir og'iz gapidanoq oldiga bir dunyo pulni nopisand itqitib tashlaydigandek edi. Shunda chol uning qancha maosh olishini bilgisi keldi. Qani, olim degani qancha oylik olarkan? O'zicha u katta raqamlarni ko'z oldiga keltirib so'radi:

— Mana, olim ham bo'lding, — dedi qiroat bilan so'zlashga urinib. — Oyiga qancha olasan?

— Nima qancha?

Shayman chol Sardor magazinchiday barmoqlarini bir-biriga ishqaladi.

Cholning qiligi g'alati tuyulib, o'g'il kulib yubordi. Bundan chol yayrab ketdi: «Aytdim-ku, bunda pul ko'p deb, emasam, buytiblar yozilib o'tirmasdi. Ammo qaytib so'rayman? Farzanddan pul so'rash... e-e, ukasi uchun so'rayman-da. Shunday paytda qayishmasa, qay paytda qayishadi. Xay, kishi bilmas qitiqlab ko'raychi. Tushunsa tushunar, tushunmasa, otasining jiligiga, dangalini aytaveramiz-da».

— Indamaysan? — Chol qulog'ini ortini qashlab, unga zimdan tikildi.

O'g'ilning javobi bo'g'otdagi musichaning kukulashiga qo'shilib chiqdi. Chol gapni to'la anglamagan esa-da, noxushroq so'zni ilg'ashga ulgurdi. Shu bois, peshanasi tirishib, musichaga norozi boqdi. «Kisht», deya qo'lini to'lg'arkan, qayta so'radi.

— Angsarmadim, qancha deding?

O'g'il bu xil suhbatni xushlamasligini bildirib, nigohini pastga olarkan, javobni juda qisqa qildi va bir muddatdan so'ng boshini ko'tarib, otasining holatidan dong qotdi. Cholning jag'i osilgan, ko'zlari baqraygan, musichani haydamoqqa ko'tarilgan o'ng qo'li havoda muallaq qolgan. Bamisoli haykal, hatto kiprik qoqmasdi.

Nihoyat, «haykal»ga jon kirdi: qo'li shalvirab pastga tushdi. Iyak joyiga qaytib, ko'zlari og'riqli ifoda bilan asta yumildi: «Hazillashmayaptimi bu bola?» Ko'zlar endi yana-da kattaroq ochildi. O'g'ilga sinchkov qaradi. Yo'q, o'g'il tamomila jiddiy edi. Chol tirsagini bolishdan uzib, qaddini xiyol oldinga tashladi.

— Odamni kalaka qilayapsanmi?

Taajjubi battar kuchaygan o'g'il, yo'q, deya bosh chayqadi.

Shayman chol o'tirgan joyida g'alati chayqaldi. Tusi o'zgarib, qo'llari bilan nimanidir qidirdi. Qidirgan narsasini topolmagach, tizzalarini changallab, o'g'ilga g'azabkor boqdi.

— Uli olim bo'pti deb, Haydar ko'sa u yoqda qalinni oshirgan bo'sa, — dedi so'ng alam to'la ohangda. — Men senga ishonib, bu yoqda katta ketib qo'ygan bo'sam, oladigan oyligingga durustroq bir qo'y kemas, shuncha o'qib nima qilarding sen, a?

— Ilm pul bilan o'lchanmaydi-ku, ota, — endi o'g'ilning ham rangi o'zgardi.

— Emasam, nima bilan o'lchanadi? — Chol unga yeb qo'ygudek bir vazohatda tikildi. — Seni o'qitaman deb qancha qo'yim ketdi, bilasanmi shuni o'zi? Ana Qobul shapka hech qayerda o'qimagan, lekin tayog'ini bir silkitsa, hovlisiga somoniyam, xashagiyam tushib turibdi. Otasi Uzoq guppi somon tashvishi neligini bilmaydi. To'y-ma'rakalarda chuldirab birovga gap bermaydi.

— Maydalarga tenglashtirmang o‘zingizni, ota. — O‘g‘il ilm deya chekkan zahmatlarini eslab, bir zum sukutga toldi-da, so‘ng chehrasini donishmandona bir ifodaga to‘ldirib dedi: — Agar hamma o‘zini tirikchilikka qurbon qilaversa, buyuk kashfiyotlarni kim qiladi? Tiriklikni har kim har xil tushunadi, ota.

— Bildik, juda gapga o‘qibsan, — dedi ota o‘g‘lining mantiqli gaplarini oliftagarchilikka yo‘yib. — Ayt-chi, senam bir imo bilan uyimga somon tushurolasanmi?

— Yo‘q, — dedi o‘g‘il qat‘iy. — Bu xil ishlardan jirkanaman!

— Jirkanaman? — Shayman chol battar tutaqib, tag‘in qo‘llari bilan paypaslandi. — Unda olimligingdan menga nima foyda!

Cholning qo‘liga ilingan piyola chetga uchdi. Aziz mehmonlar -kelgandagina dasturxon yuzini ko‘radigan paxtagulli piyola hovli sahnida chil-parchin bo‘ldi. Ortidan ikkinchisi, keyin uchunchisi shu holga tushdi. Shundayam u tinchimadi. Qarshisida o‘g‘il emas, battol dushmani o‘tirganday, gap bilan uni yer qilib tashladi.

Bu xil haqoratlarni umrida eshitmagan o‘g‘il boshda hang-mang turib qoldi. Keyin etak silkib, o‘rnidan qo‘zg‘oldi. Ketaman, dedi arazlab. Ona hay-haylab oraga tushdi. Cholini qarq‘ab, o‘g‘lining qo‘lidagi sumkaga yopishdi.

Shayman chol alam va g‘azabdan chayonday gajaklanib, tashqari yo‘naldi. Negadir Haydar ko‘sani topmoqqa, qolgan alamini undan olmoqqa qasd qildi. Shu topda cholga ikki dunyo bir, yakkash baqirardi: «Osmoningdan ne foyda menga! Javdiragan tussiz yulduzlaringni boshimga uramanmi! E, seni o‘qitganning padariga la‘nat!»

U ostona hatlarkan, ko‘cha boshida somon yuklangan mashina ko‘rindi. Cholning ajin tilgan yuzi battar tirishib, burishib ketdi. Nega, deganda mashina oldida ulkan qornini namoyishkorona silkitib, mototsiklda Qobul milisa kelardi. Tovoqdek basharasi odatdagidek o‘ta jiddiy, go‘yo zo‘r bir ishni tindirganday, dimog‘idan eshak qurti yog‘ilardi. Bu manzaradan cholning ichi yana kuydi. Dikonglab, beixtiyor o‘sha tomon yurdi. Keyin birdan

fikridan qaytib, iziga burildi-da, ko'cha bo'yida chim chimdiyotgan eshagining qorniga bir tepib, quyiga odimlab ketdi.

Bu vaqtda olim o'g'il, koinot sirlarini anglamoqqa yetgan aqli yerdagi bu xil sinoatni idrok etmoqqa ojizdek, tushkin bir kayfiyatda oyog'i ostidagi chinni bo'laklarga termilib turar, ketib qolishidan hayiqqan ona sho'rlik esa hanuz uning qo'lidagi sumkaga tarmashar, ora-sira cholini yanib qo'yardi. Saldan so'ng tobora olislashib borayotgan jahldor otaning uzuq-yuluq so'kinishlari-yu, onaning jonsarak koyinishlari mashina ovoziga qorishib ketdi. Shovqinni eshitib, o'g'il sekin boshini ko'tardi. Ko'zi devor ortida harakatlanayotgan somon g'aramiga tusharkan, olgan bilimi bu dargohda sariq chaqalik qimmatga ega emasligini favqulodda anglab yetganday, asta yulqinib, darvoza tomon yurdi.

Ona chirqiragancha unga ergashdi.





MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O‘ZBEK
SHE‘RIYATIDAN NAMUNALAR



OYDIN HOJIYEVA

ONA TILIMGA ALYOR

Og‘zimdagi novvotim,
Boshimdagi minnatim,
Bobokalonlarimdan
Meros ulug‘ davlatim!
Tanglayimni ko‘targan
Kindik momom qo‘lisan!
«Besh kecham»da sirlashgan
Shamchirog‘im tilisan!
Onamning oq sutisan,
O‘chog‘imning o‘tisan!
Sen ruhimning sahrosi,
Asli toza yurtimsan!
Bahorda boychechagim,
Tiramohda turnamsan!
Kashtamdagi ipagim,
Yoqamdagi yo‘rmamsan!
Kelinchaklar suzilsa,
Ko‘zlardagi nozisan!
Atirgullar uzilsa,
Shabnamlar hayosisan!
Senda qimiz ta‘mi bor,
Mo‘miyo malhami bor!

Ohanrabo afsuni,
Qilichlarning dami bor!
Shavqimsan, shukuhimsan,
Ko'z yoshim, anduhimsan!
O'zligim tog'larida
Qadab qo'ygan tug'imsan!
Zamonlar elagida
Saralangan bug'doyim!
Mehroblar poygagida
Qolgan unut xudoyim!
Tuproq olsang oltin-u
Kul olsang kumush bo'lsin!
Seni tinglab ulg'aygan
Ullar Alpomish bo'lsin!
Beshiklarim boshida
Alla aytgan farishtam,
Qabrlarning toshida
Xattot bitgan jon rishtam.
Onaliging chin bo'lsin!
Qizlaring lochin bo'lsin!
Yo'lingdagi xarsanglar
Iloyo, parchin bo'lsin!
Qadim turkiy taxtingga
Yayrab o'ltir, yarashgay!
Oq sutingni oqlay deb,
Farzandlaring kurashgay!
Kurashmasa, non-tuzing
Ikki dunyo haromdir!
Ona g'arib bo'lgan xalq,
Olomondir, avomdir!

1989

ISTIQLOL TARIXNING IMTIHONIDIR

Torgina guzarlar, pastqam rastalar
G'ala-g'ovur bozor, ketmas xayoldan:
Qorin tashvishida qo'li bastalar
O'sib chiqaverar har bir savoldan.

Fitrat kim, Cho'lpon kim, kimdir Tavallo,
Millat deb qon qusgan mard-u eranlar,
Joni p'ilik bo'lib taratgan ziyo
E'tiqodi buyuk fikri teranlar.

Alarning suvratin izlayman bir-bir
Ro'paramdan o'tgan har bir odamdan,
Qonida rangi yo'q, ongida shuur,
Tamom xabarsizdir yangi olamdan.

Istiqlol yulduzi yarqirab magar
Jahon ayvonida o'zbekdan so'ylar.
Qartavozlik qilib bir to'da gar-gar,
Do'kondan topilmas shakarni o'ylar.

Dunyo kimyogarning rangiday qaynar,
Zehn-u qalb kiradur o'zga sifatga.
Biri amaldorning og'zini moylar
Erishmoq-chun obro', mansab, davlatga.

Eshigin oldida uyulgan axlat,
Ko'nglini kir qilmas, o'tar beparvo.
Otni hurkitgudek olifta savlat,
Ko'ksida ilondek o'rmalar riyo.

Ulug' Yassaviylar — nuri poklarim,
Bahovuddin pirim, ey dili bayor,
Iymon osmonida o'chmas mohlarim,
G'aflat bandalarin aylangiz bedor.

Ki millat erk uchun, hamiyat uchun
Jon olib, jonini bermasa magar,
Boshini tikmasa hurriyat uchun,
Malomatga qolur o'lgunga qadar.

Asriy taloto'plar, zilzilalarda
O'zbekning o'lmagan sabil jonidir.
«Istiqlol ne berdi?» deysan serzarda,
Istiqlol — tarixning imtihonidir.

Poyingda shu jannat tufroq Istiqlol,
Boshingda bulutsiz samo hurlikdir.
Beshigingda chaqnab yotar istiqbol.
Mustaqillik tili, dili birlikdir.

Bir luqma dumba deb qopqonga tushgan
Arslon qismatini chiqarma yoddan.
Bitta taqa topsa, ot deya shoshgan
Afandim o'zingsan, o'zbeksan sodda!

Hali sen jahoniy ilmida komil,
Guras-guras kelar avlod boshisan.
Bozorlaring bo'lur mol bilan mil-mil,
Sen yorug' kunlarga tamal toshisan.

Sabrdan iylangan asli zuvolang,
Tishingni tishga bos, toqatga bo'l yor!
Istiqlol — to'rt yozni ko'rgan o'z bolang,
Ko'ksingga mahkam bos, xalqim, umidvor!

Har bitta yurakda sas bersa Cho'lpon,
Fitratlar yuksalsin metin joningda.
Tishingga mahkam bos, olib o't omon
Istiqlolni Asr imtihonidan!

1995





HALIMA XUDOYBERDIYEVA

DORILAMON KUNLAR KELDI...

Onaginam!
Dorilamon kunlar keldi, shafaqlari ol,
Qayon boqsang, shaylanishlar va sozlashlar tor.
Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol,
«Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor».
So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z,
Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.
Dorilamon kunlarga qayt, onam, yumib ko'z,
O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.
Bu tabiat suyumlidir ham ko'zlari ko'r,
Goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast.
Belginangga tirak bo'lay, onajonim, tur,
Dorilamon quyoshga boq, unga qasdma-qasd.
Yuzing ardoqli quyoshday issiq va mahvash,
Ko'zlariningda umid yonar tikilgan oni.
Qorli kunlar bilan ketsin dilingdagi g'ash,
Qizg'ish, lola rang qoplaydir bu kun dunyoni.
Bu dunyoning qir-darasin xosiyati mo'l,
Yerni yalang oyoq bossang, yayraydi taning.
Yashamoq — bir tansiq taom, unga ursang qo'l,
Borgan sari ochiladir ishtahang saning.
Bog'lardagi yetilgusi har mevali shox
Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjlikdir.
O'g'lonlaring kelar ana, ochishib quchoq,

O'g'lonlaring meva qadar bir shirinlikdir.
Onaginam!
O'zing tortma davralardan, el chorlaganda,
«Tiriklikning bayrami» deb sozlaganda tor.
O'zing so'lg'in lablar bilan pichirlaganday:
«Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor».

«UYG'ON» SO'ZIN AYTGACH...

Chirimoqda Sibirda ulug' turk shoirlari.
Mehmed Emin Yurdaqul.
1939 yil.

Tarix dashtlarini goho quyuc qor yopgan,
Bo'lsa hamki ayon bo'lgan kimlar ne chekdi?
Besh qilichday teragini bir bolta chopgan,
Mening mahzun onaginam, holing nechukdir?

Sirlar sandig'i ochilar, kimlar ne degan,
Kimni sotib o'zi yayrab o'sgan qaysi jon?
Beshta yovqur bolasini bir qashqir yegan,
Mening ma'yus onaginam, bormisan omon?

Balki hamon tugamagan boshlangan doston,
Tanlariga tuproq emas, sog'inchlar botar.
Hamon Sibir sovug'iga ko'nikolmasdan
Ular bir-birin quchoqlab, isinib yotar.

Ular Abdulla Qodiriy, Fayzullolarim,
Akmal Ikrom, Usmon Nosir, tik Cho'lponim-ey.
Ko'mir qazib, ko'mir bo'lgan chin tillolarim,
Ular beshmas, besh yuz, besh ming uvol jonim-ey.

Avaxtalar, shaxtalardan ular berar un,
O'ylamang-ki, kukun bo'lgan, kul bo'lgan tinchib.

Er ustida erk tugʻini biz koʻtargan kun,
Ular goʻrda bir-biridan olgan suyunchi.
Choʻlpon birdan Choʻlponligin tuyib chopgandir —
Sochdan to tirnogʻi qadar kuyib chopgandir.
Qamoq, zax yertoʻlalarda yagʻiri chiqqan,
Kir, beqasam choponini kiyib chopgandir.

Erk isini erta sezgan bolalarini,
Zulm — oqimga qarshi suzgan bolalarini,
Ota arslon yelkasida oshiq oʻynagan,
Ona arslon sut emizgan bolalarini.

Oldirgan el, ular oddiy bolami edi,
Kurashlarda ular oson berdilarmi jon?
Usmon «Uygʻon» soʻzin aytgach, hushdan ayrildi,
Choʻlpon aytgach, koʻkragidan keldi laxta qon!

Asli koʻz yosh, qon oralab toyib oʻsdik biz,
Qon — yorugʻlik. Yorugʻlashdik. Boyib oʻsdik biz.
Qirqqanlari, kesganlari sari kuchlandik,
Qanotlarni tagʻin kengroq yoyib oʻsdik biz.

Ona elim,
Ming shukurki, qolmadik tunda,
Tilak shulki, qodir Oллоh yoningni olsin.
Har bir bolang Choʻlpon boʻlib bosh koʻtarsin-da,
Erk bayrogʻi azal-abad oʻzingda qolsin.

1997







OMON MATJON

NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

Charx avzoyi bu dam, avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kotib-u davr-u raqam, avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Endi inson qadri ham, avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Ko‘nglum ichra dard-u g‘am, avvalgilarg‘a o‘xshamas,
Kim, ul oyning hajri ham, avvalgilarg‘a o‘xshamas,

Ne uchar yulduzlar o‘tdi chalg‘itib elni juda,
Necha avlod yo‘li-yu ummidin aylab behuda,
Davr mezoni bilan tortay bu kun o‘zimni-da,
Ne sitamkim, qilsa rahm mahfiy erdi zimmida,
Emdi qilsa ne sitam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Bul Jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,
Voh, quyosh savdosig‘a shamlar nechuk bo‘ldi hakim,
Ishq, bu — o‘z umrim, anga nechun qasamlar ichmakim,
Demangiz Shirin-u Layli oncha bor ishq ichrakim,
Xo‘blikda ul sanam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Qay kishikim bir ulug‘ ishga etibdi jon nisor,
Shiddati past-u baland kelganda ham bo‘lmaydi or,
Ey falak, hech kimni etma besamar yo‘llarda xor,
Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,
O‘lmishamkim, bu alam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Ona Sharq tojin kiyur! Zulmatda ushlatmang meni,
Bodayi haq mastiman, yolg‘onga uyg‘atmang meni,

O‘z xayolimg‘a qo‘ying, o‘zgaga ishlatmang meni,
Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xshatmang meni,
Kim bu rasvoyi dajam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

Har kima har xil yozur Arsh Mirzosi sana,
Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,
Nafs ipiga bog‘lidur, ruh iplarini uzgan tana,
Ko‘yining ehromidan ko‘nglimni man etmang yana,
Kim anga azmi haram, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

So‘kmak o‘tganlar ishin notavonlar rasmikim,
O‘z zamonin rost etar, qavmi marddir asli kim,
Shu hayot tilsimlarini ochmoq omonlar kasbikim,
Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh g‘oziyg‘a karam, avvalgilarg‘a o‘xshamas.

IKKI QAL‘A

Xivada qal‘a bor qal‘a ichinda,
Biri — Ichon qal‘a, biri — Dishon.
Mashhurdir birining nomi ochunda,
Biri nurab yotar benazar, beshon.
Ne sir bu? Bir yonda moviy tafakkur
Qulf urib turibdi sokin, beozor.
Bir yon — tengsiz jangda yengilgan mag‘rur
Botir jasadidek egasiz va xor.
Ichon qal‘a demak — Xorazm faxri,
Bahornaqsh gumbazlar, minor, sardoba...
Shundadir ul buyuk Mahmudning qabri,
Shundadir shon, g‘urur... Dishon — xaroba...
Xalqimning ustuvor ruhi — zo‘r daho,
Mangulik topgandir Ichon qal‘ada.
Uni buzmasin deb ming turli balo,
Qal‘a qurilgandir Dishon — dalada.

Azaliy beomon bir hukmdir bu:
Odam — Dishon qal'a, orzusi — Ichon!
Oz yashab ko'p zahmat ko'rsa hamki u,
Ruhin qoldirmog'i mumkindir omon.
Men bugun Xivada viqorli turgan
Asriy yodgorlardan tuyarkan ma'ni,
Deyman: umr hikmatin bobongdan o'rgan,
Asramoqni o'rgan Ichon qal'ani!

SHOIR BO'LMOQCHIMAN, DEBSAN...

Shoir bo'lmoqchiman, debsan xatingda,
She'riyat sirlarin o'rgating, debsan.
Sen go'yo chaqmoqqand tutib otingga,
Borsa qaytmas yo'lni ko'zlab turibsan.
Shoirlik kasb emas minba'd, ukajon,
Shoirlik hikmatdir, hikmat, ukajon.
Esimda: oq tutlar ayni g'arq pishgan,
Yashil shoxlar aro terardik quvna.
Shu payt qurtboqarlar kelib qolishgan,
Qo'lida bolta-yu chopqilar o'ynab.
Bargni obketdilar bog'lab, ukajon,
Lekin bizlar qoldik yig'lab, ukajon.
... Insonlik — o'z haqqing tanish, ukajon,
Shoirlik — haq deya yonish, ukajon...
Umr garchi uzun, kechar bir onda,
Umr kamalakdir yer va ko'kka dol.
Ba'zi shoirlar bor — ko'ngli osmonda,
Hatto o'z bo'yicha pastlashi malol,
Sen ko'kdan izlama ma'ni, ukajon,
Avval o'z yeringni tani, ukajon.
Bugun yurt haqida o'y sursang agar,
Olamga bir qara: kim tanir bizni?
Paxtangdan tanisa yeringni bashar,

She'ringdan tanisin yuragimizni!
 Qalbingni xalqqa et minbar, ukajon,
 Jahon shunda seni tinglar, ukajon.
 Ona til! U bizga ma'bad betimsol,
 Har bir millat uchun o'z tili Ona!
 Til—o'tmish, til—bugun, til — bu istiqbol,
 Til — ona xalqingdan nurli nishona.
 Ne bor «ona» degan so'zdek, ukajon,
 O'zbeksan, o'zbek bo'l, o'zbek, ukajon.
 Ha! Shoir qalbining xaritasida
 So'z, tuyg'u, rang, imon erur bosh tomir.
 Oroldek dengiz ham qurir aslida,
 Ayqirib oqmasa Amu bilan Sir.
 Cho'qqilarga solgin larzon, ukajon,
 Guvlab tursin ulug' ummon, ukajon.
 O'tgan ustozlarda qismat yagona:
 So'zdan nomdor ular, so'zdan xunbag'ir.
 Qog'oz-ku bir ohdan uchgay to'lg'ona,—
 Unga muhrlangan haqiqat og'ir.
 Engili rizq bo'lmas bizga, ukajon,
 Qanot ber eng yukdor so'zga, ukajon.
 Sen mag'rur kamtar bo'! Lekin bir chetda
 Chekinib yashama yakka, xor, nolon.
 Jahonda har nedan Adolat katta,
 Lekin mitti qalbdir unga oshiyon.
 Ko'z tutar odamlar, xalqing, ukajon,
 Bosh ustida bo'lsin qalbing, ukajon.
 Sen do'st bo'l, vaqtida fosh et Yagoni,
 Ishqda Otellodan bo'lg'in besh battar.
 Asrab qolmoq uchun Mo'min Mirzoni
 Tutqaz Alisherning qo'liga xanjar...
 Shoirning yuragi dog'li, ukajon,
 Sen ham shu dard bilan og'ri, ukajon.
 Dolg'alar goh tinib, shoirming qalbi

Afsonaviy ko‘ldek sukutda onlar —
Topilar, tosh otib to‘lqin chiqarib,
Tomosha qilishga havasmand jonlar.
Qo‘yni toshlilar ko‘p, ko‘pdir, ukajon,
To‘lqin ur, chetga sur, cho‘kdir, ukajon.
Bordi-yu, sendan hech chiqmasa shoir,
Zarur jihatlarning kam bo‘lsa biri,
O‘ksima, tongda tur, tabiat sohir,
Qara, rangin she’rdir o‘zbekning yeri.
Shu yurtni bir umr sevsang, ukajon,
Haqiqiy shoir ham sensan, ukajon!







USMON AZIM

«BAXSHIYONA» TURKUMIDAN

Hech kim yovga bosh egmadi. «Bu elning shoirini topinglar», dedi shunda o'ng qo'l vazir. Ot choptirib, bir jang maydonida yarador yotgan Elbek baxshini topib keldilar. «Bizni maqta!» dedi chap qo'l vazir. Baxshi eshitmaganga oldi. «Bizni maqta!» dedi o'ng qo'l vazir. Baxshi gum-gurs turaverdi. «Bizni maqta!» dedi podshoi azim. «Podshoh bo'lsang, o'zingga, — dedi shunda baxshi bir to'lg'onib, — shoiring bo'lsa olib kel, gaplashsam shoiring bilan gaplashaman». Bir shoirmi olib keldilar. Elbek baxshi javob berishga hozirlanib, haligi shoir «bizni maqta!» deb turgan joyi:

— Elbek baxshi, bu dunyoning o'tarin ayt,
Bu dunyoga umr kelib-ketarin ayt,
Manov bizning pahlavonlar ko'krak kerib —
Maydon kirsam, falakni ham yiqarin ayt.

— Men ko'rganman osmonlarning tinig'ini,
Toshlar tegdi, terib oldim sinig'ini.
Beshikdagi go'daklarga tig' sanchdilar,
Shunda bildim mardlarningning qilig'ini.

— Tog'day bo'lib turgan odam — navkarboshi,
O'lchab ko'rgin — Yer-osmonni bosar toshi.
Elbek baxshi, maqtayvergin, kam bo'lmaysan,
Mardning shunday bo'ladimi ko'z-u qoshi?

— Nodon shoir, bug‘doy deysan tariqniyam,
Ko‘rgin axir, bu saroydan nariniyam,
Navkarboshing ortdan kelib pichoq sanchar,
To‘g‘ri kelsa yengolmaydi ariniyam.

— Elbek baxshi, tilginangni tiyib so‘yla,
Yetti emas, yuz o‘lchab, bir qiyib so‘yla.
Manov turgan xazinachi — nomdor odam,
Mol-dunyoning qulfi shunda — suyib so‘yla.

— Baxshi deding — baxshi ruhi osmondadir,
Ko‘lmakka jo bo‘lganim shu zamondadir,
Nomdor odam ko‘zlarini olib qochdi,
Uning asli hovli-joyi zindondadir...

— Elbek baxshi, boshing ketar bilmaysan-a,
Bu dunyoni nazaringga ilmaysan-a,
Ana turgan o‘ng qo‘l vazir — dono odam,
Xizmatlarin suyib emas, jo‘shib sana.

— Bir cho‘g‘ edim, yov qoshida ketdim yonib,
O‘ch olarim bor ekan-ku, qonib-qonib.
Bu donishmand podshohingning tegrasida
Aylanadi, yeng ichiga pichoq solib.

— Elbek baxshi, bo‘lma buncha «shirinzabon»,
Tillaringdan aylanayin, holing yomon.
To‘rda turgan podshohimiz — hech bo‘lmasa,
Shuni maqta, qolarsan-ku, eson-omon.

— Meni qo‘ygin, menga taqdir toshdir azal,
Ammo dunyo to‘g‘ri so‘zga ochdir azal.
Shohing kimdir? Qo‘rqoq, xoin, xiyonatkor,
Buzuqlarning davrasiga boshdir azal.

— Mard ekansan, ammo fe'ling azob tug'ar,
Podshohimiz har bir so'zni dilga tugar.
G'azablanib lashkariga «kesgin» desa,
Elbek baxshi, eling tugar, yurting tugar.

— Haq gap uchun har bir ishga ko'nadi el,
To'g'ri so'zdan ko'payadi, to'ladi el.
Dordan qo'rqib, yolg'on aytib turganim yo'q,
Shoirlari yolg'on aytsa, o'ladi el.

Ana endi, yovning shoiri oh urib, peshanasiga mushtladi. Men ham shunday aytishuvlarning oshig'iman-da, mana necha yildirki, surishtiraman, bu aytishuv nima bilan tugadi? Elbek baxshining holi ne kechdi? Anig'ini bilay deb, g'anim shoir elatining daragini so'rab, surishtirdim, tarixni kavlashtirdim, ammo hech natija chiqmadi. Aytishuvdan yigirma, o'ttiz yil o'tgach, bu xalq osmonga chiqqanmi, yerga kirganmi, ishqilib izzsiz g'oyib bo'lgan. Shunda sho'rlik shoirning oh urgani ma'nisiga yetganday bo'ldim...



Birodarlar, ana endi Elbek baxshi Asqar tog'ining boshida o'tiribdi. Atrofga qarayapti: bir tomon Sayxun, bir tomon Jayxun, bir taraf ko'l, bir taraf cho'l. Ana Samarqand-u Buxoro, undan nari Xorazm, shundoq to'g'rida Surxoni azim...

Baxshining dili to'liqib, ichida doston to'kilib kelayapti. Tilida qo'shiqlar tuzilyapti, qo'li do'mbiraga cho'zilyapti... Shu alfozda ko'zlari suzilib, ko'ngli buzilib turgan edi. «Hormang, baxshi bobo» degan tovush qulog'iga urildi. Baxshi burilib qarasa, Oqbotir bilan Qorabotir otlarini yetaklab, daradan chiqib kelishyapti. «Endi bir qo'shiq aytib berasiz», deb kulib kelishyapti. «Nimadan aytayin?», — deb so'radi Elbek baxshi ovozi titranib.

«Bo'lar elning farzandi qanday bo'ladi-yu, sho'rlik elning farzandi qanday bo'ladi — shundan ayting», — deyishdi botirlar.

O‘zi qo‘shiq ham baxshining yuragidan o‘rlab, bo‘g‘ziga yetgan edi — do‘mbirasini oldi-da, aytib yubordi:

Har kim o‘z elida bekdir, to‘radir,
O‘z elida bek bo‘lmagan o‘ladir.
Bo‘lar elning farzandlari, botirlar,
Ko‘zin o‘yib olishsa ham, ko‘radir.

Mard dunyoga kelgan tuproq zo‘r bo‘lar,
Nomard oyoq bosgan zamin sho‘r bo‘lar.
Sho‘rlik elning farzandlari, botirlar,
Ikki ko‘zi ochiq turib, ko‘r bo‘lar.

Har kim o‘z elida davron suradir,
Mardlar elin to‘g‘ri yo‘lga buradir.
Bo‘lar elning farzandlari, botirlar,
Oyoqlarin kesishsa ham, yuradir.

Yomon to‘g‘ri so‘zda mudom xun ko‘rar,
Tushlarida el og‘zida mum ko‘rar.
Sho‘rlik elning farzandlari, botirlar,
Yurtin eshakdayin minib, kun ko‘rar.

Shoirlar she‘rlarin yuksak taxt deydi,
Lof urmagin, aytgin mudom naqd deydi.
Bo‘lar elning farzandlari, botirlar.
Tilin kesib tashlashsa ham, «haq» deydi.

Yurak kerak doim haqni demoqqa,
Dilim yondi — isi tegdi dimoqqa.
Sho‘rlik elning farzandlari, botirlar,
Og‘iz ochar faqat ovqat yemoqqa.

Kuysin dunyo — mudom o‘tga tashlaydi,
Asl erlar o‘tda cho‘g‘day yashnaydi.

Bo'lar elning farzandlari, botirlar,
Dushman ming bor o'ldirsa ham, yashaydi.

G'arib dunyo tasodifga to'ladir,
Tasodifga g'arib boshlar ko'nadir.
Sho'rlik elning farzandlari, botirlar,
O'zi bilmay tiriklikda o'ladir...

G'arib dunyo g'ariblikda ko'p xordir,
O'zi boqib — bovligani ag'yordir.
Sho'rlik elning farzandlari, botirlar,
Elin so'yib yemoqqa ham tayyordir.

Gap kelganda, gap qilichday jaranglar,
O'tkir so'zdan achishdimi yaranglar?
Ena elim farzandlari — botirlar,
Tog'dan turib endi yurtga qaranglar...

Elbek baxshi bu so'zlarni aytyapti, botirlar tog'dan turib
pastga qarayapti... Kim bilsin, nimani ko'rishyapti? Bu dunyodan
hamma istaganini ko'rib o'tadi, degan ekan yaxshilar!..

NAVOIY

Bir qarasam,
tashqarida kuz,
bir qarasam bahor,
goh yozda nozlanib yotar tashqari,
goh qorda qaltirab...

Har lahzada — shu.

Xullas, cheksiz Astrobod.

Bosh olib ketgim kelar!

Qayoqqa?
Boray desam,
Hirof yo‘q.
— Hirof!..
Chinqiraman betinim.
Dunyo sadosizdir!
Vohkim,
Astrobod bilan tugar,
Faqat Astrobod bilan tugar —
bu dunyoning barcha yo‘llari.

QUSH

Qachondir,
Bir paytlar, qushlik kezimda,
Tuzoqqa tushganim ayon esimda.
Tiriklik ko‘yida holim edi tang,
Arang qo‘nar edim,
Uchardim arang.
Ochlik yopishgandi — ilonday-jonga,
Shunda ko‘zim tushdi bir hovuch donga.
Sezsam ham bu donda makr borligin,
Qo‘ymadi aqldan ozgan borlig‘im —
Hayot xalqumimga kelgan u chog‘da,
Tuzoqqa tushdim!

Voh, dahshat tuzoqqa!

Qafasga tiqdilar so‘ngra...

Qafasda

Erkinlik yo‘q edi hatto nafasga.
Undan kecholmadim,
Garchi tor edi,
Ammo donu suvi mudom bor edi.
Keyin... esimda yo‘q keyinning ro‘yi,
O‘lib ketgandirman balki shu ko‘yi...

Insonlikdan esa etmayman ravish:
Qush bo'lgan zotlarga
Tanishdir,
Tanish...



Yuraginga kirgandim,
Chiqolmay qolib ketdim.
Bu dunyoning dardida
O'tinday yonib ketdim.
So'rama, bu dunyoda
Ro'zg'orim nechun zahmat —
Men yurakni piyoda
Kezdim — har lahzam hayrat.
Yo'l yurdim yuragimda —
Na manzilu, na rabot.
Dunyo meni xor etdi
Men uni etdim obod.
Ba'zan baxtni qumsadim:
Yonib sog'inch o'tida,
She'rlar yozib yig'ladim,
Yurakning bir chetida.
O'ylama, ketarida
Bir nima olib ketdi...
Kirganim yo'q dunyongga,
Yurakda qolib ketdim.



Ba'zan dunyo kabiman,
Ba'zan daryo kabiman.
Ba'zida zamindan yiroqman,
Ba'zida tuproqman, tuproqman.
Ba'zida har g'amda bordirman,

Ba'zida o'zimga dordirman.
Ba'zida beiqbol darddirman.
Ba'zida shamolda garddirman.
Ba'zida olovga o'xshayman,
Ba'zida birovga o'xshayman.
Ba'zida kul bosgan cho'g'dirman,
Ba'zida yo'qdirman, yo'qdirman.





SHAVKAT RAHMON

BAXT SO‘ZI

Baxtiyorman degan birgina so‘zni
aytish uchun kerak qancha kuch, chidam,
garchi baxt so‘zlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki tilning uchida.
Og‘ir botmasmikin
bu so‘z kimgadir,
tegib ketmasmikin oh-vohlariga,
qandoq bardosh berib yashayman keyin
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.
Avvalo, bu so‘zni o‘zgalar aytsin,
aytsinlar ko‘zlari quvonchga to‘lib.
Elining baxti uchun umrini tikkan
shoirlar aytmasin birinchi bo‘lib.
Bu so‘zni bir umr aytmay yashadim,
har shodlik kelganda yurdim sekinroq.
G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim,
Baxt so‘zin aytaman
eldan keyinroq.

VATAN TUYG‘USI

Hali biror ishni uddalamadim,
hali hech kimsani qilmadim rozi,
behuda o‘tibdi go‘zal umrining
qanchalab chiroyli bahori, yozi.

Men orom borligin unutib qo'ydim,
bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan,
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin
sochim oqarganda angladim, vatan!
Buncha kech angladim,
Nega buncha kech...
anglasam loqal o'ttiz yil avval,
loqal tug'ilmay turib anglasam...
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.
Hali asl Vatan bo'lmog'ing uchun
ovozi toshlarni yorar kuychirar,
qanchalab sehrigar shoirlar kerak,
qancha bilim kerak,
qancha kuch-chidam.
Umrin ko'chkilarday
jimjit, shiddatli,
butkul tinmoq uchun bir kun be malol
faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,
juda kamlik qilar yashamoq halol.
Naqadar kechikib angladim seni,
chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,
men qandoq chidayman bunday xo'rlikka,
men qandoq yotaman qa'ringda, vatan!

QARSAK NIMA O'ZI?

Qarsak nima o'zi?
Ikkita kaftning
orasidan potrab chiqadigan sas,
xohlasam chalaman, xohlasam yo'q,
qarsak menikidir, sizniki emas.
Qarsaklar hozircha qultiqlarimda
mitti mushuklarday mudraydi taftdan.
Axir o'zbekning bir o'jar shoiri

qarsak chalarmidi be ma'ni gapga.
Vijdonsiz shoirlar ko'paygan juda.
Yurakni so'z bilan yondiruvchi kam,
xalqimas,
shuhratni o'ylab so'ylagan
ahmoqqa bermayman qarsagimni ham.
Qarsak nima o'zi?
Arzimagan gap,
kerak bo'lganida topilar qoplab.
Titroqqa to'ldirib osmon gumbazin,
Qarsaklar chalishni bilaman boplab.
Hirromlik qilmasa notiq agarda,
yolg'on she'r aytishdan qaytmaydi shoir,
miltiq o'qlariday gumbir-gum qilib
havodan qarsaklar yasardim doim.
O'jar shoirlikni tashlab o'shal payt,
yepchil bir yugurdak kabi zamonda
qarsak chaladigan xizmatchi bo'lib,
ishga kirar edim O'zbekistonga.

XIRGOYI

Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz,
qachon tiz cho'kuvdik,
hamon izzamiz,
sirqirab og'riydi pishgan tizzamiz,
o'rindan ozgina tursak maylimu?
O'tganlar bari bek,
Qolgan javdirar,
Gardinda ko'rinmas gullar shaldirar,
Mehnatdan yorilgan qo'llar qaltirar,
o'z bekim yerida yursak maylimu?
Nasimlar gullamish ozod tog'larda
Ozodlik mujdasi so'l — sog'larda,

Bobolar qiynalib tikkan bog'larda
ag'anab bir xayol sursak maylimu?
Necha ming alloma, jo'mardlar o'lgan,
tafakkur sasigan, ruhlari so'lgan,
urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda
o'z bekim davlatin qursak maylimu?
Yuz ellik yildirki, mana shu holat,
hanuz davom etar makkor tijorat,
bilmadim, qayerdan ushbu jaholat?
Nega siz bo'lmaisiz sira xijolat?
Nega men so'rayman sizdan ijizat?!

O'GIT

Qo'rqqning o'ziga tik qara doim,
biror so'z de masdan uzoqroq qara,
titroq yetib borsin nigohlaringdan
yuzlab ajodlarning jon-joni qadar.
Yetsin, ajdodlari tirilsin qayta,
tirilsin, so'ng yana qaytadan o'lsin,
sening nigohlaringda ajdodlaringning
keskin nigohlari jamuljam bo'lsin.
Qo'rqq, lozim bo'lsa, qadaming bo'lar,
eng yaqin do'sting yo odamning bo'lar,
qo'rqqqa tik qara — odamiyatga
bu sening eng zarur yordaming bo'lar.
Qo'rqq oylab, yillab, hatto bir umr
ko'z-ko'zlab ming turlik suvratlarini,
eng nozik — eng ojiz joyingni ko'zlar,
ojiz joying esa kuraklaringdir.
Shu yorug' dunyoga bo'lib orzumand,
qoningdan baqirar qanchalab dohiy.
Qo'rqqqa ko'rsatma kuraklaringni,
Ko'ziga tik qara,
Tik qara doim.





AZIM SUYUN

USTOD VA SHOGIRD

Hikoyat

— Polvonlikning qirq sir-hunarini,
Mana, o'g'lim, o'rgatdim senga.
Endi borgil, hech qanday polvon
Tusha olmas sening oldingga!
Shogird ketdi elni oralab,
Oylar, yillar soy kabi oqdi.
Bir kun ustoz eshigin tirab
Kimdir tarang musht bilan qoqdi.
... Ostonada sersavlat shogird
Turar mag'rur uyub qovog'in.
Yerga qarab so'z boshladi xit:
— Nima bo'lar endi bu yog'i...
Yurtlar kezdin, uluslar kezdin,
Qolmadi men yiqmagan polvon.
Kuragini yerga tekkizdim,
Bo'lsa hamki, hatto arslon.
Va lekin tan bergan yo'q el-yurt,
Siz qolibsiz — yiqmasam bo'lmas.
Siz borsizki, dovrug'im bebut,
Siz borsizki, toleyim kulmas...
Ustoz polvon shogird polvonga
Bir so'z demay, chiqdi kiyinib.
Mardlar joyi — shonli maydonga

El-olomon keldi yig'ilib.
— Oyo, falak!..
Ustoz shogirdin
Bir zarb bilan urdi ko'tarib.
Qalqib tushdi dunyoi gardun,
Qulab tushdi ko'k to'ntarilib:
To'xtang! Aytgum bu ne sinoat:
Saqlab qo'ygan edi bus-butun
Qirq birinchi usulin ustod
Shunday nomard shogirdlar uchun!



UNUTILGAN TILLAR

Shumer tilimisiz, yo so'g'd, yo yunon,
Akkad, bobil, kushan, misr tili yo
Va yoki sanskrit, kxmer tili yo?..
Qaysi til bo'lmang siz... Sizni beomon
Unutgan, unutgan, unutgan Dunyo!

Siz so'zlay olmaysiz o'tmishingizdan,
Kelajak haqida... gap bo'lmog'i — dard.
Yorug' xabar kutmoq, yo olmoqlik pand —
Urf-odat, aqida — kechmishingizdan,
Avlodlar nazdida qur-quruq matlab!

Dengizning tubiga cho'kkan tog' kabi
Oq-qora dunyongiz birdek zimiston.
Yo'qlik yo'llarida erur benishon —
Xalqingizning orzu, omol, murodi.
Eh, ular hattoki biz uchun armon!

Hey, axir, siz bilan unutildi xalq,
Unutildi uning bo'stoni, cho'li.
Nahot qayrilmasdir qismatning qo'li,
Nahot unutilish dardi muhaqqaq,

Nahot zabun o'ldi xalqingiz yo'li?!
Kim erur gunohkor? Yo'q, yo'q, siz emas,
Rosti xalqingizning gunohkor o'zi.
Yulduz edi ko'zi, tig' edi so'zi...
Paytida o'yلامoq kerak edi, bas,
Paytida... muqaddas taqdiringizni!

Men olis asrdan so'zlasam bu kun:
Zor bo'lib jangari farzandlarga siz,
Qilichlar tig'idan unutildingiz!
Qalqmadi istiqbol janglari uchun
Ul nonko'r, beg'urur bandalaringiz!

Unutilgan tillar! Hey, yig'lang, kuling,
Erkalanib so'zlang, soching g'azablar,
O'rtaning, hayqiring, bering saboqlar,
Siz bilan tillashmoq istayman, biling!
Mayliga, ko'pirsin miya, asablar.

Daryo umri nigun — chidamoq vojib,
Bog'-rog'lar so'lgaydir — chidar odamzod,
Shaharlar o'lgaydir — chidar odamzod,
Tog'lar kunpayakun — chidamoq vojib,
Ona tili o'lsa — nadir odamzod?

Unutilgan tillar! Hey, so'nik tillar,
Bu dunyoga kelib, nadir kelganim,
Jahongashta bo'lib, nadir bilganim,
Unutilgan tillar! Hey, o'lik tillar,
Ona tilim o'lsa — xalqim o'lgani!

Tarixning yo'q safhalaridan bugun
Azob bilan g'amgin boqasiz go'ye —
Sarob yallig'imi va yoki ro'yo...
Garchi termulaman tunlari beun,
Qo'limdan kelmagay tiklamoq ammo!



XURSHID DAVRON

OTA QABRI

Bu rivoyat ko‘p qadim
Yillardan o‘tib kelur.
Ko‘p qadim gap bo‘lsayam,
Bizlarga ibrat bo‘lur.

...O‘limi yaqinlashib
Qolganini sezgan chol
Uch o‘g‘lini chaqirib,
To‘satdan berdi savol:

«O‘lsam nima qilasiz?»
O‘g‘illar jim turdilar
Va nihoyat: «Bilmaymiz!»
Deya javob berdilar.

Chol aytibdi: «Qayg‘urmang,
Siz ham bir kun o‘lasiz.
Xullas, o‘lsam, bittangiz
Merosxo‘rim bo‘lasiz.

Ko‘p talashib, tortishmang,
Topolmay tosh-tarozi.
Qozi qanday hal qilsa,
Bo‘ling shunga siz rozi».

Kuni yetgan ekan, chol
Aytibdi-yu, o'libdi.
Birpasda hovlisiyam
Odamlarga to'libdi.

O'g'illar ham «Taqdir» deb
Izn bermay firoqqa,
Otani o'sha kuni
Berishibdi tuproqqa.

Ertasi, kun chiqarkan
Xilqatlar yorishibdi.
Qozixona tomonga
Uch o'g'lon borishibdi.

Qozi debdi: «Bu ishni
Hal qilmoq juda dushvor.
Ammo bunday tashvishni
Hal qiluvchi bir chol bor.

Makoni g'or — tinch go'sha...
Chol ko'p gapni biladi.
U nima desa, o'sha
Mening hukmim bo'ladi.

Hayallamay uchovlon
Chol qoshiga boringiz.
Yechib berar: otaga
Merosxo'r qay biringiz!»

«Umid qilsang ushalgay!» —
Deb o'g'lonlar shu zamon,
Ketdilar chol yashagan
Qop-qorong'i g'or tomon.

Chol indamay tinglabdi
O'g'illarning so'zini,
So'ng esa baqiribdi
Olaytirib ko'zini:

— Evoh, ota degani
Nahot shundoq bo'ladi?
Merosxo'r kim? Aytmasdan
Axir, nega o'ladi?

Tuturiqsiz otadan
Ko'nglingizni uzingiz.
Hoziroq borib uning
Mozorini buzingiz!

So'ng qoshimga kelsangiz
Uchovingiz qaytadan,
Merosxo'r qay biringiz
Bo'lishingiz aytaman».

Ikki o'g'il yugurib
Ketishdi o'sha on,
Uchinchisi o'y surib
Yo'lga tushibdi hayron.

To'ng'ich bilan o'rtancha
Shovqin solib, mushtlashib,
Yetishibdi mozorga,
Ketmon-u bel ushlab.

Har ikkisi merosni
O'ylar edi dil xushlab.
Kutib opti ularni
Kenja o'g'il tig' ushlab.

«Qani otam qabriga
Tegib ko‘ring-chi!» — debdi.
«O‘ldiraman, buzilsa
Otamning tinchi!» — debdi.

Aytibdi: «Voz kechaman,
Meros uchun kuymayman.
Ammo otam qabrini
Buzishga yo‘l qo‘ymayman.

Qaytar dunyo deganlar,
Buzib ota qabrini,
Siz buzasiz aslida
Bolangizning qalbini».

Ikki o‘g‘il yana chol
Qoshiga qaytishibdi
Va bor gapni oqizmay,
Tomizmay aytishibdi.

Chol so‘zlabdi: «Otangiz
Maqsadini anglovdim,
Qabrini buzmoqniyam
Sinov uchun tanlovdim.

Siz ikki jirkanch o‘g‘il
Qaytmadingiz bu ishdan —
Eng og‘ir gunoh bo‘lmas
Ota qabrin buzishdan.

Yolg‘izgina ukangiz
Ketganlar ruhin xushlab,
Qabrni buzmoqqa yo‘l
Bermadi qilich ushlab.

Tig' ushladi yurtini
Saqlagan botir kabi.
Asrab or-u burdini,
Bulg'anmadi yosh qalbi!

Kimda yo'q or va nomus,
Tirigida o'ladi.
Hukmim shudir: Merosxo'r
Shu ukangiz bo'ladi!

Kimda yo'q or va nomus,
Mening so'zim tushunmas.
Merosxo'rlik faqat mulk
Yoki boylik uchunmas.

Bu bobolar, momolar
Qabrini tinch saqlashdir.
Ota tuzini oqlash,
Ona sutin oqlashdir.

Necha qadim ajdodlar
Xoki erur bu vatan.
Yurtini saqlolmas — ota
Qabrini saqlolmagan».

...Bizlar qaysi o'g'ilmiz,
Aytgin zamondosh o'rtoq,
To'ng'ichmi, o'rtanchami,
Yo kenjami — o'ylab boq?!

Garchi juda topqirmiz,
Garchi juda qaysarmiz,
O'ylab boqqil, bu yurtda
Merosxo'rmiz qaysimiz?!

Bobolar, momolardan
Qalbin uzib yurgan kim!
Botir Mahmud Tarobiy
Qabrin buzib yurgan kim?

«Merosxo‘r — men!» — deyishdan
Avval kelgin, javob ber:
Nega indamay turding
Zo‘rlanganda Ona yer?

Ey, sen nomard, ey, beburd,
Orolni nega so‘yding?
Nega yurtिंगni manqurt,
Ko‘rlarga berib qo‘yding?

...Ota, meni kechirgin,
Yo‘q, men qabring buzmadim —
Ammo sening yodingni
Yo‘qotganim sezmadim.

Sezmadim mozoringda
O‘chib qolgan sham kabi,
G‘ofil o‘ylar ichida
So‘nib qolganin qalvim.

...O‘g‘lim, bobong yonida
Yotsam, saqla tinchimni.
Sen meni qo‘riqlagin
Dast tutib qilichingni.

1989





YO‘LDOSH ESHBEK

ONA DUOSI

Safar qilsang oq yo‘l, bolam, omon yur,
Razildan qoch va oqillar tomon yur,
Ukalarining sog‘intirmay kelib tur,
Hech bo‘lmasa ikki enlik xat bit, bolam.

U yoqlik ham o‘zimizday xilma-xil,
Yaxshilikda hamma qo‘shni Normas bil,
Bir do‘stni deb bir do‘stingni sotmagil,
Do‘st orttir-u do‘stlaringni teng tut, bolam.

Ig‘vogarning quloqlari juda uzun,
Xiyonat bu — o‘ylamasdan aytgan so‘zing,
O‘ylaringni aytar ko‘zgu ikki ko‘zing,
Bad o‘ylarni boshginangdan itqit, bolam.

Dong‘i chiqmas bir yakka ot — yolg‘izlik,
O‘z juftidan judo qanot — yolg‘izlik,
Aytib bo‘lmas unsiz faryod — yolg‘izlik,
Yolg‘izlanma, yaxshilarni do‘st tut, bolam.

Safar qilsang, uydan ko‘ngling to‘q qilgin,
Lekin g‘iybat bor joylarda yo‘q bo‘lgin,
Shoir bo‘lsang, yomonlikka o‘q bo‘lgin,
Dardlilarning dillarini yorit, bolam.

Elga qalbing bergan qalbning buniyodisan,
Sen zahmatga egiz xalqning zuryodisan,
Pastlik qilma, Alpomishning avlodisan,
Muhtojlarning g‘amlarini arit, bolam.

Yo‘ling ochiq bo‘lar, bo‘lsang sen ochiq qo‘l,
Omin endi, polaponim, senga oq yo‘l,
Bir tilagim: qayda bo‘lsang, salomat bo‘l
Va uydagi erkinliging unut, bolam.

QO‘SHCHI QO‘SHIG‘I

Qadim ohanglarda

Qo‘sh hayda-yu, qo‘sh hayda,
Haydamasang, non qayda,
Irodangni qattiq qil,
Lekin yerni bo‘sh hayda.
Kimga ham yetar edi
Iltijo, unlarimiz.
Shu qo‘shiqqa suyanib,
O‘tmoqda kunlarimiz.
Ilmni xor etdilar
Bu jallodlar, kazzoblar.
Ilmga zor etdilar
Bolalarni azoblab.
Bechoralar uzdu-kun
Qo‘sh haydab, urug‘ ekar,
Ko‘zlariga yulduz, tun
Oftoblar botib ketar.
So‘ngsiz mehnat dalalar
Umidlarin parchinlar.
Oh, alpomish bolalar!
Oh, qizlar — oybarchinlar!

Dunyo ham ne uchundir
No'noq tabibga o'xshar.
Mehnat o'gli beilm
Boyvachchalar o'qishar.
Bu jallodlar, kazzoblar
Hammani xor etarlar.
Halollikni azoblab,
Haromni yor etarlar.
Qo'sh hayda-yu, qo'sh hayda,
Haydamasang, non qayda,
Irodangni qattiq qil,
Ho'kiz, yerni bo'sh hayda.
Men senga hasratimni
Aytayapman jimgina.
Tushunmaysan dardimni.
Sen nima, podshoh nima.
El-u yurtni ezishar
Saltanatning itlari.
Hammayoqda kezishar
Amirning yigitlari.
Orqasin zina etar,
Zina etar betlarin.
Ijaraga qo'yishar
Vijdon-u vujudlarin.
Hammasini qo'y kabi
Bo'g'zidan so'yar edim.
Bu itlarning ko'zini
Birma-bir o'yar edim.
Lekin uyda bir etak
Go'daklarim kutishar.
Ularga dardim ertak,
Tushunmas, qon yutishar.
Ko'rayapsan men ham bir
Nochorlikdan zadaman.

Ko'rayapsan men ham bir
O'jiz, tutqun bandaman.
Qattiq dardim pinjida
Iztirobga urdim to'sh.
Mening ko'nglim bo'sh juda,
Lekin shudgor kabi bo'sh.

Umidlarim sarg'ayib
Sitam o'tdi bu jondan.
Umidlarim don bo'lsin,
Un bo'lsin tor imkonda.

Qo'sh hayda-yu, qo'sh hayda,
Haydamasang, non qayda,
Irodangni qattiq qil,
Lekin yerni bo'sh hayda.





MUHAMMAD YUSUF

MEHR QOLUR

O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar ko'z yoshi samoni.
O'tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachug'da porlagan o'sha,
Iqboliga chorlagan o'sha,
Dunyoni tor aylagan o'sha,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Anor, sening yuzlaring suluv,
Xumor, sening ko'zlaring suluv,
Yodda qolmas so'zlaring suluv,
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Oqib ketdi suvlarda Tohir,
Zuhro yig'lab qoldi qon bag'ir,
Kelganda ham qiyomat oxir,
Mehr qolur, muhabbat qolur...

Nima deysan, ey, g'ayur inson?
G'iybatlaring qildi meni qon,
Sen ham bir kun o'tursan, inon,
Mehr qolur, muhabbat qolur!

MADHIYA

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
O'tmishni yod etay desang, xalq bo'l, elim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang, xalq bo'l, elim.

Ko'z yoshlaring aylansa ham dengizlarga,
Qo'rg'onlaring bermaganding Chingizlarga,
Ulug'bek ot qo'yib ketgan yulduzlarga
Yuzim bosib o'tay desang xalq bo'l, elim.

Go'ro'g'lilar qonga botsa G'irotlarda,
Ko'r o'g'illar yurtni sotsa xilvatlarda,
Boburlar bexabar yotsa Hirotlarda,
Borib men uyg'otay desang, xalq bo'l, elim.

Kuyib ketdi kitoblaring karvon-karvon,
Sinolaring malhamiga mushtoq-zorman,
Ko'ksingdagi besh asrlik kuyik armon —
Navoiyga yetay desang, xalq bo'l, elim.

Oq ko'nglingda orzularing turnaqator,
Ostonangda oftob chiqib, oftob botar,
Otameros erking senga bir iftixor —
Kunlaringga qaytay desang, xalq bo'l, elim!





MIRZO KENJABEK



O‘ZBEKISTON

Oppoq qayinlarga bo‘ldim oshino,
Sayr etdim men bahri jahannamlarni.
Mening she‘rlarimda tovlandi hatto
Beqaror Afrika savannalari.

Sahroi Kabirda yozsam ko‘nglimni,
Ruhimda chinorday turding ko‘karib.
G‘afur G‘ulom bo‘lib nechun men seni
Bir umr boshimda yurdim ko‘tarib? . .

Yerning har burchida odamlar goho
Menga o‘z tilimda so‘ylar, gumon yo‘q:
O‘zbek ko‘p butun Yer yuzida, ammo
Olamda boshqa hech O‘zbekiston yo‘q!
1978

O‘Q

Ulash boboga xat

Ishongil,
Yolg‘iz sen emassan, otam,
Vujuddagi o‘qdan qiynalib tolgan.
Ishongil,
Jismimda o‘q bor mening ham —
Ko‘krak qafasimni larzaga solgan.

Umrinni titratar chap yonimdagi
Bu o'q — tinch zamonning notinch sharpasi,
Seni qiynagandek vujudingdagi
Qirqinchi — qirg'inli yillar parchasi...

O'tasan aeroport nazoratidan,
Magnit jaranglaydi. Tugar saboting!
Mening ham bu og'riq asoratidan
Jaranglab o'tadi butun hayotim!

Sen tunlar eslaysan jang maydonida
Qandoq dahshatlarga tushganlaringni;
«Pul», «Aldov», «Xiyonat» — «Haq» nishonida
Men ko'zlab yashayman dushmanlarimni!

Ikkimiz ham shundoq bezovta, bedor,
Senda ham, menda ham tunlar orom yo'q:
Sening vujudingda otilgan o'q bor,
Mening vujudimda — otilajak o'q!..

1980

YUTQIZIQ

shoir Yo'ldosh Eshbekka

Qaytmang, qora xalqim — piyodalarim!
Hali madad kutmang kajrav farzindan.
Ruhim! Sen omon bo'!
Shohga qarama,
Shoh butkul bexabar mening tarzimdani!

Qora piyodalar!
Bormi omadim?
Ketdik! Raqib tomon safar qildim men.

Daf'atan... alamga chiday olmadim
Va Yo'ldosh Eshbekni xafa qildim men.

Senga nima bo'ldi,
Kajraftor farzin?!
Filim o'ldi mening, otim yot bo'ldi.
Endi kimga so'ylay holatim, arzim.
Qora shohim yana... mot bo'ldi.

Qoralar! Hamisha holingiz tangdir.
Bu ne qonuniyat? Ne sir-sinoat?!
Axir, maydon uzra safangiz tengdir,
Nahot, qoralarga mag'lublik — qismat?!

Nechun shoh deydilar o'zi bu toshni?
Mustaqil yo'li yo'q katak ustida!
Bu quruq, huquqsiz mitti yog'ochni
Yuz marta almashtir — naf yo'q dastidan!

Do'qladim raqibni, shoirmi, do'stni, —
O'zimning jonimga jafo qildim men.
Oqlarning safida yenggani uchun
Safdosh piyodani xafa qildim men.

O'rtoq, Yo'ldosh Eshbek!
Buncha kekkaymang!
Buncha yuragimni etmang poralar!
Men shunday bir san'at topaman, unda
Qoralar yengadi,
Faqat qoralar!...

1984







SIROJIDDIN SAYYID



EGASI BOR YURT

Ochsang davronlarning kitoblarini,
Qancha karvonlarning ertagi bordir.
Tingla donolarning xitoblarini:
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

Dunyoning manzil-u makonlarida
Bir ro'zg'or but bo'lsa, to'rttasi xordir.
Boqqil bul diyorning qo'rg'onlariga:
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

Bunda oy, quyoshdan chehralar olgan
O'g'il ham qizlarning erkasi bordir.
Har aytgan so'zidan Vatan tug'ilgan
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

Milyon o'zbeklarning umidlari jam
Milyon bu ovozlari — nomus ham ordir.
Chopdim she'rlarimni qo'ltiqlab men ham:
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni,
Qushning ham bek bilan bekasi bordir.
Singiljon, ekaver rayhonlaringni:
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

Umr gohi shirin, gohi talx bo'lgay,
Ulug' niyatlarga Olloh ham yordir:
Egasi bor yurtning eli xalq bo'lgay,
Egasi bor yurtning — ertasi bordir.

VATAN NADIR

Beshta bek-u beshta xoni birlashmagan,
Millat debon, Vatan debon sirlashmagan,
Bir qir bo'lib, bir yer bo'lib yer talashgan,
To'zg'ib yotgan xonavayron yurt edi bu.

Qondosh bo'lib qo'shilmagan, qoni ayro,
To'ralarin o'z elidan noni ayro,
Asrlarkim, yig'lab o'tdi ikki dayro,
Yarmi faryod, yarmi afg'on yurt edi bu.

Islomiyat dunyosin o'z mulkin qilgan,
Iymon birlan yer yuzini gulgun qilgan

Buxoriyni Buxorodan quvg'in qilgan,
Bir zo'rvon, bir notavon yurt edi bu.

Vatan nadir — anglang ranj-u ozoridan,
So'rang uni Mirzo Bobur mozoridan.
O'z zuryodin haydab gulshan gulzoridan,
Devonlarda bag'ri biron yurt edi bu.

Dilni o'rtar hamon g'am-u g'uratlari,
Yot ellarda qolib ketdi turbatlari,
«Fig'onkim...» deb o'tdi qancha Furqatlari,
Yorkentlarda ko'zi jayron yurt edi bu.

O'zi gulday o'g'lonlarin saylab berib,
Ro'yxatlarga nomlarini joylab berib,
Cho'lponlarin o'zi itday boylab berib,
Izlaridan o'zi giron yurt edi bu.

Kelgindi nom borki, bunga kelib ketgan,
Cho'ntaklari tillolarga to'lib ketgan,
Yana xoksor el ustidan kulib ketgan,
Mehmoni ko'p, mute mezbbon yurt edi bu.

Nadir millat qudratining tamadduni?
Amir Temur haykalidan so'rang buni.
Ot mindirib kim qaytardi yurtga uni?
Jahongiri bexonumon yurt edi bu.

Bir sultonni Xudo yurtga qarab bergay,
Olam ahli so'ng u yurtga taraf bergay,
Abadiyat qadar unga sharaf bergay,
Sharaf-shoni ro'yi jahon yurt bo'ldi bu.

1999

BIZ OVQATLANAMIZ

Hazilnamo

Odamzot nima yeydi?
Sut, qaymog‘u sabzavot.
Tuxumdan tortib qo‘-yu
Otgacha yer odamzot.

Ko‘katni-ku, qo‘ymaydi,
Tap o‘zini tashlaydi.
Yeb tugatar bir zumda
Yaylovlarni, dashtlarni.

Podalarni yeydi u,
Og‘zin ochib suyunar.
To‘g‘ri uning qorniga
Kirib kelar suruvlar.

Tovuqlar, o‘rdaklarni,
Bedana-yu qirg‘ovul,
G‘oz, kaklik — barchasini
U qiladi tanovul.

Parij qozonlarida
Qovrilar qurbaqalar.
Odamzot shuni ham yer,
Hattoki, sho‘rva qilar.

Dengiz-dengiz baliqni
Hazm qilib yurar shod.
Million yil ovqatlanib
Hech to‘ymadi odamzot!

Mamontlarni yedi u
Va yana ovqat deydi.
Bunday ishtaha bilan
Bir kun dunyoni yeydi.
O‘v, bolalar!
Mayli, Siz
Tashlab ko‘z qiringizni,
Ovqatingizni yeng-u,
Yemang bir-biringizni.

1986







ZULFIYA MO'MINOVA

AYOLGA BAXT BERING

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.
Ayolga baxt bering, saodat bering,
Gar ko'zlari kulib tursa-da,
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat
Oy yuzlari kulib tursa-da,
Ko'nglini ko'taring hech bo'lmaganda,
Qo'lini silashga sharofat toping.
Yig'lab turganida hech bo'lmaganda
Yoshini artishga muruvvat toping.
Nogoh erga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafolat toping.
Chaqaloq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping.
Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.
Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi nur toping, hidoyat toping.
Illohi baxt bergan ayol yonidan
Baxtiyor o'tmoqqa inoyat toping.

Illohi qalqonsiz, illoh qo‘rg‘onsiz,
G‘iybatlar yirtmasin ko‘ylakkinasin.
Illohi hushyorsiz, illoh bedorsiz,
Itlar tishlamasin yurakkinasin.
Ayolga baxt bering, saodat bering,
Tog‘ qimirlab, toshlar so‘zga kirsada,
Ayolga baxt bering, saodat bering,
Oltmishga kirsada, yuzga kirsada!

MUHABBAT BOR EDI, MUHABBAT MAVJUD

Jayronlar juftiga boqar javdirab,
Oqqush qanot qoqar oqqushni so‘rab,
Degayman oyatlar labimda titrab,
— Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.

Dunyo baxtli edi bizga qadar ham,
Albat baxtli bo‘lar bizdan keyin ham,
Abad yurak gullar ochilar tam-tam:
— Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.

Ko‘zimda yosh bilan kularman men ham,
Tilasam muhabbat tilarman men ham:
Ishq bilan dunyoni olarman men ham,
— Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.

Muhabbat poyida gul bo‘lajakmiz,
Yurak eshiginda qul bo‘lajakmiz,
Biz muhabbatlilar el bo‘lajakmiz,
— Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.

Kim aytar Majnun yo‘q, Layli bo‘lmagay,
Yig‘ladim, ko‘z yoshim ichdan so‘lmagay,
Muhabbat o‘lmagay, hargiz o‘lmagay:
— Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.





IQBOL MIRZO

AYTGIL, DO'STIM

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?
Don axtargan go'shtxo'rlarga em bo'ladi.
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?
Axir vatan bitta, sen ham bittadirsan,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,
Aytgil, do'stim, nima qildik vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo‘lmagaysan,
Erda qolsang, oftob bo‘lib kulmagaysan.
Qachon belni mahkam tortib bog‘lagaysan?
Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko‘rgin o‘zingga sen,
Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun?



Bu dunyoga kelganim —
U dunyoga safarim.
Bu dunyoni yengganim —
U dunyoda zafarim.
Qachonki, pishti loyim,
Visoldir muddaoyim.
Bu dunyoda xatoim —
U dunyoda zararim.
Ishq qadimiy masaladir:
Ham zahar, ham asaldir.
Ikkisiga kosa bir,
Asaldayin zaharim!
Gul ichidan topganim,
Ayoqlarin o‘pganim,
Man saningman, san manim,
Soching belga kamarim.
Berdim necha talofat,
Do‘stlar, qilmang malomat.
Bu dunyoda halovat —
U dunyoda xatarim.
Adashdimmi, toldimmi,
Zulmatlarga qoldimmi.

To'g'ri yo'lga sol endi,
Ey, ko'zlari axtarim!
Ey, go'zalim, yolg'izim,
Ey, quyoshim, qamarim,
Ey, yaqinim, olisim,
Ey, asalim, shakarim!
Ikki ko'zim — ikki sham,
Tun ado bo'lmas hecham.
Sen bilan kechgan kecham —
U dunyoda saharim!
Bu dunyoga kelganim —
U dunyoga safarim.
Bu dunyoni yengganim —
U dunyoda zafarim.







RUSTAM MUSURMON

VATANIM

Odam Otaning nasliga beshik bo'lgan tog'larim,
Momo Havoning vasliga oshiq bo'lgan bog'larim,
Avliyolar isi kelgan mo'tabar tuprog'larim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Jayhun!
Sayhun!
Shahr-u kentlarimga ona bo'lgan suvlarim,
Tuproqqal'a, Ayoza..., Elikqal'a bo'lgan suvlarim,
Dehqon yerda undirgan ilk dona bo'lgan suvlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Kunduz quyosh, kechalari oy bergan-ey, oy bergan,
Qirq kechalab qo'noq berib, to'y bergan-ey, to'y bergan,
Mehmonlarga uy to'ridan joy bergan-ey, joy bergan,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Qilich sermab, g'animlardan qasos olgan dashtlarim,
Yov boshini qonga to'lgan meshga solgan gashtlarim,
Yurakdagi g'ashlarim-ay, qonimdagi shashtlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Qoyalarning qoshlariga parchinlangan xatlarim,
Qablarning toshlariga bitilgan hikmatlarim,
Elni sevib, yurtni sevib yongan, aziz zotlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Cho'ponlarim boqib yurgan suruv-suruv qo'ylarim,
Yaylovlarda kishnab yurgan yilqilarim, toylarim,
Sagir sog'ib, o'rmak o'rgan suluvlarim — oylarim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Konlarga kon, gaz bergan ham, tilla bergan yerlarim,
Tut og'ochdan soz bergan ham, pilla bergan yerlarim,
Bahor, kuz-u yoz bergan ham, chilla bergan yerlarim,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Onajonim, o'ntadan ko'p bola tuqqan onam-a,
Halol ishlab, jo'jabirday jonni boqqan otam-a,
Yag'rinimga kiyikchaday minib olgan bolam-a,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.

Vatan uchun jon ayamas kishi bor-ey, kishi bor,
Yelkasiga qo'ngan Humo qushi bor-ey, qushi bor,
Mustaqillik degan buyuk ishi bor-ey, ishi bor,
Ohuvva-hay, Vatanim-ay,
Ohuvva-hay, Vatanim.







ULUG‘BEK HAMDAM
IJODKOR QISMATI

Og‘riqlarni unutmog uchun kuyladim.
Keyin esa...
Og‘riqlarni unutdim butkul —
Bo‘shliqlarga duch keldim birdan...

Ne qilarim bilmay qoldim so‘ng.
Kuylamoqni istardim, biroq
Yuraklarim huvillar edi...
Og‘riqlarni sog‘indim shunda
Jannatlarga talpingan qulday...

SAN‘AT . . .

san‘at o‘yin deding
faqat o‘yinmas
kulayotgan kishining achchiq ko‘z yoshi-yu,
o‘layotgan kishining tabassumiday
sirlidir san‘atning yuragi bilsang.

MUNOJOT

Yuraginga kirgil, umidim,
Ko‘zlarimda turgil, umidim.

Jarang bergil ovozinga sen,
Ham qayg‘uvash dil sozimga sen.

Yana meni tark etma, zinhor,
Yo‘qlik ichra g‘arq etma, zinhor.

Havo misol ko‘ksimga to‘lgil,
To tirikman, bag‘rimda bo‘lgil.

G‘aflat bosib uzoq ketmagil,
Meni tubsiz chohga itmagil.

Yolg‘izligim azobdir azob,
Sensiz yana aylaydir shitob.

Kel, jonimga berkitay seni,
Hayotimga ko‘rk etay seni.

Jismim bo‘ylab aylanib yurgil,
Zamin uzra quyoshday turgil.

Daraxtlar-ku shovullar sensiz
Faqat sensiz bezavq-u betus.

Sen bo‘lmasang, shohligim bekor,
Gunohlardan oqligim bekor.

Otam-onam, farzandim sensan,
Yo‘q, alar-la dilbandim sensan.

Sen borsanki, bog‘imda gul bor,
Yurakda qo‘r, bilakda kuch bor.

O‘lim-zulmat bossa bir kuni
Chiroq bo‘lib yoritgil tunni.

Qo‘llarimdan ushla bo‘l mahkam,
Manzil sari boshlagil ildam.

Borlig‘imda bo‘lgil hamisha
Ham Dunyo-yu uqbolda pesha.

Yuragimga kirgil, umidim,
Ko‘zlarimda turgil, umidim.



FAXRIYOR

KECHINMA



...the best way out is always through...

Robert Frost

(eng zo‘r chiqish yo‘li hamisha oradan o‘tadi

Robert Frost)

kim o‘ylab topgan ekan bu so‘zni
idishga o‘xshash bir so‘z
nimani joylasang joylashaverar

Bemor ishtahasiday,
Nozik emas so‘zning ta’bi u qadar

gunoh kabi umrni kechirmoqqa
dunyoga kelgan bandaning
o‘zga imkoni yo‘qdir

kechinma
umrni kechirmoq jarayonida
bandaning ko‘ngilga tukkan tuyg‘ulari
bo‘yindagi sirtmoq kabi tuyg‘uni
kechirganing evaziga
kim yechib oladi
bilmaysan
kechinma
sirtmoqday mahkumlik

o'qilmagan hukmning sharpasi
muqarrar qatl
Har kim bo'ynida
bir sirtmoq qatlni ko'tarib yurar
kechinma qilib

o'lim qo'rqinchlimas
faqat kechinmaga chidab bersang bas
faqat tasavvurga dosh bersang bo'ldi

kechinma
sirtmoq kabi
bu dunyoda yechilmas

kechkining
kechirgining qoldig'i
kechinma
13 raqami kabi
hech narsaga bo'linmas parchalanmas
uning
kattalashib borayotgan yaxlitligi
yurakni yoradi qoq o'rtasidan
hayot va mamotga tengdan nasiba
ulashadi odil kechinma

kechinma
ko'ngil hukmi

ado etilmaguncha
hukmdan qutulib bo'lmaydi.







HALIMA AHMEDOVA
«O‘G‘LIMGA DARSLIKLAR»
TURKUMIDAN

Tabiat darsi.

Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,
Tikilganim sari o‘sadi ko‘nglim.
Ularga quloq sol, ularni tushun,
Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.

Jajji yuragingda kimning sog‘inchi,
Sezaman, na qilay, boshqadir yo‘lim.
Senga dadangdan ham mehribon, yaqin,
Daraxtlar nomardlik qilmaydi, o‘g‘lim.

Jasur bo‘l, ko‘zingda ko‘rmay sira yosh,
Har qanday alamni ichingga yut jim.
Do‘stlardan azizroq, do‘stlardan baland,
Daraxtlar hech qachon sotmaydi, o‘g‘lim.

Qachondir barvasta yigit bo‘lursan,
Toleyingni ko‘rib to‘lgaydir ko‘nglim.
Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,
Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.

Adabiyot darsi.

Goho bo‘m-bo‘sh ko‘nglim oralab,
Sudraladi kuzak shamoli.

Sargʻaygan gul yaproqlariga,
Dilim chizar ishqning xayolin.

Toʻk ilmoqda tomchilab umr,
Malaklarning gul kosasidan.
Men tugʻilgan edim-ku bir kun,
Yomgʻirlarning sirli sasidan.

Daraxt edim, egilmas daraxt,
Oʻsardim nur emganim sayin.
Yashil dunyo sogʻinchlarida
Bir kun xazon boʻlmogʻim tayin.

Shoir edi bebosh yuragim,
Talashardi ruhim samo, yer.
Men sendayin paytimda, oʻgʻlim,
Dalalarga oʻrgatardim sheʼr...

Oʻgʻlim, sendan boshqa kimim bor,
Koʻzlaringda oqadi dilim.
Sheʼrday Majnun kunlarim haqqi,
Sen dunyoni shoir qil, oʻgʻlim!





ZEBO MIRZO

VATAN

Ehtimol, o'ldirar bir kuni ko'rlar,
Tomiringda olov qoning bo'laman.
Jonbaxsh quchog'ingga jimgina singgan
Bir halol qurboning bo'laman.

Otamday rozi bo'l, onamday sevgin,
Men ham senikiman, o'ksik qizingman.
Bag'ringda ming yillik toshlar to'sig'in
Yorib chiqayotgan bir ildizingman!

Hayqirmadim past-u balandda turib,
Ammo tola nurdek o'tarkan yodim,
Ko'kka olib uchar ozod Ruhimni
Ko'ksimni qilichday kesgan faryodim!..

Yashayman eng so'ngsiz dardlaring bilan,
Hech kim yuragimga bo'lolmas qozi!
Hali mudrab yotgan dunyolaringni
Uyg'otib uchadi ruhim ovozi!

Men kimman?
G'amingga g'amdosh bo'lmasam,
Og'rivasam yorug' qiynoqlaringdan?
Boshiga osmonni ko'targan tog'dek
O'sib chiqolmasam tuproqlaringdan?

Uzoq-uzoqlarga qarab angladim:
Qaydanman, qayonman va kimnikiman?
Ko'nglimniki edim va bir kun bildim,
Undan ham oldinroq Rabbimnikiman.

Hukm et, shahiding bo'lmog'im uchun
Jannat bog'larini tashlab kelurman.
Chorlasang, ortimdan butun bir xalqni
Hisor tog'laridek boshlab kelurman.

Sevmasang ham qattiq, sevaveraman,
Chidayman xorlarning ta'na toshiga.
Shunchaki o'lmayman,
Shuncha ishq bilan
Ko'tarib o'lurman seni boshimga!

Bir oz ko'nglimniki bo'ldim-o'ksigan,
Rabbimniki edim, shubhasiz, biroq
Borim-yo'g'im bilan seniki edim,
Seniki bo'lurman, ey Ona tuproq!..



MUNDARIJA

Aziz o'quvchilar!.....	3
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY	
Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi.....	6
Ikki emas, to'rt til lozim	18
Teyotr nadur?.....	20
ABDULLA AVLONIY	
«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» birinchi juzidan	
Biz, millat.....	24
Maktab haqida.....	25
«Maktab gulistoni» milliy she'rlari beshinchi juzidan	
Hijron so'zi.....	26
«Birinchi muallim» kitobidan	
To'g'riлик	27
«Ikkinchi muallim» kitobidan	
Yalg'on do'st.....	28
Chin do'st.....	28
Xurus ila bo'ri.....	29
Janjallikni zarari	30
«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobidan	
Vatanni suymak.....	30
«Advokatlik osonmi?»	31
Abdulla Avloniy maqolalaridan	
Kim nimani yaxshi ko'radi?.....	50
Sanoye Nafisa.....	52
AVAZ O'TAR	
Fidoiy xalqim o'sun tanda jonim.....	55
Topar erkan qachon, yorab, hayoti jovidon millat?	55
Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab	56
Ey ko'ngul, ishq ichra kirding jon kerakmasmu sanga?.....	56

Ko'nglum agar g'ayri sori maylu taqozo aylasa	57
Jonimg'a o't tushsun, agar g'ayrig'a parvo aylasa	58
Bo'lma, ey kimsa, hamisha bu sifat mag'ruri ganj.....	58
Ey do'stlar, dahr ahlig'a hamrohu hamdam bo'lmangiz.....	59
Husn ichra ul nigor parilar yagonasi.....	59
Birodarlar, jahonning yo'q vafosi.....	60
Bo'lubdur.....	61
Musamman.....	61
MUHAMMAD SHARIF SO'FIZODA	
O'qing, onalar	64
Gazeta to'g'risinda	65
Chust boyonlarining gapxonada bir-birlariga maqtanishganlari.....	66
ABDURAUFI FITRAT	
Abulfayzxon (<i>fojidan pardalar</i>).....	68
Fitrat she'riyatidan namunalar	
Bir oz kull.....	90
Mirrix yulduziga.....	90
O'qitg'uvchilar yurtiga	91
HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY	
Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari.....	92
Hamza she'riyatidan	
O'quv.....	104
Qalam	105
Ilm ista	106
Maktab	106
Dardiga darmon istamas.....	107
ABDULLA QODIRIY	
«Mehrobdan chayon» romanidan	
Chin o'rtoq.....	109
Mahmudning baxti.....	114
Jinlar bazmi.....	119
CHO'L PON	
«Kecha va kunduz» romanidan	125
Cho'lpon she'riyatidan	
Men shoirmi?.....	167
Yong'in	168
Vijdon erki	169
Qo'zg'alish.....	170
Somon parcha	170

Xazon.....	171
Bir tutam sochlaring mening qo'limda	172
Bahorni sog'indim	172
Kuz yomg'iri.....	173
G'AFUR G'ULOM	
Vaqt	174
Alisher.....	176
Sen yetim emassan.....	179
Sog'inish.....	184
OYBEK	
«Navoiy» romanidan	187
Oybek she'riyatidan namunalar	
Na'matak.....	216
Mashrab	217
ABDULLA QAHHOR	
Sorob (romandan boblar).....	219
Asror bobo.....	236
MAQSUD SHAYXZODA	
Toshkentnoma (<i> lirik poemadan parchalar </i>).....	239
Ayriliq.....	251
Qo'llar	252
She'r chin go'zallik singlisi ekan.....	253
HAMID OLIMJON	
G'azal.....	255
Ofeliyaning o'limi	256
O'rik gullaganda.....	258
Muqanna (<i> dramadan pardalar </i>).....	260
MIRTEMIR	
Surat (<i> lirik qissadan parchalar </i>).....	273
Onaginam.. ..	284
Bulut	286
Oqsoqol.....	287
Baliq ovi.....	288
Men seni.....	289
Kipriklarim.....	291
ZULFIYA	
Bahor keldi seni so'roqlab.....	292
O'g'lim, sira bo'lmaydi urush.....	295
Mushoira.....	297

Xotiram siniqlari.....	302
SHUHRAT	
Oltin zanglamas (<i>romandan bob</i>)	309
ASQAD MUXTOR	
To‘qqizinchi palata.....	317
Yillarim	329
El-yurt.....	330
SAID AHMAD	
«Ufq» romanidan.....	332
Qorako‘z majnun.....	339
ODIL YOQUBOV	
«Ulug‘bek xazinasi» romanidan	357
Muzqaymoq	368
PIRIMQUL QODIROV	
«Yulduzli tunlar» romanidan.....	388
ERKIN VOHIDOV	
O‘zbekim.....	406
Inson.....	410
Yaxshidir achchiq haqiqat.....	414
O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa.....	414
O‘lmas edi balki odamzod	415
Nega yapon yuz yil yashar.....	416
Dangasalar.....	417
Sergey Yesenin she‘riyati tarjimalaridan.....	418
Ona ibodati.....	418
It haqida doston.....	419
Shahinam, o mening Shahinam.....	420
Xurosonda bir darboza bor.....	421
ABDULLA ORIPOV	
Odamlar.....	423
«Bola edim».....	424
Dorboz.....	424
Temir odam.....	425
Tilla baliqcha.....	426
Onajon.....	427
Men anglab yetgan falsafa.....	431
Genetika	431
Sen bahorni sog‘inmadingmi	434
Men nechun sevaman O‘zbekistonni.....	435

«Munojot»ni tinglab	436
Birinchi muhabbatim	437
O'zbekiston.....	438
Sohibqiron (<i>besh pardali she'riy dramadan parcha</i>).....	442

**MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O'ZBEK
NASRIDAN NAMUNALAR**

O'LMAS UMARBEKOV

Sovg'a.....	458
-------------	-----

SHUKUR XOLMIRZAYEV

Qariya.....	467
-------------	-----

TOHIR MALIK

Shaytanat (<i>qissaning 4-kitobidan parcha</i>)	478
---	-----

O'TKIR HOSHIMOV

Dunyoning ishlari (<i>qissadan parchalar</i>).....	492
--	-----

MUROD MUHAMMAD DO'ST

Dasht-u dalalarda.....	507
------------------------	-----

TOG'AY MUROD

Ot kishnagan oqshom (<i>qissadan parchalar</i>)	521
---	-----

XURSHID DO'STMUHAMMAD

Bozor qushning qarg'ishi.....	535
-------------------------------	-----

ERKIN A'ZAMOV

Ko'k eshik.....	550
-----------------	-----

XAYRIDIN SULTONOV

«Yo, Jamshid!».....	559
---------------------	-----

SHOYIM BO'TAYEV

Hisomiddin al-Yog'iy (<i>tarixiy hikoya</i>).....	577
---	-----

NAZAR ESHONQUL

Maymun yetaklagan odam.....	593
-----------------------------	-----

NORMUROD NORQOBILOV

Olim o'g'il.....	606
------------------	-----

**MUSTAQIL MUTOLAA UCHUN O'ZBEK
SHE'RIYATIDAN NAMUNALAR**

OYDIN HOJIYEVA

Ona tilimga alyor.....	618
------------------------	-----

Istiqloq tarixning imtihonidir.....	620
-------------------------------------	-----

HALIMA XUDOYBERDIEVA

Dorilamon kunlar keldi	622
------------------------------	-----

«Uyg'on» so'zin aytgach	623
-------------------------------	-----

OMON MATJON

Navoiy g'azaliga muxammas.....	625
Ikki qal'a.....	626
Shoir bo'lmoqchiman, debsan.....	627

USMON AZIM

«Baxshiyona» turkumidan.....	630
Navoiy.....	634
Qush.....	635
«Yuragimga kirgandim».....	636
«Ba'zan dunyo kabiman».....	636

SHAVKAT RAHMON

Baxt so'zi.....	638
Vatan tuyg'usi.....	638
Qarsak nima o'zi?.....	639
Xirgoyi.....	640
O'git.....	641

AZIM SUYUN

Ustod va shogird.....	642
Unutilgan tillar.....	643

XURSHID DAVRON

Ota qabri.....	645
----------------	-----

YO'LDOSH ESHBEK

Ona duosi.....	651
Qo'shchi qo'shig'i.....	652

MUHAMMAD YUSUF

Mehr qolur.....	655
Madhiya.....	656

MIRZO KENJABEK

O'zbekiston.....	657
O'q.....	657
Yutqiziq.....	658

CIROJIDDIN SAYYID

Egasi bor yurt.....	660
Vatan nadir.....	661
Biz ovqatlanamiz (hazilnamo).....	663

ZULFIYA MO'MINOVA

Ayolga baxt bering.....	655
Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud.....	656

IQBOL MIRZO	
Aytgil, do‘stim.....	667
Bu dunyoga kelganim.....	658
RUSTAM MUSURMON	
Vatanim.....	670
ULUG‘BEK HAMDAM	
Ijodkor qismati	672
San‘at.....	672
Munajat.....	672
FAXRIYOR	
Kechinma.....	674
HALIMA AHMEDOVA	
«O‘g‘limga darsliklar» turkumidan	676
ZEBO MIRZO	
Vatan.....	678

ADABIYOT

(Majmua)

*Akademik litseylarning uchinchi bosqich
o'quvchilari uchun*

Ikkinchi nashri

*Muharrir **Shoyim Bo'tayev**
Badiiy muharrir **Uyg'un Solihov**
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**
Musahhiha **Mahmuda Usmonova***

Bosishga ruxsat etildi 25.06.2010. Bichimi 60×90¹/₁₆. Tayms AcademyUz garniturası. Shartlı b.t. 43,0. Nashr b.t. 42,79. Shartnoma № 66–2010 617 nusxada. Buyurtma № 649.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«Shoakbar» xususiy ilmiy ishlab chiqarish tijorat firmasi bosmaxonasida chop etildi. 100031, Toshkent, To'g'on Rejаметov ko'chasi, 1 a.

A 29 **Adabiyot:** (majmua): Akademik litseylari uchun o‘quv
qo‘ll./ R.M. Yusupaliyev; O‘zR oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi, O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. —T., Cho‘lpon
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010— 688 b.

BBK 83.3-(5Y)ya722